

QOZOQBOY YO‘LDOSH,
MUHAYYO YO‘LDOSH

O‘ZBEK
ADABIYOTINI O‘QITISH
METODIKASI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MUNAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QOZOQBOY YO'LDOSH, MUHAYYO YO'LDOSH

O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI

5120100 – *Filologiya va tillarni o'qitish*

fanining bo'yicha bakalavr yo'nalishi talabalari uchun darslik

G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2022

UO'K 37.02:821.512.133(075)

KBK 74.26 83.3(50')

Yo' 58


378
Yo'69

Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi [Matn] : darslik / Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 408 b.

“O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi” darsligi “Filologiya va tillarni o'qitish” ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavriyat yo'nalishidagi talabalarga mo'ljallangan. Unda adabiyot o'qitishning eng yangi va samarali usullaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan. Darslikda umumta'lim maktablari o'quvchilarini badiiy asar tahliliga o'rgatish orqali ularda mustaqil fikrlash hamda ezgu axloqiy sifatlar shakllantirilish kompetensiyalarini yuzaga keltirishga alohida e'tibor qaratilgan. Kitobda metodika sohasida milliy va chet el tajribalarining eng natijador usullaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.*



UO'K 37.02:821.512.133(075)
KBK 74.26 83.3(50')

© Q.Yo'ldosh, 2022
© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2022

ISBN 978-9943-8835-2-9

SO'ZBOSHI

Hugungi odam shiddatli va tinimsiz o'zgarishlar og'ushida yashaydi. Zamonaviy dunyoda muntazam o'zgarishlardan boshlab o'zgarimas narsa yo'q. Yer yuzi kichrayib, muloqot imkoniyatlari ortib, odamzodning o'zi yashaydigan makonga sig'may, lug'atli chegaralarni oshib o'tishga intiladigan davri boshlandi. Bunga ilk bor 1850-yilda Karl Marksning bir xatida tilga olinib, 1980-yilda mashhur Harvard universiteti professori Teodor Levittning bozorning globallashuvi haqidagi maqolasidan¹ keyin bashariyatning lug'atidan mustahkam o'rin olgan va hozirda qarini (sur'ati) tobora ortib borayotgan globallashuv jarayoni sabab bo'ldi. Yer ma'nosidagi lotincha "globus" so'zidan olingan globallashuv dunyo ahlini bir-biriga keskin yaqinlashtirdi. Bu jarayon turli etnoslarga xos universal, o'rtoq jihatlarning keng yo'yilishiga kuch berib, millatlardagi o'ziga xoslikni ta'minlaydigan sirlarini yemirib bormoqda.

Tabiiyki, globallashuv birinchi navbatda insonning tana istaklarini qondirishga xizmat qiladigan mayllarni universallashtirishga urinadi. Negaki odam, avvalo, biologik yaratiq. Iste'molchilik ehtiyoqlarining globallashuvi turli etnoslardagi o'ziga xoslikni siljitib, odamlarning intilishlarini bir xillashtirib bormoqda. Hozirda bu jarayon juda kuch olgan. Shunday sharoitda har bir millat ahlining ijtimoiylashgan va dunyo bilan integratsiyalashgan holda o'z qiyofasini saqlab qolishiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot tabiatiga ko'ra o'zida millatning etnik-estetik xotirasini, ma'naviy-axloqiy o'zligini saqlaydi. Shu bois jamiyat ma'naviyatining yuksalishida badiiy adabiyotning ulkan o'rni bor. O'zligini tanigan, o'zining milliy qiyofasini tashkil etgan aqliy, axloqiy, ruhoniy belgilardan xabardor shaxs tashqi ta'sirlar natijasida qiyofasini yo'qotib qo'ymaydi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim

¹ <https://www.nur.kz/1781425-cto-takoe-globalizacia-prostymi-slovami-ee-vlianie-i-vozledstviya.html>

tizimining barcha bosqichlarida adabiyot o'qitish shaxsdagi milliy o'zlikni saqlab qolishga qaratilishi kerak bo'ladi.

Har qanday shaxsning shakllanishida badiiy asar o'qishning beqiyos o'rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haq-u nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatleri qaror topadi. Odam o'zini o'zga bilan solishtira bilganda, o'zini boshqaning o'rniga qo'ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Buni fanda shaxsning ijtimoiylashuvi deydilar. Ijtimoiylashmagan odam hali individdir, xolos. Hali unda iste'molchilikdan o'zga biror ezgu sifat shakllanmagan bo'ladi. Badiiy asar va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam o'ziga yoqimli bo'lgan narsaning o'zgaga ham ma'qul bo'lishini, o'ziga yoqmaydigan tutum o'zgaga ham yoqmasligini bilib olsa, tuyib yetsa, unda odamiylik sifatleri tarkib topa boradi.

Qo'lingizdagi kitob o'zbek umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishni qay yo'sinda tashkil etsa, ko'proq samaraga erishish mumkinligi to'g'risida fikr yuritishga bag'ishlangan. Ayrim o'quvchilar: *"Men kelajakda adabiyotchi ham, shoir yoki yozuvchi ham, jurnalist ham bo'lmoqchi emasman. Men nima uchun "Adabiyot" darsligidagi materiallarni o'zlashtirishim, buning ustiga, badiiy asarlar ham o'qishim kerak?"* – degan o'yda yuradilar. Shuni bilish kerakki, umumta'lim maktablarida o'quvchilar biror mutaxassislikni egalashga emas, balki hayotda o'z o'rnini topib olishga tayyorlanadi. Har qanday kasbni egallab, mutaxassis bo'lish uchun o'rta maktabdan keyin yana o'qish kerak bo'ladi. Adabiyot esa, xuddi matematika, tarix, fizika va boshqa umumta'lim o'quv fanlari singari o'quvchining ijtimoiylashuvi, ya'ni jamiyatning boshqa a'zolari bilan uyg'unlashib, ular orasiga singishib, o'zining o'rnini topib ketishida muhim o'rin tutadi. Odam qachon ijtimoiylasha oladi? Qachonki, u jamiyatning boshqa a'zolariga yaqin saviyada fikrlay olsa, ular tuyadigan tuyg'ularni his qila bilsa va shu sababli boshqalarga xalaqit bermay yashaydigan bo'lsa.

Adabiyot saboqlari o'quvchilarda shunday ko'nikmalarni shakllantirish, ularni ko'pchilik odamga xos nozik va ingichka tuyg'ular-u sezimlardan xabardor qilishga yo'naltiradi. Adabiyot o'qituvchisi zimmasiga jamiyat tomonidan ana shu o'ta murakkab yumushni amalga oshirish yuklanadi. Bo'lajak o'qituvchining g'oyat mas'uli-

yatli shu vazifani kamroq kuch sarflab, ko'proq samaraga erishgan holda uddalashida qo'lingizdagi "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" bitigi qo'l keladi. Mualliflar bo'lajak filologlarning pedagogik faoliyatlari natijadorligini oshirish, o'quvchilarini badiiy asar o'qiydigan, o'qiganlarini tushunadigan, o'qib tushunganlari yuzasidan fikrlarini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri ifoda eta oladigan bolalar qilib shakllantirishlarida o'z tajribalari va dunyo miqyosidagi ilg'or metodist olimlarning ilmiy qarashlaridan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilishgan.

Globalashuv kechimi odamning turmush tarzi, ruhiyati va fikrlash yo'sinini ham o'zgartib yubordi. Oldinlari to'g'ri fikr faqat bittagina bo'ladi, degan qarash to'la hukmron edi. O'zinikiga o'xshamagan fikr egasi bo'lgan odamga yotsirab qaralardi. Endilikda haqiqatlar ko'p bo'lishi mumkinligi, bitta narsa-hodisa har kimga har xil ta'sir qilishi, har xil ko'rinishi va turlicha qabul qilinishi mumkinligi anglab yetilmoqda. Bugun fikrlash, did, e'tiqod plyuralizmi, xilma-xilligi yoyilib bormoqda. Bunday sharoitda odamdan o'z manfaatini unutmagan holda o'zgalar manfaatiga ham daxl qilmasdan yashay bilish talab etiladi. Bugungi adabiyot saboqlari jamiyatdagi odamlarni boricha qabul qiladigan, ularning erkiga zug'um o'tkazmaydigan ana shunday shaxsni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Albatta, yangi vaziyat, yangi sharoit adabiyot o'qitishni ham yanigicha yo'lga qo'yishni talab qiladi. Bugungi odam dunyodan uzilib yashay olmagan singari bugungi milliy ta'lim ham ochun o'qitish tajribasidagi yangiliklardan chetda turib, ko'zlagan natijalarga erisha olmaydi. Shularni hisobga olgan holda qo'lingizdagi kitobda dunyo adabiy ta'lim tajribasidagi bizning sharoitimizga to'g'ri keladigan yangiliklarni bugungi adabiyot o'qitish amaliyotiga qanday qo'llash kerakligiga ham to'xtalangan.

Bugunni bilish, ertaning yo'nalishlarini belgilash kechani yaxshilab o'zlashtirishdan boshlanadi. Shu sababli "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" kitobida adabiy tarbiyatanuv ilmi va amaliyoti bosib o'tgan yo'l imkon qadar batafsil tadqiq etilgan.

Adabiyot o'qitish amaliyotining ko'p asrlik tajribasi ko'rsatadiki, biror odamning ish tajribasini shundog'icha o'rganib va o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu tajribadagi asosiy g'oyalarnigina o'rganish va o'zlashtirish mumkin. Ushbu haqiqatdan kelib chiqqan holda

kitobda adabiy ta'lim borasida shu vaqtgacha erishilgan yutuqlardagi asosiy fikrlarni bayon qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Adabiyot saboqlaridagi eng birlamchi va bosh vazifa qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar o'quvchilarni badiiy asar o'qishga, o'qiganini tushunishga, tushungani to'g'risida fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Badiiy asar o'qish o'quvchilarga ikki jihatdan g'oyat muhim yumush sanaladi. Birinchidan, u odamni kitobga bog'lab qo'yadi: asar qahramonlari bilan keyin nima bo'lganini bilishga qiziqish uyg'otadi, hayotdagi turli-tuman kutilmagan voqea-hodisalar bilan tanishtiradiki, buning o'zi o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Bola o'ziga mutlaqo notanish odamlar, o'zgacha taqdirilar bilan tanishadi, yozuvchilar mahorati sabab ularga befarq bo'lolmaydi, yangi so'zlar o'rganadi va bundan zavq oladi. O'quvchilarga kitob tavsiya etishda ham ehtiyot zarur. Ba'zi o'qituvchilar ko'p o'qilgan, qayta-qayta muhokama qilingan asarlarni bolalarga tavsiya etgisi kelmaydi. Holbuki, o'qituvchiga chaynalgan bo'lib tuyulgan asar o'quvchi tomonidan endi ilk bor kashf etiladi. Kitob o'zgarmagani bilan uning iste'molchisi yangilanayotganini hisobga olish kerak. Badiiy asar o'qishning ahamiyatini ta'minlaydigan ikkinchi hal qiluvchi jihat: badiiy asar o'quvchida o'zganini his etish, birovga tuyg'udosh bo'lish fazilatini shakllantiradi. Bu ilmiy tilda empatiya deyiladi. Globallashib borayotgan hozirgi shoshqin dunyoda yashayotgan odamlarda aynan empatiya tuyg'usi kamayib bormoqdaki, badiiy kitob o'qish o'sha yetishmovchilikni to'ldirishga yordam bergan bo'lardi.

Ayrimlar kitob o'qishning o'rnini kino yoki teleko'rsatuv bilan qoplash mumkin, deb o'ylashadi. Holbuki, kino yoki teleko'rsatuv tomosha qilayotgan kishi boshqa bir odam bilan bo'layotgan voqealarning shunchaki kuzatuvchisi bo'ladi, xolos. Kitob o'qilganda esa kishi bir qancha harflar va bir hovuch tinish belgilari yordamida o'zi yangi bir dunyo yaratadi, unga turli odamlarni joylashtirib, ularga turlicha taqdirilar beradi. Odamning o'zi tomonidan harflar yordamida yaratilgan obrazlar qaysidir jihatlari bilan uni ma'lum darajada o'zgartiradi ham. Kitob odamga u yolg'iz emasligini, atrofidagilar ham o'zi kabi insonlar ekanini, ularni ham hisobga olib yashash kerakligini o'rgatadi. Bu holat odamni faqat o'zini o'ylaydigan va o'ziga mahliyo xudbin bo'lishdan saqlab qoladi.

Bundan o'ttiz yillargina oldin odamlar axborot yetishmasligidan

natibardi. Endilikda bashariyat axborot to'ri ichida qiynala boshladi. Hamma narsani bilguvchi Googlening xodimi Erik Shmidtning aytishicha, insoniyat o'zining ibtidosidan to 2003-yilgacha bo'lgan davrda qancha axborot dunyoga keltirgan bo'lsa, hozir har ikki kunda shuncha axborot yaratilayotgan ekan². Badiiy asar esa ham odamga axborot beradi, ham uni tirik odamlar, ularning taqdiri, ruhiy dunyosi, kechinmalari bilan tanishtiradi. Ko'rkam adabiyot bugunni ko'rganingiz singari juda uzoq o'tmishda yashab o'tgan va necha yuz yilliklardan so'ng keladigan odamlar bilan ham oshno qiladi.

Qo'lingizdagi kitob shu jarayonni qanday yo'l bilan oson va samarali amalga oshirish yo'llari to'g'risida fikr yuritadiki, u bo'lajak filolog-o'qituvchiga ham, amaliyotchi muallimga ham birday kerakdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Titoballashuv kechimi va milliy o'ziga xoslik munosabati to'g'risida g'aylab ko'ring.
2. Etnoslarning milliy qiyofasini saqlab qolishda ko'rkam adabiyotning o'rni haqida mulohaza yuriting.
3. Maktabda adabiyot o'quv fani o'tilishining ijtimoiy, ma'naviy sa-hablarni izohlang.
4. Ko'rkam adabiyot namunalarini o'qish insonga nima beradi, deb o'ylaysiz?

² <http://www.adme.ru/tvorchestvo-pisateli/pochemu-nashe-budushee-zavisit-ot-chiteniya-579605/>

***I-bo'lim. "O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH
METODIKASI" FANINING METODOLOGIK
ASOSLARI, SHAKLLANISH TARIXI VA
TARAQQIYOT BOSQICHLARI***

**"O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI"
FANINING XUSUSIYATLARI**

Reja:

1. Adabiyot o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti.
2. Adabiyot metodikasining pedagogik fanlar tizimidagi o'rni.
3. Adabiyot o'qitish metodikasi va unga yondosh fanlar.
4. Zamonaviy "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani taraqqiyotining yetakchi yo'nalishlari.

Tayanch tushunchalar:

Metodikaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti; adabiyot o'qitish va uning ahamiyati, adabiyot o'qitish metodikasi va pedagogika, psixologiya hamda filologik fanlar, badiiy adabiyot – ma'naviyat shakllantirish vositasi, adabiyot o'qitish samaradorligini oshirish.

Turli axborotlarning g'oyat ko'payishi va uni almashishni tezlashtiruvchi texnik vositalarning takomillashuvi tabiiy ravishda adabiyot o'qitishga tamomila yangicha yondashish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bugungi odam badiiy asarga o'tmishdagi kabi faqat ibrat, o'rnatqich yoxud ma'lumot oladigan manba sifatida qaramaydi. XXI asr kishisi uchun badiiy adabiyot ibrat va namuna ekanidan tashqari, zavq berish hamda tuyg'ularini noziklashtirish omili hamdir. Binobarin, maktabda adabiyotni o'qitish ham ana shu holatni ko'zda tutgan holda amalga oshirilishi lozim bo'ladi.

“O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” bo‘lajak filologlarni kelajakda shug‘ullanadigan ishlariga zamon talablari darajasida tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan fandır. Davr o‘zgarishi bilan badiiy adabiyotning mohiyati ham, adabiyotni o‘qitish usuli sifatida o‘qitish jarayonini uyushtirish yo‘sinlari ham jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Shu holatga tayyor bo‘lmagan mutaxassis ta‘lim muassasalarida samarali faoliyat ko‘rsata olmaydi. Bugungi adabiy ta‘limning tayanadigan ilmiy-nazariy asoslari o‘zgaradi, intiladigan mo‘ljali yangilandi. Demakki, “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani ham tubdan yangilanishi kerak bo‘ladi.

Ushbu davrlarda turli olimlar tomonidan metodika tushunchasiga turli xil ta‘riflar berilgan. Jumladan, rus metodist olimasi M. A. Ribnikova metodikani: “*Metodika vaqtni tejash, o‘quvchilar kuchini oqllona ishlatish, o‘quv materialidagi asosiy va bosh qismlarini ko‘ra olish ko‘nikmasi, jamoa mehnatini tashkil etish bitish san‘ati; o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlarini ko‘zda tutib ta‘sir ko‘rsatish tizimidir*”, – deya ta‘riflaydi.

Taniqli sovet metodisti V.V. Golubkov o‘zining “Adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligida: “*Barcha metodikalar, ular qaysi jangga tegishli ekanidan qat‘i nazar, shu jihatdan bir-birlariga o‘xshaydirlarki, ular prinsiplar, materiallar va o‘qituvchi metodlarini muayyan izchillikda tekshirishga qaratiladi hamda nima-ga, nimani va qanday degan uch asosiy savolga javob beradi*”, – deb yozadi.

Shulardan kelib chiqqan holda biz o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasiga “*Adabiyot metodikasi uzluksiz ta‘lim tizimining turli bosqichlarida adabiyot o‘qitishni tashkil etishga doir nima uchun, nima va qanday so‘roqlariga javob beradigan, oz intellektual kuch va pedagogik resurs sarflagan holda, ko‘proq o‘quv natijalarga erishish yo‘llari tadqiq etiladigan fandır*” yo‘lini ta‘rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

¹ Богданова О., Леонов С., Чертов В. Методика преподавания литературы. – Москва: АСАДЕМА, 2004. – С. 4.

² Голубков В. Методика преподавания литературы. – Москва: Госучпедиз, 1962. – С. 7.

Ushbu ta'rifda mazkur fanning maqsadi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani oldiga o'qituvchilarni kam intellektual kuch va pedagogik resurs sarflagan holda salmoqliroq didaktik natijaga erishish yo'llarini o'rgatish **maqsad** qilib qo'yilgan. Shuningdek, bu fan oldida amaldagi hamda bo'lajak o'qituvchilarni adabiyot o'qitishning eng yangi va samarali usullari, o'quvchilar bilan hamkorlik qilish yo'llari, ularda yuqori badiiy did shakllantirish metodlari bilan tanishtirish **vazifalari** turadi.

Har qanday fan kamida quyidagi uch shartga javob bera olsagina ilmning mustaqil tarmog'i sifatida mavjud bo'lishi belgilab qo'yilgan:

1. Boshqa fan tomonidan o'rganilmaydigan tadqiqot obyekti va predmeti borligi.

2. Ushbu tadqiqot predmetining katta ijtimoiy ahamiyatga egaligi.

3. Shu soha bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishning o'ziga xos ilmiy usullari mavjudligi.

Shu shartlar asosida yondashiladigan bo'lsa, o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanining ham faqat o'ziga tegishli obyekti va tekshirish predmeti borligini ko'rish mumkin bo'ladi. Ya'ni, adabiyot metodikasi fanining **obyekti** uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlaridagi adabiyot o'qitish jarayonidir. Uning **predmeti** esa adabiyot o'quv fanini o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish, bu kechimda o'quvchilar faolligini jonlantirish, ularni mustaqil fikrlashga odatlantirish yo'llarini topish va ularni o'qitish amaliyotiga tatbiq qilish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishning qonuniyatlarini tayin etish yo'llari bilan adabiyot o'qitish metodikasi fanidan bo'lak na adabiyot nazariyasi, na adabiyot tarixi, na adabiy sinchilik, na didaktika, na psixologiya, na umumiy pedagogika shug'ullanadi.

Adabiyot metodikasi adabiyot predmetini o'qitishning prinsiplari, metodlarini ishlab chiqish va tatbiq etish, sinf va undan tashqarida badiiy asar o'qishni uyushtirish yo'llari, sinfdan va maktabdan tashqarida adabiy tadbirlarni o'tkazish usullarini to-

pish, ta'lim oluvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, ularni badiiy asar o'qiydigan, tushunadigan va undan lazzatlanadigan qilib tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanadi. Boshqa biron fan ayni shu masalalar bilan shug'ullanmaydi.

Endi adabiyot o'qitilishi jarayonini tadqiq etishning jamiyat uchun ahamiyati bormi, degan savol to'g'risida fikrlashaylik. Ma'lumki, adabiyot – bu so'z san'ati. Binobarin, san'atni qo'lliplarga moslashtirish uning taraqqiyotiga to'siq bo'lishi mumkin. Ko'rkam adabiyotning har qanday holatga ham tatbiq qilish mumkin bo'ladigan universal jihatlari unchalar ko'p emas. Agar shunday jihatlari ko'p bo'lsa, badiiy adabiyot o'zining betakrorlik mohiyatini yo'qotgan bo'lardi. Lekin adabiyot o'qitish jarayoni adabiyotning o'zi bilan bir narsa emas. Adabiyot o'qitish kechimi ko'rkam adabiyotning o'zidan tamomila farq qilib, butunlay boshqa fanlar tizimiga kiradi. O'qitish jarayonining esa universal qonuniyatlarini topish mumkin va lozim.

Adabiyot o'qitishdagi eng ilg'or tajribalardagi yetakchi g'oyalarni umumlashtirmay, deyarli barcha darslarda qo'llash mumkin bo'ladigan universal qonuniyatlarni kashf etmay turib, yoshlarga adabiy tarbiya berish samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Adabiyot o'qitish metodikasi fani adabiy ta'lim kechimidagi ana shu eng umumiy jihatlarni o'rganadi, bu jarayonda qo'llaniladigan usullarni ishlab chiqadi. Ammo "universal qoidalar" tushunchasi har qanday holatda ham hech bir o'zgarishsiz qo'llayverish mumkin bo'lgan doimiy usullar tarzida qabul etilmasligi kerak. Negaki pedagogik amaliyotda yoppa universallik bo'lishi mumkin emas. Bu kechim mutlaqo betakror xususiyatlarga egadir. Bir o'qituvchi qo'llaganda ulkan samara bergan usul ikkinchi o'qituvchi uchun tamomila yaroqsiz bo'lishi mumkin va buni tabiiy hisoblash kerak.

Metodikadagi universalizm deyilganda, adabiy ta'lim jarayonida bir martadan ko'proq ishlatish mumkin bo'lgan didaktik usul va yechimlar nazarda tutiladi. Har bir o'qituvchining u yoxud bu pedagogik muammoni o'z tajribasi va bilimi darajasidan kelib chiqib, o'zicha hal etishini ko'zda tutgan holda muayyan umumiy qonuniyatlarni topish va ulardan foydalanib, adabiy ta'limni yaxshiroq yo'lga qo'yish mumkin.

Adabiyot o'qitish samaradorligini oshirish yuzasidan beriladigan tavsiyalar qat'iy retsept yo'sinida, bir marta o'rganib olib umr bo'yi qo'llayveradigan o'zgarmas statik usullar yig'masi emas. Tavsiya etiladigan ta'lim usullarining konseptual tabiatga ega, ayni vaqtda, har qanday masala echimining o'zgacha variantlari ham bo'lishi mumkinligini ko'zda tutadigan ilmiy-pedagogik qarashlar tizimi tarzida qabul etilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyot o'qitish metodikasining fan ekanligini ta'minlaydigan uchinchi shart uning o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlariga egaligidir. Chindan ham adabiy ta'lim jarayonini o'rganish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish yo'lida ilmiy izlanishlar olib borishning o'ziga xos tadqiqot metodlari mavjud. Kuzatish, og'zaki va yozma so'rov, tabiiy sinov, laboratoriya eksperimenti, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tadqiq etish, ularning og'zaki javoblarini tekshirish, olingan natijalarni solishtirish singari bir qator ilmiy-tadqiqot metodlari borki, ular ko'magida adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi pedagogika ilmining xususiy bir sohasi sifatida, birinchi navbatda, umumiy pedagogika bilan bog'liq. Shuningdek, adabiyot o'qitish metodikasining chiqargan xulosalari va bergan tavsiyalari o'quvchilarning fiziologik va ruhiy xususiyatlariga maksimal darajada mos kelishi kerak. Shuning uchun ham metodika ilmi umumiy psixologiya va yosh pedagogikasi singari fanlarda erishilgan so'nggi yutuqlarga tayan-gandagina samarali ish ko'ra oladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy sinchilik, tilshunoslik, tarix kabi fanlar bilan chambarchas aloqada bo'lgandagina kutilgan ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Negaki bu fan pedagogikaning xususiy bir tarmog'i bo'lishiga qaramay, unda inson hayoti va ruhiyatining so'z vositasida chizilgan manzaralari o'rganiladi. Binobarin, odam ruhiyati, jamiyat va so'z haqidagi haqiqatlar aks etadigan adabiyot, til, tarix singari fanlar uning uchun qon tomirlariday zarurdir.

Badiiy adabiyot o'z holicha inson hayotiga bevosita kerak emasday bo'lib tuyulsa-da, amalda odamning odamiylik darajasi-

ga yuksalishi uchun xizmat qiladigan ma'naviy sifatlarni shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyotda inson ruhiyatiga xos jihatlar aks etadi. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti ham, halokati ham undagi odamlarning ma'naviyatiga bog'liq. Binobarin, o'z ahliga ezgu ma'naviy sifatlarni qaror toptirmoqchi bo'lgan millatning ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishni imkon qadar samarali yo'sinda tashkil qilishga e'tibor qaratishi tabiiydir. Negaki adabiyot yordamida shakllantirilgan ma'naviy sifatlarni inson ruhiyatining ezgu bo'lishiga olib keladi. Ezgu ma'naviy fazilatlar esa shaxs takomilining, binobarin, jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Ayniqsa, inson omilining salmog'i ortib, bir odamning qo'lidan ulkan yaxshiliklar ham, tengsiz yovuzliklar ham kelishi mumkin bo'lgan hozirgi sharoit yoshlarga imkon qadar ko'proq ezgu sifatlarni singdirish kerakligini taqozo qiladi. Binobarin, adabiyot o'qitish metodikasi fanining predmeti muhim ijtimoiy salmoq kasb etadi. Badiiy asar o'qishga doimiy ehtiyoj, adabiyotdan xabardorlik, o'qiganlarni tushunish va tahlil qila olish hamda bu xususda istasa og'zaki, tilasa yozma shaklda ravon fikr bayon qila bilish millat ahlining intellektual yuksakligidan dalolat bo'ladi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishni samarali yo'lga qo'yish o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan didaktik tadbirgina bo'lib qolmay, jamiyat yoshlarida ezgu ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgani sababli umummilliy ahamiyatga ega yumush hamdir.

Ta'limning gumanitarlashishi, o'quv-tarbiya ishlarining gumanizatsiyalashuvi, o'qitishning differensiallashuvi, o'quv fanlarining integratsiyalashuvi, o'qitish saviyasining ham adabiyotshunoslik va pedagogika ilmining hozirgi darajasiga ko'tarilishi zarurligi adabiy ta'limga tamomila o'zgacha yondashish zaruriyatini tug'diradi.

Aytish kerakki, XX asrning 60-yillarida pedagogika ilmi va amaliyotida paydo bo'lgan konstruktiv pedagogika nazariyasi bugunga kelib, barcha predmetlar kabi adabiyot o'qitishning tabiatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning ruhiyatini o'zgartirib yubordi. Chunonchi, endi o'quvchiga ta'lim kechimining obyektigina

emas, balki uning ijrochisi – subyekti sifatida ham qaralmoqda. Demak, endi o'quvchi ham o'qiydi, ham o'zini o'zi o'qitadi. Bunday favqulodda yumushni tashkil etish yo'li bilan ham adabiyot o'qitish metodikasi shug'ullanishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, ta'lim nazariyasi va amaliyotiga “texnologik ta'lim” tushunchasining kirib kelishi adabiyot o'qitishda ham bir qator tub yangiliklar sodir bo'lishini taqozo etmoqda. “Pedagogik texnologiya” tushunchasiga ta'lim jarayonini isloh qilish va uni ma'lum darajada osonlashtirishga qaratilgan amaliyot tarzida qarash yoyilgan. Holbuki, bu tushunchani “pedagogik texnologiya” emas, balki “texnologik ta'lim” tarzida qo'llash hamda uning o'qitish sohasida tub inqilobiy o'zgarishlar qilish yo'li ekanligini tushunish lozim. Texnologik ta'lim o'qitish jarayoniga sanoatda tovar ishlab chiqarishning texnologiyasi joriy etilgani kabi o'qitish kechimini ham texnologik asosda yo'lga qo'yib, faqat qobiliyatli o'quvchilar emas, balki barcha bolalar ham dastur talablarini to'liq o'zlashtira oladigan tarzda tashkil etish mumkinligi adabiyot o'qitish metodikasi mutaxassislari oldiga ham jiddiy talablarni qo'yimoqda. Binobarin, bugungi kunda adabiyot o'qitish metodikasini o'rganayotgan bo'lajak filolog o'qituvchilar yaqin vaqtlarda, o'zining pedagogik iste'dodidan qat'i nazar, barcha o'quvchilarning yaxshi o'qiy olishlarini konveyer yo'sinida tashkil etish sirlarini egallab olishlari lozim bo'ladi. Endilikda faqat o'qituvchining talanti va mahorati emas, balki ta'lim mazmunining strukturasi hamda pedagogik muhit va sharoitning uyushtirilishi, ilg'or usullarni qo'llash orqali o'qitishning samaradorligini ta'minlashga erishish asosiy maqsad sifatida belgilanmoqda.

O'qitish jarayoniga “masofaviy pedagogika” tushunchasining kirib kelishi ham ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish borasida inqilobiy yangilanishlarni taqozo qilmoqda. Butun dunyo bo'ylab pandemiyaning tarqalishi anchadan buyon ayrim joylardagina qo'llanib kelayotgan masofaviy pedagogikaning ommaviy tus olib, keng yoyilishiga sabab bo'ldi.

Xullas, jamiyat hayotidagi bir qator evrilishlar adabiyot o'qitishning ham tubdan yangilanishini taqozo etmoqdadirki, qo'lingizdagi “O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi” kitobida ana

shu yangiliklarni ta'lim amaliyotiga qo'llash bo'yicha imkon darajasida fikr yuritiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" faniga berilgan ta'rifni izohlang.
2. "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi"ning mustaqil fan ekanini bildiradigan uch shartni sharhlang.
3. Badiiy asar o'qishning ijtimoiy ahamiyati nimada?
4. Adabiyot metodikasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. O'qitish kechimiga joriy qilinayotgan yangiliklar bilan "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani o'rtasidagi munosabatga to'xtaling.

TURKISTONDA ADABIYOT O'QITISH TARIXI

Reja:

1. Xalq pedagogikasida adabiy tarbiya muammolarining aks etishi.
2. Qadim Turkistonda adabiy tarbiyaning holati.
3. Islom va adabiy ta'lim.
4. Musulmon maktablarida adabiyot o'qitishning tashkil etilishi.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot o'qitish va tarbiya, adabiyot va axloq, adabiy tarbiya, folklor asarlarida adabiy ta'lim tasviri, folklor asarlari qahramonlari va adabiyot o'qitish, islom va adabiy ta'lim, Qur'on va adabiyot o'qitish, islom maktablarida adabiyot o'qitish, madrasalarda adabiyot o'qitish.

Ko'hna madaniyat egasi bo'lgan o'zbek xalqi juda qadim zamonlardan yoshlarni estetik jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga katta e'tibor berib kelgan. Xalqimiz orasida allalarning ko'pligi va ta'sirchanligi, xalq qo'shiqlarining o'ta nafis va jozibadorligi, Alpomish, Oybarchin, Go'ro'g'li, Kuntug'mish, Avaz, Ravshan va boshqa epos qahramonlarining yoppasiga savodxon kishilar sifatida tasvirlanishi, ertaklardagi obrazlarning ham o'qi-

miyali, ko'zamol kishilar tarzida ko'rsatilishi hayotiy asosga egadir.

O'zbek millatining ilmiy yo'sinda yozilmagan, ammo mutlaq ko'pchilik shaksiz amal qilib kelishi natijasida paydo bo'lgan xalq pedagogikasida fasohatga hamisha ustuvor ahamiyat berilgan. Xalqning: *“Yaxshi topib so'zlar, yomon qopib”, “Qiyshiq mo'ridan sassiq tutun chiqar”, “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, yomon gap bilan musulmon dinidan”, “Xom gap gapirib, pishgan gap eshitibdi”, “Ish bilganga bir tanga, gap bilganga o'n tanga”* singari maqol-u naqlari borligi, so'zni topib aytolgan kishi ayricha hurmatga egaligining o'ziyoq o'zbek xalqi qadim zamonlardan badiiy so'z tarbiyasiga alohida e'tibor qilganligini ko'rsatadi.

O'zbek o'z bolasiga hali juda yosh chog'idan boshlab so'zlash odobi haqida, albatta, ilk saboqni beradi. Millatimizga xos andishaning ildizi aynan o'tboshida adabiy ta'limning mavjud ekani-ga borib taqaladi. O'zbekda yomonlikni ifodalovchi so'zlar aytilmaydi, boshqalar bilishi lozim bo'lmagan narsa va holatlar pardaga o'rab ifodalaniladi. O'zbek xastalanganda ham “kasalman” demaydi, “tobim qochdi”, “mazam yo'q”, “tumovladim” deyish bilan kifoyalanadi. Ota-bobolar yomon so'z yomonlikning o'zini ham chaqiradi, deb hisoblashgan. Shuningdek, xalqimizda “o'ldi” so'zi ham “bandalikni bajardi”, “oramizdan ketdi”, “qaytish qildi”, “qazo qildi” tarzida “yumshatib” aytiladi.

O'zbek xalqida mahram qarindoshlikni bildiruvchi so'zlarning ham imkon qadar pardali ishlatilishiga harakat qilinadi. Chunonchi, ayol va erkakka o'z turmush yo'ldoshini “erim” yoki “xotinim” deyish ayb sanalgan. Ular suhbatdoshga o'z turmush yo'ldoshlari haqida “singlingiz” yoki “ukangiz”, “opang” yoki “akang”, “yangang” yoxud “pochchang” va hk. yo'sinda ma'lumot berishgan. Ilon, bo'ri, ayiq singari odamga zarar keltirishi mumkin bo'lgan jonliqlar nomi ham “qamchi”, “jondor” yoki “iytqush”, “polvon” shaklidagi majoziy tarzda ataladi. “Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi” maqoli bugungi ko'chma ma'nosiga asl ma'nosi orqali yetib kelgan. Ya'ni bo'rining nomini tilga olish uning kelib qolishiga sabab bo'lishi mumkin, deb qaral-

gan. Bu holni uzoq cho'l va tog' qishloqlarida yashovchi kishilar ruhiyatida hanuzgacha kuzatish mumkin. O'zbek xalqida og'zi botirlik, to'g'ri ekan deb hamma narsani aytaverish na aqllilik, na odamiylik, na jasurlik belgisi sanaladi. Shundan ko'rinadiki, xalqimizning pedagogik amaliyotida adabiy tarbiyaga katta o'rin ajratilgan.

Turkiy millatlar orasiga hali islom kirib kelmagan davrlarga tegishli O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridagi yozuvlar ham olis bobolarning so'z qudratidan nechog'lik mahorat bilan foydalana olishini ko'rsatuvchi ajoyib dalillardir. Jumladan, ularning ayrimlarida: "*Otam... hoqon... tizzasi borni tiz cho'ktirdi, boshi borni ta'zim qildirdi, davlati borni davlatsizlantirdi, hoqoni borni hoqonsizlantirdi*" yoki: "*Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastdan yer yorilmagan bo'lsa, davlating, shuhrating qayga ketdi, ey turk xalqi*" singari o'ta ta'sirchan ifodalar bor. So'zni shu qadar yuksak poetik tarzda ishlata bilish va uni toshga muhrlab qo'yish uchun millatda oldindan ulkan miqyosdagi adabiy tayyorgarlik bo'lishi talab etiladi. Demak, islomgacha bo'lgan davrda yashab o'tgan qadim bobolar ham badiiy so'zni qo'llash va his etish bo'yicha ma'lum tajribaga ega bo'lishgan.

Tarix tanig'lik (guvohlik) qiladiki, Turkiston, xususan, hozirgi O'zbekiston chegaralariga islom dini kirib kelgach, adabiy ta'lim juda tez ravnaq topdi. Bu davrda adabiyot o'qitishning rivojlanishiga ikki jihat jiddiy turtki berdi. Bir tomondan, islom dinini kengroq yoyish maqsadida yurtimizning har bir qishloq va shaharlarida ko'plab machitlar ochildi. Va har bir machit qoshida maktab tashkil etildi. O'lkada oldin maktablar va sal o'tib madrasalar yuzaga kelishi bilan o'quvchi va talabalarga "Qur'on" o'qitila boshlandi. Ilohiy asar ekanligidan tashqari, badiiy adabiyotning yuksak namunasi ham bo'lgan bu muqaddas kitobni to'g'ri o'qishning o'zi jiddiy bir ilm edi. Binobarin, islomni tanitish maqsadida uning o'rgatilishi o'z-o'zidan, tabiiy ravishda, adabiyot o'qitilishi ham bo'lib chiqdi. Ikkinchi tomondan, islom, avvalo, odob-axloqdir. Odob tushunchasi o'z ichiga, birinchi navbatda, so'zlashuv odobini oladi. Demak, islomga kirish, uning arkonlariga tayanib yashashning o'zi xalqimizga odob beribgina

qolmay, uni adabiyotga yaqinlashtiradi ham. Madrasa ta'limida fasohat ilmi, notiqlik san'ati maxsus o'rgatilishi ham millat adabiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. So'zning ilohiy qudratiga ishonch azal-azaldan qonida bo'lgan o'zbekda islom tufayli adabiy tarbiyalanish darajasi keskin ko'tarilgan.

Turkiston yerlariga islom kirib kelishi bilan o'z hukmronliklarini mafkuraviy jihatdan asoslash, islom dinini kengroq va teranroq yoyish maqsadida har bir qishloq va guzarda machit, uning qoshida maktab, o'rta va katta shaharlarda qator-qator madrasalar ochila boshladi. Keyinchalik qorixona, daloyilxonalar, qizlar uchun otinoyi maktablari tashkil etildi. Ana shu ilm dargohlarining asosiy mashg'uloti talabalarni "Qur'on"ga tayangan holda chiroyli, ta'sirchan va ishontiradigan yo'sinda so'zlay oladigan qilib tarbiyalash edi.

O'sha davrdagi maktablar asosiy maqsadi bo'lmish islom dinini targ'ib etishga Qur'onni o'rgatish orqaligina erishishi mumkin edi. Islomning bosh kitobi bo'lmish muqaddas "Qur'on"dagi haq yo'lni izlab, o'zidan kechib Yaratgani sari talpingan valiy shaxslarning g'aroyib taqdirleri, munavvar iztiroblari aks etgan sanoqsiz rivoyatlar yuksak darajadagi adabiyot namunalari hamdir. Bu rivoyatlar tasviridagi kuchli badiiylik ularning zamiridagi teran ma'nolarni to'laroq anglatishga xizmat qilardi. Binobarin, dinni targ'ib etish badiiy adabiyotni o'rganish orqali amalga oshirilishi lozim bo'ldi.

Qur'oni Karimdagi yashirin ma'juziy ma'noni topish, undagi qator adabiy syujetlarni tushuntirish uchun mukammal adabiy ta'lim yo'lga qo'yilishi kerak bo'ldi. Bu to'g'rida milliy metodika tarixi bilan chuqur shug'ullangan metodist olim professor U.Dolimov yozadi: *"Islom e'tiqodining bosh kitobi "Qur'oni karim" badiiyatning ham go'zal namunasi. Murg'ak bolalikdan bu muqaddas kitobning suralari, oyatlari ohangi, ularda saj' san'atidan keng foydalanganligi o'quvchilarning shuurini, qalblarini rom etgan. Sharq adabiyotida she'riyatning sarbaland martabasi shundan bo'lsa, ajab emas"*⁵.

⁵ Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2007. 46-bet.

Islomiy ma'naviyatning asosini tashkil etgan hadislarini o'rganish va uni ilm darajasida yuksaltirish o'lkamizda keng yo'lga qo'yilgan edi. At-Termiziy, Al-Buxoriy singari nechalab mashhur muhaddislarning meroslari adabiy manbalar sifatida ham alohida qimmatga ega edilar va uni o'rgatishning metodikasi tadqiq etilishi lozim edi. Madrasalarda maxsus "*tadris*" – metodika darslari o'qitilgani shu bilan izohlanardi. To'g'ri, u paytlardagi adabiyot o'qitish metodikasi bugun biz o'rganayotgan adabiyot o'qitish metodikasidan tamomila farq qilardi.

IX asrning buyuk qomusiy olimi Abu Nasr Forobiyning "She'r san'ati" nomli asari borligi va unda she'riyat qoidalari-ning izohlanishiyoq o'lkamizda ko'p zamonlardan beri adabiyot o'qitilib kelinayotgani va ayrim olimlar uni o'rgatishning yo'llarini ishlab chiqishga uringanliklarini ko'rsatadi. Forobiy "Ixso ul-ulum" ("Ilmlarning kelib chiqishi") risolasida badiiy nutqning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor berib, badiiy asarni ifodali o'qish va hikoya qilib berishga san'at sifatida yondashadi. O'qish va notiqlik san'atini chuqur egallagan shaxslar donishmandlar bilan tenglashtirilib, "hakim" deyiladi.

Qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Ibn Sino badiiy asar-ning inson ruhiyatiga ta'siri haqida gapirib, ko'rkam bitik o'qilganda ko'ngil kishilari quvonch va kulgu yoki g'amginlik va yig'iga moyil bo'lishini, ayniqsa, judolik va hajr tasvirlangan asarlar o'qilganda bu holatlar kuchayishini ta'kidlaydiki, bu hol o'lkada adabiy ta'lim darajasidan darak beradi. Shuningdek, uning tibbiyotga bag'ishlangan ayrim asarlari boshdan oyoq she'r bilan bitilganligi o'sha davrda adabiy tarbiya va uning naqadar yuksak bo'lganidan dalolatdir.

XIII asrda Marg'ilonda tug'ilib o'sib, o'lkamizning madaniyat va ilm markazlari bo'lmish shaharlarda yashab muddarislik qilgan Burhoniddin Marg'inoniyning 53 kitobdan iborat "Hidoya" asari bugungi kunda ham musulmon dunyosida fiqhning eng ishonchli manbalaridan hisoblanadi. O'sha asarda muallif ta'limni tashkil etish masalasiga to'xtalib, talaba o'tilgan darslarni puxta o'zlashtirishi uchun bugun o'tilganini olti marta, kecha o'tilganini besh marta, kechadan oldingi kuni o'tilganini to'rt marta, uch kun oldin o'tilganini uch marta, to'rt kun oldin o'tilganini ikki marta, besh

kun oldin o'tilganini bir marta takrorlab borishi shart deb yozadi. Shunday tizimli talablarning qo'yilishining o'zi olimda adabiyot o'qitish bo'yicha jiddiy ilmiy qarash mavjudligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy barkamol shaxs va daho adib sifatida adabiyot o'qitilishiga jiddiy e'tibor bermog'i tabiiy edi. Shoirning "Mahbub ul-qulub" asaridagi: "*Shogird agar shayxulislom, agar qozidur, Agar ustoz andin rozi ersa, Tengri rozidur*" misralarida ustozga bo'lgan yuksak turkona ehtirom aks etgan. Shuningdek, mutafakkirning: "*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, To'lamak mumkin emas, aning haqin yuz ganj ila*" tarzidagi hikmati ham ilm va olimning yuksak martabasi e'tirofi hisoblanadi.

Hazrat Navoiy "Nazm ul-javohir" asarining 203-ruboiysida Hazrat Alining: "*Laysa li-sulton il-olimi zavolun*" (Ilmi shohga zavol yo'qdir), – degan fikriga tayanib, shunday yozadi:

Har kimdakim, ilm qiylu qoli⁶ bo'lmas,
Ilm ahlig'a so'z derg'a majoli bo'lmas,

Olim mulkinging intiqoli⁷ bo'lmas,
Shah olim agar bo'lsa, zavoli bo'lmas.

Shu asarning 211-ruboiysida hazrat Ali (r.a.)ning: "*Majlis ul-ilmi ravzat ul-jannati*" (Ilm majlisi – jannat bog'iga o'xshaydi) tarzidagi hikmatli so'zlaridan ilhomlanib yozadi:

Kim olim esa, nuqtada⁸ barhaq⁹ de oni,
Gar bazm tuzar, bihishti¹⁰ mutlaq de oni,
Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa ujmaq¹¹ de oni.

"Lisonut-tayr"dan olingan quyidagi misralarda esa, Navoiy maktab o'quvchisi ekanida barcha bolalar "Qur'on"ni o'rganish

⁶ Qiylu qol – gap va so'z.

⁷ Intiqol – ko'chish, aylanish, o'tish, o'lish, yo'qolish.

⁸ Nuqta – ma'noli so'z, chiroyli so'z.

⁹ Barhaq – chin, to'g'ri, haq.

¹⁰ Bihisht – jannat.

¹¹ Ujmaq – jannat.

yo'ldir emgak chekkanlari, xotirani o'tkirlash va savodni ravon qilish maqsadida she'r o'qitilgani, ayrim bolalar nasr bilan ham tanishganliklari, ya'ni Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini asosiy saboq kitoblari sifatida o'rganganliklarini eslab yozadi:

Yodimda bundoq kelur bu mojaro,
Kim tufuliyat chog'i maktab aro.

Kim chekar aftol marhumi zabun,
Har tarafdin bir sabaq zabtig'a un.

Emganurlar chun saboq ozoridin,
Yo "Kalamullah"ning takroridin.

Istabon tashxizi xotir ustod,
Nazm o'quturkim ravon bo'lsin savod.

Nasrdin ba'zi o'qur ham doston,
Bu "Guliston" yanglig', ul "Bo'ston".

To'g'ri, o'rta asrlardagi o'quv yurtlarida o'tilgan adabiyot darslari hozirgi ta'lim tizimidagi kabi umumiy dastur yoki qat'iy rejaga tayanilgan holda olib borilmagan. Lekin har bir bosqich uchun maxsus darsliklar bo'lgan. Har bir o'qituvchi o'z dasturi, rejasi va o'zi tanlagan adabiyotlar asosida mashg'ulot uyushtirgani holda mavjud o'qitish an'analariga qat'iy rioya etilgan. Ma'lumki, Kunchiqish yurtlarida an'ana har qanday qonundan kuchliroq sanaladi. O'rgatiladigan adabiyotlar o'qituvchining inyyorgarlik darajasi hamda talabalarning imkoniyatlariga ko'ra tanlangan. Maktablarda Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston" asarlariga qo'shimcha ravishda Yassaviy, Hofiz, Navoiy, Olloyorning badiiy yetuk, tili sodda asarlari ham o'rgatilgan.

Bu haqda adabiyotshunos U.Dolimov shunday yozadi: "*Abjaddan keyin "haftiyak" o'rgatilgan. "Haftiyak"da 13-14 kichik-kichik suralar jamlangan bo'lib, "Qur'on"ni o'qish va yodlashdagi bir bosqichdir. Bunda muallim "Qur'on" suralari-*

dagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga, baʼzi bir yodlash qobiliyati kuchli boʻlgan, chiroyli tovushga ega boʻlgan oʻquvchilarni qiroat bilan taʼsirli oʻqishga oʻrgatgan.

Maʼlumki, yosh bolalarda xotira, yodlash qobiliyati kuchli boʻladi. Shuning uchun “Haftiyak”ni hijjalab oʻqishdan koʻra qiroat bilan oʻqiydigan domla yoki qorilardan eshitib yodlash ancha osondir. Koʻp maktablarda muallimlar “Haftiyak”dagi baʼzi suralarni “Qurʻon”ni oʻqish davomida oʻrgatadilar, aslida “Haftiyak” “Qurʻon”ning yettidan bir qismidir. Umuman, “Qurʻon”dan suralar yod olish oʻquv jarayonining hamma bosqichlarida faol davom etadi.

“Haftiyak” va “Qurʻon”dan keyin “Chor kitob” oʻqitilgan. “Chor kitob” X–XII asrlarda islom dini ruknlari fors tilida nazm va nasrda koʻproq Imom Ismoil al-Buxoriy, Fariddin Attorning soʻfiyona asarlari asosida tuzilgan. Unda diniy aqidalar qisqa-qisqa savol-javob tarzida berilgan va oʻquvchilar javoblarni yod olishgan. Bu kitobni oʻrganishdan asosiy maqsad musulmonchilik qonun-qoidalarini puxta egallash, namoz oʻqish, tahorat qilish, zakot berish, roʻza tutish va shariatning boshqa qoidalarini puxta egallash va amal qilishga oʻrgatish edi...

“Chor kitob”ni xatmi kutub qilgandan keyin oʻquvchi ibtidoiy maktabning soʻnggi bosqichiga – forsiy va turkiy adabiyotning buyuk namoyandarlari: Xoʻja Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Soʻfi Olloyor asarlarini oʻqishga oʻtadi. Ushbu bosqichda bolalar goʻzal soʻz sanʼatining sirli olamiga qadam qoʻyadilar, koʻplab murgʻak qalblar sheʼriyatga bir umr oshno boʻlib qoladi. Ular Navoiy va Hofiz gʻazallarining, Bedil ruboiylarining falsafiy mohiyatini, Mashrab va Soʻfi Olloyor sheʼriyatidagi ishqi zohiriy va ishqi botiniy masalalarini tushunib yetmasalar-da, sheʼriyatdagi goʻzallikni, musiqiylikni qalban his qiladilar. ...Ibtidoiy maktablarda boshlangan sheʼriyat darslari madrasalarda navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, bedilxonliklarda davom etadi. Musulmon Sharqida sheʼriyat maktab orqali xalq ommasi ichiga kirib borgan va ogʻzaki hamda yozma nutqini goʻzallashtirgan”¹².

¹² Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiot oʻqitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2007. 45-46-betlar.

Turkistonda oliy adabiy ta'lim ham o'ziga xos tarzda yo'lga qo'yilgan. Bu haqda professor U.Dolimov o'z doktorlik dissertatsiyasida shunday yozadi: *"Maktablarda tushunmasdan quruq yodlash asosiy o'rinni egallagan bo'lsa ("katta bo'lganda tushunib oladi" degan fikr odat tusiga kirgan edi), madrasalarda esa o'qilgan asarni chuqur tahlil qilish, idrok qilish, boshqa asarlarga muqoyasa qilish, mantiqiy fikrlash birinchi o'ringa ko'tariladi"*¹³.

Ko'rinadiki, Turkiston o'lkasi, xususan, bugungi O'zbekistonning barcha shahar-qishloqlarida juda uzoq davrlardanoq adabiyot o'qitishga e'tibor berib kelingan. Bu turli davrlarda o'ziga xos yo'sinda tashkil etilgan. Adabiy ta'lim yillar o'tishi bilan takomillashtirilib, davr va jamiyat talabiga moslashtirib borilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq pedagogikasi namunalarida adabiy ta'limga doir qanday qarashlar mavjudligini bilasiz?
2. Turkistonda islomgacha bo'lgan davrdagi adabiy tarbiya to'g'risida axborot bering.
3. Islom yoyilgandan so'ng Turkistonda adabiy ta'lim rivojiga sabab bo'lgan omillarga to'xtaling.
4. Eski maktab va madrasalarda adabiyot o'qitish qanday yo'lga qo'yilgan edi?

O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING PAYDO BO'LISHI VA O'SISH BOSQICHLARI

Reja:

1. O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti va ta'lim.
2. Jadidchilik va adabiy ta'lim.
3. Sovet maktablaridagi adabiyot o'qitish.
4. Egamanlik davridagi adabiy ta'limga xos yetakchi belgilar.

¹³ Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-mazariy hamda amaliy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2007. 65-bet.

Tayanch tushunchalar:

Jamiyat va adabiy ta'lim, ma'rifatchilik adabiyoti, jadidchilik va adabiy ta'lim, adabiyot o'qitish va mafkura, adabiyot o'qitish va siyosat, adabiyot va ma'naviyat, adabiy ta'lim va shaxs kamoloti, adabiy ta'lim mazmuni, adabiyot o'qitishning yangilanishi.

O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti va ta'lim. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston o'lkasi mamlakatlarida iqtisodiy, siyosiy, harbiy tanazzul avj nuqtaga chiqdi. Uch xonlikka bo'linib ketgan qadim Turkiston aholisi dunyodagi rivojlangan mamlakatlardan uzilgan holda hayot kechirardi. Xonliklardagi ijtimoiy tartibot ko'p asr oldingi o'lchovlarga mos bo'lib, yangi davr talablariga mutlaqo javob bermasdi. Ijtimoiy hayotdagi qoloqlik, siyosiy tuzumning noboplighi o'lka aholisining turmush yo'siniga ham keskin salbiy ta'sir ko'rsatib, xalq ma'rifatsizlik, qashshoqlik iskanjasida qolgandi. Xalqning ma'rifiy darajasini ko'tarish, unga insoniy erk berish, hayotini yengillatish singari masalalar hukmdorlarni mutlaqo bezovta qilmas, ular mavjud turmush yo'sinini o'zgartirishni o'ylab ham ko'rmasdilar. Buning o'rniga har uch xonlik ham o'z chegaralarini qo'shnisi hisobiga kengaytirish, "begona mamlakat"ni talash yo'li bilan xazinani to'ldirish payida edi.

Ulug' maqsadning yo'qligi, oqibatsizlik, toro'ylik, bugun bilangina yashash hukmdorlarni oyoqning tagidan narini ko'rolmaydigan holatga keltirib qo'ygandi. Shu holiga har bir xon o'zini qudratli hukmdor deb bilar, qo'shnisini o'z yo'rig'iga solish da'vosida bo'lardi. Turkiston hukmdorlari o'rtasidagi bu kayfiyat bosqinchi mamlakatlarga juda qo'l keldi. Bosqinchilardan eng yirigi, yirtqichi va "dunyo mirshabi" nomini olgan Rossiya bir zamonlar shonli saltanatlar qurib, dunyo so'ragan turkistonlik hukmdorlarning ayni vaqtdagi holatidan ustalik bilan foydalandi. Rossiya siyosatchilari Turkistondagi xonliklarni bir-birlariga gij-gijlab, oralariga kelishmovchiliklar solib, yovlashtirdi.

Dunyodagi ko'pchilik xalqlarlarda millat tuyg'usi qaror topayotgan, muayyan millat shaklida bo'lishgina xalqqa tarixda o'z o'rniga egalik qilish imkonini berishi oydinlashgan bir sharoitda

turkistonlik hukmdorlar o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'lchovlar bilan yashashardi. Ular davr talabini, kun sayin o'zgarib borayotgan sharoitni hisobga ola bilmadilar. Ma'rifatsizlik tufayli mavjud idora usuli isloh qilinmadi, boshqarish tizimi davrga moslashtirilmadi. Turkistonlik xonlar bugunda turganlari holda kechaniing havosi bilan nafas olishda davom etdilar. Shuning uchun ham umumiy dushman bo'lmish Rossiya lashkari Qo'qon xonligiga bostirib kirganda, qo'qonliklarning g'ayridinlarga qarshi jangga otlanganidan foydalangan Buxoro amiri qondosh yurtga qo'shin tortdi. Natijada, Qo'qon xoni o'z askarlarini ortga qaytarishga majbur bo'ldi. Keyinchalik, Rossiya qo'shinlari Buxoro amirligi lashkarlarini yanchib tashlaganda, bosqinchilardan zarba yeb o'ziga kelolmayotgan Qo'qon ham unga yordam bermadi. Shu tariqa, 1868-yilda Buxoro amirligi, 1873-yilda Xiva xonligi Rossiya podshosining vassaliga aylantirildi. Qo'qon xonligi esa 1876-yilda tamomila tugatilib, uning hududi Rossiya tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligiga aylantirildi.

Umummilliy miqyosdagi ma'rifatsizlik hukmdorlar tafakkuri jo'nligi, johillik idora usulining qoloqligiga olib keldi. Turkistonlik hukmdorlar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda ham mamlakatni boshqarish, odamlarga yetakchilik qilish bundan yuzlab yillar oldingi kabi bo'lolmasligini anglab yetmadilar. Ular odamlar endilikda taqdirning irodasini kutib turguvchi to'da emas, balki o'z tarixining yaratuvchilariga aylanganliklarini tumunolmadilar. Tarixda xalqning rutbasi yuksalganligini payqamaslik, odamlarni harakatlantiradigan tashabbus, intilish, e'tiqod, maqsad singari ma'naviy omillar borligini ko'rmaslik Turkiston taraqqiyotini necha yuz yillarga ortga tortdi. Hukmdorlar xalqqa hamon cho'pon boshqarishi kerak bo'lgan qo'ylar podasi deb qarashda davom etdilar. Holbuki, xalq o'z tafakkuri rivojining shunday bosqichiga kelib yetgandiki, endi qo'ylik maqomi, suruvda osoyishta yashash martabasi uni qoniqtirmasdi.

Turkistonda ham dunyodagi o'zga mamlakatlardagi kabi yashamoq uchun turmush yo'sinida o'zgarishlar qilish lozimligini biladigan ilg'or fikrli kishilar bor edi. Ammo sog'lom fikri bor kishida imkoniyat, imkoniyatga ega kimsada esa sog'lom aql, har

ikkalasi mavjud bo'lgan odamda jur'at yetishmasdi. Bularning hammasini o'zida mujassamlashtirgan kuchli daho shaxs tarix sahnasiga chiqmadi. Biz turkiylarda azaldan yangilik birmuncha sekin joriy etiladi. Chunki bobolarimiz minglab yillar mobaynida surgan saltanat necha asrlar davomida shakllangan an'analarga amal qilib kelgani tufayli dovuq qozongan edi.

Avj olgan ma'rifatsizlik, nobop ijtimoiy-siyosiy vaziyat, savdo-sotiqning eski karvon usuli o'rniga, asosan, suv va temiryo'l orqali yo'lga qo'yilishi yirik suv manbalaridan yiroq Turkistonning dunyodagi mutaraqqiy davlatlardan ortda qolishiga sabab bo'ldi. Ishlab chiqarishni takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, hayotga texnikani joriy qilish yo'qligi iqtisodiy qoloqlikni keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlanmagan mamlakat esa ham ma'rifiy, ham harbiy jihatdan o'zgalardan ortda qolishi tabiiydir. Mamlakat ahlining jangariligi, harbiy salohiyatining yuksakligi tufayligina qudratli bo'lishi mumkin bo'lgan davrlar o'tib ketgandi. Mana shu sharoitda Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olishga muvaffaq bo'ldi.

Rossiya bosqini natijasida o'lkamiz ahli tortadigan azob bir necha hissaga ortdi. Turkistonda olib borilgan siyosatning har bir ko'rinishida mustamlakachilik yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Erksevar xalq bu qismatga ko'nikib qo'ya qolmadi. 1882-yilda Toshkentda, 1898-yilda Andijonda, 1916-yilda esa birvarakayiga Turkistonning qator kent-u qishloqlarida bo'lib o'tgan qo'zg'onlar xalqning ana shu bosqinchilar siyosatga qarshi isyoni edi.

Rossiya Turkistonni zabt etgach, ko'proq foyda olish uchun fan-texnika yutuqlarini bu yerda ham joriy eta boshladi. O'lka-ga texnika yutuqlarining kirib kelishi faqat Rossiya tufayli emas. Chunki o'zga yo'llar orqali ham XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran dunyodagi texnik yangiliklar Turkistonga kirib kela boshlagan edi. Ayniqsa, XIX asrning yetmishinchi yillarida o'lka-da kitob bosilib, gazeta-jurnal chop etilishi dunyo ahli bilan axborot almashishni tezlashtirib, turkistonliklarni jahon ahliga yaqinlashtirdi. Ibtidoiy ko'rinishda bo'lsa-da, Turkistonda sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, xalq hayotiga texnikaning kirib kelishi millat tafakkur tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Dunyoda hayot maromining o'zgarib, odam martabasining ko'tarilgani, insonga o'z boshiga tushgan qismatni kechirishga mahkum mavjudot, deb qarashdan tarixning yaratuvchisi ekanini tan olishga o'tila boshlagani turkistonliklar ijtimoiy tafakkuriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Olamni islomiy ko'rish, dunyo hodisalarini shunday tushunish va izohlash bilan birga o'zgacha qarash va e'tiqodlar ham bo'lishi mumkinligini anglab yetish turkistonliklarning fikrlash tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol milliy ongdagi bir xillikka o'zgarish kiritdi. Olam hodisalarini turlicha tushunish va tushuntirish mumkinligi ilg'or kishilarda fikr hurrligini uyg'otdi. Aloqalar, axborotlar umumiylikining yuzaga kelishi natijasida millat tafakkuriga tashqi omillar ta'sir ko'rsata bordi. Bu hol tasodif bo'lmay, ijtimoiy fikr taraqqiyotining obyektiv natijasi edi. Shu tariqa, Turkiston o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi.

Ijtimoiy ongning yangilanishi sabab adabiyot va san'at hodisalarini bo'lakcha tushunish, ta'sirlanish va tahlil qilish an'anasi yuzaga kela boshladi. Kitob sanoatining paydo bo'lishi, asarlarni tez va keng tarqatish imkoniyatlari paydo bo'lgani badiiy adabiyotni ta'sirchan ijodkorning ko'ngil ishidan kuyunchak ziyolining ijtimoiy faoliyatiga aylantira boshladi. Endilikda Turkiston adiblari ham ilohiy go'zallikni tarannum etish bilangina kifoyalanmay, ko'rkam so'zning arshi a'losidan yerga tushib, hayotiy muammolar haqida qalam surishga o'ta boshladilar. Chunki odamning rutbasi ko'tarilgan, uning turmushi ham martabasiga yarasha bo'lishi uchun kurashish lozimligi anglab yetildi. Shuning uchun ham Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz singari shoirlar ijodida "Aroba", "Pech", "Saylov", "Veksel", "Til", "Gimnaziya xususida", "Vistavka xususida" singari maishiy va ma'rifiy muammolar aks etgan asarlar paydo bo'ldi. Avvalgi vaqtlarda bu xil mavzular qalamga olinmasdi. Ularga ilohiy mavzuning biror qirrasini yoritish munosabati bilan yo'l-yo'lakay daxl qilinardi. Shu tariqa **o'zbek ma'rifatchilik adabiyoti** yuzaga keldi.

Juda uzoq yillar mobaynida Alloh bilan ijodkor shaxs muloqoti ifodasi bo'lgan adabiyot ma'rifatchilar davriga kelib tashvishlarga to'la avomning tirikchiligiga aralasha boshladi. Adabi-

yot odamlar turmushini yaxshilash uchun kurashishi kerakligi tushunildi. Ijodkor faqat **Yaratgan** va **ko'ngli** oldidagina emas, balki **jamiyat** va **uning a'zolari** oldida ham o'zini burchli seza boshladi. Shuning uchun ham badiiy adabiyot ko'ngil navozishlarini tasvirlashdan odamlararo munosabatlarni adolatli va turmushni farovon qilish to'g'risida qayg'urishga o'tdi. Shu yo'sinda nafis so'z turmushning xizmatkoriga aylana boshladi. Mumtoz adabiyot uchun badiiy so'zning o'zi **maqsad** edi. Ma'rifatchilik adabiyoti esa xalq ongini oqartish, uning hayotini yaxshilash **vositasiga** aylandi. Bu adabiyot ilm-u ma'rifatni ijtimoiy tanazzul, iqtisodiy qoloqlik, huquqiy tengsizlikdan qutulishning birdan-bir yo'li sifatida ko'rdi. Agar mumtoz adabiyotning bosh qahramoni **komil inson** bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotida **ma'rifatli shaxs** bosh qahramonga aylandi.

To'g'ri, ma'rifatchilik adabiyoti maktab va madrasalardagi ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadi, o'qitish yo'sinini isloh qilolmadi. Ular o'z oldilariga bunday maqsadni qo'ymagan ham edilar. Lekin ular jamiyat a'zolarining ilg'or qismi tafakkuriga ma'rifatga erishmay, dunyoviy bilim egallamay turib, yaxshi yashab bo'lmasligini singirdi. Ma'rifatchilar xalqni ilm-u fan yangiliklariga ishonchsizlik bilan, begonasirab qaramaslikka da'vat qildiki, bu tashviqot hodisasi XX asr boshlariga kelib jaddilar tomonidan amaliyot energiyasiga aylantirildi.

Jadidchilik va adabiy ta'lim. XIX asrning oxirlarida turkistonlik ilg'or oydinlar Ismoilbey Gaspralining "**Xo'jai sibyon**" ("Bolalar muallimi") alifbo darsligi, "**Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh**" metodik qo'llanmasi ta'sirida boshlang'ich sinflar o'qitish kechimiga usuli jadid (yangicha usul)ni olib kira boshladilar. Jadidlar adabiy ta'limni ham xalq hayoti, odamlarning turmush yo'sini va zamon talablariga yaqinlashtirishga urinib, ko'plab o'qish kitoblari, adabiyot darslik hamda majmualar yaratdilar. Professor Ulug'bek Dolimovning "Milliy uyg'onish pedagogikasi" monografiyasida qayd etilishicha, 1902–1917-yillar orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Hamza, Munavvarqori, Saidrasul Saidaziz, Rustambek Yusufbek o'g'li, Ashurali Zohidiy, Abduxoliq Usmonqori,

Haji Muin, Ismatulla Rahmatulla, Muhammadkarim Faxriddin, Sadrizo Alizoda, Inoyatullaqori Mirzajon, Mo'minjon Muhammadjon, Sadriddin Ayniy, G'ulomiddin Akbarzoda, Mirzo Xo'qandiy Xayrulloxon, Muhammadjonqori Rahimjon, Muhammadrasul Rasuliy, Shokirqori Zokirqori, Saidahmad Vasliy va boshqa jadidlar tomonidan adabiy o'qishga doir o'ttiz uchta darslik va qo'llanma yaratilgan¹⁴. Birgina shu misolning o'zi jadid bobolar maktablarda adabiyot o'qitishni zamon talablari darajasiga yetkazishga qanchalar katta e'tibor qaratganliklarini ko'rsatadi.

Bu xil kitoblarning yaratilishi va ularning jadidcha usulda o'qitilishi o'zbek adabiy ta'limi uchun ulkan ijobiy holat edi. Chunki bu kitoblar o'z ishining ustasi bo'lgan pedagoglar va millat jonkuyarlari tomonidan yaratilgan edi. Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" darsligi jadid maktablari uchun maxsus yaratilgan ilk alifbo bo'ldi. Aliasqar Kalinning "Muallim us-soniy" (1903), Munnavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval" (1907), "Adibi soniy" (1909), Serikboy Oqayevning "Xrestomatiya, ya'ni terma kitob" (1911), Qori Usmon ibn Abduxoliq Shoshiyning "Ta'limi avval" (1910), Shokir qori ibn domla Zokirning "Ta'limi avval" (1910), Mulla G'ulomiddin Akbariy (Kabirzoda)ning "Ta'limi soniy" (1912), Abduvahob ibn Abdullo Xo'qandiyning "Tahsili alifbo" (1912), Mulla Rustambek ibn Yusufbek hojining "Ta'limi avval" (1914), Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Engil adabiyot" (1914), "O'qish kitobi" (1914), "Qiroat kitobi" (1915), Muhammadjon Rasuliyning "Bolalar bog'chasi" (1915), Muhammadamin Faxriddinovning "Rahbari soniy" (1916) singari alifbo va o'qish kitoblari milliy adabiy ta'limda zamonaviylashish borayotganidan dalolatdir¹⁵.

Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1912), "Ikkinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1916) va to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909–1916) singari asarlari ham o'zbek bolalar adabi-

¹⁴ Dolimov U. Milliy uyg'onish pedafofikasi. – T.: "Noshir", 2012. 368-374-betlar.

¹⁵ Barakayev R. Jadid ma'rifatparvarlik harakati va o'zbek bolalar adabiyoti. Quvrag: "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" kitobi. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016.

yotining rivoji, ham o'zbek adabiy ta'limi taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi.

S. Aziziyning "Ustodi avval", Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Abdulla Avloniyning "Maktab gulistoni" darsligi va "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami, Hamzaning "Yengil adabiyot" va "O'qish kitobi" majmualarining barchasida bolalarni ilm-ma'rifatga targ'ib etish hamda saboqni oson o'zlashtirishga xizmat qiladigan matnlar berilgan. Avloniyning "Ikkinchi muallim" va "Maktab gulistoni" asarlaridagi matnlar ko'proq o'quvchilarni o'qishga chorlash bilan birga maktab va o'quv qurollari vazifasini ochiqlashga bag'ishlangan. Abdulla Avloniyning "Millata salom", "Ilma targ'ib", "Saodat shundadur", "Maishatimizdan bir manzara", "Jaholat", "Jahldan nafrat", "Milliy nag'ma" singari she'rlari mavzu yo'nalishlari bilan adabiy ta'lim rivojiga turtki berdi¹⁶.

Sovet maktablaridagi adabiyot o'qitish holati. 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyin hokimiyatga kelgan kommunistlar siyosiy hokimiyatni olish bilan kifoyalanmay, jamiyat a'zolarining tafakkur va ruhiyatiga ham egalik qilmoqchi bo'ldilar. Buning uchun mafkura sohasida yakka hokimlik o'rnatib, yoshlarni o'zlari xohlagan yo'sinda tarbiyalashga kirishdilar. Xudosizlik, proletariatdan boshqa ijtimoiy qatlam vakillariga dushmanlik nazari bilan qarash, jamiyat tarixini qarama-qarshi sinflar o'rtasidagi kurashdangina iborat, deb tushunish, insoniyat sinfiy kurashlar sabab rivojlanadi, deb qarash kommunistik mafkuraning asosiy belgilari edi. Ijtimoiy hayotga bunday sinfiy-partiyaviy yondashuv pedagogika ilmi va amaliyotiga ham tatbiq etildi. Pedagogikadagi shu g'ayriinsoniy holat adabiyot o'qitishda ko'p darajada namoyon bo'ldi va adabiy ta'limning samaradorligiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shaxsning dunyoqarash va e'tiqodini shakllantirishda tengsiz qudratga ega bo'lgan adabiyotni noto'g'ri o'qitish jamiyat a'zolari ma'naviyatining buzilishiga olib keladi.

Sovet maktablarida o'qitiladigan badiiy asarlar to'laligicha kommunistik g'oyalar manfaatiga xizmat qildirildi. O'quvchilarga

¹⁶ Barakayev R. Jadid ma'rifatparvarlik harakati va o'zbek bolalar adabiyoti. Qarang: "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" kitobi. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016.

badiiy adabiyot to'xtovsiz davom etadigan sinfiy kurashlarning ta'kosi bo'lishi kerak deb tushuntirildi. Adabiyotga doimo biror bir ijtimoiy qatlamning manfaatiga xizmat qilishi kerak bo'lgan sinfiy hodisa deb qarash uning mohiyatini buzib talqin qilishga olib keldi. Bu davrda odamni ijtimoiy munosabatlar yig'indisigina deb qarash hukmron bo'lganidan ko'rkam adabiyotning odam shaxsining ma'naviy-estetik sifatlari shakllanishiga ta'siri yetarlicha baholanmadi.

Adabiyot o'qitishga faqat mafkuraviy yumush deb qarash, bu jarayonga siyosiy zug'um o'tkazilishi oqibatida maktab adabiy ta'limi izdan chiqdi. Bu davrdagi maktab adabiy ta'limi estetik mashg'ulotdan ko'ra askarlarning siyosiy tayyorgarligiga o'xshab ketardi. Badiiy asarlardagi qahramonlarga jonli odamlar sifatida qaralmas, ularning qanday ijtimoiy qatlamga mansubligi, ishchi-dehqonlar yoki mulkdorlar tabaqasiga tegishliligidan kelib chiqib, baho berilardi. Bu esa, maktab o'quvchilarini mumtoz adabiyotdan uzoqlashtirardi. Negaki adabiy asardagi obrazlarga sinfiy-partiyaviy yondashuvdan tamomila xoli bo'lgan mumtoz adabiyot bunday yondashuvlar qolipiga tushmasdi. Natijada mumtoz adabiyot namunalari mazmun jihatdan unchalik qimmatga ega bo'lmagan bitiklar tarzida qarash shakllana bordi. Garchi, sovetlar hokimiyatining dastlabki yillarda o'zbek maktablarida adabiyot o'qitish sovetcha qoliplarga to'liq tushirilmagan bo'lsa-da, lekin XX asrning 30-yillaridan e'tiboran adabiy ta'lim to'lig'icha siyosiy izga solindi. Tabiiyki, ko'p ming yillik tarixga ega o'zbek adabiyotida kommunistlarning didiga yoqadigan asarlar oz edi. Shu sabab o'zbek maktablarida ham hayot sinfiy-partiyaviy yo'sinda tasvirlangan rus adabiyoti namunalari o'qitildi.

Ma'lumki, 1917-yilgi oktyabr to'ntarishidan oldin o'zbek maktablarida adabiyot predmeti ham majburiy reja, dastur va darsliklarsiz o'qitilar edi. Jadidlar tomonidan tuzilgan ilk dastur, darslik va qo'llanmalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish-etmaslik har bir o'qituvchining o'z ixtiyorida bo'lardi. Bu dastur va darsliklarda badiiy so'z go'zalligini his qildirish orqali o'quvchilarga milliy g'urur, yurt ozodligiga intilish, o'z qadrini bilish, insoniy axloq singari yuksak ma'naviy fazilatlar singdirish ko'zda tutil-

ganidan hayotni faqat sinfiy kurash prizmasi orqali ko'rishni istagan sovetlarga yoqmasligi tabiiy edi.

1929-yilda eski maktab va madrasalar faoliyati to'xtatildi. Adabiyot o'qitish ham barcha maktablarda mutlaqo yangicha tarzda yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Zulm-u zo'ravonlikka asoslangan yangi tuzum yangi maktab, yangi adabiyot, yangi o'qituvchi va yangicha ish usullarini talab qilardi.

Insof yuzasidan, sovetlar tuzumi maorifni rivojlantirish borasida bir qator ijobiy ishlar ham qilganligini qayd etish kerak. Bepoyon Sovet sotsialistik respublikalar ittifoqi (SSSR) bo'ylab birorta ham savodsiz odam qolmasligi uchun ommaviy yurish e'lon qilindi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham ko'plab yangi maktablar hamda ularda ishlaydigan muallimlar tayyorlash uchun o'qituvchilik kurslari ochildi. Bunday kurslarning ilkinchisi Toshkentda 1918-yil 10-iyulda ruslar uchun, shu yilning 12-sentabrida musulmonlar uchun ish boshladi. Turkiston xalq komissarlari Sovetining 1917-yil 30-dekabrda 3-buyrug'iga ko'ra o'qituvchi ma'lumotiga ega bo'lgan ofitserlar urushdan qaytarildi. Tabiiyki, o'qituvchilik kurslarida shosha-pisha tayyorlangan o'qituvchilarning saviyasi yuqori darajada bo'lmasdi.

O'lkada zamonaviy ma'nodagi oliy maktab ochish uchun jadidlar qator yillardan buyon kurashayotgan bo'lishlariga qaramay, Turkistondagi hokimiyatni egallab olgan ruslar 1918-yilning 21-aprelida rus tilida o'qiy oladigan aholiga oliy ta'lim berish maqsadida "Turkiston xalq universiteti"ni tashkil etdilar. Oradan 21 kun o'tkazib, 1918-yilning 12-mayida Munavvarqori yetakchiligidagi millat fidoyilarining tashabbusi bilan Toshkentda "Turkiston musulmon xalq dorulfununi" tashkil etildi. "Turkiston xalq universiteti" kelgindi mustamlakachilar uchun tashkil qilingan bo'lsa, "Turkiston musulmon xalq dorulfununi" yerli millatlarga xizmat qilishni ko'zda tutar edi. Universitetning "musulmon"ligiga urg'u berganda jadidlar faqat din emas, millat, milliy til va yurt taraqqiysini ham ko'zda tutgan edilar. Ular ilk zamonaviy oliy maktabning hukmron kommunistik mafkura-dan xoli bo'lishini orzulab, dorulfununga "xalq" aniqlovchisini bergandilar. Garchi, sovet hukumati milliy dorulfununni o'sha

yilning o'zidayoq zo'rlik bilan oldin "Turkiston xalq universiteti" tarkibiga qo'shib yuborgan bir yilga yetar-yetmas muddatda "Turkiston xalq universiteti"ni ham "Turkiston davlat universiteti"ga aylantirgan bo'lsa-da, bu dorilfunun jadid bobolarning ulkan fidoyiligi mahsuli bo'lganini ta'kidlash joiz.

Sovetlar hukmronligining dastlabki yillarida O'zbekistonda ochilgan ko'plab boshlang'ich maktablar asosida keyinchalik yetti yillik maktablar tashkil qilindi. Respublika aholisining bilimga chanqoqligi, avvalo, til-adabiyot o'qitishni yaxshilash yo'li bilan qandirildi. Shuningdek, o'lkada pedagoglar tayyorlaydigan qator bilim yurti, texnikum va kurslar tashkil etildi. Sovet hukumati ta'lim tizimidagi barcha muassasalarning so'zsiz kommunistik malkura izmida bo'lishini istagani uchun o'quv rejasi, dastur, darsliklar bir xil va majburiy qilindi. 1918-yilda davlat maktablarining barchasi uchun ilk adabiyot dasturi ishlab chiqildi. O'sha yili "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida, boshqa predmetlar qatori, birinchi adabiyot dasturi ham bosildi. Bu dasturda 5-7-sinflarda o'zbek adabiyoti o'quv fani qay yo'sinda o'qitilishi kerakligi belgilab berildi. Bunda o'tiladigan mavzular, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish yo'llari ko'rsatilib, o'quvchilarda yozuv ko'nikmasini hosil qilishga e'tibor qaratilgandi.

Ilk o'quv dasturida o'quvchilarni biror badiiy asar bilan tanishtirishdan oldin adabiyot nazariyasidan ma'lumot berish ko'zda tutilgan edi. Dastur mualliflari mavjud adabiy ta'lim an'analari ta'sirida to'lig'icha mumtoz adabiyot namunalarini o'rgatishni mo'ljallagan edilar. Sovet yozuvchilarining ijodi mutlaqo aks ettirilmagandi. Zero, u vaqtda bu adabiyot shakllanib ulgurmagan edi ham. Mashhur ijodkorlarning ko'pchiligi jadidlar bo'lib, ularning asarlari sovet pozitsiyasiga mos kelmasdi. Shu bois tez orada bu dastur o'zgartirildi.

Pedagogika bilim yurtlari va texnikumlarida adabiyot o'qitish samaradorligini oshirish o'sha davrda dolzarb masala sanalardi. Chunki bu davrda ko'plab maktablar ochilgani bilan ularda ishlaydigan saviyali o'qituvchi kadrlar yo'q edi. Shu tufayli 1922-yilda Abdurahmon Sa'diy pedagogik texnikumlar uchun o'zbek tili va adabiyotidan dastur tuzib, "Bilim o'chog'i" jurnalining 1923-yil

2–3-sonlarida eʼlon qildirdi. Keyinroq bu dastur oʻrta maktablarga ham tatbiq etildi va shu asosda darslik ham ishlab chiqildi. Ushbu dasturda adabiy taʼlimni yoʻlga qoʻyish kechimida talabalar bilim saviyasi va yosh xususiyatlarini hisobga olishga ilk urinish seziladi.

A.Saʼdiy dasturida oʻrganilishi kerak boʻlgan mavzular koʻrsatilgani holda shu mavzuda oʻqilishi lozim boʻlgan adabiy matn aniq belgilab berilmaydi. Bu dasturda ham avval nazariy qoidalar berilib, soʻngra shunga muvofiq keladigan badiiy asarni tekshirish koʻzda tutilgan edi. Dasturda sinfda va sinfdan tashqarida olib boriladigan mashgʻulotlar boʻyicha hech qanday yoʻl-yoʻriq berilmagandi.

A.Saʼdiy oʻz dasturida oʻzbek adabiyotini quyidagicha davrlashtiradi:

1. Burungi davr (Uygʻur ham Yassaviy va Boqirgʻoniy davrlari shunga kiradi) va bu davrning adib va shoirlari.

2. Chigʻatoy yoxud Chigʻatoy-oʻzbek davri (Chigʻatoy xondan, yaʼni XIII asrdan boshlab 1905-yilga qadar) va bu davrning shoirlari va adiblari: Temurlang, Lutfiy, Sakkokiy, Mashrab, Husayn Boyqaro, Navoiy, Bobir, Muhammad Solih, Shayboniy, Abdulgʻoziy, Soʻfi Ollayor va boshqa soʻngi zamonning, yaʼni 1905-yilga qadar boʻlgan oʻzbek shoirlari.

3. Uygʻonish davri va bu davrning shoirlari (1917-yilga qadar).

4. Inqilob davri.

Adabiyot oʻqitishni tashkil etish yuzasidan qilingan bunday urinishlardan keyin boshlangʻich va yetti yillik maktablar uchun adabiyotdan dastlabki majmualar ham tuzila boshlandi. XX asr boshlarida jadidlar tomonidan yaratilgan darslik va majmualar, asosan, boshlangʻich maktabga moʻljallangan boʻlib, tarbiyaviy yoʻnalishdagi matnlardan iborat, zarur didaktik apparatlar bilan taʼminlanmagan pedagogik ashyolar edi. 1924-yilda Elbek “Goʻzal yozgʻichlar”, 1926-yilda Choʻlpon “Adabiyot parchalari” majmualarini tuzadi. 1924-yilda A.Saʼdiy oʻzi ishlab chiqqan dastur asosida “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligini yaratadi. Bular Ovroʻpo talablariga bir qadar mos keladigan

o'quvliklar bo'lib, adabiy ta'lim samaradorligi ortishi va millat ruhlarining badiiy tafakkuri o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

1926-yilda Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobi chiqdi. Bu bitik talabgorlarga adabiyot bo'yicha dastlabki ilmiy ma'lumotlarni berish ko'zda tutilgan nazariy yo'nalishdagi darslik edi. Kitobda muallifning sohani puxta bilishi, adabiyot nazariyasi, mumkin adabiyot tarixi, folklor hamda o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan ilmiy-nazariy tushunchalar haqida aniq tasavvurga ega ekani yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

XX asrning 30-yillarida g'oyat avj olgan vulgar-sotsiologik yondashuv tufayli voqelikni xolis badiiy tasvirlashga uringan adabiy asarlarni sinfiy-partiyaviy yo'nalishda emas, ilmiy izohlashga uringan olimlarga qarshi xurujlar avj oldirildi va shu vaqtga qadar yaratilgan darslik hamda xrestomatiyalarning deyarli barchasi yo'qqa chiqarildi. Ularning mualliflari mayda burjua qarashlarida, sotsializmdan toyinish, millatchilik kabi "jinoyat"larda ayblandilar.

O'tgan asrning 30-50-yillarida adabiy ta'lim tamomila mafkuraviy yo'nalishga solindi. Unda sotsializm madh etilgan, uning eng to'g'ri, adolatli va dunyodagi barcha xalqlar alaloqibat keladigan ijtimoiy tuzum ekani tasvirlangan asarlarga maktablarda o'qitiladigan bo'ldi. Badiiyatning asl namunalari bo'lgan asarlar maktab ta'limiga jalb etilmadi. Ayniqsa, ming yillik o'zbek adabiyoti namunalariga sotsializmga butunlay yot bitiklar degan qarash hukmronlik qildi. Natijada, bu yillarda maktablarda adabiyotdan ko'ra ko'proq siyosiy chaqiriqlar bitilgan yaratilgan o'rganildi.

30-yillardan e'tiboran o'zbek maktablaridagi o'zbek adabiyoti darslarida rus adiblarining ijodini o'rganish keng yo'lga qo'yildi. Hatto, ijodi rus maktablarining o'zida ham o'qitilmaydigan Serafimovich, Gladkov, Furmanov singari adiblarning asarlarini o'rganishga "O'zbek adabiyoti" darslarida katta vaqt, darsliklaridan keng-mo'l joy ajratildi. Shu xildagi tamoyil XX asrning 60-80-yillarida ham davom etdi. O'quvchilarga Yassaviy, Ubaydiy, So'fi Olloyor, Mashrab, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi ijodkorlarning nomlari ham aytilmagani holda "O'zbek adabiyoti" darsliklaridan rus adabiyoti namunalari yanada ko'proq o'rin

oldi. Ahvol shu darajaga borib etdiki, 1993-yilga qadar o'qitib kelingan 317 betlik 7-sinf "Vatan adabiyoti" darslik-majmuasining roppa-rosa 202 beti rus adabiyotiga mansub asarlardan iborat bo'ldi. Achinarlisi shundaki, H.Yoqubov, A.Zunnunov, R.Usmovlar tuzgan bu darslik 14 marta nashr etilgan va millat bolalariga o'zbek adabiyoti haqida shu tarzda tasavvur berib kelgan. Boshqa darsliklar ham bundan yaxshiroq emasdi.

XX yuzyillikning 30-yillarida qatag'on qilinib, 50-yillarning ikkinchi yarmida oqlangan Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari adiblarning asarlari mutlaqo o'rganilmasdi. Umumiy o'rta ta'lim va oliy maktablarda bu ijodkorlar orasidan faqat A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanigina ming xil tanqidiy yondashuvlar bilan o'qitilar edi. Eng achinarlisi, adabiyot saboqlariga o'quvchilarda estetik did, adabiy ta'b, ma'naviy sifatlar shakllantirish vositasi deb emas, balki ularga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berishning yo'li deb qaralardi. Shuning uchun, hatto, maktab darsliklariga kiritilgan mumtoz asarlar ham o'quvchilarga to'lig'icha mafkuraviy yo'sinda, sovet tuzumining tengsiz darajada yaxshiligini, milliy o'tmishning zulmatdan iboratligini ta'kidlashga xizmat qildirilardi. Badiiy asarni, qanday yashash yuzasidan nasihat qilish va o'tmishni qoralash vositasi deb anglash keng yoyilgandi. Shu bois ham o'quvchilarning badiiy matnni o'qib, undagi estetik jozibani tuyishlariga emas, balki asarlardan chiqarilishi lozim bo'lgan siyosiy-mafkuraviy xulosalarni bilib olishlariga e'tibor qaratilardi.

Sovet davrida o'zbek millatining bitta adabiyoti *progressiv, diniy-mistik* va *feodal-saroy adabiyoti* tarzida uch qarama-qarshi guruhga bo'lib qaraldi. Maktab o'quvchilariga diniy-mistik va feodal-saroy adabiyoti namunalari mutlaqo o'rgatilmadi. Oliy o'quv yurtlari talabalari ulardan ayrim namunalarni ming xil tanqidiy yondashuv hamda izohlar bilan ozroq xabardor qilinar edi. Shu tariqa mumtoz adabiyot namunalari nosog'lom munosabat qaror topgan edi. Chunonchi, ayrim ijodkorlarni sun'iy ravishda saroyga, mavjud tuzumga, islom diniga qarshi kishilar tarzida ko'rsatish keng yoyilgan edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, eng qattol davrlarda ham jamiyat muayyan yo'nalishda taraqqiy etishdan to'xtamaydi.

Chunki jamiyat ichidagi ilg'or kuchlar tabiiy ravishda uning rivojiga ta'sir ko'rsataveradi. Shu ma'noda, sovet davrida ham adabiyot o'qitish amaliyoti o'z holiga tashlab qo'yilmagani kabi adabiyot o'qitish metodikasi ilmi ham, ma'lum darajada, taraqqiy etdi. Uchinchi navbatda, o'zbek ilmiga "adabiyot o'qitish metodikasi" degan ilmiy atama ayni shu davrda olib kirilganini ta'kidlash kerak. 1952-yilda "O'zdnashr" nashriyoti tomonidan badiiy matnning nozik his etadigan adabiyotchi, mumtoz adabiyotning bilimdon tadqiqotchisi, o'zbek maktablarida adabiyot o'qitish muammolari bilan ilmiy asosda shug'ullangan birinchi mutaxassis Subuy Dolimovning "Adabiy o'qitish metodikasi" kitobi chop etildi. Kitobning shu tarzda nomlanishiga asosiy sabab shunda ediki, u vaqtlarda respublikada o'rta maktablar kam bo'lib, asosan yetti yillik maktablar ko'p edi. Ma'lumki, to'liqsiz o'rta maktablarda adabiy ta'lim adabiy o'qitish shaklida yo'lga qo'yiladi.

1955-yilda S.Dolimov o'zbek metodistlari orasida birinchi bo'lib, "5-sinf "Vatan adabiyoti" xrestomatiyasi uchun metodik qo'llanma" deb nomlangan metodik asarini yaratdi va o'zbek metodikasi amaliyotida o'qituvchilar uchun qo'llanma yozish tajribasiga asos soldi. Shundan keyin bu turkumda bir qator qo'llanmalar yaratildi. 1967-yilda S.Dolimov, Q.Ahmedov va H.Ubaydullaevlar tomonidan oliy maktab talabalari uchun "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasi yaratildi. Unda ilk bor maktab adabiy ta'limini uyushtirishning universal jihatlari ilmiy tizimga solingan holda taqdim etildi. To'g'ri, bu darslikda va o'sha vaqtda adabiyot o'qitish bo'yicha yaratilgan boshqa metodik ashyolarda bugungi qarashlarga to'g'ri kelmaydigan, hukmron mafkura talablariga muvofiq qirralar, ilmiy xolislik buzilgan o'rinlar, sun'iy talqinlar bor edi. Lekin barcha kamchiliklariga qaramay, zamonaviy ma'nodagi adabiyot metodikasi fani aynan o'sha davrda, o'sha mutaxassislar tomonidan shakllantirilgani ayon haqiqatdir.

Egamanlik davri adabiy ta'limining yetakchi tamoyillari.

O'zbekiston egamanlikka erishishidan salgina oldin, qayta qurilish, oshkoralik deb ataluvchi davrlar boshlanishi bilan o'zbek yoshlarining katta qismi maktab adabiyotini tamomila boshqacha o'qitish lozimligini anglab yetgan edilar. Shu yo'lda, av-

val, qarashlar o'rtasidagi kurashlar, keyinchalik tashkiliy ishlar bir necha yil davom etdi. 1991-yilning 13-martida Respublika Vazirlar kengashi raisining o'sha paytdagi o'rinbosari yozuvchi Erkin Samandar tashabbusi bilan professor U. Normatov boshchiligida o'n uch olimdan iborat ishchi guruhi tuzilib, ular oldiga maktab adabiyot darsliklarini tubdan yangilash vazifasi qo'yildi. 1991-yilning yozida birinchi marta metodika ilmining so'nggi yutuqlari imkon qadar hisobga olingan chinakam milliy asosdagi maktab adabiyot dasturi tuzildi. Yil mobaynida o'qituvchilar, ota-onalar, mutaxassislar tomonidan qizg'in muhokama qilingan dastur loyihasi 1992-yilda qayta ishlanib, maorif vazirligi tomonidan tasdiqlandi va 1993-yildan boshlab shu dastur asosida yaratilgan "O'zbek adabiyoti" darsliklari maktab amaliyotiga joriy etildi.

Egamanlik yillarida yaratilgan ilk adabiyot darsliklarida asosiy e'tibor o'quvchilarga o'zbek adabiyotining naqadar boy va jozibali ekanini anglatishga qaratildi. Shuningdek, bir milliy adabiyot namunalariga "mehnatkashlarning ilg'or adabiyoti", "saroym adabiyoti" va "diniy-mistik adabiyot" tarzida qarama-qarshi qo'yib yondashish an'anasiga barham berildi. Ko'p asrlik o'zbek adabiyotining sara namunalariga umumiy badiiy boyluk va millat ma'naviyatini shakllantirishda baravariga qatnashishi mumkin bo'lgan estetik yaratq tarzida yondashildi.

Egamanlik yillarida ilk bor "Uzluksiz adabiy ta'lim yo'rig'i" (1995) hamda "Adabiyot o'qitish bo'yicha ta'lim davlat standardi" (1995) tuzildi. Ularda ko'rkam adabiyotga o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish vositasi tarzida qarash rasman belgilab qo'yildi. Ya'ni o'zbek pedagogikasida birinchi bor maktab adabiy ta'lim kechimi uchun faqat adabiyotga doir bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quvchining ma'naviy sifatlarini shakllantirish asosiy maqsad sanalishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, adabiyot darsliklariga adib emas, balki badiiy asar tanlab olinishi kerakligi ta'kidlandi.

Adabiyot o'qitish tizimi uchun adabiyotga doir dalillarni o'zlashtirib olish, badiiy matni yod bilishning o'zi emas, balki adabiy asar qahramonlarining tuyg'ulari va muallifning fikrlarini his etish, ularning dardlarini anglash, ularga tuyg'udosh bo'la

olish muhim ekaniga e'tibor qaratildi. Adabiyot bo'yicha yaratilgan darslik va metodik qo'llanmalarda o'quvchilar o'qituvchidan eshitgan yoki matndan eslab qolgan o'rinlarni qaytadan aytib berishga emas, balki badiiy matn zamiridagi yashirin jihatlarni ilg'ash, badiiy so'z qatidagi jozibani ocha bilishga yo'naltirildi.

Ta'kidlash kerakki, 1997-yilda barcha o'quv fanlari orasida birinchi bo'lib, 7-sinf "O'zbek adabiyoti" darsligidan foydalanish bo'yicha "O'qituvchi kitobi" nomli metodik qo'llanma chop etildi. Shu nomdagi kitob 2001-yilda 6-sinf "Adabiyot" darsligidan foydalanish bo'yicha, 2003-yilda 8-sinf "Adabiyot" darsligidan foydalanish yo'llari tadqiq etilgan "Adabiyot saboqlar 8" kitobi nashr qilindi. 2004-yildan boshlab esa, har bitta adabiyot darsligi undan foydalanish yo'llari aks etgan metodik qo'llanma bilan birgalikda yaratila boshlandi.

Albatta, mustaqillik davrida ham adabiyot o'qitish borasidagi barcha muammolar to'la hal etilgan emas. Bugungi kunda ham bu borada turli darajadagi qarashlar kurashi bormoqda. Lekin muhimi shundaki, egamanlik sharoitida o'zbek adabiyoti o'zbek yoshlarining ma'naviyatini qaror toptirishga yo'naltirildi. Albatta, vaqtlar o'tishi bilan bu jarayon muayyan takomilga erishib, o'z ijobiy natijalarini beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ma'rifatchilik adabiyotiga xos xususiyatlar va adabiy ta'lim haqida mulohaza yuriting.
2. Jadidchilikning yuzaga kelishi va uning Turkiston o'lkasidagi adabiy ta'limga ta'siri to'g'risida to'xtaling.
3. Jadidlarning o'qitish usuli va adabiy ta'limdagi o'zgarishlarni tahlilang.
4. Sovet maktablarida o'zbek adabiyotini o'qitishning nochor ahvoli va buning sabablarini ko'rsating.
5. Bir milliy adabiyotning turli qarama-qarshi guruhlarga bo'lib tashlanishiga qanday qaraysiz?
6. Egamanlik davrida maktab adabiy ta'limi oldiga qanday maqsad qo'yildi?
7. Bugungi adabiyot o'qitishning sog'lom mantiqqa muvofiqligini ta'minlagan omillarni ko'rsating.

2-bo'lim. O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISHNING UMUMNAZARIY MASALALARI

ADABIY TA'LIM ASOSLARI

Reja:

1. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ko'rkam adabiyotning o'rni.
2. Adabiyot o'qitishning maqsadi.
3. Adabiy ta'limning vazifalari.
4. Adabiyot o'qitishning mazmuni.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot o'qitishning maqsadi, ma'naviy barkamol shaxs, adabiyot o'qitishning vazifalari, kitob o'qiydigan o'quvchi, o'qiganini tushunadigan o'quvchi, asarni tahlil qiladigan o'quvchi, fikrini ayta oladigan o'quvchi, o'quv rejasi, o'quv dasturi, ta'lim standarti, o'quvliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik qo'llanmalar, ko'rsatmali qurollar.

Xalqning madaniy-intellektual saviyasi o'sib borishi bilan, umuman, san'atning, xususan, ko'rkam adabiyotning shaxs ma'naviyati va u orqali jamiyat hayotiga, uning ma'naviy-psixologik iqlimiga ta'siri orta boradi. Shuning uchun ham jamiyat hayotining burilish davri bo'lgan hozirgi kunlarda adabiyot yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi. Badiiy adabiyot nafaqat xalq ma'naviy qiyofasini shakllantirish, balki mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish, uning ijtimoiy qudratini oshirishga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti tezligi unda yashayotgan odamlarning intellektual va ruhiy imkoniyatlari darajasiga bog'liqdir. Binobarin, jamiyat a'zolari tafakkuri va

ma'naviyatining qandayligi uning taraqqiyoti qarqin (sur'at)ini belgilaydi.

Ko'rinadiki, millat yoshlarining ma'naviyati qaror topishida adabiyot o'qitish muhim o'rin tutadi. Yoshlarning muayyan hayotiy vaziyatlarda qaysi yo'lni tutishi, qanday to'xtamga kelishi, ko'zda tutgan ishlarni qay saviyada bajarishlari, ko'p jihatdan, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarida adabiyotning qanday o'qitilishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham adabiyot metodikasi ilmi uchun adabiy ta'limning asoslarini belgilash hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ya'ni maktab adabiy ta'limi kimni, nima maqsadda, nimani va qanday o'qitishi kerakligini aniq belgilab olish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Sovet tuzumi o'rnatilganga qadar bo'lgan davrda Turkistonda adabiyot islom aqidalariga amal qiladigan, shariat talablarini bajaradigan, ilohiy ma'rifatga intilib, Allohning jamolidan bahramand bo'lishga urinadigan shaxslarning ma'naviyatini tarbiyalash maqsadida o'qitilar edi. Bu, albatta, umumiy mo'ljal, intilinadigan oliy marra edi-yu, lekin u har bir maktabdor va undagi o'qituvchi uchun yagona maqsad edi deb aytish mushkul. Chunki maktab xususiy, o'qish va o'qitish ixtiyoriy bo'lgani uchun bu borada har xilliklar bo'lishi, turli o'qituvchilar o'z oldiga turlicha maqsadlar qo'ygan bo'lishi tabiiy edi.

Sovet davrida esa adabiy ta'lim to'lig'icha o'quvchilarda kommunizm ishiga sadoqat, Lenin g'oyalariga ishonch hamda g'oyaviy-siyosiy yetuk, markscha-lenincha dunyoqarashga ega shaxs shakllantirishga qaratilar edi. Bu maqsad, ayniqsa, o'zbek maktablarida yalang'och ko'rinish olgan edi. Shuning uchun ham bizda badiiy asarlar, asosan, ijtimoiy nuqtai nazardan talqin etilishi avj olgandi. Ya'ni ta'lim tizimida o'rganilayotgan bitikning ko'rkamlik jihatlariga e'tibor qaratilmas, faqat undan keltirib chiqariladigan ijtimoiy ma'no muhim hisoblanar edi.

Zamonaviy ma'nodagi milliy adabiyot o'qitish metodikasi ilmi shakllanishi boshida turgan, bu soha bilan birinchi bo'lib professional darajada shug'ullangan olim Subutoy Dolimov ushbu fan tomonidan hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarni ilmiy asosda ko'rsatib beradi: "*Metodika bir-biri bilan bog'langan*

*quyidagi masalalarni hal qiladi: kimni o'qitish va nima uchun uni o'qitish kerak (bu – ta'limning maqsadi), nimani o'qitish lozim (bu – ta'limning mazmuni va sistemasi), qanday qilib o'rgatish kerak (bu – ta'limning formasi va metodi)*¹⁷. Ma'lumki, ilmda masalaning to'g'ri qo'yilishi muhim sanaladi. Chunki to'g'ri qo'yilgan masala qachondir o'zining haqqoniy yechimini topadi. Noto'g'ri qo'yilgan masala esa, kishini chalg'itib haq yo'ldan uzoqlashtiradi. Keltirilgan ko'chirmadan olimning adabiyot o'qitishning asoslarini to'g'ri belgilab olish maktab adabiy ta'limini yo'lga qo'yish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egaligini bexato bilgani anglashiladi.

Maktab adabiy ta'limini sovet davrida qabul qilingan tarzda amalga oshirish orqali yoshlar ma'naviyatini shakllantirish mumkin emasligi o'sha vaqtdayoq ma'lum bo'lib qolgandi. Shu sababdan sovetlar hukmronligining turli davrlarida O'zbekistondagi o'rta, o'rta maxsus va oliy maktabda adabiyot o'qitishni yaxshilash masalasi har xil miqyos hamda darajalarda qayta-qayta ko'rildi, o'quv dastur va darsliklari keragidan ko'proq o'zgartirildi. "Sharq yulduzi" jurnalining 1987-yil iyun sonida "Maktab va adabiyot" mavzusida bahs uyushtirilib, adabiy ta'limni qayta qurishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. XX asrning 90-yillari boshida maktabda adabiyot o'qitish borasidagi kamchiliklar to'g'risida "Maktab sinov maydoni emas" nomli maqola chop etildi.

Jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyatga ega har qanday muammoni bir zarb bilan qaytib qo'l urmaydigan qilib hal qilishning imkoni yo'q. Shulardan biri bo'lmish adabiyot o'qitishni yaxshilash masalasi ham jamoatchilik tomonidan qayta-qayta muhokama qilindi va hozir ham muhokama qilinmoqda. Negaki adabiy ta'lim – to'xtovsiz harakat va o'zgarishlar qurshovidagi jarayon. Shu xil bahslar boshlanganiga qirq yil bo'layotir hamki, ko'tarilgan muammo o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bu orada umumta'lim maktablari "Adabiyot" dasturlari 1988, 1991, 1997, 1999, 2006, 2008, 2010, 2018, 2020, 2021-yillarda o'n marta yangilandi.

¹⁷ Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1967. 4-bet.

Adabiyot predmetining qanday o'qitilishi, binobarin, jamiyat a'zolari ma'naviyatining qay yo'sinda shakllantirilishi, birinchi navbatda, adabiy ta'limning asoslarini to'g'ri belgilab olishga bog'liq. Adabiy ta'limning **asoslari: maqsad, vazifalar** va **mazmun** tushunchalarini o'z ichiga oladi. Mana shu asos tushunchalar aniq belgilab olinib, ta'lim kechimi shunga tayanib yo'lga qo'yilsagina adabiyot o'qitish borasida ijobiy siljish bo'lishiga erishiladi.

Maktabda adabiyot o'qitishning maqsadi to'g'ri belgilanmagan, ta'lim jarayoni qanchalik mahorat bilan uyushtirilmasin, arziydigan natijani qo'lga kiritib bo'lmaydi. Afsuski, hozirgi adabiyot o'qitish amaliyotida na bosh, na umumiy va na xususiy maqsadlarni aniqlab olmay turib ish ko'rish holati ommaviy tus olgan. Shuning uchun ham juda ko'pchilik hollarda o'quvchilar o'ziga uchun adabiyot o'rganishlari kerakligini bilmagani kabi, o'qituvchilar ham u yoki bu mavzuni nega o'rgatayotganlari haqida qat'iy ilmiy to'xtamga ega bo'lmagan holda ish yuritaveradilar.

Subutoy Dolimov domla o'z davridagi hukmron mafkura talabidan kelib chiqib, badiiy adabiyotni ideologiyaning bir turi deb sanagan, adabiyot predmetini o'quvchilarga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berishning vositasi deb qaragan bo'lsa-da, hamisha maktab adabiy ta'limi o'z oldidagi maqsadni aniq belgilab olishi kerakligini ta'kidlab kelgan. Mashhur metodist olim adabiyot predmetining birinchi navbatdagi vazifasi o'quvchilarni estetik zavqqa ega, badiiy jozibani tuyadigan shaxslar sifatida tarbiyalash ekanini nazarda tutib ish ko'rardi. Bu hol olimning quyidagi fikrlarida yaqqol namoyon bo'lgan: *"...o'qituvchilar, metodik qo'llanmalarining avtorlari adabiyotni faqat o'quv materialini deb hisoblab, adabiyot darslari bolalarga faqat plan tuzishni, qahramonga xarakteristika berish yo'llarini, uning og'zaki va yozma matnini o'stirishni o'rgatadi deb talqin qiladilar. Ular adabiyotning estetik ta'sirini, shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam berishini ikkinchi o'ringa qo'yidilar, ba'zan adabiyotning bu xususiyatini batamom unutib qo'yidilar"*¹⁸. Chindan

¹⁸ Dolimov va bq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1967. 11 bet.

ham, o'quvchilarga biror adabiy asar bo'yicha reja tuzish, biror mavzuda insho yozdirish, biror asarning mazmunini aytib berishga o'rgatishning o'zi maqsad bo'lolmaydi. Garchi odamning hayotida yuqorida sanalganlar katta o'rin tutsa ham ular adabiyot o'qitish jarayoni uchun bosh maqsad bo'la olmaydi.

Ko'pchilik o'qituvchilar nazarida adabiyot o'qitishdan **maq-sad** yozuvchilar va ularning ayrim asarlari haqida o'quvchilarga ma'lumot berishdangina iboratdir. Lekin bu ma'lumotlarni berishning o'zi qanday maqsad bilan amalga oshirilishi kerakligi to'g'risida o'ylab ham ko'rmaydilar. Qizig'i shundaki, sovet davridagi rasmiy pedagogik hujjatlarda ham adabiyot o'qitishning vazifalari ko'rsatilar edi-yu, uning maqsadi belgilab berilmasdi. Ya'ni adabiyot o'qitish bo'yicha nimalar qilinishi kerakligi aytilardi, ammo o'sha ishlar nima uchun qilinishi zarurligi ko'rsatilmadi. Holbuki, u yoki bu o'quv fanining bosh maqsadi ta'lim tizimi oldiga yagona buyurtmachi bo'lmish jamiyat tomonidan qo'yiladi va tegishli hujjatlarda aks etgan bo'ladi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida adabiyot o'qitishning **bosh maqsadi** "Umumiy o'rta ta'limda adabiyot fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi" tarzida nomlangan rasmiy pedagogik hujjatda: "*sog'lom e'tiqodli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlari uchun javob bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat*" ekani belgilab qo'yilgan¹⁹. Bu maqsadga o'quvchida badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularga adabiyotning sehrli olami tilsimini topib berish orqali erishiladi.

Ta'kidlash kerakki, deyarli barcha holatlarda "adabiyot" atamasining "adab" so'zidan olingani, u odobning ko'pligi ekani aytilib, ezgu axloqiy sifatlarga egalikni anglatishi qayd etiladi va shu jihatga alohida urg'u beriladi. To'g'ri, adab, demakki, adabiyot odobni anglatadi va shaxsda shu fazilatni shakllantirishga xizmat qiladi, lekin bu degani uning vazifasi yolg'iz shundangina iborat degani emas. Negaki "adab" so'zining biz biladigan va ish-

¹⁹ Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi (1-11 sinf). – T.: RTM, 2020. 13-bet.

latadigan *axloqiy-etnik* anglamidan tashqari, “*nazm va nasrda... fikrni go‘zal va obrazli qilib ifoda etish malakasi*” ma‘nosini anglatadigan badiiy-estetik tushunilishi ham bor²⁰. Bu hol badiiy adabiyotga faqat odob o‘rgatish vositasi debgina qaraydigan biroyoqlama va jo‘n yondashuv o‘rniga adabiyotning go‘zal ifoda san‘ati ekani uning nomidayoq aks etganini ko‘zda tutadigan sog‘lom qarash chiqishiga imkon beradi.

Darslikdagi va xrestomatiyalardagi asarlarni o‘z talabalariga to‘liq o‘qitgan, ammo ularni dasturda bo‘lmagan boshqa badiiy asarlarni o‘qishga o‘rgata olmagan o‘qituvchi mehnatkash, fidoyi bo‘lso-da, jamiyat tomonidan belgilangan maqsadga erishmagan muallim sanaladi. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichi mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni taqozo etadi. Bunday shaxslarsiz egaman yurtni qurib bo‘lmaydi. Chunki mamlakatning mustaqilligi unda yashayotgan kishilarning mustaqilligidan boshlanadi. Estetik va axloqiy jihatdan yetarlicha shakllanmagan kimsa mustaqil fikrlaydigan barkamol shaxs u yoqda tursin, umuman, shaxs bo‘lolmaydi.

Jamiyat tomonidan belgilangan ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda, har bir darsda sinfdagi o‘quvchilar oldiga har bir o‘qituvchining o‘zi ham maqsad qo‘yishi kerak bo‘ladi. Bu maqsadni **umumiy** maqsad deb atash mumkin. Uning bunday atalishiga sabab shundaki, umumiy maqsad sinfdagi barcha o‘quvchilarga qaratilgan va ularni o‘z atrofiga birlashtiradigan bo‘ladi. Umumiy maqsadning o‘zi a) **tarbiyaviy** maqsad; b) **ta’limiy** maqsad; v) **rivojlantirish** maqsadi kabi uch yo‘nalishga bo‘linadi. Ya’ni o‘qituvchi har bir dars mobaynida ma’lum darajada tarbiya, ma’lum darajada ta’lim berish orqali o‘quvchini muayyan darajada rivojlantirishga erishishi lozim bo‘ladi. Ana shu yo‘sinda shakllantirilgan o‘quvchi kompetentli shaxs darajasiga yetadi.

Hozirgi kunda pedagogika ilmi va amaliyotida maqsadni natija bilan muvofiqlashtirishga urinish, ya’ni identifikatsiyalash harakati ketmoqda. Ya’nikim, o‘qituvchi o‘zi va o‘quvchilari oldiga shu qadar aniq va ko‘zga ko‘rinadigan maqsad qo‘yishi kerakki, bu maqsad o‘quvchilar dars davomida erishadigan natijaga

²⁰ Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. –T., “Sharq” NMAK, 2016. 52-bet.

teppa-teng bo'lsin. O'qituvchi qo'ygan maqsad bilan o'quvchi erishgan natijaning bir xilligiga erishish maqsadning identifikatsiyalashuvi, ya'ni uyg'unlashuvi demakdir. Buning uchun umumiy maqsad har bir unsuri aniq ko'zga tashlanib turadigan darajadagi o'ta konkret tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, mashg'ulotni tashkil etgan ichki unsurlarga, hozirgi til bilan aytganda, o'qitish modullariga muvofiq kelishi lozim bo'ladi.

Ma'lumki, har bir o'quvchi yoki talaba o'quv muassasasiga o'zigagina ma'lum bo'lgan **shaxsiy** yoki individual bir maqsad bilan keladi. Shaxsiy maqsad hamisha ham ta'lim olish, tarbiyalanish yoki rivojlanishni ko'zda tutgan bo'ladi, deyish qiyin. Chunki o'quvchi ko'pchilik holatlarda biror darsga kirar ekan, o'z maqsadini aniq belgilab olmagan bo'ladi. Shunchaki saboqqa kirish kerakligi uchun kiradi. Adabiyot o'qituvchisi bir sinfdagi turli-tuman shaxsiy maqsadga ega bo'lgan bolalarni bitta umumiy maqsadga birlashtira olishi kerak. Buning ustiga, umumiy maqsad bosh maqsadda belgilab qo'yilgan pedagogik marralarga muvofiq kelishi va unga yo'naltirilishi lozim.

Maqsad tayin etilgach, unga erishishning yo'llari qidiriladi va u ilmda **vazifalar** tushunchasi bilan umumlashtiriladi. Adabiyot o'quv predmeti oldida o'quvchilarni badiiy asar o'qiydigan qilish, tabiiy va badiiy go'zallikdan ta'sirlanishga, yomonlik va qabohatdan nafratlanishga o'rgatish kabi **vazifalar** bor. Negaki ana shunday sifatlarga ega bo'lgan odamdagina ezgu ma'naviy fazilatlar shakllanishi mumkin. Ma'lumki, insoniy qadriyatlarga befarq, yaxshi bilan yomon, go'zal bilan xunuk, halol bilan haromni farqlamaydigan kishilardan iborat har qanday jamiyat tanazzulga, inqirozga mahkumdur. Maktab adabiy ta'limi har qanday odam uchun o'zini tanish vositasi, o'zini tanish esa, o'zgani tushunishdan boshlanadi. O'zgani tushunish mashqi badiiy asarlardagi qahramonlarni his etishdan ibtido oladi. Shundan kelib chiqqan holda maktabda adabiyot o'qitishning **vazifalari**:

- badiiy so'zdan ta'sirlanish, uning jozibasini his etish, haqiqiy badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan;

• o'qilgan badiiy asar namunalaridan o'zlariga hayotiy xulassalar chiqarish, badiiy asar o'qishni o'zining hayotiy ehtiyojiga aylantirishdan;

• yozma va og'zaki nutq savodxonligiga erishish, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda adabiyot o'quv faolining mohiyatidan kelib chiqqan holda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat tarzida belgilangan²¹.

Maktabda adabiyot o'qitishning rasmiy pedagogik hujjat bo'lmish konsepsiyada ko'rsatilgan vazifalariga *o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni ko'rkam asarlarni o'qiydigan, o'qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, badiiy matn to'g'risidagi fikrlarini og'zaki yoki yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib shakllantirishdan iboratdir* tarzida qo'shimcha qilish ham mumkin. Adabiy ta'lim, ya'ni o'qituvchi o'z oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli o'tashi uchun jamiyat tomonidan pedagogik tizim oldiga qo'yilgan bugungi talablardan yaxshi xabardor bo'lishi lozim.

Adabiyot predmetini o'rganish tufayli o'quvchilarda shakllantirilgan bilim, ko'nikma, malaka va tuyg'ular bolalarning jamiyat hayotidagi ishtiroklariga xizmat etishi, ularda sog'lom dunyoqarash, ezgu hayotiy pozitsiya hosil qilishi zarur.

Adabiyot boshqa predmetlardan farqi o'laroq, odam uchun faqat maktabdagi o'qish davridagina emas, balki umri mobaynida yo'ldosh bo'ladigan san'at turidir. Adabiyotning yaxshi o'qitilishi asnosida, maktabga kelganida eplab jumla tuza olmaydigan bola tilning ma'no nozikliklarini puxta egallab oladi. Yozma va og'zaki tarzda ravon fikr ifodalashni o'rganadi. Eng muhimi, u ezgu ma'naviyatli odam sifatida shakllanadi. Xullas, o'quvchilarning axloqiy-estetik jihatdan komil bo'lib tarbiyalanishi adabiyot predmetining qanday o'qitilishiga ko'p jihatdan bog'liq va ularni shunday ma'naviy sifatlar egasi qilib tarbiyalash adabiyotning vazifasidir.

²¹ Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi (1-11-sinf). – T.: RTM, 2020. 13–14-betlar.

Bilim o'z holicha hali e'tiqod emas. E'tiqodga aylanmagan bilim foydalanilmay turgan imkoniyatdir, xolos. Agar o'z vaqtda to'g'ri tarbiya ko'rmagan bo'lsa, juda bilimdon odam ham e'tiqodsiz kimsa bo'lib qolaverishi mumkin. E'tiqod odamning o'z fikri, tutumi va qilgan xatti-harakatlariga ma'naviy-axloqiy asos borligiga qat'iy ishonishi demakdir. Shu ma'noda adabiyot e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirli quroli hamdir.

Adabiyot o'qitish ezgu e'tiqodni shakllantiradigan darajada bo'lishi uchun o'rganiladigan asarlarning mazmuni sog'lom va yuksak bo'lishi kerak. Hisobga olish kerakki, adabiy ta'limning maqsad va vazifalari, tabiiy ravishda, adabiyot predmetining **mazmunini** belgilaydi. *O'zbek va jahon adabiyotining badiiy yuksak namunalari hamda o'qilgan asarlarni tushunish va tahlil qilish malakalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi nazariy ma'lumotlar, ko'rsatmali qurollar, o'quv qo'llanmalari adabiyot o'quv fanining mazmunini tashkil etadi.*

Adabiyot o'qitishning **mazmuni**, birinchi navbatda, **dasturda ifoda etiladi**. Bundan tashqari, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, ko'rsatmali qurollar, turli yordamchi vositalar ham ta'lim mazmunining puxta va chuqur bo'lishini ta'minlaydigan unsurlardir.

Adabiyot dasturida qaysi sinfda, qaysi asarlar, qachon, qancha vaqt davomida qay yo'sinda o'rganilishi, qanday asarlar o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qilishi belgilab beriladi. Shuningdek, dasturda adabiyot nazariyasi bo'yicha o'quvchi o'zlashtiradigan bilimning hajmi, bog'lanishli nutqni o'stirishga oid mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar ham ko'rsatiladi. O'qituvchi dasturga ijodiy munosabatda bo'lishi lozim. Dastur rasmiy pedagogik hujjat, tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangan huquqiy asos bo'lsa-da, hech qanday o'zgarishlarni tan olmaydigan aqida emas. Shu boisdan o'qituvchi o'quvchilarning xarakter xususiyatlarini, bilim saviyalarini hisobga olib, unga ayrim o'zgarishlar kiritishi mumkin. O'qituvchi mavzuli reja tuzishda dastur talablarini imkon qadar to'liq bajarish yo'lini o'ylashi kerak. Ayni vaqtda mahalliy sharoit hamda o'z imkoniyatlari va o'quvchilarining qiziqishlarini hisobga olgan holda yillik reja tuzishda dasturda

belgilangan mavzu va soatlarning 10–15 foizi miqdorida o‘zgarish kiritishi ham mumkin.

Dasturda adabiy saboqlar uchun g‘oyat muhim to‘rt asosiy talab belgilab beriladi: a) o‘rgatiladigan adabiy material; b) uni o‘rganishga ajratilgan vaqt miqdori; d) o‘rganish tartibi va s) matnning talqini.

Dasturda o‘quvchilar o‘rganishi kerakligi belgilab qo‘yilgan adabiy material, birinchidan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi, ikkinchidan, bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, uchinchidan, badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi kerak. Shu shartlarga amal qilinsa, taqdim etilgan badiiy material o‘quvchilar tomonidan tez o‘zlashtiriladi va ularning ma‘naviyatiga kuchliroq ta‘sir o‘tkazadi.

Adabiy ta‘lim mazmunini tashkil etadigan tushunchalar orasida **adabiyot darsliklari** ham alohida o‘rin tutadi. Adabiyot darsliklari o‘quvchilarga hamma narsani aytib beradigan yo‘sinda emas, balki ularni o‘ylashga majbur etadigan, muayyan aqliy va ma‘naviy zo‘riqishni talab qiladigan tarzda yozilishi zarur. Shundagina ular o‘quvchilarni o‘ziga rom etib, bolalarning ishchi kitoblariga aylanadi. O‘quvliklarning ifoda yo‘sini, tuzilishi, murakkablik darajasi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilishi joiz. Ayrim mualliflar maktab darsliklariga ham xuddi adabiyot bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotga qaraganday munosabatda bo‘ladilarki, iste‘molchilarning kimligi ko‘zda tutilmay qilingan bunday ashyolar ijobiy samara keltirmaydi.

Adabiy ta‘lim mazmunini tashkil etadigan unsurlar orasida o‘quv qo‘llanmasi ham muhim o‘rin tutadi. Amaliyotda o‘quv qo‘llanmasi bilan metodik qo‘llanmani farqlamaslik, bu atamalarni aralash qo‘llash hollari ko‘p uchragani sababli ushbu tushunchaga kengroq izoh berish maqsadga muvofiqdir. O‘quv qo‘llanmasi, birinchidan, o‘quvchi yoki talabalarga mo‘ljallanib ularning o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan, darsliklarda bayon etilgan mavzular yuzasidan keng va chuqur bilim olishlarini ta‘minlashga xizmat qiladigan didaktik nashr bo‘lib, tegishli vazirliklar tomonidan tavsiya etiladi. Aytish kerakki, o‘quv qo‘llanmasi tu-

shunchasi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar, xaritalar, jadvallar, ko'rsatma qurollar, multimedia va kinofilmlar, ovozli yozuvlar singari ashyolarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan o'qish kitoblari, majmualar, spravochniklar, lug'atlar, moslashtirilgan matnlar, masala va mashqlar to'plamlari, daftarlar ham o'quv qo'llanmasi tushunchasiga kiradi.

O'quv qo'llanmasi hisoblanadigan kitobning har bir mavzusi yuzasidan o'sha fan bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan savol va topshiriqlar beriladi. Odatda o'quv qo'llanmasi darslikka qo'shimcha sifatida nashr etiladi. Agar muayyan bir fan bo'yicha darslik yaratilmagan holatlarda vaqtincha darslik o'rnini bosadi.

Darslikdan farqli yo'sinda o'quv qo'llanmasi, tezkor didaktik ashyo sifatida, to'liq sinovdan o'tmagan va ko'pchilik tomonidan birday tan olinmagan ilmiy yondashuvlar ham bayon etilishi mumkin. O'quv qo'llanmalarida mundarija, kirish, xulosa, savol va topshiriqlar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati singari majburiy tuzilmalar bo'lishi shart.

Maktab adabiy ta'limida o'quv darsliklari ko'p vaqtlar mobaynida o'qituvchilar uchun ham asosiy manba bo'lib keldi va afsuski, hamon shunday bo'lib kelmoqda. Endilikda o'qituvchilar saviyasining pasayishiga olib keladigan bunday holga chek qo'yish kerak bo'ladi. Filolog o'qituvchilar faoliyatini natijador qilish uchun turli ko'rinishdagi alohida didaktik ashyolar yaratilishini yo'lga qo'yish zarur. Chunonchi, bir vaqtlar har bir darslikdan foydalanish yuzasidan "O'qituvchi kitobi" yoxud "Adabiy saboqlar" nomida metodik qo'llanma chiqarilar edi. Bunday qo'llanmalarning turli mualliflar tomonidan har xil variantlarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ashyolar o'qituvchilarga bir asar yuzasidan turlicha fikrlash mumkinligini ko'rsatishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni **adabiy ta'limning asoslarini** tashkil etadi, degan umumiy to'xtamga kelish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Ko'rkam adabiyot bilan jamiyat a'zolari ma'naviyati o'rtasidagi bog'liqlik sabablariga to'xtalng
2. Adabiyot o'qitish jarayonida qanday maqsadlar, kimlar tomonidan qo'yiladi?
3. Adabiy ta'limning vazifalari haqida tushuncha bering.
4. Adabiyot o'qitishning mazmuni nimalardan iborat bo'lishi kerak?
5. Adabiy ta'lim mazmunining tarkibi nimalardan iboratligini ayting.

ADABIYOT O'QITISHDA O'QUVCHILARNING YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Reja:

1. Adabiyot o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishning kerakligi.
2. Boshlang'ich sinfda ko'rkam asarlarni o'qitishning o'ziga xosligi.
3. O'smirlik va 5–7-sinflar adabiy ta'limning xususiyatlari.
4. 8–9-sinflarda adabiyot o'qitishga qo'yiladigan talablar.
5. O'spirinlik yoshida adabiyot o'qitishning o'ziga xos jihatlari.

Tayanch tushunchalar:

Yosh psixologiyasi va adabiyot o'qitish, yosh pedagogikasi va adabiy ta'lim, kichik o'quvchilarga xos didaktik xususiyatlar, o'smirlarning ruhiy-intellektual o'ziga xosliklari, kichik o'quvchilardagi bo'ysunishga moyillik, o'smirlardagi to'da psixologiyasi, o'quvchilar jamoasida liderning o'rni, o'spirinlarning ruhiy-jismoniy xususiyatlari va adabiyot o'qitish.

Ma'lumki, shaxsni, "umuman" tarbiyalab bo'lmaydi, balki har qanday konkret individ konkret talablar asosida, konkret muhit uchun konkret makon va zamonda tarbiyalanadi. Tarbiya konkretlikni sevadigan va undagina mavjud bo'la oladigan pedagogik kechimdir. Shu boisdan ham biron bir axloqiy fazilatni umumiy tarzda qaror toptirib bo'lmaydi. Buni shundan ham bil-

sa bo'ladiki, ayni bir pedagogik chora turli yoshdagi odamlarga nisbatan qo'llanilganda turlicha natija beradi. Axloqiy-estetik tarbiyaning qudratli quroli hisoblanmish adabiyot o'qitishda ham turli sinflardagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. O'quvchining yoshiga mos bo'lmagan material ham, usul ham uni toliqtiradi, qiziquvchanligini susaytiradi, demakki, samara keltirmaydi. O'rganilayotgan adabiy materialga bolalarni qiziqitrolmagan, ularni muvozanatdan chiqarolmagan, boz ustiga, adabiy asarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni toliqtiradigan dars nafaqat foydasiz, balki zararli hamdir.

Adabiyot o'qitishni yo'lga qo'yishda o'quvchilarning muayyan yoshdagi psixologik xususiyatlarini hisobga olish shuning uchun ham zarur. Turli mamlakatlarning pedagog va psixolog olimlari, umuman, bolalar, xususan, maktab bolalarining yoshlarini asosli tarzda muayyan bosqichlarga bo'lish haqida ko'pdan beri bosh qotirib kelishadi. Xususan, rus olimlari L.S.Vigotskiy va D.B.Elkoninlar bu ilmiy yumush bilan jiddiy shug'ullanishgan. Taniqli o'zbek ruhshunoslari Ergash G'oziev va Botir Qodirovlar ham bu muammoni hal qilishga urinishgan.

Nomlari yuqorida zikr etilgan olimlar maktab yoshidagi o'quvchilar umrining **birinchi bosqichini** "**kichik maktab yoshidagi o'quvchilar**" yoki qisqa qilib "**kichik o'quvchilar**" tarzida nomlaydilar va bunga 6-10 yoshdagi bolalarni mansub deb hisoblaydilar. Ularning fikrlaricha, bu yoshdagi bolalar uchun **yetakchi faoliyat o'qishdan** iborat bo'lib, bolalarning intellektual va bilish qobiliyati shiddat bilan o'sib boradi. **Ikkinchi bosqich o'smirlik** deb atalib, 11-15 yoshni o'z ichiga oladi. Bu yoshdagi bolalarning **faoliyatidagi** asosiy muammo **atrofidagi odamlar bilan munosabatni yo'lga qo'yishdan** iborat bo'ladi. Bu munosabat o'smirlar hayotida shu qadar katta ahamiyat kasb etadiki, ularning xatti-harakatlarining yo'nalishi ko'pincha ana shu munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bu bosqichda o'smirlarda mavhum tafakkur, o'z-o'zini anglashga intilish, jinsiy alohidalik, balog'at tuyg'usi kuchayadi.

Olimlar uchinchi bosqichni **o'spirinlik** tarzida nomlab, unga 16-18 yoshni kiritadilar. Bu yoshdagilar uchun **bilish** asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'spirinlar kelajakda shug'ullanadigan biror kasbni ko'z oldiga keltirganliklari va birmuncha qat'iy dunyoqarashga egaligi bilan ajralib turadi²².

Har bir yosh bosqichida bola ruhiyatida turlicha holatlar yetakchilik qiladi. Shulardan kelib chiqqan holda adabiy ta'limni yo'lga qo'yishda ham turli yoshdagi o'quvchilarga turlicha yondashish lozimligi ko'zda tutilishi kerak. Chunonchi, "Adabiy ta'lim davlat standarti" (TDS)da ham adabiyot o'qitish jarayoni o'quvchilarning yoshi va ruhiy holatlaridagi turli xususiyatlardan kelib chiqqan holda turlicha bosqichlardan iborat bo'lishi ko'zda tutiladi:

1. Adabiy ta'limning barcha bosqichlarida ham o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda badiiy asarni o'qish, tushunish, tushuntirish, ta'sirlanish, ta'sirlanganligi sababini anglash va anglatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish singari faoliyat turlari amalga oshiriladi.

2. O'quvchilarning adabiy-tarixiy va adabiy-nazariy bilimlarni to'liq egallashlariga erishish, og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ularning yoshiga xos jihatlarni ko'zda tutgan holda amalga oshirilsagina kutilgan natijaga erishiladi.

3. Adabiy ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarda ezgu ma'naviy xislatlarning shakllantirilishiga diqqat qaratiladi.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablari tarkibi hamda o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiyot o'qitish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich maktab bosqichi. Maktabda o'qiy boshlash 6-7 yoshli bolakay hayotidagi keskin burilish pallasidir. Negaki u faqat o'yindangina iborat hayot tarzidan asosiy faoliyati o'qishdan iborat bo'lgan yashash yo'siniga o'tadi. Endi uning o'tboshi (oilada)gi, jamoadagi maqomi keskin o'zgarib, shunchaki boladan

²² Селевко Г. Энциклопедия образовательных технологий. в 2 т. Т. 1-м.: НИИ школьных технологий, 2006. – С. 42.

o'quvchiga aylanadi. Ma'lumki, o'qish kishidan iroda, intizom, yig'noqlik va tartibni talab qiladigan o'ta jiddiy faoliyat turidir.

B. Qodirov, E. G'oziev, R. Sunnatova, V. Davidov, D. Elkonin, I. Dubrovina, N. Talizina singari ruhshunos olimlar kichik o'quvchilarda fikrlash, ayniqsa, nutqiy-mantiqiy tafakkur tezkorlik bilan rivojlanishini ta'kidlashadi²³. Bolalar maktabga muayyan darajada shakllangan idrok bilan keladilar, ular hajm, shakl va rang haqida muayyan tushunchaga ega bo'ladilar. Kichik o'quvchilarning idroki to'xtovsiz rivojlanib, takomillashib boradi.

Ma'lumki, kichik o'quvchilarda ixtiyoriy diqqat bir qator tarqoq bo'lib, boshqarilishi qiyin kechadi. Kichik maktab yoshida ixtiyorsiz diqqat birmuncha yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bola asta-sekin shunchaki kerak-nokerak qiziqarli narsalarga emas, diqqatini kerakli narsaga qaratish va uni saqlab qolishga o'rganib boradi. Kichik o'quvchi diqqatining rivoji diqqat yo'naltirilishi kerak bo'lgan obyektlarning hajmi va har xil faoliyat turlariga uni to'g'ri taqsimlay olishiga bog'liq. Shuning uchun ham bolaga o'quv topshiriqlarini o'z ishini qilgani holda o'rtog'ining faoliyatini kuzatishga ham ulguradigan miqdorda berish maqsadga muvofiqdir.

Kichik o'quvchilar xotirasining mahsuldorligi topshiriqning mohiyatini tushunish hamda eslab qolish va xayolda tiklashning usullaridan qanchalik xabardor ekaniga bog'liq bo'ladi. O'quv faoliyati davomida ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiraning nisbati har xil bo'ladi. 1-sinfda ixtiyorsiz xotiraning samaradorligi yuqori bo'ladi. Negaki bolada hali materialni qayta ishlash va o'z fikrini nazorat qilish qobiliyati shakllanmagan bo'ladi. Keyingi sinflarda kichik o'quvchilarning ixtiyoriy xotirasi ixtiyorsiz xotiraga nisbatan sezilarli darajada mahsuldor bo'lib boradi.

O'quv faoliyati bolada tasavvur qobiliyatini rivojlantirishga yordam qiladi. Kichik o'quvchilarda tasavvur rivoji ikki bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda bolalar tasavvuri borliqning tafsilotlari kam bo'lgan birmuncha taxminiy obrazini yaratadi. 2-sinfning oxiri, 3-sinfning boshlariga kelib, bola tasavvuridagi borliq

²³ <https://kuban-lvceum.ru/uchashchimsya-i-roditeliyam/psixologicheskie-osobennosti-detey-mladshego-shkolnogo-vozrasta.php>

obrazi aniq va xarakterli tafsillar bilan boyib boradi. Bunga bolani berliqdagi biror narsani ogʻzaki tasvirlab berish yoki biror manzara tasvirini izohlashga oʻrgatish orqali erishiladi²⁴.

Oʻquv faoliyati taʼsirida oʻquvchilardagi tuygʻularning tabiati ham oʻzgarishga uchraydi. Oʻqish bolalarning birgalikda faoliyat koʻrsatish tizimi, ongli intizom, ixtiyoriy diqqat va xotira kabilar bilan chambarchas bogʻliq faoliyat boʻlgani uchun bolalarning hissiy olamiga ham taʼsir koʻrsatadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda oʻz tuygʻularini bildirishdagi ixtiyorsizlik oʻrnini tiyiqchilik, onglilik egallab boradi.

Kichik oʻquvchilik – atrof olam haqidagi son-sanoqsiz bilimlarni oʻzlashtirish, singdirish va toʻplash davri. Bu yoshda kattalardan eshitilgan gaplar va koʻrilgan tutilarga qilingan taqlid bolaning intellektual rivojida katta oʻrin tutadi. Kichik oʻquvchilardagi ishonuvchanlik, taʼsirchanlik, faollik, harakatchanlik singari sifatlar ularning shaxs oʻlaroq shakllanishida qoʻl keladi²⁵.

Maʼlumki, kichik oʻquvchilar qiziquvchan boʻlishadi, oʻqituvchining oʻqish saboqlaridagi vazifasi bolalardagi qiziquvchanlikni intiluvchanlikka aylantirib, oʻrganilgan matndagi voqealarni gina eslab qolmay, ularning sababi, mantigʻi haqida ham oʻylashga yoʻnaltirishdan iborat. Shu tariqa asta-sekin toʻla maʼnodagi savodli oʻqirman (kitobxon)lik odati va koʻnikmasi tarkib topadi. Bu borada ertaklar olamiga sayohat, men toʻqigan ertak, ertakning davomi singari nostandart saboqlar katta samara berishi mumkin.

Boshlangʻich sinflardagi oʻqish darslarining bosh maqsadi bolalarda oʻqishga, kitobga, koʻrkam adabiyotga qiziqish uygʻotishdir. Lekin “oʻqish saboq”larini faqat qissadan hissa chiqarish, nasihat darslariga aylantirib yubormaslik kerak. Bu saboqlar tabiatan integrativ xususiyatga ega boʻlgani sabab oʻqish kichik oʻquvchilarda muayyan maʼnaviy sifatlar shakllantirish bilan uygʻunlashtirilishi lozim. Buning uchun darslikda berilgan materiallar badiiy-estetik jozibaga ega boʻlishi zarur. Quyi sinflardan chin poetik soʻz bilan tanishgan bolalar bora-bora koʻrkam adabiyotga

²⁴ <https://kuban-lyceum.ru/uchashchimsya-i-roditelyam/psixologicheskie-osobennosti-detey-mladshego-shkolnogo-vozrasta.php>

²⁵ Мухина В. Возрастная психология. – 4-е изд. – Москва: Academia, 1999.

mehr qo'yishadi. O'qish darslarida o'rganilayotgan matnga badiiy asar sifatida qarash, undagi mazmun qanday tasvir vositalari yordamida yuzaga chiqayotganiga e'tibor berish muhim.

Boshlang'ich sinflardan boshlab matn mazmunining ta'sirli va esdan chiqmaydigan bo'lishida ifoda yo'sinidagi o'ziga xoslikning o'rniga diqqat qilinishi lozim. Qo'llangan badiiy tasvir vositalari muallif niyati va asar g'oyasini ifodalashda qanday o'rin tutganiga bolalar e'tibori tortilishi kerak. Kichik o'quvchilar shu yo'sin badiiy so'zning sehrini tuyib, unga oshno bo'lib, matn zamiridagi ma'nolarni anglashga o'rganib boradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari odatda o'rganilgan matndan kelib chiqadigan ma'nogagina bolalar e'tiborini qaratishadi, xolos. Holbuki, har qanday ma'no-mazmun, albatta, tasvir vositalari tahlilidan keltirib chiqarilishi kerak. Badiiy matn tahlili o'qish saboqlaridagi eng muhim, ayni vaqtda, eng qiyin didaktik tadbirdir. Matnni tahlil qilish kichik o'quvchida faqat o'qish emas, balki bitik ma'nosi va go'zalligini uqish ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Kichik o'quvchilar tahlilni matn yuzasidan darslik mualliflari tuzgan va o'qituvchilar tomonidan beriladigan yo'naltiruvchi savollar yordamida amalga oshiradilar. O'quvchi savollarga javob topish asnosida matn mazmuniga chuqurroq kiradi, asar shaklidagi o'ziga xoslikka diqqat qaratadi, yozuvchi so'zlarini o'zlashtirib, o'z nutqida qo'llashga o'rganadi. Matnni o'rganish davomida o'quvchilar diqqati yozuvchining tasvir mahoratiga ham yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflardagi asar tahlilida oldin voqealar rivojiga, keyin undagi obrazlarning bolalar tasavvurida tiklanishi va kerakli tuyg'ular paydo qilishiga diqqat qaratiladi. Bu yoshdagi bolalar asarni oldin tuyg'ulari bilan, so'nggina aql va mantiq bilan qabul qilishadi. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi bu holat bilan hisoblashmog'i, uni inkor qilib bo'lmasligini tan olmog'i lozim. Negaki shunday qilingandagina badiiy asarning hissiyot, tuyg'ular, fikr va g'oyalar uyg'unligidan bunyod bo'lgan yaratiq ekanini anglash boshlanadi. Kichik o'quvchi ko'pincha o'qiganlarini tuyish, ko'nglidan o'tkazish, o'qilgan matnning o'ziga qanday ta'sir qilganini anglashga ulgurmay qoladi. O'qituvchi uni

darhol asardan kelib chiqadigan ma'noni anglash sari yetaklaydi. U holda bola tuymaydi, sezmaydi, his qilmaydi, faqat axborot oladi.

Ko'rkam asarni his etish shuning uchun ham kerakki, faqat tuyish orqaligina matnni qabul qilishning ikkinchi – baholovchi bosqichi boshlanadi. Bitik bilan tanishish asnosida o'zida qanday tuyg'ular paydo bo'lganini bilgachgina bola muallif niyatini, asarning tarbiyaviy ahamiyatini, obrazlarga tavsif berishni amalga oshirishi mumkin. Shundagina u asardagi obrazlarning tutumlariga baho bera oladi.

Badiiy matn tahlilining uchinchi bosqichida o'quvchi asarning o'ziga qanday ta'sir qilgani, qanday fikrlar uyg'otgani, obrazlar va tasvirga munosabati qandayligi haqida o'z so'zlari bilan fikr bildiradi. Shu tariqa o'qish saboqlarida ko'rkam asarning to'la idrok etilishi kichik o'quvchilarning tuyg'u va fikrlarini faollashtirish orqali amalga oshiriladi²⁶.

Bu bosqichda adabiyot alohida o'quv predmeti bo'lmasa ham o'qish saboqlari o'quvchilarda estetik did, ta'sirchan hissiyot va nozik tuyg'ularni qaror toptirishda muhim o'rin tutadi. Kichik o'quvchi inson ma'naviyatining asoslari shakllantiriladigan boshlang'ich sinflar "O'qish", "Ona tili", "Tarix", "Tabiatshunoslik" va boshqa darslarida foydalaniladigan matnlarning badiiy bo'yodkor bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu davrdagi adabiy ta'lim o'quvchilarda hissiy ta'sirchanlik, tasavvur va sezimlar boyligi, ijodiy fantaziya, nutq ravonligi, o'qish texnikasi, o'qirmanlik odati singari sifatlar shakllanishiga yo'naltiriladi.

Tayanch maktab bosqichi (V–IX sinflar). Odam umrining bu davri o'smirlik, deb ataladi. O'smirlik – bolaning 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davri. Bu davrni o'tish davri, ya'ni bolalikdan balog'atga ko'chish davri ham deyishadi. O'smirlik davri turli bolalarda turlicha kechishi mumkin. Bu davr insonning aqlan va jisman o'sishida muhim bosqich hisoblanadi. O'smir yoshida bola mustaqil ko'rinishga intiladi, huquq va imkoniyatlarining kattalar tomonidan e'tirof etilishiga kuchli ehtiyoj sezadi.

²⁶ https://kopilkaurokov.ru/nachalniyeKlassi/prochee/formirovaniie_chitatiei_skikh_materiesov_u_mladshikh_shkol_nikov_1

Kattalarning ularga bolaga qaraganday qarashi o'smirlarga malol keladi. Bunday holat kattalar bilan o'smirlar o'rtasida noxush ziddiyatlarga olib keladi. O'smir yoshida bola jismi va ruhiyatida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi: jinsiy rivojlanish tezlashadi. Bu hol qiz bolalarda 11-13, o'g'il bolalarda 13-15 yoshlarda juda faol kechadi. Akseleratsiya (rivojlanish jarayonining tezlashishi) natijasida ayrim bolalarda o'smirlik davri ikki-uch yil oldin boshlanishi ham mumkin. Bunda bolalarning bo'yi o'sadi, og'irligi ancha ortadi, ko'krak hajmi kattalashadi. Jinsiy yetilish va jismoniy rivojlanish o'smirlarda yangi ruhiy xususiyatlarni vujudga keltirib, ularda qarama-qarshi jinsga qiziqishni kuchaytiradi. Bu jarayon ta'lim-tarbiyada ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirib, o'qituvchilardan o'smirlarga yondashuvda nazokat, ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Ushbu bosqichda "Adabiyot" alohida o'quv predmeti tusini oladi. Maktab adabiy ta'limining ikkinchi bosqichida o'quvchilar adabiyotni badiiy so'z haqidagi fan, ko'rkam so'zning folklor, yozma adabiyot, nazariy tushunchalar singari ko'rinishlarini birlashtiradigan alohida metatizim sifatida anglaydilar. O'quvchilar ana shu tizim ichidagi turli qatlamlarni asta-sekinlik bilan o'zlashtirib, ularning mohiyatiga kirib boradilar. Bu bosqichda boshlang'ich maktab davridagiga qaraganda ancha murakkab badiiy asarlar o'rganilishi ko'zda tutiladi. Bu hol o'quvchilar ma'naviyati takomillashuvi va tafakkuri taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu bosqichda sinfda o'qish, mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan badiiy asarlar miqdori o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'payib boradi. O'rta maktab o'quvchilari milliy va dunyo adabiyotining turli davrlarda yaratilgan, turli janrlarga mansub, turli murakkablikdagi asarlarini o'rganadilar. Bu bosqichda qahramonlik, vatanparvarlik, romantik, fantastik mazmundagi, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari, lirik asarlarni o'rgatishga katta e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga o'quvchilar o'rgatilayotgan asarlarni tushunish uchun kerak bo'lgan miqdorda adabiy-nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu bosqichda o'quvchilar adabiy

qahramonlarni tasvirlanayotgan makon va hayotiy vaziyatga muvofiq tinimsiz o'sish-o'zgarishda bo'lgan tirik odamlar sifatida qabul qilishni o'rganishadi. Ular badiiy asarlarning turlari va janrlari borasida muayyan tushunchalarga ega bo'lishadi.

Pedagogika va psixologiya ilmi hamda o'qitish amaliyoti 5-9-sinflarni o'z ichiga oluvchi tayanch maktabda adabiyot o'qitishni V–VII va VIII–IX sinflar tarzida ikki bosqichda tashkil etishni didaktik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblaydi. Garchi, 5-9-sinflarning o'quvchilari bitta tayanch maktab bosqichiga mansub bo'lsalar-da, amalda ruhiy xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan anchagina farq qiladi. V–VII sinflarda adabiyot o'qitish boshlang'ich ta'limning davomi hisoblanib, o'quvchilarda badiiy adabiyotga doir birmuncha ibtidoiy va sodda bilim, ko'nikma hamda malakalar shakllantirish ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichda ham adabiyot adabiy o'qish tarzida uyushtiriladi. Ya'ni adabiy davrlar, badiiy tasvirdagi sifat o'zgarishlari, adabiyot tarixidagi ilmiy tizim haqida tushuncha berish bu bosqichdagi ta'lim jarayonida ko'zda tutilmaydi.

Bu davr adabiy ta'limida badiiy so'z o'smirlarning tasavvurini kengaytirish, fantaziyasini kuchaytirish, ko'rkam so'zning ta'mini tayadigan qilishga yo'naltiriladi. Bu sinflarda o'tkir syujetli, porloq tasvirlarga boy, o'quvchilarda xayolot va tuyg'u uyg'otadigan, hissiyotini boyitadigan badiiy asarlar ko'proq o'rganilishi samara beradi. Bu bo'g'inda o'zlashtiriladigan adabiy-nazariy tushunchalar ham matn mazmunini chuqurroq anglashga yo'naltiriladi. Adiblarning umr yo'li haqidagi qisqa ma'lumotlar esa bolalar uchun namuna va taqlid obyekti vazifasini bajaradi. Asarlarni o'rinlashtirishda xronologik tartibga emas, balki bolalarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan ma'naviy-axloqiy va estetik-pedagogik sifatlariga tayaniladi.

VIII–IX sinflarda adabiy ta'lim ham adabiy o'qish tarzida yo'lga qo'yilsa-da, unda tizimli adabiy-tarixiy kursning boshlang'ich unsurlari ko'zga tashlanadi. Bu hol badiiy matnlarni joylashtirishda, imkoni boricha, adabiyotshunoslik ilmida qabul qilingan tartibga yaqinlashtiriladi. Katta o'smir yoshidagi o'quvchilar turli murakkablikdagi ko'rkam asarlar bilan tanisha

borib, badiiy adabiyotni tizimli kurs sifatida o'rganishga hozirlik ko'radilar.

Ushbu sinflarda o'quvchilarga eng qadimgi davrlardan bugunga qadar bo'lgan milliy adabiyot tarixi, uning tur va janrlari, asosiy asarlari haqida dastlabki tushunchalar beriladi. O'quvchilarga o'zbek adabiyoti tarixi yaxlit bir estetik jarayon ekanligi haqida tasavvur shakllantiriladi. Bu bosqichda badiiy matn jozibasi va tarovatini ta'minlagan tasviriy omillar, adiblarning mahorati, uslubini aniqlashga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarda tahlil malakasini shakllantirish, har bir matn bo'yicha o'zining fikri bo'lishiga erishish ko'zda tutiladi. Bu bosqichda o'quvchilarning adabiy-nazariy bilimlari ham bir qadar chuqurlashadi. Shuningdek, ularda insonning ichki olami, murakkab tuyg'ulari, nozik kechinmalari tasvirlangan asarlarga qiziqish paydo bo'ladi.

5-7-sinflarda adabiyot darslarini uyushtirishda bolalarga xos biologik, psixologik va pedagogik xususiyatlar hisobga olingandagina samaraga erishish mumkin. Ularning g'oyat qiziquvchan, beriluvchan, ayni vaqtda diqqatini bir narsada uzoq to'xtatib turolmaydigan, e'tibori tez bo'linadigan o'smirlar ekani yodda tutilishi lozim. Bu yoshdagi bolalarda xotira kuchli bo'lgani holda diqqatning juda oson va tez chalg'ish xususiyatiga egaligi, bu yoshdagi o'smirlar ertangi kunni tasavvur qilolmaganliklari uchun ularning e'tiborini bir nuqtaga yo'naltiradigan stimulyator mavjud emasligi singari omillar o'smirlarning o'qish jarayonini bir muncha og'irlashtirishi ko'zda tutilishi zarur.

Boshqa ko'pchilik o'zbek metodist olimlaridan farqi o'laroq, Subutoy Dolimov o'zi yashagan sovet davridayoq adabiyot o'qitishga umuman emas, balki turli sinflardagi o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konkret yondashish kerakligini ta'kidlaydi: *“O'rta maktab o'quvchilari yosh jihatdan ikki bosqichga: o'rta yoshdagi (12 yoshdan 15 yoshgacha) bolalar va katta yoshdagi (15 yoshdan 18 yoshgacha) bolalarga bo'linadi. Bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari, his-tuyg'ulari, diqqatlari, xotiralari, xarakterlari xilma-xil bo'ladi va bir-biriga o'xshamaydi”*²⁷, – deb yozadi u. Garchi S.Dolimov kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ruhiy xususiyatlari haqida to'xtalma-

²⁷ Dolimov va bq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1967. 15-bet.

gan va uning qarashlari L.Vigotskiy hamda D.Yelkoninlarning qarashlariga to'la mos kelmasa-da, u o'quvchilarni yosh va ruhiy o'ziga xosliklarga ko'ra guruhlash lozimligini ta'kidlagan birinchi zamonaviy o'zbek olimi edi. Olim o'smirlarning o'z ichlarida ham yoshga bog'liq turli ruhiy-jismoniy bosqichlar bo'lishini ko'zda tutib ish yuritgan adabiyot o'qituvchisigina o'z faoliyatida ijobiy natijaga erishishi mumkinligini ilmiy tadqiqotlarida qayta-qayta ta'kidlaydi.

Ilk metodist olim S.Dolimov o'quvchilarning yosh va ruhiy belgilarini hisobga olmasdan adabiyot o'qitishni tashkil etishga urinish ta'lim kechimi uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini aniq misollar asosida ko'rsatib beradi. Jumladan u: *"30-yillarning boshlarida tuzilgan adabiyot darsliklari va xrestomatiyalari tarixiy prinsipga asoslangan edi. Hatto, V sinf o'quvchilariga mo'ljallangan adabiyot darsligi va xrestomatiyasi ham tarixiy prinsipda tuzilgan edi. Bu ahvol darslik va xrestomatiyalarni qiyinlashtirdi. Ushbu qo'llanmalar V–VII sinf o'quvchilarining bilim saviyalaridan ancha yuqori turardi"*²⁸, deb yozadi. Afsuski, adabiy o'qishni tizimli kursdan, metodik qo'llanmani o'quv qo'llanmasidan farqlay olmaydigan kimsalarning zug'umi bilan bu hol bugunga qadar davom etib kelmoqda.

Subutoy Dolimov bundan yarim asrcha oldin adabiy ta'lim uchun konkret yoshdagi, o'ziga xos o'quvchini ko'z oldiga aniq keltirib tadbir belgilamagan adabiy ta'lim muvaffaqiyatga erisholmasligini ko'rsatgan edi. U inson turli yoshda turlicha ruhiy-intellektual imkoniyatlarga ega bo'lishi bois bir asarni turli vaqtda turlicha qabul etishi mumkinligini o'z vaqtida: *"Kitobxonlar bir turdagi asarlarni xilma-xil idrok etadilar. Asardagi obrazlar ham kishilarning yoshiga qarab ta'sir etadi"*²⁹, – deya tushuntirgan edi.

Yosh psixologiyasiga doir bilimlarni chuqur egallagan olim turli yoshdagi o'quvchilar orasida farqlar borligini qayd etish bilangina cheklanib qolmay, bu o'zgachaliklar nimadan iborat ekanligini ham ko'rsatib beradi: *"V–VI sinflarning o'quvchilari ...asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning hayotiga, boshidan*

²⁸ Dolimov va bq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 1967. 48-bet.

²⁹ Dolimov va bq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 1967. 53-bet.

*kechirgan voqealariga ko'proq qiziqadilar, ammo asarning badiiy xususiyatlari, yozuvchining yashagan davri va sharoiti, uning tarjimai holi bu sinf o'quvchilarini uncha qiziqitirmaydi*³⁰.

Olim turli sinfdagi o'quvchilar ruhiyatida ro'y beradigan ruhiy-jismoniy kechimlar tadrijini sinchkovlik bilan kuzatadi. Ularning universal qirralarini nozik ilg'aydi va undan adabiyot o'qitishda foydalanishning to'g'ri yo'llarini tavsiya etadi: *"VII–VIII sinflarning o'quvchilari insoniy xarakterga asta-sekin qiziqqa boshlaydilar, ularni bir xil chiroyli ifodalar bilan tasvirlash qiziqitirmay qo'yadi, ular endi xilma-xil sifat va xislatlarga ega bo'lgan xarakterlarni o'rganishga intiladilar. Bu sinflarning o'quvchilari yozuvchiga va uning turmushga bo'lgan munosabatiga ham qiziqadilar"*³¹. Olimning bu qarashlari adabiyot o'qitishni pedagogik maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun turli sinflarda turlicha didaktik tadbir qo'llash kerakligini anglatadi. Bu fikrlardan tabiiy ravishda adabiyot darsliklari qanday bo'lishi zarurligi ham anglashiladi.

Ko'rinadiki, adabiyot muallimi o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ruhiy taraqqiyotlaridagi o'ziga xosliklarni hisobga olgandagina uning faoliyati samara keltiradi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchisi ertaklar olamiga yaqin ekanligini, uning uchun hayvon va o'simliklarning so'zlashi, shamol, momoqaldiroq, chaqmoq singari tabiat hodisalarining odam yoki boshqa biror jonliq tarzida tasavvur etilishi sog'lom bir hol ekanligini unutmaslik kerak. Bu sinflarning o'quvchilari etik, ruchka, sichqon, dog', dasturxon xuddi odam kabi harakat qilib, insonday so'zlashi tasvirlangan multfilmlarni ko'rib ulg'aygan. Demak, bu sinflarda o'rgatilishi lozim bo'lgan adabiy materiallar ham shunga yarasha, ertak va multfilmlarning davomi kabi bo'lgani ma'quldir.

Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, 5–7-sinflarda o'rgatiladigan badiiy asarlar egamanlikkacha bo'lgan davrdagiday xronologiya tartibida emas, balki o'quvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan ma'naviy sifatning qandayligidan kelib chiqib joylashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

³⁰ Dolimov va bq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 1967. 57-bet.

³¹ O'sha joyda.

Aytish kerakki, adabiyot bo'yicha amaldagi dasturlarda shu talab imkon darajasida hisobga olingan. Chunonchi, bu sinflarda o'rganilishi ko'zda tutilgan badiiy asarlar tarbiyaviy yo'nalishiga ko'ra turli ruknlar asosida joylashtirilgan va o'quvchilarda ma'lum ma'naviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

5-7-sinflarda o'rganish uchun adabiy materallarni tanlash va ularning solishda asar tilining soddaligi, voqeabandligi, syujet rivojining shiddatkorligi va oson esda qolishi kabi jihatlar hisobga olinishi zarur. O'quvchilarning yoshlari ulg'ayib, hayotiy, aqliy va hissiy tajribalari ortib borgani sari ularga beriladigan adabiy materiallar ham murakkablashib boradi.

5-sinf adabiyot darslarida folklor materiallari bir muncha keng o'rganilishi maqsadga muvofiq. "Uch og'a-ini botirlar", "Susam-bil", "Bulbul" ertaklari syujet liniyasining sertarmoqligi, qahramonlar taqdiri tasvirining 11-12 yashar o'smirlar tushunchasiga yaqinligi, ruhiy holatiga mosligi bilan o'quvchilarga ta'sir qiladi va ularni ezgu insoniy sifatlar egasi bo'lishga undaydi.

6-sinfdagi bolalar ham o'ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatga ega dirlar. Bu yoshda o'quvchilar mustaqil ko'rinishga, tavakkalchi xifatida avantyuristik qarorlar qabul qilishga intilishadi. Bundan tashqari, adabiyot o'qitishda ham shu xil sifatlar hisobga olinishi zarur. Shuning uchun ham 6-sinf "Adabiyot" darsligiga o'tkir syujetli, avanturalarga hamda nozik ruhiy tahlillarga boy "Sariq loyini minib", "Yulduzlar mangu yonadi" singari asarlar kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, bu yoshdagi o'smirlarda hissiyot, sezimlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor zarurligidan iboratliklarda ruhiyat manzaralari aks ettirilgan, bir o'qishda tushunilishi og'ir bo'ladigan asarlar ham o'rin olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabda 7-sinf dan boshlab adabiyot o'qitish bir muncha murakkablashadi. Bu sinf talabalari adabiy o'qish bilan birgalikda adabiyot nazariyasi bilan ham kengroq tanishtirilishi kerak. Bolalarda badiiy asarni, undagi obrazlarni tahlillash ko'nikmalari takomillashib boradi. Bu davrda mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishga ham o'rin berish foydali bo'ladi.

5–7-sinflarda adabiyot o‘qitish o‘quvchilarda mustahkam axloqiy sifatlarni qaror toptirish, ularni badiiy so‘z go‘zalligidan ta’sirlanadigan, uni qo‘llashga intiladigan qilib tarbiyalashga qaratiladi. Bu sinflardagi adabiy ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, bir tomondan, u boshlang‘ich sinfning davomi, ikkinchi tomondan, keyingi sinflardan adabiyot o‘qitish uchun asos. Bu sinflarda asosiy e’tibor adabiy asarni o‘qish asnosida o‘quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishga qaratiladi. Agar 5–7-sinflarda adabiyot yaxshi o‘qitilmasa, bolalarda shu yoshda badiiy asarga qiziqish uyg‘otilmasa, undan keyingi sinflarda o‘quvchilarning ko‘rkam adabiyotni sevishlari gumon.

10–14 yoshlarda bola o‘ta qiziquvchan, kattalarga taqlidchan bo‘lishadi, kattalarday bilimdon, aqlli, so‘zamol, kuchli ko‘rinishni istashadi. Adabiyot o‘qituvchisi bolalardagi mana shu xususiyatdan foydalanishi, ularning kuchini badiiy asar o‘qishga yo‘naltira bilishi, shu yo‘lga katta, kuchli, bilimdon, aqlli bo‘lishga olib borishiga kichik o‘smirlarni ishontira bilishi zarur.

8–9 sinf o‘quvchilarida analitik fikrlash kuchliroq bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘zlariga tashqaridan qarashga urina boshlashadi. Binobarin, bu sinflardagi o‘quvchilarga ruhiy tug‘yonlar, nozik hissiyotlar aks etgan asarlarni tavsiya etish mumkin. Ayni vaqtda, ular olamni tizimli tushunishga, har bir hayotiy hodisaning boshi va oxiri borligi, ularni sabab-oqibat munosabatlari doirasida anglash lozimligini bilishadi. Shuning uchun ham bu yoshdagi o‘quvchilarga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan badiiy asarlar bir qadar murakkablashib, ularning zamiridagi ma’noni ilg‘ash uchun o‘quvchilardan bir qadar aqliy va hissiy zo‘riqish talab etiladi.

Ushbu bosqichda yozuvchilarning umrbyoniga e’tibor bir muncha ortadi. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilar ijodkor shaxs va uning hayot tarzi bilan uning uslubi o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir qadar anglay boshlashadi. Bu hol o‘smirlar ma’naviyatida jiddiy sifat o‘zgarishlari ro‘y berishiga ruhiy, axloqiy va estetik zamin tayyorlaydi.

O‘rta maktab bosqichi (10–11-sinflar). Odam umrining bu davri “Yosh psixologiyasi” fanida o‘spirinlik, deb atalib, 16–18 yoshlarni o‘z ichiga oladi va **katta maktab yoshi**, deb ham yuritiladi. Bu davrda yigit-qizlar jismoniy jihatdan balog‘atga yetadilar.

O'zmiroluk davridagi shiddatli o'sish o'rniga o'spirinlik bosqichi-
da inson vujudining sokin, lekin to'xtovsiz taraqqiyoti kuzatiladi.
O'spirinlikda jinsiy balog'atga yetiladi, o'smirlik yoshidagi yurak
va tomirlar taraqqiyotidagi nomuvofiqlik o'rnini ichki sekretiya
bezlarining ritmik ishlashi, qon bosimining bir xilligi egallaydi.
O'spirinlikda tananing o'sishi sekinlashib, muskullar rivojlanadi,
kuchi ko'payib, ko'krak qafasi hajmi sezilarli kengayadi, gavda
va undagi muchalarning uyg'un shakllanishi nihoyasiga yeta bosh-
laydi.

O'spirinlikda kishining o'z-o'zini anglashi, o'z hayoti va
mehnat faoliyati yo'nalishini tanlab olish jarayoni ro'y beradi. Bu
davrida odam o'z jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy taraqqi-
yotining shunday bosqichiga erishadiki, endilikda o'zining ha-
yot yo'lini belgilashni o'ylaydi. O'spirin shaxsi uning jamiyatda,
jamiyada, ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan yangi maqomi
to'g'irida shakllanadi.

O'spirinning asosiy ijtimoiy faoliyati o'qish va foydali
mehnatdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida amal qilinayot-
gan ta'lim tizimiga ko'ra, o'spirinlar o'rta maktab, kasb-hunar
kollejlari, akademik litseylar yoki texnikumlarda tahsil olisha-
yotgan bo'lishadi. Bu muassasalardagi sharoit o'spirinlarda ezgu
shaxslik sifatleri shakllanishini ta'minlaydigan tarzda bo'lishi
kerak. O'spirinlar o'z kelajakleri, jamiyatda to'laqonli hayot ke-
chirish uchun egallashleri lozim bo'lgan o'rinleri haqida jiddiy
tashvish qotirishadi. Ular kelajakda yaxshi yashash uchun bu davr-
da o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning
hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishini bilishadi va shunga qarab
o'z faoliyatini yo'lga qo'yishadi. Shuning uchun ham o'spirinlar
arasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu kasbni tanlashga yoppasiga
tushish kuzatiladi.

O'spirinlar uchun qiziqishlar kengligi, hayotiyliigi va tur-
li tumanliigi xos. Ularning bilish, o'rganishga qiziqishleri qat'iy,
turg'un va amaliy xususiyatga ega bo'ladi. Ularning o'zlari bil-
imsoqchi bo'lgan sohalarga doir o'qirmanlik qiziqishleri sezilarli
otadi. Bilimning biror sohasini tanlab, unga alohida e'tibor bilan
qaraydigan bo'lishadi. O'spirinlarda aqliy faoliyat mustaqil va

ijodiy xarakter kasb eta boshlaydi. Biror ishga diqqatini to'play bilish imkoni ortadi, mantiqiy fikrlashning turli ko'rinishlaridan foydalanish malakasi shakllana boradi. Ularning intellektual faoliyati chuqurlashib, umumlashtirish va abstraktlashga, ijtimoiy va ruhiy hodisalarning sababini izohlashga, chuqur va asosli xulosalar chiqarishga, o'zgalarning qarashlariga tanqidiy yondashishga moyillik ortadi. Shuning uchun ham o'spirinlik shaxsning keyingi hayot yo'lini tayin etishda eng muhim va hal qiluvchi bosqichdir.

O'spirinlar katta yoshdagilar bilan faol munosabatga kirishishlari ularda shaxslik sifatlarining to'liq tarkib topishiga olib keladi. Bu hol ular dunyoqarashining shakllanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'spirinlar o'qiydigan, mehnat qiladigan muhitning ma'naviy jihatdan beg'ubor va shaxs kamolotiga yo'naltirilgan bo'lishi g'oyat muhimdir. Shunday na ularni shaxs kamolotiga zarar keltiradigan zararli qarashlar, e'tiqodlar, g'oyalar ta'siridan saqlab qolish mumkin bo'ladi.

O'spirinlar o'zlari tanlagan ma'naviy o'lchovlar, qadriyatlar tizimiga muvofiq yashashga urinishadi. Shuning uchun ham katalardan ularning ma'naviy-axloqiy qiyofalari shakllanishiga alohida e'tibor talab qilinadi. O'spirinlarda tuyg'ular rang-barangligi va teranligi kuzatiladi. Ular salbiy holatlarni og'ir kechiradilar, adolatsizlik, nohaqlik singari ko'rinishlarga murosasiz bo'lishadi va bundan kuchli ta'sirlanishadi. O'spirinlar hayotida badiiy-estetik va intim tuyg'ular katta o'rin tutadi. Ayniqsa, ular uchun sevgi tuyg'usi katta ahamiyat kasb etadi. Agar o'spirinlarda bu sezim to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, ularning hayot yo'llari ravon bo'lishi, aksincha esa, o'zlarining ham, o'zgalarning ham hayotini izdan chiqarishi mumkin. O'spirinlarni yuksak tuyg'ularga ishonch va ularning tozaligini saqlashga odatlantirish muhimdir.

O'spirinlarda do'stlik tuyg'usi chuqur ildiz otganidan do'st va do'stlikka tashna bo'lishadi. Shuning uchun ham bu davrda tengqurlar orasidagi munosabatlar o'smirlikdagiga qaraganda anchagina mustahkam va doimiy ko'rinish kasb etadi. O'spirinlik kuch-quvvat to'lib-toshgan, intilishlar chegara bilmaydigan, inson romantik xayollar og'ushida yashaydigan davrdir. Ular qahramonliklar ko'rsatishga, ko'pchilikning e'tirofi va e'tiborini

qozonishga intilib yashashadi. O'spirinlarda o'z-o'zini anglash kuchli bo'ladi. Ular o'z-o'zini anglashdan o'z-o'zini tarbiyalash bosqichiga o'tishga qobil bo'lishadi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi adabiyot bo'yicha ham o'zidagi jismoniy, ruhiy va intellektual xususiyatlarga mos keladigan yo'sinda tahsil olsa, ularda ezgu shaxslik sifatleri shakllanishi tezlashadi. Balog'at ostonasidagi o'spirinlarga adabiyot tizimli kurs sifatida o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu bosqichda o'zbek va ochun adabiyotining o'zlashtirish unchalar oson bo'lmagan namunalari bilan tanishish o'spirinlar kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu bosqichdagi o'quvchilarni o'rgatilayotgan badiiy asarlarning ko'rkamlik jihatlari ilg'ashga, bitiklar zamiridagi tagma'nolarni anglashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. O'spirinlar bilan ishlaydigan adabiyot o'qituvchisi o'qitilishi dasturda ko'zda tutilgan asarlar bilangina emas, balki hozirgi adabiy jarayon bilan ham yaxshi tanish bo'lishi, o'spirinlarning ma'naviy ehtiyojlariga mos keladigan ko'rkam yangiliklardan ularni xabardor qila bilishi katta ahamiyatga egadir.

O'spirinlar adabiyot nazariyasi, ijodkorlar umryo'liga doir ma'lumotlar bilan o'rganilayotgan asar o'rtasidagi aloqani anglay biladilar. Shuningdek, bu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish o'qilayotgan ko'rkam bitikni tushunishga yordam berishi mumkinligini anglab yetadilar. O'qituvchi o'spirin o'quvchilarga kula sifatida emas, balki tengdosh, fikrdosh odam sifatida munosabatda bo'lishi adabiyot saboqlarining muvaffaqiyatiga omil bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisi ham, maktab adabiy ta'limi uchun ashyolar tayyorlash bilan shug'ullanadigan mutaxassislar ham har qanday yoshdagi o'quvchilarida o'z fikrini bildirish, mustaqil qarashni bayon etishga kuchli ehtiyoj borligini hisobga olgan holda adabiy materiallarning tayyor talqinlarini bermay, matn bilan tanishgan har bir o'quvchining o'z fikrini aytishiga imkon qoldirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda millat yoshlari har qanday to'g'ri har qanday xatti-harakati haqida o'z to'xtamlariga ega bo'ladi, bu hol ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishlarida ayri-ayri ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerakligi sabablarini asoslang.
2. Boshlang'ich sinflarda badiiy matn bilan ishlashning o'ziga xosligi nimalardan iborat?
3. Kichik o'smirlarga adabiyot qanday o'rgatilishi kerak?
4. 8–9-sinflarda ko'rkam adabiyot o'qitilishining o'ziga xosligiga to'xtaling.
5. O'spirin yoshidagi o'quvchilarning adabiyot saboqlari qanday uyushtirilishi kerak?

ADABIYOT O'QITISH METODLARI

Reja:

1. Ta'lim metodi tushunchasining mohiyati.
2. O'qituvchi faoliyatini tashkil etishga qaratilgan metodlar.
3. O'quvchilar faoliyatini uyushtirish ko'zda tutilgan o'qitish usullari.
4. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qitish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Metod, yo'l, usul, an'anaviy metodlar, evristik metod, tadqiqot metodlari, ta'limning obyekti, ta'lim subyekti, o'quvchi ta'lim kechimidagi obyekti va subyekti sifatida, metodni belgilashda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati va ta'lim mazmuni chambarchasligi, metod tushunchasidagi o'zgaruvchanlik, har bir o'qituvchining o'z metodlari borligi.

“Metod” atamasi yunoncha “methodos” soʻzidan olingan boʻlib, yoʻl; tadqiqot, oʻqitish, bayon etish usuli; xatti-harakat usuli; usul, usullar yigʻindisi maʼnolarini anglatadi. Oldinlari pedagogika ilmida taʼlim metodi tushunchasi oʻquvchi bilan oʻqituvchining birgalikda faoliyat koʻrsatish yoʻllarini oʻz ichiga oladigan kategoriya tarzidagina tushunilardi. Endilikda taʼlim metodi atamasining maʼnosi bir qadar kengayib oʻquvchilar va oʻqituvchining birgalikdagi faoliyatidan tashqari taʼlim mazmu-

ni yoki erishiladigan didaktik natijani ham o'z ichiga oladigan bo'ldi. Negaki o'quvchilar bilan o'qituvchining aynan biror yo'sinda birgalikda faoliyat ko'rsatishi tasodifiy bo'lmay, balki muayyan ta'lim mazmunini o'zlashtirish asosida qandaydir didaktik natijaga erishishga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim metodi shaklini ko'pincha ta'lim mazmunining tabiati qandayligi belgilaydi.

Ke'rinadiki, metod pedagogik kategoriya sifatida o'quv-tarbiyaviy jarayonda ko'zlangan umumiy maqsadga erishishning yo'lini anglatadi. O'qitish jarayonida muayyan metod qo'llanishi uchun a) o'quvchilar; b) o'qituvchi; v) o'zlashtiriladigan o'quv mazmuni, ya'ni erishiladigan natija kabi uch unsur bo'lishi kerak. *Ko'zda tutilgan pedagogik natijaga erishish uchun o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini uyushtirish tarzi o'quv metodini anglatadi.*

Adabiyot saboqlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati g'oyat xilma-xildir. Ana shu xilma-xil faoliyat uslubi o'qitish metodlarini tashkil etadi. Deylik, o'qituvchi yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntirmoqda, u tushuntirish metodini qo'lladi; o'quvchilar qandaydir bir matnni o'zlari o'qishmoqda bu mustaqil ish metodi; o'quvchi amaliy mashg'ulotni bajarimoqda – dars amaliy mashg'ulot metodida uyushtirilgan; o'qituvchi u yoki bu topshiriqni qanday bajarish yuzasidan tushuncha bermoqda, u instruktaj (ko'rsatma) berish usulini qo'lladi; saboqda ko'riqmatli quroldan foydalanildi, darsda illyustratsiya metodi ishlatildi va bq.

Shu xil yondashuv turli metodist olimlar tomonidan o'qitish metodlarining miqdor jihatdan ham, nomlanishiga ko'ra ham xilma-xil tasniflanishiga olib kelgan. O'qitish metodi a) o'qitishning usuli; b) ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'li; d) ta'lim subyektlari faoliyatining xarakteri singari uch jihatni o'z ichiga oladi. Demakki, ta'lim metodida o'qituvchining o'rgatish usullari bilan o'quvchilarning o'rganish usullari birgalikdagi faoliyati namoyon bo'ladi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati deyatganda hamisha muayyan vaqt oralig'ida amalga oshiriladigan o'qitish jarayoni ko'zda tutiladi. Bu zamoniyl oraliqning davo-

miyligi **butun o'qish davri** (mamlakatimizda o'rta maktabda o'n bir yil, o'rta maxsus ta'limda bir-ikki yil, bakalavriat ta'limida to'rt yil, magistratura ta'limida ikki-uch yil), bir **o'quv yili**, bir **o'quv choragi**, bir necha soat davomida o'rganiladigan **kattaroq bo'lim** (modul) yoki bir **o'quv soatiga** teng bo'lishi mumkin. O'quvchilar bilan muallimning sheriklikdagi faoliyati shu kabi zamoniy oraliqlarda amalga oshiriladi. Ana shu davriy oraliqning katta-kichikligi hamda o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ta'lim mazmunining tabiati va miqdoriga qarab muayyan ta'lim metodi tanlanadi.

Ta'lim metodi tushunchasini turli olimlar turli davrlarda turlicha izohlaganlar. Chunonchi, sovet davri adabiyot o'qitish metodikasining yetuk vakillaridan biri professor V.V.Golubkov metodini shunday izohlaydi: *"...ta'limning muntazam qo'llanilib, pedagogik ishning umumiy yo'nalishiga katta ta'sir ko'rsatadigan usullaridir"*³². U adabiyot o'qitishning *leksiya, adabiy suhbat va mustaqil ishlar* kabi uch metodi borligini aytadi.

Sovet adabiyot metodikasi ilmining keyingi avlodiga mansub professor N.I.Kudryashev metodlar tizimini *"...o'qituvchining yo'naltiruvchi rahbarligi ostida o'quvchilar bilish faoliyatining mantig'iga muvofiq tanlanadigan yo'P"* sifatida izohlaydi³³. Olim *ijodiy o'qish metodini* adabiyot o'qitishdagi eng samarali usul deb biladi.

M.N.Skatkin, I.Y.Lerner kabi olimlar o'qitishning a) axborot-retseptiv, b) reproduktiv, v) muammoli bayon, g) evristik, d) taqiqotchilik singari metodlari borligini ko'rsatishadi. Shuningdek, ular ta'lim metodining *"...o'quvchilar bilan o'qituvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishga xizmat qiladigan birgalikdagi muntazam faoliyat tizimi. Uning tabiatiga xos jihatlar a) ta'lim maqsadi, b) o'zlashtirish usuli, v) o'qish usullarining o'zaro bog'liqligini ta'minlashda namoyon bo'ladi"*³⁴, – deb ta'kidlaydilar. E.I.Perovskiy, N.M.Verzilin, E.Y.Golant singari rus olimlari

³² Голубков В. Методика преподавания литературы. – Москва: Просвещение, 1962. – С. 69.

³³ Кудряшев Н. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 1981. – С. 36.

³⁴ Российская педагогическая энциклопедия: В 2 т.; Т. 1. – Москва: 1991. – С. 566.

og'zaki, ko'rsatmali va amaliy singari ta'lim metodlarini ko'rsatadilar. M.A.Danilov, B.P.Esipovlar esa adabiy ta'limning bilim olish, ko'nikma va malaka shakllantirish; olingan bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash, mustahkamlash hamda bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish kabi metodlari borligini qayd etishgan³⁵. Bu borada taniqli rus olimi Babanskiyning qarashlari ham xarakterli³⁶. O'zbek metodist olimlari: Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalar adabiyot o'qitishning suhbat, evristik, tadqiqot, inqisodlash, induktiv, deduktiv, fikriy hujum, ssenariyli dars singari metodlari mavjudligini ko'rsatadilar³⁷. Shuningdek, bu masalaga professor A. Zunnunov, professor B. To'xlievlar ham o'z asarlarida munosabat bildirishgan³⁸.

Ta'lim metodi tushunchasining o'z ichiga o'quvchi, o'qituvchi va ta'lim mazmuni singari unsurlarni olishidan kelib chiqqan holda unga shunday ta'rif berish mumkin: *"Muayyan ta'lim mazmunining o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan birgalikdagi didaktik faoliyatga ta'lim metodi* deyiladi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlar hamda o'qitish amaliyotidan kelib chiqiladigan bo'lsa, ta'lim metodlarining bir necha yo'sinda tasniflanishini ko'rish mumkin. Bunday tasniflashda ta'lim subyektlari va obyektidan qaysi birining faoliyatiga birlamchi ahamiyat berilishi hal qiluvchi o'rin tutadi.

Agar ta'limdagi asosiy subyekt bo'lmish **o'qituvchi faoliyati** diqqat markazida tursa, o'qituvchining o'z faoliyatini tashkil etish usullari aks etgan ta'lim metodlari yuzaga keladi. Didaktikaga jihatli deyarli barcha adabiyotlarda **ma'ruza, suhbat, ko'rsatmali** kabi an'anaviy metodlarga keng to'xtalangan. O'qitish metodining bu xil tasnifiga o'quv axborotlari yoki ta'lim mazmunining o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yetkazish yo'llari asos

³⁵ Данил Б. А. Методика преподавания литературы. Учебная хрестоматия. Просвещение, – Москва: 2007.

³⁶ Бабанский Ю.К. Методы обучения современной общеобразовательной школе. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 140-142.

³⁷ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya Ziyo, 2020. 87-bet.

³⁸ Zunnunov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1999. To'xliev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2010.

bo'ladi. Demak, bunday metodlarda o'qituvchi xatti-harakatlari birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Agarda ta'lim metodlarini tasniflashning asosiga bilimlarni o'zlashtirishda o'qitish kechimining obyekt va subyekt bo'lmish **o'quvchilarning faoliyati** qo'yiladigan bo'lsa, **reproduktiv, izlanish, qisman izlanish, tadqiqiy, amaliy, interfaol** singari metodlar tizimi yuzaga keladi.

Mabodo, o'qitish metodlari **ta'lim mazmunining** qay usulda o'zlashtirilishi asosida guruhlashtiriladigan bo'lsa, quyidagi tasnif yuzaga keladi:

1. Dasturlash metodi.
2. Evristik metod.
3. Muammoli ta'lim metodi.
4. Modelli ta'lim metodi.

Diqqat qilingan bo'lsa, tasnif etilayotganda birlamchi e'tibor subyekt (o'qituvchi)ga, bir vaqtning o'zida ham obyekt va ham subyekt bo'lmish o'quvchiga yoki ta'lim mazmuni (bilim, ko'nikma va malakalar)ga qaratilishiga mutanosib ravishda ta'lim metodlari yuzaga kelishi ma'lum bo'ladi.

O'tgan asrning 80-yillariga qadar ta'lim jarayonini tashkil etadigan unsurlar qat'iy ravishda o'z o'zini va faoliyat turiga ega edilar. Chunonchi, o'qituvchi ta'lim kechimining ijrochisi (subyekt) o'qitadi, o'quvchi ta'lim kechimining qatnashchisi (obyekt) o'qiydi, bu jarayonda ta'lim mazmuni (bilim – obyekt) o'zlashtiriladi deb qaralardi. Ya'ni ta'lim jarayonida **ikki obyekt** – o'quvchilar va ta'lim mazmuni hamda **bir subyekt** – o'qituvchi qatnashardi. Keyingi vaqtda bu tushunchalar bir qadar tahrirga yuz tutdi. Chunki pedagogika ilmi va amaliyotiga hamkorlik pedagogikasi degan tushuncha kirib kelishi bilan yuqorida tilga olgan tushunchalarning mohiyati jiddiy ravishda o'zgardi.

Endilikda o'qitish kechimidagi ikki subyekt – **o'qituvchi va o'quvchilar** hamda ikki obyekt – **o'quvchilar va ta'lim mazmuni** ishtirok etadigan bo'ldi. Negaki keyingi yillarga kelib, o'qituvchi o'quvchilarni o'qitmasligi, balki uni o'qiydigan holatga solishi, yo'naltirishi mumkinligi va kerakligi anglab yetildi. Zero, agar o'qituvchi o'quvchilarni chindan ham o'qitganda, bir sinfda

qi barcha o'quvchilarning bir xil o'zlashtirishiga erishgan bo'lar edi. Chunki muallim sinfdagi bolalarning hammasini birdaniga va bir xil o'qitadi. Vaholanki, shu jarayon natijasida sinfdagi har bir o'quvchi o'ziga xos darajadagina o'qiydi. Buning sababi shundaki, o'qituvchi o'quvchilarni o'qit olmaydi, balki ularni o'qishga ma'lum darajada yo'naltiradi, xolos. Demak, har bir o'quvchi o'z imkoniyati darajasida o'zi o'qiydi. Ya'ni ta'lim mazmunini o'zicha o'zlashtiradi. Binobarin, ta'lim berishning yo'llari, ya'ni metodlar ham shunga mos ravishda o'zgarib boradi.

Shuning uchun ham bugungi kunda o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati **subyekt+obyektlik** emas, **subyekt+subyekt**, ya'ni **o'quvchilar+o'qituvchi** ko'rinishini oldi. Demak, ikkita subyekt yuzaga keldi. Aytilganidek, ta'lim kechimining obyektleri ham ikkita: **obyekt+obyekt**, ya'ni **o'quvchilar+ta'lim mazmunidan** iborat bo'ladi. Bu holat o'quvchilarni ta'lim jarayonining shunchaki qatnashchisi emas, balki ijrochisi maqomiga ibtifoq qilishini talab etmoqda. Buning ustiga, keyingi vaqtlarda o'qitish jarayoni **ta'lim mazmunisiz** kechmasligi, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyati to'lig'icha muayyan ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilishi hisobga olina boshlandi. Natijada, ta'lim jarayonining **obyekti** bir qadar kengaydi, endi o'qitishning obyekti sirasiga faqat o'quvchi emas, balki o'qituvchi bilan o'quvchilar birgalikda faoliyat ko'rsatib, o'zlashtirishga qaratiladigan **ta'lim mazmuni** ham kirishi ma'lum bo'ldi.

Hozirgi kunda har qanday ta'lim metodining samaradorligini aniqlash uchun o'qitish jarayonida erishiladigan so'nggi natija aniq belgilab olinishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa, o'quvchining o'qitish boshlanishdan oldin qanday bilim, ko'nikma va malakalarga egaligi, ya'ni **asos daraja** yoki **boshlang'ich holat** aniqlanishi lozimdir. Agar adabiy ta'lim jarayonining eng kichik birligi sifatida bir soatlik dars olinadigan bo'lsa, o'quvchining boshlang'ich holati u dars boshlanguncha bo'lgan davrda ega bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka hamda qadriyatlardan iborat bo'ladi.

Ta'lim kechimining natijasi o'quvchida mavjud bo'lgan o'zicha bilim, ko'nikma, malaka hamda qadriyatlar tizimiga qilin-

gan qo'shimchadan iborat bo'ladi. O'qituvchi bilan o'quvchilarning mana shu jarayondagi faoliyat yo'sinlari **ta'lim metodi** tushunchasini yuzaga keltiradi. Ya'ni muayyan ta'lim mazmunini o'zlashtirish uchun o'qituvchi bilan o'quvchilar qanday usulda faoliyat ko'rsatishlari ta'lim metodini bildiradi. Faqat bu kechimdagi o'quvchilar faoliyatiga birlamchi e'tibor qaratilishi, ularni harakatlantirish yo'llarini topishga ko'proq urinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, bugungi kunda ta'limning **ko'rsatmali bayon metodi, dasturlash metodi, evristik metod, muammoli ta'lim metodi, modeli ta'lim metodi** singari bir qancha usullari kengroq qo'llanilishi zarurligi ma'lum bo'ladi. Alohida ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlari ilmiy va metodik adabiyotlarda qayd etilgan, o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi rasman qayd etilgan usullar bilangina chegaralanib qolmaydi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatning tabiatiga qarab, o'qitish metodlari son-sanoqsiz ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Agar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ko'rsatmali qurollar yordamida muayyan ta'limiy natijani egallash uchun oldin o'zlashtirilgan bilimlarni eslab qolish va kerak vaqtda, ya'ni o'xshash vaziyat yuzaga kelganda ishga solish yo'nalishida faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutilsa, **ko'rsatmali bayon metodi** asosida ish olib borilayotgan bo'ladi.

O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyati natijasida o'qitishning turli bosqichlarida egallanishi lozim bo'lgan didaktik marralar oldindan berilib, unga yetishish yo'llari ko'rsatilsa, ta'limning **dasturlash metodi** qo'llanilayotgan bo'ladi. Ushbu metodning bunday nomlanishiga ta'lim jarayoni xuddi kompyuter dasturlashtirilgani kabi tashkil etilgani sabab bo'ladi.

Agar o'qituvchi tomonidan ta'lim kechimining bosqichlarida erishiladigan natijalar oldindan aniq belgilab berilib, bu natijalarga yetishish yo'llari esa o'quvchilarning oldin o'zlashtirgan bilimlariga tayanib, ularning o'zlari tomonidan topilishi kerak bo'lsa, o'qitish **evristik metod** yordamida amalga oshirilayotgan bo'ladi.

Agar ta'lim jarayonining bosqichlarida erishiladigan natijalar ham, ularga yetishish yo'llari ham belgilab berilmagan bo'lsa,

ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar oldiga jiddiy o'quv muammosi qo'yilib, uni mustaqil hal etish talab qilinsa, **muammoli ta'lim yo'nalishi** yuzaga keladi. Bunda o'quvchilarning ta'limiy izlanishlari jiddiy xarakter kasb etadi. Ular qo'yilgan muammoning yechimini o'zlari topishlari lozim bo'ladi. Ushbu mavzuning boshlanishida alohida qayd etilganidek, ko'rib chiqilgan metodlarning hammasi ham o'quvchilarning avval egallagan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarining faollashtirilishiga tayyoradi. O'quvchilarning biror o'quv fani bo'yicha shu vaqtga qadar nimalarni qay darajada egallaganliklari esa uyga vazifalarni tekshirish, umumiy takrorlash, yalpi so'rash, tanlab so'rash va bq. yo'llar bilan aniqlanib, yangi o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar uchun omil bo'lib xizmat qiladi, ta'lim jarayonida bilimlarga alohida urg'u berilishi kerakligini ta'kidlab turadi.

Keyingi vaqtlarda ochun pedagogikasida ta'lim mazmunini o'zlashtirishning shunday bir yo'sini tobora keng yoyilmoqdaki, bunga ko'ra, o'qish jarayonida nimalarga tayanish va nimalarga urg'u berish kerakligini oldilariga qo'yilayotgan vazifalarni anglash darajalariga qarab o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar. Ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'lida o'quvchilarning o'zlari tomonidan belgilanayotgan dastlabki omillarga tayanib, ular ma'lum natijalarga erishadilar, erishganlarini rejalashtirilgan natijalar bilan solishtiradilar. Erishilgan natijalar rejalashtirilgan natijalarga mos kelmagan taqdirda ishni qaytadan boshlaydilar. Ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llariga muayyan o'zgarishlar kiritib, butun yo'lni qaytadan bosib o'tadilar. Shu tariqa, bolalar ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonining o'zlari anglagan modelini yaratadilar. Shuning natijasida, ta'limning bu metodi **modelli ta'lim metodi** nomini oladi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, butun ochundagi maktablarning ko'pchiligida o'qitishda *sud darsi, aukcion dars, matbuot anjumani darsi, to'y darsi, tergov darsi kabi* didaktik o'yinlardan foydalanish kuchaydi va bu o'yin mashg'ulotlari, aslida, modeli metodning unchalik ham samarali bo'lmagan ko'rinishlaridir.

Savol va topshiriqlar:

1. O'qitish metodi tushunchasining mohiyatini anglatding. Unga ta'rif bering.
2. Diqqat markazida o'qituvchi faoliyati turgan ta'lim metodiga xos belgilarni ayting.
3. O'quvchilar faoliyatini tashkil etish diqqat markazida bo'lgan ta'lim metodlari qaysilar?
4. Ta'lim mazmuni diqqat markazida bo'lgan o'qitish metodlariga xos jihatlarga to'xtal.
5. Ta'lim kechimidagi subyekt tushunchasi nimani anglatadi?

KONSTRUKTIVIZM FALSAFASI, HAMKORLIK PEDAGOGIKASI VA ADABIYOT O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI³⁹

Reja:

1. Jamiyat taraqqiyoti va pedagogik falsafalar munosabati.
2. Konstruktivizm – zamonaviy pedagogik falsafa sifatida.
3. Konstruktivizm – interfaol usullarning falsafiy metodologik negizi.
4. Interfaol metodlarning mohiyati va pedagogik-psixologik asoslari.
5. Interfaol ta'lim va pedagogik hamkorlik.
6. Interfaol metodlarni qo'llashda kichik guruhlarning o'rni.

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik falsafa, konstruktiv pedagogika, olamni o'zlashtirish va ta'lim jarayoni, ta'limning inson bilish yo'siniga muvofiq bo'lishi kerakligi, o'qitish kechimi uchun haqiqatning o'zi emas, unga kelish jarayoni muhimligi, kichik guruh, o'quvchilar mas'ulligi, birgalikda ta'lim, faollikka undovchi ta'lim usuli, interfaollik birgalikda ishlashni taqozo qiladi.

³⁹ Ushbu mavzuni yoritishda pfd., dots. Inobat Rajabovanning "Adabiyot mashg'ulotlarini interfaol usullarda tashkil etish" qo'llanmasi materiallaridan foydalanildi. – T.: Tamaddun, 2010.

Har qanday ijtimoiy faoliyat muayyan ilmiy-nazariy asos ustiga quriladi. Insoniyat tarixi bilan teng bo'lgan pedagogik amaliyot, umumlashtirib olganda, uch asosiy falsafiy yo'nalish asosida yaratilib kelinayotir. Bu falsafiy yo'nalishlar pedagogika ilmi-da *transmissiya*, *transformatsiya*, *transaksiya* tarzida nomlanadi. Qo'shma so'zlardan iborat bu atamalardagi dastlabki *trans* so'zi lotincha bo'lib, "orqali", "orqali o'tish", "vositasida o'tish" ma'nosini anglatadi.

Ta'limni **transmissiya** falsafasi asosida tashkil etish insoniyatning hayotiy tajribasi va fanning taraqqiyoti empirik xarakterda bo'lgan davrlarni o'z ichiga olib, g'oyat uzoq davom etgan. Bu falsafiy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'limda jamiyatning bilimdon a'zosi bo'lmish o'qituvchi o'zi egallagan barcha bilimlarni o'quvchilarga uzatgan, o'quvchi bolalar esa berilgan bilimlarni o'zlashtirishga urinishgan. Bu davrda insoniyat o'zlashtirigan bilimlarning o'zi uncha ko'p va murakkab bo'lmagan. Transmissiya atamasidagi missiya so'zi lotincha uzatish ma'nosini anglatgan. Bu falsafiy yondashuvda o'qituvchi ta'limni amalga oshiradigan subyekt, o'quvchi berilgan bilimlarni egalashi kerak bo'lgan obyekt, egallanadigan bilim esa bosh qadriyat hisoblangan.

Insoniyat egallagan bilimlar miqdori nisbatan ko'payib, ularni yosh avlodga o'zgarishsiz o'rgatish imkonsiz bo'lib qolgach, ta'lim kechimi **transformatsiya** falsafiy yo'nalishi asosida tashkil etiladigan bo'lgan. Bunda o'qituvchining faoliyati u yoki bu fanning o'zini emas, balki uning asoslarini o'rgatishga yo'naltirilgan. Chunki bu bosqichda fan keng tarmoqlangan va juda rivojlangani uchun ham o'quvchilarga ularni to'liq o'tkazish-o'rgatish imkonsiz edi. Shundan kelib chiqib, o'qituvchi transformator vazifasini o'tar, ya'ni muayyan fanning asosiy mohiyatini o'quvchilarga singdirishga urinardi. Bunday falsafiy yondashuv milodiy XVIII asrdan boshlanib, XX yuzyillikning ikkinchi yarmigacha amal qildi.

Transformatsiya atamasidagi ikkinchi lotincha "formatsiya" so'zi bu o'rinda moslashtiruv ma'nosini anglatgan. Bu xil yondashuvda ham o'qituvchi ta'lim kechimining subyekti, o'quvchi-

lar bu jarayon qaratilgan obyekt, bilim bosh qadriyat hisoblanadi. Bu falsafiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'limda ham asosan xotirani mustahkamlashga zo'r berilib, o'quvchi miyasining chap yarim sharini rivojlantirish ko'zda tutiladi. O'quvchi bilimlarni o'zlashtirishi, o'zlashtirganlarini esdan chiqarmasligi muhim hisoblangan.

XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran o'qitish kechimi uchun o'qituvchining aytganlarini eslab qoladigan o'quvchilarni tayyorlash yetarli bo'lmay qoldi. Chunki har qanday kuchli xotira ham cheksiz ochundagi beadad hodisalarning barchasini qamrab ololmaydi. Buning ustiga, xotira yordamida o'zlashtirilgan normativ bilimlardan faqat standart vaziyatlardagina foydalanish mumkin bo'ladi. Nostandart vaziyatda mashaqqat bilan o'zlashtirilgan bilimlar hech narsaga yaramay qoladi. Ma'lumki, tiriklik hech qanday standart-u qolipga tushmaydigan darajada rang-barangdir. Shuning uchun yosh avlodni mustaqil izlanadigan, nostandart vaziyatlarda eng maqbul va original yo'l topa oladigan qilib tarbiyalash kun tartibiga chiqdi.

Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi va inson ruhiyatining hozirgi holati o'qitish kechimining o'zgacha yo'sinda tashkil etilishini taqozo qildi. Ana shu zaruriyatning natijasi o'laroq **transaksiya** falsafiy yo'nalishi dunyoga keldi. Bunga ko'ra, ta'lim mazmuni o'quvchilarning o'z harakatlari, intilishlari natijasida o'zlashtirilishi ko'zda tutiladi. Ya'ni bu falsafiy yo'nalishda o'quvchi ta'lim kechimining **bosh qadriyatiga** aylanib, o'qitish jarayonini o'qituvchi bilan birgalikda amalga oshiradigan **subyekt** maqomida bo'lishi ko'zda tutiladi. Bu davrga kelib ilm shu qadar rivojlanib ketdiki, endi o'quvchilarga ularning asoslarini o'rgatish ham mumkin bo'lmay qoldi. Ilm-u fanning tezkor taraqqiyoti oldinlari xayolga ham kelmagan bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. Chunonchi, o'quvchilarga qaysi fan asoslarini, qancha miqdorda, qachon va qay tartibda o'rgatish kerakligi masalasini hal etish mushkul bo'lib qoldi. Mabodo, bu muammo hal etilguday bo'lsa ham barcha o'quvchilarning bularni o'zlashtirishi zarurmi degan inson huquqlari bilan bog'liq savol ko'ndalang qo'yiladigan bo'ldi.

Transaksiya falsafasi har bir odam olam hodisalarini o'z nazari bilan ko'rganini, o'zining aqli bilan izohlagani kabi uni o'z kuchi bilan o'rganishi ham kerak, deb hisoblaydi. Bu falsafiy yo'nalish olamga o'quv predmeti nuqtai nazari bilan qarashni rad etadi. U olam hodisalarini butunicha, yaxlit o'zlashtirish mumkin, deb qaraydi va buning uchun o'sha hodisalarni anglatadigan ilmiy qonuniyatlarni didaktik jihatdan hazm qilib bo'ladigan tarzda taqdim etish lozim deb biladi.

Transaksiya atamasidagi "aksiya" so'zi lotincha harakat, faoliyat ma'nolarini anglatadi. Bunga ko'ra dastur materiallarini o'zlashtirishga o'quvchilarning o'zlari harakat qilishlari kerak bo'ladi. Bunday yondashuvda endi o'qitish jarayoni ikki subyekt: o'qituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Rivojlangan o'quvchi shaxsini shakllantirish bosh qadriyat hisoblanadi.

Har qanday o'qitish jarayoni hamisha ta'limni boshqarish yo'sini, o'qitish tizimi va o'quvchilarning axborot (bilim) o'zlashtirish tarzidan yuzaga keladi. Axborot almashinish (pedagogikada bilim berish va olish) yo'sini axborotlar oqimi tarzida tasavvur qilinsa, uning qayoqdan qayoqqa qarab yo'naltirilganligi ta'limning tabiatini belgilaydi, deb aytish mumkin. Ya'ni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning o'qituvchidan o'quvchiga yo o'qituvchi bilan o'quvchilardan o'quvchilarga yoki o'quvchilarning o'zlaridan ularning o'zlariga qarab yo'naltirilishi ta'limni amalga oshirishning yo'l va usullarini belgilaydigan omillardir. Pedagogika ilmi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi ishtirokiga ko'ra o'qitish kechimini tashkil etishning uch turi mavjudligini ko'rsatadi.

Ekstroaktiv usul – (*extra* – tashqi, *act* – harakat, faoliyat, ta'dbir) axborotlar oqimi ta'lim oluvchilardan tashqarida bo'lib, ularga yo'naltiriladi. O'quvchi tom ma'noda "o'quvchi" maqomida bo'ladi va tashqaridan yuborilayotgan axborotlarni qabul qilish bilangina shug'ullanadi. Bu usul an'anaviy yo'sindagi o'qitish tarzi uchun xarakterlidir. Bu usulni *passiv ta'lim* deb ham nomlash mumkin. Negaki unda o'quvchi emas, balki o'qitish tizimi faollik ko'rsatadi.

Interaktiv usul – (*inter* – o'zaro, birgalikda) bunda axborotlar oqimini vujudga keltirish ham, yo'naltirish ham va o'zlashtirish

ham barcha qatnashchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu usulda o'quvchi o'quvchi bilan, bir o'quvchilar guruhi boshqa guruh bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda o'qituvchi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Mana shu munosabatlar kechimida axborotlar o'zlashtiriladi.

Introaktiv usul – (*intro* – ichki) axborotlar oqimi o'zlashtirish, asosan, o'quvchilar ichida sodir bo'ladi va natija tashqariga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchilar o'qitishning asosiy subyekti sifatida namoyon bo'ladilar. Bu usul o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatlariga xosdir. O'quvchilar uyda uy vazifasini, sinfda nazorat ishlari hamda turli didaktik topshiriqlarni mustaqil bajarayotganlarida ta'limning introaktiv usuli yuzaga kelgan bo'ladi.

Necha asrlardan buyon qo'llanib kelinayotgan an'anaviy usulda ta'lim berish va o'qish bugunga kelib, axborot texnikalari davri talabiga to'liq javob berolmay qolayotir. Agar oldinlari o'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi yagona manba sanalgan bo'lsa, bugunga kelib u bilim berishning yolg'iz vositachisi bo'lmay qoldi. Bilimning miqyosi kengayib, axborotlar oqimi shu qadar ko'paydiki, bir kishi uning arzimasi bir bo'lagini ham o'zlashtirib ololmaydigan bo'lib qoldi.

Jamiyat a'zolarining saviyasi yuksalishi tufayli oilaning imkoniyatlari ham ortib, o'z bolalariga yaxshigina bilim bera oladigan darajaga yetdi. Shuningdek, axborot vositalarining ko'payganligi, axborotlarni eslab qolish va qo'llashning g'oyat qulay texnik vositalari yuksak darajada rivojlanganligi natijasida o'qituvchi ma'rifat osmonidagi yolg'iz yulduz sanalmay qoldi. Endilikda bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalar hosil etishning o'zgacha yo'llari topilmoqda.

Endi, oldinlari bo'lganidek, miyaning chap yarim shari, ya'ni xotirani kuchaytirishgagina intilish ta'lim kechimi uchun yetarli bo'lmay qoldi. Inson xotirasining o'rnini bosadigan texnik vositalar yaratildi va odam, istagan vaqtda, o'zini qiynab o'tirmay, juda ko'p axborotlarni topib foydalanishi mumkin bo'lib qoldi. Endi fan rivojidadagi o'zgarishlarga moslasha biladigan, mavjud texnik imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, tinimsiz izlanish-

ga ichki ehtiyoji borligidan taraqqiyotni tezlatadigan shaxslarni shakllantirish muhim sanaladigan bo'ldi. Mana shunday sharoitda o'qitishning interfaol usuli katta samara berishi ayonlashdi.

Interfaol metodlarning negizida transaksiya yo'nalishining **konstruktivizm** pedagogik falsafasi yotadi. Ilk g'oyalari ancha oldin paydo bo'lgan konstruktivizm falsafasi XX asrning 60-yillaridan e'tiboran pedagogika ilmida ham nazariy, ham amaliy yo'nalish o'laroq yoyila boshladi. Bunday yondashuvga ko'ra bilim, ko'nikma, malakalar o'quvchilarning o'z faoliyatlari natijasida ularning o'zlari tomonidan konstruksiya qilinadi, ya'ni quriladi. Uzoq asrlik pedagogik tajriba ko'rsatdiki, bu ochundagi biror o'qituvchi biror o'quvchini o'qit olmaydi. Har bir o'quvchining o'zi o'qiydi va u erishadigan ta'limiy natija mavjud o'quv sharoiti, bolaning intellektual imkoniyati va intilish darajasiga to'g'ri nisbatda bo'ladi.

Bolalarni intellektual rivojlantirishda konstruktivistik qarashlardan foydalanish amaliyotining yuzaga kelishiga shvetsariyalik psixolog, faylasuf va pedagog **Jan Piajje** (1896-yil 9-avgust – 1980-yil 16-sentabr), rus psixologi **L.S.Vigotskiy** (1896-yil 5-noyabr – 1934-yil 11-iyun), zamonaviy amerika pedagogikasi-ning otasi **Jon Dyui** (1859-yil 20-oktabr – 1952-yil 1-iyun), amerikalik psixolog **Benjamin Blum** (1913-yil 21-fevral – 1999-yil 13-sentabr) kabi allomalarning ilmiy qarashlari asos bo'lgan.

Konstruktivizm pedagogik falsafasi hech bir odam birovdan tayyor g'oyani shundayicha olmaydi, olsa-da, unga amal qilishda, albatta, o'z yo'lidan boradi, har bir inson hamisha o'z yondashuviga ega bo'ladi, degan qarashga tayanadi. Shuning uchun ham dunyodagi odamlar ayni bir narsa haqida turlicha qarashga ega bo'ladilar. Har bir odam umri davomida atrof olamni o'ziga xos yo'sinda "quradi" va o'zi qurganiday anglaydi. Aynan shuning uchun ham har bir odam o'ziga xos dunyoqarash va e'tiqodga ega bo'lgani bilan betakror hamda qimmatlidir. Birovlarnikiga o'xshamaydigan qarashlarning kishi e'tiborini tortishi sababi ham shunda. Shu bois ham har bir odam uchun o'z qiyofasi, o'z uslubini saqlab qolish g'oyat muhim sanaladi.

Ushbu o'rinda mo'minlarning muqaddas kitobi "Quroni karim" hamda bu bitikdagi nazariy qarashlarning amaliy ifodasi bo'lmish hadislar barchaga birday taalluqli bo'lsa-da, ulardan juda ko'pchilik yaxshi xabardor esa-da, bu talablarga har bir musulmon o'zi anglaganicha, aqli yetganicha, imkoni ko'targanicha amal qiladi. Holbuki, ularga so'zsiz amal qilib yashash imkondan tashqarida emas va shunday qilinsa, ikki dunyo saodati yor bo'lishini barcha musulmonlar bilishadi. Lekin har bir musulmon o'z bilganicha yashayveradi. Bu hol ilohiy talablarni buzishga bo'lgan ishtiyiq tufayli emas, balki odam olamni o'z holiga yarasha anglashi va o'zi eplaganicha yashashga mahkumligining ifodasidir.

Piajye har bir inson egallashi kerak bo'ladigan yangi bilimlar u shu vaqtga qadar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi bo'lmish hayotiy tajriba ustiga quriladi, deb hisoblaydi. Hayotiy tajriba esa tashqi olam va u bilan faol amaliy o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. O'zi va o'zgalarning tajribalaridan to'g'ri foydalanish kishiga yangi sharoitga nisbatan tez va oson moslashish imkonini beradi. Aynan tajribaga suyanibgina odam yangi bilimlarni yangi hayotiy vaziyatlarda amalda qo'llay oladi. Har bir odamda mavjud bo'lgan tajriba uning ta'sirlanish sur'ati, munosabat uslubi, faoliyat usuli, tafakkur yo'siniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shularga o'xshash har bir shaxsda fikrlash tajribasi ham shakllantirilishi lozim. Odam qancha ko'p fikrlash tajribasiga ega bo'lsa, turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'lni osonroq topadi.

Konstruktivizm bilimni o'quvchiga tayyor holda berib bo'lmaydi, degan o'zak qarashga tayanadigan pedagogik falsafadir. O'quvchiga hech kim bilim bermaydi, berolmaydi, u bilimlarni egallash uchun o'zi harakat qiladigan, intiladigan holatga keltirilishi lozim. Ta'lim muhiti esa, o'quvchilarga bilimlarni egallash va ko'paytirib borish uchun sharoit yaratib beradigan darajada bo'lishi kerak.

Konstruktivizm tarafdorlarining qarashlariga ko'ra, ta'limda qanchalik "xom" va yaroqsiz bo'lishiga qaramay, o'quvchining nuqtai nazari muhim sanalishi va o'qitish kechimiga asos qilib

tilinishi kerak. Demak, bu kechimdagi *asosiy qadriyat* bilimning o'zi emas, balki uni egallashi lozim bo'lgan *o'quvchi* sanaladi. Pajye bolada oldin shakllangan mavjud ichki bilimlar bilan ta'lim noma'lumliklarga to'la reallik orasidagi ziddiyat bartaraf etilishi orqali yangi bilimlar "quriladi", barpo etiladi, deb hisoblaydi. Oldingi tajriba asosida bilimning konstruksiya qilinishi, ya'ni qurilishi bu qarama-qarshilikni bartaraf etib, bilishning vaqti-halilik barqarorligi (yoki kognitiv muvozanat)ni ta'minlaydi.

Konstruktivizm *o'quv haqiqatiga erishish kechimini haqiqatining o'zidan ko'ra muhimroq deb biladigan* pedagogik falsafadir. Bunda o'quvchilarning haqiqat yo'lini izlashga kirishishlari, bu faoliyatni amalga oshirishning to'g'ri yo'llarini topishga urinishlari o'ta muhim ekani ko'zda tutiladi. Izlay boshlagan odam qachondir, qandaydir to'g'ri yechimga kelishi, ta'lim jarayoni o'quvchilarda ana shu xislatlarni shakllantirishga qaratilishi kerakligi ushbu pedagogik falsafaning mohiyatini tashkil etadi. *"Ilmiy bilim turg'un hodisa bo'lmay, tinimsiz qurish va qayta tashkil etishdan iborat kechimidir"*, – deydi Jan Pajye. Olim o'quvchilar ana shu tinimsiz jarayonda faol qatnasha borsalar, ularning didaktik haqiqatga kelishlari ham, shaxs sifatida shakllanishlari ham natijali bo'lishini qayd etadi.

Konstruktiv qarashga tayanib yuzaga kelgan va shu asosda qo'llaniladigan interfaol metodlar o'qituvchining vazifa va maqomini bir qadar o'zgartiradi. Sabog'ida interfaol metodlardan foydalanayotgan o'qituvchi dars beruvchi-o'qituvchi emas, balki o'quvchining o'quv muammosiga yo'naltirilgan tadqiqotchilik faoliyatini uyushtirishda maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchi shaxs sanaladi. U o'quvchining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratadi va bolaning fikrlashi, muayyan haqiqatga kelishidagi tashabbuskorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchi esa ta'lim kechimini amalga oshirish va unda mo'ljal qilingan natijaga erishish uchun to'la javobgar bo'lgan teng huquqli subyektga aylanadi.

Interfaol metodlardan foydalanayotgan o'qituvchi o'quvchilarni o'rab turgan real borliqdagi muammolarni ilgari surishga, buning uchun topshiriq sifatida hayotda ko'p uchraydigan

va manbalardan topish mumkin bo'lgan masalalarni berishga e'tibor qilishi kerak. Agar bu xildagi muammolar o'quvchilarning o'zlari tomonidan tavsiya etilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Ayni vaqtda o'quvchilar hal qilishlari lozim bo'lgan muammo hayotiy bo'lgani holda, sun'iy va arziyas bo'lmasligi kerak.

Konstruktivistik pedagogika ta'lim tizimini ham tubdan o'zgartirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bunda o'quvchilardan o'qituvchisining aytganlarini eslab qolish yetarli hisoblanmaydi. Shuning uchun bolalarni mustaqil izlanadigan, original qarorlar qabul qiladigan, nostandart vaziyatlarda eng maqbul yechimni topoladigan yo'sinda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu pedagogik falsafa Jan Piayje tomonidan ishlab chiqilgan bir necha qoidaga amal qilishni ko'zda tutadi. Shulardan birinchisi konstruktivizm falsafasining o'zagida **Jan Piayjening: "...bola o'z intellektining me'moridir"**, – degan qarashi yotadi. Bu qarash o'qitish faol kechimdir, har bir kishi yangi bilimlarni hayotiy tajribasi, aqliy imkoniyati, tirishqoqlik darajasiga muvofiq o'ziga xos yo'sin va miqdorda egallaydi. U yangi tushunchalarni oldin orttirilgan tajribalari ustiga o'zi "quradi" degan fikrga tayanadi.

Konstruktivizm pedagogik falsafasida amal qilinadigan ikkinchi qoida dabdurustdan odamning g'ashini keltirib, unda e'tiroz uyg'otishi mumkin bo'lgan **"Insoniyat paydo bo'lganidan beri hali birorta ham o'qituvchi bironta ham o'quvchini o'qita olgan emas"** tarzidagi keskin to'xtamdir. Bu da'vo oldin kishida norozilik uyg'otsa-da, haqqoniy ekani bilan bu tuyg'uni yo'qqa chiqaradi. Zotan, har qanday o'qituvchi ham sinfidagi barcha o'quvchilarga bir xilda saboq beradi, lekin hech qachon bir xil didaktik natijaga erisha olmaydi. Hatto, sinfidagi barcha bolalar "besh"ga o'zlashtirgan taqdirda ham bu "besh"larning qandaydir ichki darajalanishi bo'ladi. Agar o'qituvchi o'quvchilarni o'qita olganida edi, u barcha o'quvchilarining bir xil natijaga erishishlarini ta'minlagan bo'lardi. Bunday o'qituvchi hali tarixda bo'lgan emas.

Konstruktivizm pedagogik falsafasining oldin AQSHda keyin boshqa rivojlangan mamlakatlarda keng yoyilishini ta'minlagan

uchinchi qoida "*Ta'lim kechimi uchun o'quv haqiqatini topishga urinish bu haqiqatni topishdan kam ahamiyatga ega emas*"lidir. Bunga ko'ra, o'quv jarayoni uchun didaktik haqiqatni topishga astoydil urinish ham muhim sanaladi. Zero, o'qitishdan maqsad ham endilikda haqiqatni mustaqil izlab topishdan iborat bo'ladi.

Ushbu pedagogik falsafa tayanadigan to'rtinchi qoida "*Ta'lim kechimi uchun o'quvchilar fikrining sifati bilan birga soni ham muhim*" shaklida belgilanadi. Odatda, ta'lim jarayonida o'quvchilarning to'g'ri javoblarigina hisobga olinadi. Buning uchun ular og'zaki va yozma maqtov yoki yuqori baho bilan rag'batlantiriladi. O'quvchilarning to'g'ri bo'lmagan javoblari esa hamisha jazolanadi: e'tiborsiz qoldiriladi, dakki beriladi, past baho qo'yiladi, uyaltiriladi va bq. Holbuki, haqiqatni topish uchun esa izlanish kerak bo'ladi. Izlanish jarayoni esa, hech qachon xatolarsiz kechmaydi. Binobarin, bildirgan fikrining saviyasi yuqori bo'lmagan o'quvchini jazolash, uni xato qilish imkonidan mahrum qiladi. Xato qilmaslik uchun esa, izlanmaslik kerak bo'ladi. Konstruktivistlar o'quvchilarda xato qilish, xato bo'lsa-da, ko'proq izlanish, fikr aytish huquqi bo'lishiga alohida e'tibor qaratadilar.

Ko'rinadiki, bugungi pedagogika ilmi va amaliyoti uchun erishilgan didaktik natijadan ham ko'ra, unga kelish yo'li, o'quvchilarning bu kechimdagi izlanishlari, ko'rsatgan tashabbuslari, fikrining sifati bilan birga miqdori ham tobora muhim bo'lib bormoqda. Keyingi vaqtlarda o'qitish amaliyotida g'oyat keng yayilib borayotgan interfaol ta'lim metodlari ayni shu jihatlari bilan e'tiborga loyiqdir. Unda ta'lim jarayonining asosiy og'irligi o'quvchining zimmasiga ortiladi. Bu metodlarning mohiyatini o'qituvchi bilan o'quvchilarninggina emas, balki sinfdagi barcha o'quvchilarning ham bir-biri bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati tashkil etadi.

Interaktiv atamasi "*inter*" va "*akt*" so'zlarining birikuvidan olingan bo'lib, lotincha "*inter*" – o'zaro, birgalikda va "*akt*" – satti-harakat, faoliyat, tadbir ma'nolarini anglatadi. Ya'ni interfaol metodlar ta'lim mazmunining to'liq o'zlashtirilishida o'quvchilarning oldin bir-birlari bilan o'zaro va o'qituvchilari bi-

lan birgalikda faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etishni ko'zda tutadi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishi, tashabbuskorligiga tayanadi. Ayni shu jihat, ya'ni ham o'quvchilar bilan o'qituvchining, ham o'quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlikda didaktik muammolarni hal qilishi pedagogik hamkorlik hodisasini keltirib chiqaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning tashabbuskorligi oshishi, o'quv topshiriqlarining alohida o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga berilishi, ularning o'quv natijalari ham jamoa tarzida baholanishi va buning natijasida bolalarda jamoa bo'lib, birgalikda faoliyat ko'rsatish zarurati va ko'nikmasi yuzaga kelishi, yozma ishlardan keng foydalanish kabilar interfaol ta'lim metodlarining belgilaridir.

Jan Piajye o'zining "Bola ruhiyatining xususiyatlari" asarida ruhshunoslik ilmiga "jismoniy tafakkur" tushunchasini olib kiradi. Kichik o'quvchilar va o'smir yoshidagi bolalarda miya faoliyatining tezligi jismning harakat tezligiga bog'liq ekanini asoslaydi. J. Piajye uzoq yillik kuzatishlari natijasida o'quvchining emotsional-intellektual faolligi bola yolg'iz bo'lganida ham, yigirma-o'ttiz nafarlik to'dadan iboratligida ham emas, balki aynan kichik guruh (KG)lar holda ekanida avj nuqtaga ko'tarilishi mumkin ekanini aniqlaydi. Olim bu yoshdagi bolalarning miqdori qancha bo'lganda, ularning fikrlash samaradorligi eng yuqori darajaga yetishini tekshirib, bolalar to'rt nafardan kam va olti nafardan ko'p bo'lmagan guruhlarda ishlashsa, miya faoliyatining yuqori bo'lishini aniqlaydi. Buning uchun sinfdagi bolalar 4-6 kishilik kichik guruhlariga bo'linib, har bir kichik guruh oldiga aniq o'quv muammosi qo'yilib, muammoni hal qilishda qo'l keladigan didaktik ashyolar berilsa, KGlarining ish unumdorligi oshishi, o'quv muammosi o'quvchilarning o'zlari tomonidan mustaqil hal etilishi mumkinligini ko'rsatib beradi.

Piajye kichik guruhlar tasodifiy va o'tkinchi bo'lmasligi, ular sinfdagi bolalarni puxta o'rgangan o'qituvchi tomonidan har bir kichik guruhda a'lochilar ham, yaxshilar ham, o'rtachilar ham, qoloqlar ham, imkon qadar bir xil miqdorda bo'lishi ta'minlangan holda tuzilib, tarkibi eng kamida yarim o'quv yili davomida

o'zgarmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Interfaol o'qitish usulidagi eng muhim jihat yangi mavzuning o'quvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirishini yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu qanday amalga oshiriladi? Buning uchun sinfdagi o'quvchilar nechta KGga bo'lingan bo'lsalar, o'tiladigan yangi mavzu ham shuncha kichik muammolarga ajratilishi kerak bo'ladi. Har bir kichik guruhga o'sha muammolardan birini hal qilish topshiriladi. Shuni aytish kerakki, dasturda ko'zda tutilgan barcha mavzular yuzasidan ham interfaol usulda saboq uyushtirish samarali bo'laveribdi.

9-sinf "Adabiyot" dasturida "Farhod va Shirin" dostoni o'tib bo'lingach, "Farhod – komil inson timsoli" mavzusi o'tilishi ko'zda tutilgan. Deylik, sinfdagi o'ttiz o'quvchi oltitalik besh kichik guruhga bo'lingan. O'qituvchi yangi mavzuni ham besh kichik o'quv muammosiga bo'ladi va har bir KGga bitta kichik muammoni hal qilish vazifasi topshiriladi. Buning uchun har bir kichik guruh ixtiyorida darslik, "Farhod va Shirin" dostoni, komil inson tushunchasini izohlashga qaratilgan qo'shimcha adabiyotlar, lug'atlar, turli ilmiy jurnallar mavjud bo'lishi kerak. "Farhod – komil inson timsoli" mavzusini quyidagicha kichik muammolarga ajratish mumkin:

1. Dostonda Farhodning komil inson bo'lishida oilaviy muhitning o'rni qanday ko'rsatilgan?

2. Farhodning tabiatidagi komillikka intilishi dostonda qanday aks ettirilgan?

3. Farhodning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy muhitning ta'siri qanday?

4. Boshqa odamlarga munosabatda Farhod tabiatidagi komillik aks etgan o'rinlarni toping.

5. Komil inson tushunchasi mohiyatini anglatning.

O'qituvchi muammoni hal qilish uchun 10 daqiqa vaqt berilishini, undan so'ng javoblar tinglanib KG a'zolariga baho qo'yilishini e'lon qiladi. Barcha kichik guruhlarga o'z oldilaridagi o'quv muammosini yechishga birdan kirishadilar. KG bir a'zosi darslik bilan, boshqasi ilmiy jurnallar bilan, yana biri lug'atlar bilan, boshqasi ijtimoiy tarmoq bilan shug'ullanib muammo-

ga yechim izlaydi. Ikki nafar bola esa, o'rtloqlarining muammo yechimiga qaratilgan fikrlarini qog'ozga tushirib borishadi. Bu jarayonda o'quvchilar fikriga munosabat bildirilmaydi, saralanmaydi. Ular nima deyishsa, qog'ozga tushirilaveradi. Bu jarayon g'oyat qizg'in bo'lib yetti daqiqagacha davom etishi mumkin. So'ng bildirilgan fikrlardan muammoga tizimli va mantiqiy yechim tayyorlanadi. Bu ishga uch daqiqagacha vaqt ketadi. Har bir KG nomidan faqat bir o'quvchi javob beradi. Boshqa kichik guruhdagilar ham ishlarini to'xtatib, uni tinglaydilar. Bir KG nomidan berilgan javob o'sha guruhdagilar tomonidan to'ldirilmaydi. Boshqa guruhdagilardan birortasi qo'shimcha qilishi mumkin. O'qituvchi KG nomidan javob bergan o'sha bir o'quvchini baholaydi va bu baho kichik guruhdagi barcha o'quvchilarga ham qo'yiladi. Shuning uchun KGdagi o'quvchilar o'zlari bilgan barcha narsani javob beradigan o'quvchiga o'rgatishlari kerak bo'ladi. Aks holda ularning bahosi pasayib ketishi mumkin.

O'qituvchi har bir KG vakili javobini tinglaydi, izohlaydi, kamchiligini to'ldiradi, so'ng baho qo'yadi. Har bir KG javobini boshqa KGdagilar ham tinglashadi. Shu tariqa sinfdagi barcha o'quvchilar yangi mavzu yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo'ladilar. To'g'ri, bu yo'sinda uyushtirilgan saboqda izchillik, mantiqiylik, ilmiylik, tushunarlik, tarbiyaviylik va boshqa bir qator ta'lim tamoyillari buzilishi mumkin. Lekin eng muhimi, yangi mavzuni o'quvchilarning o'zlari o'tadilar! Negaki bolalar o'zlari o'qituvchidan oldin qandaydir yangi mavzuni o'zlashtirishlari mumkinligini anglab yetadilar, o'zlariga ishonch paydo bo'ladi. Muhimi, ular nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan ham hamkorlik qilishga, bir-birlariga yordam berishga va shu asnoda yangi bilim o'zlashtirishga erishadilar. Agar an'anaviy ta'lim usulida a'lochi o'quvchilar yolg'iz o'zlari a'lochi bo'lishga intilsalar, interfaol usulda hammaning a'lochi bo'lishiga tiri-shadilar. Negaki sinfdoshining besh olishi unga ham aniq foyda keltiradi. Hamkorlik pedagogikasi shu tariqa yuzaga keladi.

Ayrim mutaxassislar interfaol metodlarning qiziqarli ekani ularning asosiy belgisi, deb o'ylashadi. Sirdan qaraganda, to'g'riday ko'ringan bu to'xtam aslida yangilishdir. Chunki ta'lim jara-

yoni uchun qiziqarlilikning o'zi maqsad bo'lolmaydi. Qiziqarlilik — vosita, xolos. Interfaol usullar ham barcha ilg'or metodlar kabi mohiyatan kuch va resurslarni kamroq sarflab, o'quvchilar bilan kattaroq ta'limiy natijaga erishishga qaratiladi. Butun gap ta'lim metodlarining samarali, ayni vaqtning o'zida, o'quvchilarni zeriktirmaydigan va qiziqarli ham bo'lishini ta'minlashdadir. Demak, interfaol metodlar uchun qiziqarlilik birdan bir va asosiy belgi bo'lolmaydi.

O'qitish jarayoni interfaol usullar asosida tashkil etilayotganda o'qituvchi qarama-qarshi nuqtai nazarlarni bir-biriga to'qnashtirish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko'zda tutishi kerak. Shunda o'quvchilar o'z qarashlarini himoya qilish uchun tezda o'zganing fikriga qarshi dalillar keltirish, bironing xulosasidagi o'rinlarni darhol topa bilish kabi sifatlarni o'zlashtirishadi.

Interfaol metodlar o'qituvchidan o'rinli berilgan aqlli savollarni yuksak darajada qadrlashni, bitta aqlli savol o'nlab to'g'ri, ammo jo'n javoblardan ustun turishini ko'zda tutishini talab qiladi. Shunda o'quvchilarda kerakli va chuqur savollar berishga ichki ehtiyoj paydo bo'ladi.

O'quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko'rishiga tayyanib ta'lim bermoqchi bo'lgan o'qituvchi bolalar tabiatidagi o'ta qiziquvchanlikdan o'rinli foydalanib, ta'lim kechimida evristik va tadqiqot usullarini qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o'tilganda ko'pincha "izlanish — faraz — yechim — ilova — yangi izlanish" tarzidagi ta'limiy sikl yuzaga kelishi o'quvchilarning shaxs sifatida taraqqiy etishini ta'minlagan bo'ladi. Ya'ni, o'quvchilar izlanish natijasida faraz qiladilar, faraz muayyan yechimga olib keladi, o'quvchilar tomonidan tavsiya etilgan yechimga o'qituvchi bir qator ilovalar qiladi, so'ng bu hol keyingi izlanishlarga sabab bo'ladi. Eng muhimi, bu kechimdagi o'quvchilar hamisha mustaqil ish olib borishadi. U to'xtovsiz izlanishlar zarurligi sezilib turadigan muhit quchog'ida bo'ladi.

Interfaol metodlar orasida eng ko'p qo'llaniladigan va katta samara berishi mumkin bo'lgan usul "fikriy hujum"dir. "Fikriy hujum" biror sinf yoki o'quvchilar jamoasi oldiga qo'yilgan muam-

moni yechishning eng samarali yoʻlidir. Shuni alohida taʼkilash oʻrinliki, hozir “Fikriy hujum” usulidan foydalanish amaliyotida oʻqituvchilar oʻtgan mavzular yuzasidan oʻquvchilarga turli-tuman savollar bilan “hujum” qilishlari keng tarqalgan. Holbuki, aslida buning tamomila teskarisi boʻlishi kerak.

“Fikriy hujum”ning butun mohiyati kichik guruhdagi oʻquvchilarning oʻzlari yangi mavzuni oʻzlashtirish yoki qoʻyilgan biror didaktik muammoni hal etish uchun fikrlarini zoʻriqtirib, muammoga “hujum” qilishlari va shu tariqa koʻrsatilgan qiziqarli qizgʻin faoliyat natijasida oʻquv topshirigʻini bajarishlarida koʻrinadi. Bu usulning diqqatga loyiq jihati shundaki, unda oʻquvchilar oʻzaro birgalikda ishlashga, yaxshi yoki yomon oʻqishidan qatʼi nazar har bitta qatnashchining fikrini eshitishga oʻrganishadi. Shuningdek, guruh aʼzolarining bir xil baholanishi bolalarda jamoatchilik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Fikriy hujum”da oʻqituvchi boshqaruvchi emas, balki fasilitator (yordam beruvchi) sifatida ish koʻradi. U oʻquvchilar faoliyatini tashkil qiladi, yoʻnaltirib turadi, ularning asosiy maqsaddan chalgʻib ketmasliklarini taʼminlaydi. “Fikriy hujum” metodini qoʻllash quyidagi taxminiy bosqichlardan iborat boʻlishi mumkin:

1. **Tayyorgarlik.** “Fikriy hujum” usulida oʻtiladigan dars boshlanishi bilan hal qilinishi kerak boʻlgan muammo yoki bajarilishi lozim topshiriqdan oʻquvchilar xabardor qilinishlari lozim. Toki, bolalar bu muammo yoxud vazifa toʻgʻrisida muayyan vaqt davomida bosh qotirishlari, oʻylab koʻrishlari mumkin boʻlsin. Shuningdek, kichik guruh aʼzolarining har biri aniq vazifa bilan taʼminlanishlari zarur. Chunonchi, kim guruhga yetakchi boʻlishi, kimlar aytilgan turli-tuman fikrlarni yozib olish uchun kotiblik qilishi, kimlar esa javob topishi belgilab qoʻyilishi zarur. Shuningdek, oʻqituvchi aʼlochi va xolis oʻquvchilardan qaysi guruhning javobi eng toʻgʻri ekanini belgilab beradigan hakamlar hayʼatini tashkil etishi ham mumkin.

2. **Dalillar topish.** Darsda oʻquvchilar hal etishlari kerak boʻlgan muammo aniq va tushunarli boʻlishi zarur. Berilayotgan topshiriqni taxtaga yozib qoʻyib, bir necha daqiqani oʻquvchilar bilan muhokama qilish kerak. Muammo yuzasidan oʻquvchilar-

ning dastlabki yaxshi-yomon fikrlari eshitib ko'rilsa, ular muvaznatdan chiqib, bezovta bo'lib qolishadi.

3. **Dastlabki mashq.** "Fikriy hujum" yordamida hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni yechishga o'quvchilarni ruhan va aqlan tayyorlash uchun dastlabki mashq o'tkazish foydalidir. Bu mashq qo'yilayotgan muammoga bevosita tegishli bo'lmasligi ham mumkin. Dastlabki mashq "Fikriy hujum" usuli qanday bo'lishini o'quvchilar tasavvur etishlari uchun ham g'oyat zarurdir. Keyinchalik bu bosqichga amal qilmaslik mumkin.

4. **Fikrlarni olish.** Interfaol usuldagi eng asosiy va qiziqarli bo'lgan bu bosqich o'rtaga tashlangan muammo yuzasidan fikriy hujumni ko'zda tutadi. Har bir KGdagi istagan o'quvchi, istagan vaqtida, istagan fikrini aytishi mumkin. Faqat fikrlarning kotiblar tomonidan yozib olinishiga ulgurish zarur bo'ladi. O'quvchilar har qanday to'g'ri-noto'g'ri, yaxshi-yomon fikrlarni bildirishdan cho'chimasliklari uchun quyidagi qoidalar taxtaga yozib qo'yilib, ularga hammaning amal qilishi talab etilishi kerak:

- **TANQID QILMASLIK VA BAHOLAMASLIK** (aytilayotgan fikrlar qandayligidan qat'i nazar hech kim hech qanday fikrni tanqid qilmasligi, dakki bermasligi, munosabat bildirmasligi kerak);

- **NOTO'G'RI FIKR BO'LMAYDI** (esga kelgan har qanday fikr o'ylab o'tirmay, aytilishi kerak. Bo'lmag'ur, "ahmoqona", bo'g'ri kelmaydiganday ko'rinadigan fikrlar ba'zan foydali g'oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi ham mumkin);

- **FIKRLARNING MIQDORI HAM MUHIM** (fikrlar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, chunki ortiqcha g'oyalarni qisqartirish, yetarlicha bo'lmay qolgan fikrlarni ko'paytirishdan qo'rqoq);

- **FIKRLARNI ALMASHTIRISH, QO'SHISH, YAXSHILANISH LOZIM** (hammaning fikri olinib, ular maqsadga muvofiq tarzda o'rinlashtirilishi, saralanishi, tahrir qilinishi, tahlil etilishi kerak);

- **HIMMALOL BO'LISH, O'YNAB ZAVQ OLISH KERAK** ("fikriy hujum" jarayoni o'yin va zavqlanish ruhida o'tishi kerak. U qiziqarli bo'lsa, ko'proq samara keltiradi. "Fikriy hujum" o'yin

ruhida, qiziqarli o'tkazilsa, guruh ichida do'stona vaziyat yuzaga kelib, o'quvchilar bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishadi);

– JIM TURISH HAM FOYDALI (ayrim o'quvchilarning o'ylanib jim qolishlariga xayrixohlik bilan qarash kerak, jim o'ylanib qolgan odam noyob bir fikrni aytib yuborishi ham mumkin).

5. Yechimni topish. O'quvchilar "fikriy hujum"ga kirishganlaridan keyin belgilangan vaqt tugab borayotganda yoki yechimga olib boradigan fikrlar aytib qo'yilganda, o'qituvchi fikriy hujumni to'xtatib, oxirgi bosqichga o'tish, ya'ni muammoni yechish kerakligini esga soladi. Bu vaqtda guruhlardagi kotiblar barcha fikrlarni yozib olishgan, har bir o'quvchi bu fikrlarning qaysilari muammoni hal qilishga yaroqli ekani to'g'risida o'ylay boshlagan bo'lishadi. O'quvchilar bir-birlari bilan maslahatlashib, aytilgan fikrlarning har birini bir qadar muhokama etgan holda yaroqsiz fikrlarni o'chirib, fikrlar ro'yxatini tobora qisqartirib boradi. Nihoyat, bir necha juda muhim qarashlarga qoladi. O'quvchilarning kichik guruhi ana shularga tayanib, ta'limiy masalaning yechilishi bo'yicha o'z xulosasini beradi.

6. Javob. O'qituvchi tayinlagan bir o'quvchi "Fikriy hujum" natijasida KGda kelingan umumiy xulosa asosida javob beradi. Javob beruvchi o'quvchi har safar yangilanib turadi, shunda KGdagi barcha o'quvchilar mashg'ulotda faol qatnashishga majbur bo'lishadi.

Umuman, mashg'ulot so'ngida "Fikriy hujum" jarayoni qanday o'tgani va qaysi guruhga nima sababdan qanday baho qo'yilishi xususida o'qituvchi bir necha og'iz so'z aytgani ma'qul. Alohida ta'kidlash kerakki, baho alohida o'quvchilarga emas, balki kichik guruhdagi barcha qatnashchilarga qo'yiladi. Shunday qilinsa, guruh a'zolari bir-birlarini o'qitishadi, didaktik materialning hamma tomonidan o'zlashtirilishiga intilishadi.

Adabiyot o'qituvchisi "Fikriy hujum" asnosida muammoning yechimi sifatida taqdim etilayotgan fikr o'rganilishi lozim bo'lgan badiiy asar matnidan keltirib chiqarilgan bo'lishiga alohida e'tibor berishi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Ta'limni tashkil etishda tayaniladigan transmissiya, transformatsiya va transaksiya falsafiy yo'nalishlari mohiyatini anglating.
2. O'qitishni tashkil qilishning ekstroaktiv, interaktiv va introaktiv usullari mohiyatiga to'xtaling.
3. Konstruktivizm pedagogik falsafasi mohiyati va undagi yetakchi g'oyani sharhlang.
4. Interfaol usullar mohiyati nimadan iboratligini izohlang.
5. "Kichik guruh" tushunchasi, uning tarkibi, ishlash tarzini izohlang.
6. "Pedagogik hamkorlik" tushunchasi mohiyatiga to'xtaling.

PEDAGOGIK INNOVATSIYA VA UNING ADABIY TA'LIMDAGI O'RNI

Reja:

1. "Innovatsiya" tushunchasi va uning ma'no siljishlari.
2. Innovatsiya va novatsiya tushunchalarining o'xshash va ayirmali jihatlari.
3. Pedagogik innovatsiya va uning bosqichlari.
4. Pedagogik innovatsiyalarning turlari va ularga xos xususiyatlar.
5. Adabiyot o'qitish kechimiga innovatsiyalarni tatbiq etish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Innovatsiya, innovatika, novatsiya, tasodifiy innovatsiya, foydali innovatsiya, tizimli innovatsiya, innovatsiyaning oltin qoidasi, innovatsiyalar yuzaga kelishida shaxsiy iste'dod va tashabbusning o'rni, pedagogik innovatsiya va boshqaruv apparati munosabati, adabiy ta'limdagi innovatsiyalar.

Inson mehnat faoliyatining har qanday tarmog'i uchun o'zgarish va yangilanishlar – xos. Ayni shu jihat bashariyatning barqarorligini ta'minlaydigan omildir. Hayotning har qanday sohasidagi yangilik o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, balki alohida iste'dodli odamlar yoki yangilik yaratish yo'lida birgalikda

mehnat qiladigan jamoalarning izlanishlari natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Tinimsiz o'zgarish va yangilanishlardan iborat globallashayotgan dunyo bu jarayonni tashkil etish, boshqarish va kishilik manfaatiga yo'naltirishni taqozo qiladi. Bu hodisa ilmiy tilida innovatsiya, deb ataldi.

“Innovatsiya” tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda **“yangilik, yangilanish, o'zgartirish”** ma'nolarini anglatadi. Atama “ichida”, “o'zida” ma'nolaridagi lotincha **in** va yangilik ma'nosidagi **novatsiya** so'zlari birikmasidan paydo bo'lgan. Ushbu tushuncha ilk marta Kunbotish mamlakatlari ilmidagi XIX yuzyillarda qo'llanila boshlab, bir millat madaniyatiga boshqa bir xalq madaniyatidan kirib kelgan va bu xalq uchun yangilik hisoblanadigan narsa-hodisani anglatgan. XX asrning boshlarida esa Botish yurtlarida hayotda paydo bo'lgan texnik yangiliklarni ommaga o'rgatish va yoyish bilan shug'ullanishni maqsad qilgan **“innovatika”** deb atalgan yangi fan dunyoga kelgan.

Innovatsiyalar hayotning qaysi tarmog'iga yo'naltirilishiga qarab a) ijtimoiy-iqtisodiy; b) tashkiliy-boshqaruv; v) texnik-texnologik singari uch turga bo'linadi. Pedagogik innovatsiyalar ijtimoiy innovatsiyalarning bir tarmog'i sanaladi⁴⁰.

Innovatsiya atamasi Ovro'po mamlakatlarida XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran pedagogikaga nisbatan ham qo'llanila boshladi. Bu tushuncha Rossiyada o'tgan asrning 80-yillari oxiridan, bizda esa yangi ming yillikdan e'tiboran tilga olinib, maxsus o'rganila boshlandi.

Pedagogik kechimga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi jarayonlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogika fanining kategorial apparatidan joy olgan “ta'limdagi innovatsiya” va “pedagogik innovatsiya” atamaları sinonim sifatida qo'llaniladigan tushunchalardir.

Pedagogik innovatsiya – ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish niyatida uning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi

⁴⁰ https://studbooks.net/1890551/pedagogika/suschnost_ponyatiya_pedagogicheskaya_innovatsiya

hamda tashkil etilish yo'siniga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogik innovatsiya deyilganda, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llansa, samara keltirishi mumkin bo'lgan yangilikni yaratish, sinab ko'rish, unga xos asosiy jihatlarni o'zlashtirish, amaliyotda qo'llash va yoyishga qaratilgan kompleks faoliyat tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda "yangilik" ma'nosida qo'llaniladigan "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'zaro farqlaniladi. Ular o'rtasidagi ayirmani quyidagicha aks ettirish mumkin:

| Mezonlar | Novatsiya | Innovatsiya |
|-------------------------------|--|---|
| Maqsad va zarifalar ko'lamini | Xususiy | Tizimli |
| Metodologik ta'minoti | Mavjud nazariy qarashlar doirasida | Mavjud nazariy qarashlar doirasidan tashqarida |
| Yoyilish tezligi | Mavjud tushuncha va izohlarga oson singishadi | Mavjud tushuncha va izohlarga to'g'ri kelmasligi, muayyan qatlamlarda norozilik uyg'otishi mumkin |
| Xarakter xususiyati | Amaliy-tajribaviy xususiyatga ega | Natija olishga qaratilgan tamomila yangicha belgilari bor |
| Ta'sir doirasi | Ko'lam va vaqt jihatidan cheklangan | Ko'lamdor va uzoq davom etadigan |
| Ta'sir darajasi | Amaliyot subyektini xabardor qilish, yangilikni "qo'lma-qo'l" uzatish orqali | Ayni yo'nalish bo'yicha yangi tizimni yangicha loyihalash orqali |
| Qo'llanish shakli | Boshqaruvchilar tomonidan imkon berilishi kutiladi | Muayyan tarmoq bo'yicha qo'llashga yaroqli tizim yaratiladi |

| | | |
|------------------|--|--|
| Natija, mahsulot | Mavjud tizimdagi ayrim unsurlar o'zgaradi | Pedagogik nazariya va amaliyot subyektlarining qarashlari hamda ta'lim-tarbiya tizimi tubdan yangilanadi |
| Yangiligi | Faoliyatdagi tashabbuskorlik asosida usullar yangilaniladi | Butunlay yangicha yondashuv yo'lga qo'yiladi, faoliyat tamomila yangi natija beradi |

Ko'rinadiki, novatsiya bilan innovatsiya bir hodisa bo'lmagani holda bir-biriga tamomila yot tushunchalar ham emas. Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, yangi ta'limiy usul yoki usullar yig'indisi, texnologiya, priyom kabilarni o'z ichiga olgan yangiliklardan iborat novatsiya o'stirilib va takomillashtirilib innovatsiyaga aylantirilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, novatsiya vosita, innovatsiyani esa ana shu va boshqa qo'shimcha vositalarni pedagogik amaliyotga tizimli ravishda tatbiq etish kechimi deyish mumkin. Aytilganlarga tayanib, pedagogik innovatsiya tushunchasini *ta'lim-tarbiya tizimiga uni mavjud holatdan tubdan yangilangan yuqoriroq holatga o'tkazishga olib keladigan unsurlar va o'zgarishlarni maqsadga muvofiq tarzda kiritishni ko'zda tutadigan tizimli jarayondir* yo'sinida ta'rif bersa, bo'ladi.

Pedagogik innovatsiya kechimi quyidagi **uch bosqichdan** iborat bo'ladi:

- 1) yangilik yaratish bosqichi;
- 2) yangilikning mohiyatini g'oyaga aylantirib, undan boshqalar ham tushunishi va foydalanishi mumkin bo'ladigan holatga keltirish bosqichi;
- 3) yangilikni qo'llash bosqichi.

Shunga muvofiq ravishda pedagogik innovatsiya jarayonini yangi ilmiy g'oyani yuzaga keltirish, uni amalga oshirish va ijtimoiy-pedagogik muhitda shundan kelib chiqadigan o'zgarishlarni ilmiy va tashkiliy jihatdan o'zaro muvofiqlashtirishdan iborat kechim deyish mumkin. *Yangilikni yaratish, uni pedagogik amaliyotga qo'llaydigan holatga keltirish va uning hayotga tatbiq et-*

lishini boshqarish tizimini tashkil qilishga qaratilgan amaliyot pedagogik innovatsion faoliyat deyiladi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi innovatsion faoliyatning qonuniyatlari, tamoyillari bilan shug'ullanadigan maxsus fan shakllanib bormoqda va u *pedagogik innovatika* tarzida nomlanadi. *Pedagogik innovatika ta'lim-tarbiyaga doir yangiliklarni yaratish, ularga baho berish, amaliyotga joriy qilib foydalanish bilan shug'ullanadigan* fandir⁴¹. Ilmiy-pedagogik jamoalar tomonidan maxsus loyihalashtirilgan, tadqiq etilgan yoki pedagogik tashabbuskorlik natijasi sifatida alohida shaxs tomonidan kashf qilingan pedagogik yangiliklar ham pedagogik innovatsiyalar hisoblanadi. Muayyan yangilikni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, yangi samarador o'qitish texnologiyalari, amaliyotga joriy etishga tayyorlangan biror pedagogik tajribaning ilmiy-texnologik bayoni kabilar pedagogik innovatsiyaning mazmunini tashkil etishi mumkin. Yangilik – bu pedagogika fani yutuqlarini amaliyotga joriy etish, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish jarayonida o'quv-tarbiya kechimining yangi sifatga ega bo'lishini ta'minlaydigan voqitalardan iborat.

Alohida ta'kidlash lozimki, pedagogik innovatsiyalar rahbariy organlar, pedagogik jarayonni boshqarish bilan shug'ullanadigan ma'muriy tuzilmalar tomonidan quyiga – ijrochilarga tushirilmasligi, balki faqat va faqat fan hamda ta'lim tashkilotlarining ayrim xodimlari yoki jamoasi tomonidan, ya'ni pastda ishlab chiqarilishi, o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi kerak. Yuqoridan pastga tushirilgan innovatsiyalar hech qachon kutilgan natijani bermaydi va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilmaydi⁴². Chunki u amaliyotdan kelib chiqmagan, pedagogik hayot bilan bog'lanmagan xayoliy tashabbus bo'ladi. Afsuski, bizning mamlakat ta'lim tizimida aynan shu holatning, ya'ni barcha innovatsion yondashuvlarning yuqoridan

⁴¹ Арсланова А.А. Педагогическая инноватика: связь педагогических традиций и проектирование будущего (на примере деятельности вуза) // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. Новосибирск: Центр развития научного сотрудничества, 2010. – № 16-1.

⁴² https://studbooks.net/1890551/pedagogika/suschnost_ponyatiya_pedagogicheskaya_innovatsiya

pastga tushirilayotgani va buning samara bermayotganini ko'rish mumkin.

Pedagogik innovatsiyalarni ularning yuzaga kelishi holatiga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Tasodifiy innovatsiyalar.
2. Foydali innovatsiyalar.
3. Tizimli innovatsiyalar.

Ta'lim-tarbiya tizimining ichki mantig'idan kelib chiqmagan, qayerdandir ko'chirib keltirilib, milliy pedagogik amaliyotga joriy etilmoqchi bo'lgan pedagogik innovatsiyalar *tasodifiy innovatsiyalar* deyiladi. Ko'pincha bunday innovatsiyalar boshqaruvchi tuzilmalarning buyrug'iga ko'ra joriy etiladi va yaratilganidanoq samarasizlikka mahkum bo'ladi.

Muayyan ta'lim-tarbiya muassasalarining vazifasiga muvofiq keladigan, uning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, lekin ilmiy-nazariy va tashkiliy jihatdan atroflicha tayyorlanmagan, pedagogik tizim bilan yaxlit vujudga aylanib ketmagan, alohida mutaxassislarining tashabbuskorligi natijasida yuzaga kelgan pedagogik yangiliklar *foydali innovatsiyalar* sanaladi.

Aniq belgilangan maqsad va vazifalarga ega, mavjud ilg'or pedagogik qarashlar va an'analarga tayangan holda yaratilgan, ta'lim tizimi samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan innovatsiyalar *tizimli innovatsiyalar* sanaladi. Bunday innovatsiyalar ilmiy-metodik hamda tashkiliy jihatdan puxta tayyorlangan bo'ladi, keng miqyosda yoyilishi ko'zda tutiladi. Kerakli kadrlar, tashkiliy qurilma, tegishli mablag', moddiy-texnik baza hamda ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlangan bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi amalga oshirilgan tizimli innovatsiyalarga quyidagi yangilanishlarni misol qilib keltirish mumkin:

– “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ishlab chiqilgani va ta'lim amaliyotiga joriy qilingani;

- o'rta maktabning to'qqiz yillikka aylantirilgani;
- uch yillik o'rta maxsus ta'lim tizimi joriy etilgani;
- ta'lim konsepsiyalari yaratilgani;
- ta'limning davlat standartlari ishlab chiqilgani;
- umumiy o'rta ta'limning o'n bir yillikka qaytarilgani;

- oliy maktabga qabul tizimining tubdan o'zgartirilgani;
- talabgorning bir yo'la beshtagacha turli yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga imtihon topshirishi mumkinligi;
- maktabni bitirgan yili o'qishga kirolmagan shaxslarning keyingi yili oliy maktabga kirish uchun hujjat topshirishda muayyan to'lovlarni amalga oshirishi kerakligi va bq.

Ayni vaqtda yangilik kiritishning o'zigina yetarli emas. Bu yangilik kelajakda qo'llanishi kerak bo'lgan sohani har taraflama puxta o'rganish, innovatsiyani joriy etish va to'g'ri qo'llash yo'llarini ishlab chiqish ham o'ta zarur. Afsuski, hamisha ham pedagogik innovatsiyalar atroficha o'rganilib keyin ishlab chiqarilmaydi va hayotga tatbiq etish yo'llari belgilab berilmaydi.

Pedagogik innovatika fanidagi asosiy tushunchalar: a) tashkiliy-boshqaruv; b) psixologik-pedagogik va d) ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu jihatlar innovatsion kechimning qanday borishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ular innovatsion kechimni tezlatishi ham, sekinlatishi ham mumkin. Innovatsion jarayon ongli ravishda amalga oshirilishi ham, tasodifan yuzaga kelib qolishi ham mumkin.

Ta'limning muayyan sohasida innovatsion jarayonni amalga oshirish uchun ko'rilgan tadbirlar yig'masi *innovatsion faoliyat* deyiladi⁹. Innovatsion faoliyatga tizimlilik va butunlik xos. O'qitish yoki tarbiya jarayonidagi har qanday yangilik innovatsiya hisoblanmaydi. U yangilik (novatsiya) bo'lishi mumkin, lekin yangilanish (innovatsiya) bo'lishi uchun tizimlilik va takroriylik talab qilinadi. Misol uchun "Adabiyot" dasturiga bir o'qituvchi tomonidan kiritilgan 10 foizlik o'zgarish innovatsiya sanalmaydi. Ayni vaqtda boshlang'ich sinflardagi "O'qish" saboqlarining ona tili tarkibiga kiritilgani innovatsiyadir. Ta'lim jarayoni uchun innovatsiyalar hamisha ham foydali bo'lavermasligi mumkin. Atroficha o'ylanmay qilingan bir qator innovatsiyalar ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, innovatsiya ta'lim sohasiga yondashuv yo'lini, undan olinadigan mahsulotning takomillashuvi yoki ta'li-

⁹ Юсуфбекова Н. Тенденции и законы инновационных процессов в образовании // Новые исследования в педагогических науках. – 1991. – № 2.

miy xizmatlarga yangicha yondashuv tarzini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir. O'quv jarayoniga innovatsion yondashuv puxta o'ylangan, bosqichli, samara keltiradigan bo'lishi kerak. O'quv jarayonidagi asosiy yangiliklar ta'limdagi yondashuvlar, usullar, texnologiyalar va shakllarda namoyon bo'ladi. Ba'zan bor-yo'g'i an'anaviy dars uyushtirishning o'rnini almashtirish ham katta miqyoslarda amalga oshirilsa, o'ziga xos innovatsiya hisoblanadi. Deylik, saboqni odatdagiday uy vazifasini so'rashdan emas, balki hali o'tilmagan yangi mavzudan o'quvchilarning qanchalik xabardorligini aniqlashdan boshlash va buni muttasil amalga oshirish innovatsiya bo'lishi mumkin. Shuningdek, saboqlarga yangi faoliyat turlarini jalb etish ham innovatsiya sanaladi.

Masofaviy ta'lim ham o'zbek ta'lim tizimidagi asosiy ko'lamdor yangilanishlardan biridir. Yaqin yillardagi kutilmagan ta'limiy vaziyat milliy ta'lim tizimi uchun mutlaqo yangilik bo'lgan masofaviy ta'limni yuzaga keltirdi. Bu ish turi ta'limning makoni, zamoni va qarqin (sur'at)ini belgilashi bilan ajralib turadi⁴⁴. Bu ta'lim turi bundan buyon hozirgiday pandemiya yuzaga kelgani sababli emas, balki zarur va hayotiy bo'lgani uchun kengayib boraveradi. Har ikki tomonning bevosita ishtirokini talab etadigan an'anaviy "o'qituvchi – o'quvchi" modeli masofaviy ta'limga o'z o'rnini bo'shatib, ta'lim jarayoniga "masofaviy o'quvchi", "masofaviy o'qituvchi", "moderator", "koordinator" singari tushunchalarning kirib kelishiga imkon berdi.

Adabiyot saboqlarining samaradorligini oshirish, ularning o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishdagi ta'sirini kuchaytirish borasida ham innovatsiyalar muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishdagi innovatsiyalar o'rganilayotgan badiiy matn yuzasidan har bir o'quvchining o'z mustaqil fikri bo'lishi, o'quvchilarning badiiy matndagi go'zallikni his qiladigan va tuyganlari yuzasidan fikr yurita oladigan bo'lishiga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tobora ko'payib bormoqda.

Chunonchi, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflarida bundan buyon yozuvchi umr yo'lini o'rgatish alohida vaqt sarflanmasligi, o'qituvchi va o'quvchilar butun e'tiborlarini ko'rgan

⁴⁴ <http://ushakova-slovar.ru/description/soprotivlenie/72599>

matn jozibasi ham uning zamiridagi ma'noni topishga qaratishi rangliliigi o'ziga xos innovatsion yondashuvdir. Shuningdek, "Adabiyot" darsliklarida o'rganiladigan ko'rkam asar yuzasidan mualliflari bo'lganidek, maqolalar berilmasligi, darslik mualliflari o'qituvchining butun diqqati o'quvchilarning matnni to'g'ri qabul qilishlari, uning zamiridagi yashirin ma'no va estetik o'ziga xoslikni mustaqil topishlariga qaratishlari ham adabiy ta'limdagi innovatsion yondashuvning bir ko'rinishidir. Buning uchun mualliflari va o'qituvchilar o'quvchilarga beriladigan topshiriqlarning konseptual, ya'ni o'quvchini jiddiy o'ylashga, badiiy asarga qayta murojaat etishga majbur qiladigan bo'lishi zarur erishishlari lozim bo'ladi.

Adabiyot saboqlarini uyushtirishda turli-tuman noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish ham o'ziga xos innovatsiyadir. Adabiy ta'limdagi innovatsiyalar shunchaki ko'z ko'ringan qilinmasligi, balki o'quv fanining tabiatidan kelib chiqib, mavzu mavzuni yoritishning eng qulay va samarali yo'li o'ziga erishish ko'zda tutilishi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Innovatsiya tushunchasining ma'no o'zgarishlari va buning sabablarini haqida to'xtal.
2. Innovatsiyalarning turlari va ularga xos xususiyatlarni izohlang.
3. Pedagogik innovatsiyalarga xos xususiyatlarni sharhlang.
4. Adabiy ta'limda qanday innovatsiyalar qilindi?

ADABIYOT O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMNI QO'LLASH

Reja:

1. Muammoli ta'limning mohiyati.
2. Muammoli ta'limning tarkibiy qismlari.
3. Muammoli savol.
4. Muammoli vaziyat va uning yechimi.
5. Muammoli ta'limda o'quvchilar ishtirokining o'rni.

Tayanch tushunchalar:

Muammo, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoning yechimi, mustaqil fikr, muammoli ta'limning tarkibi, muammoli ta'limning bosqichlari, muammoli ta'limda o'quvchining o'rni, muammoli ta'limda o'qituvchining o'rni, muammoli ta'lim va pedagogik hamkorlik.

Ta'lim amaliyotida o'quvchilarda shakllantiriladigan bilimlar a) tayyor holda qabul qilinadigan va b) mehnat qilib o'zlashtiriladigan yo'sinda ikki turda bo'ladi. Ta'limning dastlabki bosqichi bo'lmish boshlang'ich maktablarda birinchi yo'l ko'proq qo'llaniladi. O'qish jarayonining keyingi bosqichlarida bilimlarni mehnat qilib o'zlashtirish shaklidan ko'proq foydalanish lozim. Insonning aqliy salohiyati muammoli vaziyatga tushib qolganda to'laroq namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyat oldida o'quvchilar ham o'zlarini har xil tutishi tabiiy. O'quvchi shaxsining intellektual va ruhiy xususiyatlari o'z farazini ilgari surish va asoslashida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Polyak olimi V. Okon ta'limda o'quvchi tafakkurini faollashtirmay, tayyor axborot berishga qaratilgan usullar tashabbus ko'rsata olmaydigan shaxslarni shakllantirishini ta'kidlaydi⁴⁵. Bilim olishni bevosita o'quvchining o'zi amalga oshirsa, o'zlashtirgan bilimlari uning e'tiqodi va dunyoqarashining bir qismiga aylanib, muayyan shaxslik sifatleri qaror topishiga olib keladi. Baho olish uchungina o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchining intellektual mulki bo'la olmaydi va uning shaxsiyati shakllanishiga ham xizmat qilmaydi.

O'quvchi-yoshlarni mahsuldor va tanqidiy fikrlashga o'rnatish yo'llarini izlash natijasida ta'limning evristik metodiga tayanadigan va kashf etishga qaratilgan muammoli ta'lim yo'nalishi yuzaga keldi. Garchi ko'pchilik ilmiy metodik adabiyotlarda muammoli ta'limga o'qitishning bir metodi sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, aslida bu ta'lim metodi emas, balki o'zida bir qator usul (metod)larni uyg'unlashtirish asosida vujudga kelgan sintetik didaktik tizimdir. Bu yo'nalish o'quvchilarda muammoli vazi-

⁴⁵ Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1968.

yo'llarni bartaraf etish asnosida evristik – topqirlik, kashfiyotchilik ko'nikmalarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Muammoni yechish uchun o'quvchilar o'zlarida oldindan mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalarni faollashtirishga majbur bo'lishadi. Qadimgi yunon faylasufi Suqrot o'z suhbatlarida tinglovchilarni mantiqiy fikrlash orqali haqiqatni izlab topishga chaqirgandi. Abu Ali ibn Sinoday mutafakkir bilimlarni birovdan tayyor holda olishdan ko'ra izlab topish kishi uchun foydali bo'lishini ta'kidlagandi. Fransuz qomusiy olimi J. J. Russo o'quvchilarining bilimni qidirib, mustaqil egallashlariga erishish uchun ularni izlanishga majbur qiladigan maxsus didaktik vaziyatlar yaratgan edi.

Demak, muammoli ta'lim uzoq tarixga ega, ammo u XX asrga kelibgina ilmiy-nazariy jihatdan bir qadar asoslangan didaktik ilimga aylanib, o'qitish amaliyotiga qo'llana boshlandi. Amerikalik pedagog va faylasuf Jon Dyui bolaga tayyor bilim berishga qaratilgan mavjud o'qitish yo'sinini keskin tanqid qilib, o'qitishning o'zgacha modelini taklif qildi. Unda o'qituvchi o'quvchilarni faoliyatini shunday tashkil etadiki, ular o'z oldilariga qo'yilgan muammoni yechish asnosida ham bilim oladilar, ham olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rganadilar. Dyui o'z ta'lim usulini oldin *qilish orqali o'qitish*, keyinroq *tadqiqiy ta'lim*, deb ataydi. U 1894-yilda Chikagoda o'qitish jarayoni o'yin va mehnat faoliyatiga asoslangan sinov maktabi tashkil qildi. Bu maktabda qo'llaniladigan o'qitish usullari, tayaniladigan didaktik tamoyillar nazariy jihatdan asoslanib, konsepsiyasi belgilanmagan bo'lsa-da, o'z vaqtida keng yoyildi. O'tgan asrning 60-yillariga kelibgina muammoli ta'limni nazariy jihatdan asoslashga e'tibor qaratildi. XX asrning 90-yillaridan e'tiboran o'zbek pedagogika ilmidagi ham muammoli ta'lim bilan jiddiy shug'ullanila boshlandi. Ammo hanzuga qadar muammoli ta'limga xos belgilar borasida olimlar va amaliyotchilar orasida qat'iy bir to'xtam shakllanmagan. Ushbu yo'nalish borasida turli mutaxassislar turlicha, hatto bir-birini inkor qiluvchi qarashlarni bayon qilishadi.

Muammoli ta'lim yuzasidan yuzlab katta-kichik ilmiy tadqiqotlar qilingan. Adabiy ta'limni muammoli yo'sinda yo'lga qo'yish zamirida bilimlarning o'quvchi tomonidan mustaqil

o'zlashtirilishiga erishish, shu orqali ham fikri o'tkir, ham tuyg'ulari nozik shaxs shakllantirish maqsadi yotishiga D.Sladkova⁴⁶, T.Kudryavsev⁴⁷, M.Lesoxina⁴⁸, L.Ayzerman⁴⁹, V.Maranman⁵⁰, N.Kudryashov⁵¹ singari olimlarning tadqiqotlarida atroflicha to'xtalangan. Lekin bu tadqiqotlarda muammoli ta'limga ezigma'naviyat shakllantirish, barkamol shaxs tarbiyalash vositasi sifatida qarash yetakchilik qilmaydi.

Shuningdek, hali biror ilmiy-metodik adabiyotda muammoli ta'lim va uning xususiyatlariga e'tiroz qilib bo'lmaydigan yo'sinda ta'rif berilgan emas. Qunduzoy Husanboyeva va Roza Niyozmetova singari o'zbek metodist olimlarining qarashlari o'ziga xosligi va masala mohiyatini anglatishga urinilgani bilan e'tiborga loyiq. Ular oliy maktablar uchun yozgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmalarida muammoli adabiy ta'limga ilk bor qamrovli ta'rif berishga harakat qilishadi. "*Adabiyot darslarida o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zlarining kuchi, tafakkuri, bilimi va mehnati bilan o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida bolalar oldiga muammo qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladigan o'qitish jarayonini muammoli adabiy ta'lim deb atash mumkin*"⁵², – deb yozadi mualliflar. E'tiborli jihati shundaki, metodist olimlar didaktik hodisaning o'zini ta'riflash bilan cheklanmay, uni yuzaga keltirgan omillarni ham ko'rsatib berishga erishganlar. Chunonchi, ularning kitobida "muammo" tushunchasi mohiyatini anglatishga ham alo

⁴⁶ Сладкова Д. А. Проблемное преподавание литературы в старших классах средней школы. – Казань: Казанский университет, 1967.

⁴⁷ Кудрявцев В. Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – Москва, Высшая школа, 1968.

⁴⁸ Лесохина Л. Н. О проблемности урока литературы // Литература в школе, 1965. – № 6.

⁴⁹ Айзerman А. С. Современный урок литературы и проблемное преподавание. – Москва: Просвещение, 1969.

⁵⁰ Маранцман В. Г., Черкасова Т. В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – Москва: Просвещение, 1977.

⁵¹ Кудряшов Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 1981.

⁵² Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: In novatsiya-ziyo, 2020. 131-bet.

huda to'xtalangan. Holbuki, ulargacha bo'lgan tadqiqotlarning ko'pchiligi shu jihatdan oqsaydi.

Q. Husanboyeva va R. Niyozmetova muammoni: *“Muammoli ta'lim asosiga qo'yiladigan, muammoli masala tarzida foydalanib bo'ladigan, o'qish jarayonida muammoli vaziyat hosil qilishga, o'quvchilar orasida tortishuv va fikrlar bahsiga asos bo'ladigan, qarashlar xilma-xilligini keltirib chiqarishga arziyadigan ta'limiy masala muammo sanaladi”*⁵³ tarzida izohlashadi. Bu yondashuvda muammoning asosiy belgilari hamda uning oddiy savol yoki topshiriqdan farqli jihatlari ko'rsatib berilgan.

O'zbek olimlari muammoli ta'limning bir qator unsurlardan iborat murakkab hodisa ekanidan kelib chiqib, bu unsurlarning har biriga xos xususiyatlarni ko'rsatishga intilganlar. Shu bois ta'limda “muammoli masala” yoki “muammoli savol-topshiriq” tushunchalari mohiyatini ko'rsatishga ham e'tibor qaratilgan. Olimlar bu to'g'rida: *“O'quvchi oldiga muammo shaklida qo'yilgan, uni asar matni ustida o'ylashga, izlanishga undaydigan, uning zamiridagi ma'nolarni tushunish uchun hayotiy tajribalariga qayta-qayta murojaat qilishga majbur qiladigan savol yoki topshiriqni muammoli masala yoki muammoli savol-topshiriq deyish mumkin”*⁵⁴, – degan to'xtamni bildiradilar. Ular mualliflari muammoli adabiy ta'limni tashkil etadigan har bir didaktik unsurdagi kichik o'ziga xoslikni ham ko'rsatishga e'tibor qiladilar.

O'zbek olimlari muammoli ta'lim tizimidagi g'oyat muhim bo'lmish “muammoli vaziyat” tushunchasini tashkil qilgan unsur bo'lgan ham diqqat qaratadilar. Natijada ushbu tushunchaning o'ziga xosliklaridan farqli bo'lgan ta'rifi yuzaga keltiriladi: *“Darsda ta'limiy yo'llar bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan yoki mohiyatiga o'quvchilar chuqurroq kirishi lozim deb topilgan biror mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan vaziyat, holat muammoli vaziyat deyiladi”*⁵⁵, – deb yozishadi olimlar.

⁵³ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Inqilobiy zayo, 2020. 131-bet.

⁵⁴ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Inqilobiy zayo, 2020. 132-bet.

⁵⁵ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Inqilobiy zayo, 2020. 132-bet.

Qo'shimcha qilish kerakki, muammoli vaziyat yolg'iz o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi shart emas. Ba'zan muammoli vaziyatni o'quvchilarning o'zlari yaratishlari ham mumkin.

Mohiyatga sinchiklab nazar solinsa, yuzaga kelishi uchun o'zida o'qitishning bir emas, bir qancha usullarini uyg'unlashtirgan muammoli ta'limning asosiy belgisi bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar tomonidan mustaqil egallanishini yo'lga qo'yishdan iboratligi anglashiladi. Shundan kelib chiqib, *muammoli ta'lim o'quvchilarning o'qituvchi yoki ularning o'zi tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlardan chiqib ketish orqali yangi bilimlarni egallashini yo'lga qo'yish ko'zda tutiladigan o'qitish usullari yig'indisidir*, tarzidagi ta'rifda masalaning mohiyati ko'proq aks etadi, deyish mumkin.

Ma'lumki, muammoli ta'lim o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyati orqali yuzaga keladi. Bu jarayondagi asosiy jihat shundaki, o'qituvchi o'quvchilarni muammoli vaziyatga solib, shundan mustaqil ravishda chiqib ketishga yo'naltirishi kerak. Muammoli ta'limning har qanday ko'rinishi uchun xos bo'lgan jihatlar muammoli vaziyat yaratish va muammoni hal qilishdan iborat.

Yuqorida aytilganlarga tayanib, muammoli ta'lim usulining yutuq va yetishmovchiliklari haqida muayyan xulosaga kelish mumkin. Muammoli ta'limning yutuqlari: o'quvchilar bilimni o'z harakatlari bilan mustaqil egallashadi; ularda mahsuldor tafakkur o'sadi; o'qishga qiziqish kuchayadi; mas'uliyat tuyg'usi ortadi. Bu tizimning yetishmovchiliklari esa o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish imkoniyatining ozligi; ko'zda tutilgan o'quv maqsadiga erishish uchun ko'p vaqt sarflanishi; birvarakayiga barcha o'quvchini nazorat qilish imkoniyati yo'qligi kabilarda ko'zga tashlanadi.

Muammoli ta'lim bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

1. O'quv muammosini tayyorlash bosqichi. Bu ko'proq o'qituvchi tomonidan bajariladigan tadbirdir. Lekin bu yumushga o'quvchilarni ham jalb etish maqsadga muvofiqdir.

2. O'quv muammosini anglash bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarning oldingi bilimlari faollashtiriladi, ya'ni esga tushiriladi. Muammoni yechishga yordam beradigan bunday tayyorgarliksiz o'quvchilar ishga kirisha olmaydilar.

3. Muammoli vaziyat yaratish bosqichi. Bu muammoli ta'limdagi eng muhim va murakkab bosqich bo'lib, o'quvchi oldiga qo'yilgan o'quv muammosini yechishga o'zida bor bilimlar yetarli emasligini, yangi bilim olishi kerakligini anglab yetishi lozim.

4. Muammoli vaziyatdan chiqishga urinish bosqichi.

5. Muammoni hal qilish bosqichi.

6. Topilgan yechimning to'g'riligini asoslash bosqichi. Adabiy ta'limda bu bosqich darslik, lug'atlar, ilmiy yoki badiiy asarlarga tayanish hamda boshqa mantiqiy operatsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Muammoli ta'lim bosqichlarining har birida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatidan kelib chiqqan holda muammoli o'qitishning quyidagi bir necha darajasi borligi qayd etiladi:

| Daraja | O'qituvchi faoliyati | O'quvchi faoliyati |
|--------|---|---|
| 1 | Namuna uchun muammoli vaziyat yaratib, muammoni qo'yib, uni hal qilib ko'rsatadi. | Bu jarayonni kuzatadi va eslab qoladi. |
| 2 | O'quv muammosini shakllantirib, muammoli vaziyat yaratadi. | Muammoli vaziyat mohiyatini anglashga kirishadi. |
| 3 | O'quvchi oldiga muammo qo'yadi. | Muammoli vaziyatni bartaraf qilib, muammoni hal qiladi. |
| 4 | Umumiy tashkilotchilik, rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi. | O'zi topgan yechimning to'g'riligini asoslaydi. |

Zamonaviy pedagogika ilmi ta'lim-tarbiya amaliyoti oldingi inqat o'quvchida muayyan miqdordagi bilimlarni hosil qilish

bilan kifoyalanmay, unda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishi, bilimini tinimsiz oshirib borishga ichki ehtiyoj paydo qilish kabi vazifalar qo'yimoqda. Muammoli ta'lim o'quvchini mustaqil, ilmiy va ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lda uchragan muammolarga ijodiy yondashgan holda bartaraf etishga yo'naltirishi bilan qiymatlidir. U o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qanchalik o'zlashtirilgani, o'zida mavjud bilimlarni nostandart vaziyatlarda amaliyotga qanday qo'llay olishini tezda ko'rsatib beradi. Adabiyot o'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish o'quvchida shaxslik sifatлари shakllanishini amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muammoli ta'limning asosiy xususiyati o'quvchi oldida muammoli vaziyat yaratishda ko'rinadi. Muammoli vaziyat muammoli savol orqali yaratiladi. Muammoli savol oddiy savoldan javobning sirtida ko'rinib turmasligi, unga tayyorgarliksiz birdaniga javob berish mumkin emasligi bilan ajralib turadi. Oddiy savol biror axborotni aniqlashtirish uchun beriladi: "Qo'lingizdagi kitobni kimga bermoqchisiz?" Muammoli savol esa adresatni o'ylashga majbur qiladi. Misol uchun, "Abdulla Orif she'riyatining jozibasini nimada?" Ayonki, bunday savolga tayyor javob yo'q. Bunga javobni atay tayyorlash kerak bo'ladi. Ayni shu holat muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyat o'quvchini bir qadar qiyin holatga soladi. Vaziyatdan chiqish uchun u avval egallagan bilimlarini faollashtirishga majbur bo'ladi. Bularning ham yetarli emasligini bilgach, yangi bilimlarni o'zlashtirishi kerakligini anglab yetadi. Shu sabab muammoli vaziyat o'quvchilarning aqliy darajasiga mos kelishi, ayni vaqtda uni yangi bilimlar egallashga yo'naltiradigan bo'lishi kerak. Muammoli vaziyat har bir bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimini hisobga olgan holda yaratilishi kerak. Bunday masalalar qiziqarli bo'lishi ham muhim. Qiziqarlilik shaxsning aqliy va ruhiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bu hol xotira, diqqat, tasavvur va tafakkur jarayonining natijadorligini orttiradi. O'qituvchi beradigan savol-topshiriqlar o'quvchining mustaqil fikrlashini talab qiladigan, tuyg'ularini junbushga keltirib, ruhiyatini qo'zg'aydigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Muammo yo'li

bilim o'zlashtiriladigan bilimlar hayot, ilm-u fan va bola shaxsi rivojiga kerak bo'lishi, xilma-xil fikrlar, u yoki bu hodisaning turli qirralarini qiyoslashga imkon beradigan xususiyatlarni o'zida mujassam etishi kerak.

Muammoli vaziyat yaratish orqali o'qituvchi o'quvchini kuzatish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tizimga solish shug'uri tafakkur jarayoni bosqichlaridan foydalanishga yo'naltiriladi. Bunda bola o'quv materialini shunchaki eslab qolishdan tashqari, bir qator fikriy yumushlarni ham amalga oshiradi. Ba'zan muqaddim hodisa, tushuncha yoki qoidalarni qismlarga ajratib tahlil qilish muammoli vaziyatni hal qilishga olib kelsa, ba'zan tushunchalarni taqqoslash, faktlarni tasniflash orqali dalillarni sintezlash topazo qilinadi.

O'quv muammosini qo'yish va uni yechish jarayoni o'zaro chambarchas bog'langan didaktik zanjirdir. O'quvchi oldiga muammo qo'yilishi bilan uning yechimi ustida o'ylaydi, oldingi bilimlarini esga tushiradi, yangisini qidiradi, bu jarayonda yangi muammolar ham kelib chiqadi. Shu tariqa, uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o'zlashtirish amalga oshadi.

Muammoli ta'lim tarbiyalanuvchining shaxsiga o'quv faoliyatining yadrosi sifatida qaraydi. Muammoli vaziyatdan chiqishga urinish o'quvchini ta'lim kechimining subyektiga aylantiradi. Ma'lumki, muammoli vaziyat shaxsdan tashqarida bo'lmaydi. Hunday ta'limda muammoli vaziyatni hal etish alohida bir o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi muloqotdan iborat bo'lmay, butun sinf jamoasining qizg'in aqliy faoliyatiga aylanishi zarur. Buning uchun sinfdagi har bir bolaning individual xususiyatlarini ham maksimal darajada inobatga olish kerak bo'ladi.

Biror mavzu muammoli yo'sinda o'zlashtirilishi uchun uning muammolik darajasi butun saboq davomida saqlanib turishi zarur. O'quvchi saboq davomida muammoni yechish bilan shug'ullanganiga uning bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi ta'minlanadi. Aslida o'quv muammolarini yechish maqsad emas, balki u o'quv materialini ongli ravishda mustaqil o'zlashtirish orqali o'quvchi qobiliyatini o'stirish vositasidir. Muammoli ta'limda o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchilar bilan yoppasiga, ayni vaqtda har bir

bola bilan individual ishlay olishi shart. Buning uchun pedagogik mahorat talab qilinadi. Ayonki, bir o'quv muammosi sinfdagi bir bola uchun qiyin bo'lsa, boshqasi uchun oson tuyuladi. O'quv jarayoni samarali bo'lishi uchun darsda qatnashgan har bir o'quvchi imkoni darajasidagi muammoni hal qilish bilan shug'ullanishi lozim. Shundagina o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Ma'lumki, o'quvchilar bilan turli metod va usullar yordamida ishlashda har bir bolaga xos ruhiy xususiyatlarni ham hisobga ola bilish kerak. Turli minazli (xarakterli) bolalarning o'quv materialini imkon qadar to'liq o'zlashtirishlariga erishish uchun ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ish yuritish shart. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchida intellektual zo'riqishga ehtiyoj uyg'otishdir. Bolaga hamma muammoli masala ham qiziq bo'lavermaydi. Bolani aqliy zo'riqish, sinchkovlik, topqirlik talab qiladigan muammoni hal etish ko'proq qiziqtiradi. Ba'zi o'quvchilar qo'yilgan muammoning qiyinligidan zavqlanishsa, ayrimlar og'ir muammoli savol oldida dovdirab qolishadi. Muammoning hal bo'lishida uning qiyinligi bilan o'quvchining fikriy imkoniyatlari uyg'un kelishi muhim. O'quvchining muammoni mustaqil ravishda shakllantira va yecha olishiga erishishi muammoli ta'limning ulkan yutug'i bo'ladi.

Metodik adabiyotlarda ba'zan o'tilganlarni so'rash uchun beriladigan oddiy savol bilan muammoli savol chalkashtirib yuboriladi. O'tilganlarni so'rash uchun beriladigan savolning tayyor javobi bo'ladi. O'quvchi uni esiga tushirishi kerak bo'ladi, xolos. Muammoli savolda esa tayyor javob yo'q va u izlanish natijasida bola tomonidan topilishi kerak bo'ladi. Bu hol o'quvchini muammo yuzasidan chuqur o'ylashga, uning barcha qirralarini hisobga olishga, masalaga o'zgacha nuqtai nazar bilan qarashga majbur qiladi. Muammoli savol zamiridagi har bir yechim muayyan hayotiy-mantiqiy asosga ega bo'ladi. Oddiy savol o'quvchi bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan axborotni esga tushirishni ko'zda tutadi. Muammoli savol esa o'ylash, izlanish, topish, tatbiq etish singari bir qator intellektual-psixologik operatsiyalarni talab qila-

3. Ta'lim kechimidagi ko'p qo'llaniladigan oddiy savolni so'rayotgan o'qituvchi uning javobini biladi, o'quvchi ham aslida bundan bahadur bo'lib, endilikda uni esga tushirib, ayni holatga tatbiq qilishi kerak bo'ladi. O'quvchi mutlaqo bilmaydigan savolni berish esa, didaktik jihatdan mutlaqo noto'g'ridir.

Muammoli savolda tayyor yechim bo'lmaydi, uni hal etish uchun o'quvchi o'zida mavjud bilimlar yordamida kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topishi kerak bo'ladi. Muammoni yechmoqchi bo'lgan o'quvchi oldin uni hal qilish uchun nimalar yetishmayotganini aniqlashi va o'sha yetishmayotgan narsalarni qanday topish yo'llarini belgilashi kerak bo'ladi. Muammoda yechim ko'rinib turmaydi. Muammoli vaziyat yaratayotgan o'qituvchi o'quvchiga muammo nimadan iborat ekanini anglatib, unda shu muammoni hal etishga istak paydo qilishi zarur bo'ladi. Pedagogika fanida muammoga o'quvchi oldin egallagan bilimlarini boshlatib, mustaqil ravishda hal qilishi lozim bo'lgan hayotiy yoki ilmiy-nazariy masala, deb qaraladi.

O'quvchi muammoga shunchaki o'zlashtirilishi lozim o'quv materialini deb emas, o'ziga kerakli va qiziq yumush sifatida yondashishi kerak. Shunda u o'quv muammosini hal qilish yo'llarini biladi, turli qarashlarni solishtiradi, tahlillaydi, o'z nuqtai nazarini tayin qiladi. Qo'yilgan muammoni mustaqil ravishda hal etishda o'quvchi o'zining haqligini isbotlash uchun dalil keltirishda qiyinchilik sezadi. Bu qiyinchilikni bir yoqli qilish uchun o'ylay boshlaydi.

Muammoli ta'lim o'quvchilarda mustaqil fikrlash bilan birga ijodkorlik shakllanishiga ham ko'maklashadi. Ijodkorlik deganda faqat bolaning qandaydir san'atkorlik qobiliyatiga egaligi tushunilmaydi. U inson faoliyatining har qanday jabhasida namoyon bo'ladigan fikrni yangilashga moyillikni anglatadigan tushunchadir. Shu bois har bir o'quvchi muayyan darajada ijodiy fikrlash faoliyatiga ega bo'lishi lozim. Fikr ijodkorligi bilishning eslash, ma'lumot to'plash, taqqoslash, tahlillash, umumlashtirish, baho berish kabi barcha ko'rinishlarini ishlatishni taqozo qiladi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini yo'lga qo'yish ta'lim kechimidagi ko'p o'zgarishlar bo'lishini talab qiladi. Bilimlarni

topib o'zlashtirish mustaqil fikrlashning shakllanishi va o'sishida muhim o'rin tutadi. Tafakkur mustaqilligini o'stirishning mohiyati qo'yilgan o'quv muammosini hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Muammoli ta'limda o'quvchidan fanga yangilik kiritish emas, balki uning o'zi uchun yangi bo'lgan muammoni mustaqil hal qilish talab etiladi. O'z oldiga muammo qo'yib, uni to'g'ri hal qilgan o'quvchi qarashining to'g'ri ekanini asoslay bilgandagina to'liq mustaqil fikrlay oladigan bo'ladi.

Badiiy asar o'quvchini olam va odam bilan tanishtiradi. Maktabdagi boshqa biror o'quv fani bolaga hissiy ta'sir ko'rsatishi jihatidan adabiyotga tenglasholmaydi. Chunki yozuvchi so'z va timsollar asosida hissiy fikrlaydi va hissiyotini o'qirmanlarga yuqtiradi ham. Shu sababli badiiy asar o'quvchining nafaqat tasavvur va tafakkuri, balki ruhiyat va ma'naviyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotni o'zlashtirish badiiy so'zdan zavqlanish va uning jozibasini his qilish orqali yuz beradi. Badiiy asardan zavq ola bilish bilan kishi shunchaki rohatlanibgina qolmay, o'zining ruhiy-ma'naviy kamolotini ham ta'minlaydi. Adabiyot o'qitishdan maqsad ifoda go'zalligini his etishga o'rgatish orqali o'quvchi-yoshlarda o'zganing holat-u ruhiyatini tuyish ko'nikmasini yuzaga keltirishdan iboratdir. Zavqlanish ta'sirlanish va anglashdan tug'iladi. Badiiy bitikning zavq beradigan o'rinlari anglagan odam uchungina bor. Anglamagan odam zavqdan mahrum qolaveradi. Muammoli adabiy ta'lim aynan badiiy bitikning anglanishi zarur go'zalliklarini ko'ra bilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Adabiyot darsini hissiy to'yintirish va ta'sirli qilish uchun o'quvchini asarda aks etgan davr va obrazlarga bog'lay bilish lozim. Badiiy yaratiqni borliqning obrazli ifodasi, ayni vaqtda, muallif, deb atalmish subyektning ruhiy olami manzarasi, deb qaray bilish o'quvchining badiiy didi shakllanishida muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda o'zgani his qilish, birovga tuyg'udosh bo'lish ko'nikmasi tarkib topishida asar qahramonlariga xos kechinmalarni ularga "yuqtirish" katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning badiiy asardan olgan taassurotlari teran va kuchli bo'lishi, ayni vaqtda ularda sinchkovlik, kuzatuvchanlik, ta'sirchanlik sifatlarini

qator toptirishda bolalar oldiga muammo qo‘ya bilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi badiiy asarni shunchaki o‘qib ketavermasligi uchun bitikdagi har bir tasvir mohiyatini anglashga xizmat qiladigan savol va topshiriqlar berilishi kerak. Bu savol-topshiriqlarni bajarish yo‘lida o‘quvchi matnni qayta o‘qishi, uning ayrim o‘rinlariga belgi qo‘yishi, ba’zi bir tasvirlarni daftariga ko‘chirib olishi lozim.

Muammoli adabiy ta’limda o‘quvchini o‘rganilayotgan badiiy matnga qayta murojaat qilib, uni tahlil etish orqali tasvir mohiyatini anglashga yo‘naltirish kerak. O‘quvchi matnni ikkinchi marta o‘qiganda uning badiiy mantig‘ini teranroq ilg‘aydi. Bitikdagi o‘ziga xoslikni ilg‘ab olib uni boshqa bitiklar yoki o‘z hayotidagi holat bilan solishtirish o‘quvchida shaxslik sifatlarini shakllanishiga xizmat qiladi. Bolalar o‘qish asnosida har bir qahramon holatini tuyish va unga munosabat bildirish, baholash zaruriyati oldida qolishi kerak. Shu tariqa ularda ham mustaqil fikrlash tarkib topadi, ham o‘zganing xatti-harakatiga munosabat bildirish va baho berish orqali muayyan aksiologik sifatlar shakllanadi.

Muammoli vaziyatni hosil qiluvchi masalani qo‘yishda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

1. Muammoli topshiriq o‘quvchilarda oldin shakllantirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanishi lozim. O‘quvchi muammoning shartlarini tushunib olib, bajarishga kirishish natijasida uning yechimiga mustaqil ravishda yetib kela olishi kerak.

2. O‘quvchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni hal qilish uchun shu kabi masalalarga doir umumiy qonuniyatni, shu xildagi topshiriqlarni bajarishning yo‘llari va ayrim shartlarini o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

3. Muammoli masalani yechish o‘quvchilarda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga ehtiyoj uyg‘otishi kerak. Adabiyot darslarida muammoli vaziyatlar yaratish uchun yuqorida aytilganlardan tashqari ma’naviy-axloqiy masalalar ham qo‘yiladi.

Muammoli ta’limga bag‘ishlangan metodik adabiyotlarda muammoli vaziyatda o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish va boshqarishga doir qator talablar borligi qayd etil-

gan⁵⁶. Shularga tayangan holda adabiyot darslaridagi muammoli vaziyatlarni tashkil etish va boshqarish oldiga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

1. Adabiyot darslarida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materiali yaratiladigan muammoli vaziyatga asos bo'lishi va ular o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq kelishi kerak. An'anaviy usullarda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarni o'quvchilar o'qituvchi, darslik yoki boshqa ta'limiy vositalar orqali o'rganardi. Muammoli ta'limda esa o'quv materiali muammoli vaziyat orqali o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'zlashtiriladi.

2. Darslarda tashkil qilingan muammoli holatlarda o'quvchi muayyan miqdordagi adabiy-nazariy bilim hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zining ongli ishtiroki va mehnati bilan o'zlashtiradi.

Muammoli vaziyat insonni intellektual faoliyatga undovchi bilim olishga bo'lgan ehtiyoj, o'zlashtiriladigan bilim va faoliyat turi hamda o'quvchining intellektual imkoniyati va ijodiy qobiliyatini ishga soldiradi. Muammoli vaziyat o'quvchining o'zida mavjud bilimlar qo'yilgan muammoni hal etish uchun yetarli, deb o'ylaydigan quyi hamda muammoni hal qilishga bilimi yetmasligini anglagan yuqori chegarasi o'rtasida yuzaga keladi. Ta'limiy muammo tortishuvlar, bahs-munozara, fikrlar xilma-xilligini keltirib chiqarishga arziydigan, faoliyatning noma'lum yo'llari, qonuniyatlarini belgilaydigan, o'zlashtirilgan bilimlar asosida aniqlanishi mumkin bo'lgan hodisadir.

Alohida ta'kidlash kerakki, muammoli adabiy ta'limga ko'rkona yondashib, undan tekshiruvchilar ko'zini bo'yash yoki darslarida yangi pedtexnologiyalarni qo'llayapti degan baho

⁵⁶ Айзерман А. Современный урок литературы и проблемное преподавание. – Москва: Просвещение, 1969.; Кудрявцев В.Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – Москва, Высшая школа, 1968.; Кудряшов Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 1981.; Лесохина Л.Н. О проблемности урока литературы // Литература в школе, 1965. – № 6.; Маранцман В.Г., Черкасова Т.В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – Москва: Просвещение, 1977.; Махмутов М.И. Организация проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1977.; Махмутов М.И. Теория и практика проблемного обучения. – Казань: Татарское книжное издательство, 1972.; Сладкова Д.А. Проблемное преподавание литературы в старших классах средней школы. – Казань: Казанский университет, 1967.

uchun foydalanishga urinish mutlaqo mumkin emas. Muammoli adabiy asabozqlarni turli yo'sinda uyushtirish mumkin. Jumladan, bitta sinf o'quvchilari oldiga birgina muammoni qo'yib, uni yozma shaklda hal qilish topshiriladi. Shuningdek, o'rganilayotgan bir asar yuzasidan har bir o'quvchi oldiga muammo qo'yib, uni o'z zaki yoxud yozma tarzda yechish talab etilishi ham mumkin. Sinfdagi o'quvchilarni besh-olti kichik guruhga ajratib har bir guruhi oldiga alohida muammo qo'yib, uni hal etish talab qilinsa ham bo'ladi. Yoxud sinfdagi barcha KGLar oldiga bir xil muammo qo'yib, uning yechimini yozma ravishda ifodalash topshirilishi ham mumkin va hokazo.

Ulkun o'zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning "O'zbeklar" hikoyasi⁵⁷ muammoli adabiy ta'limga mo'l-ko'l material berib olishi bilan ajralib turadi. Qamrovi keng, personajlar soni ko'p, voqea-hodisalarni tasvirlashdan ko'ra ular ta'sirida qahrsimon ruhiyatida sodir bo'lgan ruhiy holatlar ifodasiga ko'proq e'tibor qaratilgan bu asar yuzasidan to'la ma'nodagi muammoli asabozqni uyushtirish mumkin. 7-sinf "Adabiyot" darsligidan o'rin olgan bu asarni o'rganishga ajratilgan uch soatning birinchi soatida o'qituvchi bolalarga asar matnini o'qib beradi. Hikoyani o'qish jarayonida o'quvchilarga matnni diqqat bilan kuzatib borish kerakligi, tushunilmagan, fikr uyg'otadigan o'rinlarni belgilab qo'yish lozimligi tayinlanadi.

O'qituvchi keyingi darsga tayyorlanish paytida asardagi ob'ektlar, unda aks etgan muammolar ko'lami va sinfdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda muayyan miqdorda muammoli masalalar yaratadi. Har bir muammo asardagi personajlarning qaysidir qirrasini ochishdan tashqari o'quvchilarni o'ylashga, adabiyot va boshqa o'quv fanlaridan oldin egallagan bilimlarini esga tushirishga, bular kamlik qiladigan o'rinlarda esa hikoya matniga qayta murojaat qilib o'z bilimlarini mustaqil ravishda boyitishga majbur qiladigan yo'sinda qo'yilishi kerak. Shunday qilinganda o'quvchilar faqat o'z oldilariga qo'yilgan muammolarni hal qilish bilan kifoyalaniq qolmay, butun hikoyaning mohiyatini ang-

⁵⁷ Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik-majmua. -T.: Sharq, 2005. 296-bet.

lab yetadilar. Chunki asardan keltirib chiqarilgan har bir muammo buzilmas badiiy butunlikning faqat bir bo'lagini ifodalagani sabab butunlik tarkibidagina o'z mohiyatini to'liq ko'rsata oladi. Hikoya bilan puxta tanishgan o'qituvchi u yuzasidan qirqdan ortiq muammoli masala qo'yib, o'shancha muammoli vaziyat yaratishi mumkin. Quyida "O'zbeklar" hikoyasi bo'yicha muammoli masala va muammoli vaziyat yaratishning ayrim namunalari keltiriladi:

– *Hikoya matniga tayanib, Ergashga paxta terimiga borgan joylari nimasi bilan yoqib qolganligini tushuntiring;*

– *Hikoya qahramoni va hikoyachi Ergashning yoshi, tabiati va hissiy dunyosi haqida matnga asoslanib fikr yuriting.*

– *Ergashning "...uddalik" "bobida ham ancha jo'n edik" tarzidagi e'tirofi qahramon tabiatining qaysi jihatini namoyon etadi? "Uddasizlik" Ergashning kamchiligimi yoki fazilati?*

– *Hikoyaning boshida O'rmon va Azimjonlarga berilgan tavsifga e'tibor qiling. Asarning keyingi qismlarida tasvirlangan qaysi voqealarda ularning tabiatiga xos jihatlar ochiq namoyon bo'lganligini ayting.*

– *Ergashga eshik tagidan joy tekkanligiga qarab, uning shaxsiyatiga xos belgilar haqida xulosa chiqarishga urinib ko'ring.*

– *Hikoyada: "Ayvon ustuniga suvanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar. O'sha tutlar... U ver-bu verda chug'urchuqlar galasi uchadi" tarzidagi tasvirda "O'sha tutlar..." deyilayotganligining sababini tushuntiring. Qahramonning ayni holatdagi hissiyotini anglatishga urining.*

– *Ergashning o'rmak to'qiyotgan ayolni ko'rib qolgan paytdagi quvonchining sababini tushuntiring.*

– *Matndan asar qahramonining: "Ana shunday qilib, bu larga birdan ko'nglim ilidi", – degan iqrori sababini toping.*

– *Matndan hasharchilar qo'ngan qishloqning tasviri berilgan o'rinni toping. Qahramonning o'sha damdagi ruhiy holatini anglatishga urining.*

– *Ayolning: "Shu. o'n tiyinmi. besh tiyinmi. men ko'pam farqiga bormayman". – degan iqroriga munosabat bildiring.*

Uning terilgan paxtaga to'lanadigan haqni bilmasligi sababini tahlil qilishga urining.

– Hikoyadan olingan: “Kun chiaib, uvam sarg‘ayib nur soch-yapti. Biz, etaklarni bo‘vinga ilib, xuddi oshalolga ketayotgan podachiday borvaymiz. E, do‘stim, menga mana shunday kunlarda berib chiqayotganda namxush so‘qmoqlardan vurish ham yoqadi-da!” parchasida tabiatning holati va qahramon tabiatini o‘zaro solishtirib izohlang.

– O‘rmonning: “Chovni? Hm, buguncha endi votoqda ... Kerin yana o‘ylab ko‘ramiz” degan gaplari tagidagi yashirin ma‘nini toping.

– Botir cho‘ponning shamollab qolgan Ergashga ituzum berishi tasvirini qayta sinchiklab o‘qing. Ularning suhbatiga asoslanib, har bir qatnashchining tabiati haqidagi fikringizni qiling. Qarashlaringizni matndan misollar keltirib asoslang.

– Hikoyada paxta terimi davridagi ko‘ngilni xush qiladigan davrlar tasvirlangan o‘rinlarga e‘tibor qiling. Ularga munosabat bildirishga urining.

– Ergashning ikkinchi bor shamollab qolishi sababi tasvirlangan o‘rinlarni asardan topib o‘qing. Unga munosabatlaringizni bayon qiling.

– Matn asosida Saparboyning shaxsiyati haqida mulohaza yuring. Uning tabiatidagi odamgarchilik namoyon bo‘lgan o‘rinlarni ko‘rsating.

– Hikoyada tasvirlangan voqealar asosida Abduqodirning xarakteriga xos sifatlarni ko‘rsating.

– Asarda Abduqodir tilidan: “Ukam o‘ldi, Doya kampir chala tug‘ilgan, dedi. O‘ldi, Ko‘mib keldik, Kichkina edi”. – deya bildirilgan armonning ildizlari haqida o‘ylab ko‘ring. Bola nima chala tug‘ildiykin? Nima uchun vrachga emas, doyaga qaralishdi ekan? Chaqaloqning “kichkina”ligi sababi nimada edi o‘ylaysiz?

– Hikoyadan ayolning ish maromi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing. Uni o‘z nazarangiz va Ergashning qarashlari asosida tahlil qilishga urinib ko‘ring.

– Abduqodir o‘zining mehnatkash otasida emas, qo‘yi kam bo‘lsa-da, Eshimboyda orden borligi haqida g‘amginlik bilan gapirishi sababini izohlang.

– Hikoyachi Ergashning bir o‘rinda: “...qanday ahlak ekanmiz!” shaklidagi iqrori sababini tushuntiring.

– Hikoyada o‘zbeklarning o‘z kambag‘alliklarini yashirishi haqida aytilgan fikrlarga qanday munosabat bildira olasiz? Bu holning sababini izohlang.

– Ergashning odamlarimiz haqidagi: “Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambag‘al bo‘lib qolganday... tutadi o‘zini” tarzidagi mulohazasini sharhlang.

– Botir cho‘pon va ayolining Ergashga o‘zlarida bor birgina tarvuzning yarmini ilinganliklari, o‘ta kambag‘al bo‘lsalar-da, barcha hasharchi yigitlarga osh qilib berganliklari, o‘zlaridagi ikkitagina qo‘yning birini so‘yganliklarining asl sababi to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring. Bu holni izohlang.

– Hikoyada: “Botir cho‘pon iliyavib, quvonib dasturxon vor-di” tarzidagi bayonga munosabat bildiring. Uyiga mehmon kelgan o‘zbek nega suyunadi deb o‘ylaysiz?

– Ergashning cho‘ponnikida bir osham ham osh yemaganligi sababini izohlang. Siz uning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?

– Asardan kursdoshlarining nojoiz qiliqlari haqida Ergashning afsus bilan, ammo ayab aytgan fikrlarini topib, yana bir o‘qing. Unga munosabat bildiring. O‘zingizni ularning o‘rniga qo‘yib ko‘ring.

– Asar qahramonining: “...eng katta o‘g‘irlik” dan xabardor bo‘lishi hikoyada ishonarli tasvirlanganmi? Shu o‘rinlarni yana bir bor o‘qib, javob bering.

– Botir cho‘ponning qo‘zisini aynan kim yashirgan deb o‘ylaysiz? Buni qanday bilganingizni tushuntiring.

– Ergashning: “Hammalaringdan jirkanaman!” – deya chetga chiqqandagi holatini tasavvur qilishga urinib ko‘ring. O‘sha paytda uning ko‘zi, qoshi, so‘zlash tarzi, gavdasi qanday bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Siz uni tushunasizmi, his etasizmi?

– Ergash o‘rtoqlarining qilmishini cho‘ponga aytib berishi mumkinmidi? Nega aytib bermaganligi sababini izohlang.

– O'rmon, Azimjon, Mirzag'olib singarilarning qo'zi voqea-
tidan keyin ham cho'ponnikiga kiraverishlariga munosaba-
tini bildiring. Ularning tabiatini izohlang. Hukm chiqarish-
ga shoshilmay, fikringizni asoslashga urining. Ularning o'rniga
o'zlingizni qo'yib ko'ring.

– Asardagi: “Azimjon akaning bir nidosi vodimda qoldi: –
Biz ablahmiz! – dedi ingrab. – Ko'ra-bila turib ablahlik qilamiz.
Biz qanaqasiga o'zbekmiz-a? Ana ularni o'zbek desa bo'ladi”
shaklidagi tasvirga munosabat bildiring. Azimjon “ular” degan-
ga kimlarni ko'zda tutgan? Azimjonni O'rmon va Mirzag'olib
bilan solishtirishga urinib ko'ring.

– Kursdoshlaridan birining: “Shu Ergashvovning ichiga
napsang-da!.. Ko'zimga itdan battar ko'rinvapti... Endi bir umr
kulib yuradi bizdan, varamas. Yovvovi...” tarzidagi nafrati saba-
bini tushuntiring. Bu so'zlarda nafrat kuchlimi yoki xijolatlik?

– Matnga asoslanib Botir cho'pon va ayolining Ergash bi-
lan xayrlashmaganliklari sababini tushuntirib bering. Shu as-
noda o'zbeklarga xos xususiyatlarga ham to'xtaling. Odamzod
uchun do'st bilan dushmani, yaxshi bilan yomonni farqlash
naqadar qiyin ekanligi sababi haqida fikrlang.

– Ergashning harakatlariga cho'pon va uning ayoli nuqtai
nazaridan baho bering.

– Qahramonning: “ich-ichimdan quvonib yig'lardim” shak-
lidagi dardchil iqrorini izohlang. Quvonib ham yig'lash mum-
kinmi? Bu holning sababini ko'rsating.

– Hikoya so'nggida Ergashning: “..mening bu jo'ngina,
oddivgina hikovam – ko'nnglimdan o'tgan narsa edi”, – degan
to'kidiga e'tibor qaring. Uning ma'nosini chaqishga, sharh-
lashga urining.

– Siz asarda tasvirlangan cho'pon va ayoli singari o'zbeklar-
dan faxrlanasizmi, nafratlanasizmi, xijolat bo'lasizmi? Hashar-
chi talabalardan-chi? Qarashlaringizni asoslang.

– Asarning tasvir ohangi va hikoyachining so'zlash tarziga
munosabat bildiring.

Bu muammo, savol va vaziyatlarning birortasini hikoyaga
qayta murojaat qilmay turib yechish, javob berish yoki hal qi-

lish mumkin emas. Har bir masala, savol, vaziyat o'quvchidan mustaqil izlanish, munosabat bildirish va fikrini asoslashni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga muammoni a) individual; b) yoppasiga; v) kichik guruhlariga bo'lib; g) uyga vazifa shaklida turli-tuman tarzda qo'yishi mumkin. Ushbu hikoyani an'anaviy yo'sinda o'quv tahlili qilish kutilgan samarani bermaydi. Chunki hikoyadagi har bir tasvir har kimda har xil tuyg'u qo'zg'aydi. Kimda hayrat, kimda og'riq, kimda alam-iztirob, kimda iftixor uyg'otadi...

Muammoli darsda o'qituvchi ham saboq ishtirokchilaridan biri bo'lishi, boshqaruvchidan ko'ra ko'proq kuzatuvchi-yo'naltiruvchi bo'lgani ma'qul. Muammoli saboqda har bir o'quvchining o'z haqiqati va xulosasi hamda ularni asoslaydigan hayotiy va mantiqiy dalillari bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, muammoli ta'lim o'qitish kechimidagi har qanday kamchilikni bartaraf etadigan universal vosita emas. Va u adabiy ta'limning boshqa usullarini mutlaqo inkor qilmaydi. Muammoli ta'limni qo'llab, samaraga erishish o'zlashtiriladigan materialning tabiati, o'qituvchining mahorati, o'quvchilarning tayyorlik darajasiga bog'liq.

Savol va topshiriqlar:

1. Muammoli ta'limning belgilari, maqsad va vazifalarini ko'rsating.
2. Muammoli ta'limning tarkibiy qismlarini tushuntiring.
3. Muammoli savol bilan o'tilganlarni so'rashda qo'llaniladigan oddiy savolning farqini tushuntiring.
4. Muammoli vaziyatni hal etishda o'quvchining ishtiroki darajasini ko'rsating.
5. Biror asarni o'rganish misolida muammoli ta'limni uyushtiring.

3-bo'lim. SABOQ – ADABIYOT O'QITISHNING ASOSIY SHAKLI

ADABIYOT SABOQLARI

Reja:

1. Saboq – o'quvchilar o'quv-tarbiyaviy faoliyatini uyushtirishning asosiy shakli.
2. Zamonaviy adabiyot darsiga qo'yiladigan talablar.
3. Adabiyot saboqlarining tarkibiy tuzilishi.
4. Adabiyot darslarining turlari.

Tayanch tushunchalar:

Saboq, polifonik dars, zamonaviy darslarda o'quvchi o'qitish kechimidagi subyekt, obyekt va subyekt faolligi, o'qitilganlarning so'rash va baholash darsi, yangi materialni bayon etish darsi, o'qitilganlarni mustahkamlash darsi, aralash dars, kirish mashg'ulotlari darsi, o'rganiladigan adabiy asarni o'qitish darsi, o'rganilayotgan asar yuzasidan dastlabki suhbat darsi, asar tahlili darsi, qo'shimcha materiallarni o'rganish darsi, yakunlovchi mashg'ulotlar darsi, hisoblash va baholash darsi.

Adabiyot bo'yicha mashg'ulotlarni uyushtirishning ekskursiya, fakultativ va sinfdan tashqari mashg'ulot, mustaqil ta'lim, o'qitilganlarning mashg'ulotlari kabi ko'plab shakllari mavjud. Lekin ularning birortasi ham adabiyot saboqlarining o'rnini bosa olgani yo'q. *Saboq bir sinf yoki guruhdagi o'quvchi yoki talabalar bilan qat'iy jadval asosida o'tkaziladigan didaktik tadbirdir*⁵⁸.

Har bir adabiyot darsi betakror ijod namunasi, o'ziga xos bir qat'iy hisoblansa-da, unda asarni o'zlashtirishning mantig'idan ke-

⁵⁸ O'zbek pedagogik ensiklopedik so'zligi. - T.: "Chashma-Print", 2014. 186-bet.

lib chiqadigan muqarrar ravishdagi turg'un, takrorlanuvchi, universal jihatlar ham mavjuddir. Ayni shu jihatlar adabiyot darslariga oldiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyot darsiga tayyorlanish va uni o'tkazish katta mehnatni talab etadigan didaktik kechimdir. Buning uchun darsga yaxlit butunlik bag'ishlaydigan metodik konsepsiyani topish, material tanlash, uni har jihatdan o'zlashtirish, anglash, ularni o'tgan darslar bilan bog'lash, bir vaqtning o'zida, hammaga va har bitta o'quvchiga alohida yetkazish yo'llarini belgilash kabi ishlar amalga oshirilishi zarur. Nihoyat, darsning kompozitsiyasini o'rganiladigan asar uchun ham, o'quvchilar uchun ham tabiiy bo'ladigan tarzda qurishga erishish lozim.

Darsning izchil, ichki muntazamlikka ega holda tashkil etilishi talabi tasodifiy bo'lmay, darsning maqsadi, mazmuni, shakli va usullari orasidagi o'zaro bog'liqlikdan kelib chiqadi. Aytilgan metodik unsurlarning hammasi ham g'oyat muhim va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, baribir, adabiyot darsining qurilishida ustuvor maqom, general yo'nalish darsning maqsadi hisoblanib, qolgan unsurlar unga tobe bo'ladi. Negaki dars maqsadining o'zgarishi bilan uning mazmuni ham, metodi ham, qurilishi ham o'zgarib ketishi mumkin. Ammo dars qurilishi, mazmuni yoki metodining ma'lum darajada o'zgarishi o'z-o'zidan uning maqsadini o'zgartirib yubora olmaydi. Chunki ular maqsadga erishishning vositalari sanaladi. Shuning uchun ham o'qituvchi adabiyot darsiga tayyorgarlik ko'rishda uni butunicha tasavvur qilibgina qolmay, maqsadi, mazmuni, metodi, usullari va tarkibiy qurilishini aniq ko'z oldiga keltira bilishi ham lozim. Pedagogik maqsad darsning barcha unsurlarini o'z atrofiga uyushtiruvchi fokus hisoblanadi. O'qituvchi oldida o'quvchini tarbiyalash va unga ta'lim berish asosida shaxsiyatini rivojlantirishga doir belgilab olingan maqsad darsning qolgan borliq unsurlarini o'zaro bir-biriga bog'lashi shartdir.

Maktab adabiy ta'limining o'ziga xosligi shundaki, unda o'rganiladigan bitta badiiy asar ko'pincha o'ziga xos qismlar bo'lmish bir necha saboqqa bo'linib ketadi. O'qituvchi har qanday asar tahlilida saboqlarning davomiyligi 40-45 minutdan iborat

danini hisobga olib ish ko'rishga majbur. Holbuki, ayrim badiiy asarlarning hajmi bunday darslarning bir qanchasiga ham sig'maydigan darajada katta bo'ladi. Yana shunisi borki, biror badiiy asarni o'rganishga bag'ishlangan darslar o'rtasida unga hech qanday aloqasi bo'lmagan boshqa o'quv predmetlariga tegishli bir qancha saboqlar bo'lib o'tadi. Shunga qaramay, o'quvchilarda har bir katta-kichik asar yuzasidan o'tkazilgan darslarda qandaydir yaxlit taassurot hosil qilinishga erishish lozim bo'ladi.

Har bir adabiyot darsi o'ziga xos tugallikka ega bo'lib, uning o'z konsepsiyasi, mantiq'i va uslubi shakllantirilgan taqdirdagi-na darslar o'rtasidagi ichki umumiylik, bog'langanlikka erishish mumkin. Har bir adabiyot darsi o'ziga xos butunlikka, demakki, tugallikka ega bo'lishi bilan bir qatorda oldin bo'lib o'tgan va endi bo'ladigan mashg'ulotlar bilan ham bog'langan holda muayyan mavzuga doir darslar tizimining tabiiy bir bo'g'iniga aylanishi jiz. Bunday butunlikka har bir alohida darsning va barcha darslar tizimining bosh maqsadini to'g'ri belgilash orqaligina erishiladi. O'zaro bog'lanmaganlik, birlashtiruvchi umumiy vazifalarni qo'ymaganlik natijasida mavzuga doir kerakli materialni tanlay bilmasklik, tarkibning omonatligi, mantiqning noaniqligi ko'plab adabiyot darslarining samarasizligiga sabab bo'lishi mumkin.

O'qituvchi darsning asosiy maqsadini belgilash asnosida na-fiqat uning tematik va konsepsion birligini tayin etadi, balki qandaydir darajada saboq qatnashchilaridagi hissiy kayfiyatni ham prog-rammalashtiradi. Darsning hissiy birligi degani, aslo, darsning bir silligi degani emas, albatta. Har bir darsda o'quvchilarning butun diqqati bir joyga to'planishi kerak bo'lgan jiddiy daqiqalar ham, kulpi va jonlanish onlari ham bo'lishi kerak. O'qituvchi uchun adabiyot sabog'ining hissiy chizmasini ko'z oldiga aniq keltiradigan darajada puxta rejalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Negaki o'quvchilarning darsdagi hissiy kayfiyatini oldindan ko'z oldiga keltira olmaslik yoki unga kerakli yo'nalish bera bilmasklik, yaxshi o'ylangan mashg'ulotni ham samarasiz qilishi mumkin. Goylik, hazrati Navoiyning asarlari tahlilida savol va topshiriqlar-ni shiddat bilan berish, tezkor sur'at didaktik maqsadga eltmay-di. Sababi bu asarlar o'z tabiati bilan har qanday kishini o'yg'a

toldiradigan xususiyatga ega. Demak, o'quvchilar kayfiyati ham shunga muvofiq sozlanishi lozim. Ayni vaqtda, Cho'lponning insoniy erkka tashnalik va milliy fojiadan ozurdalik tuyg'ulari holati chakkillab tomib turgan "Buzilgan o'lkaga" she'ri tahlilida bemalollik, og'ir-bosiqlik qilib bo'lmaydi. Har bir darsda o'tilayotgan mavzuga mos keladigan universal kayfiyatning yuzaga keltirilmasligi amalda bu saboqning samarasizligiga olib keladi.

Umumiy maqsadning to'g'ri belgilanishini o'qituvchining muayyan mavzu bo'yicha olib borgan ishlarining ma'lum darajadagi yakuni deyish mumkin. Negaki umumiy maqsad belgilanishi uchun o'qituvchi matnni atroficha o'rganishi, unga doir qo'shimcha adabiy, nazariy, tanqidiy materiallarni ko'rib chiqishi, metodik adabiyotlar bilan tanishgan bo'lishi kerak. Har bir alohida darsning maqsadini tayin etishda oldingi va keyingi saboqlarning maqsadlari ham hisobga olinsa, amaliy-metodik jihatdan g'oyat foydali bo'ladi.

Darsning qimmatini tayin etishda uning mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Saboqning mazmuni nihoyatda ko'lamlil tushuncha bo'lib, material tanlashni ham, o'rganilayotgan badiiy asar tabiatiga muvofiq talqinni ham, davrning xususiyatlarini ham, o'quvchilar jamoasining o'ziga xosligini ham qamrab oladi. O'qituvchi o'tiladigan adabiyot darsini rejalashtirayotgan va uning maqsadlarini belgilayotganda, tanlangan adabiy materialning tabiatiga qanchalik muvofiqligiga e'tibor qilsagina, yutuqqa erishadi. O'qituvchi darsni rejalashtirayotganda, o'quvchilarda asarga to'g'ri munosabat shakllanishi, o'quv materialining to'liq tushunilishi, matn haqqoniy bahosini olishini ko'zda tutishi kerak.

Adabiyot darslari o'rgatilayotgan asarning tabiatiga muvofiq tarzda ba'zan jiddiy ilmiy yo'sinda, goh o'yin tarzida, gohida o'qituvchi panaroqda qolib, o'quvchilar faoliyati ustuvorligida uyushtirilishi mumkin. Saboqlarning yuksak saviyada bo'lishi o'quvchilarning badiiy didi va estetik madaniyatini yuksaltiradi, ularda sobit dunyoqarash shakllantirishga xizmat qiladi. Agar saboqlar o'quvchilarni o'ylashga yo'naltirmaydigan tarzda tashkil etilsa, beriladigan savol-topshiriqlar jo'n bo'lsa, uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ta'siri kamayadi. Tahlilning ilmiyligi, ba-

honing o'ziga xosligi va asoslanganligi adabiyot darslariga qo'yiladigan eng muhim talablardandir.

Adabiyot o'qituvchisining turli-tuman tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalana olishi ham darsning qimmatini belgilaydigan muhim o'lchovlardan biri ekanligi yodda tutilishi lozim. Lekin adabiyot darsining tarbiyaviy xarakteri o'rganilayotgan asardan ochiqdan-ochiq axloqiy xulosa chiqarish yoki uni zo'rlab, sun'iy ravishda bugunga moslash tarzida amalga oshirilmasligi kerak. Adabiyot darslaridagi tarbiya to'g'ri gapni quruq takrorlash, qaytarilaverib siyqasi chiqqan xulosalarni qayd etish orqali emas, balki asarda ifodalangan axloqiy-ma'naviy muammolarning unuminsoniy va individual jihatlarini ko'ra bilish, muallif pozitsiyasini aniqlash va uni o'z ruhiyatiga uyg'unlashtirib, tatbiq etish vositasida amalga oshirilganda, samarali bo'ladi.

Adabiyot darslari o'quvchilarni bezovta qiladigan ruhiy-ma'naviy muammolarga javob berishi, ular haqda qat'iy hukm chiqarishi emas, balki yoshlarni shu haqda o'ylashga yo'naltirishi bilan qiymatlidir. Shu ma'noda, adabiyot saboqlari ruhoniyl chanoqlikni qondiribgina qolmay, ruhiy-ma'naviy tashnalikni oshirishi ham kerakligi ko'zda tutilishi lozim. Demak, darslar ruhiy chanoqlikni qondirib chanoqatadigan va chanoqatib qondiradigan yo'sinda uyushtirilishi joiz. Bunda o'rganilayotgan badiiy asarlardan bugungi kun va o'quvchilar hayotiga to'g'ridan to'g'ri parallelar qilish kutilgan samarani bermaydi. Asardan bugungi kunga kerakli ma'no chiqarib, uni o'quvchilarga sun'iy ravishda tiqishirishga shoshilmay, matnda tasvirlangan har bitta timsolning jonli odam, uning xatti-harakatlari o'ziga xos ma'naviy-axloqiy mantiqqa ega ekani hisobga olinib, unga munosabat bildirish asnosida o'quvchilarning axloqiy tajribasiga zimdan ta'sir ko'rsatishga qaratilgan darslarning tarbiyaviy ta'siri kuchliroq bo'ladi.

Adabiyot darslarida har bir o'quvchining o'z ma'naviy to'xtami bo'lishi va unda o'rganilayotgan asardagi timsollardan asos topilishiga e'tibor qaratilishi muhimdir. O'quvchilarning "Alpomish" dostonidagi Alpomish, Qaldirg'och, Qorajon, "Farhod va Shirin"dagi Farhod kabi timsollar ko'rsatgan fidoyiliklar hech kim tomonidan taqdirlanmagani holda ularning ezgulik qilaver-

ganliklari sababi haqida o'ylab ko'rib, munosabat bildirishlari bolalar ma'naviyatining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Quruq chaqiriq va ochiq tashviqotlardan ko'ra, birovga fidoyilik qila olgan shaxslar taqdiri haqida o'ylab ko'rish, ularning ruhiyatini tuyishga urinish bolalarning shaxs sifatida kamol topishiga ko'proq yordam beradi. Bu adabiy qahramonlarning ezgulikdan manfaat kutmaydigan shaxslar ekaniga o'quvchilar e'tiborini qaratish saboqlar samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu qahramonlar haqidagi o'ylar o'quvchilarning ruhiyatida, albatta, chuqur iz qoldiradi. Ularda o'z xatti-harakatlarini kuzatish va baholash xususiyatini shakllantiradi.

Adabiyot saboqlarining tarbiyaviy ahamiyati nafaqat uning mazmuni, balki darsda qo'llaniladigan metod va usullar tizimiga ham bog'liqdir. Darsning mazmuniy chegarasini aniq belgilab olgan o'qituvchi unda qo'llaniladigan metodlar to'g'risida ham puxta o'ylab ko'rish lozim. Adabiyot darslarida ishlatiladigan usullarning birortasini ham universal deb hisoblash mumkin emas. Chunki ular dars mazmunining qandayligi, belgilangan maqsadning tabiati hamda sinfdagi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va kayfiyatidan kelib chiqib tanlanadigan pedagogik yo'llardir.

Maktab adabiy ta'limi asosida o'quvchilarda badiiy idrok zavqini uyg'otish, ularda san'atkorning ijodiga yaqinlik tuyish, estetik kashfiyotlar qilish va axloqiy xatti-harakatlarga aksiologik (baholash) yondashuvni shakllantirish niyati turadi. Unutmazlik kerakki, san'at asarini o'rganishda oxirgi xulosani aytishdan ko'ra, bu to'xtamga yetib borish kechimi birlamchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o'rganilayotgan asar tabiatiga uni tahlil qilishda qo'llaniladigan usullarning muvofiq bo'lishi kerakligi adabiyot darslariga qo'yiladigan muhim talablardan biri hisoblanadi. Badiiy asarga to'g'ri fikrning shunchaki illyustratsiyasi sifatida qaramaslik, uning tahlilini o'quvchilar sezimiga ta'sir ko'rsatadigan, hissiyot qo'zg'aydigan, munosabat paydo qiladigan tarzda uyushtirishga erishish adabiyot o'qituvchisi oldidagi eng muhim vazifadir.

Adabiy materialning o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishida matn yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar hal qiluv-

chi o'rin tutadi. Ular soddadan murakkabga, tushunmaslikdan tushunishga, bilmaslikdan bilishga, tuymaslikdan tuyishga tomon yo'naltirilishi, sinfdagi barcha o'quvchilarni va ayni vaqtda, har bir alohida bolani faollashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ta'assufki, ta'lim amaliyotida ko'pincha yo o'qituvchining o'quvchilarni o'ylashga yo'naltirmaydigan jo'n savollar yordamida alohida e'tibor qaratmasdan ham kelish mumkin bo'lgan xulosaga zo'rlab yetaklaganini yoxud savol-topshiriqlar o'ta murakkab bo'lgani sabab o'quvchilarning ularni bajara olmaganligini ko'rish mumkin.

Yaxshi adabiyot darslarida o'quvchilar tinim bilmay faoliyat ko'rsatishadi va bu faoliyat natijasida ular o'rganilayotgan asarning ichki qatlamlariga tobora chuqurroq kirib boradi. Adabiyot darslarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabati va pedagogik sheriklikdagi faoliyati g'oyat murakkab va o'ziga xosdir. Garchi, zamonaviy darsda o'quvchilar faoliyati birlamchi bo'lishi kerakligi aytilayotgan bo'lsa-da, aslida hamisha adabiyot o'qituvchisi ularning faoliyatini tashkil etadi, yo'nalish beradi va boshqarib turadi. Demak, bugungi kunda ham o'qituvchining ta'lim jarayonidagi o'rni g'oyat o'ziga xos va betakrordir. Negaki adabiyot saboqlari uchun faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Adabiy bilimlarni o'quvchilar interfaol usullar yordamida mustaqil egallasalar ham bo'ladi, lekin ma'naviy sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi yetakchiligiga hamisha ehtiyoj seziladi.

Adabiyot darslari samarali bo'lishi uchun o'rganiladigan adabiy material har safar o'quvchilarga eng maqsadga muvofiq tarzda yetkazilishi kerak. O'qituvchi tomonidan qachon tayyor axborotni bayon etish, qachon badiiy matnni o'qitish, qaysi hollarda audiovizual vositalardan foydalanish, qay holatda muammoli usulni qo'llash, adabiy materialning qaysi qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganilishi, qanchasi esa uncha qiyin bo'lmagan topshiriqlarni bajarish asnosida egallanishi kerakligini oldindan belgilab qo'yilishi saboqning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuni hisobga olish kerakki, 5-7-sinflarda o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt bir muammo atrofida ushlab turish qiyin bo'lgani uchun

bir dars davomida goh qiyin, goh oson usullarni qo'llash lozim bo'lsa, maktab ta'limining yuqori bosqichlarida bunday turtalikka unchalik ehtiyoj qolmaydi. Negaki 8–11-sinf o'quvchilarining diqqatlari anchagina turg'un bo'lib, ular 40–45 daqiqa davomida o'zlarini chinakamiga qiziqtirgan masala atrofida o'quv faoliyati ko'rsatishga qodirdirlar.

Adabiyot darslarining tarkibiy tuzilishi ham o'ziga xos bir muammodir. Maktab ta'limi tizimidagi barcha o'quv fanlarida bo'lganidek, adabiyot darslari ham o'tgan asrning 40–50-yillarida qaror topgan va keng yoyilganidek, *a) o'tilganlarni so'rash; b) yangi materialni bayon qilish; v) mustahkamlash* kabi tarkibiy qismlardan iborat, deb qaraladi. Bu hol reproduktiv ta'limning “*eshitib eslab qol, qaytarib aytib ber*” tarzidagi talablariga to'la muvofiq keladi. Lekin qachonlardir belgilangan bu qat'iy tarkib vaqt o'tishi bilan bir qator o'zgarishlarga uchrab, davrning yangi talablariga moslashtirilishi kerak bo'lib qoldi.

Shaxsni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim sharoitida adabiyot darsi hamisha qaytarilib turuvchi qismlardan emas, balki o'zaro chambarchas bog'lanish asnosida yangilanib turadigan va tabiiy ravishda yuzaga keladigan o'quv vaziyatlaridan iborat bo'lishi kerakligi ma'lum bo'ldi. O'quv vaziyatlari har qanday saboqning mantiqiy va hissiy qismlari, ya'ni asosiy “hujayrasi” hisoblanadi. Chindan ham saboqlardagi har bir o'quv vaziyati darsning umumiy maqsadiga olib boradigan o'ziga xos didaktik bosqichdir.

Zamonaviy adabiyot darslarining qurilishi ikki darajada hal etiladi: *birinchidan*, umuman, adabiyot sabog'i miqyosida va *ikkinchidan*, har bir o'quv vaziyati darajasida. Umuman, adabiyot darsini qurish, uyushtirish degani ushbu darsning konsepsiyasini yuzaga chiqarish uchun unda yuzaga keladigan o'quv vaziyatlarining ketma-ketligi, davomiyligi, bir-biriga bog'lanishini pedagogik maqsadga eng muvofiq tarzda amalga oshirish demakdir. Buning uchun o'qituvchi muayyan saboq qancha va qanday o'quv vaziyatlaridan iborat bo'lishini aniq ko'z oldiga keltirishi, har bir o'quv vaziyati oldiga pedagogik maqsad qo'yishi, shunga muvofiq material tanlashi, ta'limning mos usullaridan foydalanishi shuningdek, o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifalarning qanday

bajarilishini tasavvur ham eta olishi lozim bo'ladi. Agar o'quv vaziyatlari o'rtasida yetarlicha bog'langanlik bo'lmasa, dars uzluq-yuluq bo'laklardan iborat bo'lib, yo keraksiz qaytariqlarga, yoki qaysidir qismlarning tushib qolishiga olib keladi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim sharoitida o'qituvchining asosiy e'tibori bolalarni faollashtirishga, ularni badiiy asarini qabul qilish va uning jozibasini anglash borasida mustaqil fikr yuritishga yo'naltirilishi joizdir.

Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda saboqlarning to'g'ri qurilishi ham muhim o'rin tutadi. Darsning boshqa barcha jihatlariga o'ta darajada bog'liq bo'lgan va ulardan kelib chiqadigan unsur bo'lishiga qaramay, dars qurilishi ta'limning samaradorligiga juda katta ta'sir ko'rsata oladi. Agar darslar to'xtovsiz o'zgarib turadigan ta'limiy vaziyatga moslashishga moyil tarzda qurilmasa, kerakli holatlarda oson bilan qiyin, sodda bilan murakkab almashinib turmasa, dars bir xil va zerikarli bo'lib, adabiyot o'qitishning samarasi pasayadi. Bunday holda ta'lim kechimida o'z-o'zidan o'qituvchi faoliyati old planga chiqadi, u ko'proq ishlay boshlaydi, ta'limning ma'ruza shakli ustuvorlik qiladi. Albatta, bugungi pedagogik tafakkur uchun bunday ish usuli maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishda darsning xilma-xil turlaridan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, dunyo adabiy ta'limida ham shu vaqtga qadar dars turlarining qat'iy va asosli, hamma tomonidan tan olingan ilmiy tasnifi qilinmagan. XX asrning 30-yillarida rus metodisti V. V. Golubkov: *"Har bir adabiyot darsi oldida o'quvchilar bilimini oshirish, unda muayyan ko'nikmalarni hosil qilish, uni adabiy o'qishning yangi bir bosqichiga ko'tarish kabi aniq maqsad belgilangan bo'lishi kerak. Mana shu xususiy maqsadlarning tabiatidan kelib chiqib, adabiyot darslarining turlari haqida gapirish mumkin"*⁵⁹, – degan edi. Shundan kelib chiqqan holda, o'tgan asrda adabiyot darslarining a) *o'tilganlarni so'rash va baholash darsi*; b) *yangi materialni bayon etish darsi*; v) *o'til-*

⁵⁹ Роткович Я. А. Методика преподавания литературы в советской школе. Хрестоматия. – М.: 1969. – С. 305.

ganlarni mustahkamlash darsi; g) *aralash dars* kabi turlari mavjudligi qayd qilindi.

Pedagogika ilmi va amaliyotining nisbatan keyingi davrida qo'yilayotgan maqsadning tabiatidan kelib chiqqan holda adabiyot saboqlarining a) *kirish darsi*; b) *badiiy asarni o'qish darsi*; c) *o'rganilayotgan asar yuzasidan suhbat darsi*; d) *asarlari tahlili darsi*; e) *qo'shimcha materiallarni o'rganish darsi*; g) *yakunlovchi dars*; h) *baholash darsi* kabi turlari borligi ham qayd etiladi.

Taniqli rus metodist olimi prof. N. I. Kudryashev adabiyotning o'quv fani sifatidagi tarkibiga tayanib, darslarni uch turga bo'ladi va quyidagicha tasnif etadi:

I. Badiiy asarni o'rganish darslari

1. Asarni badiiy idrok etish darslari.
2. Badiiy matn ustida ishlash darslari.
3. Asar bo'yicha o'rganilganlarni umumlashtirish darslari.

II. Adabiyot nazariyasi va tarixini o'rganish darslari

1. Adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish darslari.
2. Adabiy tanqidiy maqolalarni o'rganish darslari.
3. Adib tarjimai holini o'rganish darslari.
4. Adabiy-tarixiy materiallarni o'zlashtirish darslari.
5. Qaytarish va umumlashtirish darslari.

III. Nutq o'stirish darslari

1. Hayotiy hodisa va badiiy asarlardan olingan taassurotlar bo'yicha ijodiy ishlash darslari.
2. Savollarga og'zaki javob berish va og'zaki ma'ruza qilishni o'rganish darslari.
3. Insho yozish darslari.
4. Insholarni tahlil qilish darslari⁶⁰.

⁶⁰ Кудряшев Н. И. О типах и видах уроков литературы. Журн. "Литература в школе", 1974. — № 5.

Adabiyot darslarining bu tarzda tasnif etilishidagi ma'qul jihat shundaki, unda o'rganilgan badiiy asarlarning tahlilidan tashqari didaktik tadbirlar ham hisobga olingan. Buning ustiga, bu tasnifda saboqlarning bir tur ichidagi xillari hamda ularning o'zaro bog'liqligi ham aks etgan. Ushbu tasnifdagi o'zgarish jihat shundan iboratki, unda faqat adabiyot saboqlarining maqsad va mazmunidan kelib chiqilib, o'quvchilar bilan o'qituvchi faoliyatining tabiati hisobga olinmagan. Shuning uchun ham aslida bir darsning muayyan unsurlari bo'lmish didaktik tadbirlar alohida dars turi sifatida ko'rsatilgan.

Keyingi vaqtda adabiyot saboqlarining tarkibiy qismlariga qatnash qolgan, turg'un narsa emas, balki didaktik vaziyat talabiga ko'ra tinimsiz o'zgarib oladigan pedagogik butunlik sifatida qatnash keng yoyilmoqda. Shuning uchun ham metodist olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar orasida **polifonik** dars atamasi tobora kengroq yoyilib bormoqda. Polifonik adabiyot saboqlarida birgina o'qituvchi yoki bir o'quvchining emas, balki barcha o'quvchilarning bir vaqtning o'zida qatnashishi, ya'ni o'qituvchi bilan o'quvchilarning hamda o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan bog'lanishida didaktik faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutiladi.

Ayni vaqtda, hozirgi kunda interfaol usullarning tezkorlik bilan ta'lim amaliyotiga kirib kelishi adabiyot darslarining turli miqdorining tasnifga bo'y bermaydigan darajada ko'payib ketishiga olib kelmoqdaki, dars turlarini belgilashda shu holatni ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini uyushtirishda saboqning roli qanday?
2. Zamonaviy adabiyot darslariga qo'yiladigan talablarni sharhlang.
3. Adabiyot saboqlarining tarkibiy tuzilishi qanday?
4. Adabiyot darslarini qanday tasniflash mumkin?
5. Adabiyot saboqlarining turlarini izohlang.

ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARNI O'RGATISH YO'LLARI

Reja:

1. Nazariy tushunchalarni o'rgatishning ilmiy-pedagogik asoslari.
2. Adabiy-nazariy tushunchalarning qo'llanilishiga ko'ra turlari.
3. Adabiy-nazariy tushunchalarni sinflar kesimida o'rgatish yo'llari.
4. Badiiy matnni idrok etishda nazariy ma'lumotlarning o'rni.

Tayanch tushunchalar:

Adabiy-nazariy tushuncha, ko'rkam adabiyot va nazariya nazariy bilim – matnni idrok etish vositasi, badiiy matnni qabul qilish va tahlil etishda ilmiy tushunchalarning o'rni, janrlar to'g'risidagi tushunchalar, tasviriy vositalar borasidagi tushunchalar, badiiy san'atlar haqidagi tushunchalar, timsollarga doir ilmiy qarashlar, uslubiy yo'nalish va ifodaviy o'zgachaliklar borasidagi nazariy tushunchalar.

Majburiy ta'lim bosqichlaridagi adabiyot o'qitish jarayoni uchun adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatishning o'zi maqsad emas. Chunki maktabda filolog mutaxassis tayyorlash ko'zda tutilmaydi. Ta'limning bu bosqichlarida badiiy asarlarni o'qitish va tahlil qilish orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish, bolalarda go'zal axloqni qaror toptirish maqsadi ustuvorlik qiladi. Shu sabab o'rgatilayotgan badiiy matnning o'quvchilar tomonidan to'la idrok etilishi, tuyilishi va anglab yetilishiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu hol badiiy matnning sir-u asrorini ochishga yordami tegadigan pedagogik tadbirning maqsadga muvofiq sanalishini taqozo qiladi. O'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida saboq olayotgan o'quvchilarga adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatish, birinchi navbatda, badiiy matnni anglash hamda uni tahlil qilishga xizmat ettirilishi ko'zda tutiladi.

“Bizga zavqlanishning o'zi ozlik qiladi, biz bilishni ham istaymiz: biz uchun bilimsiz zavqlanish yetarli emas”,– deb

rozgandi V. G. Belinskiy “Tanqid haqida nutq” maqolasida. Darhaqiqat, nazariy tushunchalarsiz adabiyot o‘qitish borasidagi tadbirlarni to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki, adabiyot nazariyasidan muayyan miqdordagi bilimga ega bo‘lmagan o‘quvchi badiiy asarni yetarlicha idrok eta olmaydi va to‘g‘ri ta’sirlana bilmaydi. Shu sabab nazariy tushunchalarsiz badiiy asarning tahlili kutilgan samarani bermaydigan yumushdir. *Adabiy-nazariy tushunchalar maktab adabiyot kursining tarkibiy qismigina emas, balki uzluksiz ta’limning turli bosqichlarida adabiyot o‘qitishning o‘ziga xos ilmiy-nazariy asosi* ham hisoblanadi. Negaki maktab adabiy ta’limi mobaynida o‘rgatiladigan nazariy tushunchalar badiiy asarni to‘laroq anglash vositasi bo‘lishdan tashqari, adabiyot o‘qitishning o‘ziga xos metodologik asosi vazifasini ham o‘taydi.

Buni aytish kerakki, maktab adabiyot kursining turli bosqichlarida duch kelinadigan adabiy-nazariy tushunchalar qo‘llanilishiga ko‘ra a) **faol** va b) **nofaol** tarzda ikki turga bo‘linadi. Faol turdagi nazariy tushunchalar o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan deyarli har darsda qo‘llaniladi. Ular o‘rganiladigan asarlarning tahlili jarayonida, badiiy matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlarda ishlatiladi, darslik va qo‘llanmalardagi metodik maqolalarda tilga olingan bo‘ladi, lekin ular haqida o‘quvchilarga maxsus bilim berish hamisha ham ko‘zda tutilavermaydi. Chunki, “badiiy haqiqat”, “asarning hayotiy asosi”, “yozuvchining mahorati”, “adibning asar qahramonlariga munosabati”, “ijodiy metodlar”, “adabiy oqimlar”, “an’ana va novatorlik” kabi bir qator tushunchalarga adabiyot darslarida bot-bot to‘xtalingani holda ular haqida o‘quvchilarga alohida tushuncha berish ko‘zda tutilmaydi.

Ikkinchi turdagi nazariy tushunchalar adabiyot dastur va darsliklarida “Adabiyot nazariyasi” rukni ostida taqdim etilib, ular haqida o‘quvchilarga alohida bilim berish ko‘zda tutiladi. Tayanch maktablarning turli sinflarida quyidagi nazariy tushunchalar o‘rgatilsa, o‘quvchilarning badiiy asarni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalari bir qadar o‘sishi mumkin bo‘ladi.

| 5-sinf | 6-sinf | 7-sinf | 8-sinf | 9-sinf |
|--|--|---|--|---|
| “Xalq og‘zaki ijodi”, “Maqol”, “Topishmoq”, “Hadis”, “Masal”, “Rivoyat va afsona”, “Ertak”, “Adabiy ertak”, “Ertak-doston”, “Hikoya”, “She’r”, “Ruboiy”, “Sayohat-noma”, “Qasida” | “Qissa”, “Sarguzasht asar”, “Hajviya”, “Badiiy asar tili”, “Badiiy asarda kulgi”, “Xalq qo‘shiq-lari”, “Hikmatli so‘z”, “Masal”, “Roman” | “Ballada”, “Lirik doston”, “She’r vaznlari”, “Mubolag‘a”, “Tashbih, tanosib”, “Hasbi hol”, “Radif, chiston”, “Tabiat lirikasi” | “Dostonlarning shakliy tuzilishi”, “Masnaviy”, “Irsoli masal, tajnis, tuyuq”, “Qit‘a”, “Musamman va muashshar”, “Tragediya” | “Xalq dostonlari va ularning turlari”, “Komil inson”, “Memuar asar”, “Tasavvuf va tasavvufiy istilohlar”, “Tashxis”, “Musaddas”, “Badiiy asarda milliy ruh”, “Ijtimoiy va intim lirika”, “Tarixiy roman”, “Ruhiy tahlil”, “Lirik qahramon”, “Tragik obraz” |

Umumiy ta’limning o‘rta maktab bosqichi (10–11-sinflar) uchun tuzilgan amaldagi dasturda ikki sinfda birgina “Doston va uning turlari” nazariy tushunchasini berish ko‘zda tutilgani juda afsuslanarli holdir⁶¹. Bu hol o‘quvchilarni badiiy matndan begonalashtiradi, ular matndagi o‘ziga xoslik, tasvir ingichkaligi, hayot haqiqati va badiiy haqiqat, badiiy mahorat, qahramon, obraz, personaj singari tushunchalardan bexabarligi sabab asar jozibasini yuzaga chiqargan omillarni tushunolmaydilar. Binobarin, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishida kemtiklik sodir bo‘ladi.

⁶¹ O‘quv dasturi. Adabiyot (10-sinf). – T.: RTM, 2017. 45-bet.

Adabiyot nazariyasidan berilayotgan ma'lumotlar o'quvchilarga yaqin va ta'sirli bo'lishini ta'minlash uchun ularga nazariy tushunchalardan badiiy matnni teranroq hamda to'laroq anglash qobiliyatida foydalana bilish o'rgatilishi lozim. Shunda nazariy tushunchalar o'quvchilarga san'at dunyosidagi hodisalarni to'g'ri tushunish va izohlashning ilmiy imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

O'quvchilarga majburiy ta'lim bosqichlari davomida beriladigan barcha adabiy-nazariy tushunchalar bir yerga to'planganda, san'atning mohiyatini mantiqiy izohlashga imkon beradigan umumiy ilmiy konsepsiyani yuzaga keltirishi lozim. Bu konsepsiya o'quvchilarda o'ziga xos badiiy did, estetik tafakkur, adabiy ta'lim shakllantirishdan tashqari, ularga badiiy yaratq sirlarini teranroq anglash kaliti bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'rgatiladigan nazariy tushunchalar asta-sekinlik bilan yig'ila borib, o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ega muayyan ilmiy tizim holiga kelishi hamda bu tizim uzluksiz adabiy ta'lim bosqichlariga muvofiq bo'lishiga erishish muhimdir.

Ma'lum darajada nazariy bilimga ega bo'lmagan o'quvchi adabiyotning olmos qirralarini to'liq his etolmaydi va badiiy asarning joziba qudratini tuya bilmaydi. Binobarin, uning estetik talqini adabiyoti bobida kemtiklik ro'y beradi. O'quvchi oddiy so'zning badiiy so'zdan, hayotda yashayotgan odamning adabiy obrazdan, ilmiy tadqiqotning badiiy tasvirdan farqini ajrata olsagina adabiyotdan ta'sirlana va unga to'g'ri baho bera oladi.

Maktab adabiy ta'limida adabiy-nazariy bilimlar, odatda, bitta asar matni bilan tanishib bo'linib, uning tahlili amalga oshirilguncha, beriladi. Lekin shunday holatlar ham bo'ladiki, o'quvchilarga nazariy tushuncha bermay turib o'rganilishi ko'zda tutilgan adabiy asarni idrok etish ham, tahlil qilish ham mumkin bo'lmaydi. Chunonchi, *topishmoq, maqol, tuyuq, drama* kabi janrlar haqida nazariy tushunchaga ega bo'lmagan o'quvchi bu janrdagi asarlarni to'g'ri o'qiy olmaydi, binobarin, keragiday idrok etolmaydi, tushunolmaydi. Tushunmagani uchun undan zavqlanmaydi. Binobarin, bunday bitiklarni tahlil qilishni ham uddalay olmaydi. Demak, ayrim hollarda, adabiy asarlar matni bilan tanishishdan oldin nazariy tushunchalar berilishi maqsadga muvofiq

bo'ladi. Bu to'g'rida mashhur metodist olim S. Dolimov birgina janr misolida: "*Navoiy tuyuqlariga bag'ishlangan dars tuyuq haqidagi nazariy ma'lumot bilan boshlanadi*"⁶², – deya g'oyat haqqoniy fikr bildiradi.

O'quvchilarga adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olinishi shart. Aks holda, berilgan bilim kutilgan samarani keltirmaydi. Binobarin, boshlang'ich sinflarda adabiyot nazariyasiga doir dastlabki ibtidoiy tushunchalar singdirilib, she'riy nutqning nasriy nutqdan, uning oddiy so'zlashuv tilidagi qora so'zdan farqi anglatilsa, kifoya qiladi.

Sinflar yuqorilashgani sayin o'quvchilarning adabiyot nazariyasiga oid fikrlari ham chuqurlashib va kengayib boradi. Chunki ular tanishishlari, o'rganishlari kerak bo'ladigan badiiy asarlar miqdori ham ortib, har xillashib va murakkablashib boradi. Tayanch maktab bosqichida o'quvchilarga badiiy asarning tur va janr xususiyatlari, ularda qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalari, ijodkorning niyati, bu niyatning namoyon bo'lish yo'llari xususidagi tushunchalar asta-sekinlik bilan tizimli ravishda singdirib boriladi.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar badiiy asarlarga yolg'iz estetik hodisagina emas, balki muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli va ifodasi sifatida ham qaray boshlashadi. O'spirinlar u yoki bu asarning yozilishi, unda tasvir etilgan voqea va qahramonlarning ayni tarzdagi tutumlari nafaqat o'z tabiatlari, balki millat va jamiyat hayotidagi muayyan davrga xos xususiyatlar bilan ham izohlanishi mumkinligini anglab yetadilar. Bu yoshdagi o'quvchilar ma'lum bir yozuvchining voqelikni nega aynan shunday tasvirlagani sababini uning hayot yo'sini va dunyoqarashidagi o'ziga xoslikdan qidirish kerakligini bilishadi. O'quvchilarning shu xildagi bilimlarga ega bo'lishi ularga badiiy asarning emotsional ta'sir kuchi, badiiy va ijtimoiy ahamiyatini to'laroq sezish imkonini beradi.

O'rta maxsus ta'lim bosqichi bo'lmish akademik litseylarda o'quvchilarga adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatish miqyori

⁶² Dolimov S. "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi uchun metodik qo'llanma. T.: "O'qituvchi", 1980. 55-bet.

bir qadar kengayadi. Maktab bilan litsey o'quvchilarida nazariy tushunchalarni shakllantirish bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Chunki litsey o'quvchilarining deyarli hammasi oliy maktablarga kirishga da'vogar bo'lganliklari uchun ularga beriladigan adabiy-nazariy tushunchalar maktab o'quvchilarinikiga nisbatan bir qadar murakkab va chuqurroq bo'lishi lozim. Shuningdek, adabiyot o'quv fani o'qitilishiga akademitseylarda o'rta maktabning yuqori sinflaridagiga qaraganda bir muncha ko'p soat ajratilgan. Bu hol o'rta maktab va litsey bosqichlarida nazariy tushunchalar shakllantirish darajalarining turlicha bo'lishiga tabiiy ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Nazariy ma'lumotlarni o'rgatish juda zarur, lekin ularni o'quvchilarga anglatish badiiy matndan ajratilmagan holda amalga oshirilishi kerak. Odatda, ko'pchilik o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni o'rganishga qunt qilishmaydi. Chunki ular bu tushunchalarni o'zlashtirishning nima uchun kerakligini to'la anglab yetmaydilar. Ayni vaqtda, adabiy-nazariy bilimlarni tuppa-tuzuk o'zlashtirgani holda, ularni badiiy asar tahliliga tatbiq eta olmaydigan o'quvchilar ham talaygina. Chunki ularda nazariy qarashlar tabiiy yo'nalishda shakllantirilmagan bo'ladi. Holbuki, nazariy tushunchalarni o'rganishdan maqsad bu to'g'rida bilimga ega bo'lishdangina emas, balki asarning o'quv tahlilini chuqurlashtirish, o'rganilayotgan adabiy yaratiqni teranroq idrok etishga erishishdan iboratdir.

Shuning uchun ham o'quvchilarning adabiy-nazariy bilimlari badiiy asar matnidan ajratilmagan holda shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aslida, boshlang'ich sinfdan o'rta maktabga kelgan o'quvchilarda ham muayyan nazariy bilimlar mavjud bo'ladi. Adabiyot alohida o'quv fani sifatida o'tila boshlanishi bilanoq o'qituvchi o'smirlarda mavjud ana shu bilimlar ustiga yangi nazariy tushunchalarni qo'shishga erishmog'i zarur. Chunonchi, har bir bola boshlang'ich sinflarga kelmasdan oldinoq ertaklar bilan ma'lum darajada tanish bo'ladi. Yaxshilab o'ylab ko'rsa, ularni zo'riqtirsa, ertakka xos belgilarni topa biladi ham. Gap o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlarni faollashtirish, ularni hozirgi xos belgilardan qonuniyat topa bilishga odatlantirishdadir.

Beshinchi sinfdan e'tiboran esa ertakka xos xususiyatlar nazariy jihatdan ko'rsatib beriladi. Shuningdek, o'quvchilar adabiy ertaklarning xalq ertaklaridan farqini ham bilib borishadi. Shunday qilinganda, xalq yaratgan asarlar bilan H.Olimjon, A.Obidjon, H.Andersen, J.Rodari yozgan ertaklar orasida farq borligi o'quvchilar tomonidan anglab yetiladi. Bu hol bolalarda xalq og'zaki ijodi to'g'risida tizimli bilimlar shakllanishiga asos bo'ladi. Bu esa beshinchi sinfdan tanishiladigan maqol, topishmoq kabi janrlardagi asarlarni qabul qilish va keyingi sinflarda o'rganiladigan qo'shiq, doston janridagi asarlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Maktab va akademitseylarda o'quvchilarga adabiy-nazariy bilimlarni berish o'rgatiladigan ilmiy tushunchalarning xarakteriga qarab, a) **chiziqli** va b) **konsentr** (uyushgan, markazlashgan) tarzda amalga oshiriladi.

Nazariy tushunchalar chiziqli yo'sinda singdirilganda o'rta umumiy ta'limning biror bosqichida o'rgatilgan nazariy ma'lumotlar boshqa bosqichlarida qaytarilmaydi. Chunonchi, ertak, maqol, topishmoq, qo'shiq, adabiy ertak haqidagi nazariy tushunchalar shular jumlasiga kiradi. Nazariy bilimlarni konsentr tarzida o'rgatishda esa, muayyan ilmiy tushunchalar turli sinflardagi o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qayta-qayta o'rgatiladi. Bu siraga adabiy turlar, tuyuq, g'azal, qit'a, ruboiy, badiiy obraz, obrazlilik, badiiy uslub, komil inson, tasavvuf adabiyoti, roman kabi adabiy-nazariy tushunchalar kiradi.

Metodik adabiyotlarda biror adabiy-nazariy tushunchani yoritish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanishi qayd etiladi:

1. Muayyan adabiy-nazariy hodisaga doir dalillarni to'plash va uni izohlash.

2. Nazariy tushunchaning belgilari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish.

3. Tushunchaga xos belgilar tizimini aniqlash.

4. Nazariy tushunchaga xos belgilar orasidan yetakchilarni ajratib ko'rsatish va ta'riflash.

5. Tushunchani muayyan asar tahliliga tatbiq qilish.

6. Tushuncha haqidagi tasavvurlarni boyitish, boshqa asarlardan ham unga xos belgilarni topa bilish⁶³.

Tayanch maktabning 5-sinfidan boshlab o'quvchilarga adabiy-nazariy tushunchalar tizimli ravishda singdirib borilishi kerak. O'qitish amaliyoti bolalarga badiiy asarning kompozitsiyasi, ya'ni tuzilishiga doir ilmiy bilimlar berishdan boshlash maqsadga muvofiqligini ko'rsatib turibdi. Har qanday bitikning tarkibiy qismlariga xos jihatlarni bilish bu qismlarning estetik butunlikning yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni belgilashda ulkan ahamiyat kasb etadi. O'quvchi badiiy asar qahramonlarini yonma-yon qo'yib, ularning tabiatini o'zaro solishtiradi, ular bilan sodir bo'layotgan voqealar rivojini kuzatadi, buning natijasida yozuvchi tasvirlagan hayotni va unga adibning munosabatini chuqurroq anglaydi.

O'zbek adabiyotidan ilmiy mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz erishgan yutuqlar va ularning sababini ilmiy jihatdan ko'rib chiqish kerak. Ammo bu ilmiy to'xtamlar o'z-o'zidan millat shahsi badiiy didini yuksaltirmaydi. Bu borada metodist olimlar va amaliyotchi o'qituvchilarning qiladigan ishlari ko'p. Chunki o'quvchining badiiy asarni tushunish va tahlil qilish saviyasi metodistlarning yo'l ko'rsatishi hamda o'qituvchilarning ko'rsatmalarga amal qila bilishiga bog'liq. O'quvchi qanchalik ko'p nazariy bilimga ega bo'lsa, muayyan asardagi muayyan obraz yoki voqea tasviridan boshqa yuqoriroq darajadagi tushunchalar bilan ish ko'rib, badiiy asardan yangi-yangi ma'nolar topa biladi. Bola adabiy-nazariy tushunchalardan badiiy matnni tushunish va uning badiiyligi hamda ta'sirchanligini ta'minlagan usullarni bilish yo'lidagi ochqich tarzida foydalanishi kerak. Bunda hayotiy, mantiqiy bilish obrazli va hissiy tafakkur bilan uyg'unlashuvi lozim.

Har qanday janrdagi, har qanday asarni o'rganishda ham badiiy obrazdan tushuncha sari borilishi kuzatiladi. Bu qoidaga, muvofiq, lirik asarlar tahlilida qattiq amal qilish kerak. Negaki lirik asarlarda voqea tasviri yo'q darajada ekani sabab o'quvchi-

⁶³ Богданова О., Леонов С., Чертов В. Методика преподавания литературы. М: Академия, 2004. – С. 267.

lar uni qanday tahlil qilish kerakligini bilishmaydi. Mashhur ruqoniy metodisti Z. Y. Rez lirik asarlar tahlilida muntazamlilik bo'lishi zarurligini "Maktabda lirikani o'rganishning o'ziga xosligi" muqolasi qolida shunday qayd etadi: *"She'riyatni bilish kechimi yolg'iz bir she'r va uning tahlilidan umumlashma fikrga; undan shoir shaxsiga; shu she'rdagi shoirdan uning butun ijodiga, poetik olamiga; muayyan shoir ijodidan, umuman, she'riyatni, uning o'ziga xosligi va hayotdagi o'rnini anglash sari harakat tarzida tashkil etilishi kerak"*⁶⁴. E'tibor qilingan bo'lsa, olimaning fikrida yolg'iz asar haqidagi fikrdan umumlashma qarashga, undan shoir shaxsiga, keyin bir san'atkorning butun ijodiga baho berish, so'ngra, umuman, she'riyatning mohiyatini anglash sari borish kerakligi ta'kidlangan. Asarni bilishning har yangi bosqichiga o'tilganda oldin egallangan bilimlarni esga tushirish va shu as-noda umumiy tushunchalardan konkret bir asar va undagi tas-virlar mohiyatini anglash sari intilish lozim. Shunda badiiy asar to'qimasiga chuqurroq kirib, uning mohiyatini tushunib etish mumkin bo'ladi. Shu tariqa har bir nazariy tushuncha obrazli ta-fakkur bilan uyg'unlashmog'i, obrazli tasvirni anglash vositasi bo'lmog'i kerak.

Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish badiiy matn tahli-li bilan uyg'un holda amalga oshirilmog'i zarur. Negaki badiiy matn tahlili amaliyotida qo'llanilmagan nazariy bilim foydasi ma'lumotdir, xolos. Shuning uchun ham badiiy asar tahlili bilan adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish kechimiga o'zaro chambarchas bog'langan ikki jarayon sifatida qaraladi⁶⁵.

Adabiy asar va uning xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish bolada shaxslik sifatleri hamda ezgu ma'naviy fazilatlar shakllanishida katta o'rin tutadi. E. G'oziev, B. Qodirov, N. G. Dayti singari ruhshunoslar o'quvchilarning adabiy-nazariy bilimlarini o'zlashtirishi va qo'llay olishi ularda ilmiy mantiqiy fikrlash paydo bo'lishiga imkon yaratishini ta'kidlaydilar. Badiiy asarni

⁶⁴ Резь З. Я. Об особенностях изучения лирики в школе // Современные проблемы методики преподавания литературы. – Куйбышев: 1974. – С. 117.

⁶⁵ Могольская Д.К. Изучение композиции литературного произведения // Вопросы изучения мастерства писателей в школе. – М.: 1997. – С. 64-65.

tushunish uchun o'quvchi asardan nazariy tushunchaga, nazariy tushunchadan badiiy asarga qayta-qayta murojaat qiladi. Negaki shunday qilgandagina u badiiy yaratiq mohiyatini anglashi, asarning estetik jozibasi, obrazlar tizimi, qo'llanilgan tasvir vositalari va adabiy mohiyat haqida tushunchaga ega bo'ladi. Ayni shu jihat, ya'ni o'quvchining badiiy matn va undagi tasvirlarga shaxslik munosabati shakllanganda adabiy ta'limdan ko'zda tutilgan maqsad yuzaga chiqadi. Bunga esa adabiy-nazariy tushunchalarni eplamay turib erishish mumkin emas.

O'quvchilar 5-sinfga o'tganlaridayoq tasvir, jonlantirish, o'xshatish singari nazariy tushunchalarga duch kelishadi. Chunki ular o'qigan xalq ertagi, adabiy ertaklar, doston, hikoya va dostonlar haqida gapirilgandayoq bular haqda muayyan tushuncha berilgan. O'quvchilar "Susambil" ertagidagi ho'kiz, eshak, arilar, bo'ri singari jonliqlarning odam singari so'zlashganlari shartli ekanini, ba'zan asarlarda jonsiz narsalar ham til va hatto o'ziga xos minazga ega qilib tasvirlanishi badiiy adabiyotga xos bir zarur usul ekanini biladilar. Sinflar yuqorilashgani sari o'rganilayotgan asarlarda bu xil xususiyatlar ko'payib va murakkablashib boraveradi. Agar o'quvchilarga nazariy tushuncha berilmasa, badiiy yaratiqqa qanday munosabatda bo'lish, uni qay yo'sin qabul qilish, qanday ta'sirlanish va izohlash kerakligini bilmay qoladilar. Bu hol bolaning to'laqonli shaxs bo'lib shakllanmayotganidan kelgidir. O'quvchi nazariy tushunchani shunchaki bilib olmay, uni o'zlashtirishi, biror bir matnga nisbatan uni tatbiq eta olishi uning ham aqliy, ham badiiy-estetik jihatdan to'laqonli o'sayotganini ko'rsatadi.

Janni Rodarining "Hurishni eplolmagan kuchukcha" asarini o'rganish va tahlil qilish asnosida o'quvchilar kuchukchanning xo'roz, sigir singari jonliqlar bilan suhbatining, ularga taqlid qilishga urinishining shartli tasvirlar ekanini bilishadi. Ayni vaqtda har bir personajning o'ziga xos minaz bilan tasvirlanganiga, kuchukchani xo'roz, xo'rozni sigir, uni esa kuchukcha bilan almashtirib bo'lmasligiga e'tibor qiladilar. Shu asnodan bolalar ertak matnidan kelib chiqadigan ma'noni ilg'ab oladilar. Shuningdek, o'quvchining tasvir mahoratiga, har bir personajning o'ziga xos

yo'sinda chizilganidan hayratga tushadilar. Nazariy bilimlari ertak zamiridagi ma'noni anglamasliklari mumkin edi.

“Adabiyot” alohida o'quv faniga aylangan 5-sinfdan e'tiboran 9-sinfga qadar o'quvchilar muayyan badiiy asardan kelib chiqadigan mazmun bilan birga shu mazmunning qanday vositalar orqali tasvirlangani ham muhimligini asta-sekinlik bilan anglay boshlaydilar. Bolalar badiiy asar uchun unda aks etgan voqealarning qiziqligidan ko'ra esda qoladigan va kishini zavqlantiradigan yo'sinda ifodalangani muhimroq ekaniga e'tibor qiladilar. Demak, endi bolalar badiiy asar poetikasi masalalariga duch keladilar. Ayonki, poetika shu sohada yetarlicha bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

O'rta maktabning yuqori sinflarida adabiyot o'qitish adabiy-tarixiy va adabiy-nazariy singari o'zaro chambarchas bog'liq ikki xil yondashuv asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu sinflarda ham adabiyot o'quv predmeti filolog tayyorlash uchun emas, balki hayot hodisalariga ochiq ko'z va sog'lom aql bilan baho bera oladigan barkamol shaxsni shakllantirish uchun o'qitiladi. O'rta maktabning bitiruvchisi shaxs va u yashagan davr, shaxs va jamiyat, jamiyat va insoniy qismatlar o'rtasidagi aloqalarning qonuniyatlaridan xabardor bo'lishi kerak. Buning uchun o'spirinlarga Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Amiriy, Ogahiy, Furqat, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa ijodkorlarning inson taqdiri butun murakkabligi bilan aks ettirilgan asarlari tizimlari yo'sinda o'rgatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. G'oyat yuksal iste'dod egalari tomonidan yaratilgan badiiy asarlarni anglash undagi go'zalliklardan ta'sirlanish hamda o'zida muayyan shaxslik sifatlarini shakllantirish uchun bu yoshdagi o'quvchilar bir qator adabiy-nazariy tushunchalar bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Nazariy tushunchalarga ega bo'lmagan odam qaysi yoshda bo'lishiga qaramay, badiiy yaratiqqa o'ta primitiv yondashish kasalligidan qutula olmaydi. Binobarin, to'la ma'noda shaxs bo'lib shakllanmaydi. Bu bosqichda obraz va uning turlari, adabiy turlar va janrlar, adabiyotning ijtimoiy ahamiyati, zamon va ijodiy metod, adabiyotda ramziylik, shartlilik, shaxslantirish, komik inson singari murakkab nazariy tushunchalar o'quvchilarga bo

qadar singdirilishi kerak. Bu tushunchalar shunchaki o'zlashtirilmaligi, balki o'quvchilar ulardan muayyan badiiy yaratiqni tahlil qilish vositasi sifatida foydalanishga o'rgatilishi lozim bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotshunoslik ilmida badiiy asarga qanday yondashish va qanday tekshirish kerakligi bo'yicha bir qator ilmiy-nazariy ishlar mavjud⁶⁶. Maktabda amalga oshiriladigan o'quv tahlili, bir qadar cheklangan holatda bo'lsa ham, ana shu tadqiqotlardagi yetakchi fikrlarga tayangan holda ish ko'radi. Ya'ni maktabning yuqori sinflarida o'rganilayotgan badiiy bitikning tarixiy, ijtimoiy, falsafiy, estetik, uslubiy jihatlariga e'tibor qaratilishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilardan adabiy-nazariy bilim talab qilinadiki, bu qamrovdagi bilimlarni shakllantirib borish adabiyot o'qituvchilarining birlamchi vazifalaridan sanaladi. Alohida ta'kidlash kerakki, maktabda badiiy asarlarning o'quv tahlili istisnosiz yaqqol tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lishi shart. Negaki bu maskanda adabiyot o'quvchilarni badiiy tarixdan xabardor qilish uchungina emas, balki o'quvchilarda eng mu'naviy-axloqiy sifatlar shakllantirish maqsadida o'qitiladi. Maktab adabiy ta'limida o'quvchilar muayyan asar tahlilidan tortib umumlashma xulosalar chiqarish, bunda adabiy-nazariy tushunchalarni qo'llash yo'lidan borishlari kerak. Bugungi o'quvchini odam ruhiyati aks etgan asarlarni idrok etadigan, uni tuya-digan, tushunadigan va tahlil etadigan shaxs sifatida shakllantirishning boshqa yo'li yo'q.

Adabiy-nazariy tushunchalarni o'quvchilarga o'rgatishda hamisha qo'l keladigan bitta qoida bor: har qanday ilmiy tushuncha faqat badiiy matn misolida va uning fonida singdirilsagina o'qituvchining urinishlari samara beradi. Shunday qilinganda o'quvchi egallagan nazariy bilim uning tafakkuri va tuyg'ulari o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Milliy metodikada adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatish yo'llari tadqiq etilgan bir qator ishlar yaratilgan. Bu jihatdan

⁶⁶ Qur'onov D. va bq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: “Akademnashr”, 2010.;

Salayev F. va bq. Adabiy atamalarning izohli so'zligi. –T.: “Yangi asr adabiyoti”,

2010. Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: “Kamalak”, 2016.;

Qur'onov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. –T.: “Akademnashr”, 2020.

S.Dolimov, A.Zunnunov, N.Hotamov, B.To‘xliiev kabi olimlarning qarashlari muayyan ahamiyatga egadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot nazariyasiga doir tushunchalarni o‘rgatishning zarurligini anglatib.
2. Qaysi janrdagi asarlarni o‘rgatishda oldin nazariy tushunchalar berilishi kerak? Nega?
3. Nima uchun adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rgatishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak?
4. Nazariy ma’lumotlarning badiiy asarni o‘qish, tushunish va tahlil qilishdagi o‘rniga to‘xtalib.
5. Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rgatishda adabiy-nazariy tushunchalarning alohida ahamiyati borligi sababini izohlang.

IJODKOR UMR YO‘LINI O‘RGATISH METODIKASI

Reja:

1. Ijodkor umr yo‘lini o‘rganishning pedagogik zaruriyati.
2. Turli sinflarda yozuvchi hayot yo‘lini o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari.
3. Ijodkor shaxsiyati va uning hayot yo‘li – ma’naviy namuna sifatida.
4. San’atkorning umr yo‘li – uning asarlarini tushunish kaliti.

Tayanich tushunchalar:

Adib umr yo‘li va badiiy asar, umrbayon – tarbiya vositasi, umrbayon – matnni tushunish kaliti, 5–9-sinflarda ijodkor umrbayoni, 10–11-sinflarda adiblar umr yo‘lini o‘rganish, ijodkor umrbayonining asarni o‘rganshdagi o‘rni, umr yo‘lini o‘rganish maqsadlari.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi adabiyot o‘qitish ko‘chimidida yozuvchilar umrbayonini o‘rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning hayot va ijod yo‘lini o‘rgatishda adabiy

ta'lim ikki maqsadni ko'zda tutadi. Birinchidan, adiblar millatning diqqat-e'tiborida turgan, hurmatini qozongan iste'dodli va o'ziga xos kishilar bo'lgani uchun ularning shaxslik sifatлари hamda hayot yo'li bilan tanishish o'quvchilar uchun qiziqarli. Ijodkorlar shaxsiyatida bolalarga namuna bo'ladigan jihatlar ko'p ekanligi tabiiy. Binobarin, yozuvchi shaxsiyatiga xos jihatlar o'quvchilar uchun ma'naviy o'rnatq sifatida ahamiyatli. Negaki barcha ijodkorlar istisnosiz o'ta faol o'qirmanlar bo'lishadi. Yoshlar ma'naviyatining shakllanishida esa kitob beqiyos o'rin tutishi ma'lum. Boshqa tomondan, adiblarning tabiati, insoniy ta'limiyasi, bosib o'tgan hayot yo'li ularning maktabda o'rganiladigan asarlarida o'z nuqsini, albatta, qoldirgan bo'ladi. Ijodkorning umr yo'li o'rganilayotgan asar mohiyati va badiiy o'ziga xosligini teranroq anglashga yordam beradi. Taniqli metodist olimlar: Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalar ijodkorlar umr yo'lini o'rgatish zarurligini: *"Tarjimai hol yozuvchining navbatdagi darsda ...o'rganilajak asarining yaratilish tarixi shu asarning mazmunini tushunishga, o'quvchilarni bunga ruhiy jihatdan tayyorlashga yordam beradi"*, – deya alohida ta'kidlaydilar⁶⁷.

Maktab adabiy ta'limidagi eng muhim didaktik tadbir bo'lish o'quv tahlili o'rganilayotgan badiiy asarlardan hayotiy va badiiy-estetik xulosalar chiqarishni taqozo qiladi. Badiiy matnni to'g'ri tushunish, uning turli jihatları yuzasidan asosli to'xtamga kelish uchun, avval, yozuvchining asarda ko'zda tutgan maqsadini to'g'ri aniqlashda muallifning inson va ijodkor sifatidagi pozitsiyasini anglash muhim o'rin tutadi. Bu esa ijodkorning hayot hodisalari, insonlar va ijtimoiy voqelikka munosabat yo'sini bilan tanish bo'lishni talab etadi. Yozuvchining umr yo'lidan xabardor bo'lgandagina u yoki bu hayotiy hodisaga adibning munosabati va uning muayyan asardagi tasviriga to'g'ri izoh beriladi.

Yozuvchi hayot yo'lini o'rganish uning badiiy olamiga kirish yo'lidir. Adibning hayoti bilan tanishish orqaligina o'quvchilar iste'dodli shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatni, ijodkorning dunyoqarashi va badiiy asarlari o'rtasidagi aloqani bilish-

⁶⁷ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya–Ziyo, 2020. 295-bet.

lari mumkin. Adibning hayoti bilan uning ijodi o'rtasidagi aloqa dastlab biografik metod tarafdorlarining tadqiqotlarida ko'zga tashlangan. Ushbu metod birinchi marta fransuz yozuvchisi va sinchisi Sharl Ogyusten Sent-Byov tomonidan qo'llanib, har qanday badiiy asarda yozuvchi shaxsiyati o'z izini qoldirishi, biror badiiy yaratiqni chuqurroq tushunish uchun uning muallifi bosib o'tgan hayot yo'li, minazi, odatlari, odamlarga munosabati singari jihatlar sinchiklab o'rganilishi kerakligi ko'rsatildi. Sent-Byov (1804-1869) o'zining "Adabiy-tanqidiy portretlar (1832-1836)", "Adabiy portretlar" (1862-1864), "Zamonaviy portretlar" (1869), "Dushanbadagi suhbatlar" (1849-1861), "Yangi dushanbalar" (1861-1866) singari kitoblarida ijodkorning shaxsiyati va tarjimai holi uning ijodiy yo'nalishini belgilaydigan, asarlarining tushunilishini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida qayd etilgan.

Maktabda ijodkorning hayot yo'lini o'rganishdan asosiy maqsad uning bitganlarini teranroq tushunish ehtiyojidir. Shuning uchun ham "Adabiyot" darsliklarida san'atkor umr yo'li haqidagi ma'lumot uning o'rganiladigan asarlaridan oldin beriladi. Umr yo'lni o'rganish asarning tahliliga tayyorlik vazifasini bajaradi. Butun bir millatning ruhiyatini, dard-u quvonchini aks ettirgan, ayni vaqtda davrning nafasini bera olgan ijodkorning hayot yo'lini bilish o'quvchilar uchun kerak va qiziqarli. Yozuvchi umr yo'li ijodkorning umr yo'lidan xabardor bo'lish o'quvchida ezgu insoniy sifatlar shakllanishiga xizmat qiladigan yo'sinda taqdim etilishi kerak. Shunda bolaning mashhur zotga o'xshagisi, undagi fazilatlarni o'zida shakllantirgisi keladi. Taniqli adabiyotshunos Yu.M.Lotman "Biografiya – ijodkorning yuzi" maqolasida: "*Ijodkor shaxsiga o'qirmanlar qiziqishi tagida hamisha go'zal va boy inson shaxsi bilan uchrashish ehtiyoji yotadi*"⁶⁸, – deb yozadi. Talantli va mashhur odamlarning qanday hayot kechirganini bilish ko'pchilik o'quvchilarga juda qiziq.

Maktab adabiy ta'limida ijodkor umr yo'lini o'rgatish borasida eng ko'p tarqalgan kamchilik yozuvchi haqida barcha ma'lumotlarni saralab o'tirmay, beraverishdan iborat. Bunda yozuvchi

⁶⁸ Логман Ю. Биография – живое лицо / Ю.М.Лотман // Нов. мир. 1985. – № 2. – С. 230.

shaxsiyatiga xos qirralar turli ma'lumotlar ko'pigi tagida qolib ketadi. Bunday holatda o'quvchining butun kuchi tarjimai holga doir ma'lumotlarni eslab qolishga sarf bo'ladi. Shuningdek, xronologik sanoqlarni keltirishga ruju qo'yish ham bu boradagi yetishmovchiliklardan biridir. Bu sohadagi yana bir nuqson u yoki bu adib haqida turli-tuman odamlar tomonidan aytilgan maqtovgaplarni qaytarishga zo'r berishda ko'rinadi. Bunda o'qituvchi ana shunday maqtovlarni keltirish bilan andarmon bo'lib, adib shaxsiyatidagi o'quvchilarni qiziqtiradigan jihatlarni bekitib qo'yadi. Darslikdan darslikka o'tib kelayotgan bu xil usul o'quvchilar qiziqishini orttirmagani uchun samara bermay kelyapti. Bunday holda ijodkorning shaxsiyati emas, qilgan ishlari old planga chiqariladi. Yozuvchining shaxsiyatini chetga surib qo'yib, uning faoliyatiga xos ma'lumotlarga zo'r berish ham, faqat shaxsiy hayoti iker-chikirlariga o'ralashib qolish ham, ijodkorning tirik odam ekanini unutilib silliqlash ham samara keltirmaydi. Me'yorni to'la bilish g'oyat muhimdir.

Ijodkorlarning qaysi ijtimoiy tabaqaga mansub yoki qanday e'tiboshidan chiqqaniga ortiqcha urg'u berish ham maqbul yo'l emas. Yana bir xatarli yondashuv biror asardagi avtobiografik o'ringa ortiqcha e'tibor qaratishdan iborat. Bunday o'rinlarda muallif badiiy asar yozayotgani, u o'z hayotidan keltirgan manzaraga ham badiiy bo'yoq berishi aniqligi hisobga olinishi kerak. Shu xildagi yetishmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun tarixiylik, adibning hayot va ijod yo'lini tadrijiy taraqqiyotda ko'rsatish, adib shaxsi va ijodiga munosabatda aniq konsepsiyaga egalik, o'quvchida ma'naviy fazilatlar shakllantirish singari tamoyillarga qat'iy amal qilish lozim bo'ladi.

5-9-sinflardagi har bir monografik mavzudan oldin ijodkor umr yo'liga doir to'rt-besh daqiqa davom etadigan ma'lumot berilishi kerak. Lekin zinhor muallif tarjimai holiga alohida bir soat sarflash mumkin emas. Yuqori sinflarda esa umr yo'liga doir ma'lumotlar butun bir soat davomida o'rganiladi. Shunda ham muallif e'tibor ijodkor hayotidagi o'rganiladigan asar mohiyatini tushirishga xizmat qiladigan jihatga qaratilishi lozim. O'rta sinflarda yozuvchi tarjimai holini o'rganish yuqori sinflardagi singari

chuqur va rang-barang bo'lmaydi. Tayanch maktabda ijodkorning o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir tutumi yoki hayotidagi qiziqarli voqea bayoni yetarli bo'ladi. Ba'zan adib haqidagi hikoyani uning suratlarini ko'rsatish yoxud muallifning hayot, bolalik, o'qish to'g'risidagi qanotli fikrlari yuzasidan qisqa suhbat tarzida uyushtirish ham mumkin.

Yuqori sinflarda yozuvchilar umr yo'liga doir ma'lumot berishning eng yuqori ko'rinishi ularning o'zlari yozgan tarjimai hollari, kundaliklari, memuarlari yoki ular haqida o'zgaralar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar bilan tanishishdan iborat bo'ladi. Bu xil darslarning turini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda o'quvchilarga reproduktiv va tadqiqot yo'nalishidagi turli-tuman saboq shaklini taklif qilish mumkin. Chunonchi, mustaqil ravishda yozuvchining hayotiga doir yangi ma'lumotlar; darslikda yoki boshqa bir manbada berilgan ma'lumotdan eng kerakli o'rinlarini ko'chirib olish; mavjud ma'lumotlarning eng xarakterlilarini ajratib ko'rsatish; yozuvchi hayotida uning ijodini tushunishga kalit bo'ladigan muhim bir voqeani qayd etish; adibning hissiy-psixologik portretini yaratish va bq.

Afsuski, adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilar fikrlash tarzini faollashtirish maqsadida adabiy sinchilik va memuar manbalardan mutlaqo foydalanilmaydi. Ijodkor umr yo'lini o'tishda bunday manbalardan foydalanish yuqori sinf o'quvchilarining adabiyotga doir tushuncha va qarashlarini kengaytirish va ularda ezgu axloqiy sifatlarni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Katta o'quvchilar yozuvchi hayot yo'lini o'rganishda o'zlari mustaqil ravishda ma'ruza tayyorlasalar; axborot bersalar; umrbayonga doir hikoya, adabiy-tanqidiy chiqish yozsalar; matbuot konferensiyasi, adabiy uchrashuvlar o'tkazsalar, g'oyat foydali bo'ladi. Bunda o'quvchilar darslikdagi tayyor materiallardan tashqari qo'shimcha adabiyotlar, turli boshqa manbalardan foydalanadilar. Bu xil yumushlar katta o'quvchilarda qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. "Yozuvchi haqida so'z" tipidagi adabiy sinchilik chiqishlari o'quvchining muayyan ijodkor to'g'risidagi bilimlarini ko'paytiribgina qolmay, uning axloqiy-estetik taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchida muayyan ijodkor haqida uning o'zi, atrofidagi odamlar bildirgan fikrlarni o'zaro qiyoslab, biror ob'ektiv to'xtamga kelish ko'nikmasini shakllantiradi.

Yuqori sinf o'quvchilarini ijodkor yashagan muhitga, yanayam kengroq olinsa, o'sha davrga tavsif berishga odatlantirish juda foydalidir. Bunday holatda ijodkordagi tipologik qirralar bilan birga uning shaxsiyatidagi betakror jihatlar uyg'unlashtirilgan holda o'rganilsa, o'quvchi shaxsi shakllanishida katta o'rin tutadi. Adib umr yo'li bayonida u yashagan davrga xos jihatlarni ko'rsatishga ustuvorlik berilmasligi, turli voqea-hodisalar bayoni yetakchilik qilmasligi, balki borliqdagi voqea-hodisalar ijodkor dunyoqarashi va bitiklarida qanday iz qoldirganiga diqqat qaratilishi lozim. Yuqori sinflarning adabiyot kursi ijodkorlar haqidagi bir-biriga aloqasi yo'q ma'lumotlar yig'indisi bo'lmasligi, balki millatning betakrorlik bilan universallik uyg'unlashib ketgan o'ta murakkab va chigal tarixiy harakatini aks ettirishi lozim.

U yoki bu adabiy davr tavsiflanar ekan, bu davrda yashagan ijodkorlarning umr yo'llariga xos universal jihatlarga o'quvchilar diqqati qaratilishi kerak. Temuriylar davridagi ijodkorlar hayotidagi o'rtoq jihatlar bilan uch xonliklar davridagi adabiy siymolar hayot yo'lidagi universal qirralar anglab yetilsa, adabiy ijodga muayyan tizim tarzida yondashish mumkin bo'ladi. Badiiy asar ijtimoiy hayot, madaniyat va adabiyot tarixi hamda yozuvchi umr yo'lining mahsulidir. Yozuvchi umr yo'liga va davrga murojaat asarni tushunish uchun zarurdir. Maktab adabiy ta'limida, ayniqsa, yuqori sinflarda ijodkor shaxsiyati, uning asarlari va davr o'zaro chambarchas bog'liq bir tugunni tashkil etadi.

Aytish kerakki, uzluksiz adabiy ta'limda yozuvchi biografiyasiga tegishli ma'lumotlar, ma'lum darajada, boshlang'ich sinflardan boshlab beriladi. Ammo boshlang'ich sinf va tayanch maktab o'quvchilarning ijodkor tarjimai holini o'rganish jarayoni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlari bo'lmish 10–11-sinflar hamda akademitsey o'quvchilarining adiblar umr yo'lini o'rganishlaridan jiddiy farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali badiiy asar bilan uning yaratuvchilari orasidagi bog'liqlikni puyqay olmaydilar. Binobarin, kichik o'quvchilarga ijodkorlar-

ning hayot yo'li haqida ma'lumotlar berish sezilarli didaktik samara keltirmaydi. Bu sinf o'quvchilari berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Lekin ularni na adib shaxsiyati va na uning asarlari bilan bog'lay oladilar. Shu sabab kichik o'quvchilarga adiblar hayot yo'li haqida ma'lumot berib vaqt sarflash o'rinsiz bo'ladi.

Uzluksiz adabiyot o'qitishning keyingi bosqichi bo'lmish 5–9-sinf o'quvchilariga ijodkor umrbayonini o'rgatishda ularni ma'rifiy xabardor qilish niyati ijodkorlarni o'quvchilarga ma'naviy namuna tarzida ko'rsatish maqsadi bilan uyg'unlashuvi kerak. Ma'lumki, o'smirlarda taniqli shaxslarga doir ma'naviy-axloqiy sifatlarga maksimal darajada talabchanlik bilan yondashish xosdir. O'smirlar o'z shaxsiyatlaridagi kamchiliklarga yetarlicha e'tibor qilmagani holda o'zgalardagi, ayniqsa, katta yoshdagi va mashhur kishilarga o'ta talabchanlik bilan yondashishga moyil bo'ladilar. Bu sinf o'quvchilari uchun tayyorlanadigan darsliklarda ijodkorning shaxsiyati va hayot yo'liga xos qiziqarli va ibratli ma'lumotlar keltirilsa, yetarli bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun uzog'i bilan besh-olti daqiqa vaqt sarflash kifoya qiladi. Hozir amalda bo'lgani singari alohida bir o'quv soatini adib umr yo'lini o'rgatishga sarflash o'rinsiz.

Adabiyot o'qitishdagi har qanday boshqa tadbir singari, ijodkor tarjimai holini o'rgatishda ham o'quvchilarning yosh xususiyati va ruhiy taraqqiyot darajalari aniq hisobga olinishi kutilgan pedagogik samarani beradi. Umuman, uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ijodkor hayot yo'lini o'rgatishni tashkil etish borasida metodist olimlar hamda amaliyotchi o'qituvchilar bir fikrda emaslar. Yozuvchi tarjimai holini o'rgatishda o'quvchilarning yosh va ruhiy darajalari qanday hisobga olinishi kerakligi, ya'ni masalaning ilmiy-nazariy qo'yilishidan tashqari, uning tashkiliy-amaliy jihatlari qanday bo'lishi lozimligi bo'yicha hamon qarashlar bir xilligiga erishilmagan.

S.Dolimov o'tgan asrning o'rtalaridayoq adabiyot o'qitishdagi har qanday tadbir kabi, adib umrbayonini o'rgatish ham o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlariga muvofiq tarzda uyushtirilgandagina ko'zlangan natijaga olib kelishi mumkinligi

ni o'rinli ko'rsatadi: "*V–VIII sinflarda yozuvchining tarjimai hali ilmiy biografiya tarzida emas, balki hikoyaga yaqin uslubda bayon qilinadi*"⁶⁹, – deb yozadi olim. Uzluksiz adabiy ta'lim bosqichlari amaliyotida hozirga qadar ham ulkan metodistning ushbu qarashlari e'tiborga olinmayotgani achinarli holdir. Mamlakatimizdagi barcha maktablarning deyarli hamma o'qituvchilari hali hamon yozuvchi tarjimai holini barcha sinflarda ilmiy biografiya yo'sinida bayon etib, buning uchun kamida bir o'quv soatini sarf qilishda davom etishmoqda. Holbuki, buning mutlaqo samarasiz ish ekanligi S.Dolimov tomonidan yarim asr oldin aytib qo'yilgan edi.

O'rta maktabning boshlang'ich sinflari u yoqda tursin, 5–9-sinflarda saboq olayotgan o'quvchilar ham hali badiiy asar bilan unda aks ettirilgan ijtimoiy hayotning, ijodkor shaxsiyati va iste'dodi yo'nalishi bilan u o'sib voyaga yetgan muhit hamda u yaratgan asarlarning o'zaro bog'liqlik darajasini yetarlicha tushunmaydilar. Buning ustiga, ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etish yo'sinini ham to'liq anglamaydilar. Shu sababdan ham bu sinflarda yozuvchilar haqida o'quvchilarda eng umumiy tasavvur uyg'otish bilan kifoyalanish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, bu sinflarda o'qituvchi ijodkorning hayot yo'liga doir "Adabiyot" darsliklarida berilgan ma'lumotlarni o'tish uchun alohida vaqt sarflamasligi kerak. Negaki bu sinflar dasturida yozuvchilarning tarjimai holini o'rganish uchun vaqt ajratish ko'zda tutilmagan va aytilganidek, bunday qilish deyarli hech qanday didaktik natija bermaydi ham. Shuningdek, bu ma'lumotlar o'quvchilar uchun tavsiya etilgan bo'lib, o'qituvchi ko'rsatmasi bilan ular ixtiyoriy yo'sinda mustaqil o'zlashtirilishi mumkin.

To'g'ri, bu sinflardagi o'quvchilar ham ijodkorlar shaxsiyatiga doir qiziqarli ma'lumotlarni bilib qo'yishlari zarar qilmaydi. Agar adabiyot muallimi muayyan ijodkorning umr yo'li haqida "Adabiyot" darsligida aytilmagan, lekin uning darsda o'rganilajak asarini tushunish hamda ijodkor shaxsiyatiga xos jihatlarni anglab

⁶⁹ Dolimov S. va bq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1967.

yetish uchun juda ham zarur bo'ladigan yangi ma'lumotga ega bo'lsa, uni bayon etishga bir necha daqiqa vaqt sarflashi mumkin. Yozuvchining darslikda berilgan umrbayoniga doir qolgan ma'lumotlar bilan tanishish yoki tanishmaslik bu sinf o'quvchilarining o'z ixtiyorlariga qo'yib berilishi kerak. Ko'rinadiki, 5-9-sinflarda dars beradigan adabiyot o'qituvchilari darsliklardagi ma'lumotlar o'quvchilar uchun qo'shimcha material sifatida berilgani va ularni izohlash shart emasligini hisobga olishlari kerak. Holbuki maktab amaliyotida barcha sinflarda har bir ijodkor hayot yo'lini o'rgatishga bir soatdan vaqt sarflanadiki, bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Adabiyot o'qituvchisi bu sinflarda ijodkorlarning hayot yo'li haqida darsliklarda berilgan ma'lumotlardan o'quvchilarning mustaqil o'qish darajalari qandayligini aniqlash uchun foydalanish maqsadga muvofiq ekanini ko'zda tutishi kerak. Chunonchi, o'qituvchi biror o'quvchining javobini baholashda qat'iy to'xtanishga kelishni istab, qo'ymoqchi bo'lgan bahoni biroz ko'tarmoqchi bo'lsa, ijodkor tarjimai holi yuzasidan darslikda berilgan ayrim ma'lumotlarni so'rashi mumkin. Agar so'ralgan o'quvchilar bu ma'lumotlarni o'zlari mustaqil o'qib o'zlashtirib olgan bo'lsalar, bu tahsinga sazovor ish va u qo'shimcha ball bilan taqdirlanishi kerak. Lekin ularning yozuvchi tarjimai holini o'qimaganliklar didaktik ayb sanalmagani uchun o'quvchi bahosining pasayishiga sabab bo'lmasligi lozim.

Faqat 9-sinfdan boshlab adiblarning biografiyalariga bir qadar to'xtalish, ularning hayot yo'llari bilan asarlari orasidagi aloqaga o'quvchilar e'tiborini tortish mumkin. Ammo o'quv dasturida bu sinfda ham ijodkor umrbayonini o'rgatishga alohida soat ajratish ko'zda tutilmaydi. Binobarin, yozuvchining hayoti haqida bir soat to'xtalish 9-sinfdan ham mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilarga mavjud ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishda qaysi jihatlariga e'tibor qaratish kerakligi ko'rsatilib, ijodkor shaxsiyati va hayotiga doir darslikda bo'lmagan dalillar keltirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan 6-sinf o'quvchilari yozuvchi Pirimqul Qodirovning o'z o'quvchilik davri haqidagi: "**Maktabdan men a'lochilar qatorida yurardim. Bir yilda ikki sinfni bitirib,**

...diga ko'chirilgan edim. Oltinchi sinfda meni Toshkentga
... qilish yo'llanmasi bilan mukofotlashdi. Lekin ma'lum
... "otasi boy bo'lgan" deb, mukofotni bekor qilishibdi.
... Daminov degan jo'g'rofiya o'qituvchimiz: "Axir, otasi
... kolxozchi-ku!" – deb kuyunib yurgani, lekin uning so'zi
... mengani, meni sayohatdan mahrum qilishgani hech esimdan
... ketmaydi"¹⁰ tarzidagi iqroridan jiddiy ta'sirlanishlari aniq.

10 sinflarda adib haqida gap borganda, uning portreti va
... bilan bezatilgan biror didaktik ashyo va kitoblaridan foy-
... samarali bo'ladi. Bu yoshdagi o'smirlarda induktiv va
... bilish kuchli bo'lib, abstrakt tafakkur, umumiydan xusu-
... kelish, ya'ni deduksiya hali yetarlicha rivojlanmagan bo'la-
... bu bois bevosita ko'rib idrok etilgan, sezgi muchalari orqali
... etilgan tushunchalar mustahkam o'zlashtiriladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari bosh-
... rivojlangan bo'ladi. Chunki o'smirlik yoshidan o'spirin-
... o'tgan o'quvchilar inson shaxsining jamiyat tomonidan
... shakllanishi, bir jamiyatda yashab turib, undan tashqarida turish-
... imkonsizligi haqida muayyan qarashlarga ega bo'ladi. Yo-
... shaxsiyati va ma'naviyatidagi muayyan qirralar bu sinf
... quvchilarning tafakkur va axloqiga o'smirlarga qaraganda,
... ta'sir etadi. O'spirinlar ijodkor shaxsiyati shakllanishiga
... biologik va tarbiyaviy-sotsiologik omillar ham katta ta'sir
... natijasi mumkinligini yaxshi anglaydilar.

O'ninchi-o'n birinchi sinflardagi adabiyot mashg'ulotlarida
... o'qituvchi hozirgi darslikdagi kabi adibning hayotidagi tug'ilgani,
... maktab va oliy maktabda o'qigani, ishlagan lavozimlari hamda
... chiqargan kitoblari ro'yxatidan iborat ma'lumotlarni quruq qayd
... qilish o'rniga, ijodkorning shaxsiyatiga xos muhim qirralar, tabi-
... atidagi o'ziga xosliklar, hayot yo'lidagi o'zgachaliklar u bitgan
... larda qay tarzda namoyon bo'lganiga ko'proq e'tibor qara-
... lishi kerak. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda shaxs sifatida
... shakllanish kechimi intensiv ravishda borayotgani uchun ham ular
... millat badiiy salohiyatining qaymog'i bo'lmish yozuvchilarning

¹⁰ Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o'zbek adabiyoti. 11-sinf
... darslik. – T.: "O'qituvchi", 1995. 295-bet.

shaxsiyatiga astoydil qiziqadilar. O'qituvchi adib qarashlari va ruhiy holatlarining tadriijiy yo'li, bu holat uning asarlarida qanday aks etganligi kabi masalalarni yuqori sinf o'quvchilariga tushuntirishi zarur.

Bu sinf o'quvchilari bir yozuvchi uslubining boshqasidan farqli ekanligi sabablarini adiblar voyaga yetgan muhitdan, ularning xarakter xususiyatlaridan qidirishni o'rganishlari kerak. Chunki badiiy uslubning ijodkor shaxsiyati natijasi ekanligini anglash, ko'rkam asarni tushunish sari tashlangan ilk to'g'ri qadam bo'ladi. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo'llari hamda shaxsiyatlari borasidagi ma'lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit, u yoki bu personajning tasvir yo'sinini izohlash, yozuvchining o'zgacha emas, aynan shunday yozishi, ya'ni badiiy uslubiga xos jihatlarni aniqlash omili hamdir. Uslub yozuvchi asarlarining sirtida turmaydi, balki ularning to'qimasiga singib ketganidan ko'zga tashlanmaydi. Uni adib ijodining ruhi, har bir asaridan anqib turadigan xushbo'y hid deyish mumkin. Hid ham ko'zga ko'rinmaydi, lekin borligini doim bildirib turadi. Yozuvchining hayotga munosabatidagi, xarakter yaratishdagi, tasviriy vositalaridagi, fikrlash yo'sinidagi, hatto biografiyasi va shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar hammasi birikib, uning uslubini vujudga keltiradi. Biroq uslub mana shunday murakkab hodisa bo'lsa ham, ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarash dayoq ko'zga yarq etib tashlanib turadi. Bu – yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik prinsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko'rinadi. Ana shu jihatlardan qanday paydo bo'lganini o'quvchilar ijodkor umr yo'lini o'rganish asnosida o'zlashtirishlari mumkin.

H.Olimjonning dilbar she'riyati, G'.G'ulomning ko'lamdor tarixiy xulosalarga yo'g'rilgan qasirg'ali falsafiy asarlari, A.Qahhorning tekkan joyini kuydirib yuboradigan hajviy nazari, O.Yoqubov asarlaridagi tasvir shiddati kabi xususiyatlarining asoslarini ularning umr yo'llaridan, ijodkor minazining o'ziga xosligidan keltirib chiqarish o'rganilayotgan asarlarini teranroq tushunishga yordam beradi.

Odatda, o'qituvchilar turli asarlarning qahramonlarini, ularning shaxsiyatidagi bir-biridan farqli xususiyatlarni bir muncha yaxshi tadqiq etadilar. Gulnor Kumush bilan adashtirilmaydi. Ammo o'sha o'ziga xos obrazlarni yaratishga sabab bo'lgan adiblar shaxsiyatidagi betakrorliklar o'quvchilar nazaridan chetda qolishi mumkin. Ya'ni ko'pchilik o'qituvchilar muayyan bir adibning nima uchun aynan shu yo'sinda yozganligi haqida o'ylab ko'rmaydilar. Holbuki, busiz badiiy asar va uning yaratuvchisini birinchi anglash mumkin emas.

Fitrat, Hamza, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir singari murakkab taqdirli, hayotini millati ozodligi yo'liga tikkan ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganish ularning asarlarini tushunish kalitigina emas, balki bolalar ma'naviyatini shakllantirish yo'li hamdir. Ularning shunchaki yashamaganliklari, shunchaki yozmaganliklari, balki adolat, haqiqat, erk yo'lida og'ishmay kurashganliklari kabi jihatlar mangu eskirmaydigan asarlarning bilinishiga ham kuchli omil bo'lgani o'quvchilarni hayratlantiradi. O'quvchilarning shaxsiyatida qatag'on qilingan adiblardagi insoniy sifatlarning shakllanishiga turtki beradi. Ayni vaqtda Farhod otaliq, G'ofir, Jamila, Otabek, Kumush, Ra'no, Anvar singari timsollardagi yuksak insoniy fazilatlarining manbasi nima ekani ham oydinlashib boradi. Shuningdek, A.Qahhor shaxsiyatida mavjud bo'lgan prinsiplilik, murossasizlik, halollik, uning asarlarida qay tarzda aks etganini o'quvchilarning bilishi uning asarlarini tushunish uchun ham, bolalarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllanishi uchun ham juda foydali bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisi yuqori sinfda biror yozuvchining hayot va ijod yo'li haqida ma'lumot berishdan oldin o'quvchilardan oldingi sinflarda ushbu adib haqida nimalar o'rgatilganligini suhbat yordamida aniqlab olgani ma'qul. Bu hol, birinchidan, o'quvchilarning avval egallagan bilimlarini faollashtirsa, ikkinchidan, berilayotgan bilim mustahkam ilmiy poydevor ustiga qurilib, yaxshiroq esda qoladi. O'quvchilar befarqlikni tark etib, o'ylashga majbur bo'lishadi. Ruhiiy muvozanatdan chiqib, o'ylay boshlash jarayoni ularning yangi bilimlarni o'zlashtirishlarini ham tezlashtiradi.

O'qituvchi adib haqida gapirar ekan, uning hayotidagi u yoki bu voqeani, shunchaki sodir bo'lgan fakt sifatida emas, balki bo'lajak san'atkorning ijodiy qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishga hayotiy-estetik turtki yoxud muayyan asardagi biror tasvirga izoh sifatida talqin etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining hayoti o'rganilar ekan, uning o'ziga zamondosh, o'zidan oldin o'tgan va keyin paydo bo'lgan ijodkorlarga munosabati muammosiga ham o'rni bilan to'xtalish joiz. Buning uchun adabiyot o'qituvchisi ijodi uzluksiz ta'lim bosqichlarida o'rganiladigan ijodkorlarga taalluqli barcha yangi ma'lumotlarni yig'ib borishi va o'rganiladigan asariga tatbiq etish mumkin bo'lganlaridan foydalanishga odatlanishi lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, ijodkorlarning tarjimai hollarini o'rgatishda haqqoniylik yo'lidan og'ishmay borilgani holda, ko'chabop gaplarga, adabiy o'shakchilikka berilib ketilmasligi kerak. Haqqoniyligi atroflicha tekshirilmagan biror tadqiqotchining shubhali talqinini o'quvchilarga yetkazishdan ham tiyilgani ma'qul. Bir ijodkorni boshqasiga qarshi qo'yish, kimnidir maqtash uchun boshqasini yerga urish haqiqatni emas, janjalni yuzaga chiqaradi. Negaki o'quvchi uchun ham, adabiyot darsi uchun ham ijodkorning boshidan o'tgan hamma narsani bilishning o'zi emas, balki yozuvchi haqida bilib olinganlar o'rganilayotgan asarning qanday yuzaga kelganligi va uni qanday idrok etish kerakligini anglab yetishga xizmat qilishi muhim hisoblanadi. Maktab o'quvchilari o'zlari bilishi kerak va mumkin bo'lgan narsalardan xabardor etilganlaridagina adabiyot mashg'ulotlari samarali o'tkazilgan bo'ladi. O'quvchilarda sobit va ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirilishiga erishiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ijodkor umr yo'lini o'rganish nima uchun kerakligini asoslang.
2. Kichik o'quvchilarga yozuvchi hayot yo'li qanday o'rgatilishi kerak?
3. Tayanch maktab o'quvchilari ijodkor umr yo'lini qanday va qancha o'rganadilar?
4. Katta o'quvchilar san'atkorning umr yo'li, uning asarlari va davr munosabatiga nima sababli alohida e'tibor qaratishlari kerak, deb o'ylaysiz?

5. Yozuvchi hayot yo'lini o'rgatishda qanday ish turlaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatib bering.

ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIMLARINI BAHOLASH⁷¹

Reja:

1. Baho va uning pedagogik zaruriyati.
2. An'anaviy baholashga xos xususiyatlar.
3. O'quvchilar bilimni baholashning portfolio usuli.
4. Bilimni baholashning test usuli.
5. Yangicha baholashning yutuq va kamchiliklari.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot o'qitishda bahoning o'rni, baho o'quvchilar baholash tirishi darajasini belgilash yo'li sifatida, baho o'quvchi baholash ma'naviyati shakllanishini aniqlash o'lchovi sifatida, an'anaviy baholash usulida baho o'quvchilar bilmagan narsani aniqlashga qaratilishi, an'anaviy baholashda o'quvchi shaxsiga tazyiq o'tkazilishi, baho norozilik omili ekani, baho ta'lim jarayonining yakuni, baho ta'lim kechimining boshi va qo'zg'atuvchisi, baholashning tarixiy bo'linishlari, baholashning raqamli usuli tarixi, baholashning yangicha yo'llari, portfolio usuli, portfolioning turlari.

Ma'lumki, baho faqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilibgina qolmay, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. To'g'ri qo'yilgan baho o'quvchini quvonchdan yettinchi osmonga chiqarsa, ba'zan ko'z yosh to'kishga yoki tengdoshlari oldida qadri yerga urilib, yuragi iztirobga to'lishiga sabab bo'ladi. Adabiyot o'qitish amaliyotida ham boshqa o'quvchilarida bo'lgani kabi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari tekshiriladi va baholanadi. O'quvchilarning adabiyot bo'yicha bilimlari qanday tabiatga ega? Maktab adabiyotiga asos bo'lgan

⁷¹ Ushbu mavzuni yoritishda pfd., dots. Inobat Rajabovanning "Adabiyot o'qitish usullarini interfaol usullarda tashkil etish" qo'llanmasi materiallaridan foydalanildi. –T.: Tamaddun, 2010.

fan adabiyotshunoslik ilmimi yoxud adabiyot deb atalmish soʻz sanʼatimi? Agar adabiyottanuvni maktab adabiyotining asosi deb qaraladigan boʻlsa, unda oʻquvchilarning adabiyotshunoslik borasidagi bilimlari tekshirilishi va baholanishi kerak boʻladi. Masalaga shunday yondashilsa, “maktab adabiyotshunosligi” boʻyicha oʻquvchilarda shakllantirilgan bilimlar yetakchi qadriyat sanaladi. Bunda oʻrta maktabning turli sinflarida adabiyotshunoslikka doir bilimlar turlicha miqdor va har xil murakkablikda taqsimlangani koʻzda tutilishi kerak boʻladi. Negaki 5-sinf oʻquvchisi bilishi kerak boʻlgan adabiy-nazariy tushunchalar 11-sinf oʻquvchisidan hajmi va chuqurligiga koʻra ham jiddiy farq qiladi.

Adabiyot oʻqitishdan maqsad faqat adabiyotga doir bilimlar shakllantirishdan iborat emasligi koʻzda tutilsa, adabiyot boʻyicha oʻquvchilar bilimini baholashga oʻzgacha yondashish kerak boʻladi. Oʻquvchi badiiy asarlar bilan tanishish asnosida ilmiy bilimlardan tashqari, odam va uning ruhiy dunyosi, tuygʻular olami, insonlararo munosabatlar borasida bir qator badiiy-ruhiy tushunchalarni ham egallaydi. Ushbu bilimlarni egallash individual sodir boʻlganidek, ularni baholashga ham gʻoyat individual yondashuv taqozo qilinadi. Negaki adabiyot nazariyasiga doir bilimlar hamma uchun bir xil boʻlsa, maʼnaviyatga tegishli aksiologik bilimlar har bir oʻquvchida oʻziga xos shakllanadi va namoyon boʻladi. Oʻquvchilarning ilmiy va badiiy bilimlarining soni hamda sifati qancha va qanday boʻlishi kerakligi oʻquv dasturi va taʼlim davlat standarti (TDS) tomonidan belgilanadi.

Maktab adabiy taʼlimi oʻquvchilarda adabiy-nazariy bilimlar shakllantirishdan tashqari ularning maʼnaviy-badiiy oʻsishini taʼminlash, bolalarda koʻrkam asarni qabul qilish koʻnikmasini tarkib toptirish, estetik didni tarbiyalash kabi vazifalarni ham bajarishi lozim. Bu hol adabiyot boʻyicha oʻquvchilar bilim va koʻnikmasini baholashni bir qadar murakkablashtiradi. Agar bilimda koʻproq songa – hajmga eʼtibor berilsa, koʻnikmani baholashda uni amalda qoʻllay olishga diqqat qaratiladi. Chunki badiiy asarni qabul etishning emotsionalligi, tasavvurning kengligi, asarning nafaqat mazmun, balki shaklidagi oʻziga xoslikni ham anglash lozimligi kabi jihatlar baholanishi kerak boʻladi.

O'quvchining adabiy ko'nikmalari mantiqiylik, izchillik, o'qish texnikasini egallaganlik, bilimlarni amalda qo'llay olish, adabiy asarlar va janrlarni o'zaro farqlash, epik asar mazmunini qisqartirib va batafsil so'zlay bilish, darslikning didaktik apparatidan foydalana bilish, badiiy asar, tanqidiy maqola, yozma ishga reja tuza olish kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Adabiyot mashg'ulotlarida shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalarining eng muhimi, o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini qaror toptirishdan iboratdir.

Shu o'rinda baholash o'zi nima degan savol paydo bo'ladi. Ilmiy-metodik adabiyotlardan birida bu tushunchaga "**Baholash – biron bir domenning (bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmuining) ta'lim oluvchilarda... shakllanish darajasini o'lchash jarayoni**"⁷² shaklida ta'rif berilgan. "O'zbek pedagogik ensiklopediyasi so'zligi" qomusiy lug'atida esa: "**Baho (forscha baho – narx, qiymat) – o'quvchi yoki talabning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifat darajalarini belgilashning shartli ifodasi**"⁷³, – deyilgan. Hozirda boshqa predmetlardagi singari adabiyot bo'yicha o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar ham besh balli tizimda baholanmoqda.

Bu yo'sindagi baholashning bir qator yetishmovchiliklari bor. Asosiy kamchilik uning o'quvchilar ko'nglini yaralash xususiyatiga egaligidir. Achinarlisi shundaki, nafaqat "yomon" baho olgan, balki o'zi kutganiday yuqori baho ololmagan o'quvchining ko'ngli ham yaralanadi. Ayniqsa, baho reyting ballari orqali ifodalanganda bu xil yaralanish darajasi yanada ortadi. Baho shundaki qo'yiladigan jonsiz raqam emas, balki o'quvchining o'ziga tahonchini uyg'otadigan yoki yo'qotadigan, yangi yutuqlarga undaydigan yoxud o'qishdan sovutadigan, tengdoshlari oldida obro'sini ko'taradigan yoki uni yerga uradigan va shu bois o'quvchi shaxsining butunligi yoxud siniqligiga sabab bo'ladigan nihoy-didaktik omildir. O'qituvchining bahosi o'quvchilarni yuk-

⁷² Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – T.: Akademiya, 2020. 10-bet.

⁷³ O'zbek pedagogik ensiklopediyasi so'zligi. – T.: "Chashma-Print", 2014.

saklikka chorlashi ham, o'qishdan ko'nglini qoldirib, loqaydlikka tushirishi ham mumkin. O'rinli qo'yilgan baho o'quvchida o'ziga ishonch paydo qilib yangi marralarga undaganidek, noto'g'ri qo'yilgan baho uni sindirib qo'yishi ham haqiqat.

An'anaviy baholash tizimida o'quvchi o'qituvchi qarshisida yolg'iz va himoyasizdir. Bunda o'qish jarayoni, o'quvchi sarflagan mehnat, uning urinish va intilishlari emas, balki oxirgi natija baholanadi. Buning ustiga, o'qituvchining qo'lida ishlab chiqarishdagi kabi aniq o'lchov yo'q. O'qituvchi barcha holatlarda ham subyektiv yo'l tutishga mahkum bo'lganidan, o'zi istamagani va, hatto bilmagani holda qaysidir o'quvchining ruhini jarohtlab qo'yishi mumkin.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Taniqli olim B.Valixo'jayevning "Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya – universitet tarixidan lavhalar" kitobida ko'rsatilishicha, qadim Turkistonda baho raqamlar bilan qo'yilmagan, balki ma'qullash, rag'bat yoki norozilikni bildiruvchi maxsus so'zlar bilan ifodalangan⁷⁴. Chunki u davrlarda o'quvchilarga berilgan rasmiy hujjatlar emas, balki ularning chin bilimlari muhim bo'lgan. O'quvchi bilimini raqam yordamida baholash ilk bor Olmoniyada qo'llangan. Unda uch ballik baho qo'yilib, "1" raqami "yaxshi", "2" raqami "o'rta", "3" raqami "yomon"ni bildirgan. Keyinchalik "o'rta" baho oladigan o'quvchilar juda ko'payib ketganidan so'ng, uning o'zi uch darajaga bo'lingan va shu tariqa besh ballik baho yuzaga kelgan⁷⁵. Rossiyada XIX asrdan boshlab olmonlarning besh balli baholash tizimi ularnikining tamomila teskarisi, ya'ni "5" "yuqori", "4" "yaxshi", "3" "o'rta", "2" "yomon", "1" "juda yomon" tarzida joriy qilingan. Oktabr to'ntarishidan so'ng 1918-yilning 31-mayida baho, umuman, bekor qilingan. Sho'ro tuzumining ilk davrida alohida o'quvchi emas, balki butun maktab yoki sinf jamoasi baholangan. 1944-yildan e'tiboran SSSRda

⁷⁴ Valixo'jayev B. Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya – universitet tarixidan lavhalar. –Samarqand. "Xalq merosi", 2001. 48-bet.; Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: "Universitet", 2006. 17-bet.

⁷⁵ Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург: Питер Пресс, 2008. – С. 102.

besh balli baholash tizimi yana joriy qilingan. Dunyoning turli mamlakatlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga birdan yuzgacha bo'lgan ballar yordamida baho qo'yiladi.

Besh balli baho tizimi, albatta, bir qator afzalliklarga ega. U hisob-kitobga, ko'chirish va bitirish imtihonlarini o'tkazishga, statistikada qo'llashga juda qulay. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchi yoki uning ishi bilan bevosita yuzma-yuz bo'ladi. Demak, uni yaxshiroq bilib olish imkoniga ega bo'ladi. Lekin baholashning bu usulida bir qator nuqsonlar ham bor.

An'anaviy baholashning eng katta kamchiligi uning **aniq** emasligidan iboratdir. O'quvchi egallagan bilimning darajasini aniq o'lchashning iloji yo'qligi uchun ham an'anaviy usulda o'qituvchi uni boshqa o'quvchilarniki bilan solishtirib, kimgadir **nisbatan** baholashga majbur. An'anaviy baholashdagi yana bir kamchilik qo'yilgan baholarning ko'pchiligi noxolis hamda **taxodifiy** xarakterga egaligidir. Chunki o'qituvchi o'quvchining javobini eshitgach, uning bilimini o'ziniki bilan solishtirib, so'ng baho qo'yadi. Barcha o'qituvchilarning bilimi va xolislik darajasi bir xil bo'lmasligi esa ma'lum. Shuning uchun ham bir o'quvchining bitta javobiga har xil o'qituvchi har xil baho qo'yishi mumkin.

Kamchilikni ko'rsatishga qaratilganligi ham hozirgi baholashning nuqsonidir. Oxirgi natijaga qo'yilgani uchun ham baho o'quvchining bilimini o'stirish va xatosini tuzatishga emas, balki uni muayyan darajasini ta'kidlashga xizmat qiladi, xolos. Ko'rib qoladiki, an'anaviy baho yaroqsiz ishni yaxshilashga emas, balki uning yaroqsizligini yana bir marta qayd etishga qaratiladi. O'zidagi baholashning yana bir kamchiligi uning o'quvchilarga **qat'iy osish** vositasi bo'lib qolish xavfi borligidir. Ya'ni baho bir guruhdagi o'quvchilarni "a'lochi", "to'rtdchi", "uchchi", "ikkichchi" kabi tabaqalarga ajratadi va bir qism o'quvchilarga "ikkichchi" degan yorliqning osilishiga sabab bo'lishi mumkin. O'quvchilar bilimini baholash shakliga ko'ra og'zaki va yozma kabi turlarga bo'linadi. Quyidagi jadvalda ana shu baho tizimining yutuq va kamchiliklarini yaqqolroq ko'rish mumkin:

1. O'quvchilar bilimini aniqlash va baholashning og'zaki shakliga xos yutuq va kamchiliklar

| Yutuqlari | Kamchiliklari |
|---|---|
| <ul style="list-style-type: none"> – Tashkil etish oson. – O'quvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilinadi. – Bilimni chuqurroq tekshirish uchun qo'shimcha savol berish mumkin. – O'quvchining quyidagi jihatlarini aniqlay oladi: <ul style="list-style-type: none"> • beradigan javobini rejaga solishini; • olgan bilimlarini tizimga sola bilishini; • muayyan predmet bo'yicha o'z fikrini to'g'ri ifodalashini; • fikrini misol va dalillar yordamida asoslashini; • mustaqil fikrlash ko'nikmasi bor-yo'qligini. | <ul style="list-style-type: none"> – O'quvchining fan bo'yicha umumiy bilimini emas, o'quv dasturidagi mavzulardan birini bilishini aniqlaydi. – Barcha o'quvchilardan so'rash uchun ko'p vaqt sarflanadi. – Qo'yilgan bahoning hamisha subyektiv ekani. – Bahoning juda ham aniq emasligi. – Bahoning nisbiyligi. – Bahoning o'quvchi bilimidagi kamchilikni ko'rsatishga qaratilgani. |

2. O'quvchilar bilimini yozma shaklda aniqlash va baholashdagi yutuq hamda kamchiliklar

| Yutuqlari | Kamchiliklari |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none"> • O'quvchilar ijodiy qobiliyatini o'stiradi. • O'zlashtirganlik darajasini hujjat asosida aniqlaydi. • Bahoning obyektivligi ortadi. • O'quvchida fikrini yozma ifodalash ko'nikmasi shakllanadi. | <ul style="list-style-type: none"> • Tekshirishga o'qituvchining ko'p vaqti ketadi. • O'quvchi bilan bevosita gaplashish imkoniyati yo'q. • O'quvchini jisman va ruhan charchatadi. |

Adabiyot o'qitishda interfaol usullarni qo'llash o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash borasida ham yangicha yondashuvni taqozo etadi. Interfaol ta'lim uchun oxirgi natija emas, balki o'quvchining ta'lim jarayonidagi ishtirokining o'zi muhim ekan

bilimlarni aniqlash va baholashga yangicha yondashishni taqozo etadi. Interfaol usulda uyushtirilgan o'qish jarayonining natijalarini o'lchash uchun har bir o'qituvchi o'z baholash mezonini ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

"Baholash mezonini" o'z oldiga o'quvchining o'zlashtirganlik darajasini bittagina raqam orqali emas, balki to'lig'icha aniqlashni maqsad qilib qo'ygan instruktiv pedagogik hujjatdir. U o'quvchining bilim olish yo'lidagi faoliyatini aniq o'lchashga qaratilgan chinakam baholash vositasidir. "Baholash mezonini" o'quvchilar o'z mehnatlari qanday parametrlar bo'yicha o'lchanishini bilib olishlari va shunga qarab ish tutishlari uchun kattaroq mavzuni o'rganishdan oldin tarqatilsa, yaxshi bo'ladi. Mezon o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy tushuncha va bilimlarni ko'rsatadi. Mezon ishlab chiqilgandan keyin uni turli guruhlardagi bilim darajasi har xil bo'lgan o'quvchilarga osonlik bilan muvofiqlashtirish mumkin. Bu mezonlardan butun o'quvchilarni mobaynida o'zgartirmay foydalansa ham bo'ladi. Mezon asosiy talablar o'zgarishida holda, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi o'zgarishlar aniq hisobga olinadigan yo'sinda tuzilishi lozim.

Dastlabki vaqtlarda "Baholash mezonini"ni ishlab chiqishga o'qituvchi ancha ko'p vaqt sarflaydi. Mezonni tayyorlash yo'lga qo'yib olinganidan keyin u oddiy narsaga aylanadi va o'qituvchining vaqtini ko'p olmaydi. Mezonni tayyorlashda adabiyot o'qituvchisi, birinchidan, shu mavzu yoxud bo'limda o'quvchilar nimani o'zlashtirishlari lozimligini qat'iy aniqlab olishi kerak. Ikkinchidan, egallaniladigan bilimlarni baholashning aniq o'lchamini belgilashi lozim. Buning uchun mavzuni o'rganish natijasida nimalar o'zlashtirilishi kerakligi aniqlanilishi zarur. Uchinchidan, mavzuni o'zlashtirishga kirishishdan oldin o'quvchilar bilan mezonlarni muhokama qilish zarur. To'rtinchidan, o'qituvchi ulot so'ngida kichik guruhlardagi o'quvchilarning javobi "Baholash mezonini"da ko'zda tutilgan ta'lim mazmuniga qanchalik mos kelishini aniqlashi lozim. Shunday qilinsa, baho ta'lim jarayonining oxiriga emas, balki boshiga o'tadi va o'quvchilar uchun kutilmagan tasodifiy hodisa emas, balki erishishga intilgan nishonga aylanadi.

O'qituvchi baholash mezonlarini ishlab chiqishga o'quvchilarni ham jalb etsa, yanada yaxshi bo'ladi. Bu, birinchidan, baholash jarayonini tushunarli va hammaga ko'rinarli qiladi. Ikkinchidan, baholash mezonini o'quvchilarning o'zlari ishlab chiqishi baholash jarayoniga ham ijobiy munosabat uyg'otadi. Uchinchidan, va eng muhimi, o'quvchilarda o'zining har qanday faoliyatini muayyan mezonlar asosida baholashning bir umrlik ko'nikmasi shakllanadi.

Interfaol usullar bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning shu vaqtga qadar ko'rilmagan turlarini topib, tatbiq etishni taqozo qiladi. O'quvchining bilimini uning bu bilimlarni egallash uchun qilgan harakatlarini hisobga olgan holda aniqlash va baholashga qaratilgan samarali shakllardan biri o'quv portfoliosini deb ataladi⁷⁶. Portfolio italyancha "mutaxassis jildi", "hujjatlar solingan jild" ma'nolarini anglatadi. Interfaol ta'limni baholashda esa u o'quvchining imkoniyatlari qandayligini ko'rsatadigan barcha ishlarning to'plamini bildiradi.

O'quv portfoliosining bir qator afzalliklari bor. Avvalo, odatdagi baholashda biror mavzu bo'yicha o'quvchi bilmaydigan narsalarni aniqlash hamda qayd etishga diqqat qilinsa, o'quv portfoliosida shu mavzu yuzasidan o'quvchi bilib olgan va qilgan ishlarni aniqlash hamda baholashga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, portfolioda bahoning nechaligi bilan qandayligi, ya'ni miqdor bilan sifati uyg'unlashadi. Uchinchidan, agar odatdagi bahoda o'qituvchining baho qo'yishi diqqat markazida bo'lsa, portfolioda o'quvchining o'z-o'zini baholashi birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Portfolioni qo'llash bir qator yondosh pedagogik vazifalarni bajarilishiga ham olib keladi:

- tashxis qo'yish vazifasi (muayyan vaqt oralig'ida o'quvchining bilimida qanday o'sish-o'zgarish bo'lganini qayd etadi)

⁷⁶ Сафин Д., Мусина Р. Оценивание знаний учащихся в интерактивной среде. –Т.: 2007. Модуль 5. – С.37; Харченко А. Оценка результатов учебной деятельности – <http://charko.narod.ru/tekst/an5/4.html>; Чошанов М. Процесс непрерывного конструирования и реорганизации. <http://testolog.narod.ru/other13.html>; Школьникова В. Психологические аспекты оценочной деятельности учителя – http://www.gmeit.murmansk.ru/text/information_scienceworkshop/seminars/marks/psychologist.htm.

- maqsadga yoʻnaltirish (oʻquvchi oʻz oldiga aniq maqsadlar qoʻyadi);
- mazmunni toʻla aks ettirish (oʻquvchi tomonidan bajarilgan barcha ishlar mazmunini toʻplaydi);
- rivojlantirish (taʼlimning bosqichdan bosqichga uzluksiz oʻtib borishini belgilaydi);
- omil boʻlish (oʻquvchi, oʻqituvchi va ota-ona hamkorligiga omil boʻladi);
- aniqlash (oʻquvchi shaxsan erishgan natijalarning sifat va miqdorini aniqlaydi);
- baholash – (refleksiv, yaʼni oʻquvchida oʻz-oʻzini tekshirish va baholash) koʻnikmasini shakllantiradi.

Oʻquv portfoliosi bir necha turda boʻladi. Uning interfaol usulda hamkorlikda amalga oshirilgan taʼlimni baholashning anʼanaviy keng qoʻllanadigan birinchi turi **“yutuqlar portfoliosi”** deb ataladi. Bu turdagi portfolio “hujjatlar”, “ishlar”, “taqrizlar” deb uch boʻlim (rukn)dan iborat boʻlishi mumkin. “Hujjatlar” boʻlimidan oʻquvchining taʼlim jarayonida erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi hujjatlar joy oladi. Ular oʻquvchining olimpiada, tanlov, musobaqalarda qatnashganligiga doir turli-tuman yorliq, diplom, sertifikat va guvohnoma kabi hujjatlardan iborat boʻlib, oʻquvchi erishgan natijalarning ham miqdor, ham sifatini koʻrsatishga xizmat qiladi.

Portfolioning **“Ishlar”** boʻlimidan oʻquvchining shaxsan oʻzi tomonidan yaratilib, uning oʻqish jarayonidagi asosiy yoʻnalishi va koʻrsatuvchi, oʻz darajasidagi ijodkorlik hamda ilmiy tadqiqotchilik faolligini namoyish qiluvchi ishlar joy oladi. Ushbu boʻlim oʻquvchi yutuqlarining sifat jihatini bildiradi. Yaʼni materiallarning toʻliqligi, ishonarliligi, maqsadga yoʻnalganligi, xilma-xilligi haqida tasavvur beradi. Bunda oʻquvchining oʻquv va ijodiy faolligi dinamikasi, qiziqish doirasi aks etadi.

“Taqrizlar” boʻlimidan oʻquvchining ota-onasi, oʻqituvchilar, oʻquvchilar, maktab maʼmuriyati tomonidan turli munosabatlar bilan berilgan tavsifnomalar, xatlar, taqrizlar joy olgan boʻlib, ular oʻquvchining turli yoʻnalishdagi faoliyatiga bildirilgan munosabatlardan iborat boʻladi. Shuningdek, bu boʻlimda oʻquvchi

tomonidan o'z faoliyati haqida qilingan yozma tahlil ham bo'ladi. Bu bo'limdan o'quvchi o'z-o'ziga baho berish mexanizmini qanchalik egallagani anglashilib turadi.

Bu xil portfolio adabiyot o'qituvchisi tomonidan tashkil etilishi va muayyan joyda saqlanib, muntazam ravishda to'ldirib borilishi mumkin. Bu jarayonga o'quvchini ham faol aralashtirish yaxshi natija beradi. Uning ichidagi materiallar o'quvchi tomonidan muntazam boyitib boriladi va unga qo'yilgan baho xolis bo'lishi ta'minlanadi. Portfolioning mazmuni adabiyot bo'yicha o'quvchiga yakuniy baho chiqarishga asos bo'ladi.

O'quvchi qancha yaxshi ishlasa, uning portfoliosi shuncha ko'p va xilma-xil ashyolar bilan to'lib boradi, undagi qog'ozlarning miqdori va sifati o'quvchi o'zlashtirishining miqdori va sifati ta'g'iriga nisbatda bo'ladi. Tegishli qog'ozlarni to'plashga befarqlik qiladigan ba'zi o'quvchilarga doir materiallar o'qituvchi tomonidan to'plansa ham bo'laveradi.

Interaktiv metoddagi ta'lim natijalarini baholashda qo'llaniladigan portfolioning ikkinchi turi *refleksiv* (o'z-o'zini baholash) portfoliosidir. Ushbu portfolio o'quvchining shaxs sifatidagi o'sish dinamikasini aniqlash va baholashni ko'zda tutadi. Bu portfolio o'quvchi tomonidan o'quv ishlarining maqsadini to'g'ri belgilash, yaxshi borishini yo'lga qo'yish va ko'zlagan natijalarga erishish borasida amalga oshirilgan ishlarning tahliliga xizmat qiladi. Bu portfolioga o'quvchining insholari, esselari, taqrizlari, maqolalari, u ishlagan rasmlar, kundaliklari jamlanadi. O'quvchilarda reflektiv faoliyatni kuchaytirishda kundaliklar alohida o'rinni tutadi. Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarning o'z-o'zini kuzatish bo'yicha kundalik yuritishiga erishishi juda muhimdir. Bu xil kundaliklarda o'quvchining e'tibori o'zining ichki dunyosiga qaratilishi kerak. Kundalikda o'quvchi o'z kechinmalari, tuyg'ulari, fikrlari, taassurotlarini qayd etadi. Bu hol ularda refleksiv, ya'ni o'z xatti-harakatlarini baholash ko'nikmasining shakllanishiga olib keladi.

Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarning ayrim jiddiy mulohazalari yuzasidan, zaruratga qarab, yo yakkama-yakka, yoxud guruh bo'yicha suhbatlar o'tkazsa, yanada yaxshi bo'ladi. Negaki o'quvchi shu asnoda o'z taassurot va o'ylarini og'zaki ifodalaydi.

ko'nikmalarini ham egallay boradi. Bu ish muntazam ravishda olib borilsa, maktab o'quvchilari psixoanaliz usullarini ham egallab borishadi. Bu ularning ruhiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar o'z tuyg'ulari, kechinmalari, o'ylarini kuzatibgina qolmay, uni boshqarish yo'llarini ham o'rganib olishadi.

O'quv portfoliosining uchinchi bir turi "*ilmiy portfolio*" deb ataladi va muayyan bir o'quv muammosi, uning maqsadi, uni hal etish jarayoni va natijasini aks ettiradi. Portfolioning bu turi o'quvchining faoliyati tahlil qilish – umulashtirish – baholash kabi aqliy operatsiyalar nuqtai nazaridan qo'llaniladi. Qisqaroq muddatda tayyorlaniladigan bu portfoliyoda muayyan o'quv muammosini hal etishga doir hujjatlar to'planadi. Unda o'rganiladigan adabiyotlar ro'yxati, tadqiqot rejasi, muammoni yechishga doir takliflar, dalillar, raqamlar, ko'chirmalar, hikmatli so'zlar, she'rlardan satrlar, muammoning boshqa predmet yoki mavzular bilan aloqador jihatlari, tadqiqot natijalari yuzasidan xulosalar aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda qo'yilgan ilmiy muamмога o'quvchi qanchalik jiddiyat bilan yondashgani hamda uni yechishda nechog'lik kreativlik ko'rsatgani ayon bo'ladi.

To'rtinchi turdagi portfolio "*mavzuli portfolio*" deb ataladi va adabiyot dasturidagi biror umumlashtiruvchi mavzu yuzasidan tashkil etilishi mumkin. Bu turdagi portfolio o'qituvchining topshirig'i bilan biror mavzu yuzasidan yaratiladi. Deylik, o'qituvchi 9-sinf o'quvchilariga "Adabiyot" darsligidagi "Xalq og'zaki ijodlari", "O'zbek mumtoz adabiyoti", "Yangi o'zbek adabiyoti" yoxud "Jahon adabiyoti" bo'limlaridan biri yuzasidan mavzuli portfolio yaratishni topshiradi. Har bir o'quvchi o'z portfoliosini himoya qiladi yoki bitta kichik guruh bitta portfolio yaratib, taqdimchi uni yoqlaydi.

Adabiy ta'limi tajribasida "*aralash yoki universal portfolio*" turini qo'llash qulayroq. Bu portfolio maktab o'quvchisining birinchi yuzasidan yarim yil yoki o'quv yili mobaynida barcha jihatlardan qanchalik faoliyat ko'rsatgani va qay yo'l bilan qanday o'quv natijalariga erishganini aniqlash va baholash imkonini beradi. Shuni aytish kerakki, o'quvchi zarar ko'rmasligi uchun yakuniy hisob chiqarishda agar portfolioning mazmuni o'quvchining kun-

dalik baholaridan oshiq bo'lsa, portfolioning bahosi qo'yiladi. Agar portfolioning bahosi o'quvchining kundalik baholaridan past bo'lsa, kundalik bahoning o'zi qo'yiladi.

Portfolioni tashkil etishda aytilganlardan o'zgacha shakllarni qo'llash yoki ularning ayrim jihatlarini umumlashtirib yuborish, portfoliodagi bo'limlar sonini ko'paytirish yoki ozaytirish, ularga yig'iladigan hujjat va ishlar miqdorini o'zgartirish mumkin. Portfolio o'quvchining muayyan fan yuzasidan qanday izlanishlar qilayotganini, uning tafakkuri va ruhiyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'layotganini aks ettiradi. O'quv portfoliolari: a) ta'lim oluvchi erishgan shaxsiy yutuqlarni hisobga olish, to'plash va baholash yo'li; b) o'quvchilarning ishlari va natijalarining to'plami; v) o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini monitoring qilishning tizimli, maxsus uyushtirilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan shakli; g) o'quvchi erishgan yutuq va orttirgan tajribalar haqidagi xilma-xil ma'lumotlar to'plami; d) har bir o'quvchining o'qish uslubi, fikrlash yo'sini, hissiyot olami haqida o'z-o'zini kuzatish va o'zini anglash vositasidir.

Portfolio o'qish jarayoni qanday o'tgani, o'quvchi nimani qanday o'rgangani, uning fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, yaratish va baholash tarzi haqidagi hisobot-hujjatdir. Portfolioni to'plash unchalar qiyin emas. Faqat oldin qanday turdagi portfolio nima maqsadda tayyorlanishi kerakligi aniqlab olinishi zarur. Har qanday portfolioni yaratish uch bosqichdan iborat bo'ladi: birinchi bosqichda o'quvchining shu yo'nalishdagi barcha ishlari yig'iladi, ikkinchi bosqichda yig'ilgan ishlar orasidan eng yaxshilari, uchinchi bosqichda esa ular orasidan o'quvchining faqat yutuqlarini ko'rsatuvchi ishlar saralanadi. Portfolio yaratish uchun o'quvchilarga "Yarim yil davomidagi barcha ishlaringiz va faoliyatingizga doir hamma hujjatlarni olib keling" yoki "O'tgan oydagi insholaringizni bir jildga to'plang" tarzida topshiriq berish portfolio yaratish sari tashlangan ilk qadam hisoblanadi. Keyinroq, "materiallarni saralang, ular orasidan zarurlarini tanlab oling, endi ularning eng yaxshilari qaysilar ekanini belgilang" kabi topshiriqlar bilan ham portfolio mazmunini chuqurlashtirishga erishish, ham bu jarayonda o'quvchilarning bevosita qatnashishlarini ta'minlash mumkin.

Portfolio yaratishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Har bir o'quvchi nima uchun portfolio yaratishi kerakligini tushunib olishi zarur.

2. Portfolioning turi aniq bo'lishi lozim (portfolio turi o'qituvchining topshirig'iga ko'ra belgilanishi ham, o'quvchi tomonidan tanlanishi ham mumkin).

3. Bo'limlar belgilab olinishi kerak (nima sababdan, qanday bo'limlar bo'lishi o'quvchiga tushuntirilishi, qanday ishlar qayerga qo'yilishi belgilanishi lozim).

4. Portfolioni topshirish muddati aniq ko'rsatilishi zarur (darsda tayyorlanadi, mustaqil ish sifatida qilinadi, uyga vazifa sifatida beriladi).

5. Portfoliodagi bo'limlar soni belgilanib, shulardan qaysilari majburiy ekani aytiladi.

6. Portfoliodagi materiallarni baholash mezonlari ko'rsatiladi.

7. Baholash usuli aytiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktab o'quvchilarining bilimi va iqtidorini portfolio usuli bilan aniqlash an'anaviy baholashni inkor etmaydi, uning o'rnini to'liq bosmaydi. U maktab o'quvchilarining adabiyotga doir ijodiy iqtidor hamda yondashuvini hamda ularning shaxs sifatidagi o'sishi jarayoni qanday kechayotganini to'laroq aniqlash va baholashning qo'shimcha bir usulidir.

Portfolioni baholash mezonini ishlab chiqishda B.Blum taksonomiyasiga asoslanish mumkin. Buning uchun taksonomiyadagi har bir bosqich muayyan miqdordagi ball bilan belgilab qo'yiladi va portfolio mazmuniga har bir bosqich bo'yicha qancha ball qo'yilgani aniqlanadi. Portfolioni qaysi jihatlardan baholash samaraliroq ekanini aniqlash ham juda muhim pedagogik muammodir. Interfaol usullardan foydalanish amaliyotida portfolioning mazmuniga baho berishda bir necha yondashuv mavjud. Quyida shulardan ayrimlari keltiriladi:

- portfolioni tayyorlash jarayoni baholanadi;
- belgilangan mezonlar asosida portfolioning ayrim qismlariga (masalan, majburiy bo'limlar) baholanadi;
- barcha bo'limlar baholanadi, umumiy baho o'rtacha arifmetik qiymatdan chiqariladi;

- portfolioning so‘nggi varianti (holati) baholanadi;
- portfolioning mazmunigina emas, balki uning taqdim etilishi sifati ham baholanadi;
- portfolio baholanmaydi, balki o‘quvchi uning biror qismini yakunlovchi yoki nazorat mashg‘ulotida taqdim etish uchun tanlaydi.

Portfolio mazmunini har qanday yo‘nalishda baholashda ham amal qilinishi lozim bo‘lgan yagona qoida shundan iboratki, o‘quvchining ishlariga nisbatan keskin tanqidiy fikrlar aytish kerak emas. Jildning mazmuni bilan tanishgan va uni tahlil qilgan pedagog uni baholashdan tashqari, o‘quvchiga yo‘qportfolioni davom ettirib, mazmunini yanada chuqurlashtirishni, yoki mavzuni o‘zgartirib, boshqa portfolio tayyorlashni aytishi lozim. Portfolio o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasini turli jihatdan aniqlash, ta‘limni individuallashtirish va differentsiyalash, o‘quvchini yutuqqa intiltirish yo‘lidir.

Portfolio usuli bilan baholash ta‘lim jarayonini biz odatlangan tarzda emas, balki o‘quvchini ishlashga undaydigan, har qanday holatda ham uning sha‘niga tegmaydigan, shaxsiyatini kamsitmaydigan, bahosiz qoldirmaydigan baholash yo‘lidir. Keyingi vaqtda chop etilayotgan metodik adabiyotlardagi nazariy qarashlar⁷⁷ hamda ta‘lim amaliyotiga tayangan holda portfoliolarni to‘rt darajada baholash psixologik va pedagogik jihatdan ko‘proq samara keltirishi mumkin.

Har jihatdan beka mu ko‘st tayyorlangan portfoliolarni “*yuk-sak daraja*” bilan baholash didaktik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Bunday portfolioning mazmuni to‘kis va barcha bo‘limlar to‘la bo‘ladi. Jildning mazmunidan o‘quvchining astoydil ter to‘kkani, mavzuni mustaqil o‘zlashtirish bo‘yicha izlangani, uning intellektida o‘shish borayotgani anglashiladi. O‘quvchining o‘z-o‘zi-

⁷⁷ Уман А.И. Технологический подход к обучению: теоретические основы. – Москва-Орел: 1997.; Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998.; Гин А. Присмы педагогической техники. – Москва: Вита, 2000. – С. 64-67.; Фарберман Б. Мусина Р. Интерактивные методы обучения разработанные в Узбекистане. – Т.: 2003.; Сафин Д., Мусина Р. Оценивание знаний учащихся в интерактивной среде. –Т.: 2007. Модуль 5. – С. 4-62.

ni teran taftish qilish iqtidori ko'zga tashlanadi. Bunday jildning mazmuni chuqur, jihozlanishi original bo'ladi.

Portfoliolarning keyingi darajasida o'quvchining qobiliyati, tirishqoqligi, mehnatkashligi yaqqol ko'rinib turadi. Ammo oldingi daraja bilan solishtirganda ularning jildlarida ayrim unsurlar yetishmasligi ma'lum bo'ladi. Chunonchi, majburiy bo'lmagan bo'limlardan ayrimlari bajarilmagan bo'ladi yoxud mazmuni yetarlicha o'ziga xos bo'lmaydi, yoinki jihozlashda originallik ko'zga tashlanmaydi. Bunday jildlarni "*yuqori daraja*" bilan baholash mumkin.

Ayrim jildlar "*o'rta daraja*" bilan baholanadi. Bunday portfoliolarda asosiy e'tibor majburiy bo'limlargagina qaratilgan bo'ladi. Ularning mazmuni faqat o'quv dasturida ko'zda tutilgan bilim va ko'nikmalarni ifoda etadi. O'quvchining o'z ijtimoiy o'rnini topganligi sezilmaydi, uning o'z-o'zini tekshirish va baholashi yuzakiroq bo'ladi.

Afsuski, ta'lim amaliyotida mazmuniga qarab o'quvchining bilim va ko'nikmalari to'g'risida to'la tasavvur hosil qilib bo'lmaydigan portfoliolar ham uchraydi. Chala bajarilgan topshiriqlar, oxiriga qadar olib borilmagan ijodiy ishlar, yakuni-ga yetkazilmagan chizmalar, pala-partish yozilgan kundalik varaqlari bor bunday jildlarni "*past daraja*" bilan baholash to'g'ri bo'ladi. Bunday bahoga loyiq o'quvchilarga qo'lidan keladigan yo'nalishda boshqa portfolio yig'ish topshiriladi. Portfoliosi "*past daraja*"da baholangan o'quvchi odatdagi "ikkichi" emas. U baho bilan jazolanmaydi, balki unga yuqoriga ko'tarilish imkoni beriladi.

Quyidagi jadvalda portfolio usuli bilan baholashning manfiy va musbat jihatlari aks etadi.

Portfolio yordamida baholashning yutuq va kamchiliklari

| Yutuqlari | Kamchiliklari |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none">O'qish, o'qitish va baholash uyg'unlashadi. | <ul style="list-style-type: none">Portfolio o'qituvchidan ko'p ishlashni, har bir mavzuga alohida tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. |

| | |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none"> • O'quv-biluv faoliyatining tahlili bahoni son va sifat jihatidan bir-lashtiradi. | <ul style="list-style-type: none"> • Tekshirish va baholash ser-mehnat ish bo'lgani uchun ko'p vaqt ketadi. |
| <ul style="list-style-type: none"> • O'quvchilar o'z-o'zi va bir-birov-larini baholash, tahlil va nazorat qilishga odatlanishadi. | <ul style="list-style-type: none"> • Ishning chuqurligi yoki keng-ligi, soni yoki sifatini baholash aniq bo'lmaydi. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Yutuq va o'sishning baholanishi o'quvchi bilan o'qituvchi hamkorli-giga olib keladi. | <ul style="list-style-type: none"> • Portfolioning hajmi qat'iy bel-gilanmagani baholashda qiyin-chilik tug'diradi. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Baholashda o'quvchining kasbiy yo'nalishini aniqlash mumkin bo'ladi. | <ul style="list-style-type: none"> • Portflioni saqlash uchun alo-hida joy talab qilinadi. |
| <ul style="list-style-type: none"> • O'quvchining ijodiy yo'nalish va qobiliyatini turli jihatdan aniqlash imkonini beradi. | |

Keyingi vaqtda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari-da bilimni aniqlash uchun pedagogik testlar ham qo'llanilmoqda. Bilimni aniqlash va baholashning nisbatan yangi bu usuli bahoning xolisligi (obyektivligi), ishonchligi va validligi (o'quv dasturiga mosligi) kabi jihatlar bilan e'tiborga loyiqdir. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini joriy, oraliq va yakuniy tarzda nazorat qilish va baholash uchun sifatli testlar tuzishi shart. Negaki ayni guruhga dars bergan o'qituvchining testlarigina shu guruh o'quvchilarining bilim va tayyorgarlik darajasiga maksimal darajada muvofiq bo'ladi. Keyingi tadqiqotlarda test tushunchasiga *“Test – baholanishi lozim bo'lgan domen va konstrukt haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig'indisi”*⁷⁸ tarzida murakkabroq ta'rif berilgan. Bu fikr tushunarliroq tilga ag'darilsa, *“Shaxsda mavjud bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladigan javobi yashirin topshiriqlar yig'indisi”* deyish mumkin. Adabiyot bo'yicha tuziladigan testlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Testlarning o'quv maqsadlariga muvofiqligi.
- Ularda o'quv materialining muhim jihatlar aks etganligi.

⁷⁸ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –T.: Akadernashr, 2020. 14-bet.

• **Ilmiy jihatdan ishonchliligi.** Testlarga tekshirilib, sinovdan o'tgan aniq ma'lumotlar kiritilishi, bahsli masalalar bo'lmashligi kerak.

• **Topshiriq va savollar qisqa, aniq bo'lishi.** Test topshiriq shartlarini ifodalash uchun o'ndan ortiq so'z qo'llanmasligi zarur.

• **To'g'ri javoblarning tasodifiy joylashuvi.** Bunda qonuniyat va tartib bo'lmashligi kerak.

• **Noto'g'ri javoblarning to'g'riday ko'rinishi kerakligi.**

• **Yopiq testlarda javob variantlarining imkon boricha bir xil uzunlikda bo'lishi.**

• **Ifodaning bir ma'noli, aniq va lo'ndaligi.** Testlarda biror so'zning ikki ma'noda qo'llanilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

• **Muayyan qiyinlik darajasida bo'lishi.** Test topshiriqlari o'quvchidan bilganlarini esga tushirishdan tashqari, ularni o'ylashga, dalillarni solishtirishga yo'naltirishi lozim.

• **Vaqt jihatidan chegaralanganligi.** Maktab ta'lim amaliyotiga yechish uchun har biriga 2 daqiqadan ko'p vaqt ketadigan testlar qo'yilmasligi kerak. Jiddiy ishlagan o'quvchi bir test topshirig'ini bajarish uchun matematikaga 65 soniya, tillarga 32 soniya, tabiiy va ijtimoiy fanlarga 41 soniya, atamalarni eslashga 25 soniya, chizma va sxemalarni tushunishga 90 soniya, geometrik figuralarning nisbatini aniqlashga 120 soniya sarflashi ko'zda tutiladi⁷⁹. Adabiyot bo'yicha to'g'ri javoblar hamisha ko'p variantli bo'lishini hisobga olib, undan bir testni yechishga 66 soniya ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

• **Ifodaning ko'rsatma xarakterida bo'lishi.** Test topshiriq'ida nima qilish kerakligini anglatuvchi "toping", "belgilang", "doiraga oling", "o'chirib tashlang", "tanlang" kabi aniq ko'rsatma bo'lishi kerak.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida pedagogik testlarning quyidagi to'rt shakli turlicha faollikda qo'llanilib keladi.

Yopiq test – savol yoki tasdiq shaklidagi topshiriqning sharti va bittasi to'g'ri, qolganlari noto'g'ri bo'lgan javoblardan iborat. O'quvchilar o'z javoblarini shakllantirmay, berilganlardan birini tanlashi mumkinligi bu testlarning yopiq deyilishiga sababdir.

⁷⁹ Гин А. Приемы педагогической техники. – Москва: Вита, 2000. – С. 83; Сафин Д., Мусина Р. Оценивание знаний учащихся в интерактивной среде. – Т.: 2007. Модуль 5. – С. 51.

Ochiq test – kalit soʻz yoki soʻzlari tushirib qoldirilgan jumladan iborat boʻladi. Oʻquvchi tushirib qoldirilgan soʻzlarni topib, oʻz joyiga qoʻyishi kerak boʻladi. Berilmagan toʻgʻri javobni oʻquvchining oʻzi shakllantirishi kerak boʻlgani bu testning ochiq deyilishiga sababdir.

Moslikka asoslangan – unsurlarining mosligi jihatidan bir-biridan farq qiladigan ikkita koʻplikdan tashkil topadi. Masalan, aruz va barmoq vaznidagi sheʼrlarga yoki roman va qissalarga xos xususiyatlar aralash berilib, ularni mosligiga koʻra joylashtirish talab qilingan testlar moslikka asoslangan testlar sanaladi.

Izchillikka asoslangan – biror bir adabiy jarayon yoki hodisani tashkil etuvchi unsurlarning oʻrni atay almashtirilib berilgan testlar izchillikka asoslangan testlar deyiladi. Oʻquvchilarning vazifasi hodisadagi izchillikni topib, qatʼiy oʻrinlashtirishdan iborat boʻladi. Test usulida baholashda ham bir qator ijobiy va salbiy jihatlar bor.

Oʻquvchilar bilimini pedagogik testlar yordamida aniqlash va baholashning yutuq-kamchiliklari

| Yutuqlari | Kamchiliklari |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> • Oʻquvchining bahosi oʻqituvchiga bogʻliq boʻlmaydi. • Hajmi katta oʻquv materiali yuzasidan butun guruhni birvarakayiga baholash imkonini beradi. • Testda baholashni avtomatlashtirish osonlashadi. • Baholashning xolisligi taʼminlanadi. • Oʻquvchini tez fikrlashga, dailillarni solishtirib, haqiqatga yaqinini topishga oʻrgatadi. | <ul style="list-style-type: none"> • Oʻqituvchi bilan bevosita gaplashmagani uchun oʻquvchilarda fikrni ogʻzaki ifodalash koʻnikmasi shakllanmaydi. • Oʻquvchida fikrini oʻzi istagan yoʻsinda ifodalash imkoni boʻlmaydi. • Dasturdan tashqari egallagan bilimlarini namoyish qilib boʻlmaydi. • Oʻquvchilar bilimini har jihatdan aniqlaydigan test tayyorlash qiyin. |

Anʼanaviy va zamonaviy baholash usullari oʻzaro solishtirilganda, ular oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlar, afzallik hamda

nuqsonlar yaqqol namoyon bo'ladi. Baholash obyektiga munosabat, baholash jarayonining borishi, baholovchi va baholanuvchi munosabatlari o'zaro qiyoslansa, bu ikki usulning mohiyati ochiq ko'rinadi.

An'anaviy va zamonaviy baholash tizimining qiyosiy tahlili

| № | <i>An'anaviy baholash</i> | <i>Zamonaviy baholash</i> |
|---------------------------------|--|--|
| <i>Baholash objekti</i> | | |
| 1 | Oxirgi natija baholanadi. | Natijaga borish jarayoni baholanadi. |
| 2 | Bir fan doirasidagi bir intellekt turi baholanadi. | Intellektning har xil turlari qorishiq baholanadi. |
| 3 | Bilim va ko'nikmalar uzuq-yuluq holida, tor mutaxassislik yo'nalishida baholanadi. | Bilim va ko'nikmalarining kengligi hamda chuqurligi baholanadi. |
| 4 | Baho bir fan va bir mavzuga yo'naltiriladi. | Baho yondosh tizim va fanlarni qamrab oladi. |
| 5 | Ta'lim samaradorligi – oxirgi natijaga erishish. | Mustaqil ishlash va o'z-o'zini o'qitishga yo'naltiriladi. |
| <i>Baholash jarayoni</i> | | |
| 6 | O'quvchilarning bilmaslik va qilolmasliklariga diqqat qilinadi. | Diqqat o'quvchilarning bilish va qila olishlariga qaratiladi. |
| 7 | Baholash muayyan ko'rinish bilan cheklangan (og'zaki, yozma, nazorat va h.k.). | Portfolio, test va b.q. bir necha vositadan foydalanish imkonini beradi. |
| 8 | Baholashda bitta to'g'ri javobi bor topshiriqlar ko'pchilikni tashkil etadi. | Baholashda ko'plab yechimi bo'lgan "ochiq" topshiriqlar ustuvor. |
| 9 | Yozma ishlarda oxirgi variant sifatida faqat "oqlama" qiymatga ega. | Nafaqat "oqlama", balki "qoralama" ham qiymatga ega. |

| <i>Baholovchi bilan baholanuvchilarning o'zaro munosabatlari</i> | | |
|--|--|--|
| 10 | Baho o'qituvchi tomonidan qo'yiladi. | O'quvchilar o'z-o'zini va bir-birini tekshirib, baholaydi. |
| 11 | Bahoning mohiyati – xatoni ko'rsatish. | Baho mohiyati – xatoning oldini olib, ularni yo'qotish. |
| 12 | O'qituvchi qozi martabasida bo'ladi. | O'qituvchi maslahatchi maqomida. |
| 13 | Baholash guruh miqyosida nisbiy ahamiyatga ega bo'ladi. | Har bir o'quvchining o'ziga xos, betakror jihatlari birovga solishtirilmay baholanadi. |
| 14 | O'quvchilar so'raladigan narsalarnigina o'qishga intiladi. | O'quv dasturi va DTSlar chegarasidan chiqib ketish rag'batlantiriladi. |

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktab adabiyot mashg'ulotlarida portfolio yoki test usulini qo'llash an'anaviy baholashning o'rnini bosmaydi ham, unga qarshi qo'yilmaydi ham. Ular o'quvchilarning adabiyot bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini imkon boricha xolis hamda aniqroq baholashda yordamchi vosita vazifasini bajaradi, xolos.

Xulosa qilib aytganda, yangicha yondashuvga tayanadigan ilmiy-pedagogik tamoyillar nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etish, balki uni baholashning ham o'ziga xos yo'sinda amalga oshirishini talab qiladi. Yangicha usulda baholash o'qish jarayonining oxiri, unga qo'yilgan nuqta emas, balki yangi ta'limiy marralarni belgilash, o'quvchilarni bilishning keyingi bosqichlariga yo'llash vositasidir.

Shu narsa yodda tutilishi kerakki, adabiyot bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan baho bolaning muayyan oraliqda olgan baholarining arifmetik yig'indisi va uning oddiy o'rtacha qiymatidan iborat bo'lmasligi, balki o'quvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasi ham hisobga olinishi zarur. Agar o'quvchida chorak so'ngida chorak boshidagidan ko'ra o'zlash-

tirish ko'rsatkichi balandroq bo'lsa, u yiqqan baholar miqdori-ning o'rtacha qiymati qandayligiga qaramay, keyingi holat bahoga aylantirilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Bahoning tarbiyaviy va ta'limiy vazifalari haqida to'xtaling.
2. O'quvchilar bilimini baholashning tarixiga sayr qiling.
3. Bilimlarni baholashning portfolio usuli va uning xususiyatlarini tuzohlang.
4. Portfolioning turlari va ularning belgilari qanday?
5. Test nima va uning qanday turlari bor?
6. O'quvchilar bilimini baholashning an'anaviy, portfolio va test usullarini solishtirib, fikringizni ayting.

UYGA TOPSHIRIQ BERISH, TEKSHIRISH VA BAHOLASH METODIKASI

Reja:

1. Adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishda uy topshiriqlarining o'rni.
2. Uy vazifalariga qo'yiladigan didaktik va metodik talablar.
3. Uy topshiriqlari berishning shakllari.
4. Uy ishlarini tekshirish usullari.
5. Uyga vazifalarni baholash yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Uyga vazifa, uyga vazifaning turlari, uyga vazifaning shakllari, uy ishining vaqt jihatidan miqdori, uyga vazifa va o'quvchi yoshi munosabati, uyga vazifa berish shakllari, uy ishlarini tekshirish yo'llari, uyga vazifani baholash, uy ishlarining kunda baholanishi shartligi, uyda o'qish va asar matni ustida ishlash yuzasidan beriladigan uy ishlari; uy insholari shaklidagi uy ishlari; ijodkorlikka yo'naltiruvchi uy topshiriqlari.

Uyga topshiriq berishni boshlashdan oldin unga qo'yiladigan didaktik talablardan xabardor bo'lish kerak. Har bir topshiriq o'quvchiga tushunarli va uni bironing ko'magisiz mustaqil

ravishda bajarish imkoniyatlari darajasida bo'lishiga erishilishi lozim. Uy ishlarini bajarishga o'quvchi hali sinfda ekanida o'qituvchi tomonidan alohida tayyorlanadi, kerakli manbalar ko'rsatiladi, lozim bo'lgan hollarda yo'nalish beriladi. Sinfda uy vazifasini olgan o'quvchida topshiriqni bajarishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otilishi, topshiriqni mustaqil ravishda bajarish yo'llari haqida tushuncha berilishi lozim.

Bugungi maktab amaliyotida uy topshiriqlari sinfdagi o'quvchilarning ko'pchiligiga moslashtirilgan holda, umumiy tarzda beriladi. Uyga topshiriqlar berishda o'quvchilarga xos bo'lgan xususiy jihatlar, alohida o'quvchilarning ishlash imkoniyatlari deyarli inobatga olinmaydi. Bu o'z-o'zidan uy ishlarining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi tomonidan bir soatga mo'ljallab berilgan uy topshirig'ini sinfdagi o'quvchilarning ayrimlari 30-40 daqiqada, ba'zilar bir soatda, bir qismi esa bir yarim soatda bajaradi. Bugun o'qituvchilar o'quvchilarning individual xususiyatlari: kimning tez ishlashi-yu kimning sekin ishlashi, birovning o'ta shiddatli fikrlashi-yu qay bir o'quvchi tafakkuri jarayonining sustroq ekanini inobatga olishmaydi. Uy vazifasini tekshirish asnosida uning qanday bajarilganiga – ishning puxtaligi, mavzuning anglanganlik darajasiga, topshiriqni bajarishga ketgan vaqtga e'tibor qilinmaydi.

Uyga beriladigan topshiriqlarni ham, sinfda bajariladigan ishlarni ham har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish xususiy metodika ilmi va amaliyotining asosiy talabi bo'lishi lozim. Toki, qobiliyatli o'quvchilarning vaqti iste'dodi o'rtacha bo'lgan o'quvchilar tufayli besamar ketmasin. Shuningdek, qaysidir bir o'quvchi uy topshirig'ini bajarolmay g'ururi toptalib, sha'ni yerga urilmasin. Hammaga bir xil vazifa berib, uning bajarilishini barchadan birday talab qilish qiyofasiz o'quvchilar shakllantirish-gagina xizmat qilishi mumkin.

Uyga topshiriq dars tugashidan oldin berilishi shart. Agar o'qituvchi vaqtida uyga topshiriq berishga ulgurmagan bo'lsa, yaxshisi uyga vazifa bermay qo'yaqolgani ma'qul. O'quvchilarning diqqati bo'linib, shovqin-suron ichida uyga topshiriq be-

rish, uning bajarmasligi uchun qo'yilgan ilk qadamdir. Bu hol uy vazifalarining qoniqarsiz bajarilishiga olib kelishi yoki talab qilingan ish u yoqda qolib, butunlay boshqa narsa bajarilishiga sabab bo'lishi mumkin. Uy topshiriqlari barcha o'quvchilarning diqqati bir joyga jamlanganda berilsagina, bolalar tomonidan eslab qolinadi, uni bajarish yo'llari anglab yetiladi. Berilayotgan uy ishlari o'qituvchi tomonidan aniq shakllantirilib, taxtaga qisqa yo'sinda yozib qo'yilishi kerak. Agar uy topshiriqlari o'quvchi kundaligi yoki adabiyot daftariga uni bajarishning shartlari bilan yozdirilsa, undan kutilgan samaraga erishilishi mumkin bo'ladi.

Uyga beriladigan vazifaning sinfda o'tilgan mavzu doirasida bo'lib, uning barcha o'quvchilar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilganiga erishish asosiy didaktik talabdir. Lekin uy ishlari sinfda o'tilgan mavzuni shunchaki takrorlamasligi kerakligi ham ko'zda tutilishi lozim. Uyga vazifa o'quvchining sinfdagi o'quv faoliyatidan didaktik muammo o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil yechilishi kerakligi bilan farq qiladi. O'qituvchining dars tashkil etish usuli, sinfdagi o'quvchilarning intellektual, ruhiy darajalaridan kelib chiqib, uyga topshiriqlar darsning boshi, o'rtasi yoki oxirida ham berilishi mumkin. Buni hech kim qolipga solmaydi. Faqat o'quvchilarning diqqati chalg'imasligiga erishish ko'zda tutilishi zarur, xolos.

Adabiyot saboqlarida uyga vazifa berilayotganda, o'quvchining diqqati topshiriqqa tortilib, uning fikri vazifaning ijrosiga yo'naltiriladi. So'ng o'quvchi o'ylash, tahlil qilish (analiz), umumlashtirish (sintez), munosabat bildirish (refleksiya), xulosa chiqarish va o'z to'xtamini dalillar bilan asoslashga o'rgatiladi. Bunda: *"Asardagi ushbu tasvirni qanday izohlash mumkin?"*, *"Qahramonning nega shunday yo'l tutgani sababini sharhlang. Qarashlaringizni matnga tayanib asoslang"*, *"Mazkur holatga sizning munosabatingiz qanday? Nima uchun shunday deb hisoblaysiz?"*, *"Ushbu tasvir asarga nima uchun kiritilganini tushuntiring"*, *"Personajning xatti-harakatlariga munosabat bildiring. Asarda tasvirlangan ushbu holatning hayotiy va ruhiy sabablari haqida o'ylab ko'ring"*, *"Falon asarlardagi yetakchi qahramonlar tabiati va ruhiyatidagi o'xshash va farqli jihatlar-*

ni ko'rsating", "*She'ning ushbu misralarida muallifning qanday ma'naviy sifatlari namoyon bo'lgan?*" kabi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi uyga vazifalarni so'rash jarayonida ham o'quvchilarni matn ustida o'ylash va ko'rkam tasvirga o'z shaxsiy munosabatini bildirishga undaydigan qo'shimcha konseptual savol-topshiriqlardan foydalanmasa, o'quvchilarda tashabbuskorlik, onglilik, topqirlik, baholash sifatlari shakllantirilmaydi.

O'quvchi uyga berilgan vazifani bajarishda topshiriq bilan yolg'iz o'zi yuzma-yuz qoladi. Agar o'qituvchi tomonidan topshiriqni bajarish yo'llari ko'rsatilgan bo'lsa, vazifa ham to'g'ri bajariladi. Buning uchun o'quvchi oldin fikr predmetini aniqlashga, so'ng matnni muhim va nomuhim bo'laklarga ajratishga, keyin matndagi kalit so'z va tushunchalarni topishga, undan so'ng asar mohiyatini ifodalash uchun tayanch nuqtalarni belgilab olishga kirishishi kerak bo'ladi. Shu tariqa o'quvchi o'z fikrlarini ifodalashning kichik rejasiga ega bo'ladi. Va mazkur reja o'quvchiga o'z qarashlarini erkin bayon etish imkonini beradi.

Maktabdagi darslarning samarali tashkil etilishi uy topshiriqlari hajmini nisbatan toraytirishi mumkin. Lekin sinfda qanday ishlanganidan qat'i nazar, uy vazifalaridan tamomila voz kechish mumkin emas. Negaki adabiyot o'quvchilarning birorta qismi uchun ham faqat maktabda o'rganilib, keyin duch kelinmaydigan o'quv fani emas. Kamolotga intilgan har bir shaxs badiiy adabiyot bilan bir umr yuzlashishga majburdir. Shu bois o'quvchi maktabdaligi chog'idayoq, adabiy asar bilan doimo bevosita aloqada bo'lishga odatlanib borgan ma'qul.

Uy vazifalarini bajarish uchun ajratiladigan vaqt ta'limning har bosqichida o'quvchilarning yoshi, ruhiy va jismoniy xususiyatlari hamda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Mutaxassislarning aniqlashlariga ko'ra uyga beriladigan topshiriqlarni bajarish uchun sarflanadigan vaqtning umumiy hajmi, turli shakllarda, barcha o'quv fanlarini qo'shib hisoblaganda quyidagi jadvalda ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi kerak⁸⁰.

⁸⁰ Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. 210-bet.

| Sinflar | O'quvchilar uy vazifasini bajarishga sarflaydigan vaqt miqdori |
|---------|--|
| 1-sinf | 30 daqiqa |
| 2-sinf | 40 daqiqa |
| 3-sinf | 45 daqiqa |
| 4-sinf | 1 soat |
| 5-sinf | 1 soat-u 15 daqiqa |
| 6-sinf | 1 soat-u 30 daqiqa |
| 7-sinf | 1 soat-u 40 daqiqa |
| 8-sinf | 2 soat |
| 9-sinf | 2 soat-u 15 daqiqa |
| 10-sinf | 2 soat-u 30 daqiqa |
| 11-sinf | 2 soat-u 45 daqiqa |

Bunday vaqt oralig'ida bajarishga mo'ljallangan uy ishlari maktabdagi barcha o'quv fanlari bo'yicha og'zaki bajariladigan ishlar, o'qish uchun topshiriqlar hamda yozma ishlar bilan almashtirib turiladi.

Adabiy ta'limda o'quvchilar uy vazifalarini tashkil etishning ma'lum shakllari mavjud: uyda o'qish va asar matni ustida ishlash yuzasidan beriladigan uy ishlari; uy insholari shaklidagi uy ishlari; ijodkorlikka yo'naltiruvchi uy topshiriqlari⁸¹. Ushbu yo'nalishda beriladigan uy vazifalari o'quvchilarning o'z ustida ishlashlarini tashkil etish, muayyan tizimda boshqarish va nazorat qilishda qo'l keladi. Adabiyot o'qitishda uyga beriladigan topshiriqlar miqdori o'quvchilarni jismoniy va ruhiy jihatdan zo'riqtirib qo'yimaslik uchun quyidagi miqdorda bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan⁸²:

| Sinflar | Uyga topshiriqni bajarish uchun sarflanishi mumkin bo'lgan vaqt miqdori |
|---------|---|
| 2-sinf | 15 daqiqa |
| 3-sinf | 20 daqiqa |
| 4-sinf | 25 daqiqa |
| 5-sinf | 30 daqiqa |

⁸¹ Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. 209-bet.

⁸² <https://vk.com/@podgotovkaege-kakim-dolzhen-byt-obem-domashnih-zadaniy-v-shkole>

| | |
|---------|-----------|
| 6-sinf | 35 daqiqa |
| 7-sinf | 40 daqiqa |
| 8-sinf | 45 daqiqa |
| 9-sinf | 45 daqiqa |
| 10-sinf | 50 daqiqa |
| 11-sinf | 50 daqiqa |

Adabiy ta'limda o'qilgan asarlar yuzasidan uy vazifasi sifatida: sinfda o'tilgan mavzuni uyda o'qish; o'qiganlari bo'yicha reja tuzish va shu asosda qayta hikoyalash; sinfdan tashqari o'qiladigan asarlar ustida ishlash; mustaqil ishlar; lug'at bilan ishlash; yozma va og'zaki insho; matnni bo'laklarga ajratish va ularning mazmuniga mos sarlavha topish; asar matni qismlari bo'yicha sarlavhalar tavsiya etib, mavjud matnni shu sarlavhalarga mos tarzda bo'laklarga bo'lish; har bir bo'lakning rejasini tuzish va shu reja asosida gapirishga tayyorlanish; ertak, topishmoq, she'r, tush va hikoyalar to'qish; asarlar matni yuzasidan tayyorlangan suratlar ustida ishlash; matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar bo'yicha og'zaki va yozma ishlar berish mumkin.

Uyga vazifa sifatida yozma ish berilgan kunlarda og'zaki yoki o'qib kelish yuzasidan topshiriq berilmasligi kerak. Uyga vazifa berishda o'quvchilarning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularning boshqa o'quv fanlari bo'yicha qanday vazifa berilganini ham hisobga olish zarur bo'ladi.

Darslik bilan ishlash bo'yicha uy vazifalarining taxminiy me'yori boshlang'ich sinflarda 10–15 daqiqa, 5–7-sinflarda 15–20 daqiqa, 8–11-sinflarda 25–30 daqiqani tashkil etishi maqsadga muvofiq. Bunday topshiriqlar ham sinfdagi o'quvchilarning umumiy darajasiga, ham har bir o'quvchining ruhiy-intellektual imkoniyatiga mos bo'lishi kerak. Uyda o'qish uchun beriladigan vazifalar: darslikdagi savollarga javob berish, matn rejasini tuzish, o'qilgan matn yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, o'qituvchi bergan savollar va u qo'ygan muammolar ustida ishlashga tayyorgarlik ko'rish, asar muallifning hayoti, sayohatlari, ijodiga doir xaritalar chizish, asar matni asosida tezislar tuzish, sinfda tuzilgan reja asosida matndan materiallar topish kabi shakllarda bo'ladi.

“O‘quvchilarning uy vazifalariga, ayniqsa, ular mumtoz adabiyot bilan bog‘liq bo‘lganda, juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Mumtoz asarlar nafaqat tili bilan, balki yaratilish davri, ijtimoiy muhiti bilan ham bugungi o‘quvchidan ancha yiroq. Lekin qiyin deb ularni o‘rganmaslik yoki ularni bugungi o‘quvchi saviyasi darajasiga moslashtirish, jo‘nlashtirish ham noto‘g‘ri. Ya‘ni darslarda asarlarning tabdili bilan ishlash yoki uy vazifasini tabdillar asosida bajarish o‘quvchini chalg‘itadi. Bobolar so‘ziga ichki ehtiyojsiz, muhabbatsiz ularning bitiklarini o‘rganib bo‘lmaydi. Buning uchun so‘zning mohiyatiga kirish kerak”⁸³, – deydi metodist olim Q. Husanboyeva.

O‘quvchilariga timsollarni tahlil qilish yuzasidan uy vazifasi berishdan oldin darsda ular bilan birgalikda qahramonning shaxsi, dunyoqarashi, asardagi o‘rni aniqlanib, uning hayotga, jamiyatga, odamlarga munosabati belgilab olinadi. Bunday uy vazifalarida har bir o‘quvchining aniq o‘z xulosasi bo‘lishi kerak.

Biror asar yoki undan olingan parchani yodlash uyga vazifa sifatida berilganda ularning adabiyot dasturida qayd etilgani hamda darsliklarda bor ekaniga jiddiy e‘tibor qaratish kerak. Aks holda uy vazifasining bajarilishi xavf ostida qoladi. Adabiy ta‘lim amaliyoti yod olish uchun beriladigan uy vazifalari hajmini taxminan quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq ekanini qayd etadi:

| Sinflar | O‘quvchilarga uyda yodlash uchun beriladigan asarlar miqdori (qator) |
|---------|--|
| 1-sinf | 4–8 qatorgacha |
| 2-sinf | 8–12 qatorgacha |
| 3-sinf | 16 qatorgacha |
| 4-sinf | 20 qatorgacha |
| 5-sinf | 24 qatorgacha |
| 6-sinf | 28 qatorgacha |
| 7-sinf | 32 qatorgacha |
| 8-sinf | 36 qatorgacha |
| 9-sinf | 40 qatorgacha |
| 10-sinf | 44 qatorgacha |
| 11-sinf | 50 qatorgacha |

⁸³ Husanboyeva Q. Adabiyot – ma‘naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. 214-bet.

Biror asar yoki undan parcha yodlashni uy vazifasi sifatida topshirishdan oldin asar darsda puxta o'rganilishi, matn o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi shart. Asarning yoddan, ifodali o'qilishi darajasi uning qanchalik anglashilganligini ko'rsatadi. Adabiy ta'lim davlat standartida o'quvchilar yod olishlari shart bo'lgan asarlar miqdori aniq belgilab qo'yilgan. Lekin o'quv dasturida o'quvchilar yod olishlari tavsiya etilgan asarlar miqdori davlat standartida belgilanganidan ko'proq. Negaki ko'pchilik o'quvchilarning o'quv imkoniyatlari standart talablaridan kattaroqdir. Asarlarni yod bilish savol-topshiriqlar yordamida o'quv tahlili ustida ishlashni osonlashtiradi. Dasturda va darslikda yod olish talab qilingan barcha she'riy asarlarni o'quvchilarning hammasidan birday talab qilish ham unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Bu o'rinda o'quvchilarning imkoniyat va xohish-istaklari ham inobatga olinishi kerak.

Adabiy ta'limda uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar darslikdagi o'quv materiallari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uyda o'qish uchun beriladigan asarlar boshlang'ich maktabning 3-4-sinf o'quvchilari uchun bir yilda 4-5 bolalarbop kitobdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Sinflar yuqorilashgani sari o'qilishi lozim bo'lgan kitoblar soni ortib boradi. Bir yilda o'qilishi lozim bo'lgan adabiyotlar miqdori taxminan: 5-sinfda 6-7 ta, 6-sinfda 8-9 ta, 7-sinfda 10-11 ta, 8-sinfda 12-13 ta, 9-sinfda 14-15 ta, 10-11-sinflarda yigirmatagacha bo'lishi tavsiya etiladi.

Asar ustida ishlash uchun beriladigan uy vazifalarining eng sodda usullaridan biri badiiy matnning umumiy yoki tarkibiy rejasini tuzish hisoblanadi. Darsda o'rganiladigan asarning umumiy matni ustida ishlash uchun tuziladigan reja – umumiy reja hisoblanadi. Matn yuzasidan umumiy reja asar to'liq o'qib chiqilgandan so'nggina tuzilishi lozim. Asarni o'qish jarayonida yo'l-yo'lakay tuzilgan reja uning mazmun-mohiyatini to'liq ifodalamasligi mumkin. O'quvchi asarni o'qish davomida kichik-kichik so'z va iboralar misolida uning tezisini yozib yoki e'tiborli o'rinlarini matndan belgilab borgani ma'qul. Asar o'qib bo'lingach, shu tezis yoki belgilar asosida reja tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Reja tuzishni o'rgatishdan maqsad o'quvchini muhimni nomu-
himdan ajratishga, bilganlarini tizimga solishga odatlantirishdan
iboratdir. O'quvchilar ongini faollashtiradigan bunday ish turi
asar matnining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlabgina qolmay,
ularni har qanday badiiy asarni mustaqil tushunish va muhokama
qilishga qodir kitobxonga aylantiradi. O'quv materiali bo'yicha
reja tuzish jarayonining o'zi o'quvchilarda mantiqiy mulohaza
yuritishni ham tarbiyalash hisoblanadi.

Barcha "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan adabiy matn-
lar ustida ishlash uchun ma'lum savol-topshiriqlar berilgan. Dars-
liklarda taqdim etilgan ayrim savol-topshiriqlar tavsiflashni talab
qilsa, ba'zilar qarashlarni umumlashtirishga yo'naltirilgan bo'la-
di. Ayrim savollar avval o'zlashtirilgan bilimlarni eslashga qaratilsa,
boshqasi har matn tahlilini talab qiladi. Yana bir xil savol-top-
shiriq uchun darslikning o'zi yetarli bo'lsa, o'zgasiga javob topish
uchun qo'shimcha manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar odatda uy vazifasi yuzasidan biror hodisani xotir-
lashga qaratilgan qo'shimcha savol-topshiriqlarga yengil va erkin
javob beradilar, ularning oldiga mustaqil fikrlash talab qilinadi-
gan savollar qo'yilganda qiynalib qoladilar. Bu qiyinchilik masa-
lani hal etishning dastlabki bosqichida kuzatiladi.

Asar matni yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar ko'magida
murakkab vaziyat yaratish o'quvchilarda fikriy faollikni oshira-
di, ularni matn ichiga chuqurroq kirishga yo'naltiradi, muayyan
masalani mustaqil hal qilishga undaydi. Darsliklarda asar matni
yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar
ko'pincha umuman to'g'ri fikrlaydilar, biroq o'z fikrini asardan
keltirilgan misollarga tayanib asoslashga qiynaladilar. Negaki
o'quvchi o'z bilimini yangi sharoitga qo'llash yo'lini bilmaydi,
bilimga shunchaki eslab qo'yiladigan ma'lumot sifatida qaraydi.
Agar u bilimini har qanday matnga tatbiq qilish mumkinligini
inglab yetsa va buning yo'llarini egallasa, tafakkuri faollashadi.
O'quvchini biror matn mazmunini shunchaki qayta bayon qilmay,
o'z qarashlarini bildirishga o'rgatishda qo'shimcha savollar qo'l
keladi. Qo'shimcha savol o'quvchini mustaqil fikrlash va o'ziga
xos munosabatda bo'lishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Uy vazifasini so‘rash o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishlarida muhim o‘rin tutadi. Bu kechimda o‘qituvchi bolalarning mustaqil fikrlashi va o‘rganilayotgan asardagi har bir obraz, tasvir yuzasidan o‘z qarashi bo‘lishiga e‘tibor qilishi lozim. Uyga vazifani so‘rash jarayonida nafaqat ular olgan bilimlarni aniqlash, balki bu bilimlarni chuqurlashtirish va tatbiq qila bilish holatiga ham e‘tibor berilishi kerak.

Uy vazifalarini og‘zaki so‘rash o‘qituvchi bilan bir o‘quvchi-ning suhbatiga aylanib qolishi mumkin. Bu kechimda sinfdagi boshqa o‘quvchilar chetda qoladi. Uy vazifalar muhim muammolarning sinf ahlining muhokamasi yo‘sinida so‘ralsa, unga barcha o‘quvchilarning e‘tibori qaratilgan bo‘ladi va bolalar olgan bilimlarini faollashtirishga majbur bo‘ladilar. Bunday yondashuv barcha o‘quvchilarni xushyorlikka undaydi. Uyga vazifani so‘rashda o‘qituvchi o‘quvchidan bergan javobining isbotini talab qilishi kerak. Shunda o‘quvchilar asosli fikrlashga o‘rganadilar.

Uy vazifalarini to‘g‘ri bajargani o‘quvchi, albatta, rag‘batlantirilishi kerak. Lekin uyga topshiriqni bajarmagan bolalarni izza qilish, kamsitish, uning shaxsiyatiga tegish mutlaqo mumkin emas. To‘g‘ri, topshiriqni bajarmaganga munosabat bildirilishi shart, lekin bu shaxslikning sindirilishiga xizmat qilmasligi kerak. Uyga berilgan vazifalar ularning qilingan-qilinmagani tekshirilib turilsagina bajariladi. Uy topshiriqlarining muntazam tekshirilishi o‘quvchilarni ichki intizomga, saboqda olgan nazariy bilimlarini yangi vaziyatda ishlata bilishga o‘rgatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Uyga topshiriq tushunchasining mohiyatini anglatang.
2. Uy vazifalarining turlariga to‘xtalng.
3. Uyga berilgan topshiriqlarning bajarilganini tekshirish yo‘llarini sharhlang.
4. Uy ishlarini tekshirish va baholash amaliyotini izohlang.

Reja:

1. Kirish mashg'ulotlarining didaktik ahamiyati.
2. Kirish mashg'ulotlarini o'tkazish yo'llari.
3. Yakuniy mashg'ulotlarning turlari.
4. Yakuniy mashg'ulot – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish omili.

Tayanch tushunchalar:

Saboq turlari, kirish mashg'ulotlari va ularning turlari, kirish mashg'ulotlarining pedagogik zaruriyati, kirish mashg'ulotlarining mavzuni o'rganishdagi o'rni, yakunlovchi mashg'ulotlarining adabiyot saboqlaridagi o'rni, yakuniy mashg'ulotlarni o'tkazish yo'llari, kirish mashg'ulotlari va nutq o'stirish, yakunlovchi mashg'ulotlar va mustaqil fikrlash.

O'rganiladigan har bir badiiy asar o'quvchi uchun yangi dunyo, yangicha sharoit, yangi odamlar bilan tanishuv bo'lmog'i kerak. Shundagina bu asar o'quvchini qiziqtiradi, uning faqat aqliga emas tuyg'ulariga ham ta'sir etadi. Adabiyot o'qitish o'quvchi ongiga qo'shimcha ma'lumotlar berishgina emas, balki uning qalbiga ta'sir qilish orqali estetik va axloqiy tarbiya berish hamdir. Maktab adabiyotining tarbiyaviy funksiyasi bajarilishida kirish va yakuniy mashg'ulotlar katta ahamiyat kasb etadi.

Maktab adabiy ta'limida ***kirish mashg'uloti*** tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Atamaning birinchi ma'nosi har bir sinf "Adabiyot" darsligi boshida shu sinfda yil bo'yi o'rganiladigan asarlar yo'nalishini belgilab berishga qaratilgan **bir** yoki **ikki soatlik** mavzuni anglatadi. Masalan, 7-sinfda "Adabiyot – so'z san'ati", 9-sinfda "Ma'naviyat xazinasi" va bq. Metodika ilmida bu turdagi kirish mashg'ulotlari miqdori bir o'quv yilida ikki soatdan ortiq bo'lishi tavsiya etilmaydi. Atamaning ikkinchi ma'nosi adabiyot bo'yicha har bir yangi mavzuni o'tish oldidan uning mohiyatini anglatishga qaratilgan qisqa muddatli mashg'ulotlarni anglatadi. Bu turdagi kirish mashg'ulotlari pedagogik vaziyatdan

kelib chiqib, **4 daqiqadan 15 daqiqaga** qadar davom etishi maqsadga muvofiq. Kirish mashg'ulotiga bundan ortiq vaqt sarflash o'quvchilar faolligini susaytirib, badiiy matnni qabul qilishdan chalg'itishi mumkin.

Kirish mashg'ulotlarini uyushtirishda, albatta, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ayniqsa, V–VII sinflarda kirish mashg'ulotlari muhim ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu sinflardagi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish imkoniyatlari, hayotiy tajribalarining ko'lami har bir badiiy asarni o'rganishdan oldin, albatta, kirish mashg'uloti o'tkazilishini taqozo qiladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning adabiy asarlar bilan tanishlik darajasi ancha yuzaki, o'qigan kitoblari kam, adiblar to'g'risida olgan ma'lumotlari qashshoq bo'ladi. Shuning uchun 5–7-sinflarda kirish mashg'ulotlari muntazam o'tkazilishi kerak. Mashg'ulotlarning davomiyligi mavzuning xususiyatiga qarab o'zgarishi mumkin. Kirish mashg'ulotlariga 5-9-sinflarda kamroq, 10–11-sinflarda bir qadar ko'proq vaqt ajratish mumkin. Negaki yuqori bosqichda ijodkorlarning asarini o'rganishga ko'proq vaqt beriladi.

Kirish mashg'ulotlari o'quvchini yozuvchining butun ijodi yoxud o'rganilajak asariga qiziqtirish, uning asar dunyosiga ham fikri, ham tuyg'ulari, ham diqqat-e'tibori bilan to'liq kirishiga erishish maqsadida uyushtiriladi. Ma'lumki, odamni biror narsaga qiziqtirishning universal bir yo'li yo'q. Chunki har bir odam biror narsaga faqat o'ziga xos yo'sinda qiziqadi. Ammo kirish mashg'ulotlarini shartli ravishda bo'lsa ham tasniflash mumkin. Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi amaliyotida kirish mashg'ulotlarining quyidagi turlari borligi qayd etiladi:

1) asarda aks etgan yoki asar yaratilgan davrga xos xususiyatlarni anglatishga qaratilgan kirish mashg'ulotlari;

2) o'rganilajak asarni anglash, uning mohiyatini tushunish borasida o'quvchilarda nuqtai nazar shakllantirishga qaratilgan kirish mashg'ulotlari;

3) o'quvchilarning jonli kuzatish va hayotiy tajribalarini faollashtirishga qaratilgan kirish mashg'ulotlari;

4) yozuvchi yoki asarning tarjimai holini anglatishga qaratilgan kirish mashg'ulotlari.

Deylik, 9-sinfda Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini o‘rgatishga 10 soat vaqt ajratilgan. Dastlabki soatda adibning umr va ijod yo‘lini o‘rganish ko‘zda tutilgan. O‘qituvchi ulug‘ shoirning umrbayoni shu vaqtga qadar har bir sinfda o‘rganib kelinganini ko‘zda tutib, birinchi soatni to‘lig‘icha kirish mashg‘uloti tarzida o‘tishi, ya’ni “Xamsa” janriga xos jihatlarni anglatishga diqqat qaratishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda har qanday beshta asar “Xamsa” bo‘lavermasligi, bunday janrdagi asarni bitmoq uchun qat’iy qoliplar ichida turgan holda ularni yorib chiqq bilish zarurligi, shu boisdan “Xamsa” yozgan adiblar barmoq bilan sanarli ekani bildiriladi. Shuningdek, har bir dostonida Navoiy tomonidan kiritilgan yangilik ta’kidlanishi va shu yo‘l bilan o‘quvchilar asarga qiziqirilishi joiz. Ehtimol, ayrim o‘qituvchilarga bu maqsadni amalga oshirish uchun 5 daqiqa kifoya qilar. Ba’zilariga o‘n besh daqiqa kerak bo‘lar. Muhimi, o‘quvchilar “Xamsa” asarining mohiyatidan xabardor bo‘lib, unga kirgan dostonlarni o‘rganishga qiziqib qolishlari zarur.

Kirish mashg‘ulotlari, ayniqsa, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ijodkorlarning asarlarini o‘tishda yaxshi samara beradi. Chunki bu shaxsiyatlarining o‘z hayot yo‘llarida qaltis, asarlarining tarjimai hollarida esa qiziqarli holatlar ko‘p. Ana shu qaltislik va qiziqarlik sababining anglanishi o‘quvchilarni bu adiblarning asarlariga ayricha mehr bilan qarashga undaydi.

Shuningdek, kirish mashg‘ulotlari o‘tilajak mavzuni oldin o‘rganilgan asarlarga bog‘lash borasida ham katta imkoniyatlarga ega. Ba’zi asarlarni o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning bilimi, taassurot va hissiyotini aktuallashtirishga qaratilgan kirish mashg‘ulotlari ham juda samarali bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilarga tengdosh bolalar qahramon sifatida tasvirlangan yoki tabiat manzarasi aks etgan asarlarni o‘tishdan oldin kirish mashg‘uloti uyushtirish g‘oyat o‘rinli bo‘ladi.

Kirish mashg‘ulotlarini o‘tkazishda o‘qituvchi o‘z oldiga konkret maqsad qo‘yib olishi va mashg‘ulotlarni ana shundan kelib chiqib uyushtirishi lozim. Ayni bir badiiy asarni o‘rganish uchun o‘quvchilarning bilim darajalari, xarakter xususiyatlari, yosh

imkoniyatlariga qarab turli shaklda kirish mashg'uloti uyushtirish mumkin.

Kirish mashg'ulotlarining turi ko'p: *o'qituvchi so'zi, axboroti, o'quvchilarning shaxsiy mulohazalari, rasm tomosha qilish, kino yoki teleko'rsatuvni ko'rish, she'r aytish, kichik ekskursiya, sirtqi ekskursiya* va hokazo. Adabiyot darsida kirish mashg'ulotlaridan qaysi turini ishlatish o'rganiladigan adabiy asarning tabiatiga, o'qituvchining didaktik maqsadiga bog'liq. Kirish mashg'ulotlarining barcha turlari o'tiladigan mavzu oldidan o'qituvchining bevosita ishtiroki va rahbarligida o'tkaziladi. Deylik, "Ulug'bek xazinasi" romani o'rganilishidan oldin o'qituvchi Muhammad Yusufning "Samarqandga borsam har safar" deb boshlanuvchi she'rini o'qiydi yoki telegramm orqali shu nomdagi qo'shiqni eshittiradi. So'ng o'quvchilarni Ulug'bek fojiasini qabul qilishga ruhan tayyorlagach, asar matni bilan tanishtiradi. Kirish mashg'ulotlarining boshqa turlari ham shunga o'xshash yo'sinda amalga oshiriladi.

Adabiy ta'limda *yakunlovchi mashg'ulot*larni uyushtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yakunlovchi mashg'ulotlar ham pedagogik maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi: a) o'quv yilining oxirida sinf adabiy ta'limini to'raligicha xulosalashga qaratilgan **alohida mashg'ulot**; b) har bir mavzuni yakunlash uchun uyushtiriladigan **qo'shimcha didaktik ish turi**.

Har bir sinfda adabiyot predmetini o'qitish yakuniga yetayotganida umumlashtiruvchi yakuniy mashg'ulot o'tkazilishi shart. Unda ushbu o'quv yilida o'rganilib, maxsus e'tibor qaratilishi va o'zlashtirib olinishi kerak bo'lgan jihatlariga alohida to'xtalinib, bu boradagi asosiy qarashlar umumlashtiriladi. Bu turdagi yakunlovchi mashg'ulotlar davomiyligi **bir soat**dan oshmagani ma'qul. Aks holda, o'quvchilarning bu mashg'ulotlarga qiziqishlari so'nishi mumkin.

Amaldagi o'quv dasturida 11-sinfda "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti" deb ataluvchi mavzu o'rganilishi ko'zda tutilgan. Ana shu mavzuga ajratilgan vaqtning so'nggi soatini yakuniy mashg'ulot tarzida o'tish o'zini oqlashi mumkin. Bunda agar oldingi soatlar mobaynida mustaqillik davri o'zbek adabiyotigu

xos xususiyatlar, undagi asosiy o'ziga xosliklar va buning ijtimoiy-estetik asoslari hamda lirika, epik tur hamda dramaturgiya bo'yicha qanday o'sish-o'zgarishlar ro'y berganligiga alohida-alohida to'xtalangan bo'lsa, yakunlovchi mashg'ulotda ega-manlik davri o'zbek adabiyotining o'ziga xosliklari yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

Har bir mavzuning tugallanishida o'tkaziladigan yakunlovchi mashg'ulotning davomiyligi 3-8 daqiqa bo'lib, o'rganilgan asarlarni qanday anglash, his etish va ulardan qanday badiiy va mantiqiy to'xtamlarga kelish maqsadga muvofiqroq ekani kabi masalalarga to'xtaliniadi. Bunda o'quv tahlilidan umumlashtirishga, ya'ni analizdan sintezga kelinadi.

9-sinfda buyuk Navoiyning "Xamsa" asari o'rganilayotganda "Saddi Iskandariy" dostoni matni bilan tanishib tahlil qilingach, darsning 10-12 daqiqasida, umuman, "Xamsa" asarining e'tiborga loyiq jihatlari, unga kirgan dostonlardagi komillikka intilgan timsollardagi chog'doshlarimizga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlarga to'xtaliniadi. Shu tariqa, yakunlovchi mashg'ulotda asarning o'ziga xosligi va badiiy xususiyatlari to'g'risida umumlashtiruvchi fikrlar aytiladi.

Shu ma'noda yakunlovchi mashg'ulot o'rganilgan asar bilan xayrlashish marosimi emas, balki o'quv tahlilining mantiqiy davomi va tugallovchi bosqichi yoki so'nggi akkord hisoblanadi. Agar o'quv tahliliga ajratilgan vaqt davomida asosiy e'tibor detallarga qaratilgan bo'lsa, yakunlovchi mashg'ulotda umumlashtirish ustuvorlik qiladi. Asarga yaxlit bir estetik butunlik sifatida yondashilib, uning o'ziga xos jihatlari tekshiriladi.

O'quvchilarda badiiy matnga umumlashtiruvchi nazarning shakllanishi ko'pincha o'rganilgan asar yuzasidan yozilgan ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga yo'l ochadi. Yakunlovchi mashg'ulot, agar yaxshi uyushtirilsa, o'quvchining asar bilan munosabatini yakunlamaydi, balki bolani matnga qayta qiziqtiradi. Bunday mashg'ulot asar va yozuvchi, asar va zamon, asar va o'quvchi munosabatlari xususida xilma-xil fikrlarni taqozo qiladi. Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asari o'rganilgach, muallifning asar janrini "jiddiy komediya" tarzida belgilaganligi sababi to'g'risidagi mulohazalar yakunlovchi mashg'ulotga asos bo'lishi

mumkin. Asar o'rganib bo'lingach, bunday muammoning qo'yilishi o'quvchilarni unga yaxlit nazar tashlashga, bitikda aks etgan taqdirlar xususida ham insoniy, ham ijtimoiy, ham tarixiy yo'naltirishda fikr yuritishga undaydi. Yakunlovchi mashg'ulot nafaqat asar, balki umuman dramatik tur, xususan, komediya va ayniqsa, jiddiy komediya to'g'risidagi fikrlashuvga aylanib ketishi mumkin. Agar uddasidan chiqilsa, yakunlovchi mashg'ulotni teatrdan shu spektaklni ko'rish yo'sinida o'tkazsa ham bo'ladi.

Badiiy asarlarni o'rganish yuzasidan o'tkaziladigan yakunlovchi mashg'ulotlar bir qator pedagogik vazifalarni bajarishga qaratiladi. Birinchidan, o'quvchilarga o'rganilgan asarga tahlildan so'ng yana bir marta murojaat qilish, uni butunisicha idrok etish imkonini beradi. O'quvchilar oldiga muammo qo'yib, uning mustaqil hal qilinishiga erishish o'quvchilarni shaxslik taraqqiyotining yangi, balandroq darajasiga ko'taradi. Ikkinchidan, yakunlovchi mashg'ulotlar o'quvchilarga badiiy asarlarni o'qib, tahlil qilishdan tashqari, ular to'g'risida o'z to'xtami, xulosasiga ega bo'lish imkonini beradi. Uchinchidan, yakunlovchi mashg'ulotlarda o'rganilgan asar tahlili davomida o'quvchilarda shakllangan aksiologik yondashuvlarning qanchalik mustahkamligi sinab ko'riladi. O'quvchilarning har biri yakunlovchi mashg'ulotda qiziqish bilan o'rgangan asarlari yuzasidan mustaqil umumlashtiruvchi fikrga ega bo'lishiga va o'z fikrini asoslashga intilishiga erishish bu xil mashg'ulotlarning samaradorligini bildiruvchi ko'rsatkichdir.

Kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarni uyushtirishda o'qituvchi yetakchilik qilishi va bu kechimda o'quvchilarda mavjud bilimlar aktualashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Kirish mashg'uloti tushunchasining mohiyatini anglatir.
2. Kirish mashg'ulotlarining qanday turlari bor? Ularga xos xususiyatlarni ko'rsating.
3. Yakuniy mashg'ulot nima?
4. Yakuniy mashg'ulotlarga xos belgilarga to'xtalir.
5. Biror adib va uning asari misolida kirish hamda yakuniy mashg'ulot o'tkazish yo'llarini ko'rsating.

Reja:

1. Sharhli o'qish tushunchasining mohiyati.
2. Sharhli o'qishning pedagogik zaruriyati.
3. Sharhli o'qishning turlari.
4. Sharhli o'qishda o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olish.

Tayanch tushunchalar:

Sharhli o'qish, o'zlashtiruvchi sub'ekt va muallif munosabati, hozirgi adabiy ta'limda sharhli o'qish, sharh, sharhli o'qish va ta'lim bosqichlari, sharhli o'qishda badiiy yaratq va o'quvchi asaridagi masofa, o'qish va tushunish, sharhli o'qish va o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Adabiyot saboqlarining deyarli barcha bosqichlarida sharhli o'qish o'ta katta ahamiyatga ega. Sharhli o'qishning zaruriyati zamonaviy o'quvchi bilan adabiyot sabog'ida o'rganilayotgan asar o'rtasidagi zamoniyl oraliq hamda adabiy jarayonning tarixiy-estetik xususiyatlari tufayli yuzaga keladi. Bu zamoniyl oraliqni butunlay yo'qotish yoki imkon qadar qisqartirish sharhli o'qishning ta'lim usuli sifatidagi vazifasi hisoblanadi. Agar adabiyot o'qitish kechimi va adabiyot o'qituvchisi faoliyatidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilar tomonidan badiiy asarning idrok etilishi sifatini oshirish bo'lsa sharhli o'qish, birinchidan, o'quvchi uchun "begona" bo'lgan badiiy matnni uning "o'ziniki"ga aylantirishga xizmat qiladi, ikkinchidan, o'quvchilarni asarning ta'sir doirasi bo'lmish estetik zaryadlar maydoniga olib kiradi.

Albatta, har qanday badiiy matn tushunilishga yo'naltirilgan bo'ladi, lekin bu yo'nalganlik asarni o'zlashtirayotgan subyekt bilan muallifning dialogi yuzaga kelgandagina amalga oshadi. Ma'lumki, har qanday o'quv tahlilidan maqsad bitikning o'quvchi tomonidan qilingan talqinini yuzaga keltirish hamda uni matnning ilmiy tadqiqiga yaqinlashtirish, ya'ni badiiy asarning obyektiv mazmunini o'quvchining subyektiv qarashlariga yaqin-

lashtirishdan iborat. Matnning sharhi ana shu maqsadni amalga oshirish imkonini beradi. Badiiy asar o'qilish va sharhlanish asnosida o'quvchining subyektiv ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish orqali tahlil mobaynida asarning adabiyottanuvchilik tomonidan tayin etilgan obyektiv mohiyatiga yaqinlashiladi.

Sharhning u yoki bu turidan foydalanish, bir tomondan, har bir konkret o'quv vaziyatiga, ikkinchi tomondan esa, o'qituvchining o'zi va o'quvchilari oldiga qo'ygan maqsadlari qandayligiga bog'liq bo'ladi. O'zbek adabiyotini o'qitishda o'quvchilarning haqiqiy real imkoniyatlarini aniq bilgan holda ish ko'rish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha o'qituvchining har bir mavzuni o'tish oldidagi kirish so'zida badiiy matndagi sharhlashga muhtoj barcha qiyin so'z va ifodalarga birvarakayiga izoh berilishi kerak, deb qaraladi. Amalda judda sodda yozilgan adabiy matnlarnigina shunday sharhlash mumkin. Aksar hollarda esa jiddiy va davomli sharhga ehtiyoj mavjud. Chunki badiiy so'z deyarli doim ko'chma yoki qo'shimcha, ko'pincha esa birvarakayiga ham majoziy, ham qo'shimcha ma'no tashiydi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti namunalari bilan tanishayotgan o'quvchi bilan o'rganilayotgan asar yaratilgan davr o'rtasida ba'zan necha asrlik oraliq bo'ladiki, bu zamoniy oraliq qadriyatlar, tutumlar, udumlar, ruhiyat, dunyoqarash singari jihatlarda, albatta, o'z nuqsini qoldiradi. Shuning uchun ham bunday tasvirlar sharhga ehtiyoj sezadi. Binobarin, ham leksik, ham tarixiy-maishiy yo'nalishdagi sharh badiiy matn bilan tanishishdan oldin emas, balki tanishish kechimining bevosita o'zi yoki undan keyin amalga oshirilgani maqsadga muvofiq sanaladi.

O'qituvchi asarni sharhlash asnosida o'quvchilarga matnni diqqat bilan o'qib, undagi tasvirlarni tasavvurda jonlantirish, asar tahliliga qaratilgan savollar ustida ishlashni o'rgatishga harakat qiladi. Yozma adabiyotining tarixi unchalik ko'hna bo'lmagan ko'pchilik xalqlarning ta'lim tizimlarida yuqori sinflarga borgan sari sharhli o'qishning soni va salmog'i kamayib boraveradi. O'zbek adabiyotini o'qitishda esa bunday qilib bo'lmaydi. Negaki hozirgi o'zbek tili mumtoz o'zbek adabiy tilidan keskin farq qiladigan qator xususiyatlarga ega. Shuningdek, millat ruhiyati,

fikrlash tarzi va turmush yoʻsinida ham jiddiy yangilanishlar so-
dir boʻlgan. Binobarin, koʻp asrlik tarixga ega yozma adabiyotni,
minglab eskirgan va tarixiy soʻzlar mavjud xalq ogʻzaki ijodi na-
munalarini maxsus sharhlarsiz tushunish qiyin. Shunday boʻlsa-
da, sinflar yuqorilagani sari oʻquvchilarning matn ustida mustaqil
tahlilishlariga erishish eng muhim didaktik tadbir hisoblanishi ke-
rak boʻladi. Toʻgʻri, yuqori sinflarda ham badiiy matn sharhla-
nishi kerak boʻladi, lekin uning miqdori oldingi sinflardagi kabi
koʻp boʻlmaydi.

Oʻqituvchining sharhi qanchalik muhim boʻlmasin, badiiy matn
bilan oʻquvchilarning mustaqil tanishishlari ahamiyatliroqdir.
Matnni oʻqish oʻquvchidan nafaqat oʻqilayotgan matnni mantiqiy
tushunishni, balki badiiy asarning obrazli oʻziga xosligini
anglab yetishni ham talab qiladi. Yuqori sinf oʻquvchisi timsollar
tabiatining samimiy va haqqoniy tasvirlangani, syujet rivojining
tabiiyligi, muallif nuqtai nazarining namoyon boʻlishi, asarning
til xususiyatlari singari jihatlariga eʼtibor qilishi lozim boʻladi.
Bunga erishish uchun matnni oʻqish bir necha bosqichda amalga
oshirilishi kerak boʻladi.

Matn oʻqituvchi tomonidan sinfda oʻqib berilganida oʻquvchi-
lar badiiy asarning barcha oʻziga xos jihatlarini ilgʻamasliklari
tabiiy. Oʻquvchilar matnni sinchiklab mustaqil oʻqiganlaridagina
asarning jozibali jihatlarini yaxshiroq ilgʻashlari mumkin boʻladi.
Shunda ham koʻrkam matn bir necha bor qayta oʻqilishni taqozo
qiladi. Matn birinchi bor oʻqilganda, asarning barcha oʻziga xos-
liklarini anglab yetish ham, undan badiiy-estetik va maʼnaviy-ax-
loqiy taʼsirlanish ham qiyin, albatta. Asarning ikkinchi marta
oʻqilishinigina bir qadar yuqori darajadagi tahliliy oʻqish deyish
mumkin boʻladi. Matn bilan tanishish tahliliy yoʻnalish olishi
uchun yo asarni oʻqishdan oldin, yoxud undan keyin matnni idrok
etish va tekshirishga yoʻnaltirilgan maxsus didaktik topshiriqlar
berilishi lozim boʻladi. Boshqacha aytganda, oʻqish usuli asar
tahlili jarayonida faqat oʻqish shaklida toza holda qoʻllanilmay,
taʼlimning oʻzga usullari bilan uygʻunlashgan holda ishlatiladi.

Sharhlab oʻqitishning eng muhim turlaridan biri bu lugʻaviy
sharhlashdir. Uning muhimligiga sabab faqat asar tilidagi bir qa-

tor soʻzlarning bugungi kunda isteʼmoldan chiqib, oʻquvchilarga nomaʼlum va tushunarsiz boʻlib qolganidagina emas. Badiiy adabiyotda har qanday soʻzning kontekstual va koʻpincha majoziy maʼno anglatishi mumkinligi maʼlum. Chunki soʻz badiiy matn qoʻshimcha maʼno tovlanishlari va hissiy jilolarga ega boʻladiki, ularni izohli soʻzliklarda ifodalash mumkin emas. Soʻz kontekstda, yaʼni matn tarkibida nafaqat maʼno tashiydi, balki shu tilda soʻzlaydigan millatning madaniyati, ruhiyati, qadriyatlarini tizimiga xos jihatlar bilan toʻyintirilgan boʻladiki, ularni ham izohli soʻzliklarda berish imkonsiz. Shuning uchun ham soʻzning koʻpmaʼnoliligini lingvistik hodisadan koʻra koʻproq darajada badiiy fenomen deyish toʻgʻriroq boʻladi. Bu hol badiiy asarni oʻquv tahliliga tortishda sharhlab oʻqish matnda qoʻllanilgan har bir soʻzning ochiq va tagmaʼnolariga oʻquvchilar eʼtiborini qaratish ulkan ahamiyatga ega boʻlishini koʻrsatadi.

Afsuski, juda koʻplab amaliyotchi oʻqituvchilar sharhlab oʻqishni tushunarsiz soʻzlarning izohi sifatida qabul qiladilar. Holbuki, sharhlab oʻqish bugungi adabiy tilimiz asosida yaratilgan zamonaviy bitiklarni chuqurroq anglab yetish uchun ham gʻoyat muhimdir. Nimagaki, chinakam badiiy asardagi har qanday tasvir koʻrinib turgan tashqi (ekspilitsit) jihatdangina iborat boʻlmay, uning asl mohiyati ichki va yashirin (implitsit) qirralarda namoyon boʻladi. Juda koʻp hollarda koʻrkam bitiklarning ichki mohiyatiga yetarlicha eʼtibor bermaslik uni toʻla anglamaslikka sabab boʻladi.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotining yirik vakili Odil Yoqubov ijodini oʻrta maktabda oʻrgatishda sharhlab oʻqishdan foydalanish taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maʼlumki, oʻrta maktabda Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” romanini toʻrt soat mobaynida oʻrgatish koʻzda tutilgan. Bizningcha, adib hayoti va ijodi hamda romanni oʻqib tahlil etishga bagʻishlangan darslarning samaradorligini taʼminlash uchun birinchi soatda oʻtiladigan darsning maqsadlarini tubandagicha belgilash maqsadga muvofiq boʻladi: a) **tarbiyaviy maqsad** – yozuvchining hayot va ijod yoʻli hamda “Ulugʻbek xazinasi” romanidagi Ulugʻbek timsoli asosida oʻquvchilarda insof-diyonatli va maʼrifatli odamlarga hurmat

hamda havas tuyg'ularini shakllantirish; b) **ta'limiy maqsad** – o'spirinlarga Odil Yoqubov umr yo'li va "Ulug'bek xazinasi" romanidan olingan parcha bilan tanishtirish; v) **rivojlantirish maqsadi** – o'quvchilarda qaltis vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmaslik, boshqalar oldida xijolat bo'lmaydigan qarorlar qabul qilish va o'z sha'nini baland tutish sifatlarini tarkib toptirish.

Ijodkor shaxs bilan ijod mahsuli munosabatini hisobga olmay turib, badiiy ijod tabiatini to'g'ri tushunish mumkin emas. Ijod mahsuli, ya'ni badiiy asar ijodkorning shaxsidan yuqori bo'lolmaydi. Chunki badiiy asar ijodkor tomonidan yaratiladi va uning shaxsiyatiga xos jihatlar bu yaratqda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, ijodkor va badiiy asar munosabatini og'och va uning mevasiga o'xshatish mumkin. Meva uni bergan og'ochdan ortiqroq bo'lmagani kabi badiiy asar ham uning muallifining shaxsiyati darajasidan baland ko'tarilolmaydi. Bu fikrga e'tibor qaratilayotganiga sababi shundaki, Odil Yoqubov shaxs sifatida ko'plab adiblardan ajralib turadi va ayni jihat uning asarlarida ham aks etadiki, uning asarlari tahlilida bu hol hisobga olinishi zarur.

Adabiyot o'qituvchisi O.Yoqubov asarlaridagi aksar qahramonlarning g'oyat ta'sirchan, pokiza xulq kishilari ekaniga o'quvchilar e'tiborini tortishi va buning manbasi sifatida yozuvchi shaxsiyatini ko'rsatishi to'g'ri va pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi. 1989-yilda hali SSSR deb atalmish qudratli imperiya torqalmay, hali Kompartiya o'z ta'sirini yo'qotmay turib, SSSR xalq deputatlari syezdida o'zbek xalqi boshiga tushirilgan adadsiz qiyinchilik va zulmlar haqida haq so'zni dangal ayta olgan yagona kishi Odil Yoqubov bo'lgandi. Uning asarlaridagi Ulug'bek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Beruniy, Malikul sharob, Ibn Nino, Normurod domla, Suyun Burgut, Otaqo'zi singari e'tiqodidan qaytmas timsollar adib shaxsiyatidan suvlangandir. Odil Yoqubovning ijodkor sifatidagi qiyofasi o'spirinlar ko'z o'ngida ko'ta gavdalanishi uchun o'qituvchi adibning shaxsiyatidagi halollik, dangallik, jasurlik singari sifatlarga batafsilroq to'xtalgani ma'qul.

O.Yoqubov o'z ijodiy umri mobaynida hikoya, qissa, roman, drama, esse singari janrlarga mansub ko'plab asarlar yozgan.

tor soʻzlarning bugungi kunda isteʼmoldan chiqib, oʻquvchilarga nomaʼlum va tushunarsiz boʻlib qolganidagina emas. Badiiy adabiyotda har qanday soʻzning kontekstual va koʻpincha majoziy maʼno anglatishi mumkinligi maʼlum. Chunki soʻz badiiy matn qoʻshimcha maʼno tovlanishlari va hissiy jilolarga ega boʻladiki, bularni izohli soʻzliklarda ifodalash mumkin emas. Soʻz kontekstda, yaʼni matn tarkibida nafaqat maʼno tashiydi, balki shu tilda soʻzlaydigan millatning madaniyati, ruhiyati, qadriyatlari tizimiga xos jihatlar bilan toʻyintirilgan boʻladiki, bularni ham izohli soʻzliklarda berish imkonsiz. Shuning uchun ham soʻzning koʻpmaʼnoliligini lingvistik hodisadan koʻra koʻproq darajada badiiy fenomen deyish toʻgʻriroq boʻladi. Bu hol badiiy asarni oʻquv tahliliga tortishda sharhlab oʻqish matnda qoʻllanilgan har bir soʻzning ochiq va tagmaʼnolariga oʻquvchilar eʼtiborini qaratish ulkan ahamiyatga ega boʻlishini koʻrsatadi.

Afsuski, juda koʻplab amaliyotchi oʻqituvchilar sharhlab oʻqishni tushunarsiz soʻzlarning izohi sifatida qabul qiladilar. Holbuki, sharhlab oʻqish bugungi adabiy tilimiz asosida yaratilgan zamonaviy bitiklarni chuqurroq anglab yetish uchun ham gʻoyat muhimdir. Nimagaki, chinakam badiiy asardagi har qanday tasvir koʻrinib turgan tashqi (ekspilitsit) jihatdangina iborat boʻlmay, uning asl mohiyati ichki va yashirin (implitsit) qirralarda namoyon boʻladi. Juda koʻp hollarda koʻrkam bitiklarning ichki mohiyatiga yetarlicha eʼtibor bermaslik uni toʻla anglamaslikka sabab boʻladi.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotining yirik vakili Odil Yoqubov ijodini oʻrta maktabda oʻrgatishda sharhlab oʻqishdan foydalanish taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maʼlumki, oʻrta maktabda Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” romanini toʻrt soat mobaynida oʻrgatish koʻzda tutilgan. Bizningcha, adib hayoti va ijodi hamda romanni oʻqib tahlil etishga bagʻishlangan darslarning samaradorligini taʼminlash uchun birinchi soatda oʻtiladigan darsning maqsadlarini tubandagicha belgilash maqsadga muvofiq boʻladi: a) **tarbiyaviy maqsad** – yozuvchining hayot va ijod yoʻli hamda “Ulugʻbek xazinasi” romanidagi Ulugʻbek timsoli asosida oʻquvchilarda insof-diyonatli va maʼrifatli odamlarga hurmat

hamda havas tuyg'ularini shakllantirish; b) **ta'limiy maqsad** – o'spirinlarga Odil Yoqubov umr yo'li va "Ulug'bek xazinasi" romanidan olingan parcha bilan tanishtirish; v) **rivojlantirish maqsadi** – o'quvchilarda qaltis vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmaslik, boshqalar oldida xijolat bo'lmaydigan qarorlar qabul qilish va o'z shaxsini baland tutish sifatlarini tarkib toptirish.

Ijodkor shaxs bilan ijod mahsuli munosabatini hisobga olmay turib, badiiy ijod tabiatini to'g'ri tushunish mumkin emas. Ijod mahsuli, ya'ni badiiy asar ijodkorning shaxsidan yuqori bo'lolmaydi. Chunki badiiy asar ijodkor tomonidan yaratiladi va uning shaxsiyatiga xos jihatlar bu yaratqda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, ijodkor va badiiy asar munosabatini og'och va uning mevasiga o'xshatish mumkin. Meva uni bergan og'ochdan ortiqroq bo'lmagani kabi badiiy asar ham uning muallifining shaxsiyati darajasidan baland ko'tarilolmaydi. Bu fikrga e'tibor qaratilayotganiga sababi shundaki, Odil Yoqubov shaxs sifatida ko'plab adiblaridan ajralib turadi va ayni jihat uning asarlarida ham aks etadiki, uning asarlari tahlilida bu hol hisobga olinishi zarur.

Adabiyot o'qituvchisi O.Yoqubov asarlaridagi aksar qahramonlarning g'oyat ta'sirchan, pokiza xulq kishilari ekaniga o'quvchilar e'tiborini tortishi va buning manbasi sifatida yozuvchi shaxsiyatini ko'rsatishi to'g'ri va pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi. 1989-yilda hali SSSR deb atalmish qudratli imperiya tarqalmay, hali Kompartiya o'z ta'sirini yo'qotmay turib, SSSR salki deputatlari syezdida o'zbek xalqi boshiga tushirilgan adadsiz qiyinchilik va zulmlar haqida haq so'zni dangal ayta olgan yagona kishi Odil Yoqubov bo'lgandi. Uning asarlaridagi Ulug'bek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Beruniy, Malikul sharob, Ibn Sin, Normurod domla, Suyun Burgut, Otaqo'zi singari e'tiqod bilan qaytmas timsollar adib shaxsiyatidan suvlangandir. Odil Yoqubovning ijodkor sifatidagi qiyofasi o'spirinlar ko'z o'ngida bo'la gavdalanishi uchun o'qituvchi adibning shaxsiyatidagi halollik, dangallik, jasurlik singari sifatlarga batafsilroq to'xtalgani ma'qul.

O.Yoqubov o'z ijodiy umri mobaynida hikoya, qissa, roman, drama, esse singari janrlarga mansub ko'plab asarlar yozgan.

Yozuvchining hikoyachiligi bilan o'quvchilar oltinchi sinfda o'qiyotganlarida tanishishgan. Ular "Muzqaymoq" hikoyasini o'qib, uning ta'sirchan, sodda, baxtsiz qahramoni bilan uchrashishgan. "Yaxshilik" hikoyasida yangasiga yaxshilik qilmoqchi bo'lib, yomon ko'rinib qolgan o'smiring iztiroblari mahorat bilan tasvir etilgan. Unda niyat bilan amal o'rtasidagi nomuvofqlikdan paydo bo'lgan ruhiy po'rtana jonli ko'rsatilgan.

O.Yoqubov ijodida qissachilik ham muhim o'rin tutadi. Adibni chinakam yozuvchi sifatida elga tanitgan asari 1961-yili chop etilgan "Muqaddas" qissasidir. Inson hayotining kutilmagan chigalliklarga to'la ekanligini ma'yus ohangda, ammo yorug' nurlar fonida aks ettirgan bu asar o'z davrida butun millat ahlining mehrini qozondi. Chunki unda odam sho'ro mafkurachilari talabiga muvofiq ko'pchilik qalamkashlar bitayotganidek, qarorlar asosida, mafkurada ko'rsatilganidek yashamasligini, balki har bir shaxsning hech kim bilmaydigan o'z dard-u armonlari bo'lishi mumkinligi samimiy aks etgan edi. Qissada yomonlik qanchalar qudratli, makkor bo'lmasin, oxir-oqibat yaxshilik tantana qilishi mustaqil hayotga ilk qadamlarini qo'yayotgan yoshlar taqdiri misolida ko'rsatilgan. O'qituvchi o'quvchilari diqqatini odam o'zi qo'ygan har bir qadam uchun javobgar ekanligiga tortgani ma'qul. Shunda pokiza maqsadga nopok yo'l bilan yetmoqchi bo'lgan Sharifning aynan sevikli Muqaddas baxtiga to'g'anoq bo'lishi va bundan o'zi qiynalishi tasodif emasligiga amin bo'lishadi.

O.Yoqubovning "Bir feleton qissasi" asarida inson haqida atroficha bilmay turib fikr aytish, qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi g'oyat ta'sirli aks ettirilgan. Adibning "Qanot juft bo'ladi" qissasida inson erki va axloq muammosi Akram va Sayyora timsollari orqali juda ta'sirchan ko'rsatilgan. Odamning me'yor va qanoatni unutishi unga yengillik o'rniga qiyninchilik, rohat o'rniga azob keltirishi mumkinligi ta'sirli tasvirlangan. Qissada ayrim yoshlardagi o'tkinchi mayllar tufayli jo'shurgan erkinlik istagida millatga xos ezgu jihatlardan yuz burish jiddiy ma'naviy muammolar tug'dirishi, odam taqdirini kutilmagan tomonlarga burib yuborishi mumkinligi badiiy timsollarning ishonarli xatti-harakatlari misolida ko'rsatilgan.

O'qituvchi O.Yoqubovning dramatik asarlarini tahlil qilish asosida yozuvchining fikrlash tarzidagi originallik adabiy qahramonlar tabiatini tayin etish, ularning xatti-harakatlarini asoslash borasida o'ziga xos yo'l tutish imkonini berganligiga to'xtaladi. Bunda o'qituvchi adibning "Fotih muzaffar yoki bir parivash asiri" pesasiga urg'u beradi. Amir Temur to'g'risida yuzlab asarlar yaratilgan. Ularda mualliflar sohibqiron timsoliga, asosan, jangchi, arbob, hukmdor sifatida yondashganlar. O.Yoqubov bu dramada o'ziga xos yo'l tutib, Temur shaxsiyatining o'zga bir qirrasini aks ettirishga urindi. Uni kutilmaganda ko'nglida ishq paydo bo'lgan keksa odam sifatida badiiy tadqiq etishga urinadi. Asarda dunyoning yarmiga hukmronlik qilgan, barmog'i ishorasi bilan minglab odamlarning taqdirini hal etadigan Temurning o'ziga daxldor ishlarda g'oyat nochor va ojizligi, ko'ngil mayllarini bekitishga, haqiqiy tuyg'ularini yashirishga majbur bo'lgan oddiy bir odam ekani juda ishonarli aks etgan.

Inson tabiatini, uning mayllarini butun murakkabligi va chigalligi bilan ko'rsatish tamoyili O.Yoqubovning "Bir koshona dirlari" dramasida ham yorqin namoyon bo'ladi. Dramaturg bu asarida bugunning odamiga xos xususiyatlarni, ularni o'ylantirgan, qiynayotgan, iztirobga solayotgan ma'naviy muammolarni butun murakkabligi bilan ko'ra biladi. Bugungi o'zbek adabiyotidagi odamni ichdan turib, ko'zga ko'rinmaydigan ruhoniylar jihatlariga tayanib tasvirlash tamoyiliga O.Yoqubov asos solgan. Adib har qanday inson ruhiyati qarama-qarshi qutblardan iboratligini, baxtsizlik zamirida quvonch, shodlik qa'rida g'am bo'lishi mumkinligini yaxshi biladi va ishonarli aks ettira oladi. Shu bois u qalamga olgan adabiy qahramonlar ruhiyati kutilmagan qirralari bilan namoyon bo'lib, o'quvchini o'ylashga, chigal vaziyatga tashgan qahramon holatini tuyishga o'rgatadi. Shuning uchun ham o'quvchi koshona egalari: halol tijoratchi Sarvar, uning tantiq, erkakshoda, ammo pokiza ayoli Dilor, ularning o'rtahol qo'shnilari: jarroh Darveshali hamda uning turmush yo'ldoshi Gulnoza kabi biri-biridan talantli, ishbilarmon odamlarning har biri o'zicha baxtsiz ekanligi sababini tushunishga qiynaladilar. Ayni shu jihat asarning yutug'idir.

O.Yoqubov asarlari orasida “Ko‘hna dunyo” romani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarni tushunish bir muncha qiyin. Chunki undagi obrazlarning ko‘pchiligi ramziy ma’noga ega bo‘lib, imo-ishora vositasida fikrlaydi. Asarda Piri Bukriy, Bobo Xurmo, Bobo Setoriy, Piri G‘ijjakiy, Malikul sharob singari timsollarning mavjudligi shuni ko‘rsatadi. Asarda Mahmud G‘aznaviy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari tarixiy shaxslar ham aks ettirilgan. Roman odam va uning taqdiri sirdan ko‘ringandagiga nisbatan ancha chigal ekanini aks ettiradi. Yozuvchini hayot haqiqati yoki tarix haqiqatini haqqoniy aks ettirishdan ko‘ra romandagi obrazlarning badiiy haqiqatini yaratish ko‘proq qiziqtiradi. Roman qahramonlari hamisha ham hayotiy me‘yorlarga mos keladigan tarzda tasvirlangan deb bo‘lmaydi. Lekin ular o‘z xarakterlari mantig‘iga muvofiq harakatlanishadiki, bu yozuvchining tasvir mahoratidan dalolatdir. Ayni shu asar to‘g‘risida fikr yuritilganda sharhli o‘qish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki romanda bizdan ming yil narida odamlar hayoti aks etgan. Binobarin, ularning tilidan tortib, tutumlari, ruhiyati va tayangan qadriyatlariga qadar o‘zgacharoq ma’no va ko‘rinishga egadir.

Romanda mashhur imperator Mahmud G‘aznaviy davri tasvirga tortiladi. Lekin yozuvchi o‘sha davrda ro‘y bergan tarixiy hodisalar xronologiyasi bilan andarmon bo‘lib, o‘zining estetik vazifasini esdan chiqarmaydi. Adib zamonlar osha qilgan sayohatiga teran badiiy ma’no yuklay oladi. Shuning uchun ham yozuvchi tarixiy haqiqat iskanjasiga tushib qolmagan. Adib tarix bilan bahslashadi, unga bugunning nuqtai nazari bilan qaraydi. Shuning uchun ham g‘aznaviylar saltanati tarixidagi emas, balki G‘aznaviy va uning zamondoshlari hayotidagi burilish pallalarini qalamga oladi. Asarda G‘aznaviy keskin ruhiy iztiroblar iskanjasida ko‘rsatiladi. Davosiz dardga muhtalo bo‘lib, umrining so‘nggi damlarini kechirayotgan sulton kasallik qarshisida jo‘ngina bir odamga aylanadi. Dard zo‘rayganda insoniy oqizligini namoyon qiladi. Dunyoni titratgan imperator mayda manfaatlar ketidan yurgan muttaham kimsalar tomonidan aldanib, arzimas odamlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib qoladi. U ba‘zan oddiy bir banda sifatida qilgan gunohlarini o‘ylab qiynaladi, yoshlikdagi do‘stlariga

yaxshiliklar qilmoqchi bo‘ladi. Romanda bir odamning turfa qi-yofalari namoyon bo‘lgan mana shu holatlar g‘oyat ishonarli va ta’sirli aks ettirilgan.

“Ko‘hna dunyo” romani boshdan-oyoq bahs ruhi bilan tug‘orilgan. Lekin bahs turlicha qarashdagi odamlar orasidagina emas, balki har bir odamning o‘zi bilan nafs o‘rtasida kechadi. Yozuvchi tinimsiz o‘ylanadigan, iztirob chekadigan, qiynaladigan kishilar timsolini katta mahorat bilan ko‘rsata olgan. Asardagi har bir personaj qalbida keskin ruhiy drama kechadi, har bir qahramon o‘zi bilan o‘zi olishadi. Har bir qalb dramasi – o‘ziga xos, ifoda tarzi – betakror. Romanda personajlardan tashqari, ikki hikoyachi shaxs: muallif va Abu Ubayd al-Juzjoniy ishtirok qiladi. Ibn Sino bilan bog‘liq voqealar ko‘proq Juzjoniy xotiralari tarzida, qolgan personajlarga tegishli tafsilotlar muallif tasviri orqali beriladi.

Romanda juda ko‘plab qadriyatlarga ilk bor sog‘lom baho berilgan. Shu jumladan, xalq va uning fikr tarziga ham original yondashilgan. Chunonchi, qo‘l ostidagi elatga zug‘um qilgan kelgindi podsho haqidagi rivoyatda aytilgan: **“Agar men bu odamlarga zulm qilgan bo‘lsam, gumrohligi va nodonligi uchun shunday qildim. Agar bular nodon bo‘lmasa, xudoning aqlsiz bir maxluqiga inonib kaminani taxtga ko‘tarishmas edi! Beaqil maxluqqa inonib meni poshsho qilishgan ekan, rahm-shafqat ne darkor bularga? Dono poshsho donolarga loyiqdur! Nodonlarga nodon poshsho yarashur!”** tarzidagi qarashlar zamirida salmoqli estetik yukdan tashqari ulkan ijtimoiy ma’no ham yashirinib yotibdi. O.Yoqubov ushbu roman tasvirida adabiy mis-ufikatsiyadan foydalangan holda ish ko‘radi.

“Ulug‘bek xazinasi” romani O.Yoqubov ijodida ham, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutgan asardir. Bu roman tasvirning shiddati, obrazlar ruhiyatidagi tug‘yonlarning qabariq tasvirlanganligi, timsollar tabiatining ishonarli ochilganligi bilan e’tiborga loyiqdir. Darslikda berilgan parcha to‘rt qismga bo‘lingan. O‘qituvchi hech bo‘lmasa a’lochi o‘quvchilarning faqat darslikdagi parchani emas, balki butun romanni to‘liq o‘qib chiqishlariga erishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki olingan parcha asar haqida bir qadar tasavvur beradi, lekin uning ba-

diy tarovatini to'liq aks ettira olmaydi. Shuning uchun ham juda bo'lmasa, bir qism o'quvchilarning romanni to'liq o'qib chiqishiga erishish muhim.

Asarda Ulug'bek hayotining o'ta qaltis bir davri qalamga olinib, ana shu sharoitda bosh qahramonning ruhiy qiyofasi ochiladi. Garchi, Ulug'bek biz uchun asosan ulkan olim sifatida ma'lum bo'lsa-da, uning hukmdor, ota va erkak sifatidagi qirralari ham bo'lgan va bu jihatlar romanda katta mahorat bilan aks ettirilgan. O'ychil, fikrchan odamga yashash hamisha qiyin. Asarda Ulug'bekning ayni shu qirralari teran tasvir etilgan. Atrofida ro'y berayotgan har bir hodisa Ulug'bek Mirzo ruhiyatida aks-sado beradi. Romanda qirq yil saltanat surgan hukmdorning qandaydir daqiqalar ichida hokimiyatdan mahrum bo'lishi, butun ongli umrini o'tkazgan, uni obod qilish uchun tinim bilmagan Mirzoning o'z poytaxti bo'lgan Samarqandga kiritilmasligi uni ulkan iztiroblar girdobiga tashlagani chuqur badiiy tadqiq qilingan.

Yozuvchining mahorati shundaki, ana shunday holatga tushgan, hadsiz iztiroblar qurshovida o'rtanayotgan shaxsning tuyg'ularini haqqoniy va ta'sirli aks ettirgan. Adib Ulug'bek Mirzoni yengilmas va qo'rqmas afsonaviy qahramon sifatida tasvirlamaydi. U o'quvchi ko'z o'ngida o'z o'g'li tomonidan taxtdan tushirilgan, shogirdlari tomonidan tashlab ketilgan, o'z mamlakatidan quvilgan, hatto joniga qasd qilingan odamning haqoratlangan tuyg'ulari, toptalgan ishonchlari tufayli junbushga kelgan ruhiy tug'yonlari butun haqqoniyliги bilan yaqqol namoyon bo'lgan.

Asarda yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga odatlangan Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Temur Samarqandiy timsollari ham o'ziga xos va esda qolarli qilib tasvirlangan. Yozuvchining mahorati har bir obrazni o'z tabiatiga monand xatti-harakat qildirib olishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, qilni qirq yoradigan olim, osmon jismlari sirini biladigan mutafakkir, lekin odamlar munofiqligiga darajasini bilolmaydigan, oddiy shumliklarni qilolmaydigan Ali Qushchining xazinani eng oson topiladigan joyga berkitishida uning tabiatidagi to'g'rilik, quvlik-shumlikdan yiroqlik namoyon bo'ladi. Qalandar Qarnoqiyning esa qiyinchiliklarda

oddon toblangan, qora kuchlarning yovuzligiga tilasin kuch bilan, tilasin tadbir bilan qarshi tura oladigan, ammo ezgulikka ezgulik bilan javob berishga hamisha shay bo'lgan jo'mard yigittligi esdan chiqmaydigan qilib tasvirlanadi.

Shuningdek, "Ulug'bek xazinasi" romanida padarkush Abdullatif timsoli ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Odatda, badiiy asarlarda yomon xatti-harakatga qo'l uradigan timsollar juda yovuz, hech qanday yomonlikdan tap tortmaydigan, odamlarga qanday bo'lsa-da, yomonlik qilishdan boshqa narsani o'ylamaydigan vahshiy qiyofasida tasvir etiladi. Ammo O.Yoqubov boshqacha yo'l tutadi. U Abdullatifni ham el qatori bir odam, bir qancha fazilatlariga ega yigit, qo'yan qadamining to'g'ri-noto'g'riligini o'ylayverib qiynalib ketgan hukmdor sifatida tasvirlaydi. U – yomonlik qilib zavqlanganidan yirtqich emas, balki o'zi tushib qolgan, ehtimol, o'zi tayyorlagan chigal vaziyatning quli, nosog'lom niyatlarning ijodkori va qurboni sifatida tasvirlangan. Badiiy timsolga bunday yondashuv o'quvchilarni hayotning serqirraligini sezish va tiriklikning biryoqlama emasligini tushunishga olib keladi. Bu hol o'quvchi shaxsining kamolotiga xizmat qiladi.

Ushbu romanni o'rganishda sharhli o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki romandagi voqealar saroy va uning atrofida kechgani, voqealarning qatnashchilari esa yo saroy ahli, yoxud ilm kishilari, yoki shariat ulamolari bo'lganliklari uchun ham obrazlarning tili tamomila o'ziga xos. Buning ustiga, ko'pgina o'rinlarda personajlar ramz-u ishora hamda tagma'no bilan ko'zlashishgan. O'qituvchining davomiy sharhisiz asarni anglash qiyin kechadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sharhli o'qishning didaktik mohiyatini anglatning.
2. Sharhli o'qishning turlariga to'xtaling.
3. Sharhli o'qishni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishning sababini izohlang.
4. Ko'rkam adabiyot namunalarini tushuntirishda sharhli o'qishning o'zmi qandayligini anglatning.

Reja:

1. Badiiy asarni o'zlashtirishda ifodali o'qishning o'rni.
2. Ifodali o'qish – estetik tarbiya vositasi.
3. Ifodali o'qish – adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlash omili.
4. Badiiy asarlarni ifodali o'qish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Ifodali o'qish, ifodali o'qish va deklomatsiya, ifodali o'qish – badiiy matnni anglash kaliti, ifodali o'qish – ma'naviyat shakllantirish omili, ifodali o'qishga o'rgatish yo'llari, lirik asarlarni ifodali o'qish, nasriy asarlarni ifodali o'qish.

Har qanday badiiy matnni o'rganish uni o'qishdan boshlanadi. O'qishning qandayligi o'quvchida badiiy asarga munosabatni shakllantiradi. Chunki asarda aks etgan insoniy sezim va tuyg'ular o'quvchiga yetib boradigan tarzda o'qilgandagina badiiy asar muayyan qiymat kasb etadi. Aks holda har qanday ko'rkam matn shunchaki harflar yoxud tovushlar yig'indisidagina iborat bo'lib qoladi. Shuning uchun ham adabiy ta'limda ifodali o'qish o'ta muhim o'rin tutadi. Ayni vaqtda, ifodali o'qish adabiy ta'limdagi asosiy va yagona didaktik tadbir emasligi o'qituvchining yodida turishi lozim. Amaliyotda ifodali o'qishga ortiqcha e'tibor qaratilgan holatlar mavjud.

Ma'lumki, o'tmishda Turkistondagi madrasalarda ifodali o'qishga katta ahamiyat berilgan. Bundan o'nlab asrlar oldin maktab va madrasalarda adabiy ta'limning vazifasi, asosan, aruz vaznidagi asarlarni ifodali o'qib, ularga filologik sharhlar berishdan iborat bo'lgan. Bu hol talabalarning badiiy asardan oladigan zavqini kuchaytirib, uni tushunishni osonlashtirardi.

Barkamol insonni tarbiyalash vositalari orasida adabiyot o'qitish old o'rinlardan birini egallaydi. Odamning kamolot yo'liga kirishida badiiy adabiyot bilan oshno bo'lish, uni chuqur his qilish, badiiy matnda aks ettirilgan tuyg'ularni anglay bilish muhim

o'rin tutadi. Go'zallikdan lazzatlana olish, tabiatning chiroyli ko'rinishi oldida lol qolish, cheksiz olijanoblikdan hayratlana bilish ezgu odamga xos fazilatlaridir. Shunday fazilatlar egasi xunuklik, olchoqlik va yomonlik oldidan beparvo o'tib keta olmaydi. Insonda ezgulik uchun amalda intilish tuyg'usini tarbiyalovchi kurashchan estetika shu tariqa paydo bo'ladi. Shuning uchun ham maktabda adabiyot o'qitishda o'quvchilarni badiiy asarlarni tushunishdan tashqari, uni chuqur his qiladigan tarzda tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Adabiyot o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda komil insonga xos axloqiy-ma'naviy sifatlarni qaror toptirishdan iboratdir. Agar millat ahlining, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarning ma'naviy tarbiyasida kamchilik mavjud ekan, bunda adabiyot o'qitishdagi nuqsonlarning ham ta'siri bor.

Bugungi kungacha ham jamoatchilikda o'quvchilarga badiiy asarlarni o'qitish va tahlil qildirishdan ko'ra, adabiyot haqdagi nazariyamo ma'lumotlarni o'rgatish muhimroq, degan yondashuv ustuvor maqomda turibdi. Negaki qandaydir tushunchalarni yodlash test yechishda qo'l kelar emish. Adabiyot o'qituvchilarining ko'pchiligi esa dars o'tishdan maqsad o'rganiladigan asar g'oyasini bildirish, deb hisoblashga moyil. Ular: bu asari bilan falon adib, falon davrdagi hayotni mana bunday ifodalaydi, manovi she'ri bilan pismadon shoir mehnatkashlar turmushini ana unday ko'rsatadi, bu asari bilan esa muallif siz o'quvchilarni bunday fazilatlarini egallashga chaqiradi qabilidagi xulosalarni bildirishni muhim sanashadi. Shu sababdan ham o'rganiladigan asarlar turli-tuman bo'lishiga qaramay, ularning tahlili bir-biridan kam farq qiladi. Chunki o'rgatilayotgan asardan badiiyat, tasvirning betakrorligi emas, balki umumlashtiruvchi g'oya qidiriladi. Bunday yondashuv sabab o'quvchilarga ko'pchilik badiiy asarlar bir qolipdan chiqqanday bo'lib tuyuladi va ularni o'qib o'tirmay ham u haqda fikr aytish mumkin degan qarash hosil bo'ladi. Bu hol o'quvchining badiiy asarga qiziqishini so'ndiradi. Adabiy asardan lazzatlanish, undagi badiiylikni ta'minlagan omillar va so'zlar tovlanishini sezishni qiyinlashtiradi.

Bunday holatlarni bartaraf etishda adabiy asarni ifodali o'qishning alohida ahamiyati bor. Ifodali o'qish, ayniqsa, 5–8-sinflarda asarning emotsional ta'sir kuchini sezdirish, uni o'quvchilarning ko'ngil mulkiga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Negaki bu davrda o'quvchilarda olam hodisalariga hissiy munosabat ustuvorlik qiladi. Bu yoshdagi o'smirlar dunyo holatini o'z shaxsiyatlari orqali qabul qilishadi. Ularga bevosita tegishli bo'lgan narsalargina bolalarni bezovta qiladi, loqaydlikdan chiqaradi. Aytish kerakki, tuyg'u tarbiyasi, garchi, bir umr davom etsa-da, faqat o'smirlik yoshida katta samara beradi. Chunki bu yoshda shaxsning hissiyot tizimi shakllanayotgan bo'ladi. Hissiyoti boy odamgina yuksak tuyg'uni tuyishi mumkin. Ifodali o'qish badiiy matnning o'quvchilar tomonidan hissiy qabul qilinishini ta'minlashi bilan diqqatga molikdir.

Shuningdek, o'quvchilarning tashqi ta'sirlarga tez berilishi, diqqatining bo'linuvchanligi, bir xillikni yoqtirmasligi, tovlanishlarga o'chligi adabiyot darslarini uyushtirishda ifodali o'qishning ahamiyati kattaligini belgilaydi. Chunki har qanday badiiy asar bilan o'quvchilar o'qish orqali tanishadilar. Shunday ekan, bu o'qishning imkon qadar, ifodali bo'lishiga erishish g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham badiiy asar o'qishning joyiga qarab a) **uyda o'qish**; b) **sinfda o'qish** kabi turlari bor. Shuningdek, o'qishning yo'siniga qarab a) **ichda o'qish**; b) **ovoz chiqarib o'qish** kabi shakllari ham mavjud. Muhimi shundaki, har qanday joydagi va shakldagi o'qish ifodali bo'lishi lozim. Negaki ifodali o'qilmagan asar his qilinmagan, tushunilmagan, binobarin, o'zlashtirilmagan matn bo'lib qolaveradi. Ba'zan matn ko'z bilan ko'rib ketilaveradi, ammo nimani o'qiyotgani tushunilmaydi, chunki matn ifodali o'qilmayotgan, binobarin, o'quvchining sezgilariga ta'sir qilmayotgan bo'ladi. Ifodali o'qilgan matngina o'zlashtiriladi. Negaki ifodali o'qish o'quvchi tuyg'usi ko'zini ochadi, tuyg'uga tayangan intellektgina ijodiy xarakterga ega bo'ladi.

O'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatmoqchi bo'lgan adabiyot o'qituvchisi, birinchi navbatda, o'zi ifodali o'qiy oladigan

bo'lishi kerak. Ma'lumki, badiiy asarlar tur va janr xususiyatlariga ko'ragina emas, balki hajm va xarakter jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Binobarin, ular o'ziga mos ohangda o'qilishi lozim. Aks holda, asar his etilmaydi, demakki, o'zlashtirilmaydi.

Ifodali o'qish deyilganda tinish belgilari va mantiqiy urg'uni o'rinni qo'llash, diksiya va talaffuz tiniqligi, ovoz jarangdorligini ta'minlashgina emas, balki birinchi navbatda, asar ruhini his etish, uning zamiriga muallif joylagan mazmunni anglatadigan ifodani topa bilish ko'zda tutilmog'i zarur. Bu haqda mashhur metodistlar shunday fikr bildirishadi: "*...ifodali o'qishning ohangini tekst mazmunidan ta'sirlanish yo'li bilan belgilash ma'qu'l*"⁸⁴. Demak, ifoda yo'sini o'qiyotgan kishi tomonidan tavakkaliga belgilanmasligi, balki matnning tabiatidan keltirib chiqarilishi kerak ekan. Shundan kelib chiqib, *ifodali o'qish asarning mazmuni, muallif yoki personajlar ruhiy holatini o'zi va o'zgalarning sezimlariga yetib boradigan yo'sinda o'qishdir* tarzida ta'rif berish mumkin.

Ifodali o'qish o'rganilayotgan badiiy asarni emotsional idrok etishga xizmat qilgani uchun ham estetik tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Ifodali o'qilgan asar u yoki bu narsa haqida ma'lumot beribgina qolmay, o'quvchining tuyg'ulariga ham ta'sir qiladi. Bola muallif holatini tuyadi, his qiladi. A.Qahhor joyiga keltirib aytganidek: "*Bilgan bilib qo'ya berishi mumkin, ammo his qilgan his qilib qo'yavermaydi*". Ifodali o'qish asar mazmunini chuqur va emotsional anglatadigan, shu yo'l bilan o'quvchilarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim o'rin tutadigan vositadir.

Ifodali o'qish faqat estetik va ma'naviy tarbiya vositasigina bo'lib qolmay, bilim olish yo'li hamdir. Joyiga qo'yib, ifodali o'qilgan matn o'quvchilarga tezroq yetib boradi va ularning xotirasidan mustahkamroq joy oladi. Ruhshunoslarning aytishicha, tuyg'ular junbishi yuz berganda, kishi miyasining o'zlashtirish imkoniyati bir necha baravarga ortadi.

⁸⁴ Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. I: "O'qituvchi", 1967. 91-bet.

O'quvchilarning o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini zamonaviy adabiyotga nisbatan qiyinroq o'zlashtirishlarining bosh sabablaridan biri shuki, o'qituvchilar orasida mumtoz asarlarni to'liq tushunib va joyiga qo'yib o'qiydiganlari, ya'ni ularni o'quvchilar shuuri va tuyg'ulariga ta'sir etadigan yo'sinda yetkazib bera oladiganlari juda kam. Shu boisdan ham o'quvchilar klassik asarlarni his qilmaydilar, his qilmaganliklari uchun ijodkor tushgan holatga tushmaydilar, binobarin, ularni tushunmaydilar. Shu boisdan ham barcha sinflarda ifodali o'qish adabiyotni o'zlashtirishning asosi deb qaralmog'i kerak.

Ifodali o'qishda o'qituvchi shaxsi hal qiluvchi o'rin tutadi. O'qituvchining o'zi biron-bir kamchiliksiz ifodali o'qiy bilmas ekan, adabiyot darslaridan kuzatilgan maqsad ro'yobga chiqmaydi.

O'rgatiladigan asarlarni ifodali o'qishda ularning janr xususiyatlariga e'tibor qilish muhim ahamiyatga ega. She'riy asarlar o'qilganda a) ritm; b) misralardagi bo'g'in yoki hijolar soni; v) qofiyaga e'tibor berilishi kerak. Lirik asarlar o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qilishi g'oyat muhimdir. O'quvchilar o'zbek tilida urg'uning turg'unligi va deyarli hamisha so'z oxiridagi unliga tushishi qoidasini o'rganib olishsa, ifodali o'qish bir qadar osonlashadi. **"Qiz+lar+i+miz+dan+mi+kin+a?"** so'zidagi sakkiz morfem butunlikda o'zbek tilida urg'uning so'z oxiriga qarab siljishi hodisasining doimiyliги yaqqol ko'zga tashlanadi. She'riy asarlar ifodali o'qilganda ko'tarinkilik yoxud tushkunlik kayfiyati yuzaga kelishiga, o'quvchining ruhiy muvozanatdan chiqishiga e'tibor qaratilishi lozim.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishda muallif nutqi bilan har bir personaj nutqini farqlash muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olish kerak. Bunda asar syujet chizig'i rivojiga ta'sir qilinadigan o'rinlar, har bir personajning qiyofasi namoyon bo'ladigan jihatlarga urg'u berishga e'tibor qaratilishi zarur.

Dramatik asarlar o'qilganda har bir personajning ruhiy qiyofasiga mos ohang topilishi, shuningdek, remarka va sahna bezaklari tasviridagi nozik jihatlarni nazardan qochirmaslik katta ahamiyat kasb etadi. Ana shu holatlar hisobga olinsa, ifodali o'qish samarali bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ifodali o'qish tushunchasining mohiyatini sharhlang.
2. Mumtoz adabiy bitiklarni ifodali o'qishda nimalarga e'tibor qarata olish kerak?
3. She'riy ko'rkam yaratma qay yo'sinda ifodali o'qiladi?
4. Nasriy asarlarni ifodali o'qishda nimalarga diqqat qaratish kerakligini tushuntiring.
5. Badiiy asarlarni ifodali o'qish va ularni tushunish o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

ADABIYOT O'QITISHDA KO'RSATMALI QUROL HAMDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH

Reja:

1. Ko'rsatmalilik – ta'limning yetakchi tamoyillaridan biri.
2. Adabiy materiallarni o'zlashtirishda ko'rsatma qurolning o'rni.
3. Ko'rsatma qurollarning turlari va ulardan foydalanish yo'llari.
4. Adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishda texnika vositalardan foydalanish.
5. Adabiyot saboqlari samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining o'rni.

Tayanch tushunchalar:

O'qitishda ko'rsatmalilik – bilish nazariyasi talabi, ko'rgazmali qurol emas, balki "ko'rsatmali qurol" ekanining sababi, ko'rsatmali qurollarning turlari, tabiiy ko'rsatmalilik, tasviriy ko'rsatmalilik, grafik ko'rsatmalilik, so'z ko'rsatmaliligi, texnik vositalar, multimedia vositalari.

Ko'rsatmalilik didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil amaliyotchi pedagog yoki metodist olimlarning istagi natijasi bo'lmay, balki o'quvchining olam hodisalarini bilish jarayonidagi o'ziga xoslikdan kelib chiqadi. Chunki odam olamni birinchi navbatda sezgi mucha (organ)lari orqali idrok eta-

di. Shuningdek, ko‘z orqali qabul qilingan axborotlar odam yodida uzoq saqlanib qolishi ruhshunoslar tomonidan isbotlangan.

Majburiy ta‘lim muassasalarining o‘quvchilari, ayniqsa, o‘smir yoshidagi maktab bolalari bilishning hissiy bosqichini boshdan kechirayotgan bo‘lishadi, ya‘ni bu yoshdagi bolalar sezgi muchalariga bevosita ta‘sir etgan narsa-hodisalarni yaxshiroq idrok etish xususiyatiga ega bo‘ladilar. Shu boisdan adabiyot darslarida ham o‘rni bilan ko‘rsatmali qurollardan foydalanish kutilgan didaktik samarani berishi mumkin. Ammo adabiyotning butun mohiyati so‘z orqali yuzaga chiqadigan, joziba qudrati so‘zda mujassam bo‘ladigan san‘at ekanligidan kelib chiqib, ko‘rsatma qurollarni ishlatish suiste‘mol qilinmasligi ham kerak. Chunki adabiyot mashg‘ulotlarini kerak-nokerak sxemalar, chizma va rasmlar bilan to‘ldirib tashlash kutilganidan teskari samara berishi ham mumkin.

Shu o‘rinda o‘qitish tajribasida “ko‘rsatma qurol” tushunchasi “ko‘rgazmali qurol” tarzida noto‘g‘ri qo‘llanilishiga e‘tibor qaratish lozim. “Ko‘rgazma” tushunchasi maxsus bir joyga muayyan vaqt oralig‘iga ishlab chiqarish, madaniy saviyani oshirish, ayrim tovar turlari savdosini yo‘lga qo‘yish singari maqsadlarda odamlar tomonidan istalganda ko‘rib ketish uchun qo‘yib qo‘yiladigan ashyolar yig‘masini yoki ular turadigan joyni anglatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘rgazma so‘zi **“Ko‘rish, tomosha qilish uchun qo‘yilgan narsalar va shu narsalar qo‘yilgan joy”** tarzida izohlangan⁸⁵. “Kitob ko‘rgazmasi”, “texnika ko‘rgazmasi”, “o‘quv jihozlari ko‘rgazmasi” va bq. atamalar ham bu fikrning to‘g‘riligiga dalil bo‘ladi.

O‘qitish kechimining biror bosqichida o‘quvchilarning ta‘limiy faolligini oshirishda foydalanishga mo‘ljallab tayyorlangan didaktik vositalar esa, aynan o‘quvchilarga **ko‘rsatilib**, ularda muayyan hissiyot uyg‘otish va tasavvur hosil qilish orqali bilim shakllantirishga, ya‘ni pedagogik maqsadga qaratilgani uchun ham **ko‘rsatma qurol** tarzida atalishi mantiqqa muvofiq bo‘ladi. Tilimizda shunga yaqinroq ma‘nolarni ifodalash uchun “buyurt-

⁸⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006. 466-bet.

ma kiyim”, “tarqatma material”, “qaynatma sho’rva”, “qovurma sho’rva” tarzidagi birikmalar ishlatiladi. Ya’ni bu xil birikmalar uchun aniqlovchi emas, balki aniqlanmish muhimligi sezilib turadi. Asosiy gap qurol haqida ekani va uning otish yoki ko’rgazish uchun emas, balki aynan “ko’rsatish” uchun qo’llanilishi ko’zda tutilgani “ko’rsatmali qurol” atamasini keltirib chiqaradi.

O’zbek adabiyot o’qitish metodikasi ilmining ilk yirik vakillari: S.Dolimov, H.Ubaydullaev va Q.Ahmedovlar tomonidan tayyorlangan birinchi “Adabiyot o’qitish metodikasi” darsligida ham bu tushuncha “**adabiyot o’qitishda ko’rsatmalilik**”, “**ko’rsatma qurol**”, “**ko’rsatma material**” tarzida qo’llanilgan⁸⁶.

Ta’limda ko’rsatmalilik masalasi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) “Buyuk didaktika” (1638), “Rasmlardagi seziladigan narsalar olami” (1658) singari kitoblarida ilk bor ilmiy asoslab berildi. Bu qarashlar shvetsariyalik demokrat pedagog Iogann Genrix Pestalotssining (1746-1827) “Lingard va Gertruda” (1787), “Gertruda o’z bolalarini qanday o’qitadi” (1801), “Oqqush qo’shig’i” (1826) kabi asarlarida yanada rivojlantirildi. Ta’limda ko’rsatmalilik masalasi tadqiqiga rus pedagogi K. D. Ushinskiy (1824-1871) o’zining “Bolalar dunyosi” (1861), “Odam tarbiya predmeti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi” (1869) asarlari bilan ulkan hissa qo’shganligini ham ta’kidlash kerak. Bolalarning yosh xususiyatlari va ularning turli bosqichdagi bilish faoliyatini puxta o’rgangan K.Ushinskiy o’z asarlarida ta’lim kechimi mavhum so’zga emas, konkret obrazga tayangan holda olib borilganda ko’proq samara berishini obrazli qilib: “*Darsga olib kirilgan surat soqov bolani ham gapirtirib ruboradi*”, – tarzida ifodalagan.

Mumtoz pedagog-olimlarning qarashlarini hozirgi zamon tarbiyashunoslarining tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Bilish jarayonining bosqichlari tabiiy ravishda ta’lim ko’rsatmali bo’lishini taqozo qiladi. Ko’rsatma qurollar, ayniqsa, boshlang’ich va 5–9-sinflar adabiy ta’limida ko’proq qo’llanilishi kerak. Chunki kichik

⁸⁶ Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o’qitish metodikasi. T. “O’qituvchi”, 1967. 198–202-b.

va o'rta o'quvchilar har qanday bilimni, asosan, hissiyot va tasavvurga tayanib o'zlashtirishadi. Kichik o'quvchilar va o'smirlar uchun ularning sezgilariga ta'sir qilib, tasavvurini kengaytirish orqali fikrlashga undaydigan eng samarali didaktik vosita ko'rsatma qurollardir.

Aslida, har qanday badiiy asarning o'zi voqelikning jonli manzaralarini aks ettirganligi bilan real hayotga nisbatan ko'rsatmali quroldir. Lekin shunday holatlar ham bo'ladiki, yo hayotning o'zidagi biror ashyo yoki san'atning boshqa turiga doir biror asar, yoxud inson tomonidan yaratilgan biror narsa-predmet adabiy matnning o'quvchilar tomonidan to'laroq o'zlashtirilishiga xizmat qilishi mumkin. Shunday holatlar adabiyot bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ham uchraydi va o'shanda ko'rsatmalilik katta didaktik ahamiyat kasb etadi.

Darsda va saboqdan tashqari mashg'ulotlarda ko'rsatma qurollardan foydalanish bir-biridan jiddiy farq qiladi. Darsdan tashqari adabiy mashg'ulotlarda o'quvchilarning biror san'at turi borasidagi tasavvurlarini kengaytirish, yo biror badiiy asar yuzasidan tayyorlangan kinofilm, videofilm, spektakl, tasviriy san'at asari qanday chiqqanligini bilish maqsadida turli ko'rsatmalardan foydalanish mumkin. Bunday ko'rsatma qurollar, shubhasiz, katta didaktik samara keltiradi.

Adabiyot saboqlarida esa ko'rsatma qurol o'rgatilayotgan badiiy asarning o'quvchilar tomonidan to'laroq o'zlashtirilishiga bevosita xizmat qiladigan darajada va shunga kerakli miqdorda bo'lgandagina foyda keltiradi. Gap shundaki, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ko'rsatma qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, darsda esa ko'rsatma qurol faqat kerakli miqdorda va yuqori sifatga ega bo'lsagina foyda keltiradi.

Metodik adabiyotlarda badiiy asarni o'zlashtirish kechimida ko'rsatma qurollardan foydalanishda o'quvchilarning **faol** va **no-faol** ishtiroki o'zaro farq qilishi aytiladi⁸⁷. **Faol ishtirok** deyilganda, ko'rsatma qurollarning o'quvchilar sezgilari va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularni qo'zg'ashi, munosabat uyg'otishi,

⁸⁷ Резь З. и др. Методика преподавания литературы. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 329.

muhokamaga chorlashi kabi jihatlar ko'zda tutiladi. Biror badiiy asar yuzasidan ishlangan rangtasvir asari, tayyorlangan spektakl yoki videofilm, telefilm, kinofilm kabi ko'rsatmalar o'quvchilarda, albatta, munosabat uyg'otadi. Bu xil ko'rsatmali qurollar o'quvchilardan faollik talab qilib, matn bilan ko'rsatma o'rtasidagi bog'liqlikni topishga undaydi.

Nofaol ishtirok shunday ko'rsatma qurollardan foydalanilganda ro'y beradiki, ular qabul qilinayotgan kechimda muhokama-munozara emas, balki passiv, ammo jiddiy idrok jarayoni taqozo etiladi. Shunday qilinganda ko'rsatmaning didaktik ahamiyati darhol munosabat uyg'otgandagidan ko'ra kuchliroq bo'lishi ham mumkin. Chunonchi, Boburning "Bahor ayyomida" deb boshlanadigan g'azaliga yozilgan ulug'vor musiqa va shu asosda Sherali Jo'rayev tomonidan tengsiz mahorat bilan aytilgan qo'shiq o'quvchilarda muayyan kayfiyat uyg'otishining o'zi bilan shu asarning tushunilishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. G'azalning o'zini emas, musiqa va qo'shiqni muhokama qilish vaqtni isrof qilishga, hatto taassurotni jo'nlashtirishga olib kelishi ham mumkin. Aytilganlardan anglashiladiki, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda ko'rsatmalarning faol yoki nofaol xarakterda ekani emas, balki ularning mohiyati katta o'rin tutadi.

Zamonaviy metodika ilmida ko'rsatma qurollarning turlari har xil tasnif qilinadi. Chunonchi, rus metodist olimlari: T.V.Chirkovskaya va N.A.Stanchek "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida ko'rsatmali qurollarni ularning qaysi sezgi muchasi bilan qabul qilinishiga asoslanib 1) ko'riladigan ko'rsatma qurollar; 2) eshitiladigan ko'rsatma qurollar; 3) aralash ko'rsatma qurollar tarzida uch katta guruhga bo'lishadi⁸⁸. Umuman olganda, muayyan ilmiy asosga ega bo'lgan bu tasnifdan adabiy ta'lim amaliyotida foydalanish mumkin.

Ta'kidlash joizki, o'z vaqtida rus metodisti V. Golubkov haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek: "*Badiiy asarni to'la va yaxlit tushunish uchun faqat konkretlashtirish emas, balki o'rni bi-*

⁸⁸ Резь З. и др. Методика преподавания литературы. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 331-333.

diy asar matnidagi tasvirlarni chog'ishtirish orqali o'zlarining bu boradagi tushunchalarini kengaytirib boradilar.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Cho'lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Navoiy", "Qutlug' qon", O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" singari asarlari o'rganilayotganda tasviriy ko'rsatmalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Grafik ko'rsatma quollar ijtimoiy-estetik yoki adabiy-badiiy bosqichlar, adabiy yoki ijodiy jarayon, ayrim adabiy personajlarning tabiatida kechgan o'zgarish, evrilish kechimplari aks etgan chizma va jadvallarni o'z ichiga oladi.

Adabiyot mashg'ulotlarida adabiy davrlar va ularning ichki bo'linishlari, adiblarning hayot yo'li, ijod bosqichlari, yaratgan asarlari, ularning xronologiya yoki janrlar asosidagi tasnifi berilgan ma'lumotlar grafik yo'sinda aks ettiriladi. Bu turdagi chizma va jadvallar, garchi, o'quvchilarning hissiyotiga kuchli ta'sir etmasalar-da, adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirishda bir emas, ikki sezgi muchasi birvarakayiga qatnashishini ta'minlashi bilan bilimlarning mustahkamroq bo'lishiga olib keladi.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, ko'rsatmali qurollarning sinf xonasiga olib kirilishining o'zi hali uning pedagogik samara keltirishi uchun kafolat bo'la olmaydi. O'qituvchi har bir ko'rsatma qurolning samarali ishlashini ta'minlay olishi kerak. Adabiyot muallimidan ko'rsatma qurollarni o'rgatilayotgan badiiy asarning tabiati va sinfdagi o'quvchilarning tayyorlik darajalaridan kelib chiqqan holda qo'llay bilish talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida muayyan matn yuzasidan tayyorlangan ko'rsatmadan foydalanish bo'yicha alohida savol-topshiriqlar tuzishi va ko'rsatmani badiiy asar mohiyatini ochish kalitiga aylantirish yo'lini topishi lozim bo'ladi. Bu savol-topshiriqlar o'quvchilar bilimini faollashtiradigan, ularni matnning mohiyatini anglashga yaqinlashtiradigan yo'sinda tuzilishi kerak.

So'z ko'rsatmaliligi adabiyot o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan va katta samara beradigan ko'rsatma qurol turidir. Bu ko'rsatma qurol har bir adabiyot o'qituvchisiga tabiat tomonidan

muayyan miqdorda berilgan, oliy adabiy ta'lim yo'li bilan ma'lum darajada takomillashtirilgan bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisi hamisha o'zi bilan birga yuradigan bu qurolni kamolotga yetkazib, undan foydalanish samaradorligini tinimsiz ravishda oshirib borishga urinishi lozim. Shundagina bunday o'qituvchi o'tgan mashg'ulotlar ta'sirli hamda o'rganilayotgan badiiy asar shunchalik o'zlashtiriladigan matn emas, balki o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladigan yaratiqqa aylanadi.

Aslida adabiyot darslarida so'zdan ta'sirliroq ko'rsatma bo'lishi mumkin emas. Ammo so'zning qudratidan o'qituvchi omilkorlik bilan foydalanib, so'z yordamida o'quvchilarning tuyg'ularini junbishga keltiradigan vaziyatlar yarata bilsagina, u kutilgan samarani beradi. Chunki har qanday yuqori saviyali ko'rkam asar bezovta bo'lgan tuyg'ular mahsuli o'laroq, o'quvchilarning tuyg'ularini ham muvozanatdan chiqargandagina teran anglanadi. So'zning jozibasini anglatish uchun o'quvchilar tafakkuri va yuragiga jozibali so'z bilan ta'sir ko'rsata bilish lozim.

Ayrim o'qituvchilar so'z ko'rsatmaliligini ifodali o'qishdagina iborat, deb tushunishadiki, bu juda ham yanglish yondashuvdir. Chunki badiiy asar matnini chiroyli talaffuz qilishning o'zi uning mohiyatini oydinlashtira olmaydi. Muhimi, o'qituvchi aniq, ta'sirli, o'quvchilar ko'ngliga yetib boradigan nutqi yordamida o'quvchilar o'rganayotgan badiiy asarning bolalar shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlarini urg'ulay bilishi lozim. Shundagina muallim o'rgatilayotgan badiiy asarning mohiyatini teran anglatishga, undagi yashirin jihatlarini tuydirishga, ko'rkam so'zdan barcha o'quvchilarni ta'sirlantirishga erisha oladi.

Ilm-fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas, tasavvur qamray olmas darajada shiddat bilan borayotgan hozirgi davrda adabiyot darslarida **texnik vositalardan** foydalanish ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Texnikaning imkoniyatlari ortib borgan sari u o'quv jarayoniga chuqurroq kirib boraveradi. Kelajakda o'qitish kechimini texnologik ta'lim sifatida yo'lga qo'yish kerakligi to'g'risida fikrlar bildirilmoqda. Binobarin, so'z ta'sirchanligiga asoslangan adabiy ta'limga ham texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish zamonning talabidir. Chunki o'quv texnikalari badiiy so'zni hissiy obrazga

aylantirish, o'quvchilarning bir necha sezgi muchalariga bir yo'l ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Bu hol ta'limning sifatini oshirishda qo'l keladi.

Videovositalar, televizor, magnitofon, radiola singari ashyolar, bevosita adabiyotga doir ko'rsatmalilikni ta'minlaydigan o'quv filmlari ham ma'lum didaktik ahamiyatga egadir. Ulardan o'rinli foydalanish, ta'lim jarayonining so'zdangina iborat bir xilligiga rang-baranglik kiritib, o'qitish kechimining qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ilm-u fanning keyingi yillardagi taraqqiyoti natijasida ta'lim kechimiga **multimedia** vositalari ham kirib keldi. Bu atama lotincha **multum** – ko'p va **media** – vosita so'zlari qo'shiluvidan kelib chiqqan bo'lib, o'z ichiga matn, tovush, grafika, videotasvir hamda animatsiya shaklidagi axborotlarni qamrab oladigan ta'lim vositasidir. Multimedia yordamida ta'lim oluvchilar bilan interfaol munosabat o'rnatiladi. Multimedia vositalarining 1) tilga o'rgatish maqsadida tashkil etilgan maxsus kompyuter kurslari; 2) madaniyat, san'at va tarixga doir mashg'ulotlarda qo'llash mumkin bo'lgan kompakt-disklar; 3) ko'rsatish uchun o'qituvchi tomonidan mustaqil tayyorlanadigan va multimediya taqdimoti, deb ataladigan o'quv materiallari tizimi singari uch turi keng tarqalgani aytiladi⁹⁰.

Multimedia kompyuter orqali matn, tovush, grafika, animatsiya, raqamga aylantirilgan harakatsiz tasvir, videotasvir shaklidagi ma'lumotlarni kiritish, ishlov berish, saqlab qo'yish, uzatish va ko'rsatish imkonini beruvchi texnologiyalar yig'indisidir.

Bundan o'ttiz besh-qirq yil oldin multimedia bor-yo'g'i "Konsul", deb nomlanadigan yozuv mashinkasidan iborat bo'lar edi. Bizning shunday mashinkamiz bo'lib, u matn yozishdan tashqari, hoshiyadan chiqib ketilsa, jiringlab ogohlantirardi. Sal o'tib juda yirik, bir xonaga zo'rg'a joy bo'ladigan kompyuterlar paydo bo'ldi. Keyin kompyuterlarning hajmi kichraytirilib, imkoniyatlari orttirib borildi. XX asrning 80-yillarida multimedia atamasi dunyoga keldi. Insoniyat axborot inqilobi davriga kirgan hozirgi

⁹⁰ Азимов Э., Шукин А. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: Икар, 2009. – С. 267.

kunlarda kompyuterlar keskin takomillashib bordi, internet yuzaga keldi, mikroelektronika paydo bo'ldi. Multimedia tizimining paydo bo'lishi, shubhasiz, ta'lim sohasida ham o'ziga xos inqilob yasadi⁹¹.

Multimedia texnologiyasi paydo bo'lishiga amerikalik olim Vanniver Bush tomonidan uzoq 1945-yilda axborotlarni alifbo tartibi, tartib raqami yoki indeksi singari shakliy belgilariga emas, balki mazmuniga qarab izlab topish kerakligini olg'a surgan konsepsiyasi asos bo'lgani aytiladi⁹². Lekin multimedia texnologiyasining chinakamiga gullab-yashnash davri o'tgan yuz yillikning 90-yillariga to'g'ri keldi. Bu borada amerikalik dunyoga mashhur kompyuterchi-tadbirkor Bill Geysning tengsiz o'rni borligini qayd etish kerak. Muzeylarga eksponat bo'lib yotadigan son-sanoqsiz ma'lumotlarni matn, tovush, tasvir, jadval, animatsiya va boshqa vositalar bilan boyitgan holda tijoratga aylantirish g'oyasi va uni amalga oshirish aynan unga tegishlidir. B.Geys ishlab chiqqan mahsulotda multimedaning uch asosiy tamoyili uyg'unlashgan:

1) odamga axborotni ko'p (birvarakayiga bir necha) sezgi muhosi orqali qabul qilish imkoni berilishi. Multimedia atamasining multi – ko'p va media – vosita so'zlaridan olingani ham shundan kelib chiqqan;

2) axborot mahsulotining bir necha ma'no chizig'i bo'lishi, jumladan, foydalanuvchida ham o'z talqiniga ega bo'lishi imkoni borligi;

3) kompyuterning badiiy bezakka egaligi va yengil boshqarish vositalari (interfeys) bilan ta'minlangani.

Multimedia texnologiyasining afzalligi va o'ziga xosligini unda axborot berishning quyidagi imkoniyatlari borligi ta'minlaydi:

- bir tashuvchida ko'p miqdordagi turli-tuman axborotlarni saqlash imkoniyati borligi (20 jildgacha muallif matni, 2000 va undan ko'proq yuqori sifatli tasvirlar, 30-45 daqiqalik videoyozuvlar, 7 soatlik audioyozuvlar);

⁹¹ <file:///C:/Users/.html>

⁹² <file:///C:/Users/.html>

- ekrandagi tasvirni sifatini saqlagan holda kattalashtirish imkoni borligi;
- turli dastur vositalari yordamida tasvirni solishtirish yoki unga ishlov berish imkoniyati borligi;
- matn yoki boshqa shakldagi istalgan vizual axborotning eng muhim qismini tasvir yoki ovozli yo'sinda ajratib ko'rsatish imkoniyati borligi;
- har qanday vizual axborotni uzluksiz ravishda musiqiy yoxud o'zgacha audiovosita jo'rligida berish imkoniyati borligi;
- filmlardan videolavhalar, videoyozuvlar va boshqa shu kabi vositalarni "varaqlab ko'rsatish" imkoniyati borligi;
- global Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati borligi;
- matn, grafik, ovoz, xarita ko'rinishidagi turli ilovalar bilan ishlash imkoniyati borligi;
- matn yoki o'zgacha shakldagi har qanday axborotni tahrir qilish imkoniyatiga egaligi.

Multimedia texnologiyalarida yaratilgan mahsulotlardan joy olgan axborotlardan, asosan, quyidagi uch maqsadda foydalanish ko'zda tutiladi:

1. Ko'ngil ochish, ermak maqsadida (CD disklardan adabiyot va san'at bo'yicha uy kutubxonasi sifatida foydalaniladi).
2. Ilmiy-oqartuv (ma'rifiy) yoki ta'limiy maqsadda (metodik qo'llanma yoki ko'rsatma qurol yo'sinida ishlatiladi).
3. Ilmiy-tadqiqot maqsadida (axborotlarni saqlash, saralash, solishtirish va uzatishning mukammal vositasi sifatida foydalaniladi).

Multimedia vositalarining eng ko'p qo'llanilishi kerak bo'lgan sohalaridan biri ta'lim tizimidir. Multimedia o'qitish kechimiga videoensiklopediya, interfaol yo'l ko'rsatuvchilar, trenajorlar, rolli o'yinlar, vaziyatli o'yinlar, taqdimotlar, masofadan o'qitish va boshqa shaklida g'oyat keng tatbiq etilishi mumkin. Kerakli dastur bilan ta'minlangan kompyuter inson faoliyati va bilimning istalgan sohasi bo'yicha xatosiz ishlaydigan o'rgatuvchiga aylanadi. Multimedia vositalarining bu imkoniyatlaridan adabiyot saboqlarida ham keng foydalanish kerak. Afsuski, hozircha milliy adabiy ta'lim tizimida multimedia texnologiyasidan juda

lam foydalaniladi. Bunga filolog o'qituvchilarning multimedia texnologiyalarni yaxshi bilmasligi bir sabab bo'lsa, multimedia dasturchilarining badiiy adabiyotdan yetarlicha xabardor emasligi ikkinchi sababdirki, bo'lajak filolog muallimlar oldida multimedia vositalarini puxta o'zlashtirish va undan saboqlarda foydalanish yo'llarini egallash vazifasi turibdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ko'rsatmalilik didaktikaning yetakchi tamoyillaridan biri ekani sababini izohlang.
2. Ko'rsatma qurollarning turlarini ayting va har biriga xos jihatlarga to'xtaling.
3. Adabiyot o'qitish samaradorligini oshirishda texnik vositalarning o'rni ko'rsatib bering.
4. Adabiyot saboqlari samaradorligini ta'minlashda multimedia texnologiyasining o'rni qanday?

4-bo'lim. ADABIY TA'LIMDA BADIY ASAR TAHLILINING O'RNI

BADIY ASARNING O'QUV TAHLILI

Reja:

1. Adabiyot o'qitishda didaktik tahlilning o'rni.
2. O'quvchilar ma'naviyati shakllanishida tahlilning ahamiyati.
3. Didaktik tahlil bosqichlari.
4. O'quv tahlilining turlari.
5. O'quv tahlilining tamoyillari.

Tayanch tushunchalar:

Badiiy tahlil va adabiy ta'lim, tahlil va ma'naviyat, badiiy tahlil turlari, o'quv tahlili va uning turlari, tahlil jarayonida o'quvchilarni faollashtirish yo'llari, badiiy tahlil – mustaqil fikrlashga o'rgatish omili, didaktik tahlil tamoyillari, o'quv tahlili bosqichlari, tahlil va o'quvchining yosh xususiyatlari.

Maktabda adabiyot o'qitish kechimidagi eng muhim pedagogik yumush badiiy asarni tahlil qilishdir. Badiiy asarni to'g'ri idrok qiladigan, uni tushunadigan, ta'sirlanadigan va tahlil qila biladigan o'quvchini tayyorlay olgan muallimgina maqsadiga erishgan bo'ladi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot darsi yuzaga kelmaydi. Yoshi kichik va orttirgan hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o'quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushunishlari ham mumkin. Shu bois badiiy asar tahliliga katta e'tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar turg'un qaror topmaydi.

Badiiy asarning tahlili a) **ilmiy – filologik** tahlil; b) **o'quv – didaktik** tahlil singari ikki katta turga bo'linadi.

Didaktik tahlilni uyushtirishning nazariy asoslarini belgilashdan oldin o'quv tahlilining ilmiy tahlildan farqini aniqlab olish zarur bo'ladi. Aslida, didaktik tahlil ham badiiy asarning sirini kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan jihatlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. O'quv tahlili bir qator qirralari bilan filologik tahlildan muayyan darajada farq qilsa-da, unga zid narsa emas. Har qanday didaktik tahlil ilmiy tahlil darajasiga ko'tarilishga intiladi va unga yetganda o'quv tahlilidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishilgan bo'ladi. Ayni vaqtda, badiiy asarni didaktik tahlil qilish ilmiy filologik tahlil etishdan jiddiy farq qiladi ham.

O'quv tahlili ilmiy tahlil singari faqat bir kishining ilmiy-estetik faoliyati bo'lib qolmay, balki hamisha jamoa tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik didaktik tahlilning asosiy belgisi bo'lgani va pedagogik tadbirlar hamisha kamida ikki kishi tomonidan yuzaga keltiriladigan yumush bo'lgani uchun didaktik tahlilni kollektiv faoliyat deyish mumkin. Agar filologik tahlil, asosan, yolg'iz olinning aqliy faoliyati natijasi bo'lsa, o'quv tahlili o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti mobaynida amalga oshiriladigan tadbirdir. Didaktik tahlilning ishtirokchilari ko'proq bo'lishadi va barcha aqliy-estetik operatsiyalar qatnashchilarning imkoniyat hamda saviyasi ko'zda tutilgan holda amalga oshiriladi.

O'quv tahlilidan maqsad badiiy asarning to'g'ri qabul qilinishini ta'minlash orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishdan iboratdir. Didaktik tahlilning vazifalari badiiy asarning o'ziga xosligi, jozibasi va ta'sir qilish sabablarini aniqlash yo'li bilan bolalarda ta'sirchan qalb, hassos tuyg'ular, sog'lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra o'quv tahliliga *adabiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik jozibasini kashf etish orqali o'quvchilarda barkamol shaxsga xos ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat*, deya ta'rif berish mumkin.

O'quv tahlili ko'proq shaxslik xususiyatlariga tayanadi va shuni hisobga oladi, chunki u hech qachon bir kishi tomonidan, bir kishi uchun qilinmaydi, balki bir necha odam ishtirokida bevo-

sita amalga oshiriladi va tahlil qatnashchilarida muayyan shaxslik fazilatlarini paydo qilishga yo'naltiriladi. Buning uchun didaktik tahlilda o'quvchilarning hissiyotlar olamiga ta'sir ko'rsatish kerak bo'ladi. O'quvchilar o'z hissiyotlariga daxl qilmagan narsaga loqayd bo'lishadi. Ularning hissiyotiga ta'sir qilgan asar ichiga "kirishadi", uning qahramonlari bilan birga "yashay" boshlashadi. Hissiyotga tayanib qilingan tahlil tufayli o'quvchilar badiiy matnga ruhiy ko'z bilan qaraydigan bo'lishadi. Ular oddiy yozuv belgilari zamiriga ulkan insoniy taqdir, ta'sirchan tuyg'ular, hadsiz fojia va quvonchlar yashiringanligini his etishadi. His etish ularni kashf qilishga, kashf etish esa, rivojlanishning yangi bosqichlari sari undaydi.

Didaktik tahlil ilmiy tahlildan farq qilib, mantiqiy sillogizmlarning o'zigagina tayana olmaydi. Negaki o'quv tahlilida hamisha konkret yoshdagi, muayyan sinfdagi o'ziga yarasha hayotiy tajriba va bilimga ega bo'lgan o'quvchilar bilan faqat muayyan vaqt oralig'ida, belgilangan joyda ish ko'riladi. Ilmiy tahlilda esa tahlilchi bu xildagi cheklashga duch kelmaydi. Aytilganidek, o'quv tahlili vaqt jihatidan ham cheklangan bo'lib, doimo bir dars mabaynida amalga oshirilishi lozim estetik-mantiqiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, o'quv tahlili pedagogik tadbir hisoblanadi. Badiiy asarning cheklanmagan, adog'i yo'q go'zalligi bilan ish ko'rayotgan adabiyotchi o'quvchilardagi aqliy va hissiy imkoniyatlar cheklanganligi, muayyan asarni o'rganishga ajratilgan makon va zamonning chegaralanganligi bilan hamisha hisoblashishga majbur bo'ladi.

Badiiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati uch yo'nalishda uyushtirilishi mumkin. Bu hol o'quv tahlilining uch turini keltirib chiqaradi. Birinchi yo'nalishda adabiyot o'qituvchisi faqat badiiy matnga suyanadi va uning ichki tartibiga daxl qilmagan holda asar zimnidagi ma'noni, jozibani o'quvchilarga ko'rsata boradi. Bu yo'nalish **matnga yoki muallifga ergashib tahlil qilish** yoxud tekstual tahlil deyiladi va bunda o'qituvchi ko'proq tahlil kechimining boshqaruvchisi, yetakchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Ikkinchi yoʻnalishda oʻqituvchining eʼtibori asar personajlariga qaratiladi va badiiy maʼno obrazlar ruhiyatini anglab borish jarayonida tabiiy ravishda kelib chiqadi. Yozuvchining sanʼatkorlik mahorati ham badiiy obrazlarning qanchalik jonli va taʼsirchan tahlilga eʼtiborini idrok qilish asnosida ochib boriladi. Bu tahlil turi **muammolar asosidagi tahlil** deyiladi va unda oʻquvchilarning ham faol ishtirok etishlariga imkoniyat boʻladi.

Uchinchi yoʻnalishda esa tahlil, asosan, oʻquvchilar tomonidan olib borilishi koʻzda tutiladi. Oʻqituvchi talabalari oldiga muammo qoʻyadi va ularni bu muammoni yechishga yoʻllaydi. Asarni tahlil qilish jarayonida oʻquvchilar faqat oldin oʻzlashtirgan bilimlaridan foydalanibgina qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy tushunchalarni oʻzlashtirib olishga majbur boʻladilar. Negaki ular izlanadilar, oʻzaro fikr almashadilar, bahslashadilar. Tabiiyki, bu jarayonda oʻquvchilarning maʼnaviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan oʻzgarishlar sodir boʻladi. Oʻquv tahlilining bu yoʻnalishi **muammoli tahlil** deyiladi.

Tahlilning yoʻnalishlari bir-birini inkor qilmaydi. Adabiy taʼlim amaliyotida tahlilning uch yoʻnalishi deyarli hamisha aralash, qarishliq holda keladi. Tekstual tahlilni obrazlarga tayanmay tanib amalga oshirib boʻlmaydi. Muammoli tahlilni ham badiiy matnga asoslanmay bajarish mumkin emas. Har qanday muammo matndan kelib chiqishi, har qanday mustaqil fikr ham matnning ichki jozibasini ochishga xizmat qilishi joiz.

Tekstual tahlilda matnning maromini buzmaslik, muallif yuzgan yoʻlga, u oʻrnatgan badiiy tartibga rioya qilish ustuvor boʻladi, lekin tahlilning qolgan ikki turida ham badiiy matn asosiy oʻrin tutadi. Shu maʼnoda, har qanday tahlil mohiyat eʼtibori bilan tekstual tahlildir. Chunki badiiy asar yuzasidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat faqat matnga tayanishi, matndan kelib chiqishi, uning jozibasini ochishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli har qanday yoʻnalishdagi oʻquv tahlilini amalga oshirish uchun, albatta, oʻquvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanishgan boʻlishlari zarur.

Muallifga ergashib yoki tekstual tahlil 5–8-sinf oʻquvchilari bilan olib boriladigan mashgʻulotlarda koʻproq qoʻllaniladi.

Ayniqsa, kichikroq hajmli she'riy va nasriy asarlarni didaktik tahlil etishda bu yo'nalish juda qo'l keladi.

Katta hajmli epik asarlar ko'proq yuqori sinflarda o'rganiladi. Bunday asarlarni tekshirishda timsolli tahlil usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Timsollarning o'quvchilar tomonidan o'z taqdiriga, o'ziga xos minazga ega tirik kishilar tarzida qabul etilishiga erishish kerak. Shundagina, bu timsollar tuygan tuyg'ular o'quvchilarga ham yuqadi, ularni ta'sirlantiradi, binobarin, tarbiyalaydi. O'quvchilarning badiiy timsollarni darhol ijobiy va salbiy guruhlariga ajratishlariga yo'l qo'ymaslik, har bir badiiy timsolning qarama-qarshi tabiatli kishi nuqtai nazaridan qanday baholanishi mumkinligiga e'tibor qaratish lozim. Hayotdagi odamlarni jo'ngina yaxshi va yomonga ajratish noto'g'ri bo'lganidek, badiiy timsollarni ham osongina ijobiy yoki salbiyga ajratib tashlash to'g'ri emasligi o'quvchilarga singdirilishi zarur. Hayotdagi har bir alohida odam yechimi topilishi mumkin bo'lmagan muammodir. Badiiy adabiyot ana shu adoqsiz muammoning qirralarini butun murakkabligi, jilvalari, soyalari va tovlanishlari bilan tasvirlash orqali o'quvchini o'zgani his etishga, o'ziga bevosita daxli bo'lmagan begona kimsaning dardini anglashga odatlantiradi. O'z tabiati yo'nalishi va adabiy ta'lim qo'ygan pedagogik vazifaning xarakteriga qarab, timsolli tahlil natijasida har bir o'quvchi ruhiyatida muayyan sifatlar hosil bo'ladi.

Badiiy asar muammoli tahlil etilganda, o'quvchilar badiiy va hayotiy muammoni o'z tushuncha va tajribalaridan kelib chiqib hal etishga urinishadi. Muammoli tahlil puxta bo'lishi uchun o'quvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanishibgina qolmay, uni to'liq hazm qilgan bo'lishlari ham kerak. Chunki faqat o'zlashtirilgan fikr fikr uyg'otadi, singdirilgan hissiyotgina tuyg'u qo'zg'atadi. Muammoli usul bilan tahlil etishda o'quvchilarni shunchaki bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun kuchi badiiy matnning mag'zini ochishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Muammoli tahlil kutilgan samarani berishi uchun matnga sinfdagi o'quvchilar hayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chiqib erkin yondasha olishlari zarur. Misol uchun, Sofoklning "Shoh Edip" asari muammoli yo'l bilan tahlil etiladigan bo'lsa, o'qituv-

chi bolalar oldiga: “Edip gunohkormi yoki aybdor?” tarzida savol qo’yishi va o’quvchilardan o’z fikrlarini faqat badiiy matnga tayangan holda asoslashlarini talab etishi mumkin. Gunoh, gunohkorlik, ayb va aybdorlik, qismat, halollik, mardlik, inson ma’naviyati singari tushunchalar atrofida fikr yuritish jarayonida o’quvchilar Edip shaxsining ulkan fojiasini yaqindan, bevosita, his etadilar.

Didaktik tahlilga tayyorgarlik va amalga oshirish har bir adabiyot o’qituvchisi uchun doim ham ikki bosqichli jarayon hisoblanadi. Birinchi bosqich o’qituvchining darsga tayyorlanish jarayoni bo’lib, ertasiga sinfda o’rganiladigan asarni o’zicha tahlil etadiki, buni muallimning individual tahlili deyish mumkin. Ikkinchi bosqichda esa, o’qituvchi muayyan asarni darsda sinfdagi o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qiladiki, uni matn ustida o’quvchilar bilan birga ishlash deyish mumkin.

Aslida, bu ikki bosqich bir jarayonning turli sharoitlaridagi ko’rinishlari va shu bois bir-biriga aslo zid emas. Lekin ayni vaqtda, bu ikki faoliyat turini farqlamaslik ham to’g’ri bo’lmaydi. Negaki o’qituvchi badiiy asar bilan yolg’iz uchrashganda, uni sayolan didaktik tahlil qilganda, ertangi pedagogik vaziyatni, o’quvchilar hissiyotining namoyon bo’lish tarzini, o’zining kayfiyatini oldindan to’liq bilishi mumkin emas. Binobarin, kollektiv tahlil jarayonida individual tahlilning ayrim qirralariga muayyan tahrirlar kiritilishi, ayrim jihatlariga ko’proq e’tibor qaratilishi, o’quvchilarda ijobiy tuyg’ular uyg’otadigan o’rinlarga urg’u berilishi, ekspromtlar qilinishi tabiiydir. Chunki adabiyot darsi – ijod. Ijodda esa hamma narsani oldindan to’liq rejalashtirib bo’lmaydi. To’liq rejaga tushgan faoliyat ijod bo’la olmaydi. Shu bois adabiyot o’qituvchisi topqir, hozirjavob, har qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan, ayni vaqtda, badiiy asarning estetik ma’nosini nazardan qochirmaydigan darajadagi tayyorgarlikka ega bo’lishi lozim.

Hozirgi maktab adabiy ta’limidagi eng jiddiy qusurlardan biri shundaki, o’qituvchilar sinfda o’rganiladigan badiiy asarni oldin individual tahlil etishga yetarli e’tibor bermaydilar. Natijada, o’qituvchi frontal (ommaviy) tahlil jarayonida muhim badiiy un-

urni nomuhimdan ajratishga ulgurolmay qoladi. O'quvchilarda esa bunday ko'nikma hali shakllanmagani uchun asar zamiridagi badiiy estetik ma'no payqalmay qolib ketishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun o'qituvchi individual tahlildan erinmasligi, tahlil jarayonida talabalarning hissiyotlarini uyg'otadigan, ularda ezgu ma'naviy sifatlar paydo qilishi mumkin bo'lgan holatlarini tug'dirish yo'llarini oldindan rejalashtirishi kerak.

Didaktik tahlil unda o'quvchilarning ishtirok qilish darajalariga ko'ra **individual, guruh**iy hamda **ommaviy** singari turlarga ajratiladi. Individual tahlilda badiiy matn bilan tanishib chiqilgach, o'qituvchi har bir o'quvchiga alohida topshiriq beradi va talaba matndan foydalangan holda o'sha topshiriqni bajarishga kirishadi. Masalan, Cho'lponning "Go'zal" she'ri o'rganilayotganda, o'qituvchi bolalardan biriga she'rda istioradan qanday foydalanilganini, boshqasiga, o'xshatish qanday tasarruf etilganini, uchinchisiga esa, mublag'aning qay tarzda ishlatilganini, boshqasiga she'rdan qanday ma'no kelib chiqishini aniqlash va shu asosda matnni tahlil etishni topshirishi mumkin. Har bir bolaga tahlil uchun muayyan vaqt beriladi va tayyor bo'lgach, o'quvchi javobi tinglanadi.

Guruhlarga ajratib tahlilga jalb etilgan o'quvchilarda musobaqa tuyg'usi, kollektivizm ustuvor o'rin tutadi. Bir sinfdagi o'quvchilar qandaydir belgilarga ko'ra bir necha kichik guruhga ajratiladi. So'ng guruhlarning har biriga asar tahliliga doir alohida topshiriq beriladi. Guruhlarga ajratishda o'tirgan o'rni, nasabnomlarning yonma-yon kelishi, jinsi va hk. belgilar asos bo'lishi mumkin. Eng muhimi, guruhlarda ishchanlik ruhi hukmron bo'lishiga erishish va har guruhda boshqalarni o'z ortidan ergashtira oladigan o'quvchilarning bo'lishini ta'minlash kerak bo'ladi. Xayolot olami keng, tafakkuri uchqur bo'lgan o'quvchilar badiiy matndan, ko'pincha, o'qituvchi ham payqamay qolgan jihatlarni topishadi. Bir necha kishilik guruh o'quvchilarni birlashtiradi, fikrlar olishuviga o'rgatadi, birisining hissiyoti o'zgasida ham tuyg'u qo'zg'aydi. Shu zaylda badiiy matn yaxshiroq idrok etiladi. Bu xildagi tahlilda o'quvchilar boshqa guruhdagilarga savol berishlari mumkin. Kichik guruh a'zolarining hamma-

siga bir xil baho qo'yish esa jiddiy tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki javobni kim qilgan bo'lsa-da, aslida u jamoa mehnatining mahsuli. Shu sabab, guruhdagilarning hammasiga bir xil baho qo'yish maqsadga muvofiq.

Umumta'lim maktablarining 7-sinfida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani o'rganilayotganda sinf o'quvchilarini to'rt guruhga ajratish va matn bilan tanishib chiqilgach, uchinchi soatda bu guruhlardan biriga Anvar va Xudoyorxon obrazlarini o'rganish hamda matnga tayanilgan holda ularga xos xususiyatlar haqida to'xtalish, ikkinchisiga Ra'no tabiatidagi jasurlik va hissiyotga beriluvchanlik sifatlarining sabablarini asoslash, boshqasiga esa, Qobilboy va uning do'stlariga xos sifatlar, Sultonalining insoniy fazilatlarini matnda qanday ko'rsatilganini aniqlash, to'rtinchi guruhdagi bolalarga esa, Anvar bilan mulla Abdurahmon to'qnashuvi manzarasida personajlar holati va ruhiyati ularning tilida qanchalik aks etganini aniqlash topshiriladi. Topshiriqlar badiiy matn puxta o'rganilganidan keyin berilgani uchun ham uni bajarish bolalardan ko'p vaqt talab qilmaydi. Darslik-majmuadagi parcha bilan yana bir tanishish mobaynida har bir guruh a'zosi o'zlariga berilgan topshiriqqa daxldor jihatlarni kashf etadi. Bu sildagi tahlil turini biror adib ijodi o'rganib bo'lingach, yakunlovchi mashg'ulot tarzida uyushtirish yaxshi samara beradi.

Adabiyot o'qitish tajribasida ko'proq qo'llaniladigan tahlil turi ommaviy (frontal) tahlildir. Bunda o'quvchilar ko'proq o'qituvchi yetakchiligida ishlaydilar. O'quvchilar tahlil jarayonida o'qituvchi fikrlari tizginini yo'qotib qo'ymaslik va chalg'ib qolmaslik uchun muallim qarashlarini e'tibor bilan tinglaydilar. Shuni aytish kerakki, adabiyot darslarida o'quvchilarning jimgina o'tirib, miriqib dars tinglashi hali o'qituvchining yutug'idan dalolat emas. O'qituvchi o'quvchi ruhiy muvozanatini buzishi, uni o'ylashga, tuyg'ular girdobiga tushishga majbur etishi kerak. Qanchalik jarangdor, yoqimli, silliq, ravon va savodli bo'lmasin, o'qituvchi monologi adabiyot darsi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga yetarli bo'la olmaydi.

Adabiyot muallimi hamma va har bir bola bilan aloqa o'rnatilganda, ularning fikri va yuragiga cho'g' tashlay olgandagina,

bolalar ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun pedagogik dialog zarur. Adabiy ta'limda dialog monologdan qadrli. Shuning uchun ham o'zi ko'p ishlagan o'qituvchi emas, balki o'quvchilarini ko'proq ishlatishga erishgan o'qituvchi mohir pedagog hisoblanadi. Monolog darsning umri qisqa bo'ladi, uning ta'siri qo'ng'iroq chalinishi bilan tugaydi va o'quvchilarning qalbida ham, tafakkurida ham chuqur iz qoldirmaydi.

Yaxshi uyushtirilgan o'quv tahlili ana shu holatga barham beradi. Monologni kamida dialogga, imkoni bo'lsa, polilogga aylantiradi. Saboq ko'pchilik faol ishtirok etadigan, ma'naviy qadriyatlar, mantiqiy sillogizmlar to'qnash keladigan jarayonga aylanadi. To'g'ri uyushtirilgan frontal tahlil o'quvchilarni badiiy matn qatiga chuqurroq kirishga undaydi.

Yaxshi o'quv tahlili asar muallifining vaqtlar osha olam va odam bilan qilgan suhbatidir. Ommaviy tahlil samarali bo'lishi uchun adabiyot o'qituvchisi darslik hamda undagi savol-topshiriqlardan yaxshi foydalana olishi kerak. Bundan tashqari, har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining tayyorgarlik va ruhiy-aqliy darajasi hisobga olib tuzilgan, bolalarni izlanishga undaydigan hamda asarga chuqurroq kirishga qaratilgan o'z savol-topshiriqlar tizimiga ega bo'lishi kerak. Bu tizim o'qituvchining o'zi tomondan ishlab chiqilishi ham mumkin, ilg'or hamkasblarning xirasidan olinishi ham mumkin. Badiiy asarni bitgan yozuvchining vakolatini olib ish ko'rayotgan o'qituvchi ijodkor bilan o'quvchini uchrashtiradigan, muloqotga kirishtiradigan insondir.

Didaktik tahlilning bir qoidasi borki, unga amal qilmaslik adabiy ta'limni boshi berk ko'chaga kiritadi. Bu oltin qoida shundan iboratki, qanday janrda yozilgani, hajmi qancha ekani va qaysi sinfdan o'rganilayotganidan qat'i nazar, o'qituvchi badiiy asar mazmunini so'zlab berishi mumkin emas. Afsuski, adabiy ta'lim amaliyotida o'quv tahlilini badiiy asar mazmunini so'zlab berish tarzida tushunish juda keng yoyilgan. Holbuki, o'rganilayotgan asar mazmunini qayta hikoyalashning adabiy ta'lim maqsadiga mutlaqo aloqasi yo'q. Chunki chinakam badiiy asar uchun undagi voqealarning o'zi emas, balki o'sha voqealar ro'y berishi mobaynida qahramonlar ruhiyatidagi po'rtanalar manzarasining qanday aks

...ning muhimidir. Buning ustiga, ko'pchilik asl badiiyat namu-
...da biz ko'nikkan ma'nodagi qayta hikoyalash mumkin bo'lgan
...ning o'zi yo'q.

Qayta hikoyalash mumkin bo'lgan joyda san'at bo'lmaydi.
...ning san'atligi, ilohiyligi, ijodligi, takrorlanmasligi ham,
...ni aytib berish mumkin emasligidadir. Kim bo'lsa ham,
...birov tomonidan aytib berishga urinish badiiy asarni
...ga chiqarish demakdir. Navoiy tasvirlagan manzarani yoki
...ning nozik ifodalarini ulardan boshqa biror kishi adiblar
...gan badiiy effektga erishtiradigan tarzda aytib bera olmaydi.
Adabiyot darslarida o'qituvchilarning asosiy vaqti asardagi vo-
qealarni bolalarga aytib berish, o'quvchilarning barcha vaqti esa,
...ullimlaridan eshitganlarini qayta aytib berish bilan o'tayot-
ganligi uchun ham bizda kitob o'qish darajasi pasayib bormoqda.
Chunki maktab adabiy ta'limida o'quvchilar badiiy asarni emas,
undagi voqealarni "o'qishga o'rgatilgan".

Adabiy asarlarni didaktik tahlil qilishda tayanilishi zarur bo'lgan bir qator tamoyillar mavjudki, ularga amal qilmay turib, adabiyot o'qitishda samaraga erishish mumkin emas. Didaktik tahlilida o'quvchilarning *individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili* muhim o'rin tutadi. Badiiy asar alohida shaxsning individual faoliyati natijasidir. Binobarin, individual shaxsning individual faoliyati mahsuli bo'lmish badiiy asarni sinfdagi barcha o'quvchilar yoppasiga birday qabul qilishlari mumkin emas. Adabiy ta'lim uchun ijodkor shaxsning miyasi va yuragi mahsuli bo'lmish asarni yosh yuraklarga yetkazish orqali o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirish maqsad hisoblanar ekan, sinfdagi har bir o'quvchining alohida yuragi, o'ziga xos ruhiyati, kechinmalar tizimi, ta'sirchanlik xususiyatlari, estetik tajribasi borligini hisobga olish lozim bo'ladi.

Badiiy asar didaktik tahlil etilar ekan, o'qituvchi "umuman o'quvchi"ni emas, balki konkret o'quvchini ko'z oldiga keltirmasa, ijobiy natijaga erisha olmaydi. Chunki bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish uchun uning qalbi va ruhiyatiga xos sifatlar haqida aniq tasavvur etilishi lozim. Bu haqda aniq ma'lumot bo'lishi uchun har bir o'quvchi shaxsi puxta o'rganilgan va tahlil jarayonida bo-

lalar ruhiyatidagi o'ziga xoslik maksimal darajada hisobga olingan bo'lishi shart. Shuning uchun ham o'quvchi qalbi bilan, uning ma'naviyati bilan ish ko'rishga tutingan o'qituvchi konkret, jonli bolani ko'z oldiga keltirmay turib, o'quv tahlilini muvaffaqiyatli amalga oshira olmaydi.

Hozirgi adabiy ta'limdagi eng katta nuqson shundan iboratki, tahlil jarayonida individuallik tamoyiliga deyarli e'tibor qilinmaydi. O'rganilayotgan asar barcha o'quvchilar uchun bir xilda "umuman" talqin qilinaveradi. Natijada, har bir alohida olingan bolaning tuyg'ulari darchasi badiiy asar uchun yopiq qoladi. Holbuki, tuyg'ularga ta'sir qilish uchun qalbni cho'g'lantirish, o'quvchilarning tafakkurini ham, hissiyotlarini ham faollashtirish, muvozanatdan chiqarish, befarqlikdan xalos etish kerak. Shundagina talaba tahlil qilinayotgan asarga qiziqadi, qiziqqan – asarda aks etgan ma'naviy qadriyatlarga ergashadi, ergashgan – yuqtiradi, yuqtirgan – o'z ma'naviyati ustida ishlaydi, ishlagan – tarbiyalanadi. Alohida shaxs sifatida badiiy asarlarni qabul qila bilish o'quvchini biologik mavjudotlikdan ijtimoiy zotga aylantiradi. Odamning hayotiga ruh, go'zal mazmun beradi, uni ta'sirchan, nurli qiladi. O'quv tahlilining individualligi tamoyiliga rioya etish o'qituvchidan juda ko'p mehnat, katta aqliy-ruhiy zo'riqishni talab etadi. Negaki ayni bir vaqtning o'zida hamma bilan birday va har bir bola bilan alohida ishlay olish oson emas.

Didaktik tahlil bir-biridan tamomila farq qiluvchi o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida amalga oshirilgani uchun ham o'quv tahlilida *o'qituvchi bilan o'quvchilarning tahlil etilgan asar yuzasidan bir xil xulosaga kelishi shart emasligi* tamoyiliga amal qilinishi shart. Atroflicha tahlil qilingan, estetik joziba manbalari ochilgan badiiy asar haqida sinfdagi o'quvchilar o'qituvchi istaganiday fikrlashi, o'qituvchi chiqargan estetik xulosaga kelishi majburiy bo'lmasligi lozim. Negaki har bir alohida shaxsning dunyoni idrok etish, tushunish, ta'sirlanish va xulosa chiqarish tarzi bor. Badiiy asarni tushunishdagi o'ziga xoslikning manbalari juda ko'p va u haqda uzoq so'z yuritish mumkin, lekin eng muhimi, o'qituvchi o'sha o'ziga xoslikni bir xillikka tomon zo'rlab yo'naltirmasligi zarur. Barcha

ning bir xil o'ylashiga erishish qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan pedagogik natijalarning eng yomonidir.

Adabiyot o'qituvchisi uchun u chiqargan xulosalarga qo'shilmaydigan o'quvchini tarbiyalash eng katta ijobiy natijadir. Chunki adabiy ta'lim uchun biror asar tahlili natijasida undan chiqarilgan xulosa emas, balki shu xulosaga kelguncha bosib o'tilgan hissiy-mantiqiy yo'l muhimdir. Bu yo'lda o'quvchi o'ylanib, izlanib, ma'naviy mezonlarni solishtirishga majbur bo'ladi. Agarda o'shanday mantiqiy-badiiy operatsiyalar natijasida bola o'qituvchisining qarashlaridan farq qiladigan va hatto zid xulosaga kelgan bo'lsa ham quvonmoq kerak.

Didaktik tahlilda o'qituvchi o'quvchilaridan *o'z fikrini badiiy matnga tayangan holda asoslash* tamoyiliga qat'iy amal qilishni talab etishi kerak. Badiiy matn har bir o'quvchi tomonidan o'zgacha talqin etilishi mumkin. Adabiyot darslari shaxslararo munosabat natijasida shaxslik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir, shaxslararo munosabat esa adoqsiz qirralarga ega jarayondir. Serqirra kechim yuzasidan esa xilma-xil xulosa chiqishi tabiiy.

Didaktik tahlilda o'quvchi va adabiyot o'qituvchisi qarashlarining har xil bo'lishi mumkinligi, aslo adabiy asar tahlilida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi tamoyilini inkor etmaydi. Ilmiy tahlildan farqli tarzda o'quv tahlili ikki tomonlama jarayondir. Unda tahlil qiluvchi: tushuntiruvchi – o'qituvchi bilan, tahlil qiluvchi, tushunuvchi – o'quvchi faoliyati birikkan holda namoyon bo'ladi. Bu ikkala tomondan biri qatnashmasa, o'quv tahlili yuzaga kelmaydi. Didaktik tahlilda o'quvchi faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining estetik faoliyatini aktivlashtirish, didini o'stirish orqali uning shaxsini kamolot sari yo'naltirish adabiy ta'limning pirovard maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun ham didaktik tahlilda o'quvchi-o'qituvchi hamkorligiga erishilmasa, pedagogik maqsad amalga oshmaydi. O'quvchiga didaktik tahlilni tinglovchi va qabul qiluvchi debgina qarash adabiyot darslarini yo'qqa chiqaradi. Ayni vaqtda, o'qituvchi o'quvchilarning o'y-fikrlari, tuyg'ulari bilan mutlaqo ishi bo'lmasligi kerak, talaba o'ziga

ma'qul kelgan har qanday xulosaga kelsa ham bo'laveradi, deb qarash undan kam bo'lmagan xatolikdir. To'g'ri, o'quvchilarning fikriy hurligiga daxl qilmaslik, ularni bir xil xulosalar sari zo'rlab yo'naltirmaslik zarur, lekin o'quvchilarning erkin fikrlashlariga imkon berish boshqa-yu, ularning hissiy mantiqiy faoliyatlarini o'z holiga tashlab qo'yish mutlaqo boshqa yondashuvlardir.

Didaktik tahlilda yuqori darajadagi samaraga erishmoq uchun o'quvchi bilan o'qituvchi sheriklar bo'lmog'i, bir umumiy marrani belgilamoqlari va unga erishish sari hamkorlik qilmoqlari zarur. Aks holda, adabiy ta'lim oldida turgan vazifalar bajarilmay qoladi. Chunki ayni bir faoliyatni amalga oshiruvchi ikki kuch boshqa-boshqa harakat qilsa, samaraga erishilmasligi ma'lum. *"O'ziga xos baho berishga, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga odatlanayotgan o'quvchilar muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'qituvchi bilan talashib-tortishsalar ham, ayamay bahslashsalar ham, u bilan kelisha olmasalar va o'ziga xos qarorga kelgan bo'lsalar ham uning ortidan borishlari, unga ishonishlari, uning ijodiy irodasini his etib turishlari kerak"*⁹³, – deb yozadi adabiyot darslarida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarning qirralarini g'oyat sinchkovlik bilan o'rgangan metodist olimlar: V. Kan-Kalik va V. Xazan. Adabiyot o'qituvchisi o'z talabalarining fikrlarini bo'g'maganligi, o'z qarashlarini bildirishga yo'l qo'yib berganligi va biror xulosaga zo'rlab olib kelishga urinmaganligi uchun ham o'quvchilarning ishonchini qozonadi va ularning hamkoriga, bolalar evristik faoliyatining sherigiga aylanadi.

Didaktik tahlil yuzaga chiqishi uchun o'quvchi faqat eshituvchi maqomida bo'lishi yetarli emas, u, albatta, tahlil kechimining ishtirokchisi martabasida bo'lishi kerak. Adabiyot darslari teng tomonlar faoliyati ekanligi, bu faoliyat ishtirokchilaridan biri bo'lmish o'qituvchi faqat hayotiy tajribasining boyligi, badiiy asarga munosabat malakasini egallaganligi, o'zida estetik mezonlarni shakllantirganligi bilangina o'quvchilaridan ajralib turishi yodda tutilishi lozim. Garchi, o'quvchilar sinfda o'rganiladigan asarlarni

⁹³ Кан-Калик А., Хазан В. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. –Москва: Просвещение, 1988. – С. 254.

o'qituvchi singari oldindan to'liq o'qib chiqmagan bo'lsalar-da, o'zlarining axloqiy mezonlariga, ma'naviy tajribalariga egadirlar. Chunki har bir inson dunyoga kelgan kundan boshlaboq, o'zi bilib yoki bilmay ma'naviy tajriba orttiraveradi. Binobarin, o'quvchilar ham badiiy asarni talqin qilish, unga ma'naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan baho berish huquqiga egadirlar. Adabiyotning maktabda o'rganiladigan o'zga o'quv predmetlaridan asosiy farqi ham shunda. Bu to'g'rida mashhur rus adibi Yuriy Karyakin shunday deydi: *“Fizika, matematika va boshqa shu kabi predmet o'qituvchilari uchun o'quvchi, qo'polroq qilib aytganda, “yozilmagan qog'ozdir”, ularning darsdagi o'zaro munosabatlari teng emas. Asosiy ishi insonning ma'naviy tajribasini tahlil qilish bo'lgan adabiyotda esa ahvol tamomila boshqacha. Bu yerda o'quvchiga “toza qog'oz” deb qarash butun ishni yo'qqa chiqaradi. Bundan avval “yozilganlar”ni hisobga olmay turib “yozib” bo'lmaydi. O'quvchi (hatto birinchi sinfdagi bolakay ham) o'ziga yarasha ma'naviy tajribaga ega va adabiyot o'qituvchisi bilan o'quvchi orasidagi munosabat ko'p darajada tengdir. Chunki bu munosabatlar, avvalo, teng odamlar o'rtasidagi munosabatlardir: faqat o'qituvchi kattaroq hayotiy tajribaga ega, xolos”⁹⁴.*

Adabiyotdan boshqa predmetlarni o'qitishda muallim o'quvchi bilmaydigan narsalarni o'rgatadi, o'quvchilarning o'qituvchi o'rgatmoqchi bo'lgan bilimlar majmuini oldindan bilishi deyarli mumkin emas. Adabiyotda esa faqat bilim berish emas, balki o'quvchini tarbiyalash, unda barkamol shaxsning ma'naviy dunyoni shakllantirish maqsad hisoblanadi. Demak, o'rganilayotgan asarlarda ham qahramonlarning yoxud muallifning ma'naviy olami tekshiriladi. Bu tekshirishda o'quvchi va o'qituvchi barobar, teng huquq bilan ishtirok qilishi kerak. Chunki bola ham o'ziga yarasha ma'naviy tajribaga, axloqiy o'lchovlarga egadir.

O'rganilayotgan badiiy asarni didaktik tahlil qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham, adabiy asarning janrini ham hisobga olish kerak. 5-sinf o'quvchilari she'riy asarni juda bevoqif qabul etadilar. Ularga she'riy shakllar, shoir mahorati, lirik

⁹⁴ Карякин Ю. И про тебя этот история // Литературное обозрение, 1979.

№ 1. – С. 45-46.

obraz yaratishdagi o'ziga xosligi haqida gapirib o'tirish ortiqcha. Ularga she'r juda ta'sirli qilib ifodali o'qib berilsa, asarning tarbiyaviy yo'nalishi ko'rsatilsa, she'riy asardagi badiiy unsurlar sezdirilsa kifoya. Yuqori sinf o'quvchilari esa har qanday tur va janrdagi asarlarga o'zgacha munosabatda bo'ladilar. Ular asar zamiridagi haqiqatga, undan kelib chiqadigan hayotiy va estetik ma'noga ancha jiddiy yondashadilar. O'spirinlar badiiy asar bilan uning ijodkori o'rtasidagi bog'liqlikni, asarda adib shaxsiyati belgilari bo'lishi shartligi kabi holatlardan xabardor bo'ladilar. Bu holat o'quv tahlilini chuqurlashtirish imkonini beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'quv tahlili mohiyatini anglat.
2. Didaktik tahlilning turlariga to'xtal.
3. O'quv tahlili o'quvchilarning qatnashish darajasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Matn yoki yozuvchiga ergashib tahlil qilish turining mohiyatini tushuntir.
5. Muammoli tahlil nima?
6. Timsollar asosida tahlil tushunchasini sharhlang.
7. O'quv tahlili tamoyillari to'g'risida tushuncha bering.

TAHLILDA BADIY ASARNING TUR VA JANRIGA XOS BELGILARNI HISOBGA OLISHNING O'RNI

Reja:

1. Badiiy yaratq tahlilida adabiy turga xos belgilarni hisobga olishning pedagogik zaruriyati.
2. Adabiy bitikning janr xususiyatlari va o'quv tahlili.
3. O'quv tahlili va adabiy-nazariy bilimlar aloqasi.
4. Tahlil jarayonida kontekstning o'rni.

Tayanch tushunchalar:

Adabiy tur va tahlil, lirik tur va uning tahlili, epik tur va uni tahlil qilish yo'llari, drama va uni tekshirish usullari, tahlilda lirik timsolga xos xususiyatlarni hisobga olish, tahlilda epik obrazlarning belgilarini nazarda tutish, dramatik qahramon va uning tadqiqi.

Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham juda muhim. Diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotgani ko'zga tashlanadi. Negaki adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. Har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari tubdan o'zgarib ketmasa-da, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi ma'lum darajada yangilanadi. Munosabat yo'sini, usullar tizimi esa har qanday o'quv faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Har bir badiiy asar takrorlanmas va tamomila o'ziga xos estetik hodisa sifatida o'zi mansub turga doir umumiy jihatlarga ega bo'lgani uchun ham tahlilda adabiy turga tegishli belgilar hisobga olinishi zarurdir. Lirik asarni tahlil qilishda foydalanilgan usul bilan romanni o'rganib bo'lmaydi. Shuningdek, hikoyani o'rganishda qo'l kelgan tahlil usuli dramani tekshirishda ish bermay qoladi va bq. Har bir adabiy tur tabiatidagi o'ziga xoslik bu turga mansub asarni tahlil etishda undagi asosiy jihatdan kelib chiqishni talab qiladi. Adabiy turning bosh xususiyati shundaki, uning vujudida muayyan badiiy butunlikning qanday maqsadda yaratilgani (*kuylash, o'qish yoki ko'rsatish uchun*) va nimani ifodalagani (*tuyg'u, voqea yoki harakat*) kodlashtirilgan bo'ladi. Demak, tahlil jarayonida ham badiiy matnning maqsadi va ifoda imkoniyatlari hisobga olib ish ko'rilsa, kutilgan samaraga erishilishi mumkin bo'ladi.

Asarning til qurilishi va badiiy bilishning bevosita obyekt, ya'ni asardagi voqelikka yoki subyekt, ya'ni muallifga yoxud badiiy ifoda aktining o'zi, ya'ni tasvirlanayotgan xarakterlarga yo'naltirilgani uning turini tayin etadi. Chunonchi, har bir badiiy asarda yo borliqni tasvir etish yoki so'zlovchining holatini aks ettirish yoxud so'zlashish jarayonining o'zini qayta tiklash singari holatlardan biri bosh maqsad sifatida tanlangan bo'ladi. Umumlashtirib aytganda, mana shu uch holat uch adabiy turni keltirib chiqaradi. Ayrim mutaxassislar adabiy turlarning uchga bo'lini-

shi bilan tilshunoslik ilmidagi shaxs-son va zamon kategoriyalari orasida muayyan o'xshashlik (analogiya) ko'rishadi. Ya'ni lirika – “men” va “hozirgi zamon”, epos – “u” va “o'tgan zamon”, drama – “sen” va “kelasi zamon”. Bu o'xshashliklar barcha badiiy asarlarda ham istisnosiz bor, deb bo'lmaydi. Lekin shu jihatlar hisobga olib ish ko'rilsa, shubhasiz, o'quv tahlilning saviyasi ortadi.

Badiiy asarlarning muayyan adabiy turga xos xususiyatlari ularning san'atning boshqa turlaridan qaysi biriga yaqinligida, qaysi san'at turi yordamida badiiy talqin (interpretatsiya) qilish mumkinligida ham namoyon bo'ladi. Chunonchi, epik asarlar grafika va rangtasvirga osonroq ko'chadi. Lirik asarlar esa musiqaga tez muvofiqlashadi. Dramatik asarlar teatr hamda pantomimaga yovuz turadi.

*“Eposda odam voqea-hodisa... oqimida oqadi; dramada inson voqea ustidan hukmronlik qilib, uning fonida turlanib ko'rinadi; lirikada inson o'z holicha qoladi”*⁹⁵, – deydi shoir va adabiyotshunos Jamol Kamol. Ko'rkam tahlil jarayonida ham ayni shu jihatlar ma'lum darajada hisobga olib ish ko'rilishi samara keltiradi. Aks holda badiiy tahlil ilmiy qimmat kasb etmay qolishi mumkin.

Adabiy yaratilarning turi va janri nafaqat bitikning qurilish yo'sini va ifoda tarziga, balki muayyan asarda foydalaniladigan so'zlarning tabiatiga ham ta'sir qilishi to'g'risida amerikalik adabiyotshunos Genri A. Verkler o'zining “Hermenevtika” asarida: *“Asarning janri muallif niyatiga ko'ra ushbu asar qanday tushunilishi kerakligini belgilab beradi. She'riy asar ustida ishlayotgan muallif so'zlarni nasrdagidan tamomila o'zgacha yo'sinda ishlatadi. Poetik so'zni nasriy sochma so'z kabi talqin etishga urinish uning ma'nosini buzishdir. Nasrda o'z ma'nosidagi so'zni, she'riyatda esa, majoziy tilni ishlatish ustuvorlik qiladi”*⁹⁶, – deb yozadi.

⁹⁵ Adabiyot nazariyasi. 2-jild. –T.: “Fan”, 1979. 239-bet.

⁹⁶ Верклер А. Генри. “Герменевтика”. Gospel literature services, Schaumburg, Illinois, USA, 1995. – С. 55.

Lirik turdagi asarlarning asosiy belgisi ochiq ko‘rinib turgan yoki poetik tasvir zamiriga yashiringan subyektning ruhiy holati, sezimlari, hissiy olami, tuyg‘ular tizimi ekan, bu turdagi matnning tekshirishda ayni o‘sha jihatlarga e‘tibor qaratilishi, tuyg‘ularning samimiyligi, ifodaning hissiyligi va she‘rxonda emotsional tafakkurni qo‘zg‘aydigan darajada bo‘lishi singari lirik asarning sariviyasini yuksaltiradigan omillarni topishga, ularning qanchalik o‘rnida qo‘llanilganini tekshirishga diqqat qilinishi joiz. Lirik asarlar tahlilida so‘zlarning ta‘sirchan, ma‘noning tig‘iz, ifodaning serqatlam bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiy tur badiiy makon va zamon munosabatlarining shartlilik darajasini belgilashda ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, lirikada zamon va makon muvofiqligining omonat, shartli ekani maksimal darajaga yetadi. Hatto, ayrim lirik asarlarda makon tushunchasi mutlaqo bo‘lmasligi ham mumkin. Chunki bu turdagi asarlar ko‘pincha voqeaband bo‘lmagani uchun ularda tuyg‘uning qayerda junbishga kelgani emas, balki muvozanatdan qanday chiqib, qanday ko‘rinish olganini aks ettirish muhimroq sanaladi. Lirik asarlarda zamon tushunchasiga bog‘liqlik ham shu kabi ancha shartli va omonat. Lirik asarlarda bugunning o‘tmish, o‘tmishning kelajak, kelajakning hozir bilan ajratish mushkul bo‘lgan darajada qorishib ketishi holatlari ko‘p uchraydi. G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan”, “Turksib yo‘llarida”, A.Oripovning “Bahor”, “Sarob” kabi she‘rlarida zamoniylar qorishqlik yaqqol ko‘zga tashlanadiki, ularni tahlil qilish mobaynida bu holat hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. H.Xudoyberdiyevaning “Yo‘ldadirman”, “Begim, sizni tabiat”, Zebo Mirzayevaning “Umrimni o‘tkinchi saboga berdim”, O‘ktamoyning “Ko‘klab ketgan sog‘inch”, “Ko‘ngil siniqlari” she‘rlarida zamon to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etmaganini ko‘rish mumkinki, bu xildagi erkinlik lirik she‘rlarning ta‘sir kuchi doimiy va davomiy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Epik asarlarni tahlil qilishda ularda ozdir-ko‘pdir tafsilot bo‘lishi ko‘zda tutilishi lozim. Demak, epik asar tahlilini amalga oshirishda asardan badiiy timsol bilan tafsilotning qanchalik

muvofigligi yoki nomuvofigligi tasviri bergan estetik natija qidrilishi lozim bo'ladi. "Alpomish" dostoni tahlil etilayotganda Barchindan xabar kelgan kuni Hakimbekka enchi sifatida berilgan biyadan tug'ilgan yarg'oq toychoq, ya'ni bo'lajak Boychiborning sag'risi toshib, o'zini qo'yarga joy topolmay qolgani, buni ko'rgan Boybo'ring uni Alpomish ko'zidan yiroqlatish uchun to'qaydagi yilqilarga qo'shtirib yuborgani, shu sababli Alpomishning ot so'rab Qultoyga borishga majbur bo'lishi, Qultoyning unga ot bermay, boz ustiga, kaltaklashi, o'z moliga egalik qilolmay, quruq qaytgan noshud yigitga Qaldirg'ochoy qilgan achchiq iddaolar singari tafsilotlar ifodasida timsollar mohiyati teran aks etadi.

Adabiy turlarga xos xususiyatlarni hisobga olishning o'zi ham tahlilning to'kisligi uchun hali yetarli bo'lmaydi. Negaki adabiy turlarda universallik ko'p bo'lib, konkret asarga xos jihatlarni aniqlashda unchalik qo'l kelmasligi mumkin. Ma'lumki, adabiy turlar janrlarga bo'linadi va ular ham bir qator jiddiy o'ziga xosliklarga egadir. Tekshirilayotgan asarning janriga xos xususiyatlar ham ko'zda tutilgandagina tahlilda kutilgan ilmiy samaraga erishish mumkin. Chunonchi, lirik turning g'azal janrini tahlil qilishdan tuyuq, muvashshah yoxud chiston singari janrlarga mansub bitiklarni tekshirish tamomila farq qiladi. Shuning uchun ham badiiy tahlil kechimida adabiy janrlarga xos jihatlarni ham ko'zda tutib ish ko'rilganda tahlilchi to'xtamlari chuqur va aniq bo'ladi.

Epik turdagi asarlar ko'proq hajmiy belgilariga ko'ra janrlarga bo'linadiganday taassurot qoldiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, adabiyotshunos ilmda *katta epik janr* (roman, epopeya, turkum romanlar), *o'rta epik janr* (qissa), *kichik epik janr* (hikoya, novella, badiya) tushunchalari qo'llaniladi. Badiiy asarning hajmi estetik butunlikning faqat miqdoriy jihati emasligi shunda ko'rinadiki, har bir janrga mansub asarni tekshirishda o'sha janrga xos xususiyatlar hisobga olinmasa, tekshirilayotgan badiiy asar to'g'risida haqqoniy ilmiy to'xtamga kelish mumkin bo'lmaydi.

Jumladan, hikoyaning kichik hajmi tahlilda romannikidan o'zgacha tamoyillariga amal qilishni, muayyan ilmiy usullarni qo'llashni talab qiladi. Hikoyaga ko'pincha yuqori darajadagi ba-

diiy "tejamkorlik" xos bo'lib, unda uzundan uzoq tafsilotlar bayoni, turli-tuman chekinishlar, qistirma lavhalar berilmaydi. Shu bois hikoyada, ayniqsa, peyzaj, portret, interyer va eksteryer tasviridan ko'ra, ramziy-majoziy tafsil (detal)larga ko'proq e'tibor qaratiladi. Ramziy tafsil yuqori darajada ifodaviylik kasb etadi va odatda o'qirmanning xayolot olamini qo'zg'ab, uni tafsildagi ramziy ma'noni anglashga undaydi. Hikoyada uning tugallanishi juda muhim. Hikoyalar odatda yo syujet tugunining mantiqiy yechimi yoxud kutilmagan hissiy yakun bilan tugallanadi. Milliy hikoyachilik rivojining hozirgi bosqichida konfliktning yechimi emas, balki uning yechimsizligi aks etgan tugallanishlarga ko'proq ahamiyat berilmoqda.

Hikoya janriga mansub asar tahliliga tutinilganda, uning ko'pincha o'tkir va tez rivojlanadigan syujetga egaligi, voqealar rivoji yechimga tomon shiddat bilan borishi, shu asnodda asardagi har bir personajga xos eng muhim jihatlarning yo'l-yo'lakay tasvirlanishiga erishish hisobga olingani maqsadga muvofiq bo'ladi. Odatda ko'pchilik hikoyalarning syujeti siqiq, voqealar muallifning estetik niyati atrofida maksimal darajada markazlashtirilgan bo'ladi. Syujetning tezkor o'sishi zarurati undagi personajlarning kam sonli bo'lishini taqozo etadi. Chunki asarga kiritilgan personaj borki qandaydir badiiy-estetik yuk bilan ta'minlanishi zarur. Ko'p sonli personajning har biriga badiiy yuk ortish zaruriyati syujet yechimi qarqini (sur'ati)ning susayishiga olib kelishi mumkin. Hikoyada epizodik personajlar deyarli bo'lmaydi, agar kiritilsa ham syujet rivojiga turtki berib bo'lishi bilan tasvir doirasidan chiqib ketadi. Hikoyada yondosh syujet chizig'i, muallif chekinishlari bo'lmaydi hisob, qahramonning ham ko'proq hoziri tasvirlanadi, uning o'tmishi syujet rivoji uchun g'oyat zarur hollardagina qalamga olinadi. Hikoyada voqealar rivojiga bevosita daxldor bo'lmagan bayon unsurlari minimumga tushirilgan bo'lib, deyarli hamisha asar boshida keladi. Chunki hikoya yakunida ular yechimga halal berib, o'qirman diqqatini chalg'itishi mumkin.

Katta epik janrga mansub roman va epopeya mazmuni, birinchi navbatda, ularda ko'tarilgan muammoning mohiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Epopeyaning mazmuniy asosini deyarli hami-

sha *milliy*, romannikini esa *romaniy*, ya'ni yo ma'naviy-axloqiy yoki psixologik yoxud avantyr muammo tashkil etadi. Shuning uchun ham roman janriga mansub bitik tahlilida tekshirilayotgan asarning shu ikki turdan qaysi biriga mansub ekanini aniqlab olish o'ta muhimdir. Negaki roman bilan epopeyaning poetikasi mazmuniy asoslardan kelib chiqib quriladi. Epopeya ko'p qatlamli syujetga ega bo'lib, unda qahramon timsolida u mansub ijtimoiy tabaqa yoki etnosga xos jihatlarning kvintessensiyasi aks etishi ko'zda tutiladi.

Boshdan-oyoq qiziqarli va tahlikali voqealar tasviriga qurilgan avantyr romanlarda ham syujet ustuvor bo'lsa-da, ko'pincha qahramon tabiati o'zgacha yo'sinda, ya'ni etnik, tabaqaviy hamda jamoaviy aloqalardan atay uzilgan holda tasvirlanadi. Chunki tavakkalchilik (avantyr) romanining syujeti aynan qahramon tabiatidagi tabaqadan ayrilishga intilish hissi tufayli rivojlanadi. Ma'naviy-axloqiy mazmun ustuvor bo'lgan romanlar deyarli hamisha psixologik va polifonik xususiyatlarga ega bo'ladiki, tahlil jarayonida ayni jihatga e'tibor qaratilishi lozim.

Har qanday turga mansub romanning ham asosiy belgisi uning individni tekshirish va tasvirlashga bag'ishlanganidir. Oldin individ sifatida paydo bo'lgan odam faqat jamoadagina shaxs sifatida shakllanadi va o'zligini namoyon etadi. Har bir odamdagi alohidalikdan ko'ra, muayyan tabaqaning universal jihatlarini tasvirlash o'ng'ayroq. Lekin insoniyat rivojlangani sayin tabiiy ravishda odamning individuallashuvi kuchayib boraveradi. Odam va odamlararo ichkin munosabatlar butun murakkabligi va miqyosi bilan faqat roman janridagina to'la berilishi mumkin. Zero, bitta odamning ichki dunyosi butun olamdan katta va murakkabroqdir.

Xalqning og'zaki ijodi va milliy yozma adabiyotda juda ko'p asrlilik tarixga ega bo'lgan masal muayyan qoliplar doirasida mavjud bo'lgan oz sonli epik janrlar sirasiga kiradi. Masal janrining ayrim belgilari uni tahlil qilishning istiqbolli yo'lini ko'rsatib turadi. Shulardan birinchisi masalning shartlilik bo'lib, obrazlar tizimining ba'zan fantastik tabiatga egaligidir. Masalning timsollar tizimi hamisha majoziy tabiatga ega bo'lib, zo'ravonlik,

qo'rqoqlik, soddalik, quvlik, oqillik singari ma'naviy sifatlarni bildiradi. Shuning uchun ham masal janridagi asar konfliktini real karakterlar to'qnashuvidan emas, ana shu ma'naviy-axloqiy sifatlari o'rtasidagi ziddiyatdan izlagan ma'qul bo'ladi.

Masal kompozitsiyasida deyarli hamisha ikki qism yaqqol ajralib turadi: a) ko'pincha dialog shaklida rivojlanadigan syujet; b) albatta, asarning o'rtasida emas yo oxiri yoki boshidagi tasvirdan muallif chiqargan xulosa. U o'zbek adabiyotshunosligida qissadan hissa, Kunbotish ilmida "moral" deb ataladi. Adabiy tajribada qissadan hissa chiqarilmagan masallar ham uchrab turadi va bu xususiyat, ayniqsa, zamonaviy masalchilikda keng yoyilib bormoqda.

Ballada epik turga xos tafsilot bilan lirikaga xos hissiylikni uyg'unlashtirgan o'ziga xos xususiyatlarga ega poetik janrdir. Balladaning syujeti unchalik murakkab va ko'ptarmoqli bo'lmaydi hamda asar lirik qahramonning shu syujet voqealarini hissiy idrok etishi asosiga quriladi. Ballada she'riy nutq shaklida yozilib, hajmi cheklab qo'yilmagan. Bu janrga mansub asarga xos eng muhim belgi unda, albatta, dialogik nutq ko'rinishi ishtirok etishidir. Ammo keyingi paytlarda ballada janriga mansub ayrim bitiklarda dialog uchramasligi ham kuzatilyapti.

Ballada janridagi asarga romantik ko'tarinkilik, sirlilik xosdir. Unga xos ko'tarinki romantizm fojiali qismat yoxud qahramonlik bilan to'yintirilgan karakterlarni qabariq tarzda tasvirlash imkonini beradi. Hamid Olimjonning "Roksananing ko'z yoshlari", "Jangchi Tursun", Usmon Azimning "Dasht haqida ballada", "Boysun haqida g'amgin ballada", "Armon haqida ballada", "Vatan haqida ballada" asarlari badiiy jihatdan yetuk bitiklardir. Tahlil jarayonida bu janrning o'ziga xosligi hisobga olinsa, chiqarilgan ilmiy xulosalar salmoqli qiymat kasb etadi.

Dramatik asarni tahlil qilishda uning, birinchi navbatda, sahnaga mo'ljallangani, ko'rsatish maqsadida yozilgani, muallifning ishtirok etmasligi sabab timsollarning xatti-harakatlariga biror darajada ham munosabat bildirish imkoni yo'qligi yanglig' jihatlar ko'zda tutilishi lozim bo'ladi. Shu jihatlar hisobga olingandagina dramatik asarlarning hayotiy va badiiy mohiyati hamda estetik jozibasini to'la tadqiq etish mumkin bo'ladi.

Dramatik asarlar tahlilida ko‘zda tutilishi lozim bo‘lgan yana bir jihat shundaki, bu tur asarlarda zamon va makon aniqligi maksimal darajada aks etishi zarur bo‘ladi. Klassitsizm nazariyasida qat’iy qilib qo‘yilgan uch birlik talabi, birinchi navbatda, dramatik turdagi asarlarga tegishli bo‘lgani ham bejiz emas. Adabiyot nazariyasi ilmi-ning bilimdoni V.Xalizev shuni nazarda tutib: *“Dramatik asarlarda bayon etuvchi parchalar qanchalik muhim o‘rin tutmasin, tasvirlanayotgan asar qanchalik bo‘laklarga bo‘lingan bo‘lmasin, personajlar aytayotgan so‘zlar ularning ichki nutqiga qanchalik muvofiq bo‘lmasin, baribir, drama zamon va makon jihatdan o‘zaro muvofiqlashtirilgan manzaralarni tasvirlashga moyildir”*⁹⁷, – deb to‘g‘ri ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiyoti uchun ancha yosh, Kunbotishda esa minglab yillik an’anaga ega bo‘lgan dramatik tur keyingi bir yarim asr davomida jiddiy shakliy o‘zgarishlarga uchrab, janrlar chegarasi yemirilib, o‘zaro uyg‘unlashish, sinkretizm holatlariga duch keldi. Lekin janriy ayirmalari nisbatan toza saqlab qolingan tragediya va komediyalar ham yaratilayotir. Fojia va komediya janrlariga xos belgilar, avvalo, ularning pafosida namoyon bo‘ladi. Fojia (tragediya) uchun badiiy konfliktning tabiati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Badiiy tahlil jarayonida asardagi qahramonlar qanchalik urinishmasin, mavjud ziddiyatni qon to‘kish va qurbonsiz hal qilishning iloji yo‘qligiga e’tibor qaratilishi joiz. Fojida ziddiyatning ko‘pqatlamli ekani, ko‘rinishdan butun konflikt personajlar o‘rtasidagi to‘qnashuvdangina iboratday ko‘rinsa-da, aslida fojia zamirida deyarli doim qahramon shaxsiyatining o‘z-o‘zi bilan kurashidan kelib chiqadigan psixologik ziddiyat yotishi hisobga olinishi kerak.

Komediya janridagi asarlar uchun mazmuniy asos bu bitiklardagi hajv, hazil va kinoya pafosidir. Bunday asarlarning mavzumuammolari cheksiz bo‘lsa-da, ko‘proq ijtimoiy-madaniy yo‘nalish ustuvorlik qilishi ko‘zda tutilishi lozim. Tahlil jarayonida komediyalarning uslubidagi nutqiy xilma-xillik, o‘tkir va shiddat bilan rivojlanadigan syujetga egalik, kuchli darajadagi shartlilik singari jihatlariga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Badiiy tah-

⁹⁷ Хализев В. Драма как род литературы. – Москва. 1986. – С. 46.

lil, asosan, u yoki bu timsol, sahna, ko‘rinish, luqma, jumlaning nima sababdan komik va kulgili ekanligini hamda komik effektga qanday erishilganini ochishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Badiiy asarning ilmiy tahlilida tekshirilayotgan asarning turi va janriga xos xususiyatlaridan tashqari, boshqa bir qator omillar ham borki, bularni hisobga olish tahlilning saviyasini oshirib, asardan kelib chiqadigan ma‘noni kuchaytirishga xizmat qiladi. Adabiy asar tahlilida kontekstni hisobga olish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, *yaqin aloqa, birlashish* ma‘nolaridagi lotincha so‘zdan olingan “*kontekst*” tushunchasi nutqning tarkibidagi birorta so‘z shu o‘rinda anglatadigan ma‘noni keltirib chiqarishga imkon bera oladigan mazmunli bo‘lagini anglatib, aslida bu so‘zning o‘zgacha ma‘nolari ham borligini ko‘zda tutadi.

Ma‘lumki, adabiy asar, bir tomondan, muayyan tugallikka egaligi sabab *yopiq*, boshqa tomondan esa, turli qirralari bilan matndan tashqaridagi, ya‘ni *kontekstdagi* borliq bilan tutashib, aloqaga kirishib turadigan *ochiq* hodisadir. Estetik ma‘noda *kontekst atamasi badiiy yaratiqdan tashqarida turgani holda unga ma‘lum darajada aloqador bo‘lgan narsa-hodisalar jamini anglatadi*. Adabiyotshunoslikka tegishli ilmiy manbalarda kontekstning a) badiiy asarning yozuvchi ijodiga, adabiy yo‘nalish va oqimlarga aloqadorligi bilan izohlanadigan *adabiy*; b) asar yaratilgan vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy sharoitni bildiruvchi *tarixiy*; ijodkorning hayot yo‘li, shaxsiyati, maishiy turmushi, yozuvchining ayni shu asar ustida ishlash vaqtidagi holati (matn tarixi)ga doir faktlarni anglatadigan *maishiy-biografik* singari turlari borligi qayd etiladi.

Badiiy asarni tahlil etishda kontekstga doir ma‘lumotlardan bir xilda foydalanilavermaydi. Shunday ham bo‘ladiki, kontekstga doir ma‘lumotlarsiz muayyan badiiy asarni tahlil qilish qiyin kechadi. Ayniqsa, tarixiy va hajviy asarlar tahlilida bunday holatlarga ko‘p duch kelinadi. Bunday vaziyatlarda tahlil kechida kontekstga doir dalillardan foydalanish asarning qimmatini oshiradi. Odil Youbovning “Ko‘hna dunyo”, “Adolat manzili”,

“Osiy banda” romanlari, “Qarnoq” xotira-qissasi, Abdulla Oripovning “Ranjkom” dostoni, Omon Matjonning “Bir kun Shukur Burhon...”, “Qaysi yil ko‘klamda Jayxun bo‘yida” she‘rlari kontekstual dalillarsiz unchalik tushunarli bo‘lmaydi. Ayrim hollarda esa ortiqcha kontekstual ma‘lumotlar badiiy asar tahliliga xalaqit berib qolishi ham mumkin.

Shuni hisobga olish kerakki, deyarli har qanday badiiy asarni idrok etishda ham, garchi juda umumiy darajada bo‘lsa-da, tarixiy kontekst ishtirok etadi. Hazrat Amir Temur va hazrat Alisher Navoiy haqidagi istalgan janrdagi asarning shu ulug‘ shaxsiyatlar yashab o‘tgan tarixiy davr haqida yuzakiroq bo‘lsa-da, tasavvuri yo‘q o‘qirman tomonidan anglab yetilishi mumkin emas. Shu sababli har qanday asarni idrok etishda, istalsin-istalmasin, muayyan kontekstual dalillar ishtirok etadi. Ayni vaqtda bevosita davrga bog‘liq bo‘lmagan, hech qachon eskirmas mavzulardagi asarlar tahlilida kontekstga doir ma‘lumotlardan foydalanish keraksiz, ba‘zan, hatto zararlidir. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov singari ijodkorlar bir avlodga mansub tengdosh va chog‘dosh yozuvchilar esa-da, ularning keskin ijodiy o‘ziga xosligi namoyon bo‘lgan asarlari tahlilida unar-unmasga tarixiy kontekstga doir dalillar tiqishtirilaverilmagani ma‘qul. Aksincha, asarning mavzu yo‘nalishi yoki undagi ko‘tarilgan muammo mohiyatiga ko‘ra, aniq tarixiy aspekt ustuvorlik qilgan asarlar tahlilidagina tarixiy kontekstual dalillarni qo‘llash foydali bo‘ladi.

Nima bo‘lganda ham badiiy tahlil kechimida tarixiy kontekstga doir ma‘lumotlardan foydalanishning bir qator xatarli jihatlari borligini bilish va yodda tutish kerak. **Birinchi**dan, adabiy asarni o‘rganish uning tarixiy kontekstini o‘rganish bilan almashtirib yuborilmasligi kerak. Badiiy asarga uning estetik jihatlaridan ko‘z yumgan holda tarixiy jarayonlarning illyustratsiyasi sifatida qarash mutlaqo noto‘g‘ri. Negaki adabiy yaratiq – birinchi navbatda, badiiyatga doir hodisa. Ilmiy tahlil asnosidagina uni tarix bilan bir qadar bog‘lash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuning uchun ham tahlilda tarixiy kontekstga doir ma‘lumotlardan foydalanishda me‘yorni saqlash, tahlil jarayonida badiiy asarning

biror o'rmini tushunish mumkin bo'lmay qolgan holatlardagina unga murojaat qilgan ma'qul.

Ikkinchidan, tarixiy kontekstga xos ma'lumot tahlilga tortilgan asarda tasvirlanayotgan davrni to'la qamray va izohlay oladigan yo'sinda bo'lishi kerak. Chunki tarix hamisha o'ta rang-barang, chigal, chalkash va murakkab hodisa bo'lgani uchun ham undagi asarga tegishli barcha jihatlarni ko'rsatmaslik biryoqlama izohga olib keladi. Chunonchi, sovet davrida ijod erkinligi bo'g'ilgani, yozuvchilarda haqiqatni aytish imkoniyati bo'lmaganiga to'xtalangani holda bu davrda G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Mirtemir, O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Vohidov, Sh.Xolmirzayev, A.Oripov, R.Parfi, O.Matjon, H.Xudoyberdiyeva, A.Suyun, M.Muhammad Do'st, Sh.Rahmon, U.Azim, A.A'zam, E.A'zam, Sh.Boshbekov singari ulkan ijodkorlarning eng sara asarlari yaratilgani nazardan qochirilmasligi zarur. Tarixiy kontekstga tegishli ma'lumotlar sovet davri badiiy adabiyot uchun faqat tanazzul va yo'qotishlar emas, balki ko'plab badiiy-estetik kashfiyotlar davri ham bo'lgani yodda tutilgan holda badiiy asar tahliliga jalb etilsa, asarlar mohiyatini teranroq ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, sovet davrida yashab, ijod qilgan ayrim yozuvchi-shoirlarni sovet tuzumiga qarshi kurashgan va mustaqillikni orzu qilgan tarzidagi biryoqlama yondashuvdan ham butunlay voz kechish kerak. Kimlarningdir nazarida, bunday talqin o'sha davrdagi ijodkorlarni ulug'lash bo'lib tuyular, ammo birorta ham chinakam san'atkor kimningdir yolg'on ulug'lashiga muhtoj emas.

Uchinchidan, tarixiy kontekstdagi adabiyotga bevosita daxldor bo'lgan ma'lumotlarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki badiiy asar etnosning milliy madaniyat va ijodiy tafakkuri holatini aks ettiruvchi hodisadir. Asosiy diqqat bitta davr, bir tuzum ichida turgan holda tamomila boshqa-boshqa yo'sinda badiiy asarlar yaratilgani sabablarini ochishga qaratilsa, badiiy asarlarni tekshirish samaradorligi ortadi.

Tahlilda **maishiy-biografik kontekst**dan foydalanish bevosita ijodkor shaxsining o'ziga daxldor bo'lgan holatlar aks etgan badiiy asarlarni tadqiq etishda qo'llanilganda kutilganiday samara

beradi. Shuningdek, muayyan bir tarixiy yoxud hayotiy hodisaga tegishli jihat aks ettirilgan badiiy asarlar tahlilida ham bir qadar qo‘l kelishi mumkin. San’atkorning umr yo‘li, o‘zgalar bilan munosabatiga doir ma’lumotlarga ortiqcha e’tibor qaratish ba’zan uning asari ko‘lamini toraytirib, maishiy munosabatlar darajasiga tushirib qo‘yishi ham mumkin. Ayniqsa, bevosita birinchi shaxs tilidan bitilgan asarlarni ilmiy sharhlashda biografik dalillardan ehtiyot bo‘lib foydalanish lozim. Aks holda, badiiy asarning umumlashtiruvchi, umuminsoniy xususiyati nazardan qochirilib, u shaxsiy munosabatlarning badiiy manzarasi sifatidagina talqin qilinib qolinadi.

Adabiy personajlarning hayotdagi prototiplarini izlash, ayniqsa, hayotdagi real shaxs bilan badiiy timsolga bir odam sifatida yondashish badiiy asarning umumlashtiruvchi kuchini susaytirib, asarning ta’sir qudratini kamaytirishi mumkin. Hayotdagi prototipga o‘xshash, bizda uzoq vaqt quvvatlab kelinganiday, muallifning tasvir mahoratini emas, balki nusxakash-ko‘chirmachilik darajasini ko‘rsatadigan omildir. Negaki hayotdan nusxa ko‘chirish ham aslida kitobdan ko‘chirish singari nusxakashlikning o‘zginasidir. Yozuvchi hayotdagi prototipni o‘zining hissiy tafakkuri prizmasidan o‘tkazsa, u real hayotdagi nusxasiga qaraganda mazmunli va ko‘lamliroq shaxs sifatida tasvirlangan bo‘lardi.

Rus adabiyotshunosi A.Skaftimov maishiy-biografik kontekstuallik badiiy tahlil jarayonida hamisha ham qo‘l kelavermasligi haqida: *“Asarning ilmiy-estetik anglanishida unda tasvirlangan obrazlarning hayotdagi “prototip”lari bilan solishtirilishi deyarli keraksiz yumushdir. Prototipga xos xususiyatlar muallif tasvirlagan biror personajning ichki olamini, ruhiyat dunyosini talqin etish va izohlashda tayaniladigan asos bo‘lolmaydi”*⁹⁸, – deb yozganida to‘la haqdir. Chindan ham hayotda bor odam – badiiy timsol, ammo badiiy timsol – real hayotdagi odam emas. Badiiy asarga hayotdagi odamning qaysidir bir chizgilari olingan, uning ichki olami tasviri esa, yozuvchi ilhomi hamda

⁹⁸ Скафтымов А.П. К вопросу о соотношении теоретического и исторического рассмотрения в истории литературы // Введение в литературоведение. Хрестоматия. – Москва. 1988. – С. 174-175.

asardagi boshqa timsollarning bu obrazga munosabatlarining natijasidir.

Badiiy asar tahlilida maishiy-biografik kontekstual yondashuv genetik yoʻnalishdagi tahlil amalga oshirilganda koʻproq qoʻl kelishi mumkin. Chunonchi, sanʼatkorning ayni bir asar ustida ishlash, tahrir qilish, takomillashtirish jarayoni borasida toʻgʻri tasavvur uygʻotish asarning mohiyatini anglashda muayyan oʻrin tutishi mumkin. Bunda asarning qoʻlyozma nusxalari, tahrirlari, qaysidir bir sabab bilan asarda qilingan oʻzgarishlar haqidagi maʼlumotlar muayyan ahamiyat kasb etishi mumkin. Deylik, Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” nomi bilan mashhur boʻlgan sheʼri aslida “Oʻzbek shamoli” deb nomlangan va “hushyor” muharrirlar asarni shu nom bilan chiqarishdan choʻchiganlari uchun muallif uni “Yurtim shamoli”ga aylantirishga majbur boʻlgan ekan. Bu xildagi maʼlumot ushbu sheʼrni idrok etish, undagi milliy oʻzlikni anglash gʻoyasini tuyishda muayyan ahamiyat kasb etishi aniq.

Biror asarning tushuntirish va izohlash qiyin oʻrinlarida adabiyot oʻqituvchilari muallifning biror qarashiga murojaat qilib, “Muallifning oʻzi shunday degan”, – tarzidagi fikrni aytishadi va unga rad qilib boʻlmaydigan salmoqli dalil sifatida qarashadi. Aslida mualliflarning oʻz asari haqidagi qarashlari hamisha ham toʻgʻri boʻlavermaydi. Aksar hollarda matnning obyektiv mazmuni muallif talqiniga muvofiq kelmaydi. Haqli savollar tugʻiladi: Ijodkorlar oʻzlarining nima yaratganliklarini bilmaydilmarmi? Bunday har xillikning sababi nima? Buning bir qator sabablari bor.

Birinchidan, muallif koʻpincha oʻzi ham sezmagani holda asarida aytmoqchi boʻlganidan boshqa narsani yaratib qoʻyishi mumkin. Bu hol badiiy ijod qonuniyatidagi oddiy odamlarga unchalik ham tushunarli boʻlmagan oʻziga xoslik tufayli sodir boʻladi: asar hamisha mazmun jihatdan muallifning u haqdagi ilk niyatiga qaraganda boyroq boʻladi. **Ikkinchidan**, asar yaratilgan vaqt bilan u haqda gapirilayotgan vaqt oʻrtasida, albatta, muayyan zamoniy oraliq boʻladiki, bu orada muallifning tajribasi, dunyoqarashi, olamni anglash va izohlash yoʻsini, ijodiy hamda axloqiy tamoyillari muayyan oʻzgarishlarga uchraydi. Obyektiv badiiy mazmun bilan muallif talqini oʻrtasidagi nomuvofqlikning **uchinchi** va asosiy sababi yozuvchining ijodkor sifatida olamni

idrok etish yo'sini bilan uning ilmiy-nazariy dunyoqarashi o'rtasidagi deyarli hech qachon o'zaro mos kelmaydigan nomuvofiqlik bo'lishidir. Dunyoqarash mantiqiy-tushunchaviy muntazamlilik va tartib ichida bo'lsa, dunyoni ijodiy idrok etish esa, asosan, san'atkorning tuyg'ulariga tayanib, odamning o'zi hamisha ham anglab yetavermaydigan hissiy, irratsional, ongostiga xos sifatlarga ega bo'ladi. Badiiy asarning asosida aynan aql bilan nazorat qilib bo'lmaydigan mana shu jihatlari yotadi, muallifning asar haqidagi mulohazalari esa mantiqiy izchillikka ega dunyoqarashining ifodasidir. Xuddi shu sabablarga ko'ra mualliflar o'z yaratmaqlarini izohlash va talqin etish borasida adashishlari mumkin.

Nazariy adabiyotshunoslik badiiy asar mazmunini anglatishda muallifning qarashlariga tayanish xavfli mashg'ulot ekanini anglab yetganiga ancha bo'ldi. Ijodkorlarning o'zlari ham avtotalqinining keraksizligi va hatto, ba'zan zararli ekanini qayd etishadi. Rauf Parfi o'zining birorta ham asarini sharhlashni istamasdi. "Adashgan ruh" dostoni qanday niyatda yaratilgani to'g'risida so'ralganda esa, "*Mening har qanday izohim dostonni o'ldirgan bo'lardi*", – degandi⁹⁹. Buyuk L.Tolstoy 1876-yilning 26-aprelida N.Straxovga yozgan xatidagi: "*Agar men romanda nimani ifodalamoqchiligimni aytib bermoqchi bo'lganimda, ayni shu romanning o'zini qaytaboshdan yozib chiqqan bo'lardim*", – tarzidagi iqrori ham shu fikrlarga hamohang.

Yolqinli qarashlari bilan rus adabiyotshunosligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan N. Dobrolyubov "Haqiqiy kun qachon keladi?" maqolasida yozganidek, badiiy asar uchun niyat emas, natija muhim: "*Yo'q, biz muallif zimmasiga hech narsa yuklamaymiz, avvaldan aytib qo'yamizki, biz, "Arafa" povestining mazmunini tashkil etgan voqeaning qanday maqsad bilan va qanaqa o'y-u fikrlar natijasida tasvir etilganini bilmaymiz. Bizga muallifning nima demoqchi bo'lganidan ko'ra, garchi atayin bo'lmasa hamki, turmush faktlarini haqqoniy tasvirlash natijasida uning nimalar degani ahamiyatliroqdir*"¹⁰⁰.

⁹⁹ Ushbu kitob mualliflaridan biri – Q. Yo'ldosh bilan bo'lgan suhbatda shoir tomonidan qilingan iqrori.

¹⁰⁰ Dobrolyubov N.A. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: "O'zdamnashr", 1959. 258-bet.

Muallifning o‘z asarini izohlashi keraksizligi borasida postmodern adabiyot haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarning asoschisi va shu yo‘nalishga doir ilk roman muallifi italyan yozuvchisi Umberto Eko “Atirgulning ismi” nomli postmodernistik romanida yanada keskinroq fikr bildiradi: *“Muallif o‘z asarining interpretatsiyasi bilan shug‘ullanmasligi kerak. Yoki u o‘zini-o‘zi talqin qiladigan mashina-generatorga o‘xshash roman yozishi kerak edi. ...Kitobini tugatgach, matnning yo‘liga to‘siq bo‘lmaslik uchun muallifning o‘lgani ma‘qul bo‘lardi”*¹⁰¹.

Tahlilda *adabiy kontekst*dan foydalanish hech qachon zarar keltirmaydi. Tekshirilayotgan asarni shu muallifning boshqa asarlari bilan solishtirish, ayniqsa, foydalidir. Zero, faqat bir necha asar solishtirib o‘rganilgandagina, muayyan san’atkor tayanadigan ijodiy tamoyillar, timsollarga yondashuv tarzi, uni qiziqtiradigan muammolar, uning ifoda uslubiga xos xususiyatlar tizimini aniqlash mumkin bo‘ladi. Tahlilning bu yo‘sini umumiydan xususiyligiga borish tarzi haqida mulohaza yuritish imkonini berishi bilan ajralib turadi. “O‘tkan kunlar”dagi Otabek timsolini “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar, “Obid ketmon” qissasidagi Obid timsollari bilan qiyoslash Abdulla Qodiriyning bosh qahramon tanlash, uni badiiy tadqiq etish yuzasidan tayanadigan tamoyillari haqida muayyan tasavvur uyg‘otadi.

Ba‘zan badiiy tahlilga adabiy kontekstni qo‘llamay turib, tadqiq etilayotgan adabiy hodisa mohiyatini anglash, umuman, mumkin bo‘lmay ham qoladi. Jumladan, shoir Faxriyorning she‘rlari vaqtli matbuotda e‘lon qilinganda, deyarli hech kimning e‘tiborini tortmadi. Qachonki, shoirning “Ayolg‘u” kitobi chop etilib, shu vaqtga qadar bosilgan ko‘plab she‘rlari bir joyga to‘planganda, ular o‘zbek she‘riyati taraqqiyotidagi o‘ziga xos hodisa ekanligi ayon bo‘ldi. Negaki, bir jild ichida poetik asarlarning ifoda originalligi, timsollarning injaligi, shoirning ko‘rkam so‘zni tovlan-tirish mahorati, uning kutilmagan shakliy izlanishlar qila olish salohiyati kuchlangan holda bo‘rtib namoyon bo‘ldi. Kitob orqali o‘qirmanlar onda-sonda sodir bo‘ladigan uzuq-yuluq she‘riy holat bilan emas, balki izchil poetik qonuniyat bilan yuzma-yuz keldilar va bu hol, bir tomondan, ularga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi, ikkinchi

¹⁰¹ Эко У. Имя розы. – Москва. 1989. – С. 428-430.

tomondan, Faxriyorning ijodiy ko‘lamini to‘laroq namoyon qildi. O‘ktamoy, Zebo Mirza, Halima Ahmad singari shoirlar misolida ham shu holni ko‘rish mumkin.

Adabiy kontekst doirasini oldin o‘tgan san’atkorlar hamda zamondosh mualliflar ijodi namunalari bilan solishtirish hisobiga kengaytirish ham ilmiy tahlil amaliyoti uchun g‘oyat foydalidir. Sababki, muayyan asarni o‘zga san’atkorlarning ijod namunalari bilan qiyoslagan holda tadqiq etish asari tekshirilayotgan yozuvchining badiiy konsepsiyasidagi o‘ziga xoslik, tasvir uslubidagi betakrorlik singari jihatlarni ishonarli ko‘rsatish imkonini beradi. Ko‘rinadiki, adabiy kontekstdan foydalanish muayyan badiiy-estetik hodisa zamiridagi qonuniyatni anglashga sharoit yaratib, o‘rganilayotgan asarning asl qimmatini to‘g‘risida xatosiz to‘xtamga kelish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni o‘quv tahliliga tortganda, uning qaysi adabiy tur va janrga mansubligini hisobga olish tahlil samaradorligi, to‘laligi va aniqligini ta’minlashda qo‘l keladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘quv tahlilida badiiy asarning tur va janr xususiyatlarini hisobga olishning ilmiy-pedagogik zaruriyatiga to‘xtaling.
2. Lirik asarlar tahlilida nimalarga e‘tibor berish kerak?
3. Epik turdagi asarlar tahlili qanday amalga oshiriladi?
4. Epik turning har bir janriga mansub asarlar tahliliga xos jihatlarni izohlang.
5. Dramatik asarlar tahlilida tayaniladigan tamoyillarga to‘xtaling.
6. O‘quv tahlilida kontekstni hisobga olishning o‘rnini sharhlang.

LIRIK ASARLARNI TAHLIL QILISH YO‘LLARI

Reja:

1. Lirik asarlarga xos xususiyatlar.
2. Lirikada ijodkor subyekti ifodasining o‘rnini o‘quvchilarga anglatish zarurligi.
3. O‘quvchilarga lirik asarlarda tuyg‘u ifodasi ustuvorligi sabablarini anglatish yo‘llari.
4. Lirik asarlar tahliliga xos jihatlar.

Tayanch tushunchalar:

Lirika, lirikada ijodkor shaxs o'рни, lirikada zamon tushunchasi, lirikadagi lahzalik tuyg'u ifodasi, lirik asarga qisqalik xosligi, lirik asar – kayfiyat tasviri ifodasi, lirikada ohang, musiqiylik va ritm.

Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ham lirik asarlarini tahlil qilish muayyan qiyinchilik tug'dirishi ma'lum. Chunki, asosan, tuyg'u ifodasi o'laroq paydo bo'lgan lirik asarni mantiqning tiliga ko'chirish chindan ham oson emas. Lirik turga tegishli asarlarda qo'llangan so'zning ohangi ham kayfiyat ifodasini berish, ham holat tasvirini chizish, ham taassurot manzarasini ko'rsatish vositasi bo'lganligi uchun lirik asarni tahlil qilishda badiiy so'zdagi yetakchi ohangni ilg'ab olish, asar musiqasini tayin etgan omillarni topishga alohida diqqat qaratish zarurdir. Lirik asarda kayfiyat qay darajada tasvirlanganligi uning estetik qiymatini tayin etuvchi asosiy omildir. Shu sababli bu turdagi asarlarda nima tasvirlangani bilan birga, qanday tasvirlanganini tekshirish ham muhim.

Lirik asarlar tahlili batafsil, chuqur va aniq bo'lishi uchun, birinchi navbatda, bu turga mansub asarlarga xos yetakchi belgilarni bilib olish lozim. Adabiyottanuv ilmida lirik turga xos asosiy xususiyatlar sifatida

a) his-tuyg'uni ifodalashi;

b) lahzalik kechinmalar ifodasi o'laroq hajmi kichik bo'lishi;

v) badiiy nutqning she'riy shakli xosligi;

g) juda oz bo'lsa-da nasriy lirik asarlar ham borligi;

d) nutqning monologik shakli ustuvor ekani;

e) badiiy zamon – “hozirgi zamon” ekanligi;

y) badiiy shaxs – “men” (birinchi shaxs)ligi singari jihatlar

sanaladi. Bulardan tashqari, lirik turdagi asarlarda badiiy obyekt va badiiy subyekt bitta shaxsda uyg'unlashishi, ya'ni unda, asosan, muallifning ichki dunyosi tasvirlanishi maqsad bo'ladi.

“Adabiyotshunoslik lug'ati” kitobida lirika tushunchasiga **“Lirikada voqelik subyekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyektini emas, subyektini birlamchidir”**¹⁰², – tar-

¹⁰² Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: “Akademnashr”, 2010. 152- bet.

zida ta'rif berilgan. Lirik asarlar, asosan, ruhiyat manzaralarini aks ettirib, junbishga kelgan tuyg'ular ifodasi sifatida paydo bo'lgani uchun ham bu turga mansub asarlar tahlili jarayonida sezimlar, tuyg'ular tizimi tasviridagi o'zgachaliklarga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Lirikada voqealar bayoni, xatti-harakatlar ko'lamini emas, balki kechinmalar zamzamasini qay tarzda berilishini tadqiq etish muhimdir.

Milliy adabiyotimiz tarixida lirik turdagi asarlar salmoq jihatidan ham, sifat jihatidan ham katta o'rin tutadi. Negaki o'ta ta'sirchan ruhiyatga ega bo'lgani holda o'zbek xalqi odatiy muomala-munosabatlarda o'z tuyg'u va kechinmalarini hamisha ham bemalol va ochiq bildiravermaydi. Iste'dodli shaxs ko'nglida tashqariga chiqarilmay, qatlanib yotgan his-tuyg'ular lirik asar bo'lib moddiylashuvi tabiiydir.

Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Bu turdagi asarlarda voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat va hissiyot ifodasini berish, tuyg'ular samimiyatini muhrlash muhim hisoblanadi. Chinakam lirik she'r tinglovchi yo o'qirmanga zavq beribgina qolmay, uning emotsional tafakkuri va ma'naviy-axloqiy quvvatini uyg'otib, faoliyatga undaydi.

Samimiy va jozibador lirik so'z, hatto, real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum. Shu boisdan ham lirik asar tahlili kishini nafaqat estetik-ma'naviy jihatdan, balki funksional-aqliy tomondan ham kamolotga yetkazishga xizmat qiladi. Inson aqli-yu tilidan tashqari, nozik va ingichka tuyg'ularga egaligi bilan ham boshqa jonliqlardan farq qiladi. Lirik hayot hodisalarini emas, balki inson ruhiyatida yuz beradigan o'ta nozik, betakror holatlarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Shu holatlarni hisobga olib bo'lsa kerak, Ortega-y-Gasset "San'atning degumanizatsiyalashuvi" asarida: *"Odam tanasining og'irligi tufayli xuddi teshilgan havo shari kabi ko'tarilolmay, goh yerda sudralib, goh daraxtlarga ilashib, goh tomlarga urilib yotgan she'riyatni ortiqcha yukdan xalos etish kerak edi... Endilikda odamlar hayot bir narsa, poeziya esa tamomila boshqa bir nar-*

sa ekanini bilishyapti, bilishmasa-da, sezishyapti. Bu ikki narsani bir-biriga aralash-tirmagan ma'qul. Aynan odam tugagan joydan shoir boshlanadi. Birining taqdiri – o'zining "insoniy" yo'lidan yurish, ikkinchisining missiyasi esa yo'q narsani yaratishdir. Shoir dunyoni boyitadi, o'z-o'zicha mavjud bo'lgan real borliqqa, o'zining yangi irreal qit'asini qo'shib, olamni kengaytiradi"¹⁰³, – deb yozadi. Bir qarashda tushunarsizday ko'ringan bu fikr orqali lirikaga odamning hayotida uchraydigan muammolarni hal etishga urinish vositasi deb emas, balki ko'ngil holatlarini, sababini bilish ham, tushunish ham, tushuntirish ham o'ta mushkul bo'lgan ruhiyat jilvalarini aks ettirish yo'li deb qarash lozimligi ifodalangan. Orteganing: "*Aynan odam tugagan joydan shoir boshlanadi*", – degan qanoatida odamga tegishli bo'lgan turli majburiyatlarni unuta bilgan kishigina shoir bo'la olishi qayd etilgan. Zero, shoir borliqdagi reallikdan ko'ra ko'proq tasavvur va ko'ngil realligida bo'lishni xush ko'radigan shaxsdir.

Lirika adabiy tur sifatida epos va dramadan keskin farq qilib, tahlil jarayonida unga xos belgilarni to'liq hisobga olishni talab etadi. Agar epos va dramada inson turmushining obyektiv tomoni aks ettirilsa, lirikada ijodkorning ruhiyati, ongi, ongosti holati, ya'nikim, bevosita o'ziga tegishli subyektiv jihatlari ifodalanadi. Epos va dramaga mansub asarlarda borliq yoki ruhiyat *tasvirlanadi*, lirik bitiklarda esa *ifoda etiladi*. Lirika epos va dramaga o'xshab san'atning tasviriy turiga emas, balki tamomila boshqa ekspressiv-hissiy turiga mansubdir. Shuning uchun ham lirik asarlar tahlilida epik va dramatik asarlar tadqiqida qo'llangan usullardan hamisha ham foydalanib bo'lmaydi. Bu tur asarlarni tekshirishda uning o'ziga xos yondashuv va usullari qo'llanilishi kerak.

Lirik asarlar tahlilida ustuvorlik qiladigan jihat undagi o'ziga xos ichki psixologizmni hisobga olishdan iboratdir. Agar epos va qisman dramada timsollar ichki olami tashqaridan turib tasvirlansa, lirikadagi psixologizm bevosita va ekspressiv-hissiy bo'lib, subyektning izhori obyektning ruhiy ifodasiga mos keladi. Shu

¹⁰³ Ortega-й-Гассет. Дегуманизация искусства. – С. 16-17. – <http://www.webreading.ru>

sababli ham lirika odam ichki olamini kechinma, sezgi va hissiyotlar orqali eposdagiga nisbatan bevosita, jonli va ta'sirli ifoda etadi.

Lirika, o'rni kelganda, inson tafakkuriga ham kuchli ta'sir ko'rsata biladi. Ruhiyattanuv ilmidagi "hissiy tafakkur" degan tushuncha tuyg'uning tafakkurga ta'siri mahsulidir. Unga ko'ra, uyg'ongan hissiyot tafakkurning ham kuchli darajada qo'zg'atishiga sabab bo'ladi. Adabiyot tarixida juda ko'plab lirik asarlarning kechinma va hissiyotlarni kuchlantirishdan tashqari, yuksak darajada hissiy bo'yoqqa ega fikr-mushohada uyg'otganini ham ko'rish mumkin. Hazrat Navoiyning "Xarobot aro kirdim oshuftahol..." tarji'bandidan tortib, A.Oripovning "Sarob", "Bahor", "Malomat toshlari", "Olomonga" kabi she'rlari singari ko'plab bitiklar shu xil lirik asarlar sirasiga kiradi. Lirik asarlarda ifoda etilgan olam, hammadan burun, ruhiyat olamidir. Bu jihat, ayniqsa, lirik she'rlardagi ayrim tafsil (detal)larni badiiy tahlil etishda hisobga olinishi lozim bo'ladi.

Abdulla Oripovning "Onajon", "Bahor" she'rlaridagi istisinosiz barcha tafsillar psixologik bo'lib, shunchaki sharoitni ko'rsatishga xizmat qiladigan birorta ham predmetli detal yo'q. Bu she'rlardagi barcha detallar to'lig'icha shoir ruhiy holatidagi turli sezim va kechinmalarni teranroq ifodalashga xizmat qiladi. Mabodo, tabiat tasviriga bag'ishlangan sof lirik bitiklarda predmetli detal tasvirlari uchragan taqdirda ham ular yo bevosita yoxud bilvosita lirik qahramon ruhiyati va kayfiyatini ifodalashga qaratilgan bo'ladi. Mirtemirning "Betoblikda", R. Parfining "Yomg'ir yog'ar", A. Oripovning "Yomg'ir tinmay yog'di kun bo'yi" singari she'rlaridagi tabiat manzarasiga oid tafsillar o'z holicha maqsad emas, balki ruhiy holatni ta'sirli yo'sinda berish vositasidir. Ko'rinishdan faqat peyzaj ifodasiga bag'ishlangan bu kabi she'rlar aslida to'lig'icha kayfiyat va ruhiy holatni ko'rsatishga qaratilgan. Shu bois ham lirikadagi peyzaj tasvirini tabiat manzarasi deyishdan ko'ra, shoir yoki lirik qahramon kayfiyatlarining vositali manzarasi deyish to'g'riroq bo'ladi. Lirik she'rlarda ah-yon-ahyonda uchrab qoladigan portret yoki atrof-olamdagi narsalarga oid tafsillar to'g'risida ham shu gapni aytish mumkin.

Tasvirda syujetga o'xshabroq ketadigan voqeabandlik hamda obrazlar tizimi usurlari mavjud bo'lgan lirik asarlar tahlili ham murakkab kechadi. Negaki bu xil poetik asarlarda tafsilot borligi sabab tahlilda epos va drama tahliliga mos tamoyil va usullarni qo'llash kerakday tuyuladi. Bunday qilish mutlaqo noto'g'ri, zero, lirik asardagi syujet va personaj aslida "soxtasyujet" va "soxtapersonaj" bo'lib, epos va dramadagidan tamomila o'zgacha mohiyatga ega bo'lib, mutlaqo boshqa – psixologik funksiyani bajaradi. Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ridagi o'zbek xalqiga bag'ishlangan badda dehqon obrazi, uning e'tiqodini anglatuvchi qarashlari tabiat tasviri bilan uyg'unlashtirilgan holda tasvirlanganki, u, dastlab, xuddi epos va dramatik asarlarni o'rgangan kabi tahlil etish mumkinday taassurot qoldiradi. Lekin bu taassurot yanglish bo'lib, dehqon timsoli, uning portreti va so'zlari alohida katta badiiy qiymatga ega emas, balki O'zbekistonning yaxlit lirik obrazi ifodasiga hissiy jo'shqinlik beruvchi yordamchi vosita vazifasini bajaradi. She'r uchun kuzakdagi voqea ham, dehqonning xatti-harakatlari ham emas, balki shu kichik "syujet"ning hissiy bo'yoqdorligi muhim. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, lirikada syujet uchrab qolsa-da, u mustaqil estetik unsur sifatida mavjud bo'lmaydi, balki hissiy-psixologik ifodaviylikni orttirish vositasi hisoblanadi.

Lirik asar tahlilida syujetga ham, personajlarga ham, predmetli tafsillar tasviriga ham bajarayotgan muayyan ruhiy-psixologik vazifasi doirasidagina yondashiladi. Ma'lumki, ayni shu narsalar epik asar tahlilida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Lirik turdagi asarda muallif yoxud lirik qahramon tahlili muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Lirik qahramon – lirik asardagi odam timsoli, lirik kechinmalar tashuvchisi. Har qanday obraz sifatida lirik qahramon ham betakror, o'ziga xos individual shaxslik sifatlarini namoyon etibgina qolmay, muayyan umumlashtiruvchi universal xususiyatlarga ham ega bo'ladiki, bu hol unga shoir shaxsi bilan bir deb qaramaslik kerakligini taqozo etadi. To'g'ri, ko'pincha lirik qahramon o'z tabiati, odamlar va hayot hodisalariga munosabati bilan shoir shaxsiga juda yaqin keladi, lekin ular deyarli hech qachon to'liq birlashib ketmaydi. Tan olish kerakki, shoir

lirik qahramonni, birinchi navbatda, o'zining shaxsidan oladi. Lekin shoir har safar, har bir asarining lirik qahramonida o'z shaxsiyatidagi muayyan qirralarni faollashtirish orqali lirik kechinmalarni umumlashtirish va universallashtirishga erishadi. Ayni shu umumlashganlik sababli lirik qahramon tuyg'ulari o'qirmanlarga-da yuqadi, ularga-da ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham she'rxon lirik qahramonga o'xshab, u bilan birlashib ketadi. Bu hol nafaqat asar muallifi, balki lirik bitikni o'qib, qahramon kechinma va tuyg'ularini tuygan har qanday odamni ham lirik qahramon deyishga imkon beradi. Ayrim lirik she'rlarda lirik qahramon shoirdan ancha uzoq bo'lib, real muallifga daxldorligi juda shartli bo'ladi. Halima Xudoyberdiyevaning "Yo'ldadirman", "Muqaddas ayol", Usmon Azimning "Gladiator", "Baxshiyona", Azim Suyunning "Qodir ovchining o'limi", Muhammad Yusufning va yana shu singari boshqa minglab she'rlarning lirik qahramonlarini muallifning o'zi deyish mumkin emas.

Lirik asarning hajman kichik bo'lishga intilishi natijasida asarning kompozitsiyasi murakkablashadi va taranglashadi. Lirikada epos va dramaga qaraganda, takrorlash, qarshi qo'yish, kuchaytirish, kurash kabi kompozitsion usullar faol qo'llaniladi. Lirik asar kompozitsiyasida badiiy mazmunning ikki va ko'pyo'nalishli bo'lishiga olib keladigan obrazlarning o'zaro munosabati juda katta ahamiyat kasb etadi.

Lirik asar kompozitsiyasining asosiy tayanch nuqtasi yakunda bo'ladi, bu kichik hajmli lirik asarlarda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'pincha kichik hajmli she'rlarning qolgan qismi eng so'nggi bir yoki ikki qatorda aytilgan fikr uchun tayyorgarlik vazifasini o'taganday bo'ladi.

Lirikaning badiiy nutq sohasidagi uslubiy asoslari: monologizm, ritorika hamda tizma shakldan iboratdir. Lirik asarlarning asosiy qismi lirik qahramon monologi tarzida qurilgani uchun unda bayonchi-roviy nutqi ham, personaj nutqi ham kamdan-kam uchraydi, binobarin, ularning nutqiy xarakteristikasiga zaruriyat sezilmaydi. Ammo ayrim lirik asarlar dialog shakliga qurilgan bo'lishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Odatda, lirik nutq hissiy ko‘tarinkiligi bilan ajralib turadi hamda unda istiora, majoz va sintaktik figuralar ko‘pligi ko‘zga tashlanadi. Gassetning: *“Poeziya majozning oliy matematika-sidir. Odamdagi ega bo‘lish uchun emas, balki bekitib qo‘yish uchun bir narsani boshqasi bilan almashtirishga bo‘lgan ehtiyoj chindan ham hayratlanarlidir. Majoz bir narsani boshqasi bilan niqoblagan holda juda chaqqon yashiradi; agar ortida odamga xos reallikdan qochish instinkti turmaganda, majozning hech qanday ma‘nosi qolmagan bo‘lardi”*¹⁰⁴, – degan fikrida lirikaga xos majoziylik zamirida jo‘nlikdan qochish, obrazli fikrlashga intilish orqali murakkab va chigal ruhiy holatlarni ifodalash istagi yotishi o‘rinli qayd etiladi. Lirikada so‘zni faqat o‘z ma‘nosida qo‘llash deyarli hech qanday badiiy effekt bermaydi; u yo ramzga o‘ralganda, yoki shaxslantirilganda, yoxud narsalashtirilganda, ya‘ni real o‘zlikdan uzoqlashgandagina muayyan poetik ahamiyat kasb etadi va o‘qirmanga ta‘sir ko‘rsatadi.

Lirika o‘z tarkibidagi barcha unsurlarning yuqori darajada uyushganligi va ko‘lamdorligi bilan nasrdan ajralib turadi. So‘zlarning she‘r tarkibidagi o‘rni, harakati, ularning o‘zaro munosabatlari, poetik ritm va qofiya doirasida mavjudligi, tizimli (she‘riy) nutqda musiqiylikning ustuvorligi, ritmik va sintaktik qurilishning muhimligi singari shaklga doir jihatlar nazmiy asarga nasrda mutlaqo bo‘lmaydigan qo‘shimcha ifodaviy imkoniyat beradi. Agar juda ko‘plab go‘zal she‘rlar sochma (nasr) shaklga solinsa, tuzukroq mazmundan mahrum shunchaki so‘zlar yig‘indisidan iborat bo‘lib qoladi. Chunki poetik mazmun tizmadagi so‘zlarning ma‘nosidan ham ko‘ra, ularning she‘riy shakl ichidagi munosabat va joylashuvidan kelib chiqadi.

Ko‘rinadiki, poetik ma‘noni kuchaytirish ehtiyoji tufayli lirikada ritmik qurilish, she‘riy shaklga intilish mayli kuchli bo‘ladi. Negaki she‘riy so‘zga nasriy sochma so‘zdagiga qaraganda kuchliroq hissiyot yuklanadi. Ammo bu lirik asar faqat she‘riy yo‘ldagina yaratiladi, degani emas. Milliy she‘riyatimiz tajribasida sochma ko‘rinishdagi lirik asarlar ham oz emas, she‘riy shakl

¹⁰⁴ Ортага-й-Гассет. Дегуманизация искусства. – С. 17. – <http://www.webcading.ru>

lirika uchun asosiy mavjudlik tarzi bo'lsa-da, yagona shakli ko'rinish emas. Qator ijodkorlar tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan mansuralar hamda o'tgan asrning 70-yillarida dunyoga kelgan lirik nasrga oid yaratilgan fikrimizning dalilidir. Bu holatni, ya'ni lirikaning she'riy emas, balki nasriy shakldan foydalanishi masalasi alohida o'rganilishga loyiq. Negaki bu o'rinda muallifning individual ijodiy o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. "Nasrdagi she'r" ham ritmik tashkillanganlik va she'riy qurilishga ega bo'lmagani holda, ularda kichik hajm, yuqori darajadagi hissiylik, syujetsiz kompozitsiya, subyektiv taassurot va kechinmalarni ifodalashga yo'nalganlik singari barcha lirik turdagi yaratilgan xos umumiy belgilar mavjud bo'ladi.

Lirik nutqning xususiyatlarini tahlil etish ko'p jihatdan bu turdagi asar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan nutqning shiddati va sur'at (qarqin)ini tekshirishdan iboratdir. Negaki nutqning qarqini, shiddati, takroriylik kabi jihatlar muayyan kayfiyat hamda ruhiy holatni ifodalashdan tashqari, o'qirmanlarda shu holatni qo'zg'ash xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Lirik turning o'ziga xosligi uning mazmun jihatini tekshirishga ham ta'sir qiladi. Lirik she'r bilan ish ko'rilganda, birinchi navbatda, uning pafosini anglab yetish, she'rdagi yetakchi hissiy holatni ilg'ash va aniqlash muhimdir. Ko'pgina hollarda lirik bitikning pafosini to'g'ri aniqlash o'qituvchini she'rning badiiy mazmunga doir boshqa unsurlarini tahlil qilib o'tirish zaruriyatidan xalos etadi.

Tizma yo'li bilan yaratilgan bo'lsa-da, muayyan miqdorda har yotiy tafsilotlar aks etgan liro-epik janrdagi bitiklar tahlili ham alohida e'tiborni talab qiladi. Nomidan ko'rinib turganidek, bu xil asarlarda epik va lirik belgilar qorishib, sintezlashgan bo'ladi. Liro-epik asarlar eposdan, kuchsizroq ko'rinishda bo'lsa-da, syujetlilik, bayon, obrazlar tizimi, real borliqning tasviri singari jihatlarini oladi. Lirikadan esa lirik qahramon, subyektiv kechinma ifodasi, nisbatan kichik hajmga intilish, she'riy nutq va psixologizm, ruhiyat ifodasi kabi xususiyatlarni o'ziga singdirgan bo'ladi.

Tahlil jarayonida liro-epik asarlardagi liriklik va epiklik xususiyatlaridagi ayirmalarni ko'rsatishga emas, balki ularning bitta

badiiy olamdagi sintezi, uyg'unlashuviga e'tibor qaratish kerak. Bu kechimda lirik qahramon-bayonchi timsolini tahlil qilish hal etuvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Liro-epik asarlarda bayoniy nutq osonlik bilan hissiy-lirik nutqqa o'tib ketadi, sababi bayonchi va lirik qahramon aslida bitta obrazning ajratib bo'lmas ikki qirrasidir. Shuning uchun ham bu janrda yaratilgan bitiklarda narsalar, odamlar, voqea-hodisalar bayoni, ya'nikim, bu xil asarlarning barcha unsurlarida lirik qahramon ohangi sezilib turadi.

Lirik asarni tahlil qilishda matndan mantiqiy xulosa chiqarishga shoshilmaslik, imkon boricha, bunday xulosani topishga, umuman, intilmaslik kerak. Lirik asar tahlili uchun, muhimi, she'rda ifoda etilgan ruhiy holatga she'rxon hissiyot olamidagi reaksiya, munosabatning uyg'unligini ta'minlashdir. Lirik asar chuqur tahlil tufayli o'qirmanlar tomonidan to'liq qabul etilsa va matndagi she'rxon yuragiga ta'sir ko'rsatgan, uni bezovta qilgan estetik omillar anglab etilsa, shuning o'zi umumlashma xulosadir. Lirik qahramon yoki shoir holatini bevosita his etishga odatlanirish yo'li bilan she'rxon o'zgalarning ruhiyatini ilg'aydigan, birovning qayg'usiga dardkash, quvonchiga sherik bo'la oladigan ma'naviyati yuksak, barkamol shaxs sifatida shakllana boradi.

Lirik asarlardagi inja badiiy san'atlarni, nozik ishoralarni, ko'zdan yashirin tasvir vositalarini payqash o'qirmanda badiiy so'z jozibasini tuyish qobiliyatini qaror toptiradi. Lirik so'z sehidan zavqlana bilish o'quvchining sezimlarini noziklashtiradi, nutq boyligini orttirib, fikrlash qarqinini tezlatadi. Lirik asar tahliliga o'quvchilarning qalb ko'zini ochish, ularda atrof olam va olam ruhiyatidagi go'zalliklarga faol munosabat uyg'otish vositasi tarzida qarash tahlilning ijtimoiy-estetik ahamiyatini oshiradi.

Milliy lirikamizning yirik vakillaridan ayrimlari misolida lirik asarlar tahlili qanday amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Cho'lpon she'riyatida ruhiyat manzaralari, inson hissiyotining umumlik to'lg'onishlari aks ettiriladi. Jumladan, "Go'zal" she'rida shoir tabiatning juda dilbar manzarasini yaratgan. Lekin bu she'rda tabiatdan nusxa ko'chirish, borliqning o'ziga chiroyli ko'ringan layhasini shu holicha tasvir etish maqsad qilinmagan. Cho'lpon bu tizmasida tabiat tasviriga inson ruhini singdiradi, insoniy his-

lirika uchun asosiy mavjudlik tarzi bo'lsa-da, yagona shakliy ko'rinish emas. Qator ijodkorlar tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan mansuralar hamda o'tgan asrning 70-yillarida dunyoga kelgan lirik nasrga oid yaratilgan fikrimizning dalilidir. Bu holatni, ya'ni lirikaning she'riy emas, balki nasriy shakldan foydalanishi masalasi alohida o'rganilishga loyiq. Negaki bu o'rinda muallifning individual ijodiy o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. "Nasrdagi she'r" ham ritmik tashkillanganlik va she'riy qurilishga ega bo'lmagani holda, ularda kichik hajm, yuqori darajadagi hissiylik, syujetsiz kompozitsiya, subyektiv taassurot va kechinmalarni ifodalashga yo'nalganlik singari barcha lirik turdagi yaratilgan xos umumiy belgilar mavjud bo'ladi.

Lirik nutqning xususiyatlarini tahlil etish ko'p jihatdan bu turdagi asar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan nutqning shiddati va sur'at (qarqin)ini tekshirishdan iboratdir. Negaki nutqning qarqini, shiddati, takroriylik kabi jihatlar muayyan kayfiyat hamda ruhiy holatni ifodalashdan tashqari, o'qirmanlarda shu holatni qo'zg'ash xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Lirik turning o'ziga xosligi uning mazmun jihatini tekshirishga ham ta'sir qiladi. Lirik she'r bilan ish ko'rilganda, birinchi navbatda, uning pafosini anglab yetish, she'rdagi yetakchi hissiy holatni ilg'ash va aniqlash muhimdir. Ko'pgina hollarda lirik bitikning pafosini to'g'ri aniqlash o'qituvchini she'rning badiiy mazmunga doir boshqa unsurlarini tahlil qilib o'tirish zaruriyatidan xalos etadi.

Tizma yo'li bilan yaratilgan bo'lsa-da, muayyan miqdorda hayotiy tafsilotlar aks etgan liro-epik janrdagi bitiklar tahlili ham alohida e'tiborni talab qiladi. Nomidan ko'rinib turganidek, bu xil asarlarda epik va lirik belgilar qorishib, sintezlashgan bo'ladi. Liro-epik asarlar eposdan, kuchsizroq ko'rinishda bo'lsa-da, syujetlilik, bayon, obrazlar tizimi, real borliqning tasviri singari jihatlarni oladi. Lirikadan esa lirik qahramon, subyektiv kechinma ifodasi, nisbatan kichik hajmga intilish, she'riy nutq va psixologizm, ruhiyat ifodasi kabi xususiyatlarni o'ziga singdirgan bo'ladi.

Tahlil jarayonida liro-epik asarlardagi liriklik va epiklik xususiyatlaridagi ayirmalarni ko'rsatishga emas, balki ularning bitta

badiiy olamdagi sintezi, uyg'unlashuviga e'tibor qaratish kerak. Bu kechimda lirik qahramon-bayonchi timsolini tahlil qilish hal etuvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Liro-epik asarlarda bayoniy nutq osonlik bilan hissiy-lirik nutqqa o'tib ketadi, sababi bayonchi va lirik qahramon aslida bitta obrazning ajratib bo'lmas ikki qirrasidir. Shuning uchun ham bu janrda yaratilgan bitiklarda narsalar, odamlar, voqea-hodisalar bayoni, ya'nikim, bu xil asarlarning barcha unsurlarida lirik qahramon ohangi sezilib turadi.

Lirik asarni tahlil qilishda matndan mantiqiy xulosa chiqarishga shoshilmaslik, imkon boricha, bunday xulosani topishga, umuman, intilmaslik kerak. Lirik asar tahlili uchun, muhimi, she'rdada ifoda etilgan ruhiy holatga she'rxon hissiyot olamidagi reaksiya, munosabatning uyg'unligini ta'minlashdir. Lirik asar chuqur tahlil tufayli o'qirmanlar tomonidan to'liq qabul etilsa va matndagi she'rxon yuragiga ta'sir ko'rsatgan, uni bezovta qilgan estetik omillar anglab etilsa, shuning o'zi umumlashma xulosadir. Lirik qahramon yoki shoir holatini bevosita his etishga odatlantirish yo'li bilan she'rxon o'zgalarning ruhiyatini ilg'aydigan, birovning qayg'usiga dardkash, quvonchiga sherik bo'la oladigan ma'naviyati yuksak, barkamol shaxs sifatida shakllana boradi.

Lirik asarlardagi inja badiiy san'atlarni, nozik ishoralarni, ko'zdan yashirin tasvir vositalarini payqash o'qirmanda badiiy ko'z jozibasini tuyish qobiliyatini qaror toptiradi. Lirik so'z she'ridan zavqlana bilish o'quvchining sezimlarini noziklashtiradi, nutq boyligini orttirib, fikrlash qarqinini tezlatadi. Lirik asar tahliliga o'quvchilarning qalb ko'zini ochish, ularda atrof olam va odam ruhiyatidagi go'zalliklarga faol munosabat uyg'otish vositasi tarzida qarash tahlilning ijtimoiy-estetik ahamiyatini oshiradi.

Milliy lirikamizning yirik vakillaridan ayrimlari misolida lirik asarlar tahlili qanday amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Cho'lpon she'riyatida ruhiyat manzaralari, inson hissiyotining umumlik to'lg'onishlari aks ettiriladi. Jumladan, "Go'zal" she'rida shoir tabiatning juda dilbar manzarasini yaratgan. Lekin bu she'rdada tabiatdan nusxa ko'chirish, borliqning o'ziga chiroyli ko'ringan bahasini shu holicha tasvir etish maqsad qilinmagan. Cho'lpon bu tizmasida tabiat tasviriga inson ruhini singdiradi, insoniy his-

siyot esa tabiatga jon bag'ishlab, dard bilan, odamiy ishq bilan munavvar qiladi. Shoir izlayotgani tengsiz go'zalni, dastavval, **"Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, Eng yorug' yulduzdan..."** so'raydi. Tahlilning ibtidosidanoq, o'quvchi shoirning hissiyot olamiga yaqinlashtirilishi darkor. Nega lirik qahramon go'zalni **"qorong'u kechada"** izlay boshladi? Nima sabab ma'shuqasini **"eng yorug' yulduzdan"** so'radi? O'qituvchi she'r matnidan shu kabi savollarga javob topishga uringani sayin o'quvchilar asarining joziba kuchini yaqqolroq tuyadilar.

Ma'lumki, ishqqa muhtalo qalb egasiga uyqu – begona. Hazrat Navoiy aytganlaridek, **"Beishq ulusqa kom uyqu, Ishq ahligadir harom uyqu"**. Shu bois "Go'zal"ning lirik qahramoni bedorlik bandasi. Bedor odam, qalbiga ishq oshiyon qurgan dardmand o'ziga dardkash izlashi tabiiy. Lekin ishqday o'ta mahram tuyg'uni boshqa odam bilan o'rtoqlashish, izlayotganini undan so'rash ma'qul ham, xatarsiz ham emas. Shuning uchun lirik qahramonning uyqusiz tunda eng yorug' yulduzga murojaat qilishi mantiqan asosli. Cho'lponning lirik qahramoni, avvalo, yulduzga yuz burib notabiiy yo'l tutmaydi.

Endi yulduzning go'zalni o'ngida emas, "tushda ko'r"ganligi sababini izohlashga diqqat qaratilishi kerak. O'zbek go'zali Kunbotishning ochiq-sochiq yuradigan tunkezar sohibjamollaridan emas, shu bois kechasi bedor bo'ladigan yaratilarning unga ko'zi tushmaydi. Mabodo, tasodifan ko'zi tushsa-da, yuzini emas, qorasini ko'rishi mumkin. Yulduzning malak ta'rifi eshitishi, eshitganlari tufayli tushlaridagina ko'rishi mumkinligi sababi ham shunda. Shu vajdan **"eng yorug' yulduz"** malakni faqat tushidagi ko'rgani tabiiy. Yulduzning e'tirofi bejiz emas: **"Tushimda ko'ramen: shunchalar go'zal, Bizdan-da go'zaldir, oydanda go'zal!"** mana shu yerda o'zbekcha qadriyat, suluvning millatga xos hayosiga o'quvchilar e'tibori tortilishi kerak. Tahlilda o'qituvchi lirik she'rdagi nafaqat har bir so'z, balki qo'shimchalargada e'tibor berishi joiz: lirik qahramon ma'shuqasini bitta "eng yorug' yulduz"dan so'ragan edi. Lekin yulduz: **"Bizdan-da go'zaldir..."** tarzida ko'plik nomidan javob berdi. Nima uchun? Negaki bitta yulduz qanchalar porloq bo'lmasin, osmonning ko'rki bo'la olmay

di. Ko'kning bezagi osmon to'la sanoqsiz yulduzlardir. Ularning go'zalligi ko'pligi va tartibsiz tartibida! Buni "*eng yorug' yulduz*" yaxshi biladi. Shoir she'rdagi juda mayda detallargacha go'yoat katta e'tibor bilan ishlagan.

Yulduzdan qoniqarli javob ololmagani uchun lirik qahramon nigohini oy chiqqan yoqqa olib, ma'shuqani so'roqlovni davom ettirishga majbur. Oy unga: "*...bir qizil yonoqqa, Uchradim tushimda ko'milgan oqqa*", – deb javob aytaydi. Oyning tushidagi malak ne bois oqqa ko'milganini izohlash uchun jiddiy o'ylanish kerak: go'zalni ko'rmoq uchun nazar tashlagan Oydan mayin, kutday nimtatir nur taraladi. Taraladi-yu, yerdagi malakka tushib, uni ham o'zining oq og'ushiga oladi. Bundan tashqari, Kunchiqish estetikasida oq – ezgulik ramzi bo'lgan rang. Tushdagi go'zal, albatta, oppoq kiyingan bo'lishi kerak. Chunki oy shuni orzu qilgan. Oq yuzli malakning oppoq libosi oyning oydinligi bilan qo'shilib malikani tamomila sehrli bir oqlikka chulg'aydi.

She'rda "*qizil yonoq*" sifatlashi ham ishlatilgan. O'zbek uchun qizil yonoq – sog'lomlik ham go'zallik belgisi. Shuning uchun ham oyning tushida namoyon bo'lgan malak qizil yonoqli. Buning ustiga, go'zalning qizil yonog'i tasviri she'rning keyingi bandida quyoshning yondiruvchi qizilligini asoslovchi mantiqiy-hissiy debocha hamdir.

Sirli go'zalni so'roqlab tong ottirgan oshiqning yorni "*erta tong shamoli*"dan surishtirmay iloji yo'q. Tong nasimi tengsiz malakni tushida emas, o'ngida ko'rgan. Lekin bu baxtiyor visol unga "*bir*" martagina nasib etgan. Uning abadiy sarosar kez-mog'i, hamishalikka telbavor oshiq bo'lmog'i uchun o'sha birgina yo'liqish kifoya: "*...bir ko'rib, yo'limdan ozib, Tog'u toshlar ichra istab yuramen!*" Sirli go'zalning tong shamoliga o'ngida yo'liqish sababi ancha oson izohlanadi: o'zbekning bo'y qizlari saharxez bo'lishadi. Nechog'lik ehtiyot bo'lmasin, sirli malak biror marta tong nasimining nigohiga nishon bo'lishdan qutulolmagan bo'lishi mumkin.

Nihoyat, ishq otashida kuyib qorong'u kechadan kunduzga qadar bedor yurgan oshiq olamni munavvar etgan Kun – quyoshga murojaat aylagandagi holat: "*Ul-da o'z o'tidan bekinib,*

qochib, Aytadir: bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda. Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal, Oydan-da go'zaldir, mendan-da go'zal!" tarzida tasvirlanadi. Astoydil izlagan topadi deganlaridek, Kun ham ul malakni birgina bor ko'rishga muyassar bo'lgan. Lekin o'sha birgina uchrashuv uning go'zalga o'zini unutar darajada oshiq bo'lishiga kifoya qilgan. Mazkur bandda: "*Ulda o'z o'tidan bekinib, qochib...*" misrasiga yashiringan badiiy va hayotiy ma'no o'quvchilar e'tiboridan aslo chetda qolmasligi kerak. She'riy organizmdagi eng kichik unsurlarida payqay olish uni tushunish sari olib boradigan to'g'ri yo'ldir. Quyoshga tik qarab, uni ko'rib bo'lmasligi hammaga ma'lum. Buni ulkan iste'dodgina: "*...o'z o'tidan bekinib, qochib*" tarzida ifoda qila olishi mumkin. Kun falakda suzib yuribdi. Unga tik qarashingiz bilan ko'rinmay qoladi. Chunki ko'zingizni oladi. Shu bois quyosh o'z o'tidan bekinib, qochibgina muloqotga kirishadi.

Yulduz, oy, shamol, kun timsollari yordamida lirik qahramon qalbidagi ishq o'ti alangasi nechog'lik balandligi, hijron azobining qanchalar og'irligi anglashiladi. Charx urib, faryod chekib olamdagi eng muqaddas narsasi – ishqini izlayotgan oshiq nolasi o'quvchi qalbida ham aks-sado beradi. She'rning so'nggi bandi to'lig'icha lirik qahramon ruhiy holatining, kechinma-yu kayfiyatining ifodasidan iborat. Hajr yo'lida o'rtanayotgan oshiq go'zaldan yozg'irmaydi. Chunki asl tuyg'u minnatdan yiroq bo'ladi. U visol ta'masini ham xayol etmaydi. Oshiq ishq o'tida yonayotganidan masrur, dard chekish baxtidan quvonchda. Shu bois, "*boshini zo'r ishga berib*" qo'yganidan pushaymon emas. Mislsiz muhabbati va o'rtanishlari evaziga hech narsa kutmaydigan chin oshiq ruhiy dunyosining nurli to'lg'anishlari aks etgan "Go'zal" she'rini shu tariqa tahlil qilish uning jozibasini to'laroq, ta'sirliroq anglash imkonini beradi.

Talantli shoirlarning she'rlaridagi har bir satr o'zining betakror rangi va tovushiga ega bo'ladi. O'rtamiyona she'rlarda ham ba'zan o'ziga xos rang va tovushga ega satrlar uchraydi, lekin ularda faqat o'sha satrlargina mavjud, xolos. Bunday she'rlarning boshdan oyoq barcha unsurlari kishini titroqqa solib, uni o'z

ta'sir doirasida ushlab turolmaydi. Ko'pincha butun she'r birgina o'rinni tashbeh yoki qaldiroqli ifodaga qurilgan bo'lib chiqadi. Chinakam she'ning esa shohmisrasi yoki shohbaytini topish qi-yin kechadi. Chunki undagi har bir she'riy qator oldingisiga qara-ganda kuchlanib, ifoda qudrati ortib, hissiy ta'sir quvvati yuksalib boraveradi.

Shoira Zulfiyaning "Oydinda" deb ataluvchi nozik isho-larga, ingichka ifodalarga boy sof tabiat lirikasining namunasi bo'lmish ichkin bir she'ri bor. She'rda oxirko'klam yomg'iridan keyingi tunlarning birida sanoqsiz yulduzlar charaqlagan osmon, olumni oqlikka o'ragan oy, xayol kabi to'zg'igan bulutlar go'zal-ligidan hayajonga tushgan shoira kechinmalari, hayratlari aks et-irilgan. Bu she'rda bo'rtib turgan ijtimoiy ma'no ham, dardkash qalb iztiroblari ham yo'q. Unda tabiatning beqiyos ilohiy go'zalligi va undan hayratlanayotgan masrur ko'ngil entikishlarigina ifoda etilgan, xolos.

*Jilib-jilmas to'lin oy,
Bulut xayolday yengil,
Oy anhorda qulun-toy,
Gilosda shig'il-shig'il...*

Tip-tiniq suvli anhor tinimsiz o'ynoqlab oqqani bois unda aks etayotgan Oy – qulunday yugurik. Yomg'ir tufayli toza chayilgan gilos mevalarining har birida bittadan to'lin Oy jilva qiladi, "**gilos-da shig'il-shig'il**" tasviri shu hol ifodasi. Hovuz tiniq suvga to'la, ammo u oqmaydi, shu sabab ko'kdagi oy "**yaxlit oynaday bo'lib**" hovuzga yoyilgan. Oynning "**yaxlit oynaday**"ligi uning ham xuddi, hovuz kabi yumaloq – aylana shaklida ekani, ya'ni qizlar tez-tez ko'z tashlab turadigan pardoiz oynaga o'xshashida. Hovuzdagi to'lin oyni va oynani yaxshiroq ko'rish ilinjida egilgan lirik qah-ramon oynada boshqa bir oyga, ya'ni o'ziga "ro'baro'" keladi. Chunki u ham – oyday go'zal. Shoira shohona kiyingan malika yanglig' hovuzdagi "**ming-ming yulduzni sidirg'asiga chayqab, yerga sudrab**" bormoqda: tiniq osmonning hovuzdagi aksida sanoqsiz yulduzlar lirik qahramonning kiyimlariga qadalgan bezak-lar kabi tuyuladi. O'quvchilar moviy ko'kni kiyim qilib, undagi

yulduzlardan bezak taqib ketayotgan sohibjamolni ko‘z oldilariga aniq keltirishlari mumkin.

Tahlilda she‘rdagi go‘zal o‘xshatishlar, kutilmagan obrazli ifodalarni ko‘rishga, tushunishga e‘tibor qilinsa, she‘rxon olvida go‘zallikning hadsiz dunyosi ochiladi. Tahlil jarayoni “*Sel unutgan ko‘lmaklar Misli oynning singani*” misralaridagi chiroyli o‘xshatishni payqashdan tashqari “sel unutgan ko‘lmak”, “singan oy” tarzidagi obrazli ifodalar haqida o‘yga toldirishi, bu tasvirlarning tagiga yetishga undashi bilan ahamiyatli. Tahlil shu tarzda samimiy tuyg‘ular ifodasidan hayratga tusha oladigan, chinakam she‘riy satrlar bag‘ridagi sehrli go‘zallikni his qilishga qodir kishilarning ma‘naviy olamini shakllantirishga xizmat etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Lirik asarga xos xususiyatlarga to‘xtalng.
2. Lirik bitiklar tahlilida asardagi musiqiylikning o‘mini tushuntiring.
3. Lirik she‘rlarning kishi ruhiyatiga ta‘siri va “hissiy tafakkur” qo‘zg‘ashi sababini izohlang.
4. Lirik asarlarning kishi ma‘naviyatini shakllantirishda beqiyos o‘rni borligi sababini sharhlang.
5. O‘zingiz xohlagan bir lirik she‘rni tahlil qilishni rejalashtiring.

EPIK BITIKLARNI TAHLIL QILISH METODIKASI

Reja:

1. Epik asarlarning o‘ziga xos belgilari.
2. Epik asarlarda tafsilotning o‘rni.
3. Epik bitiklarda obrazlar tasvirining o‘rni.
4. Epik asarlar tahlili – o‘quvchida ezgu ma‘naviyat shakllantirish omili.

Tayanch tushunchalar:

Epik asar, epik asarda tafsilotning o‘rni, tafsil va tasvir, tasvir ko‘lami, psixologizm imkoniyati, batafsillik, voqeabandlik, hayotiylik, haqqoniylik, nutq xilma-xilligi, muallif nutqi, personaj nutqi, murakkab va serqirra taqdirlar tasviri.

Tasvirga qamrab olingan hayotiy borliq ko‘lamining kengligi, murakkab insoniy taqdir, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar muayyan voqea-hodisalar fonida idrok etilishi bilan ajralib turadigan epik asarlarni tahlil qilish ham o‘ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Epik asarlarda personajlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berish bilan birga shu tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko‘rsatishga ham e‘tibor qaratiladi.

Epik asarlarni badiiy tahlil etish ko‘lamdor va ko‘p bosqichli kechimdir. Epik asarlarning eng asosiy belgisi: voqebandlik, tasvirda tafsilotlar mavjudligi va obrazlar tizimiga egalikdir. Qaysi janrda bo‘lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda muayyan miqdorda personajlar bo‘ladi, ular ozdir-ko‘pdir voqealar qo‘ynida tasvirlanadi va ularning tabiatiga xos xususiyatlar hodisalar tasviri asnosida namoyon bo‘la boradi.

Epik asarda ham dramadagi singari muayyan makon va zamonda sodir bo‘lgan voqealar aks ettiriladi. Epik bayon nafaqat estetik, balki tashkiliy funksiya ham bajarishi kerakligi epik asarning o‘ziga xosligini ta‘minlaydigan muhim jihatlardan biridir. Nutq egasi, so‘zlovchi yoki bayonchi go‘yo oldin yuz bergan voqeani hikoya qilib berayotganday bo‘ladi va ayni vaqtda yo‘l-yo‘lakay turli holatlarni, personajlar qiyofasini tasvirlaydi, ba‘zan izohlaydi.

Epik asarlarning, odatda, hajman yirikligi, lirik turdagi asarlar singari bir zarb bilan o‘qib chiqib bo‘lmasligi, uning badiiy ta‘sir ko‘rsatish kechimi ham bir necha bosqichli bo‘lishi mumkinligi tahlilda e‘tiborga olinishi lozim. Bu xil asarda tuyg‘ular oqimi bir tarafga yo‘nalgan bo‘lmaydi. Unda to‘qnashuvlar, his-hayajonlar, olqish-u qarq‘ishlar, ma‘qullash-u inkorlar g‘oyat sertarmoq, ko‘p farvaterli bo‘ladiki, muayyan asar tadqiqi bilan shug‘ullanayotgan sinchi ana shu sertarmoq badiiy oqimlar orasida kalavasini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak. Hajm va ko‘lam epik asarlarni tahlil qilishning o‘ziga xosligini keltirib chiqaradigan omillardir.

Lirik asarlarda muallif hissiyotini yashirib o‘tirmaydi, bundan asar, asosan, tuyg‘ular junbushiga quriladi, kechinmalar qan-

chalik kuchli va ularning ifodasi qanchalik yorqin bo'lsa, lirik asarlardan chiqadigan badiiy ma'no ham shunchalik katta salmoq kasb etadi. Epik asarlarda esa, muallif tuyg'usi ham, lirik asarlarda deyarli bo'lmaydigan personaj kechinmalari ham, ko'pincha, ochiq holda kelmaydi. Bu xil asarlarda hissiyot voqealar tasviri qatiga berkitilgan bo'ladi. Qahramonlarni voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni ta'silotlar zamiriga joylash imkonini beradi va o'qirman bu sezimlarni ilg'ab olgandagina asar mohiyatini anglab yetadi. O'qituvchi o'z o'quvchilarida ayni shu, ya'ni epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ab olib, undan muayyan mantiqiy xulosa chiqara bilish ko'nikmasini shakllantirish orqali asarning hayotiy va badiiy jozibasini kashf eta olishi kerak.

Ta'kidlab aytish kerakki, tahlil qilinadigan asar hajman qanchalik yirik, voqealar tasviri qanchalar serqatlam, personajlar soni nechog'lik ko'p bo'lmasin, o'qituvchi epik asar mazmunini o'quvchilarga so'zlab berishni badiiy tahlil sifatida taqdim etishi mumkin emas. Buning uchta sababi bor. *Birinchidan*, o'qituvchi qanchalik mahoratli hikoyachi bo'lmasin, badiiy asarni adib yozganiday aytib berolmaydi. *Ikkinchidan*, asar matni bilan bevosita tanishmagan o'quvchiga asarda tasvirlangan voqealarning tarovatini bir qadar yo'qotib hikoya qilib berishdan aslo foyda yo'q. Negaki bunda o'quvchiga asarning o'zi emas, u haqdagi xira tasavvurgina yetib boradi, xolos. O'qituvchi nechog'lik urinmasin, u ayni asarni bitgan yozuvchi bo'lolmaydi. Ayni asarni yorug' olamda ayni shu yozuvchigina yozilgan paytdagina yoza oladi. O'qituvchi asar mazmunini hikoya etish orqali o'quvchilarni undagi qiziqarli voqealardan xabardor qilishi mumkin bo'lgani holda asarda tasvirlangan insoniy xarakter, kechinma, hissiyot va ularni tug'dirgan ochiq-yashirin sabablarni tuydira olmaydi. Tekshirilayotgan asar mazmunini so'zlab berish mumkin emasligining *uchinchi* sababi matn mazmuni aytib berilganda asarning barcha unsurlarini yaxlitligicha tahlil qilib bo'lmaydi. Negaki bunda badiiy yaratilgan o'qituvchi esida qolgan o'rinlarigina tilga olinib, ko'rkam asar zamiridagi estetik ma'no chala ochiladi.

Epik asarlarni tahlil qilishda uning hajmi, tasvirning murakablik darajasi hisobga olingan holda ish ko'riladi. Hajm taqozo etishiga qarab, asarni badiiy tahlilning matnga ergashib, obrazlar asosida yoki muammoli singari uch usulidan birini yoki barini qo'llagan holda tekshirish zarur. Mabodo, tahlil qilinadigan asar juda yirik bo'lsa, o'qituvchi, oldin asarning eng qiziqarli, badiiy jihatdan eng muhim, bir qator intellektual-estetik operatsiyalar yordamidagina anglanadigan jihatini tahlilga tortishi lozim. Buning uchun asar umumiy estetik butunlikka zarar yetkazilmaydigan tarzda badiiy ma'noli qismlarga ajratib olinishi zarur. Bunday tahlilga asarning o'quvchi diqqatini o'ziga beixtiyor tortadigan, personajlar tabiati yorqin namoyon bo'ladigan, muallif mahorati ko'zga balqib tashlanadigan, qahramonlar ruhiy dunyosi bo'rtiq aks etgan o'rinlari tanlab olinishi kerak. Badiiy tahlilda matndagi muhim jihatni nomuhimdan ajratish, asar personajlariga jonli odam tarzida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq. Shunday qilinganda, badiiy tahlil asnosida har bir timsolning o'ziga xosligi ham, adibning san'atkorligi ham namoyon bo'ladi.

Maktab adabiy ta'lim amaliyotida ko'pincha epik asarlar tahlil qilinayotganda undagi tasvirlardan g'oya qidirishga tutiniladi va shu bois turli asarlardagi tabiati mutlaqo boshqa-boshqa bo'lgan personajlar ikki tomchi suvday bir xil talqin etilib, birday baholanadi. Chunki g'oyalar ko'pda o'xshash, gohida mutlaqo bir xil, lekin cheksiz olamda bir-biriga to'liq o'xshash bo'lgan ikki kishi yo'q. Badiiy asar va undagi qahramonlar tasviri esa, ayni shu o'xshamaslikning, o'ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida yaratilishi lozimdir. Shuning uchun ham adabiyotshunoslik amaliyotida Yo'lchi va G'ofir, Jamila va Gulnor, Otabek va Anvar, Kumush va Ra'no timsollariga uzoq vaqt mobaynida bir xil baho berib kelingan. Bunga sabab adabiyot o'qitishda bu qahramonlarga individual qiyofaga ega jonli odam sifatida yondashilmagani va ulardan faqat g'oya qidirilib, ijtimoiy xulosa chiqarishga urinilganidir.

Epik asarlarni tahlil etishning usullari juda ko'p va tekshirilayotgan epik asar qancha bo'lsa, tahlil ham o'shancha o'ziga xosliklarga ega bo'laveradi. Adabiy tahlilda biror qolip-

ni yasab olib, har doim shundan foydalanaman degan o'qituvchi xato qiladi.

Epik asar o'rganilayotganda personajlar xatti-harakatlari uning xarakter mantig'iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak. Ya'ni epik asar tahlil qilina-yotganda, o'qituvchi obrazlarning gap-so'zlari, qiliqlari, fikrlari ularning minazlariga muvofiq kelishi, ruhiy jihatdan asoslangan bo'lishiga e'tibor qaratib, asarning badiiy qiymati ana shulardan kelib chiqishini ko'zda tutishi lozim. Epik asar tahlili faqat mantiqiy operatsiyaga aylanib qolmasligi, balki hamisha asardan estetik go'zallik topishga intilish diqqat markazida turishi joiz. Nasriy til jozibasini, turli-tuman badiiy vositalar tufayli tug'ilgan estetik mo'jizalarni payqay olish, bundan lazzatlanish hamda shu lazzatning manbasini tushunish o'quvchilarning ma'naviy yuksalishida beqiyos katta ahamiyat kasb etadi.

Epik asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni o'zgacha estetik nazar bilan ko'rish mumkinligi ko'zda tutilishi o'quvchilarni xilma-xil ijodiy yo'nalishdagi, turli janrlardagi badiiy hodisalarni qabul qilish va asl san'at asarlarini ommabop bitiklardan ajrata olishga o'rgatadi.

Abdulla Qahhorning XX asrning 30-yillaridan buyon tahlil etilib kelinayotgan "O'g'ri" hikoyasi misolida yuqoridagi nazariy qarashlarni amalda qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu asarni tekstual tahlil qilish ko'proq samara beradi. Negaki hajman mo'jaz bu hikoyada badiiy maqsadga xizmat qilmaydigan, personajlar tabiatini ochishga qaratilmagan birona so'z ham uchramaydi. Binobarin, asarda nomuhim, ikkinchi darajali badiiy unsurning o'zi yo'q. Shu bois, xuddi lirik asarlarni tahlil qilgandek, mazkur hikoyani ham tekstual usulda o'rganish samarali bo'ladi.

Tahlilni kampirning tong qorong'isida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar olishi sabablarini aniqlashdan boshlagan ma'qul. Kampirning barcha o'zbek ayollari, ayniqsa, qishloqda yashaydigan hamma kayvonilar singari saharlab turishi o'z holicha hech kimning e'tiborini tortmasligi mumkin. Lekin yozuvchi asarda kampirning saharxezligini shunchaki odat tarzida emas, balki zaruriyat taqozosi sifatida ham ko'rsatadi: u xamir qorishi kerak.

Hikoya matnidan kampirning dastyori yo‘qligi ma’lum bo‘ladi. Demak, kampir kundalik yumushlar ko‘paymay, kun yoyilmay turib, non yopishga ulgurishi kerak. Buning ustiga, choli issiq non bilan ertalik qilsa, yanada yaxshi bo‘ladi. Ehtimol, ertalik-ka ularda nondan bo‘lak yeydigan narsaning o‘zi yo‘qdir. Endi o‘quvchilar e’tibori “*...xamir qilgani*” turgan kampirning ne bois ho‘kizdan xabar olganligiga qaratilishi joiz. Ma’lumki, har kim o‘zi uchun qimmatbaho hisoblangan narsadan bot-bot xabardor bo‘lib turadi. Farzandli ona hamisha bolalaridan xabar olishga, badavlat odam davlatidan ogoh turishga intiladi. Bu chol-u kampir uchun o‘zlaridan keyingi qimmatbaho narsa – ho‘kiz. Shu bois kampirning o‘rnidan turiboq undan xabar olishi tasviri – ham tushunarli, ham ishonarli.

O‘quvchilar diqqati hikoyada birgina tovushdan iborat “O!..” gapi tashiydigan serqirra ma’noga, u ifodalaydigan holatlar ekstratsiyasiga qaratilishi lozim. Bu tovush-gap zamirida kampirning qanday kechinmalari borikin? Kitobxonlar kampirning ayni paytdagi holatini to‘liq his qilishsa, uning kechinma-yu sezimlarini ilg‘ab olishsa, estetik maqsadga muvofiq bo‘ladi. So‘ng o‘quvchilar e’tibori hikmatga o‘xshab ketadigan: “*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin*” jumlasiga tortilgani ma’qul. Chunki qashshoqlik atalmish bedavo dard insonni, avvalo, baland orzulardan mahrum etadi. Shu sabab kambag‘al odamda yuksak orzular bo‘lmaydi. Havas – xayol-u orzu qilingan imkoniyatdan tug‘iladigan ruhiy hosila. Dehqonni yo‘qchilik xayol-u orzudan mahrum etgan.

Qashshoq dehqonning uyi betakror me’moriy obida yoki yonib ketsa kishining joni achiydigan koshona emas, shunchaki “*...bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish*” bilan tiklanadigan kulba. Binobarin, uning kuyib ketishi uy egasi uchun juda katta yo‘qotish emas va unchalar qiynalmay, yangisini tiklab olishi mumkin. Kambag‘alda uyi kuyganda yonib ketishi mumkin bo‘lgan ortiqcha boylik ham yo‘qki, unga achinilsa.

Tahlilchi syujet rivojidagi har bir nuqtada kampirning reaksiyasi qanday bo‘lganiga diqqat qilishi kerak: ho‘kizning yo‘qolganini bilgan kampir eng avval nima qildi? Hamma ayollarning

qurolini ishga soldi, ya'ni dodladi. Boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Uning o'rvida Qobil bobo nima qilgan bo'lardi? Bu haqda o'ylab ko'rish har bir timsolning o'ziga xosligini tushunish imkonini beradi.

Hikoyaning keyingi jumlasini yanada g'alati va bir qarashda asosiy tasvirga daxli yo'qqa o'xshab tuyuladi: **“Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi...”** **“Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan...”** bo'lsa, demak, bu holat tez-tez takrorlanib turgan. Axir o'zbeklar andishali, ovozinini balandlatishdan iymnadigan xalq-ku?! Buning ustiga, asar voqealari inqilob deb atalmish to'ntarishdan oldin sodir bo'lgan. Binobarin, keyinchalik ko'p o'zbek ayollarini dod solishga majbur etgan asosiy sabab – ichkilik u zamonlar hali yo'q edi. Ammo... Shuni hisobga olish kerakki, mustamlaka xalq hech qachon boy yashamaydi. Demak, xalqimiz Rossiya qo'li ostida g'oyat faqir yashagan. Kambag'allikning azobini esa, eng avval, ayollar tortadi. Chunki ro'zg'orni ular yuritadi, uyda nima bor-u nima yo'qligini ayollar yaxshi bilishadi. Ustiga-ustak, ular onalar hamdir. Farzandlarining ehtiyojlarini qondirish tashvishi avval ularga tushadi. Ayniqsa, o'zbek oilalarida bolalar o'z dardlarini, asosan, onalariga aytishadi. Shu bois xotin kishi erkagini har kuni “u yo'q, bu yo'q deb “egovlaydi”. Kambag'al erkak ham ro'zg'orning to'kis emasligini yaxshi biladi, ammo to'kis qilishning yo'lini topolmay qiynaladi. Xotin esa, tabiatiga ko'ra uyda nimaningdir yo'qligini eslataverishdan charchamaydi. Aytgani bo'lavermay, kemptiklik butlanavermagach, eridan norozi bo'ladi, nolinadi, unga tik gapiradi. O'zbekning erkagi kimligi va qandayligidan qat'i nazar xotinidan gap eshitishga o'rganmagani bois kambag'allikni tug'dirgan sababni bartaraf etishning emas, balki norozi bo'laverib, erining hamiyatiga tekkan ayolning isyonini bostirish yo'lini tutadi: uni kaltaklaydi.

O'zbekning ayoli, odatda, eri kaltaklasa, dod sola bermaydi. Agar o'zining aybi uchun kaltak yesa, hech kimga bildirmaydi. Dod solish u yoqda tursin, keyinchalik ham birovga “tish yormaydi”. Ammo janjal kambag'alchilik tufayli kelib chiqsa-yu, mushk bilan xotimalansa, endi bizning ayollarni ma'zur tutib qo'ya-

siz. U endi erining kambag'alligi va noshudligini yetti mahallaga yoyishga o'zini haqli hisoblaydi. Adabiyot o'qituvchisi dod ovozi paydo bo'lish sabablarining ikkinchisiga e'tibor qaratadi: "*...birovning uyi xatga tushadi*". Bugungi o'quvchi dastlab bu jumla zamiridagi haqiqatni payqamasligi ham mumkin. Shuning uchun unga oydinlik kiritilgani ma'qul: kambag'al odam bir balo qilib tirikchilik o'tkazish, oilasining ochlikdan patorat topib ketmasligi uchun barcha yo'qsillarning sinalgan usulini ishga soladi, ya'ni birovdan qarz oladi.

Aniqlik, qarz qachondir to'lanishi kerak. Qarz olinayotganda qarzdorning pichoqqa ilingudek mulki garovga qo'yiladi. Kambag'alda qanday mulk bo'lishi mumkin? Bola-baqراسi bilan yashab turgan va "*bir qop somon-u bir arava qamishdan*" bino bo'lgan uyda! Yomon bo'lsa-da, boshpanasidan ajralgan odamning ahli ayoli dod solishi tabiiy. Bu xil dodlashlar tez-tez ro'y berib turgani uchun ham, odamlarning qulog'i o'rganib qolgan. Hikoyada: "*Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi*", — deb ta'kidlanadi. O'ylab ko'rish kerak: nega? Chunki bu uydan shu paytgacha dod ovozi chiqmagan, uzoq yillar davomida chol-u kampir bir-birlarini tushunib qolishgan, uy o'zlariniki, ho'kizlari ham bor edi. Hech kutilmaganda, kampirning dod solishi, odatdagi dodlovchi ovozlarga "begona" tovushning qo'shilishi atrofda gilarni befarq qoldirmasligi aniq. Hikoyaning shu jihatlari ilg'ab olinsa, undan kutiladigan estetik samaradorlik ortib boraveradi.

Hikoyadagi Qobil bobo holatini ham o'quvchilarning ichdan his etishiga urinish lozim. Hikoyadagi: "*Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, ham-maga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi*" tasviriga e'tibor qaratilishi kerak. Agar ushbu tasvir Qobil bobo holatini ichdan his etilmay, shunchaki o'qib yoki eshitib ketilaversa, matn qudrati anglanmay qolaveradi. Qandaydir bir odamning qiynalganini axborot sifatida bilib qo'yish boshqa-yu, o'sha odamning holatiga tushib, u kechirgan tuyg'ularni his etish tamomila boshqa narsa.

Shuning uchun ham Qobil bobo holatidagi hech bir chizgi nazardan chetda qolmasligi kerak. Nega Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, buning ustiga yaktakchan? Qariyalarimiz hozir ham boshyalang yurishni odobsizlik deb bilishadi. U paytlarda-ku yalangbosh yurish borib turgan shakkoklik hisoblangandir. Hikoyadagi bobo esa yalangbosh, yalangoyoq ekani kamlik qilgan-day, el ko'ziga yaktaksiz ko'ringanini qanday izohlash mumkin? Bu savollarga javob topish uchun e'tibor qahramonlarning tashqi holatini idrok etishdan ichki dunyosini tekshirishga yo'naltirilishi kerak. Shu o'rinda "yaktakchan" so'zi mamlakatimizning turli mintaqalarida turlicha tushunilishiga ham e'tibor qaratilishi lozim. Ayrim joylarning aholisi uchun "yaktakchan" degani yaktaksiz demakdir. Yurtimizning ko'pchilik mintaqalaridagi kishilar esa "yaktakchan" so'zini birgina yaktakda mazmunida qo'llashadi. Badiiy vaziyatni anglab yetgan o'quvchigina adib qaysi holatni ko'zda tutganligini aniqlay oladi.

Cholning tizzalari "bukilib-bukilib" ketishiga sabab nima? Avvalo, bu so'zning ikki marta yozilganligiga diqqat qilish kerak. Chol nega "dag-dag" titraydi? Yaktaksizligi sabab sovqatgandanmi yoki boshqa – jiddiyroq va og'riqliroq ichki sabab bormi? Obrazning: **"...hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi"** tarzidagi holatini qanday tushunmoq kerak? Boboning ko'zlari xirami yoki kutilmagan baxtsizlik uning ko'z oldini qorong'ilashtirdimi? O'zi aslida, cholning ko'zi xiralashdimi yoki aqli?

Shu o'rinda tahlil qamroviga ellikboshi ham tortilishi lozim. Burunsizligi, ovozinang pangligi tufayli boshdanoq yoqimsiz bo'lgan ellikboshining dabdurustdan boboni sensirab: **"Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!"** – deya karomat qilishi kishidagi noxush taassurotni yanada kuchaytiradi. Agar estetik nishon to'g'ri olinsa, asarda juda nozik ishoralar borligini ko'rish, ularning tagiga ham yetish mumkin.

Ellikboshi og'ilning o'g'ri teshgan yerini nima sababdan ikki bor taftish qilgani, qayta-qayta sinchiklab tekshirgani, hatto, ustunni qimirlatib ham ko'rgani sababini izohlash zarur. Sal e'tibor qilgan kishiga bu harakatlar tagidagi g'araz ko'rinib qoladi. Ellikboshi o'zini o'g'rini topishga astoydil urinayotgan kishi

qilib ko'rsatib, choldan biror narsa undirmoqchi. Buning uchun u jabrlanuvchining ishonchini qozonishi kerak. Albatta, Qobil bobo ellikboshidagi bu g'arazni sezmaydi. Chunki kutilmagan baxtsizlik uning keksa aqlini xiralashtirib qo'ygan.

Shu vaqtga qadar karaxt bo'lib turgan Qobil boboning ellikboshi ho'kiz topiladi, deb ishonch bilan aytgandan keyin yig'lab yuborganligi sababi haqida o'ylab ko'rish kerak. Bu haqda bosh qotirish o'quvchida boshqa insonni tuyish, o'zgani tushunish sifatlarini shakllantiradi.

Ellikboshining keyingi harakatlari uning qanday shaxs ekanini yanada yaqqol ko'rsatadi: ***"Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa topiladi"***. Ellikboshining keksa odamga, buning ustiga, kulfatga yo'liqqan yon qo'shnisiga nega bunchalik dag'dag'a qilayotgani haqda o'ylab ko'rish kerak. Ellikboshi boshiga ish tushgan kishiga yordam berishni emas, balki undan tezroq biror narsa undirib qolishni o'ylaydi. To'g'ri gapni to'g'rilikcha aytsa, avvalo, nimadir qilish kerak bo'ladi, ikkinchidan, pora ololmay qoladi. Ta'maning yo'lini yaqinroq qilish va cholni ho'kizi topilishiga ko'proq ishontrish uchun esa uni sensirab, dag'dag'a qiladi.

Manfaatga qul bo'lgan odam iymondan ayrilib, o'z nafsining yugurdagiga aylanib qoladi. Bosgan, hatto bosmagan qadamidan ham foyda chiqarishga urinaveradi. Bu yo'lda insof, shafqat singari tuyg'ularni nari surib qo'yadi. Shu bois: ***"Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa topiladi"***, – deb cholni masxaralagan ellikboshi hech narsa qilmay turib, pora olishdan tortinmaydi. O'qituvchi ellikboshining so'zlari zamiridagi masxaraomuz ma'noga e'tibor qaratishi shart. ***"...Oqposhshoning qo'l ostidan chiqib ketmasa"*** topiladigan ho'kizni izlash ellikboshining xayoliga ham kelmaganligi tasvir maromidan sezilib turganiga bolalar e'tibori qaratilishi kerak. O'g'ri ho'kizni go'yo chet elga olib ketadiganday, Afg'on yerlaridan to Xitoy mulkigacha bo'lgan bepoyon hududdan chiqib ketmagan bo'lsa, topaman deyish, qariyani masxaralashdan boshqa narsa emasligi anglab yetilishi zarur. Aks holda, ellikboshining qiyofasi to'liq anglashil-

may qolishi mumkin. Bu hol ellikboshi ma'naviyatining qanchalar qurum bosganligini ko'rsatuvchi dalildir.

Endi o'quvchilar diqqati olingan pora evaziga ellikboshi ko'radigan tadbirning nechog'lik bema'ni va nokerak ekaniga qaratilishi zarur. Choldan oladiganini olgan ellikboshi ho'kizning yo'qolgani haqida: "*beto'xtov aminga xabar qilaman*", – deb va'da beradi. Anchagina pul hisobiga ko'rmoqchi bo'lgan tadbiri keraksizligi Qobil bobo va kampiridan boshqa hammaga oldindan ayon bo'lsa-da, u, hatto, shu keraksiz ishni ham bajarmaydi. Xo'sh, u holda ellikboshi nima sababdan aminni tilga oldi? Buning sababi shundaki, amin ham haqsizlik zanjirining muhim halqalaridan bo'lib, boshiga ish tushgan himoyasiz bechoralar uni ham boqishlari darkor edi.

O'quvchilar ho'kizi yo'qolganidan xabardor qilib, undan: "*beto'xtov pristavga xabar qilaman*", – degan g'oyat "muhim" tadbir va'dasini olish uchun aminga ham pora bergan Qobil bobo holatini his etishlari muhim. Dahshatlisi shundaki, na ellikboshi, na amin qimirlagani uchun, oxir-oqibatda, pristavga ham boboning o'zi xabar yetkazadi va qanday baxtsizlikka yo'liqqanini aytib yordam so'rashning o'zi uchungina ham o'ris amaldorga, ham uning tilmochiga pora berishga majbur bo'ladi. Pristavning ko'rgan chorasi esa, ellikboshi va aminnikidan ham g'aroyibroq, ya'ni "*Aminga bor*", – deyishdangina iboratligiga o'qituvchi e'tibori qaratilishi lozim.

Insonning qadri toptalgan, sha'ni, huquqi oyoqosti qilingan holatning shafqatsiz manzarasi kishi qalbini iztirobga to'ldiradi. Nega bu odamlar bu qadar yuzsiz? Porasiz-ku qimir etmas ekan, jilla qursa, pora olishgach ham, nega harakat qilishmaydi? Mullaqo jon koyitmay turib, birovdan narsa ta'ma qilishdan xijolat bo'lmasliklari sababi nimada? Badiiy tahlil natijasida kishini shu xildagi o'ylar bezovta qilishi kishida katarsis jarayoni boshlanganini bildiradi. O'quvchilarda qarshilik ko'rsata olmaydigan, o'z haqini ajrata bilmaydigan, ojiz odamlarni toptaydigan noinsof kimsalarga nisbatan nafrat uyg'onishi, bechoralarga achinishi badiiy adabiyot uchun ham, uning o'qitilishi uchun ham muhim natijadir.

Amin bilan Qobil bobo orasidagi munosabat atrofficha tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Arzga kelgan cholni ko'riboq *"og'zini ochmay kekirgan, so'ng baqbaqasini selkillatib kulgan"*, ho'kizni atay sigir deb cholni masxaralagan, *"yo'qolmasdan oldin bormidi"*, *"Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekanda!"* – deya qariya ustidan ochiqchasiga kulgan, Qobil bobo oldida *"chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga"* tiqib, so'ng *"etigining tagiga art"*gan, hech tortinmay bobodan pora so'ragan amin qiyofasidagi noinsoniy belgilarni butun dahshati, xunukligi, jirkanchligi bilan his etgan o'quvchi ham uni yomon ko'rib qoladi, ham shunday yuvuqsiz kishiga ishi tushgan Qobil boboning fojiali holatini chuqur anglaydi.

O'quvchilarni o'ylab ko'rishga undash zarur: amin hamisha ham o'zini shunday tutarmikin? Aminning o'z chirkin qiyofasini bu qadar ochiq ko'satayotganiga sabab nima? Ehtimol, jazosizlikdadir? Balki, amin Qobil boboni odam o'rnida ko'rmagani uchun unga bir hayvon yanglig' munosabatda bo'lib, qariyadan uyalishni ham lozim topmayotgandir. Chindanda amin cholni uyalishga ham arzimaydi, deb hisoblaydi. Shu bois chinchalog'ini burniga tiqib, qolog'ini etigining tagiga artadi. Amin qanchalik befarosat va tarbiyasiz bo'lsa-da, boshqa kishining oldida shu jirkanch qiliqlarini qilmagan bo'lardi. Qobil bobodan esa tortinmaydi. Chunki uningcha, bobo odam emas. Odam bo'lmagan yaratiqdan esa uyalib o'tirilmaydi. Qadimgi Yunonistonda azamat gladiatorlar bekalarini hammomga olib kirib yuvintirib qo'yishgan. Sohibjamol bekalar qullardan uyalishni xayollariga ham keltirmaganlar. Chunki uyalish insonga xos bo'lganidek, faqat insondangina uyalinadi! Qul esa odam emas! Aminning Qobil boboga munosabatida ana shu holat belgi beradi.

Amin nechog'lik yuzsiz bo'lmasin, unda baribir oz bo'lsa-da, qandaydir o'zbeklik unsurlari saqlanib qolgan. Qobil bobo ilojisizlikdan, xo'rliги kelganidan, masxara bo'layotganidan alami kelib yig'lasa, "yig'lama" deyishga o'zbekligi qo'ymasa, "yig'lamang" deyishga amaldorligi yo'l bermaydi. Shu bois *"yig'lanmasin"* deb vaziyatdan chiqadi. Hikoyanavis timsollar tabiatidagi eng mayda holatlarni ham bexato ilg'agan va mahorat bilan aks

ettirgan. Ellikboshi Qobil boboga ta'sirini o'tkazish, yolg'oniga ishontirish uchun oldin unga sensirab gapirgan bo'lsa, oladiganini olib bo'lgach esa, cholga doimgiday sizlab muomala qilaveradi.

Epik asarlarning shu yo'sinda amalga oshirilgan tahlili o'quvchilarga uning zamiridagi hayotiy, badiiy mantiqni to'laroq ang'lash va matnning estetik jozibasini tuyish imkonini beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Epik asarga xos yetakchi belgilarni ko'rsating.
2. Epik asarda tafsilot tasvirining qanday o'rni borligini izohlang.
3. Epik bitik tahlilida timsollar ruhiyatiga xos tasvirlarga alohida e'tibor qaratish zarurligi sababini sharhlang.
4. O'quvchilarda ezgu ma'naviyatni shakllantirishda epik asarlar qaysi jihatlari bilan ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaysiz?
5. Qanday epik asarlar obrazlar asosida tahlil etilgani ma'qul?

DRAMATIK ASARLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Reja:

1. Dramatik turdagi asarlarga xos yetakchi belgilar.
2. Dramatik asar bilan tanishishdagi o'ziga xosliklar.
3. Dramada obrazlar xarakterini ko'rsatishning o'rni.
4. Spektakllarning tarbiyaviy ta'siri kuchli ekanligi sabablari.

Tayanch tushunchalar:

Dramatik jins, dramatik asar turlari, dramatik asarda muallif ishtiroki yo'qligi, dramalarning sahna uchun yozilishi, xarakterlar yorqinligi, dramada ko'rkam so'z o'rni, dramalarda deko-ratsiya, butaforiya, remarka, luqma singari badiiy unsurlarning o'rni, dramatik asarda makon, zamon va harakat birligining ahamiyati.

Dramatik asarlar tahlili epik va lirik turdagi asarlarni tahlil qilishga juda ham o'xshab ketadi. Ammo tahlil jarayonida dramatik turdagi asarlar faqat o'qish uchungina emas, balki asosan, ko'rsatish, namoyish etish uchun yozilganligi sababli unda teatr

tan'atiga xos xususiyatlar bor ekanligi, ya'ni yaratilayotgan vaqtdayoq asarning spektaklga aylanishi ko'zda tutilganligi hisobga olinishi joiz.

Taniqli adabiyotshunos D.Quronov rahbarligida yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" asarida drama "***Dramaning tasvir predmeti – harakat, u, Arastu ta'rificha, "barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan faoliyatdagi kishilar sifatida taqdim etadi". Drama obyektning plastik obrazini yaratadi, unda subyekt – ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi***"¹⁰⁵ tarzida ta'riflanadi. Ko'rinadiki, adabiy tur sifatida drama bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlardan ***birinchi*** dramatik asarda muallifning ishtirok etmasligidir. Ijodkorning ishtiroki drama asaridagi remarka – izohlardagina ko'rinadi. ***Ikkinchi*** belgisi esa drama asari sahnada qo'yish uchun yozilishidir. Bu hol drama asarining deyarli hamisha muayyan miqdordagi parda va ko'rinishlarga bo'linishini taqozo qiladi. Dramaning ***uchinchi*** belgisi asar syujetining rivoji makon va zamon uyg'unligi ta'minlangan sharoitda kechishi shartligidan iborat. Odatda, dramatik asarlarda odam faoliyati va borliqning sahnada ifodalash mushkul bo'lgan, zamoniy oraliq nuqtai nazaridan uzoq hamda ko'lamdor ko'rinishlari aks ettirilmaydi. Dramada konfliktning g'oyat keskin va shiddatli, ya'ni konsentrik bo'lishi kerakligi uning ***to'rtinchi*** xususiyatidir. Badiiy shartlilik unsurlarining ko'pligi dramatik asarlarning ***beshinchi*** belgisidir. Dramada tasvirlanadigan hayot hodisalarini sahnada qayta yaratish qiyinligi tufayli shartlilikka kengroq o'rin beriladi. Masalan, sahna ortida otishma, qurollar, mashinalar, otlarning ovozi eshutilishi mumkin, lekin bularni sahnada bevosita ko'rsatish imkonsiz. Shuningdek, dramatik asar tilining bir qadar "sun'iy", "sahnaviy", ya'ni ko'tarinki va jarangdor bo'lishini uning ***oltinchi*** belgisi deyish mumkin.

Ma'lumki, dramatik asarlar matnida tragiklik, dramatiklik yoki komiklik belgisi ustuvorligiga qarab ***tragediya, komediya*** va ***drama*** kabi janrlarga bo'linadi. Dramatik asarning eng qadimiy turi tragediyadir. Undan so'ng komediya paydo bo'lgan.

¹⁰⁵ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.

T.: "Akademnashr", 2010. 95-bet.

O'n sakkizinchi asrga kelibgina, bu ikkisining o'rtasidagi oraliq janr sifatida drama paydo bo'lgan. Shuningdek, bu janrlarning har biri tarixiy tragediya, drama, musiqali drama, musiqali komediya, jiddiy komediya, tragikokomediya kabi muayyan ichki turlarga bo'linadi.

Dramatik asarlarni tahlil qilish alohida yondashuvni talab etadi. Chunki bir vaqtning o'zida ham so'z, ham teatr san'atlarining uyg'unlashuvi natijasi bo'lmish dramani o'qish, idrok etish hamda tahlillash o'qituvchi va o'quvchilardan qo'shimcha intellektual-hissiy zo'riqishni taqozo qiladi. Qahramonlarning tuyg'ulari, insoniy sifatлари haqida muallifning xarakteristikasi bo'lmagan sharoitda asar personajlari holati, ruhiyati va shaxsiyati borasida to'xtamga kelish, muayyan xulosalar chiqarish uchun aqliy kuchlanish zarur bo'ladi.

Drama asarlari tahlilida asosiy e'tibor qahramonning sajiyasini ochishga qaratilishi lozim. Negaki har bir dramatik obraz tabiati yuzasidan ularning o'z so'zlari, xatti-harakatlari orqaligina fikr yuritish mumkin, bu ishda tahlilchiga boshqa adabiy turlardagi singari muallif yordamga kelolmaydi. Dramatik asarlar tahlilida to'lalilik, aniqlik va chuqurlikka erishish uchun nafaqat adabiy, balki teatr nazariyasiga doir qoidalardan ham bir qadar xabardor bo'lish talab qilinadi.

Aytilganidek, dramatik asar matnida urg'u personajlar harakati va nutqi tasviriga ko'chgani uchun ham unda syujetlilik va nutqiy rang-baranglik kabi uslubiy asoslar ustuvorlik qiladi. Eposga qaraganda dramatik turdagi asarlarda teatr sharoiti taqozosi bilan shartlilik ancha yuqori darajada bo'ladi. Dramatik shartlilik narsaning dekorativ manzarasini uning o'zi sifatida qabul qilish, personajlarning o'zaro suhbat asnosida chetga yoki tomoshabiniga luqma tashlashi, qahramonlarning o'z-o'zi bilan so'zlashishi (monologi), obrazlar xatti-harakati, gapirish yo'sini, imo-ishoralaridagi yaqqol sahnaviylik singari jihatlarda ko'zga tashlanib turadi.

Dramada tasvirlanayotgan olamning tarkibi va qurilishi ham o'ziga xos bo'ladi. Bu olam haqidagi barcha ma'lumot personajlarning o'zaro suhbatlari va muallif remarka-izohi orqaligina beriladi.

Dinobarin, drama o'quvchi xayolotining parvozini, sezilar-sezilmas imo-ishoralar orqali asar qahramonlarining portreti, ularni o'rab turgan narsalar olami, tabiat ko'rinishi va bq.ni tasavvur qila olishni taqozo etadi. O'quvchi dramatik turdagi asarni shunchaki adabiy iste'molchi sifatida o'qib ketolmaydi, u muallifga sherik bo'lishi, o'z tasavvur imkoniyatini ishga solib, dramada yozilmagan, lekin ko'zda tutilgan jihatlarni tasavvur qila olishi kerak bo'ladi. Drama asarlarini o'qish odamlar orasida unchalik keng yoyilmaganining sababi ham asli shundadir.

Dramada personajlarni tasvirlash vositalari eposdagiga nisbatan kamroq bo'lsa-da, undagidan ko'ra yorqinroqdir. Timsollarga muallif munosabati bildirilmagani uchun ham ularning tabiatiga xos jihatlar syujet voqealari asnosida, personajlarning ruhiyat dunyosi yaqqol ko'zga tashlanadigan so'z va xatti-harakatlari orqali namoyon etiladi. Dramatik obraz yaratishda qo'llaniladigan usullardan yana biri personajlarning nutqiy xarakteristikasi, so'zlash yo'sinidagi o'ziga xoslikni bera bilishdir. Portret tasviri, qahramonlarning o'z-o'zlarini tavsiflashlari yoki boshqa personajlar nutqida ularga bildirilgan munosabat kabilarni dramatik obraz yaratishning yordamchi usullari deyish mumkin. Obrazlarga muallif munosabati esa faqatgina syujet rivoji hamda personajlarning individual nutqiy manerasi orqali ifodalanadi.

Dramatik asarda sahnada kechayotgan voqealar syujet chizig'idagi chigalliklar yechimidan ko'ra personajlar hissiyotidagi tovlanish-u o'zgarishlar atrofida markazlashadi, voqealar zanjiri obrazlar tizimidagi u yoki bu kayfiyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday pyesalarda ko'pincha psixologik uslubiy asos ustuvor (dominant) bo'ladi. Dramatik konflikt syujetning emas, balki kompozitsiyaning qarama-qarshiliklari asosida rivojlanadi. Kompozitsiyaning tayanch nuqtalari syujet unsurlari emas, balki, odatga ko'ra, har ko'rinish oxirida keladigan psixologik holatlarning avjida bo'ladi. Ziddiyatli chigal kayfiyat, konfliktli ruhiy holat ko'pincha dramatik asarda tugun vazifasini bajaradi. Ziddiyatlar to'la hal etilmagan bo'lsa-da, asarning yuksak hissiy yakuni dramaning yechimini anglatadi.

Dramatik asarni tahlil etishda o'qituvchi bir qator qiyin-
chiliklarga duch keladi. Avvalo, dramatik asarni o'qish boshqa
turdagi asarlardan tubdan farq qilib, muayyan nazariy tayyorgar-
likni talab etadi. Shu xildagi tayyorgarlik hammada ham bo'la-
vermagani uchun dramatik asarlar ko'p o'qilmaydi. Bordi-yu, bi-
ror pyesa matni o'qilgan taqdirda ham uni idrok etib, zamiridagi
badiiy ma'noni ilg'ash oson kechmaydi. Negaki dramatik asarda
muallif ishtirok etmagani uchun uning pozitsiyasi ko'zga tash-
lanib turmaydi, asar syujeti rivoji davomida ro'y berayotgan
to'qnashuvlar va personajlar xatti-harakatlarini aksiologik jihat-
dan baholash hamda asardan estetik ta'sirlanish o'quvchining
hayot tajribasi, intellektual darajasi, ma'naviy saviyasiga bog'liq
bo'lib qoladi.

Drama asarlari tahlilidagi murakkablik yana shundaki, bu tur
asarlarda voqea ham, tuyg'u ham emas, balki xarakter asosiy o'rin
tutadi. Dramatik asarni xarakterlar to'qnashuvi tutib turadi. Chun-
ki dramatik turdagi asarlar qanday janrda bo'lishidan qat'i nazar,
uning asosi dramatismga, ya'ni ruhiy xavotir tasviriga quriladi.
Dramatik asar asosida har doim qahramon uchun hayot-mamot
ahamiyatiga ega qandaydir bir narsaning qo'ldan chiqarilishi yoki
bo'ladigan qandaydir ezgu ishning amalga oshmay qolishi xavfi
turadi. Tahlil asnosida shunday hadik-xavotirning aks ettirilishiga
alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

Dramatik turdagi asarda qahramon nutqi ham hal qiluvchi
o'rin tutadi. Negaki muallifda voqealarni bayon qilish va per-
sonajlarning xatti-harakatlarini izohlab, ularga munosabat bildi-
rish imkoniyati yo'qligi, yozuvchining obrazlarni to'qnashuvlar
og'ushida ko'rsata olishigina mumkin ekani ushbu adabiy turda
dramatik nutqning zimmasiga bir qancha qo'shimcha badiiy-est-
etik vazifalar yuklanishiga sabab bo'ladi. Nutqning monolog
shakli tomoshabinlarga, dialog va polilog ko'rinishi sahnadagi
sheriklarga murojaat qilish, ular bilan fikr almashish hamda vo-
qealar rivojining, dramatik xarakterlar ochilishining vositasi hi-
soblanadi. Shuning uchun ham dramatik asar tahlili mobaynida
nutq alohida badiiy ahamiyatga egaligi ko'zda tutilishi lozim.
Dramatik nutqqa doir yana bir jihat shundaki, dramatik asar tili,

albatta, bir qadar ko'tarinki, sahnaning eng chetidagi tomoshabin ham eshita oladigan darajada jarangdor va aniq bo'lishi lozim. Chunki drama sahnada qo'yilganda, teatrning istalgan burchagida o'tirgan tomoshachilarga birday eshinishi kerakligi unda shunday xususiyatlar bo'lishni taqozo etadi. Dunyodagi barcha dramatik qahramonlarning bir qadar ko'tarinki sun'iyroq tilda so'zlashi va bu xil asarlarning Shekspir ijodi bahonasida buyuk L.Tolstoy tomonidan qattiq tanqid qilinganligi sababi ham shunda.

Drama qahramonlari quyuq tuyg'ular, kuchli hissiyotlar bo'roni og'ushida yashab, ayovsiz to'qnashuvlarni boshdan kechiradilar, ko'tarinki va ta'sirchan tilda so'zlashadilar, har qanday voqea-hodisaga kutilmagan keskinlik bilan munosabat bildirishga moyil bo'ladilar. Xuddi shunday jihatlarni bilgan va hisobga olgandagina tahlilchi dramatik turdagi asarlarning mohiyatini ocha oladi.

Ayni paytda dramatik asarni tahlil qilish boshqa-yu, shu asar asosida sahnalashtirilgan spektaklni tadqiq etish tamomila boshqa narsa ekanini ham ko'zda tutish kerak. Chunki so'z san'ati namunasi bo'lmish drama spektaklga aylangach, teatr san'ati namunasi evriladi va endi shu san'atning qoidalariga muvofiq yashay boshlaydi. Rejissura, dekoratsiya, aktyorlar mahorati drama muallifning badiiy maqsadini tamomila o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunonchi, mashhur rejissyor Bahodir Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan "Otello" spektaklida Afzal Rafiqov o'ynagan Yago timsoli dramaning bosh qahramoniga va spektaklning o'zi esa yovuz ruhiyat egasi chekkan iztirob-u qiynalishlar namoyishiga aylanib ketgandi. Spektakl ijrosi mobaynida drama matnida mavjud bo'lgan bir qator nozikliklar yo'qolib ketishi mumkin bo'lganidek, kuchli ijro tufayli o'rtamiyona bir pyesa tomoshabinda yuksak taassurot qoldiradigan spektaklga aylanishi ham mumkin.

Agar dramatik turdagi asarlarning shu jihatlari hisobga olingan holda ish yuritilsa, badiiy tahlil juda ta'sirchan chiqishiga erishish mumkin. Faqat adabiy ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan o'quv tahlilida drama matni bilan tanishish va uning tahliliga kirishishdan oldin dramatik asarga xos *sahna, parda, ko'rinish,*

dekoratsiya, mizanssena, monolog, dialog, luqma, remarka, prolog, epilog, tugun, yechim singari sahna asariga xos tushunchalar to'g'risidagi nazariy ma'lumotlar esga tushirilishi kerak. Negaki shu xildagi nazariy ma'lumotlarni puxta egallamay turib, drama asarini tushunib ham, demakki, tahlil qilib ham bo'lmaydi.

Dramatik asarlarning eng muhim o'ziga xosligi shundaki, pyesa spektaklga do'nib, badiiy so'z hodisasi real voqelikka aylantirilgani sababli kishining sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etish qudratiga ega bo'lgan yagona adabiy turdir. Spektaklga aylangan dramada qahramonlar xatti-harakatlari va xarakteri voqelik tarzida, tomoshachining ko'z oldida bevosita namoyon bo'lgani uchun unga kuchli ta'sir o'tkazadi. Shu bois drama asarlarini tahlil qilish anchagina murakkab yumushdir. Kuchli insoniy xarakterlar, to'qnashuvlaridan o't chaqnaydigan hayotiy ziddiyatlarning asosini topish, pyesa qahramonlari ruhiy to'lg'oqlari sababini tuyish orqali kishida insoniy pozitsiya va muayyan ma'naviy qadriyatlar tizimi shakllanadi.

O'qish va tushunish uchun kishidan ma'lum darajada hayotiy va madaniy tajriba hamda intellektual tayyorgarlik talab qiladigan dramatik asarlar bilan o'quvchilar qancha erta tanisha boshlasalar, ularning ma'naviyati shakllanishi jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Albatta, bunda maktablarning o'quv dasturi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ayrim mutaxassislar g'oyat murakkab tuyg'ular, chigal insoniy taqdirlar tasvirlangan "Shoh Edip", "Qirol Lir", "Mirzo Ulug'bek", "Abulfayzxon" singari asarlarni idrok etish mushkul, ulardagi badiiy ma'noni, odamzodning ulkan dardlarini, iztiroblarini tushunish qiyin ekanligidan kelib chiqib, o'quvchi yoshlarni jiddiy sahna asarlari bilan tanishtirishga shoshilmaslik kerak, deb hisoblashadi. Bu xildagi "mehribonlik" odamni ham aqlan, ham ma'nan yalqov qilib qo'yadi. Agar odam o'z vaqtida hissiy tarbiya ko'rib, tuyg'ulari paytida kamol toptirilmasa, yigirma to'rt yoshida ham, qirq to'rt yoshida ham xuddi to'rt yoshidagi kabi yuksak insoniy tuyg'ulardan, murakkab ruhiy kechinmalardan bexabar yashab o'taverishi mumkin. Fikr qilish, his etish, tuyish ham boshqa har qanday insoniy ko'nikma va malakalar singari imkon qadar yoshlikdan shakllantirilishi lozim.

Fikrimizni “Shoh Edip” fojiasi tahlili misolida ravshanlashtirishga urinib ko‘ramiz. “Shoh Edip” asari voqealar tragediyasi emas, insoniy xarakterlar fojiasidir. Muallif asarda nima bo‘ldi degandan ko‘ra, qanday bo‘ldi degan savolga javob berishga ko‘proq e‘tibor qaratgan. Tragediya boshdan-oyoq qismatning qudratini, taqdirning inson ustidan cheksiz hukmronligini namoyish etuvchi voqealar tasviri asosiga qurilgan bo‘lsa-da, Sofoklning bemisl mahorati tufayli asarda qatnashgan har bir qahramon pyesa davomida o‘zining chinakam qiyofasini to‘liq ko‘rsata oladi.

Jahon adabiyotida Edip singari iztiroblar qiynog‘ini tortgan, o‘zi xayoliga ham keltirmagan holda gunohlar botqog‘iga botgan va shu bois kechirgan azoblarining ko‘lami adadsiz darajada baland boshqa bir obrazni uchratish qiyin. Fojiadagi iztiroblar silsilasining dahshatli tomoni shundaki, asardagi qahramonlar bilib qilgan gunohlari uchun emas, balki qismatlari shundoqligi bois azoblarga giriftor etiladi. Sofokl uchun gunohning kim tomonidan, nima sababli va qanday amalga oshirilgani emas, balki qilingan gunoh va uning ajri, gunohga gunohkorning munosabati muhimdir. Dramaturg inson va qismat munosabatlarini ko‘rsatish jarayonida har bir alohida insonning o‘z taqdiri bilan faqat o‘ziga xos tarzda, o‘z ma‘naviy dunyosiga loyiq yo‘sinda uchrashishini haqqoniy aks ettira bilgan. Bilib-bilmay gunohga botildimi, undan tozalanishga urinishi yoki urinmasligi asnosida o‘ziga xos yo‘l tutgan har bir qahramon shu tarzda o‘zining insoniy sifatlarini namoyon etadi.

Tragediya markazida turgan Edip – azaldan bezovta va g‘amgusor qalb egasi. U hech qachon sha‘niga dog‘ tushiradigan ish qilmagani bois: “*Mening dilimdagi mudom tilimda*”, – deyishga haqli. O‘zga yurtdan kelib, taqdirning irodasi va shaxsiyatidagi fazilatlar tufayli Fivaga shoh bo‘lgan Edip qonuniy hukmdor Layning o‘limida o‘zining qo‘li bo‘lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagani uchun: “*Mayli o‘zim bo‘lay xuntalab o‘g‘li*”, – deydi. Avliyo Tiresiyning shunday odamga qarata: “*Yurtga bu ofatni keltirgan sensan*”, – deb da‘vo qilishi unga dahshatli adolatsizlik bo‘lib tuyulishi tabiiy, albatta.

Sofokl badiiy tasvir tarixida birinchi bo'lib *peripetiya* deb ataluvchi usuldan foydalanib yuksak badiiy natijaga erishadi. Badiiy asar qahramonlari xatti-harakatlarining ular istagiga mutlaqo zid natija berishi tasviri usuli peripetiyadir. Edip Layning halokatiga o'zining aloqasi yo'qligini isbotlash, o'ziga nisbatan atrofidagi ayrim odamlarda paydo bo'lgan shubhani yo'qotish uchun qilgan har bir harakati, aksincha, nafaqat o'zgalar, balki o'zining ham gumonini kattalashtirib, qotillikka aloqadorligini ayonlashtirib boraveradi.

Iokasta tilidan Layning chorrahada o'ldirilganini eshitganda, Edip ko'ngliga shubha urug'i tushadi. Voqealarning bundan keyingi rivoji mazkur shubha urug'ining tez ko'karib, achchiq mevalar berishiga xizmat qiladi. Kutilmaganda Layning qotili o'zi ekanini bilib, ayovsiz iztiroblar iskanjasida qolgan Edipning boshiga taqdir tog'dan ham og'ir falokat yog'diradi: u nafaqat shohning qotili, balki otasini o'ldirgan padarkush, o'z onasiga uylangan zinokor va undan farzandlar ko'rgan badbaxt kimsa ekan!

Asarda o'z zamonida Fiva shahrini balolardan xalos etgan shoh Edipning gunohlari tufayli yurtga ofat yog'ilishi va bu balolarning aybdorini izlayotgan kishining o'zi ofatning sababchisi bo'lib chiqishi tasviri asnosida Edip shaxsiyatiga xos yuksak qirralar yorqin ko'rsatiladi. Cho'pon bilan suhbat jarayonida vaziyatning og'irlashayotganini, haqiqatning oydinlashuvi o'zining zarariga xizmat qilishini bilsa-da, insofli va adolatli Edip cho'ponga: "*Evol, sen aytishing, men tinglashim shart*", – deydi. Bu so'zlar Edipning taqdir qarshisida o'jiz, lekin insof va adolatga hamisha sodiq, kuchli shaxs ekanini namoyon qiladi. Uning har bir iqrori tortayotgan ruhiy azobining qanchalik ulkan ekanini yaqqol ko'rsatadi. Shohning uzun va chigal hayot yo'liga kiritilgan har bir aniqlik uning yuragiga qadalgan xanjar kabi ta'sir etishi va u qo'zg'aydigan dahshatli og'riq asarda g'oyat ishonarli tasvirlangan.

Edip – o'zini ayaydigan kishi emas. U – o'zlikni enggan, manfaatidan ustun tura biladigan buyuk inson. Ayni vaqtda, Edip ham oddiy bir tirik odam. Shu bois ham u shubhaga tushadi, qo'rqadi, ikkilanadi. Shohning Iokastaga qarata: "*Shubham borki, avliyo*

ko'ramas", "Qo'rqaman, ortiqcha gapirvordim", – degan gaplatida tabiatidagi ana shu xislatlar namoyon bo'ladi.

Halollik va vijdonlilik – Edip shaxsiyatiga xos yetakchi fazilatlar. Tabiatidagi boshqa sifatlar uning shu fazilatlariga tobe. Uning uchun Edip o'zini fosh etuvchi haqiqatning tagiga yetishga ham shiddat bilan kirishadi. Bu haqiqat – o'limdan-da og'ir, sharmandalikdan-da kir. Ammo Edipday inson – shunday qilishga majbur. Buyuk sanaluvchi insonning qismat oldida naqadar o'jiz odam asarda butun ayanchli qirralari bilan namoyon bo'ladi:

*Tamom, bari ayon! O, yorug' jahon,
So'nggi bor ko'rmoqda ko'zlarim seni.
Hayot – harom, nafas – harom, nikoh – harom menga,
Qonga bo'langanman, jirkanchman, jirkanch!*

Haqiqat onlarining butun dahshati o'zining nihoyasiz zalvori va cheksiz ko'lami bilan kishini bosadi. Edip – yirik shaxs. Shu bois ham u o'ziga beriladigan jazo qilgan gunohiga yarasha og'ir bo'lishini istaydi. Qismatning irodasi bilan ixtiyorsiz qilingan gunoh uchun o'z ixtiyori bilan eng og'ir jazoni beradi – ko'zlarini ko'r qiladi! Jazoning salmog'i gunohning ko'lamiga yarasha. Chunki Edip tushgan sharoitda o'lish – qutulish, ko'r bo'lib yashash – jazo demak.

Azob insonni g'ussaga olib keladi, g'ussa chekish poklanish yo'lining boshlanishidir. Edip adoqsiz poklanish sari yo'l oladi. Edipning o'ziga bergan jazosi lahzalik qarorning tasodifiy natijasi emas, balki halol va vijdonli odamning tiniq aqli va toza tuyg'ularning hukmidir:

*U dunyoda otam-onam yuziga
Qanday boqdim – ko'zlarimni o'yimasam?
Badbaxt onam mendan tuqqan bolalarga
Qanday boqdim – ko'zlarimni o'yimasam?
... Yurtga qonli dog' tushirgan qotilni
Yo'q qilishga o'zim farmon berganman.
Endi esa fuqaroning ko'ziga
Qanday boqdim – ko'zlarimni o'yimasam?*

*Yo 'q! Bu ham kam. Qo'lim bo'lsa baquvvat...
Qulog'imning pardalarin yirtardim...*

Edip qiynoqlardan zorlanmaydi, qismatini yengillatishni xayol ham qilmaydi. U – so'nggi nafasigacha yurt qayg'usi bilan yashay oladigan inson. Shu sabab oxirgi damda ham:

*Men badbaxt boshimni olib ketaman,
Toki xudolarning qahr-u g'azabi
Yurtimga yog'ilmasin, –*

deya fivaliklarni ofatlardan xalos etishga urinadi.

Asardagi boshqa obrazlar ham fojia-navis tomonidan juda puxta ishlangan. Xususan, Iokasta, Kreont, Tiresiy obrazlari badiiy jihatdan mukammal ekanligi tufayli hanuzgacha estetik qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

Iokasta – avvalo ayol. Har qanday onaga, ayolga, xotinga xos barcha xususiyatlar unga ham begona emas. Iokasta ham hamma ayollar singari, avvalo, o'tboshisining tinch, yaqinlarining xotirjam bo'lishini istaydi. Uning uchun oliy haqiqatga yetishishdan ko'ra, oila butunligini saqlab qolish muhimroqdir. Elchi bilan Edipning suhbatidan erining aslida kimligini oldinroq payqab qolgan sezgir Iokasta shohga: **“Baribir emasmi, buncha yonmasang”**, – deya iltijo qiladi. Edipga qarata: **“Bilmaganing yaxshi zotingni, sho'rlik!”** – deya yozg'irganida ham, butun haqiqatni bilgach, elchi bilan suhbatlashayotgan Edipning yonidan ketib qolganida ham chinakam rahmdil ayol, o'tboshisining tinchini o'ylaydigan mehribon xotin sifatida namoyon bo'ladi. O'zi tuqqan o'g'ilga xotin bo'lgani, bolasidan farzandlar tuqqanini bilgan Iokasta uning o'rnidagi istagan bir ayol ham qilishi mumkin bo'lgan ishni qiladi – o'zini osadi! Malikaning vaziyatida hayotdan ketmoq tog'day gunohlarni ko'tarib yashash azobidan qutulmoq edi. Iokasta shaxsiyati Edipniki singari yirik va ko'lamdor bo'lgani ham u shoh Edip singari chora ko'rishi yoki so'nggi damda ham yurt tashvishini o'ylashi mumkin emasdi. Sofokl har bir personaj tabiatidagi o'ziga xoslikni buyuk san'atkorlik bilan sezgan va ifoda eta bilgan.

Dramaturg asarda qatnashgan qahramonlar ruhiyatini eng nozik jihatlariga qadar bexato ko'radi va tasvirlaydi. Bu holat barcha sirlar ochilgach, to'satdan ko'rinmay qolgan lokastani telayotgan Edipning fojiona ahvoli tasviri misolida butun dahshat bilan namoyon bo'ladi:

*...Tig' so'rab kimnidir surishtirdi u,
"Qani xotini?" – deb ayta olmasdi,
Ayta olmas edi: "Qani onam?" – deb...*

Edipning Kreontga qarata: "**Uni... Uydagini o'zing dafn etgil, O'zing bil... bu sening qondoshlik burching**", – deya qilgan fitijonida timsol ruhiyatidagi adoqsiz g'am, cheksiz xijolat juda tuzilgan, nozik tasvirlanganki, yigirma besh asr oldin bitilgan ushbu satrlar hamon yuraklarni o'rtash qudratiga ega.

Ayni bir holatdan ikki xil bir-biriga zid ma'no chiqarish, bir vaziyatdan qarama-qarshi xulosalarga kela bilish "Shoh Edip" asarida yuksak san'at darajasida hal etilgan. Edipning qizlari bilan xayrlashuvi sahnasi bu jihatdan aqlni lol qoldirar tarzda betakror aks ettirilgan:

*Qaydasiz, qizlarim, yaqinroq keling,
Ilk bor aka bo'lib... qo'l cho'zay sizga.
...Yoningizda turgan shu badbaxt ota
Ko'rmasdan, bilmasdan... sizni olamga
Keltirib qo'ydi-ku o'z onasidan...
Otangiz – padarkush, onangiz esa –
Sizni o'z o'g'lidan tuqqan qabohat...*

O'z qizlariga aka bo'lib qo'l uzatgan, onasidan farzand ko'rgan odam qismatining dahshatli manzarasi tasviri o'quvchilar ko'nglini larzaga solishi tabiiy.

Sofokl fojia orqali odamlarga nasihat qilmaydi, yo'l ko'rsatmaydi, aql o'rgatmaydi. U hech kimni asaridan xulosa chiqarishga ham undamaydi. Lekin badiiy haqiqatning qudrati o'qirmanni o'ziga tildiradi. Muallif inson hayotining murakkabligi, odam taqdirining chigalligini butun shafqatsizligi, jirkanch va kutilma-

gan tomonlari bilan ko'rsatib bergan. O'zini dunyoning xo'jayi deb hisoblovchi odam, aslida, o'z qismatiga ham ega bo'lolmaydigan ojiz yaratiq ekani bu asarda haqqoniy aks ettirilgan.

“Shoh Edip” fojiasining mohiyati inson umrining, u crishgan martabalarining o'tkinchi ekanligi, odam umri imtihon uchun berilganini anglatishida to'la namoyon bo'ladi. Bu asar kishini o'zi, o'zgalar, olam, odam va odamlararo munosabatlarning chugalligi to'g'risida o'ylashga undaydi. Edipni qanday baholash kerak? U qanday odam o'zi? Aybdormi, gunohkormi?

Ushbu fojia kitobxonni ta'sirlantirish, tuyg'ularini junbisha keltirish orqali o'ylashga majbur etadi. O'ylash esa buyuk ne'matdir. Shaxs kamoloti yo'lidagi ilkinchi bekatdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Dramatik asarga xos yetakchi belgilarga to'xtaling.
2. Sahna uchun yozilganlik bu turdagi asarlarning tabiatiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini izohlang.
3. Sahna asarining kishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi sababini sharhlang.
4. Dramatik turdagi bitiklarga xos qanday cheklanganliklar bor?
5. Edip aybdormi yoki gunohkormi?

5-bo'lim. ADABIYOT O'QITISHDA YOZMA ISHLARNING O'RNI

ADABIYOT BO'YICHA YOZMA ISHLARNING TURLARI VA ULARNI O'TKAZISH YO'LLARI

Reja:

1. O'quvchi ma'naviy-intellektual o'sishida nutqning o'rni.
2. Adabiyot saboqlarida nutq o'stirish ishlari.
3. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish yo'llari.
4. Yozma ish turlari va ularni o'tkazish metodikasi.
5. Inshoga reja tuzish.

Tayanch tushunchalar:

Nutq, nutq o'stirish, nutq o'stirishning og'zaki va yozma usullari, nutq o'stirishda yozma ishlarning o'rni, yozma ishlarning turlari, insho, bayon, taqriz, maqola, inshoning shakliga ko'ra turlari, inshoning pedagogik maqsadiga ko'ra turlari, og'zaki va yozma insho, ta'limiy va nazorat insho, adabiy insho, adabiy-ijodiy insho, erkin insho, rivoya insho, hikoya insho, taqriz insho, insho rejası, sodda va murakkab reja, rejaning qismlari, epigraf, tezis, dalil, talosa.

Har bir shaxsning kamolotida uning nutqiy rivojlanganlik darajasi ulkan ahamiyat kasb etadi. Chunki nutq insondagi intellektual, emotsional va ruhoniyl imkoniyatlarni yuzaga chiqarishning asosiy vositasidir. Hazrat Navoiy bejizga: “*Ko'ngil holati so'z degach bilgirur*”, – demaganlar. Tafakkur va hissiyot so'z deyish, ya'ni nutqqa aylanish orqaligina moddiylashadi.

Maktab adabiy ta'limida o'quvilar nutqi ikki yo'l bilan o'stiriladi: 1. Og'zaki. 2. Yozma. Demak, adabiyot bo'yicha nutq o'stirishga doir didaktik tadbirlar ham shu ikki shaklda o'tkaziladi.

Ogʻzaki nutq oʻstirish ishlari turli-tuman shakl-u shamoyillar da amalga oshirilishi mumkin. Ayrim adabiy-madaniy tadbirlar, tabiat hodisalari, yil mavsumlari, ularni oʻrab turgan atrof-muhitga doir hodisalar haqida oʻquvchilarning kuzatishlarini eshitiish; muayyan matn yuzasidan darslikdagi yoki oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarga javob topish; ayrim oʻquv topshiriqlarni ogʻzaki yoʻsinda bajarish; oʻzaro fikr almashish kabi didaktik tadbirlar nutq oʻstirishning ogʻzaki turlari sirasiga kiradi. Shuningdek, darsda oʻtilgan, oʻquvchilar tomonidan mustaqil oʻzlashtirilgan yoxud sinfdan tashqarida oʻqilgan asarlar yuzasidan oʻtkaziladigan **ogʻzaki hikoya-insho** ham ogʻzaki nutq oʻstirish shakllaridandir. Oʻrtogʻi yoki yaqinlariga ogʻzaki tavsif berish, partadoshi yoxud oilasidagilarning ogʻzaki portretini yaratish orqali ham oʻquvchining nutqini oʻstirish mumkin.

Nutq oʻstirishga doir ogʻzaki shaklda oʻtkaziladigan ishlarda oʻquvchidan tashqari oʻqituvchining ham bevosita ishtirok etishi talab qilinishi sababli bu xil didaktik tadbirlar koʻp vaqt va kuch sarflashni taqozo etgani holda kutilgan pedagogik samarani berishi qiyin boʻladi. Bu didaktik tadbirlarni oʻqituvchi har bir oʻquvchisining imkoniyati borasida aniq tasavvur ega boʻlgan dagina samarali uyushtira olishi mumkin. Adabiyot oʻqituvchisida esa hamisha ham sinfdagi har bir oʻquvchiga alohida vaqt sarflash imkoni boʻlavermaydi.

Nutq oʻstirishga doir ogʻzaki tadbirlarda berilgan mavzu yuzasidan oʻquvchi qisqa tayyorgarlikdan soʻng oʻz mulohazalarini oʻrtaga tashlaydi. Koʻpincha oʻquvchilarning fikrlari yetarlicha puxta va asosli boʻlmasligi ham mumkin. Chunki unga tayyorgarlik koʻrishga berilgan vaqt hech qachon yetarli boʻlmaydi. Oʻqituvchi ogʻzaki nutq oʻstirishga doir tadbirni imkoni boricha sinfdagi har bir oʻquvchi bilan oʻtkazishi kerak boʻladi. Bu esa shoshilish va tezkorlikni talab qiladi. Barcha oʻquvchilar ham bu talabga toʻliq javob bera olmaydi. Demakki, nutq oʻstirishga doir ogʻzaki ishlarda sifatdan koʻra miqdor yetakchilik qilishini tan olish lozim boʻladi.

Adabiyot saboqlarida oʻtkaziladigan nutq oʻstirishga doir oʻquv tadbirlarida yozma ishlarning oʻrni katta. Nutq oʻstirish

ga doir yozma ishlar o'tkazish o'quvchilarda badiiy matn ustida ishlash malakasini, bildirilmoqchi bo'lgan har bir fikrni o'ylab ko'rish hamda uning ta'sirchan va tushunarli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish borasida katta ahamiyatga egadir. Yozma ishlar olinganda, o'qituvchi sinfdagi har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanib o'tirishi shart emas. Buning ustiga, yozma ishlar faqat sinfda bajariladigan tadbir bo'lmay, ularni uyga vazifa yoxud mustaqil ish sifatida ham berish mumkindirki, bu hol ham uning ulkan samara berish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Eng muhimi, yozma ishlar o'quvchida mustaqil ravishda matn yaratish ko'nikmasini paydo qiladiki, bu bola shaxsi kamolotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq barkamolligi inson shaxsi takomilida alohida mavqega ega. Chunki yozma nutq aqliy faoliyatning murakkab shakli bo'lib, odam kamolotining darajasini anglatadi. Avstraliyalik olim B. Linkening aniqlashicha, sakkiz yashar bolaning o'z fikrini yozma ravishda ifodalash saviyasi to'rt yoshdagi bolakayning og'zaki nutqi darajasidan ham pastroq bo'lar ekan. Chunki og'zaki nutq fikr va uning til vositasida moddiylashishidan iborat ikki bosqichda amalga oshirilsa, yozma nutq fikr, uning tilga evrilishi, tilga evrilgan fikrning yozuvga aylantirilishi tarzida uch bosqichli murakkab aqliy faoliyat ko'rinishini oladi. Ayon bo'ladiki, og'zaki nutqdan keyin shakllangan yozma nutq odam tafakkur ifodasining ancha yuqori darajasini bildiradi.

O'zbek maktablaridagi o'quv amaliyotida o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishning bayon va insho singari turlari mavjudligi ma'lum. Lekin jahondagi pedagogikasi ilg'or mamlakatlarda bayon faqat ona tili saboqlarida qo'llaniladigan yozma ish turi hisoblanadi¹⁰⁶. Chindan ham bayonda mustaqil fikr yuritish imkoniyati ham, matnning badiiy jihatlariga munosabat bildirish chorasi ham yo'qligi, faqat o'quvchining xotira kuchi va savodxonlik darajasini aniqlashga xizmat qilishidan kelib chiqib, uni ona tili saboqlarida qo'llash samara beradigan yozma ish turi deyish mumkin. Negaki bayon orqali o'quvchilarning u yoki bu

¹⁰⁶ <https://kopilkaurokov.ru/literatura/prochee/pis-miennyie-raboty-na-urokakh-literatury>

grammatik qoidani qanchalik o'zlashtirgani ma'lum bo'lib, uni yozuvda qo'llay bilish ko'nikmasi mustahkamlanadi.

Keyingi vaqtlarda o'zbek maktablari adabiy ta'limida esse shaklidagi yozma ish turi kengroq yoyilmoqda. Aytilganlardan kelib chiqib, adabiy ta'limda o'quvchilarning yozma nutqi insho va esselar o'tkazish yo'li bilan shakllantiriladi va rivojlantiriladi deyish mumkin. Negaki insho va esse yozayotgan o'quvchida erkin fikrlash, narsa-hodisalarga mustaqil munosabat bildirish imkoni kengroq bo'ladi. Boshqa yozma ish turlarida bu imkoniyat cheklangan bo'lishini ko'rdik. Masalan, bayon asosan matnni eslab qolish va qayta yozma hikoyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. Bayon yozdirilganda, o'quvchilarning matnga munosabat bildirish va ijodiy yondashish imkoni bo'lmaydi. Nutq esa munosabat jarayonidagina o'ziga xoslik, ijodiylik va ta'sirchanlik kasb etadi.

Spuni aytish kerakki, endigina ommalashib borayotgan esse atamasi aslida inshoning janriy ko'rinishlaridan biridir. Esse fransuzcha "tajriba", "o'rganish" ma'nolaridagi *exagium* so'zidan kelib chiqqan. Adabiyot o'qitishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan insho o'quvchilarning bog'lanishli nutq malakalarini oshirishda eng muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ayni shu holat adabiyot saboqlari tizimida insho yozishga katta e'tibor berilishini taqozo etadi.

Insho so'zi arabcha bo'lib, "*tashkil etish*", "*yaratish*", "*barpo qilish*", "*ijod*", "*tahrir*" ma'nolarini bildiradi¹⁰⁷. Adabiyot o'qitish jarayonida ko'p qo'llanishi kerak bo'lgan bu ish turiga *insho – o'quvchining muayyan mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini tilning grammatik qoidalariga muvofiq tarzda mustaqil yozma bayon qilish usuli* tarzida ta'rif berish mumkin.

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida insho quyidagicha tasnif qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

I. Shakliga ko'ra:

- a) og'zaki insho; b) yozma insho.

¹⁰⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy enciklopediyasi", 2006. 221-bet.

II. Pedagogik maqsadiga ko‘ra:

a) ta’limiy insho; b) nazorat insho. Keyingi vaqtda pedagogik maqsadiga ko‘ra insholarning “Ko‘rik-tanlov” shaklidagi uchinchi turi ham borligi aytilmoqda¹⁰⁸.

III. Yo‘nalishiga ko‘ra:

a) adabiy insho; b) erkin insho; v) adabiy-ijodiy insho.

IV. Janriga ko‘ra:

a) rivoya insho; b) tasviriy insho; v) muhokama insho; g) taqriz insho; d) munozara insho; e) tadqiqiy insho va bq.

Insholarning shakliga ko‘ra turlari qanday belgilarga ega ekanligi xususida yuqorida fikr yuritildi. Pedagogik maqsadiga ko‘ra turlariga xos xususiyatlarga to‘xtalish zaruriyati mavjud. Adabiyot o‘qitish amaliyotida insho turlarining o‘ziga xosligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limiy insholar yaqin orada o‘tilgan bir mavzuning qanchalik o‘zlashtirilganini aniqlash hamda o‘quvchilarning yozma savodxonlik darajasidagi o‘zgarishlarni bilish maqsadida yozdiriladi. Ta’limiy insho sinfda yozdirilishi ham, uyga vazifa sifatida topshirilishi ham mumkin.

Nazorat insholar har o‘quv choragi oxirida o‘quvchilarning yozma savodxonligi va shu vaqt oralig‘ida o‘tilgan mavzularni qanchalik o‘zlashtirilganini nazorat qilish masadida olinadi. Inshoning bu turi faqat sinfda yozdirilishi kerak. Har ikki turdagi insho ham o‘z vaqtida tekshirib baholanishi shart.

Keyingi vaqtda bir qadar keng yoyilib borayotgan bo‘lsa-da, ko‘rik-tanlov insholari umumta’lim maktablaridagi barcha o‘quvchilarni qamrab olmaydi, unda faqat tanlab olingan bolalargina ishtirok etadi. Bu tur insholar bir o‘qituvchi emas, balki hay’at a‘zolari tomonidan tekshirib baholanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar insholarning yo‘nalishiga ko‘ra turlariga xos xususiyatlarni ham bilishlari maqsadga muvofiq. Chunonchi, sinfda o‘rganilgan muayyan adabiy asar yuzasidan o‘tkazilgan yozma ishga yo‘nalishiga ko‘ra adabiy insho deyiladi. Masalan: “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obraziga xos xususi-

¹⁰⁸ Ermatov N. Insho va uning turlari. <https://uz.denemetr.com/docs/768/in-dex-281868-1.html?page=6>

yatlar” yoki “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar obraziga xos belgilar” kabi.

Erkin yo‘nalishdagi insho o‘quvchining sinfda maxsus o‘rganilmagan mavzu yuzasidan yozma ravishda qanday fikrlay olishini aniqlashga qaratiladi. Bu tur insholarga “Mening do‘stim”, “Qishloqda besh kun”, “Yurt mustaqilligi shaxs mustaqilligidan boshlanadi”, “Til – millat ruhiyati ifodasi” singari mavzular olinishi mumkin.

Adabiy-ijodiy yo‘nalishdagi insho sinfda o‘rganilgan ko‘rkam asarga tayanilgani holda unga o‘quvchining ijodiy yondashi-shi, o‘z taassurotlarini ifodalashi kerakligi ko‘zda tutiladi. Jumladan, “Otabek – men sevgan qahramon”, “Alpomish – nomus qo‘rg‘oni”, “Barchinga o‘xshagim keladi”, “Qaldirg‘och – idealimdagi singil” singari mavzularda o‘rganilgan asarga tayanilgan holda o‘quvchining o‘z qarashlari ifoda etilishi mumkin.

Aytilganidek insholar janriga ko‘ra a) rivoya insho; b) tasviriy insho; v) muhokama insho; g) taqriz insho; d) munozara insho; e) tadqiqiy insho singari turlarga bo‘linadi. Ta‘kidlash kerakki, insho janrlari yozma ishning tabiati va o‘quvchining niyatidan kelib chiqqan holda yana boshqa bir qancha turlarga bo‘linishi ham mumkin. Biz o‘qish amaliyotida ko‘p qo‘llanadigan janrlarnigina ko‘rsatishga qaror qildik.

Rivoya inshoda o‘quvchi o‘rganilgan asarda aks etgan voqealar yoki o‘z kuzatishlarini bayon qiladi.

Tasviriy inshoda o‘quvchi atay kuzatilgan tabiat manzarasi yoxud biror tasviriy san‘at asarida nimalar aks etganligini yoza bilishi ko‘zda tutiladi.

Muhokama inshoda o‘quvchi o‘rganilgan asardagi obrazlarning tutumlarini muhokama qilishga, timsollarga aksiologik baho berishga urinadi. Esse inshoning shu turiga uyg‘un keladi.

Taqriz inshoda o‘quvchi o‘rganilgan asarning badiiy xususiyatlari va yozuvchining tasvir mahorati singari jihatlarga to‘xtalishi ko‘zda tutiladi.

Munozara inshoda o‘quvchi yo muayyan asar qahramonlarining tutumlari yoki yozuvchining tasvir yo‘sini bilan munozaraga kirishadi.

Tadqiqiy inshoda muayyan bir asar yuzasidan maktab darsliklarida bo‘lmagan ma’lumotlar asosida yozma ish bajarilishi ko‘zda tutiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining har bir sinfidagi adabiyot darslarida quyidagi miqdordagi insholar yozdirilishi shart ekani belgilab qo‘yilishi kerak:

| Sinflar | Insholarning umumiy soni | Sinfda olinadigan ta’limiy insholar | Nazorat insholari | Uyda yoziladigan ta’limiy insholar |
|----------|--------------------------|-------------------------------------|-------------------|------------------------------------|
| 5-sinf | 8 | 2 | 4 | 2 |
| 6-sinf | 10 | 3 | 4 | 3 |
| 7-sinf | 11 | 4 | 4 | 3 |
| 8-sinf | 11 | 4 | 4 | 3 |
| 9-sinf | 14 | 6 | 4 | 4 |
| 10-sinf | 13 | 5 | 4 | 4 |
| 11-sinf | 13 | 5 | 4 | 4 |
| Barchasi | 80 | 29 | 28 | 23 |

Har qanday o‘quv tadbirida bo‘lgani singari insho yozishda ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajalari aniq hisobga olib ish tutilganda kutilgan natijaga erishiladi. O‘quvchilar imkoniyatidan yengil topshiriq ularni yalqov qilsa, ortiqchasi og‘irligidan hafsalasini pir qiladi. Quyida turli sinflarda yoziladigan insholarning talab etiladigan taxminiy hajmi ko‘rsatiladi. O‘quvchilardan 5-sinfda 1–1,5 varaq; 6-sinfda 1,5–2 varaq; 7-sinfda 2–2,5 varaq; 8-sinfda 2,5–3 varaq; 9-sinfda 3–4 varaq; 10-sinfda 4–4,5 varaq; 11-sinfda 4,5–5 varaq hajmida insho yozish talab qilinishi mumkin. O‘qituvchi turli sinflardagi insholar hajmining bu ko‘rsatkichlari taxminiy ekanini yodda tutishi kerak. Negaki hajmning katta-kichikligi mavzuning yo‘nalishi, o‘quvchining uslubi, yozuvining katta-kichikligi, harflar orasining ochiq-tig‘izligi singari bir qator omillarga bog‘liq. Insho yordamida o‘quvchining 1) mavzuni ochish ko‘nikmasi; 2) til vositalaridan o‘rinli foydalana bilishi; 3) grammatik qoidalar va to‘g‘ri yozish normalariga amal qilish ko‘nikmasiga egaligi tekshiriladi.

Tan olish kerakki, keyingi yillarda oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda test sinovi joriy qilinishi munosabati bilan adabiyot o'qitish amaliyotida insholarga e'tibor sezilarli susaydiki, buni aslo oqlab bo'lmaydi. Yozma bog'lanishli nutqi rivojlanmagan shaxsning intellektual saviyasi o'z-o'zidan pasayib boradi. Jamiyatimizda xato bilan yozadigan, o'z fikrini yozma ravishda ifodalashning uddasidan chiqolmaydigan chalasavod kishilarning ko'payib borayotganini maktablarda insho yozdirishga e'tibor susayganligining ayanchli oqibati deyish mumkin.

Inshoning qanchalik muvaffaqiyatli yozilishi to'lig'icha unga qanday tayyorgarlik ko'rilishiga bog'liq. O'quvchi inshoda yoritilishi lozim bo'lgan mavzuni atroflicha bilishi kerak. Buning uchun u mavzuga tegishli materiallarni to'plab, saralab, eng keraklilaridan foydalangan holda o'z qarashlarini yozma shaklda ifodalashni uddalay olishi zarur.

Milliy metodika ilmida insho yozish qonun-qoidalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar qilingan. Jumladan, mashhur metodist olim S. Dolimovning: *“Sinfda o'qituvchi rahbarligida analiz etilgan asar muhokama tarzida insho yozish uchun o'quvchilarga tayyor material beradi. Bu tayyor material tezis shaklida bo'lib, buni o'quvchi mustaqil ravishda kengaytirishi, faktlar bilan o'z fikrini isbotlashi va ...mustaqil ravishda sitatalar kiritishi lozim”*¹⁰⁹, – shaklidagi to'xtami ta'limiy insho yozish bosqichlarini tayin etishi, unda o'qituvchi va o'quvchilar amalga oshiradigan ishlar ko'lamini ko'rsatishi nuqtai nazaridan g'oyat muhimdir.

Inshoni mazmunli yaxshi yozish va berilgan mavzuni chuqur yoritishga erishish uchun o'quvchi oldin inshoga tegishli bo'lgan **mavzu, epigraf, reja, tezis, dalil, kirish, asosiy qism, xulosa** kabi tushunchalarni puxta o'zlashtirib olishi zarur.

Mavzu – inshoning nima haqda yozilishini belgilaydi va u umumlashma xarakterda, o'quvchi fikriga aniq yo'nalish berishni ko'zda tutadi.

Epigraf – ijodiy ishning asosiy yo'nalishini belgilab berishga xizmat qiladigan so'z, ibora, jumla, maqol yoki parcha. U biror mashhur shaxsning asaridan keltirilishi ham, o'quvchining o'z fikri bo'lishi ham mumkin.

¹⁰⁹ Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. – T.: “O'qituvchi”, 1968. 48-bet.

Reja insho yozishda o'quvchining mavzu yuzasidan yozmoqchi bo'lgan fikrlarini muayyan tartibga solish, ifodani muayyan maqsadga yo'naltirib, ta'sirchanligini oshirish, qarashlarning tizimli bo'lishiga erishish, muhimni nomuhimdan ajratish vositadir. Har qanday insho reja asosida yozilishi shart. Negaki rejasiz yozilgan inshoning boshi-keti bo'lmaydi. Insho rejasining hozir o'qitish amaliyotida bo'lgani kabi sodda yoki murakkab kabi ikki turidan qaysi birida bo'lishi o'qituvchi tomonidan majburiy tarzda belgilanishi mumkin emas. Rejaning qaysi turidan foydalanilganlik inshoning saviyasiga qo'yiladigan bahoga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. O'quvchi ushbu inshoda bildirmoqchi bo'lgan fikrlarini tartibli ravishda ifodalashi uchun, qanday bo'lsa-da, albatta, reja tuzishi shart. Reja insho yozish davomida o'quvchining maqsadli fikrlashini ta'minlashga xizmat qilsa, o'qituvchiga o'quvchining fikrlash yo'sini qanday kechganini bilish va xolis baholash uchun ham zarurdir.

Tezis ijodiy ish mobaynida ilgari surilishi ko'zda tutilgan asosiy fikr va qarashlar yig'indisi bo'lib, o'quvchi uni oldindan tasavvur qilishi va iloji bo'lsa, qoralama qog'ozga yozib qo'yishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dalil – o'quvchining o'z qarashlarini asoslash va bayon etayotgan fikrining to'g'ri ekanini isbotlashga xizmat qiladigan ma'lumot va vositalar yig'indisi. O'quvchi inshoda o'zi bildirgan har bir fikrga o'rganilgan asar yoki mavzuda talab etilgan hayotiy hodisadan dalil topishga o'rganishi kerak.

Kirish – muayyan mavzuni yoritishning zarurligi va mavzuning dolzarbligi nimadan iborat ekanligi ko'rsatilishi ko'zda tutilgan, inshoda gap nima haqda borishiga ishora qilinadigan ijodiy unsur. "Kirish" qismining miqdori ko'pi bilan insho umumiy hajmining 10 foizidan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism – mavzu to'liq yoritib berilishi, rejadagi asosiy bandlar ifoda etilishi lozim bo'lgan qism. Asosiy qism insho umumiy miqdorining 80 foizidan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Shunga erishilganda, mavzuning mohiyati to'laroq ochiladi.

Xulosa – ijodiy ish mavzusi yuzasidan chiqarilgan umumlashma to'xtam. Xulosa inshodagi asosiy umumlashtiruvchi fikr

bo‘lib, o‘quvchining mavzu yuzasidan yozma ish faoliyati yakunini ko‘rsatadi. Inshoning xulosasi umumiy mavzudan bevosita kelib chiqishi, shu vaqtga qadar keltirilgan dalillarga tayanib bildirilishi zarur fikrdir. “Xulosa” qismining miqdori insho umumiy hajmining 10 foizidan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Alohida ta’kidlash kerakki, insho rejasida “Kirish”, “Asosiy qism”, “Xulosa” singari unsurlar alohida ko‘rsatilishi shart emas. O‘quvchining bu unsurlarni insho yozish kechimida ko‘zda tutishining o‘zi yetarlidir. O‘quvchilar yuqorida aytilgan talablarga to‘liq amal qilgan holda insho yozishga o‘rgansalar va ushbu mashg‘ulot bilan muntazam shug‘ullanib borsalar, ularning yozma nutqi ko‘zda tutilganiday rivojlanishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tafakkur va nutq munosabatini sharhlab bering.
2. Inson kamolotida yozma nutq nima uchun yuksak o‘rin tutadi?
3. Insholarni tasniflang. Har bir turga xos xususiyatlarga to‘xtaling.
4. Insholarning tarkibiy qismlarini tushuntiring.
5. Nazorat insholarga xos belgilarga to‘xtaling.
6. Esse bilan insho munosabatini sharhlang.

ADABIYOT BO‘YICHA YOZMA ISHLARNI TEKSHIRISH VA BAHOLASH

Reja:

1. Insho yozdirish texnologiyasi.
2. Inshodagi xatolar va ularning ildizlari.
3. Xatolarning turlari, ularni aniqlash va belgilash yo‘llari.
4. Yozma ishlarni baholash metodikasi.
5. Xatolar ustida ishlash yo‘llari.

Tayanch tushunchalar:

Insho yozdirish texnologiyasi, ta’limiy inshoga ajratilgan vaqt, yozma ishlarda yo‘l qo‘yiladigan xatolar, xatolarning tur-

lari: qo'pol va qo'pol bo'lmagan xatolar, qo'pol xatolarning ildizlari, qo'pol bo'lmagan xatolarning sabablari, tipik va notipik xatolar, insholarni baholash, bahoning bitta bo'lishi kerakligi, inshoda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar miqdori, inshodagi xatolarni belgilash, qayd etish va hisobga olish, insholarni baholash yo'llari, insho xatolari ustida ishlash.

Insholarni tekshirish va baholash adabiyot o'qitish metodikasi ilmi va o'qitish amaliyotidagi eng muhim muammolardan hisoblanadi. Chunki insholar nisbatan katta hajmda va qisqa muddat ichida yozilgani uchun unda ko'pincha xatolar miqdori ortib ketadi. Adabiyot o'qitish amaliyotida eng ko'p tarqalgan yozma ish turi bo'lmish inshoni o'tkazish, tekshirish va baholash to'g'risida bir to'xtamga kelish g'oyat muhimdir.

Insho yozdirishdan **maqsad o'quvchilarning yozuv savodxonligini oshirish, ularni har qanday murakkab fikr-mulohaza va his-tuyg'ularni tushunarli, savodli hamda ta'sirli qilib ifodalab berishga o'rgatishdan iborat**dir. Shu boisdan insho yozish tilning grammatik qoidalari bilan uzviy bog'liq kechimdir. Hozirga kelib o'quvchilar orasida savodxonlik darajasining keskin pasayib ketishiga asosiy sabablardan biri shuki, tilimizning imlo qoidalari, grammatik normalarini ishlab chiqishda hamisha ham chuqur ilmiy asoslarga tayanilmagan.

Ko'pgina grammatik qoidalar milliy tilning xususiyatlariga to'la muvofiq emas. Bularning ba'zilari rus tili grammatikasidan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish tufayli paydo bo'lgan. Yangi yozuv va imlo qoidalaridagi bir qator sun'iyliklar ham o'quvchilarning yozma ishlarda xatoga yo'l qo'yish xavfini kuchaytirdi. Chunonchi, "u" yuklama holda kelsa ham, bog'lovchi vazifasida qo'llanma ham chiziqcha (-) bilan yozilishi kerakligi kabi qoidalar o'quvchilarning savodxonligini ko'tarish yo'lidagi katta to'siqlardir.

O'zbek tilining grammatik qoidalari jonli so'zlashuv tilidan juda ham uzoqlashib ketgan. O'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalar berish o'rniga murakkab ilmiy namo qoidalar va lingvistik yangiliklar tiqishtirilgani uchun o'quvchilarning yozma nutqi susayib, savodxonlik darajasi pasayib bormoqda. Ona tiliga

doir darsliklarda til ta'limining amaliy jihatlarini emas, balki uning nazariy qirralarini o'rgatishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Ona tilini o'rganish nima uchun kerak ekanligi chaqiriq xarakteridagi ucha tushunarli bo'lmagan, mavhum asoslar bilan izohlanib, amaliy ahamiyati anglatilmagani sababli mashg'ulotlar o'quvchilarni o'ziga jalb qila olmaydi. Buning ustiga, ona tiliga doir atamalarining ko'p o'zgartirilayotgani ham ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki usiz ham nazariy tayyorgarligi chuqur bo'lmagan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining o'zlari til ta'limiga tinimsiz kirib kelayotgan turli-tuman "nau-xau"larni o'zlashtirib olishga ulgur olmayaptilar. Binobarin, bu borada o'quvchilariga to'g'ri yo'l ko'rsata olmayotganliklari ham ayon haqiqatdir.

Buning ustiga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga qabul imtihonlarining to'liq test shakliga o'tkazilgani ayrim o'qituvchi va maktab rahbarlarida o'quv fanining asoslarini o'rgatishdan ko'ra kirish imtihonida tushadigan test savollariga javob topishni muhimroqdir, degan qarash paydo qildi. Negaki maktab jamoasining qanday ishlayotganligi maktab bitiruvchilarining qancha qismi oliy o'quv yurtiga kirgani bilan o'lchanadigan bo'lgani bunday yondashuvni to'liq oqlaydi ham. Holbuki, umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy o'quv yurtlariga talabgor tayyorlashga emas, balki tobora shiddat bilan rivojlanib, ayovsiz raqobat og'ushida qolgan hayotda yashab keta oladigan odam tayyorlashi kerak. Bu maktablar oldidan yoziladigan "umumiy o'rta ta'lim" aniqlovchisi ham shuni ko'rsatib turibdi. Ixtisoslashgan maktablarning faoliyatining bitiruvchilarining oliy maktabga kirgan-kirmagani bilan o'lchash mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablariidagi mana shu holat test savollariga javob topishga e'tiborni oshirib, yozma ishlar va ularni to'g'ri yozish uchun zarur bo'lgan grammatik qoidalarni egallashga nopisandlik bilan qarash illatini keltirib chiqarmoqda. Hozirgi maktablarda insho yozdirish nafaqat saviya nuqtai nazaridan, balki miqdor jihatdan ham oldingi vaqtlardagiga nisbatan keskin kamayib ketgan.

Bugungi o'quvchilarning yozma savodxonligi past darajada ekaniga, o'qituvchilardan aybni soqit qilmagan holda, o'zbek tili normativ grammatikasi va darsliklarining qoniqarli ilmiy-metodik ahvolda emasligi, yozma ishlar o'tkazishning tashkiliy-metodik jihatdan talablar darajasida bo'lmayotganligi ham sabab ekanini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Shuning uchun ham e'tiborni insholarni samaraliroq o'tkazish va ularni o'quvchilarning yozma ish bajarish ko'nikmalarini mustahkamlab, malakaga aylantiradigan, ijodga undaydigan yo'sinda tekshirish yo'llari xususida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyot o'quvchisi o'tib bo'lingan biror mavzu yuzasidan yoki biror erkin, yoxud adabiy-ijodiy insho yozdirar ekan, yozma ishning ona tilidan o'rganilgan biror muhim grammatik qoidani mustahkamlashga qanchalik xizmat qilishini ham hisobga olishi maqsadga muvofiqdir. Insho yordamida mustahkamlangan grammatik qoida o'quvchi xotirasida chuqur iz qoldiradi, uning savodxonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarda grammatik qoidalar shunchaki yodlab olinadigan narsalar emas, balki tilning mavjudligini ta'minlaydigan va tushunib olish mumkin bo'lgan, takrorlanib turadigan ilmiy xulosalar ekanligini anglab olish ko'nikmasini shakllantiradi.

Aytish kerakki, ta'limiy insholar o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan pedagogik maqsadga ko'ra turfa ko'rinishlarda o'tkazilishi mumkin. Chunonchi, u yozma ko'rinishda bo'lganidek, og'zaki yo'sinda ham o'tkazilishi mumkin. Bir soat davomida olinganidek, bir darsning qandaydir bir qismida yozdirilishi ham mumkin. Qisqa vaqtda olishga mo'ljallangan insholar oldiga o'ziga yarasha maqsad qo'yiladi. Ya'ni o'quvchilarning kichik bir hayotiy yoxud adabiy hodisa bo'yicha kuzatishlari qandayligini yaqinda o'rganilgan biror grammatik qoidani o'zlashtirganlik darajasini aniqlash bilan qo'shib yuborish ko'zda tutiladi.

Misol uchun, ona tilidan undalma mavzusi o'tilgan bo'lsa, o'quvchilarga shu mavzu o'tilgan vaqtdagi fasl yuzasidan o'n daqiqalik qisqa ta'limiy insho yozdirilib, unda kamida to'rt undalma qatnashishi talab etilsa, o'quvchilar ham fasl bo'yicha mu-

lohzalarini bayon qilishadi, ham yozma ishlarida kerakli miqdordagi undalmani qoidaga muvofiq qo'llashga urinishadi.

Nazorat (kontrol) insholar barcha sinflarda kamida to'liq bir soat, 10–11-sinflarda esa, ehtiyojga qarab, qatorasiga ikki soat davomida olinishi maqsadga muvofiqdir. Negaki o'quvchilarning chorak, o'quv yilining yarmi yoxud to'la o'quv yili davomida olgan bilimlarini tekshirishga qaratilgan nazorat insholarning mavzulari o'quvchilarning qamrovli fikrlashiga qaratilgan bo'lib, ularning adabiyot va ona tili bo'yicha muayyan vaqt mobaynida qanchalik o'sishga erishganliklarini ko'rsatadi.

Insholarni tekshirish faqat o'quvchilar mehnatini baholashdangina iborat bo'lib qolmay, didaktik jihatdan samarali bo'lishi uchun ularda yo'l qo'yilgan xatolarning minazi (tabiati)ni to'g'ri belgilab ko'rsatish ham katta ahamiyat kasb etadi. Insholarda uchraydigan xatolar ularning minaziga ko'ra a) **uslubiy**; b) **imlo**; v) **tinish** xatolar tarzida uchga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Uslubiy xato insho yozish jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar orasida eng jiddiysi hisoblanadi. Negaki uslubda o'quvchi shaxsining intellektual darajasi, fikrlash yo'sini qandayligi aks etadi. Fikrlashida chalkashlik bo'lgan shaxs grammatik qoidalarni o'zlashtirgani bilan to'la savodli bo'la olmaydi. Chunki bunday o'quvchi so'zlarni to'g'ri yozgani bilan tilga doir qoidani amaliyotga tatbiq etish yo'llarini bilmagan, mavzuga doir fikrlarini muayyan tizimga solmagan bo'ladi. Didaktik nuqtai nazardan uslubiy xato qo'pol xatolar sarasiga kiradi. Uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan inshoning mazmuni chuqur bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham inshoda biror-ta uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa ham unga "5" (besh) baho qo'yilmaydi.

Imlo xatolari o'quvchining grammatik savodxonlik darajasini anglatadi. Bu xil xatoning ko'payib ketishi o'quvchining morfologiya va sintaksisga doir grammatik qoidalarni yaxshi o'zlashtirmagani va so'zlarning yozilish holatini bilmasligidan dalolat beradi. Bu xil xatolarga yo'l qo'yimaslik uchun o'quvchi so'z, o'zak, negiz, qo'shimcha, so'z birikmalari va qo'shma gaplarning yozilishiga doir qoidalarni puxta o'zlashtirib, ularni istalgan vaziyatda qo'llay biladigan bo'lishi kerak.

Tinish (punktatsiyaga doir) xatolari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, hamma vaqt faqat punktuatsiyani anglatib qolmay, ba'zan grammatik qoidalarni ham bildiradi. Chunonchi, ergashgan qo'shma gaplar, ko'chirma gaplar, qo'shoq (juft) so'zlar yozilishiga doir holatlarda qo'llanilishi kerak bo'lgan qo'shtirnoq ("") va chiziqcha (-) tinishning emas, balki grammatikaning tadqiqot manbasi hisoblanadi.

Adabiyot bo'yicha o'tkaziladigan har qanday yozma ishda, jumladan, inshoda ham o'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolar **didaktik** xarakteriga ko'ra, ikki turli bo'ladi: a) *qo'pol xatolar*; b) *qo'pol bo'lmagan xatolar*.

Qo'pol xatolar o'quvchining muayyan grammatik qoidalarini bilmasligi, u yoki bu so'zning qanday yozilishi zarurligidan xabarsizligi sababli yo'l qo'yiladigan xatolar bo'lib, **inshoning bahosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi**.

Qo'pol bo'lmagan xatolar o'quvchining shoshganligi, e'tiborsizligi, charchaganligi va bq. sabablar tufayli grammatik talablarga to'liq va qat'iy rioya qilolmaganligidan yuzaga kelgan xatolar bo'lib, **bahoga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi**. Qo'pol bo'lmagan xatolarga harflarni bosma shaklda yozish, bosh harf o'rniga kichik harfning kattaroq ko'rinishini qo'llash, so'zlarning qisqartma shaklidan foydalanish kabi holatlar kiradi.

Shuningdek, inshoda yo'l qo'yiladigan xatolar qaytarilish chastotasiga ko'ra **tipik** (ko'p uchraydigan) va **notipik** (kam uchraydigan) tarzida ham ikki turga bo'linadi. **Tipik xatolarga** a) so'zlarni adabiy normaga muvofiq emas, balki shevadagiday qo'llash; b) qaratqich kelishigi qo'shimchasi "**-ning**" bilan tushum kelishigi qo'shimchasi "**-ni**"ning farqiga bormaslik; v) "**h**" va "**x**" harflarini farqlay olmaslik; g) so'zlashuv nutqida qo'llash mumkin bo'lgan, lekin adabiy tilda ishlatilmaydigan oborotlardan foydalanish kabi xatolar kiradi. Tipik xato o'quvchilarning ko'pchiligi tomonidan tez-tez yo'l qo'yiladigan xatodir.

Notipik xato esa, har bir o'quvchining umumiy savodxonlik va u yoki bu grammatik qoidani o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq tarzda yo'l qo'yiladigan xatolardan iborat bo'ladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi uchun o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni to'g'ri topish va jo'yali belgilash katta didaktik ahamiyat kasb etadi. Xatolarning qanday tabiatga ega ekani yozma ishga qo'yilgan belgidanoq ko'rinib turishi o'quvchilarni keyingi insholarida xatolarga yo'l qo'yishdan bir qadar asraydi.

Mashhur metodist olim Subutoy Dolimovning quyidagi fikrlari bu jihatdan diqqatga sazovordir: *“O'quvchilarning bayon va inshosidagi xatolar asosan quyidagi belgi bilan ko'rsatiladi: orfografik xato bir to'g'ri qisqa chiziq (–) va daftarning hoshiyasiga bir tik chiziq (|) bilan; punktuatsion xato ikki to'g'ri qisqa chiziq (=) va daftar hoshiyasiga bir to'g'ri chiziq (|) bilan; gapning noto'g'ri tuzilishi ilon izi (~~~) chiziq va hoshiyada us. (uslub) bilan ko'rsatiladi. So'z noto'g'ri ishlatilgan bo'lsa, katta chiziq bilan o'chiriladi va daftarning hoshiyasiga mn (mazmunan noto'g'ri) deb yozib qo'yiladi, bir so'z hadeb takrorlanaversa, qavs () ichiga olib qo'yiladi, gap bo'laklaridan biri tushib qolgan bo'lsa, shu so'z o'rnida V belgisi va hoshiyada uch nuqta (...) qo'yiladi, tushunib bo'lmaydigan yoki shubha tug'diradigan so'zlar bo'lsa, ostiga chiziladi va hoshiyada so'roq (?) bilan ko'rsatiladi. Bu belgilardan tashqari, o'qituvchi bayon va inshoga qisqacha mulohaza ham yozadi. Bunda yozma ishning yutuq va kamchiliklari ko'rsatiladi”*¹¹⁰. Bevosita amaliy qiymatga ega bu xil fikrlar milliy ta'lim tizimi tamomila yangilanib ketgan bugungi kunda ham qo'llanilishi kerak.

Taniqli olim ta'kidlaganidek, metodika ilmi va o'qitish amaliyotida inshoda yo'l qo'yilgan xatolarni belgilashning o'ziga xos usullari bordir. Avvalo, har qanday insho qizil rangli yozg'ichda tekshirilishi va yo'l qo'yilgan xatolar o'quvchilarga yaqqol ko'rinib turishi kerak. Chunonchi, inshoning **uslubiy xatoga** yo'l qo'yilgan o'rmiga **to'lqinli chiziq** chizilib, hoshiyaga **“usl.”** belgisi qo'yiladi. **Imlo xatosi** to'g'rilanadi, to'g'rilangan so'z yoki harf tagiga bir **ko'ndalang** chiziq, hoshiyaga bir **tik chiziq** tortiladi. Tinish xatolari ham to'g'rilanib, to'g'rilangan belgi tagiga ikki **ko'ndalang** chiziqcha tortilib, hoshiya chetiga bir **tik chiziq** qo'yiladi. Noto'g'ri qo'llangan so'z tagiga chizilib, hoshiya-

¹¹⁰ Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. –T.: “O'qituvchi”, 1968. 101-bet.

ga “mn” (mazmuni noto‘g‘ri) belgisi qo‘yiladi. Shunda har bir o‘quvchining inshoda qaysi turda va qancha miqdorda xatoga yo‘l qo‘yganligi aniq ko‘rinib turadi.

Yuqorida aytilganlarni jadval ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

| Xatolar nomi | Xatoning belgisi | Xatolarning minazi (tabiati) | Xatolar ustida ishlash |
|-----------------|------------------|---|---|
| Uslub xatolari | ~~~~ “usl.” | 1. Fikr aniq ifoda etilmagan. 2. Jumla grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan. | 1. Noaniq fikrini o‘zi aniq ifodalaydi. 2. Noto‘g‘ri tuzilgan jumla to‘g‘rilab ko‘chiriladi. |
| Imlo xatolari | - I | 1. Biror so‘z xato yoziladi. 2. Bo‘g‘in noto‘g‘ri ko‘chiriladi. | 1. Xato yozilgan so‘z bir qator qilib, to‘g‘rilab yoziladi. 2. O‘sha so‘z to‘g‘ri bo‘g‘inlarga bo‘linib, bir qator qilib yoziladi. |
| Tinish xatolari | = I | 1. Kerakli joyga tinish belgisi qo‘yilmagan bo‘ladi. 2. Tinish belgisi ortiqcha qo‘yilgan bo‘ladi. | 1. Tinish belgisi qo‘yib ko‘chiriladi. 2. O‘sha gap ortiqcha tinish begisisiz ko‘chiriladi. |

Adabiyot o‘qituvchisi insholarni tekshirishda o‘quvchilarning xatolarini ko‘paytirish yoki kamaytirish emas, balki ularning ijodiy ishini xolis baholash yo‘lidan borishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi qo‘pol bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘quvchining inshosini tekshirganda, qilingan xatorlarni belgilagan va to‘g‘rilagan holda yozma ishning bahosini pasaytirmasligi kerak.

Yuqoridagi jadvalda o'quvchilarning o'z inshosida yo'l qo'ygan xatolar ustida ishlash usullariga ham qisman diqqat qaratilgan. Uslub xatosiga yo'l qo'ygan o'quvchiga xato jumla to'liq ko'chirtiriladi va uning e'tibori kamchilik qayerda ekani-ga qaratiladi. Jumla qay yo'sin tuzilganda fikr aniq ifodalanishi mumkinligi xususida o'ylash talab etiladi. O'quvchi o'sha shaklni topib daftariga qayd etadi. Imlo xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilar esa, xato so'z yoki so'z birikmasini to'g'rilab, bir qator to'lguncha qayta-qayta yozishadi. Tinish xatolari ustida ham shu yo'sin ishlanadi,

Shuningdek, nazorat insho yozayotgan vaqtda ham xatolarni kamaytirishga xizmat qiladigan o'quv vositalarining olib kirilib, ulardan foydalanilishiga imkon berish kerak. Chunonchi, ta'limiy insholarni yozdirishda mavzuga tegishli spravochniklar, lug'atlar, imlo qoidalaridan foydalanish o'quvchilarning savodxonligini ko'tarishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bolalarga bulardan foydalanish imkonini berish lozim.

Aytish kerakki, hozirgi adabiy ta'lim amaliyotida insholarni baholash ko'p hollarda diktantga qo'yiladigan talablar asosida olib borilayotganligi pedagogik jihatdan to'g'ri emas. Negaki insho katta fikriy zo'riqish va atroflicha savodxonlikni talab etadigan yumushdir. Insho yozish uchun o'quvchi diktant yozgandagidan bir necha barobar ko'p aqliy va jismoniy kuch sarflaydi.

Shuning uchun ham insholarni baholashga qo'yiladigan talablar bir qadar liberallashtirilishi zarur. Bizningcha, **bir-ikki imlo, bir-ikki tinish** xatolarga yo'l qo'yilgan, uslubi ravon, mavzuning mazmuni teran ochilgan inshoga **besh** baho qo'yish mumkin. **Bit-ta uslubiy, ikki-uch imlo, ikki-uch** tinish xatoga yo'l qo'yilgan, mavzu yaxshi ochilgan inshoga **to'rt** baho qo'yiladi. **Ikki-uch** uslubiy, **to'rt-besh** imlo, **to'rt-besh** tinish xatoga yo'l qo'yilgan insholarga **uch** baho qo'yish mumkin. Xatolar miqdori bundan oshib ketgan, mavzuning ochilish darajasi talabga javob bermaydigan inshoga **ikki** baho qo'yiladi. Atay intizomsizlik qilib yoki mavzudan mutlaqo xabarsizligi sababli yoxud dangasalik tufayli mavzu chala-yarim ochilgan va yomon yozilgan insholarga **bir baho** qo'yiladi.

Shu o'rinda adabiyot o'qitish amaliyotida hamisha bahsli bo'lib kelgan bir masalaga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi: yozma ishlarga nechta va qanday baho qo'yish kerak? Ona tilidan yoziladigan insho, bayon va shunga o'xshash barcha boshqa turdagi yozma ishlarga bitta baho jurnalning ona tili uchun ajratilgan qismiga qo'yiladi. Adabiyot o'quv fani bo'yicha yozdirilgan barcha insholarga ikkita baho: oldin mazmuniga, keyin savodxonligiga qo'yiladi. Savodxonlik uchun qo'yilgan baho sinf jurnalining ona tili qismiga qo'yilishi kerak. Negaki bu natija o'quvchining ona tili predmetini qanchalik egallagani natijasidir. Ta'kidlash kerakki, adabiyot o'quv fanidan yozilgan insholar natijasida o'quvchilarning savodxonlik darajasigina ko'tarilib qolmay, ularda mustaqil fikrlash, muayyan narsa-hodisa yoki xatti-harakatga baho berish, fikrini bir joyga to'plash, xususiydan umumiyga, umumiydan xususiyga sari bora bilish singari intellektual-ruhiy ko'nikmalar shakllanadi. Shu tariqa bolalarda shaxslik sifatleri qaror topadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Insho yozdirish tartibini tushuntiring.
2. Inshoda yo'l qo'yiladigan xatolarni tasnif qiling.
3. Insho yozish asnosida yo'l qo'yilgan xatolarni belgilash yo'llarini ko'rsating.
4. Insholarni baholash metodikasi haqida ma'lumot bering.
5. Nima uchun insholarga ikkita baho qo'yiladi?
6. Xatolar ustida ishlash yo'llarini ko'rsating.

6-bo'lim. ADABIYOT BO'YICHA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR

ADABIYOT BO'YICHA SINFDAN TASHQARI ISHLAR

Reja:

1. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning pedagogik asoslari.
2. Sinfdan tashqari ishlarning adabiyot darslari bilan o'zaro aloqadorligi.
3. Mustaqil o'qish va sinfdan tashqari o'qish tushunchalari-ning mohiyati.
4. Kitobxonlar konferensiyasi va uni o'tkazish.
5. Adabiy uchrashuvlar uyushtirish.
6. Adabiy bahslar o'tkazish.
7. Adabiy kechalar o'tkazish.
8. Adabiy ko'rgazmalar tashkil etish.
9. Viktorinalar o'tkazish.
10. Mushoira tashkil etish.
11. Adabiy quroq tayyorlash.

Tayanch tushunchalar:

*Sinfdan tashqari ishlar – o'quvchilarda adabiy did shakllan-
tirish omili, sinfdan tashqari o'qish va sinfdan tashqari ishlar,
kitobxonlar anjumani, adabiy uchrashuvlar, adabiy bahslar, ada-
biy kechalar, adabiy ko'rgazmalar, adabiy quroqlar, adabiyot
bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish, sinfdan tashqari
ishlarni uyushtirish va o'tkazishda o'quvchilarning ishtiroki.*

Ma'naviyati boy va go'zal axloqli shaxsni tarbiyalash uchun adabiyot saboqlarida amalga oshiriladigan ishlarning o'zi yetarli bo'lmaydi. O'qituvchi badiiy asar o'qishni o'quvchilarining tabiiy ehtiyojiga aylantira olgan taqdirdagina adabiy ta'limning bosh

maqsadiga erishish mumkin. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlaridagi o'quvchi-yoshlarning badiiy adabiyotni his etish va tushunish darajasini ko'tarish, estetik taraqqiyotini tezlatish, badiiy didini o'stirish, ularda ijod namunalarini tushunish va tuyishni rivojlantirish va shu yo'l bilan ularni yuksak ma'naviyatli kishilar qilib tarbiyalash borasida adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar katta o'rin tutadi.

Ma'lumki, adabiyot dasturlarida ba'zan sinfdan tashqarida o'qilishi kerak bo'lgan badiiy asarlar ro'yxati beriladiki, ular o'quvchilarning estetik ehtiyojini qondiribgina qolmay, saboq davomida majburiy ravishda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materiallarni idrok etishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ba'zan "Adabiyot" darsliklarida "Mustaqil o'qish uchun" rukni bilan badiiy asarlar taqdim etiladi. Afsuski, o'zbek tilida chiqadigan pedagogik va metodik adabiyotlarda ko'pincha "sinfdan tashqari o'qish" va "mustaqil o'qish" tushunchalari aralastirib, bir-birining muqobili sifatida ishlatiladi. Aslida bu ikki tushuncha tamomila boshqa-boshqa pedagogik hodisalarni anglatadi.

"Mustaqil o'qish" tushunchasi dasturda ko'zda tutilgan va darslikdan o'rin olgan adabiy materialning dars vaqtida, sinfxonada o'quvchilarning o'zlari tomonidan mustaqil o'qilib, tahlil qilinishini ko'zda tutadi. Bu yumushning o'ziga xosligi va ahamiyati tanishilgan badiiy asar o'quvchilarning har biri tomonidan individual idrok etilib, yolg'iz tahlil qilinishida namoyon bo'ladi. Mustaqil o'qish kechimini o'qituvchi boshqaradi, lekin bolalarning faoliyatiga aralashmaydi.

"Sinfdan tashqari o'qish" tushunchasi esa o'quvchilarning o'zlari yoqtirgan badiiy asarlar bilan o'zlarining vaqtlari hisobiga tanishishini anglatadi. Bu kechimda o'qituvchining rahbarligi minimal darajada bo'ladi. U har bir sinfdagi o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlari hamda adabiy jarayonning holatidan kelib chiqib, o'quvchilarga maslahat berishi mumkin. Ayrim sinflarning adabiyot bo'yicha o'quv dasturlarida sinfdan tashqari o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat o'tkazish uchun muayyan miqdorda vaqt ajratiladi. Lekin o'quvchilarning bu faoliyatiga baho qo'yilmagani ma'qul. Negaki o'quvchilar DTSda ko'rsatil-

gan miqdordagi adabiy material va adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirishgagina burchlidirlar. O'qituvchi majburiy ta'limning 5-sinfidan e'tiboran barcha bosqichlarida o'quv yili boshida sinfdan tashqarida o'qilishi lozim deb hisoblagan asarlar ro'yxatini o'quvchilarga berishi va yarim yil yoki o'quv yili yakunida bular yuzasidan o'quvchilar bilan suhbatlashishi mumkin. Shuningdek, adabiyot o'qituvchisi o'zi tavsiya qilayotgan asarlar ro'yxatining ham bor-yo'g'i tavsiya maqomida bo'lib, o'quvchilar aynan shu asarlar bilan tanishishga majbur emasliklarini ko'zda tutishi zarur. O'quvchi muallim tavsiya qilgan ro'yxatdagi asarlarning birortasini ham o'qimagan holda o'zi istagan boshqa badiiy bitiklar bilan tanishish huquqiga ega. O'quvchilarni sinfdan tashqari o'qishga qiziqtirish darajasi adabiyot o'qituvchisining pedagogik mahorati va talantini, adabiyot saboqlarining samaradorligini ko'rsatuvchi eng ishonchli o'lchovdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" deb nomlangan 5040-qarorida: *"Har bir umumta'lim muassasasida joriy etilgan ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini moliyalashtirish uchun 2021-yil 1-apreldan boshlab davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 0,5 shtat birligi ajratiladi hamda uning ish haqi miqdori umumta'lim muassasasi oliy ma'lumotli o'qituvchisi uchun o'rnatilgan bazaviy tarif stavkasi miqdorida belgilanadi"*¹¹¹, deyilgan. Ushbu hujjatda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar tabiatida mavjud ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, ularning madaniy saviyasini oshirish uchun maxsus ijodiy-madaniy masalalar targ'ibotchisi, degan lavozim tashkil qilib, o'quvchilarning badiiy asar o'qish va to'g'ri tashkil etilgan turli adabiy-madaniy tadbirlardagi ishtirokini faollashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Bu holat adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni uyushtirishga hukumat qanchalik katta ahamiyat berayotganligini ko'rsatib turibdi.

Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, ular o'quvchida ijodkorlik mayllarini uyg'otadi, bolalarda o'zining adabiy qobiliyatlarini sinab ko'rish, boshqalardan farqli jihatlarini

¹¹¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.

namoyish etish, nimanidir yaratish ishtiyoqini tug'diradi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchiga ijodning yashirin azob va lazzatlarini tottirish orqali ularga o'zining shaxs ekanini to'liqroq his etish imkonini beradi. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar o'quvchi xayolotiga parvoz bag'ishlab, unga ruhiy erkinlik beradi. Ruhiyatidagi erkinlik hamisha kishida yaratish istagini uyg'otadi. O'zida erk va yaratuvchanlik sezimlarini uyg'unlashtirgan odamningina to'laqonli shaxs deyish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar natijasida o'quvchida badiiy did shakllanishi tezlashadi, kitob o'qishga, izlanishga qiziqish uyg'onadiki, bu sifatlar chinakam shaxsga xos xislatlardir.

Sinfdan tashqari ishlar adabiyot darslari bilan o'zaro chambarchas aloqa o'rnatilganligi samara keltiradi. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqarida amalga oshiriladigan ishlar adabiyot saboqlarining mantiqiy davomi bo'lishi, ulardan kelib chiqishi kerak. Ayni vaqtda, ular adabiyot saboqlarini yangi mazmun, yangi material bilan boyitadi, o'quvchilar ma'naviy dunyosida yangi axloqiy sifatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Bu xil mashg'ulotlarni nazariy fikrlarning amaliyotda qo'llanishi natijasi deyish ham mumkin. Saboqlar o'quvchining sinfdan tashqarida orttirgan bilimlar zaxirasiga, shakllantirgan insoniy sifatlar yig'indisiga tayanib olib borilsa, kutilgan samarani beradi. Shuningdek, darsda o'zlashtirilgan bilimlar va ma'lumotlar o'quvchini yanada ko'proq mustaqil o'qishga undashi, sinfdan tashqari yumushlarda hech bir qiyinchiliksiz qatnasha olishiga yordam berishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlar yosh o'qirmanlarga adabiyot saboqlaridan kengroq miqyosdagi estetik hodisalar bilan uchrashish va tanishish imkonini beradi. Darslarda ular faqat ishtirokchi bo'lsalar, sinfdan tashqari tadbirlarda ular ijrochi maqomiga ko'tariladilar. Qiziqish har qanday sinfdan tashqari ishning harakatlantiruvchi kuchidir. Saboqlar o'quv dasturida ko'zda tutilgan bir xil materialni o'zlashtirishni barchadan talab qilishga asoslangan bo'lsa, adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriyligi, o'quvchida tanlash, o'z xohishiga ko'ra ish tutish imkoni borligi bilan yoqimlidir. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarga o'z ijodiy qobiliyati, menligini namoyish etish imkonini berishi bi-

lan ham ahamiyatli. Bu ishlar o'quvchilar uchun erkin izlanish imkonlaridir. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning o'zaro mulqoti bir qadar ochiq, turli yo'nalishda, ko'pfunktsiyali bo'ladi. Bolalarning o'qituvchi bilan munosabatlariga ham samimiyat, tabiiylik, sheriklik, yaqinlik kirib keladi.

Hozirgi maktab o'quvchilari uchun adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyatli yana bir jihati shundaki, odatdagi bir yo'sinda o'tadigan saboqlardan farq qilaraq metodik qoliplarni buzish, vaziyatning talabidan kelib chiqqan holda o'quv muammosini hal qilish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ishlar adabiyot o'qituvchisi uchun o'ziga xos ijod laboratoriyasi vazifasini o'taydi: u bunday tadbirlarda o'quv kechimi uchun odatiy bo'lmagan yo'sinda badiiy adabiyot bilan bugungi ijtimoiy-madaniy talablarga muvofiq munosabatga kirishish yo'llarini belgilaydi. Bugungi kunda dars kechimida qo'llanilayotgan ko'plab usullar aslida ilk bor sinfdan tashqari ishlar jarayonida yaratilgan va sinab ko'rilgan.

Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar, birinchidan, ixtiyoriyligi, ikkinchidan, san'atga tegishli ekaniga ko'ra turli-tumandir va ularni qat'iy va o'zgarmas tarzda tasniflash mumkin emas. Lekin sinfdan tashqari ishlardagi erkinlik, ko'p variantlilik ularning tamomila boshboshdoq, har safar stixiyali ravishda yuzaga keladigan tadbirlar ekanini bildirmaydi. Bir qadar shartli bo'lsa-da, bu ishlarni ham turli nuqtai nazardan turib tasnif etish mumkin. Qo'llanish chastotasiga qarab sinfdan tashqari ishlarni: a) muntazam o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlar; b) vaqtinchalik sinfdan tashqari ishlar tarzida ikki turga bo'lish mumkin.

Muntazam o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlar tushunchasi har bir maktabda o'quv yili davomida doimiy ravishda uyushtiriladigan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Mamlakatimiz maktablarida o'zbek tili bayrami, Alisher Navoiy, Bobur, Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Oripov singari buyuk ijodkorlarning tug'ilgan kunlari, yangi yil, Yilboshi, 8-mart bayramlari munosabati bilan uyushtiriladigan tadbirlar muntazam o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlar sirasini tashkil etadi.

Turli munosabatlar bilan har zamonda amalga oshiriladigan a) o'qirmanlar konferensiyasi yoki adabiy konferensiya;

b) adabiy uchrashuv; v) adabiy sayohat; g) adabiy ko'rgazma; d) viktorina; e) mushoira; y) tanlov; j) adabiy kecha; z) adabiy quroq singari tadbirlar vaqtinchalik sinfdan tashqari ishlar qatoriga kiradi.

Adabiy konferensiya bir yozuvchining bir yoxud bir necha asarlari bo'yicha alohida tayyorgarlik bilan o'tkaziladigan jiddiy ilmiy-adabiy tadbir hisoblanadi. Unda belgilangan asarlar yuzasidan adabiyot o'qituvchisi va bir necha o'quvchining ma'ruza qilishlari ko'zda tutiladi. Bu xil ish turi uchun katta badiiy salmoqqa ega asarlar tanlanishi kerak. Konferensiyaga obyekt bo'lgan adabiy asar saviyasiga ko'ra u to'g'rida jiddiy va xilma-xil fikrlar aytishga yaraydigan bo'lsagina, turlicha qarashlarni yuzaga keltira oladi.

Dastlabki adabiy anjumanlarda bir yoki ikki o'quvchi va bir o'qituvchi ma'ruzachi qilib belgilanishlari, qolgan ishtirokchilar esa muhokama qilinajak asar bilan yaqindan tanish bo'lishi maqsadga muvofiq. Keyinchalik ma'ruzachilar faqat o'quvchilarning o'zlaridan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda, albatta, fikrlarning qarama-qarshi bo'lishiga erishish, ma'ruzalarda bahsli qarashlar yuzaga kelishini ta'minlash orqali asarni chuqurroq tahlil etishga urinish zarur. Buning uchun o'quvchilarning ma'ruzasi oldin tinglanishi, so'ng o'qituvchi o'z chiqishini o'quvchi ilgari surgan fikrlarga o'zgacharoq yo'sinda qo'yishi maqbuldir. Shunday qilinsa, fikrlar xilma-xilligi yuzaga keladi. Qarashlarning qarama-qarshiligi boshqacha qarovchi kishini tanqid va inkor etish yo'li bilan ifoda etilmasligiga e'tibor berish kerak. Har bir chiquvchi faqat o'z qarashlarini asoslashga diqqat qaratishi, o'zganing fikrini inkor etishga ortiqcha urinmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiy uchrashuvni tashkil etishda asosiy og'irlik adabiyot o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Chunki ayni yoshdagi o'quvchilarga daxldor bo'lgan asarlar yozgan ijodkorlar bilan uchrashuvni majburiy ta'limning biror bosqichidagi o'quvchi tashkil qila olmaydi. Bu yumush katta yoshdagi kishilarning aralashuvini talab qiladi.

Bu ish turiga ham maxsus hozirlik ko'rilishi zarur. Adabiy uchrashuvlarda adabiyot o'qituvchilari, albatta, hisobga olishlari

zarur bo'lgan ikki jihat bor. Birinchisi, ijodkorni uchrashuvga shunchaki chaqirib qo'ymay, o'quvchilarning u yozgan asarlar bilan bir qadar tanishgan bo'lishini ta'minlash ko'zda tutilishi lozim. Ikkinchidan, uchrashuvga taklif qilingan adibning ijodidan xabardorlikni ko'rsataman deb, o'quvchilarning chiqishlariga keragidan ortiq vaqt sarflab, ijodkorning o'zidan foydalanishga vaqt yetmay qolishidan ehtiyot bo'lish kerak. Ba'zi adabiyot o'qituvchilari uchrashuvga chaqirilgan ijodkorning bir qancha asarlarini o'quvchilarga yodlatadi, sahna ko'rinishlari tayyorlaydi va mehmonga shularni to'liq ko'rsatishga intiladi. Natijada, belgilangan vaqt o'tib ketadi va chaqirilgan ijodkordan keragicha foydalanilmay qoladi. Holbuki, maqsad uchrashuvga kelgan ijodkordan ko'proq fikr eshitishdan iborat bo'lishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlarning bu turini o'tkazish badiiy ijod bilan professional darajada shug'ullanadigan kishilar yashaydigan shahar va shaharlashgan manzillardagi o'quv yurtlari uchun bir qadar qulaydir. Uzoq qishloqlarda bu ishni amalga oshirish qiyin bo'lsa-da, biror san'atkor bilan o'quvchilari uchrashuvini o'tkazishni chinakamiga istagan o'qituvchi hozirgi multimedia rivojlangan sharoitda onlayn shaklda bo'lsa-da, bu xil tadbirni o'tkazishi mumkin.

Adabiy bahslar sinfdan tashqari ishning bir asar bilan tanishish tufayli paydo bo'lgan turlicha qarashlarni nazardan o'tkazib olishga qaratilgan turidir. Unda hozirgi adabiy jarayonda xuddi "Qo'rqma" romaniga o'xshab ko'pchilikning e'tiborini tortgan biror asar yuzasidan o'quvchilar o'zlarining turlicha qarashlari bilan o'rtoqlashishi ko'zda tutiladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda estetik did va adabiy bahs madaniyati shakllanadi. Bahsni uyushtirishda qatnashchilarning yosh va bilim darajalari o'zaro yaqin bo'lishiga e'tibor qaratish kerak. Buning uchun bir asarga turlicha yondashadigan ikki yoki uch o'quvchi ma'ruzachi qilib belgilanishi, ularning har birining fikrini yoqlaydigan tarafdorlari ham bo'lishi va ularning adabiy bahsda o'z nuqtai nazarlarini o'rtaga tashlab, asar matni asosida ularni himoya qilishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiy kechalar biror adibning tug'ilgan kuni yoxud tanlangan mavzu bo'yicha uyushtiriladigan adabiy-badiiy tadbir bo'lib,

maxsus tayyorgarlik va puxta rejani talab etadi. Unda tashkiliy qo'mita ish ko'radi. Reja tuziladi. Maxsus ma'ruzachilar tayin etiladi. Adabiy kechalar she'r aytish, qo'shiq kuylash, raqsga tushish singari ko'ngilochar ish turlari bilan birga olib borilishi uning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Adabiy kecha bag'ishlangan adib ijodining imkon boricha ko'proq qirralariga murojaat qilinsa, qatnashchilarning qiziqishlari ortgan bo'lardi.

Adabiy ko'rgazmalar. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari tadbirlarning bu turi ko'pincha boshqa tadbirlarning ichiga singirib yuborilgan bo'ladi. Ammo alohida bir tadbir sifatida ham uyushtirish mumkin. Bunda biror munosabat bilan biror ijodkorning hayoti va ijodiga daxldor materiallar maxsus joyga ko'rgazma uchun qo'yiladi. Bunda asarlarning turli davrlardagi nashrlari, albomlar, suratlar, gazeta va jurnal yig'malari, ayni ijodkorga tegishli turli sana va qaydlar aks etgan chizmalar ko'rgazmadan joy olishi mumkin. Ko'rgazmadan maqsad muayyan yozuvchining ijodi ko'lami va shaxsiyati qirralariga xos jihatlarni ko'rsatish orqali o'quvchilarda uning asarlariga qiziqish uyg'otishdan iboratdir.

Adabiy quroq yoki badiiy kompozitsiyalar, asosan, turli bayramlar munosabati bilan amalga oshiriladigan tadbirlar sirasiga kirib, biror mavzuga bag'ishlangan asarlarni og'zaki tarzda yoddan aytish yoki biror mavzuga tegishli asarlardan quroq tarzida gazeta chiqarish yo'li bilan yuzaga keltiriladi. O'zbek tili bayrami, Yilboshi, mustaqillik, ayollar kuni singari bayramlarga bag'ishlangan adabiy kompozitsiya va suratlardan iborat quroqlar shular jumlasidandir.

Adabiy sayohat sinfdan tashqari ishlarning bu turida o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat va javobgarlik tushadi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari adiblar ijodi monografik tarzda o'rganilayotganda imkon bor maktablarda adabiy sayohat uyushtirilsa, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi, yozuvchilar faoliyatining darslikda aks etganidan tashqari qirralari bilan tanishiladi. Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor singari ijodkorlarning uy-muzeylari adabiy

sayohat obyektlari bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Andijon shahrida Bobur, Cho‘lpon va M.Yusuf; Guliston shahrida T. Sulaymon va H. Xudoyberdiyeva; Samarqand shahrida S.Ayniy; Marg‘ilon shahrida E.Vohidov; Qarshida A.Oripov; Namanganda Mashrab, H.Sa’dulla; Jizzaxda H.Olimjon; Urganchda Ogahiy muzeylariga qilinadigan adabiy sayohatlar o‘quvchilarning ma’rifiy va axloqiy tarbiyasida katta o‘rin tutadi. Bulardan tashqari, tabiat qo‘yniga, Yozuvchilar uyushmasiga, biror nashriyot yoki tahririyatga ham adabiy sayohatlar uyushtirish yaxshi pedagogik samara berishi mumkin.

Viktorina – qisqaligi, topshiriqlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadigan o‘quv o‘yinlaridan biri. Qisqa va ixchamligi sababli viktorinadan turli katta tadbirlarning orasida foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi yoki maxsus tayyorlangan a’lochi o‘quvchilar javobi ma’lum bo‘lgan savollarni tayyorlab qo‘yishadi va viktorina ishtirokchilaridan belgilangan vaqt mobaynida javob berish talab qilinadi. Viktorina degan tushuncha 1928-yilda yozuvchi Mixail Kolsov tomonidan o‘ylab topilib, Moskvada chiqadigan “Ogonyok” jurnalida Viktor Mikulin degan jurnalist tomonidan jurnalda yoyinlangan. Bu o‘yin shu jurnalist nomidan kelib chiqib “viktorina” deb atalgan.

Viktorina yolg‘iz o‘quvchi bilan ham, kichik guruh bo‘lib ham, sinf o‘quvchilarining barchasi bilan ham o‘tkazilishi mumkin. O‘yin o‘quvchilarni tez fikrlashga, oldingi bilganlarini faollashtirishga yo‘naltirishi bilan ahamiyatli.

Mushoira – adabiyot bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning bu turi jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Arabcha mushoira so‘zi shoirlar musobaqasi ma’nosini anglatib, she’riyatning o‘ziga xos janrini bildiradi. Odatda, ijodiy sheriklikning bir ko‘rinishi. Bu janrda ikki yoki undan ortiq shoir she’r aytishadi, ijodiy musobaqalashadi. She’r bir mavzu, bir vazn, bir xil qofiya tizimida, mazmun va badiiy jihatdan uzviylikka ega bo‘lib, yaxlit asarni vujudga keltiradi. Firdavsiy o‘z davrining Unsuriy va Farruxiy singari mashhur shoirlari bilan mushoira qilib, g‘olib chiqqani rivoyat qilinadi. Shuningdek, mashhur baxshi Jumanbulbulning ayoli Tilla kampir taniqli qozoq baxshisini o‘zaro mushoirada mot

qilgani ham aytiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida Fazliy bilan shoira Mahzuna o'rtasida bo'lib o'tgan aytishuv juda mashhurdir. Mushoira bir vaqtlar o'zbek xalq og'zaki ijodida ham "aytishuv" nomi bilan keng tarqalgan¹¹².

Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning bir turi sifatida mushoira u yoki bu adibning ijodi bo'yicha ikki komandaga bo'lingan o'quvchilarning ilmiy olishuvini anglatadi. Mushoira bir sinfni ikki komandaga ajratgan yoki parallel ikki sinf yoxud ikki maktab o'quvchilaridan iborat jamoalar o'rtasidagi adabiy-poetik bellashuv shaklida uyushtiriladi. Tomonlar bir adibning ijodi bo'yicha tayyorlik ko'radilar, har bir tomon raqib guruhga savol bilan murojaat qiladi, berilgan javobni adabiyot o'qituvchisi rahbarligidagi hakamlar baholashadi. Xullas, sinfdan tashqari ishlar adabiy ta'limning tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarning estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning zarurligi sabablarini tushuntiring.
2. Mustaqil o'qish va sinfdan tashqari o'qish tushunchalarining bir-biridan farqli jihatlarini anglatning.
3. Kitobxonlar konferensiyasini o'tkazish yo'llarini ko'rsating.
4. Adabiy uchrashuvlar nima va uni kim uyushtiradi?
5. Adabiy bahslar o'tkazish yo'llariga to'xtaling.
6. Adabiy kechalar qanday o'tkazilishi kerak?
7. Adabiy ko'rgazmalar tashkil etish yo'llarini ayting.
8. Viktorina nima va u qanday o'tkaziladi?
9. Adabiy mushoira tashkil etish metodikasiga to'xtaling.
10. Adabiy quroq qachon va qanday tayyorlanadi?

¹¹² <https://qomus.info/>

nalda qayd qilinadi. Shu bilan birga fakultativlarda sinfdan tashqari ishlarning ayrim ko'rinishlaridan foydalaniladi ham. Jumladan, o'quv o'yinlari, viktorinalar, musobaqalar, ko'rgazmalar, adabiy kompozitsiyalar o'tkazish fakultativ kurslarda bemalol qo'llaniladigan ish turlari sanaladi. Negaki bu ish turlari fakultativ mashg'ulotlarga erkinlik beradi, o'quvchilarni saboqlardagi singari siqib qo'ymaydi.

Bugungi nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat oldida keskin bo'lib turgan faol o'qirman shaxs tayyorlash vazifasini birgina adabiyot saboqlari orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Hozirgi o'quvchi turli vositalar yordamida son-sanoqsiz yaxshi-yomon axborotlarga duch keladi. Radio, televidenie, kino, teatr, turfa xil ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarning o'qirmanlik qiziqishlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha ularning sinfdan tashqari o'qiydigan adabiyotlari xarakterini belgilab ham qo'yadi. Fakultativ mashg'ulotlar mana shu holatni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Shu sabab adabiyot o'qituvchilari bu kurslarning mazmunini, qurilishi, metodik ta'minotiga o'ta jiddiy qarashlari kerak. Fakultativ kurslarning mazmunini ayrim maktablarda oliy o'quv yurtlaridagi tor ilmiy yo'nalishdagi maxsus kurs va maxsus seminarlarga o'xshatishga urinish kuzatiladiki, bu mutlaqo noto'g'ri yo'l. Maktabda adabiyot tanuvchi tayyorlanmaydi. Bunday maqsad qo'yish xomxayol va noreal yondashuvdir. Qat'iy ravishda aytish kerakki, fakultativlar maktab o'quvchilarining so'z san'ati to'g'risidagi qarashlarni kengaytirish, uni teranroq tushunishga yordam berish, adabiyot borasidagi turli-tuman axborot kanallaridan olingan xilma-xil tasavvurlarini mantiqiy tizimga solish, bu yo'nalishdagi o'zining keyingi tutumlari haqida o'ylab ko'rishga yo'naltirishnigina ko'zda tutishi kerak.

Aytilganidek, fakultativ mashg'ulotlar asosiy o'ziga xosligi ularning ixtiyoriyligidadir. Bir fakultativ mashg'ulotga, odatdagi saboqlarda bo'lganiday, sinfdagi barcha o'quvchilar majburiy ravishda to'liq qatnashmaydi. Sinfdagi har bir o'quvchi biror fandan o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotni tanlash huquqiga ega. Bir sinfda bir vaqtning o'zida kamida ikki fandan fakultativ o'tkazilishi ko'zda tutilishi kerak. Shunda o'quvchilarda tanlash im-

koniyyati bo'ladi. Fakultativ mashg'ulotlar o'quv rejasida ko'zda tutilgan asosiy fanlardan ayrimlarini o'quvchilarning chuqurroq o'zlashtirilishiga erishish uchun o'tkaziladi. O'quvchilarning fakultativ turini tanlashlari ixtiyoriy bo'lsa-da, yozilganidan keyin mashg'ulotlarda qatnashish va ko'zda tutilgan bilimlar hajmini o'zlashtirishi majburiydir.

Adabiyot darslarida o'qituvchining asosiy e'tibori o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish bo'lsa, fakultativ mashg'ulotlar ularda paydo qilingan qiziqishlarni chuqurlashtirishga qaratiladi. Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarda o'quv yurtining muayyan predmet bo'yicha dasturlarida berilishi ko'zda tutilganidan ko'proq bilim shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Fakultativ mashg'ulotlarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, unda o'quvchilar odatdagi yo'sinda baholanmaydi. Ayniqsa, yomon baho mutlaqo qo'yilmaydi. Buning ikki sababi bor: birinchidan, fakultativdan olingan baho o'quvchining yillik o'zlashtirishi va sinfdan-sinfga ko'chishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ikkinchi tomondan, o'quvchiga qiziqqan va tanlagan sohasi bo'lmish fakultativ bo'yicha yomon baho qo'yilsa, unda o'ziga bo'lgan ishonch tamomila yo'qolib, o'ziga o'ta no'noq, hech narsani eplay olmaydigan nuqsonli odam sifatida qaray boshlashi mumkin.

Bizningcha, fakultativ mashg'ulotlarda odatdagidek besh bali baho qo'yish bilan birgalikda o'quvchilar faoliyatini baholashning *ma'qullash, qoyil qolish, minnatdorchilik bildirish* kabi noan'anaviy usullaridan ham foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yomon baho olishdan xavotirlanmaslik tuyg'usi ko'pchilik o'quvchilarda o'zligini ko'rsatishga intilish hissi va ichki imkoniyatlaridan foydalanishga urinish tuyg'usini uyg'otadi.

O'quvchining o'zi qiziqqan sohada hamma ham yechavermaydigan muammolarni hal etishi, ko'ngliga yoqqan ishni qilishda yutuqlarga erishishi uning shaxs sifatidagi taraqqiyotiga, aqliy va ruhiy o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi. Fakultativ mashg'ulotlar aynan o'quvchining qiziqish doirasini, intilish yo'nalishini ko'rsatishi bilan, ya'ni uning shaxs sifatidagi o'ziga xosligini bildirishi bilan ahamiyatlidir.

Qaysi fanlardan fakultativ mashg'ulotlar o'tkazilishi kerakligi o'quvchilar tomonidan tanlanishi kerak. O'rta maktabning 8-sinfidan boshlab har bir sinfdagi o'quvchilar bir necha o'quv predmeti bo'yicha tavsiya etilgan fakultativlardan o'zlari istaganlarini tanlab olish imkoniga ega bo'ladilar. O'quvchilar orasida qaysidir bir fakultativ mashg'ulotda qatnashishni istamaydiganlari bo'lishi ham mumkin. Va o'qituvchi yoxud maktab rahbariyati uni bunga majbur qilishga haqli emas.

Adabiyot saboqlarida turlicha qiziqishga ega bo'lgan o'ttiz besh nafargacha o'quvchi qatnashsa va o'qituvchi o'z ishini ularning o'rtacha darajasiga moslashga majbur bo'lsa, fakultativ qatnashchilari miqdori o'ndan yigirma nafargacha bo'lishi kerak. Bu hol, ya'ni qiziqish doiralari va qarashlari bir-biriga yaqin kishilarning bir fakultativ mashg'ulotga uyushishi o'quvchilarda yangi intellektual-ijodiy imkoniyatlar uyg'onishiga sabab bo'ladi. Sinfdagi o'quvchilarning o'rtacha saviyasiga qaraganda, fakultativ ishtirokchilarining intellektual darajasi ham bir qadar yuqori bo'ladi. Chunki ular o'zlari qiziqqan va yaxshi ko'rgan bitta yumush bilan shug'ullanadigan kishilar jamoasidir.

O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida fakultativ mashg'ulotlar 1967–1968 o'quv yilidan e'tiboran joriy etilgan. Rossiya maktablarida biror o'quv fanidan uyushtirilgan fakultativ mashg'ulotlar 9-sinfidan boshlanib 35 soat, ya'ni o'quv yili davomida haftasiga bir soatdan bo'lsa, bizning respublikamiz maktablarida har bir fandan o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotlar hajmi 17 soat qilib belgilangan. Demak, bizda bunday mashg'ulotlar yarim o'quv yili davomida uyushtirilishi ko'zda tutiladi.

Qaysi sinfdagi, qaysi o'quv fanlari yoki mavzular yuzasidan fakultativ mashg'ulot o'tkazilishi maktab pedagogika kengashi tomonidan har o'quv yili boshida belgilanib, o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Qaysi o'quv fanlaridan fakultativ kurslar tashkil etishni belgilashda o'sha predmetlar bo'yicha maktabda kerakli o'quv jihozlari, didaktik vositalar va eng muhimi, yetuk mutaxassislar mavjudligi asosiy mezon bo'lishi kerak.

Aytilganidek, har bir o'quvchi ixtiyoriy ravishda biror fakultativ mashg'ulot turini tanlash huquqiga ega. Biror fakultativni

tanlagan o'quvchi hech qanday sinov, tanlov, saralovdan o'tkazilishi mumkin emas. Bu o'rinda o'quvchining ixtiyori yetarli asoslanishi kerak. Qaysi fan yuzasidan o'tkazilishi ko'zda tutilgan fakultativ mashg'ulotlarga o'quvchilar ko'proq yozilgan bo'lsa, o'sha muammo yoki fan bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim.

Maktabdagi fakultativ mashg'ulotlar hamma sinflarda va yil davomida emas, balki 8-sinfdan boshlab, 17 o'qish haftasi mobaynida o'tiladi. Maktabning imkoniyati va o'quvchilarning qiziqishlariga qarab, 8-sinfda ikki, 9-sinfda uch, yuqori sinflarda to'rt fandan fakultativ mashg'ulot tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, adabiyotdan fakultativ mashg'ulotlar, albatta, adabiyot o'qituvchisi tomonidan o'tilishi shart emas. Bunda, hatto, professional pedagog bo'lmagan odamning xizmatidan ham foydalanish mumkin. Jumladan, badiiy ijod bilan qiziqadigan kishi, badiiy ijoddan yaxshi xabardor bo'lgan jurnalist, biror ijodkor yoki adabiyottanuvchi olim singari shaxslar ham fakultativ kurslarni olib borishlari mumkin. Hozir mamlakatning har bir maktabiga birlashtirilgan madaniy-ijodiy ishlar targ'ibotchilaridan ham fakultativ mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalansa bo'ladi.

Adabiyot bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilib, badiiy asarlarga o'zgacharoq ko'z bilan qaray oladigan, adabiy qahramonlar xatti-harakatiga aksiologik yondashishga o'rgatadigan yo'sinda uyushtirilishiga alohida e'tibor qilish lozim. Bunda o'quvchilarning belgilangan mavzu yuzasidan ma'ruza qilishi, taqriz yozishi, biror sinchining adabiy maqolasiga munosabat bildirishi yoxud biror ijodkorning pozitsiyasi bilan bahsga kirishishi kabi bolalarning faollashuviga xizmat qiladigan usullarni qo'llash samarali bo'ladi.

Fakultativ mashg'ulotlar samaradorligini oshirish borasida, ayniqsa, interfaol usullardan foydalanish yaxshi natija beradi. Fakultativ mashg'ulotlar maktab dasturiga kirmagan asarlar yoki adabiy hodisalar to'g'risida ham bo'lishi mumkin. Interfaol usullarda yo'lga qo'yilgan fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarda

matnga tahlilchi va sinchi ko'zi bilan qarash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish joiz. Bu yerda badiiy matn shunchaki o'qilmaydi, balki u professional mutaxassisnikiga yaqin nazar bilan o'qib, tadqiq etiladi.

Maktablardagi fakultativ mashg'ulotlar umumta'lim fanlari bo'yicha o'tiladigan darslarning takroriga aylanib qolmasligi, mashg'ulotlarni uyushtirish shaklidan tortib, baholashgacha bo'lgan jarayonlarda o'ziga xos yo'l tutishga urinishi lozim.

Aytilganidek, fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarga yomon baho qo'yish mumkin emas. Chunki umumta'lim maktab o'quvchilarining muayyan sinfni bitirishlari uchun ta'lim davlat standarti (TDS)da ko'rsatilgan bilimlar minimumini o'zlashtirishlari yetarli hisoblanadi. Ma'lumki, fakultativ mashg'ulotlari TDS ko'rsatkichlariga qo'shimcha hisoblanadi. Binobarin, fakultativ mashg'ulotlardagi bahoning qandayligi o'quvchining biror sinfni bitirishiga salbiy ta'sir ko'rsatolmaydi. Ayni vaqtda, fakultativ mashg'ulotlar baholanmay qolishi ham mumkin emas. Har bir sinfda o'tiladigan fakultativ mashg'ulotlar dars jadvalida aks etib, jurnalga qayd qilinganidek, baholanishi va bu baho o'rta ma'lumot haqidagi guvohnomaga qo'yilishi ham kerak. Fakultativ mashg'ulotlarning bahosi har bir o'quvchining shaxs sifatidagi yo'nalganligi, uning qiziqish doirasi qandayligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Fakultativ kurslarning mavzusi sifatida ba'zan bo'layotgani singari o'ta tor xususiy emas, balki bir qadar umumiylik xususiyatiga ega muammo olingani ma'qul. Bunday mavzu o'quvchilarning estetik o'sishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, ularning adabiyot bo'yicha bilganlarini ma'lum darajada umumlashtira oladigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Ayni vaqtda fakultativ uchun tanlangan muammo o'quvchilarning o'qirmanlik darajalari hamda imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi, birinchi navbatda, ularni qiziqtirishi kerak.

Ba'zan o'qituvchilar fakultativ mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil etishda odatdagi o'quv fanini salgina kengaytirish yo'lidan borishadi. Holbuki, fakultativ mashg'ulotlarga mavzu tanlashda ham o'quv fanidan balandroq o'lchamlar nazarda

olinib, badiiy adabiyot va adabiyotdanuv bo'yicha keyingi yutuqlarga tayanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqori sinflarda "Alisher Navoiy va bugungi adabiyot", "Abdulla Qodiriy va zamonaviy o'zbek romanlari", "Cho'lpon ijodida milliy ozodlik ohanglari", "Abdulla Oripov she'riyatida milliy ruh ifodasi", "Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol ruhiyati tasviri", "Hozirgi adabiy jarayon", "Zamonaviy o'zbek she'riyatiga xos xususiyatlar", "Bugungi o'zbek nasrining yetakchi tamoyillari", "Hozirgi o'zbek hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari" singari mavzularni fakultativ kurslar uchun tanlash foydadan xoli bo'lmaydi.

Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarda saboqlarda adabiyotni o'rganishga yordam bergani kabi ularning maktabdan tashqarida so'z san'ati namunalari bilan ishlashiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarda:

1. Badiiy matn hissiyligi va muallif tuyg'ulari dinamikasidagi uyg'unlikni payqash ko'nikmasi.
 2. Badiiy asarni o'qish jarayonidagi hissiy ohanglar o'zgarishini bitik mazmuni bilan asoslay olish.
 3. Asardagi o'qilayotgan narsa-hodisalarni tasavvur qilish, obrazlarni ko'z oldiga keltirish.
 4. Badiiy matndagi obraz, fikr, tuyg'u va sezimlarni o'zi real borliqda kechirgan holatlar bilan uyg'unlashtira bilish.
 5. Badiiy matnni to'g'ri va ifodali o'qish.
 6. Badiiy asar o'qish yo'sinini yozuvchining tasvir uslubiga muvofiqlashtirish.
 7. Badiiy matn mazmunini talqin qilish, tasvir ohangidan asar konsepsiyasini anglab yetish.
 8. Personajlar va muallif nutqidagi o'ziga xoslikni bilish va tizohlay olish singari xususiyatlar shakllanishiga yordam beradi.
- Shu va shunga o'xshash xususiyatlari tufayli adabiyot bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida yuksak badiiy did va ezgu ma'naviy sifatlarni shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Maktab adabiy ta'limida fakultativ mashg'ulotlar zarurligining ijtimoiy va pedagogik asoslarini ko'rsating.
2. Fakultativ kurslar faqat adabiyotchilar tayyorlashga xizmat qiladimi yoki boshqa maqsadlarda tashkil etiladimi?
3. Maktab o'quvchilari ma'naviy va estetik taraqqiyotida fakultativlarning o'rniga to'xtaling.
4. Umumta'lim maktablarida fakultativ mashg'ulotlar uyushtirish uchun yaratiladigan shart-sharoitlar va qo'yiladigan talabni bayon eting.
5. Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarda qanday xususiyatlar shakllantirishga xizmat qiladi?

ADABIYOT TO'GARAKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Reja:

1. Adabiyot to'garaklarining pedagogik zaruriyati.
2. Adabiy-ijodiy to'garak.
3. Drama to'garagi.
4. Ifodali o'qish va badiiy hikoyalash to'garagi.
5. Adabiy o'lkashunoslik to'garagi.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot to'garagi, to'garak turlari, adabiy-ijodiy to'garak, ifodali o'qish to'garagi, drama to'garagi, adabiy o'lkashunoslik to'garagi, badiiy hikoyalash to'garagi, to'garak ishida pedagogik taktning o'rni, to'garak ishi va o'quvchilarga munosabat yo'sini, to'garaklar ishini rejalashtirish, to'garaklar va ularning davriy nashri.

Adabiyot bilan oshnolik nafaqat maxsus ajratilgan dars soatlarida, balki, asosan, undan tashqarida kechadigan va bir umr davom etadigan uzluksiz jarayondir. Badiiy asarlarning juda katta qismi o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqarida, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi kerak. Shuningdek, badiiy asarlarni o'qish ayrim o'quvchilarda ijodiy kayfiyat, yozishga intilish va badiiy yaratuvchilik istagini paydo qilishi ham mumkin. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilaridan qaysi birlarida shu xildagi kayfi-

yat paydo bo'lganini o'z vaqtida bexato payqay olishi kerak. Bu hol badiiy so'zga muhabbati bor yoshlardagi intilishni rag'batlantirish va o'stirishga xizmat qiladi. Mana shu maqsadlarga erishish yo'lidagi eng yaxshi vosita adabiyot to'garaklari ish faoliyatini yo'lga qo'yishdir.

Adabiyot to'garagida ko'pi bilan 12-15 odam ishtirok qilgani maqsadga muvofiqdir. To'garak qatnashchilari umumiy qiziqish atrofiga birlashgan o'quvchilardan iborat bo'ladi. To'garakka, imkoni boricha, adabiyotga, ijodga qarashlari umumiy, yosh xususiyatlari yoki rivojlanish darajalari bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilar to'planishiga erishmoq kerak. Intellektual va ruhiy imkoniyatlari hamda xususiyatlari bir-biridan yiroq o'quvchilar aralash qatnashadigan to'garaklar samarali ishlay olmaydi. Chunki qatnashchilarning bir qismi uchun oddiy bo'lgan ishlar ikkinchi qismi uchun o'ta murakkab tuyuladi yoki aksincha bo'ladi.

Maktabda bir vaqtning o'zida bir nechta adabiyot to'garagi baravar faoliyat ko'rsatishi mumkin va ularga turli maneraga ega mutaxassislar rahbarlik qilganlari maqsadga muvofiq. Bu turli-tuman minazga ega iqtidorli o'quvchilarning ham to'garak atrofiga birlashishiga imkon beradi.

To'garaklarda qiziqishlari bir-biriga yaqin bo'lgan nisbatan ozonli bolalar o'zaro tortinmay, kulgiga qolish yoki mazax qilishlaridan cho'chimay ijod haqida, adabiyot haqida, sahna to'g'risida fikrlash imkoniga ega bo'lishlari kerak. Yana bir muhim jihat shundaki, to'garak ishiga rahbarlik qilgan o'qituvchi o'zini tengdoshlari yoki kasbdoshlari orasida yurganday tutishi zarur. Negaki notenglik tuyg'usi tortinishni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, qimtingan kishining ijodiy imkoniyatlari esa to'la ro'yobga chiqmaydi. Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot to'garaklarining quyidagi to'rt ko'rinish kengroq tarqalgan:

1. Adabiy-ijodiy to'garak.
2. Drama to'garagi.
3. Ifodali o'qish to'garagi.
4. Adabiy o'lkashunoslik to'garagi.

Adabiyot to'garaklarining turlari o'zaro farqlansalar ham maqsadlari umumiy: o'quvchilarda badiiy so'zga qiziqish va

unga ehtiromli munosabat tuyg'usi, so'z sehdidan ogoh bo'lish hissi hamda badiiy ijoddan bahramandlikka intilish sezimini paydo qilish. Bunday sifatlarga ega bo'lgan qobiliyatli o'quvchilarda, albatta, badiiy ijodga havas uyg'onadi. Badiiy ijodga urinish o'quvchida kreativlik sifati paydo bo'lishiga olib keladi. Shu boisdan adabiyot to'garaklarining hamma turlari ham qaysidir bir jihatlar bilan umumiy bir nuqtada kesishadilar.

To'garaklarga, odatda, turli sinflarning o'quvchilari yozilishadi. Shu tariqa, bir-birlari bilan yaqindan tanish bo'lmagan turli yoshdagi o'quvchilar umumiy qiziqish atrofida birlashishadi. Bolaning to'rt adabiyot to'garagidan qaysi biriga yozilishining o'ziyoq o'quvchining qiziqish doirasi haqida ma'lum darajada tasavvur uyg'otadi. Ba'zan o'quvchilar to'garakni tanlashda adashishlari va keyinchalik fikrlarini o'zgartirib, boshqa to'garakka o'tishni istab qolishlari ham mumkinki, bunga imkon berish kerak. Shuning uchun ham adabiyot to'garagi a'zolarining to'garak ichidagi harakatlarini bir qadar erkin qilib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiy-ijodiy to'garak a'zolari, asosan, u yoki bu janrdan nimalarnidir qoralab yuradigan ijodkor o'quvchilardan tashkil topadi. Bu to'garak mashg'ulotlarida ular adabiyot o'qituvchisi yoki to'garak boshlig'i bo'lgan boshqa kishi rahbarligida o'z ijod namunalari bilan tanishib, ularni birgalikda muhokama qilishadi. Bu to'garakning boshchisida pedagogik takt, odob juda baland bo'lishi kerak. Negaki ijodga daxldor odam zotiki bor, ancha shuhratparast va o'ta izzattalab hamda ta'sirchan bo'ladi. Bitiklari haqida qattiq gap aytib, ularning sha'niga tegib ketishdan saqlanmoq kerak. Aks holda, bir og'iz ehtiyotsiz gap tufayli iste'dodli bolalarning ijodiy taqdirlari butunlay o'zgarib ketishi, hatto sinihi ham mumkin.

Aytilganidek, adabiy-ijodiy to'garakda a'zolar bitgan ijod namunalari muhokama etiladi. To'garak qatnashchilari o'rtasida bir-birlarining ijod namunalari hurmat va ayov bilan munosabatda bo'lish hamda ehtiyot bo'lib fikr aytish muhitini shakllantirish zarur. Shuningdek, o'qituvchi to'garakka doir hamma vazifalarni o'z zimmasiga olavermay, o'quvchilar kuchidan foy-

dalanishi, ko'proq ularni ishlatishni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq. Chunonchi, to'garak a'zolaridan biri yozgan bitikka ikkinchisini taqrizchi qilib qo'yish orqali ularni fikrlashga undash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni vaqtda, ayrim holatlarda o'quvchilarning ijod namunalarini to'garakning barcha a'zolari oldida emas, balki qaysidir jihati bilan bir-biriga yaqin bo'lgan bir guruh a'zolar orasida torroq doirada muhokama qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'garakni boshqargan o'qituvchi eng iste'dodsiz bitik va uning muallifini ham keskin tanqid qilish mumkin emasligi to'garakning har bir a'zosi uchun asosiy qoida bo'lishiga erishishi lozim. Shuningdek, to'garak a'zolari o'rtasida adabiy did o'ta o'ziga xos va betakror hodisa ekanidan kelib chiqib, kimdir yaratgan adabiy bitik barchaga baravar yoqishi shart emasligi borasidagi qarashni shakllantirish lozim. Ammo qatnashchilarda badiiy didning sog'lom aqlga muvofiq keladigan muayyan me'yori mavjudligi hamda qo'lga qalam tutgan odam shu me'yorlarga amal qilishi maqsadga muvofiqligi borasida ham qanoat uyg'otilishi kerak.

To'garak rahbari to'garak qatnashchilarining ijod namunalari- ni kechiktirmay ko'rib chiqib, o'z fikrini ehtiyotlik bilan bildirishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, tanqidiy qarash muallifning yolg'iz o'ziga aytilgani yaxshi. Shuningdek, to'garak a'zolarining har biriga bitganlarining saviyasi yuqori bo'lishi uning milliy va jahon adabiyoti namunalarini qanchalik ko'p o'qiganiga bog'liq ekanini anglatish lozim. Adabiy-ijodiy to'garakda faqat to'garak a'zolari bo'lmish o'quvchilarning bitiklari muhokama qilinavermay, mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti, vaqti-vaqti bilan jahon adabiyoti durdonalari bilan birgalikda tanishilib, muhokama qilish ham yaxshi samara beradi.

Adabiy-ijodiy to'garak rahbari ahyon-ahyonda taniqli ijodkorlar ishtirokida mahorat darslari uyushtirsa, bu saboqlarda faqat mehmon bo'lgan adibning bitiklari tinglanib qolmay, to'garak a'zolarining yaratilari ham uning nazaridan o'tkazilsa, a'zolarining badiiy saviyasi bir qadar o'sgan bo'lardi. Ayrimlarda shaharlardan chetda bo'lgan qishloq maktablarida bu xil mahorat saboqlari o'tkazish mushkul, degan fikr bo'lishi mumkin. Hozirgi

axborot to'ri olamni tutgan zamonda biror ijodkor bilan kelishgan holda onlayn uchrashuvlar o'tkazish ham mumkin.

Ijodiy to'garak rahbari e'tibor qaratishi kerak bo'lgan yana bir jihat ijodkor o'quvchilarning ona, vatan, mustaqillik mavzulari bilan cheklanib, o'z qobiliyatlariga zug'um qilmaslik, atrofidagi har bir narsa-hodisaning o'zgalar ko'rmagan tomoni to'g'risida go'zal asarlar yaratish mumkin ekaniga ularni ishonтира bilishi ham juda muhimdir.

Drama to'garaklariga sahnada o'ynay olish qobiliyatiga ega bo'lgan, rol ijro qilish, o'zganing holatiga kirish qo'lidan keladigan o'quvchilar jalb etiladi. Bu to'garakda qisman sahna nazariyasi, teatr tarixi o'rganilishidan tashqari, albatta, birorta dramatik asarni yoki uning biror qismini sahnalashtirish ko'zda tutilishi shart. Buning uchun to'garak a'zolarining imkoniyatlariga mos keladigan asar tanlanishi, uning maktab sharoitida topish mumkin bo'lgan sahna bezaklari hamda kiyimlar talab etadigan bo'lishiga e'tibor qaratilishi lozim. Drama to'garaklarida o'tmish voqealari aks etgan, mashhur tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlarni sahnalashtirishga qo'l urmagan ma'qul. Negaki avvalo, mashhur tarixiy shaxs haqida har bir tomoshabinda muayyan qarash shakllangan va drama to'garagining a'zolari ana shu qarashlarga mos keladigan darajada ijro eta olishlariga kafolat yo'q. Ikkinchidan, o'tmish haqidagi asarlar uchun juda ko'p kiyim-kechak va sahna bezaklari zarur bo'ladiki, maktab sharoitida bunga erishish g'oyat mushkul.

Hammaga ma'lum va xalq o'rtasida keng tarqalgan, qayta-qayta namoyish etiladigan asarlarni sahnalashtirishdan ham saqlanish zarur. Negaki to'garak hamda uning a'zolarining ijodiy va moddiy imkoniyatlari hech qachon professional aktyorlarniki kabi bo'lmaydi. Binobarin, mashhur professional aktyorlar tomonidan qo'yilgan pyesalarning havaskorlar tomonidan ibtidoiy tarzda qayta sahnalashtirilishi hech kimga naf bermasligidan tashqari, tomoshachilarni qiziqtirmasligi ham mumkin.

Drama to'garagini, albatta, adabiyot muallimi boshqarishi shart emas. Bu ishga sahnada ishlash borasida tushunchasi bor har qanday odam ham mas'ul bo'la oladi. To'garak mashg'ulotlarida

o'quvchilarning imkoniyatlari darajasidagi pyesa o'qilib, har bir qatnashchidan qaysi rolni bajarishi mumkinligi va buning sababi so'raladi. O'z tanlovini mantiqan asoslagan o'quvchiga o'sha personajni o'ynashga imkon berilgani maqbul. To'garak rahbari sahna uchun personajning so'zlarini yodlash emas, balki ana shu so'zlarni aytayotgandagi ruhiy holatni bera bilish muhim ekanini qatnashchilarga yetkazishi zarur.

Ifodali o'qish va badiiy hikoyalash to'garagi maktab amaliyotida kamroq tarqalgan. Holbuki, aynan shu turdagi to'garakda o'quvchilarning eng katta qismini jalb etib, ularga estetik tarbiya berish imkoniyati ko'proqdir. Negaki badiiy ijod qiladigan o'quvchilar hamisha barmoq bilan sanalarli darajada kam bo'ladi va to'garak mashg'ulotlari yordamida birovni ijodga o'rgatish mumkin ham, unchalik kerak ham emas. Sahna qobiliyatiga ega o'quvchilar ham son jihatidan unchalar ko'p bo'lmasligi ma'lum. Ammo she'rni ifodali o'qiy oladigan yoki biror badiiy matnni ta'sirli qilib aytib bera oladigan o'quvchilar ko'p va muhimi, bunday sifatlarni juda ko'pchilik bolalarda shakllantirish mumkin.

Bu tur to'garaklarni tashkil qilish, ularning ishini uyushtirish nisbatan oson va o'quvchilar ommasiga uchun g'oyat foydali. Ta'sirli so'zlash, badiiy matnni tinglovchiga yetib boradigan tarzda ijro etishni o'rganib olish har bir o'quvchiga bir umrga asqotishi mumkin. Negaki har bir odam umri davomida doimiy ravishda son-sanoqsiz kishilarga o'z fikrini tushuntirish zaruriyati oldida bo'ladi. Bu esa, ayrimlar o'ylayotganlaridek, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan oson ish emas. O'z fikrini to'g'ri va tushunarli ifodalay bilish juda ko'p hayotiy muammolar va odamlararo qarama-qarshiliklarning oldini olgan bo'lardi. Ifodali o'qish va badiiy hikoyalash to'garagi o'quvchilarda ayni shu sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, ifodali o'qish deganda faqat ovozni baralla qo'yib, tinish belgilariga amal qilib o'qishgina tushunilmasligi kerakligi ham o'rgatilishi zarur. Ifodali o'qish ko'rkam yaratilgan asl ruhini ifodalay bilishni anglatadi.

Adabiy o'lkashunoslik to'garaklari o'quv-tarbiyaviy ahamiyati juda ulkan bo'lgani holda pedagogik amaliyotda o'ta kam

tarqalgan to'garak turidir. Har bir o'quvchining o'zi yashab turgan mintaqadagi xalq badiiy ijodini sezish va undan ta'sirlanishni o'rganishi bolaning ma'naviy o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Go'zallikning yonidan uni payqamasdan o'tib ketaverish ham mumkin. His qilingan, ta'sirlanilgan go'zallikkina estetik va tarbiyaviy qudrat kasb etadi. O'quvchilarni o'zi yashayotgan makondagi badiiy so'z namunalarini bilish, topish, yig'ish, tasniflash va tekshirish ishiga aynan adabiy o'lkashunoslik to'garaklarida o'rgatish mumkin. Shu tariqa ularda badiiy so'z go'zalligini his qilish va uni asrab qolishday savob ishga bosh qo'shganidan g'urur tuyg'usini shakllantirish mumkin.

Bu to'garakni boshqargan o'qituvchi to'garak a'zolarining har biriga muayyan ko'cha yoki mahallada yashaydigan kishilar orasida tarqalgan qo'shiq, aytim, maqol, matal, topishmoq, ertak, rivoyat kabilarni yozib olish va tasniflashni topshirishi lozimi bo'ladi. Bu to'garak a'zolari to'plagan adabiy boyliklar saralanib, turli shaxslardan yozib olingan aytimlar bir-biriga solishtirilib, o'xshashlar orasidan badiiy barkamolroqlari tanlab olinib kompyuterlarga kiritilishi, muayyan ishlov berilgach, maktab muzeylari yoki kutubxonalarga qo'yilishi, lozim topilsa, maktab devoriy gazetasi yoki boshqa biror nashrda chop etilib tarqatilishi mumkin. Bu to'garak yetakchisi xalq orasida mavjud bo'lgan adabiy boylik yillar davomida yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va himoyaga muhtoj yaratiq ekanini hisobga olishi lozim bo'ladi. Va bu tuyg'uni to'garak qatnashchilariga ham singdirishi zarur.

Globalashgan dunyoda deyarli barcha etnoslar o'z milliy qiyo-falaridan ayrilib boradi. Ayni vaqtda o'zga etnoslardagi qandaydir jihatni o'zlashtiradi ham. O'z etnik va ma'naviy qiyofasini saqlash ulkan muammoga aylanib borayotgan mana shunday sharoitda o'lkashunoslik to'garaklari bolalarni o'z estetik ildizlarini bilish, uni avaylab asrash, undan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin ekanligi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

Oliy filologik ta'limda folklor va dialektal ekspeditsiyalar uyushtirish tajribasi mavjud. Adabiyot muallimi talabalik paytida egallagan tajribasidan o'lkashunoslik to'garagi ishini yo'lga qo'yishda foydalanishi mumkin. Afsuski, bu ekspeditsiyalar

davomida yig'ilgan juda ulkan boylik ko'p hollarda shunchaki izsiz yo'qolib yoki talabalar yozgan qog'ozlarda qolib ketmoqda. Holbuki, ularni o'rganish, tasniflash, tadqiq etib, muhokama qilish ham ilmiy, ham talabalarning ma'naviy-estetik tarbiyasini yuksaltirish jihatidan katta ahamiyat kasb etgan bo'lardi. Maktabdagi o'lkashunoslik to'garaklari ana shu kemptiklikni to'ldirishga xizmat qildirilishi mumkin.

Har bir adabiyot to'garagi o'z nashrlari, ya'ni devoriy gazetalariga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi axborot texnologiyalari sharoitida nafaqat devoriy gazeta, balki har bir to'garak o'z virtual jurnalini tashkil qilishi ham mumkin. Biroq ular tashqi turkilov yoki buyruq tufayli emas, balki to'garak a'zolarining bitganlari va yiqqanlarini e'lon qilish ehtiyojiga muvofiq keladigan muntazamlikda chiqib turishi lozim. Axborot texnologiyalari taraqqiy etgan hozirgi sharoitda elektron kunbitik (gazeta) yoxud oybitik (jurnal) chiqarish ham qiyin yumush emas.

Adabiyot to'garaklari ishini yo'lga qo'yishda o'quvchilar orasidan shoir-yozuvchi yetishtirish, aktyor tayyorlash yoki badiiy ijrochini ko'paytirish maqsad emasligi o'qituvchining diqqat markazida turishi lozim. Asosiy maqsad o'quvchilarni badiiyat olamiga olib kirish, ularni ko'rkam asarlarni teranroq idrok etishga, so'z jozibasidan xabardor bo'lishga o'rgatishdan iborat bo'lmog'i lozim.

To'garaklar ishi har bir to'garakning o'ziga xosligi hamda a'zolarining to'planib turishining zaruriyat va imkoniyatidan kelib chiqqan holda rejalashtirishi katta ahamiyatga egadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot to'garaklariga qanday pedagogik va ijtimoiy ehtiyoj bor, deb o'ylaysiz?
2. Adabiy-ijodiy to'garaklarga xos xususiyatlarni tushuntiring.
3. Drama to'garagi qanday belgilarga ega?
4. Ifodali o'qish to'garagi qaysi jihatlari bilan zarur, deb o'ylaysiz?
5. Adabiy o'lkashunoslik to'garagining estetik va tarbiyaviy ahamiyatini anglating.

7-bo'lim. ADABIYOT O'QITUVCHISI VA UNING SABOQLARGA TAYYORGARLIGI

ADABIYOT SABOQLARINI REJALASHTIRISH

Reja:

1. Adabiyot saboqlariga reja tuzishning zarurligi.
2. Mavzuli rejada mahalliy sharoitni hisobga olishning o'rni.
3. Yillik o'quv rejasi va uning tuzilishi.
4. O'qituvchining darsga tayyorlanish bosqichlari.
5. Reja-ko'chirma va uni tuzish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot saboqlarini rejalashtirish, reja turlari, yillik mavzuli reja, o'quv dasturi va o'qituvchi erki, rejalashtirishda o'qituvchi irodasi va o'quvchilar istagi, yillik reja va mahalliy sharoit, yillik mavzuli rejaning tarkibiy tuzilishlari, reja va ijro intizomi, adabiy ta'lim samaradorligi va rejaning individualligi. Adabiyotchining darsga tayyorgarligi va ko'chirma, yosh o'qituvchiga reja-ko'chirmaning zarurligi, reja-ko'chirmada sinfdagi o'quvchilar holati hisobga olinishi kerakligi, reja-ko'chirmadagi konseptual va faktologik savollar, reja-ko'chirma va vaqt taqsimoti, reja-ko'chirmada o'quvchilarni faollashtirish yo'llari ko'rsatilishi.

Adabiyot bo'yicha amalga oshiriladigan o'quv-tarbiya kechimi samarali bo'lishida bu boradagi ishlarning to'g'ri rejalashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki har qanday muntazam va tizimli faoliyat oldindan puxta rejalashtirilgan taqdirdagina kutilgan natijani beradi. Shuning uchun ham o'qituvchi adabiyot bo'yicha o'zining bir yillik ishlarini to'g'ri rejalashtirishi nafaqat uning ishi, balki bu o'qituvchi dars beradigan sinflardagi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati ham samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Har bir adabiyot o'qituvchisining pedagogik faoliyatga tayyorgarligi ikki turli bo'ladi. Biri *dastlabki* tayyorgarlik sanalib, o'quv yili boshlanishidan oldin mavzuli-kalendar reja tuzishni ko'zda tutadi. Ikkinchisi esa *bevosita* tayyorgarlik hisoblanib, o'qituvchining har bir dars soatini o'tishga hozirlanishini anglatadi. Dastlabki tayyorgarlikda o'qituvchi mavzuli-reja tuzib, avgust oyining oxirida o'quv yili boshlanish oldidan o'tadigan pedagogik kengashda tasdiqlatishi kerak. Reja puxta bo'lishi uchun muallim uni tuzishda rasmiy pedagogik hujjatlarga qat'iy amal qilishi zarur. Ayni vaqtda, o'zi ishlayotgan maktabning imkoniyatlari, dars beradigan sinflaridagi o'quvchilarning tayyorgarlik darajalari hamda yosh va ruhiy xususiyatlari rejada aks etishi zarur.

Barcha umumta'lim maktablari uchun adabiyot bo'yicha mavzuli-kalendar reja tuzishda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi tayanilishi majburiy bo'lgan pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturida adabiyot darslari qaysi sinfda qanday tartibda, qaysi materiallar asosida, qancha soat davomida o'tilishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yiladi. Shuningdek, unda yozdirilishi lozim bo'lgan insholarga ajratilgan soatlar, yod olinishi yoki mustaqil o'qilishi zarur bo'lgan asarlar ro'yxati hamda takrorlash mashg'ulotlari miqdori belgilab beriladi. Mavzuli-kalendar reja tuzishda adabiyot o'qituvchisi tegishli metodik adabiyotlar, ayniqsa, "Adabiyot" darsligini puxta o'rganib chiqishi kerak.

Yillik mavzuli-kalendar rejaning bu tarzda qo'shaloq nomlanishining o'ziga xos sababi bor. O'quv dasturida saboqlarda o'zlashtirilishi kerak bo'lgan materiallar bir qadar yirik mavzular holida berilgan bo'lib, o'qituvchi ularni bir-ikki soatlik aniq mavzularga bo'lishi kerak bo'ladi. O'qituvchi oldin umumiy mavzularni darslarda o'tiladigan aniq mavzularga bo'lib rejalaydi. Shu sabab u mavzuli reja deyiladi. O'qituvchi keyin dars jadvalidan kelib chiqib, saboq o'tiladigan aniq kunlarni qo'yib chiqadi va mavzuli reja mavzuli-kalendar rejaga aylanadi. Mavzuli-kalendar reja bir yoki yarim o'quv yiliga mo'ljallanganiga qarab, bir yoki yarim yillik mavzuli-kalendar reja deyiladi.

Har bir o'qituvchi o'quv dasturiga o'zi faoliyat ko'rsatayotgan ta'limiy maskanning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy yondashishi kerak bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'quv dasturining o'zida, konkret sharoitdan kelib chiqib, taqdim qilinayotgan o'quv materiallariga 10-15 foizgacha o'zgarish kiritish mumkinligi qayd etilgan bo'ladi. Shunday qilinsa, yillik mavzuli-reja real sharoitga yaqinroq bo'lib oson va to'liq bajariladi. Negaki hayotiy bo'lmagan reja voqelikka aylanmay rejaligicha qolib ketadi.

Adabiyotni o'qitish ham insonning har qanday faoliyati kabi konkretlikni talab qiladi. Konkretlikka erishish uchun adabiyot o'qitiladigan maktab, o'quvchilar, o'qituvchi, mavjud ijtimoiy muhit kabi omillar imkon qadar to'la hisobga olingan bo'lishi kerak. Ma'lumki, har bir mahalla, qishloq, maktab, sinf va o'qituvchining sharoiti bir qator o'ziga xoslikka ega. Bu o'ziga xoslik aynan rejalashtirish jarayonida hisobga olinsagina, o'quv rejasi ta'lim-tarbiya kechimining kerakli maromda borishiga omil bo'ladi. Demak, mavzuli-kalendar reja har bir o'qituvchining o'zi tomonidan tuzilishi lozim. Shundagina u o'z maktabida amalga oshiradigan sinfdan tashqari ishlarni, sayohat darslarini, adabiy yurishlarni va boshqa tadbirlarni rejaga kirita oladi. Afsuski, keyingi vaqtlarda o'qituvchilar respublika Ta'lim markazi tomonidan yuborilgan taxminiy rejaga majburiy hujjat sifatida qarab, o'z sharoit va imkoniyatlariga qanchalik to'g'ri kelish-kelmasligidan qat'i nazar o'zgarishsiz qo'llashmoqda. Bu hol mavzuli-kalendar rejada mahalliy sharoit hisobga olinmaganligi uchun u tuzilgan paytidan boshlaboq aniq bajariladigan pedagogik hujjatga emas, balki muayyan maktab hayotidan uzilib qolgan zerikarli rasmiy byurokratik qog'ozga aylanadi.

O'qituvchi mavzuli-kalendar rejada dasturdagi yillik o'quv materialini har bir chorakka muvofiq taqsimlashi, chorak davomida qancha ta'limiy va qancha nazorat insholari olinishi, takrorlash mashg'ulotlari, mustaqil o'qish darslari qachon o'tkazilishi kerakligini aniq belgilab qo'yishi zarur bo'ladi. O'quv dasturida, asosan, nazorat insholarning miqdori ko'rsatiladi. O'qituvchi ta'limiy insho (esse)larni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan

holda, badiiy asarlar ustida ishlashga ajratilgan soatlar bag'rida amalga oshirishni rejalashtirishi zarur. Ma'lumki, buning uchun alohida vaqt talab etilmaydi yoki bir akademik soat unga to'liq sarf etilishi shart emas. Adabiyot bo'yicha amalga oshiriladigan didaktik tadbirlarning bu tarzda rejalashtirilishi o'quvchilarda qator toptiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning tasodifiy ravishda emas, balki qat'iy va muntazam ko'rinishda izchillik bilan shakllantirilishini ta'minlaydi.

Shuni aytish kerakki, yillik mavzuli-kalendar reja o'quv kechimi mobaynida jiddiy o'zgarishlar kiritish zaruriyati tug'ilib qolsa, o'zgarishlar qaysi choraklarda ro'y berishiga qarab muayyan choraklar bo'yicha o'quv mavzuli rejalar tuzish lozim bo'ladi.

Yillik mavzuli-kalendar reja tuzishda adabiyot saboqlarida o'rganiladigan o'quv materiallari dasturda ko'zda tutilgan tartibda beriladi. Shuningdek, rejada muayyan mavzuni o'rgatishga ajratilgan umumiy soat hamda bu umumiy soatning har bir saboq uchun bo'lingan ko'rinishi va ularning o'tilish vaqti aniq ko'rsatiladi. Yillik mavzuli-kalendar rejada o'quv materialini o'tishda o'qituvchi qo'llaydigan ish turi, foydalaniladigan ta'lim usullari ham qayd etiladi. Mashg'ulotlarni o'tish vaqtida foydalanilishi lozim bo'lgan adabiyot va ko'rsatmali qurol turlari aks etadi. Shuningdek, o'quv kechimi mobaynida ko'zda tutilmagan tashkiliy-pedagogik holatlarni qayd qilib borish uchun "Izoh" degan alohida band ajratiladi.

Deylik, yillik mavzuli-kalendar reja tuzilganda G'afur G'ulom tug'ilgan kunning bir yuzu yigirma yilligi munosabati bilan 8-sinflar o'rtasida insho tanlovi o'tkazish ko'zda tutilmagan edi. To'rtinchi chorak uchun alohida mavzuli-kalendar reja tuzib, unda "Serqirra iste'dod egasi" mavzusida insho tanlovi o'tkazish qayd etilishi mumkin va bu rejaning hayotiyiligini bildiradi.

Yillik mavzuli o'quv rejasi taxminan quyidagi ko'rinishda tuzilishi mumkin:

Sirdaryo viloyat Guliston tumanidagi 1-o'rtfa maktab adabiyot o'qituvchisi Otabek O'rinqbekovning 9-sinf
 "Adabiyot" fanidan yillik mavzuli-kalendar rejası

| № | O'tiladigan mavzular | Ajratilgan vaqt (soat) | | O'tish vaqti | O'tilgan vaqti | Saboqni o'tish usuli | Adabiyot va ko'rsatmali qurollar | Izoh |
|---|--|------------------------|-----------|--------------|----------------|-------------------------|-------------------------------------|------|
| | | umumiy | bo'lingan | | | | | |
| 1 | Ruhıy kamolot vosıtasi | 1 | 1 | 2.9.22 | 2.9.22 | Ma'ruza | | |
| 2 | Xalq og'zaki ijodi | 5 | | | | | | |
| 3 | "Alpomısh" dostoni (8-21-betlar) | | 1 | 7.9.22 | 7.9.22 | Asarnı o'qısh | "Alpomısh" dostoni. "Fan", 1998. | |
| 4 | "Alpomısh" dostoni (22-32-betlar) | | 1 | 9.9.22 | 9.9.22 | Asarnı o'qısh va suhbat | "Alpomısh" dostoni. "Fan", 1998. | |
| 5 | "Alpomısh" dostoni (33-43-betlar) | | 1 | 12.9.22 | 12.9.22 | Asarnı o'qısh va suhbat | "Alpomısh" dostoni. "Fan", 1998. | |
| 6 | Doston badiiyati va undagi timsollar tahlili | | 1 | 14.9.22 | 14.9.22 | "Guldasta" usuli | | |
| 7 | Xalq dostonlari va ularning turlari | | 1 | 16.9.22 | 16.9.22 | "Fikriy hujum" usuli | "Alpomısh" lug'ati | |
| 8 | Nazorat insho: "Alpomısh" dostonida millat ruhining ifodalanishi | 2 | 2 | 19.9.22 | 19.9.22 | | | |

Agar o'qituvchi o'zi ishlayotgan sinfnining intellektual-ruhiy holati, mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda biror mavzuni o'quv dasturida belgilanganiga qaraganda o'zgacharoq yo'sinda o'tmoqchi yoki mahalliy sharoitga yaqin boshqa mavzu bilan almashtirmoqchi bo'lsa, o'zining belgilab qo'yilgan 10-15% miqdordagi o'zgartirish huquqidan foydalanishi mumkin. Bunda o'qituvchi yillik-mavzuli rejada qaysi mavzuga, nima uchun, qancha miqdorda o'zgarish kiritganini ko'rsatib, bunga adabiyot o'qituvchilari metodik birlashmasi a'zolari roziligini olishi kerak.

Respublika bo'yicha bir xil mavzuli-kalendar rejadan foydalanishning majburiyligi kabi hozirgi kunda keng amalda bo'lgan yaroqsiz va zararli tajribadan voz kechib, har bir adabiyot o'qituvchisi o'z sinfi uchun original yillik mavzuli reja tuzishi va unda, albatta, mahalliy sharoit talabi bilan kiritilgan o'zgachaliklar aks etgan bo'lishi kerak. Shunday qilingandagina adabiyot saboqlarining samarali bo'lishi ta'minlanadi. Negaki adabiy ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarga, ularning haqiqiy xohish-istak va imkoniyatlariga yaqinlashgan bo'ladi. O'quvchilardan uzilib qolgan adabiyot o'qitish kechimi esa metodik adabiyot va didaktik vositalar bilan qanchalik yaxshi ta'minlangan bo'lmasin, samarasizligicha qolaveradi.

Adabiyot o'qituvchisining darsga tayyorlanishi uning faoliyatidagi eng muhim pedagogik tadbirdir. Darsga tayyorgarlik ko'rishdayoq o'qituvchi badiiy asarni o'rgatish faqat bilishga qaratilgan ilmiy-mantiqiy faoliyat bo'lib qolmay, badiiy asarda tasvirlangan timsollarning tuyg'ularini qabul etishga doir hissiy-obrazli faoliyat ham ekanligini hisobga olgan holda ish yuritishi zarur.

Adabiyot o'qituvchisining darsga tayyorlanishi boshqa o'qituvchilarning o'z fanlari bo'yicha mashg'ulotlarga hozirlanishidan jiddiy farq qiladi. Chunki boshqa fan o'qituvchilari uchun o'quvchilarga bilim asoslarini singdirish muhim sanalib, asosiy e'tibor **nimani** o'rgatishga qaratilsa, adabiyot muallimlari uchun nimani **qanday** o'rgatish ham juda muhim hisoblanadi. Boshqa o'qituvchilar uchun o'quvchilarning diqqatini jamlash, ularni darsga yo'naltirish yetarli bo'lsa, adabiyotchi uchun o'quvchilari-

ning ham diqqati va ham kayfiyatini mashg'ulotga muvofiqlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Boshqa fanlar bo'yicha o'qituvchi bir sinfda o'tiladigan mashg'ulotga yillar davomida bir xil tayyorgarlik bilan kelishi mumkin. Bu hol pedagogik maqsadga erishishga unchalik halal bermaydi. Adabiyot o'qituvchisi esa, yondosh sinflar u yoqda tursin, bir sinfnig o'ziga ham har safar har xil tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi. Chunki bir sinfdagi o'quvchilarning kayfiyatiga mos kelib, ularda ijobiy sezimlar uyg'otgan usul boshqa sinfdagi bolalarga qo'llanganda teskari natija berishi ham mumkin bo'lganidek, bir sinfnig o'zidagi o'quvchilar ham turli sabablarga ko'ra har darsda har xil kayfiyatda bo'ladilarki, bu hol hisobga olinmasa, kutilgan natijaga erishilmaydi. Shu sababli adabiyot o'qituvchisi har bir sinfdagi har bir o'quvchining ruhiy holatini aniq hisobga olgan holda ish ko'rishi, ayni vaqtda, butun sinfnig umumiy kayfiyatidagi yo'naltiruvchi jihatni ko'zda tuta bilishi lozim bo'ladi. Negaki badiiy asar kayfiyat mahsuli va kayfiyatga ta'sir qilish niyatida yaratilgan bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisining darsga *bevosita tayyorgarligi* mavzuli-kalendar rejani ertaga o'tiladigan mavzu darajasida konkretlashtirishdan iborat bo'ladi. Bunda o'qituvchi bo'lajak saboqning o'ziga xos maketini yaratadi. Saboqning eng mayda jihatlariga qadar puxta o'ylanib, unda o'zi va o'quvchilar tomonidan qilinishi lozim har bir ish imkon qadar aniq belgilab chiqiladi. To'g'ri, saboq jarayonida bu reja muayyan o'zgarishlarga uchraydi, albatta. Jonli o'quv vaziyati rejaga zo'rlab moslashtirilmaydi, balki reja didaktik sharoit talabi bilan yo'l-yo'lakay tahrir qilinib ketadi.

Adabiyot muallimi bevosita tayyorgarlikni tegishli sinfnig "Adabiyot" darsligidagi muayyan mavzuni atroflicha o'rganishdan boshlaydi. To'g'ri, o'qituvchi darslik material bilan cheklanib qolmasligi kerak. Lekin o'quvchi uchun asosiy didaktik ashyo bo'lmish darslikdagi materialning to'liq o'zlashtirilishiga erishish o'qituvchining asosiy vazifasidir. Darsda o'rgatilishi kerak bo'lgan har bir asar o'qituvchi tomonidan o'quv yili davomida kamida ikki bor: birinchi marta darsga tayyorlanayotgan vaqtda, ikkinchi marta esa, o'sha asar yuzasidan mashg'ulot o'tayotgani-

da idrok etiladi. Matnni idrok etish asnosida o'qituvchi xayolan asarni qay yo'sinda o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish yo'llarini belgilaydi. Bunda muallim o'quv materialining osondan qiyinga, soddadan murakkabga yo'sinida bayon etilishini rejalashtiradi. O'z rejasini qanday amalga oshirish yo'llarini belgilaydi.

Adabiyot muallimining darsga tayyorgarlik ko'rishi quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: 1) adabiy materialni tanlash va saralash; 2) o'quvchilar bilan birgalikdagi didaktik faoliyatni uyushtirish tartibini rejalashtirish; 3) o'tiladigan darsning taxminiy maketini yaratish. Adabiyot o'qituvchisi navbatdagi darsga tayyorgarlik ko'rayotganda o'quvchilarni o'rgatiladigan asarga qiziqtirishning eng samarali yo'lini o'ylab qo'yadi. Buning uchun unda o'quvchilar oldiga adabiy muammo qo'ya bilish, bilimlarni faollashtiradigan savollar bera olish malakasi shakllangan bo'lishi lozim. Bu zaruriyat o'qituvchidan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab qiladi.

Chunki o'qituvchining darsga tayyorlanishidagi asosiy ishlardan biri o'rganilayotgan asarlar yuzasidan o'quvchilarga beriladigan savollarni tuzish hisoblanadi. Avval o'tilganlarni so'rab baholash uchun beriladigan savollar ham, uyda o'qilgan asarlar yuzasidan so'raladigan savollar ham, yangi o'tilayotgan asar bo'yicha tuzilgan so'roqlar ham g'oyat puxta, izchil, bolalarni o'rgatilayotgan asardagi muhim jihatlar yuzasidan o'ylashga majbur etadigan tarzda konseptual bo'lishiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Adabiyot darslaridagi savollar o'quvchilarni o'ylashga undashi, o'rganilayotgan badiiy matnning sirdan ko'zga tashlanib turmaydigan sirli jihatlarini idrok etishga chorlaydigan bo'lishi lozim. Ular o'quvchilarni matn ustida ishlashga yo'naltirishi, bolalarni mushohadaga undashi joiz. O'quvchilarga beriladigan savollar "ha" yoki "yo'q" shaklidagi javob bilan qutulish mumkin bo'ladigan yo'sinda dudmol bo'lmasligi, matndagi qaysidir fakt yoki holat tasvirini eslab qolishgagina qaratilmay, undan badiiy ma'no chiqarishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar o'z tabiatiga ko'ra a) *faktologik* va b) *konseptual* kabi ikki turga bo'linadi. Faktologik savollar o'quvchilarning xotirasini sinashga qaratilgan bo'lib, o'rganilgan asardagi biror faktni uning yodiga tushirishni ko'zda tutadi. Konseptual savollar esa, o'quvchilarni o'rganilayotgan badiiy matn yuzasidan fikrlashga, undagi har bir timsol va tasvirga o'z munosabatini bildirishga, shular asosida muayyan to'xtamlarga kelishiga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham savollar faktologik emas, balki konseptual yo'nalishda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Konseptual savol o'quvchidan badiiy asarning har bir o'ziga xos jihati bo'yicha shaxsiy qarashi bo'lishini talab etadi va unda shunday fikr shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchi bolalarga beradigan savollarini dars kechimida yo'l-yo'lakay tuzmasligi, balki har bir o'quvchidan nimani qachon so'rashiga qadar oldindan belgilab qo'yishi va buni ko'chirma-rejasida qayd etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bir soatlik darsga hozirlik ko'rishda reja-ko'chirma tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot darslarida kecha o'zlashtirilgan ilmiy haqiqatlar bilangina ish ko'rish yetarli emas. Shuning uchun ham adabiyot muallimi har bir darsga alohida hozirlik ko'rish shart. Bunday tayyorgarlik faqat bir soatlik ko'chirma-rejada o'z ifodasini topishi mumkin.

Reja-ko'chirma bir vaqtning o'zida ikki xususiyatni o'zida jamlagan pedagogik hujjatdir. Birinchidan, u uyushtirilishi kerak bo'lgan mashg'ulotning rejasi, maketi, ikkinchidan, yangi darsning ko'chirmasi, ya'ni konspekti bo'ladi. Shuning uchun ham, ayniqsa, yosh o'qituvchilar reja-ko'chirmaning batafsilroq yozishiga e'tibor qilishlari lozim. Lekin unda har kuni qaytariladigan pedagogik tadbirlar aks etadigan "O'quvchilar bilan salomlashish", "Yo'qlama qilish", "Sinfda tartib o'rnatish" singari qolip birikmalarning qayd etilishi shart emas. Reja-ko'chirmaning **rejaligi** shundaki, unda o'tiladigan darsning bosqichlari, asosiy jihatlari loyihalashtiriladi. Bu hujjatning **ko'chirma** ekani shundaki, yangi o'tiladigan darsning batafsil bayoni, e'tibor qaratiladigan jihatlari alohida qayd etiladi.

Reja-ko'chirmaning keng tarqalgan shamoyili taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

9-sinf. Adabiyot 2022-yil 25-dekabr.

Mavzu: Abdulla Oripovning “Bahor” she’rini o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarda hayotning go‘zalligi va ezigulikning manguligiga ishonch tuyg‘usini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: She’r matni bilan tanishtirish va uni o‘zlashtirgizish.

Rivojlantirish maqsadi: O‘quvchilarda o‘zgalarga tuyg‘udoshlik hissini qaror toptirish.

Darsning jihozi: Shoir portreti, “Saylanmasi”ning 1-jildi, albom.

Darsni tashkil etish: O‘quvchilar ruhiyatini mashg‘ulot o‘tkazish mumkin bo‘ladigan holatga keltirish.

O‘tilganlarni so‘rash uchun savollar (savollar aniq bo‘lib, qaysi o‘quvchilarga berilishigacha belgilab qo‘yilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi).

Yangi mavzu bayoni. Reja ayni shu qismda ko‘chirmaga aylanishi kerak. Ya’ni har bir o‘qituvchi yangi darsda nimalarga e’tibor berishi, qay o‘rinlarga diqqat qaratishi kerakligini, ayrim faktlar, urg‘u berilishi lozim bo‘lgan o‘rinlarni imkon qadar batafsil bayon etishi lozim. Yangi mavzu bayoni bo‘limi reja-ko‘chirma umumiy hajmining taxminan 70 foizini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar. Rejaning bu qismida hozirgina o‘tilgan darsning qanchalik o‘zlashtirilganini aniqlashga qaratilgan savollar tuzilishi, uni o‘quvchilarga berish tartibi qayd etilishi lozim.

Uyga vazifa berish. Uyga vazifa nihoyatda aniq belgilab qo‘yilishi, o‘quvchilarning ko‘p vaqtini olmasligi, uni bajarish yo‘llari ko‘rsatib berilgan bo‘lishi kerak. Uy vazifasi, albatta, tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinmasdan berilishi, mabodo, seyntnot holati yuzaga kelib ulgurilmasa, topshiriq berilmay qo‘ya qolingani ma’qul.

Xullas, o‘qituvchining jiddiy tayyorgarligi adabiyot saboqlarining samarali va natijadorligini ta’minlaydigan asosiy omildir.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot saboqlarini rejalashtirishning zarurligini asoslang.
2. Rejada mahalliy sharoitni hisobga olishga qanday ehtiyoj bor, deb o'ylaysiz?
3. Adabiyot o'qituvchisi ishga tayyorgarligining bosqichlarini sharhlang.
4. Mavzuli-kalendar rejaga xos xususiyatlarni izohlab bering.
5. Reja-ko'chirma va uni tuzish yo'llari haqida so'zlang. Namunani tayyorlang.

ADABIYOT SABOQLARINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Reja:

1. Saboqlarni kuzatish va tahlil qilishning ilmiy-didaktik asoslari.
2. Dars kuzatish va tahlillashga qo'yiladigan talablar.
3. Saboqlarni tahlil qilish turlari.
4. Kuzatilgan darsni qayd etish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Dars kuzatish, kuzatilgan darsni tahlil qilish, dars kuzatishning metodik, umumpedagogik, ilmiy, didaktik turlari, kuzatilgan darsni muhokama qilish, saboqlarni kuzatishning pedagogik odobi, o'rganish uchun kuzatish, nazorat uchun kuzatish, tahlilning yutuqdan boshlanishi, kuzatilgan darslarni qayd etish yo'llari, darsni baholash.

O'qituvchi uchun pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishda o'z kasbdoshlarining darsini kuzatish va tahlil qila bilish alohida o'rin tutadi. Boshqalarning darslarini kuzatishni, ularning yutuq va kamchiliklarini topishni bilmaydigan o'qituvchida pedagogik mahorat shakllanishi qiyin kechadi. Chunki har qanday odam o'zining aslida kimligini boshqa bir odamga solishtirganda bilgani kabi o'qituvchi ham o'zining qanday bilim va tajribaga ega muallim ekanini faqat hamkasbining darslarini kuzatib,

o'ziniki bilan solishtirgandagina anglab yetadi. O'qituvchi uchun darsni kuzatishning o'zigina yetarli emas, kuzatilgan dars to'g'ri tahlil qilingandagina bu tadbirdan natija chiqadi.

O'zga o'qituvchilarning darslarini kuzatish va tahlil qilish, umuman, har bir muallim, ayniqsa, yosh o'qituvchilar hayotida alohida o'rin tutadi. Yosh o'qituvchi tajribali pedagoglar yoxud tengdoshlari o'tgan darslarni kuzatishi, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'ra bilishni o'rganmay turib, o'zida pedagogik mahorat shakllantira olmaydi. Chunki pedagogik mahorat ham ko'proq solishtirish kechimida yuzaga keladigan kasbiy sifatdir.

Adabiyot o'qituvchilari yosh avlodda ezgu axloqiy fazilatlarini barpo etishga intilar ekan, birinchi navbatda, birovning darsini kuzatish va tahlil qilishni puxta o'rganishlari zarurdir. O'qituvchi o'zining qay o'rinda yutuqqa erishgani va qanday vaziyatda kamchilikka yo'l qo'rganini, ya'ni o'ziga o'zi beradigan bahoni ham faqat o'zgalarnikiga chog'ishtirish yo'li bilan amalga oshira oladi. Birovlarning saboqlarini kuzatmagan va uni tahlil qilishni o'rganmagan o'qituvchining pedagogik yondashuvlari nafaqat ilmiy, balki amaliy asosga ham ega bo'lmaydi.

Darsni kuzatish va tahlil qilish muayyan pedagogik talablarga javob bergandagina samara keltiradi. Bu talablarga rioya etmay turib, darsni to'g'ri kuzatish, uni xolis tahlil etish va asosli xulosa chiqarish mumkin emas. O'zga muallimlarning darslarini to'g'ri kuzatish va tahlil etishni bilgan o'qituvchigina, o'zi beradigan saboqlar oldiga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni to'g'ri qo'ya bila va ularga erisha oladi.

Boshqa o'qituvchilar o'tgan darsni kuzatmoqchi bo'lgan kishi saboqqa kirishdan oldin birovning darsini kuzatishidan maqsadi nima ekanini aniq belgilab olishi zarur. Kasbdoshning sabog'ini kuzatish kechimi bir vaqtning o'zida ikki mohiyatga ega bo'ladi. Ya'ni dars kuzatuvchi shaxs ham boshqaning faoliyatiga baho beruvchi tekshiruvchi, ham kasbdoshining tajribasini o'rganuvchi mutaxassis maqomida bo'lishi zarur.

Adabiyot o'qituvchilarining darsi kuzatilganda, adabiyot bo'yicha o'tiladigan saboqlarning ijod ekanligi hisobga olinishi, har bir chinakam adabiyot muallimiga ijodkor sifatida yondashilishi,

binobarin, uning saboqlarini oldindan tayyorlangan qoliplarga solmaslikka urinish lozim. Adabiyot saboqlarida etalonlar, qoliplar bo'lmaydi. Eng mahoratli o'qituvchining dars o'tish usuli ham boshqa biron uchun namunali qolip sifatida tiqishtirilmasligi kerak. Shu bois eng ilg'or muallimning darsiga ham kuzatuvchi o'qituvchi faqat o'ziga xos saboq tarzidagina yondashgani ma'qul.

Aytish kerakki, boshqa o'qituvchining darsini kuzatmoqchi bo'lgan kishi, birinchi navbatda, pedagogik *taktga*, muomala odobi va ichki madaniyatga ega bo'lishi, darsi kuzatilayotgan muallimning shaxsi va pedagogik faoliyatiga xayrixohlik bilan yondasha bilishi kerak. Kuzatilgan dars kuzatuvchiga yoq-qan-yoqmaganidan qat'i nazar, saboqning tahlili o'qituvchining bugungi darsidagi yutuqlarni ko'rsatishdan boshlanishi shartdir. Darsni kuzatish jarayoni ham, uni tahlil qilish ham saboq o'tgan muallimning sha'niga hurmat ruhida amalga oshirilishi kerak. Tahlil yakunida saboqni kuzatgan kishi dars o'tgan o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishgan-erishmaganligi yuzasidan xolis va asosli xulosasini aytib, shundan kelib chiqqan holda muallim faoliyatiga baho berishi kerak. Eng muhimi, saboqni kuzatgan o'qituvchi kasbdoshining yutuq va kamchiliklari borasidagi qarashlarini konkret dalillar yordamida isbotlab berish majburiyati oldida turishi kerak.

Kuzatilgan darsni qayd etish, uning yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida yozib borish ham juda muhim yumush hisoblanadi. Adabiyot o'qitish amaliyoti va o'qituvchilarning ish tajribasida kuzatilgan darslarni qayd etishning **ikki** yo'lidan ko'proq foydalaniladi:

a) kuzatilgan saboq "Dars kuzatish daftari"ga oldindan tayyorlangan chizma-jadvalning bandlariga solinadi;

b) "Dars kuzatish daftari"ga kuzatuvchining istagiga muvofiq tarzda erkin yo'sinda qayd etiladi.

Kuzatilgan saboqlarni chizma shaklida qayd etishning quyidagicha ko'rinishi amaliyotda ko'proq uchraydi:

| Dars kuzatilgan sinf, kuzatish vaqti, predmet nomi, o'qituvchi familiyasi, o'quvchilarga doir ma'lumotlar | Darsning yutuqlari | Darsning kamchiliklari | Taklif va mulohazalar |
|--|--|---|---|
| 9-sinf. 2022-yil 21-mart. Adabiyot. Asilbek Yo'ldoshbekov. 28 nafar o'quvchi. A.Oripovning "Sarob" she'ri. | O'qituvchining bilimi yaxshi. Shoir ijodini puxta o'rgangan. O'quvchilarni faollashtira oladi. Sinfni boshqara oladi. | Darsda ko'rsatma qurol yo'q. O'qituvchi negadir ko'p hayajonlanadi. Juda baland ovozda so'zlaydi. | Keyingi saboqlarga ko'rsatma qurol tayyorlashi, o'rinsiz hayajonlanmasligi kerak. |

Kuzatilgan darsning tahlilini amalga oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Birovning sabog'i kuzatilayotgan va tahlil qilinayotgan vaqtda kuzatuvchi darsga o'z subyektiv yondashuvidan kelib chiqib baho bermasligi, balki saboqni xolis tahlil qilishi kerak. Tahlil qilinayotgan saboqni o'z qarashiga emas, balki o'z qarashlar tizimini saboqning mantig'iga muvofiqlashtirishi zarur. Saboqni tahlil qilishda xolislik tamoyili quyidagi talablarga amal qilishni taqozo etadi:

1. Tekshiruvchi saboqni kuzatish va tahlilashda kuzatilayotgan darsning mantig'i, xarakteri va yo'nalishidan kelib chiqib ish ko'rishi, o'z tasavvur va qarashlarini tiqishtirmasligi zarur.

2. Tekshiruvchi kuzatgan sabog'idagi muhim didaktik jihatlarni nomuhim, o'tkinchi jihatlardan farqlay bilishi lozim. O'quv kechimidagi ichki qonuniyatlarni ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatmaydigan tashqi talablardan ajrata olish tahlilning xolis

bo'lishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bularni farqlamaslik saboq tahlilining noxolisligiga sabab bo'ladi.

3. Saboq tahliliga xolis yondashuv darsda qo'llangan didaktik tadbirlarning nafaqat sifat jihati, balki miqdoriy tomonlarini ham hisobga olishni taqozo etadi.

4. Darsning sifatini ta'minlagan omillarning manbasi va mantig'ini to'g'ri ko'ra bilish saboq yuzasidan asosli fikr aytishga omil bo'ladi.

5. Bu tamoyillar asosida amalga oshirilgan dars tahlili shunchaki tahlil bo'lmay, asosli, ilmiy va foydali pedagogik tadbirga aylanadi.

Maktabda o'tiladigan saboqlar muayyan darajada ijodiy yumush bo'lgani uchun uni qat'iy qoliplarga tushirish kerak emas. Shuningdek, dars kuzatish va uni tahlil qilishning ham xilma-xil ko'rinishlari borligi tabiiy. O'qitish amaliyotida adabiyot saboqlarini kuzatish va tahlil qilishning a) ilmiy; b) metodik; v) didaktik; g) umumpedagogik singari to'rt turi ko'proq qo'llaniladi. Saboqlar tahlilining bu turlari kuzatilgan saboqning qaysi jihatiga tahlil jarayonida ko'proq e'tibor qaratilishini anglatadi.

Ilmiy tahlilda kuzatuvchining asosiy e'tibori o'qituvchining o'zi dars berayotgan fan asoslarini qanchalik egallagani va o'tilgan mavzuni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini aniqlashga qaratiladi. Bunda adabiyot muallimining badiiy asarlarni o'qiganlik, bugungi adabiy jarayonni bilish, adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni o'zlashtirganlik hamda adabiyotdanuv ilmidagi so'ngi yangiliklardan xabardorlik darajasi, ularni o'quvchilarga qay yo'sinda yetkazayotganiga diqqat qaratiladi. Shuningdek, o'quvchilarning o'z sinfi darajasidagi adabiy ma'lumotlarni qanchalik o'zlashtirganliklari hamda o'rganilayotgan asarni tahlil qilish davomida ulardan qanday foydalanayotganliklariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kuzatuvning bu turida o'qituvchi va o'quvchilarning ilmiy bilish ko'rsatkichlarini aniqlash ustuvorlik qiladi. O'qituvchining o'zi bilimdon bo'lgani holda o'quvchilarining yetarlicha o'zlashtirmaganliklari saboqning saviyasi past baholanishiga sabab bo'ladi.

Metodik tahlilda kuzatuvchi adabiyot saboqlarining qanday metodlar asosida o'tilayotgani, saboq jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi, o'zaro munosabatlari, ularga xos individual ruhiy-jismoniy xususiyatlarning qanday namoyon bo'lishiga e'tibor beradi. Bunda darsning qatnashchilari o'rtasida subyekt+obyekt yoki subyekt+subyekt munosabatlari o'rnatilganini aniqlash, hamkorlik pedagogikasi qanchalik yo'lga qo'yilganiga e'tibor berish va buning ta'lim kechimiga ta'sirini belgilash katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, interfaol usullar asosida mashg'ulotlar uyushtirishga e'tibor kuchaygan hozirgi davrda metodik tahlil turi muhim o'rin tutadi.

Ayni vaqtda o'qituvchining saboqni o'tishda qaysi metoddan foydalanganiga emas, balki u yoki bu metodni qanday qo'llay bilganiga diqqat qaratish lozim. Ayrimlar darsning samarador bo'lgan-bo'lmaganidan ko'ra unda qanday metodlar qo'llanganiga ustuvorlik beradiki, bu mutlaqo noto'g'ri yondashuv. O'qitish amaliyoti uchun metodning o'zi emas, balki u orqali erishiladigan didaktik samara muhim sanaladi.

Didaktik tahlilda saboq mobaynida darsi tekshirilgan adabiyot o'qituvchisi ta'limning tushunarlilik, tarbiyaviylik, tizimlilik, ilmiylik, ko'rsatmalilik, hamkorlik va bq. tamoyillaridan qanday foydalangani va buning qanday didaktik natija berganini aniqlashga diqqat qaratiladi. Kuzatuvchi o'qituvchi bironing sabog'ini kuzatish va tahlil qilish asnosida darsda ta'limning ilmiyligi, tushunarliliigi, izchilligi, tizimliliigi, ko'rsatmaliligi singari didaktik tamoyillarga qanday amal qilinganiga ko'proq e'tibor qiladi. Zero, bu tamoyillarga amal qilish mashg'ulotning ilmiy va didaktik samaradorligini ta'minlaydi.

Bunda o'qituvchining o'quvchilar oldin o'zlashtirgan bilimlarni faollashtira olgan-olmaganliklariga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki ko'pincha o'quvchilar saboq mavzularini hayotda qo'llash, hayotiy tajribada foydalanish uchun emas, balki o'qituvchi aytgani uchungina o'zlashtiradilar. Shunday holatga yo'l qo'ymaslik uchun adabiyot muallimi o'quvchilarini egallagan bilimlarini muntazam ishga solib turishga, bilganlarining harakatsiz yotishiga yo'l qo'ymaslikka odatlantirishi lozim.

Umumpedagogik tahlilda kuzatuvchi dars tahlilining yuqoridagi har uch turidan aralashiga foydalanadi. Ta'lim amaliyotida ham o'qituvchilarning darslarni mana shunday kompleks holda tashkil etishga ko'proq duch kelinadi. Bu hol bitta dars mobaynida muayyan o'qituvchi faoliyati ham ilmiy, ham metodik, ham didaktik nuqtai nazardan tekshirilib baholanishiga imkon beradi. O'quvchilarning bilim darajalari, faolliklari, sinfdagi muhit bir qadar ayonlashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'qituvchida pedagogik mahorat shakllanishida o'zga o'qituvchilar darsini kuzatishning katta o'rni borligiga sabab nima?
2. Kasbdoshning saboqlarini kuzatishda amal qilinishi kerak bo'lgan talablarni sharhlang.
3. Saboqlarni kuzatishning qanday turlari bor? Ularni izohlang.
4. Kuzatilgan darslarni qayd etish yo'llari haqida to'xtaling.

ADABIYOT O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORGARLIGI VA IMIJIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Reja:

1. O'quvchi shaxsining shakllanishida adabiyot o'qituvchisining o'rni.
2. Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar.
3. Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan ma'naviy talablar.
4. Filologning imiji.

Tayanch tushunchalar:

Adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tashkilotchilik, pedagogik ijrochilik, badiiy vositachilik, pedagogik sheriklik, pedagogik amaliyotchilik, ta'limning ichki va tashqi mohiyati, ta'lim kechimini tashkil etishda ta'lim mazmuni va o'qitishni amalga oshiruvchi kuchlar nisbati, adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan ma'naviy talab-

lar, bilimli mutaxassis va o'quvchilarni sevadigan pedagogning bir-biridan farqi, adabiyotchining notiqligi, adabiyotchining xushmuomalaligi, o'qituvchining imiji.

Adabiyot o'qitishning ta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlarini o'qitishdan jiddiy farqlanadigan bir jihati uning o'qituvchi shaxsiyatiga ko'p darajada bog'liq ekanligidir. Boshqa o'quv predmetlari muallimlarining yaxshi faoliyat ko'rsatishi uchun uning o'z sohasini chuqur bilishi va o'qitish metodikasini egallab olishi yetarli hisoblanadi. Adabiyot o'qituvchisiga esa, adabiyotshunoslikni puxta o'zlashtirish va adabiyot o'qitish metodikasini bilib olish kifoya qilmaydi. Adabiyot darslari o'quvchilarning ko'ngli, sezimlari bilan ish ko'rgani va ularda ezgu ma'naviy tuyg'ular shakllantirishga qaratilgani sabab adabiyotchi shaxsi o'quvchi axloqiy dunyosi tarkib topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisi ham bilimi, ham shaxsiyati bilan o'quvchilarni o'ziga rom eta olsagina adabiy ta'limdan ko'zda tutilgan maqsadga erishishi mumkin. Chunki yaxshi darslik, puxta dastur, mukammal o'quv vositalari ta'limning **tashqi** jihati bo'lsa, o'quvchi bilan o'qituvchi hamda ta'lim mazmuni bu kechimning **ichki** mohiyatini tashkil etadi. Har qanday hodisaning asl qiymati, chin mohiyati ichki jihatda namoyon bo'lgani kabi adabiy ta'limda ham o'qituvchi bilan o'quvchi munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot o'qitishda o'quv faniga muhabbat, asosan, o'qituvchiga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. O'quvchi ko'nglidagi ezgu xislatlarni uyg'otish, badiiy asar tahlili orqali unda ezgu ma'naviy fazilatlarini qaror toptirish yo'li bilan bola shaxsining yuksalishiga erishish adabiyot o'qituvchisining oldida turgan asosiy vazifadir.

Adabiyot o'qitish o'quvchining hissiyoti va ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishi hamda uning axloqini shakllantirishga xizmat qilishga qaratilgan kechim ekani adabiyot o'qituvchisi shaxsiga katta mas'uliyat yuklaydi. Adabiyot muallimi, birinchi navbatda, barkamol shaxs bo'lishi lozim. Chunki ma'naviyati qashshoq

shaxs barkamol ma'naviyatli o'quvchini shakllantira olmaydi. Ma'lumki, hech qanday og'och o'zidan ortiq meva berolmaydi.

O'rta maktabda ishlashni niyat qilgan adabiyot muallimi bir qator kasbiy va ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Adabiyot o'qituvchisigagina xos bir qator kasb sifatlari borki, bu xususiyatlar muallim faoliyatida o'z ifodasini topmasa, darslar samarasiz bo'lib qolaveradi. Chunki adabiyot o'qituvchisining kasbiy sifati dagi har bir qirra uning faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Badiiy ijodkorlik. Adabiyot muallimiga xos faoliyat qirralaridan biri ilhomiy holat, badiiy did va tafakkurga asoslanadigan xususiyat bo'lmish ijodkorlikdir. Adabiyot o'qituvchisi yolg'iz ilmiy haqiqatlar bilan emas, badiiy yaratilqlar bilan ish ko'radigan mutaxassis ekani uchun ham uning tabiatida ijodkorlarga xos belgilar bo'lishi shart. Oliy maktabda bo'lajak o'qituvchi ijodga, ya'ni olamni faqat o'z ko'zi bilan ko'rib, o'ziga xos izohlay olishga o'rgatilishi kerak. Pedagogik ijodkorlik adabiyot darslarining estetik yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Adabiyot muallimining o'zi badiiy kashfiyot qilishni bilmasa, o'nlab metodik kitob-u ko'rsatmalar foyda bermaydi. Chunki har bir adabiyot sabog'i o'qituvchi ijodining namunasi, uning o'ziga xos kashfiyoti, faoliyatining qayta takrorlanmas ko'rinishidir.

O'qituvchining badiiy ijodkorligi o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, uning badiiy didini tarkib toptirish, dunyoqarashini shakllantirish, og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'ziga xoslik, boshqalarga o'xshamaslik, har bir saboqda metodik kashfiyot qila bilish adabiyot o'qituvchisining tabiiy ehtiyojiga aylangandagina, uning darslari betakror va samarali bo'ladi. O'qituvchining muayyan badiiy asarni o'ziga xos idrok etishi, o'z tushunganicha tafakkurida qayta ishlab, badiiy jozibasini o'quvchilarga yetkaza olishi uning ijodkorligini ko'rsatuvchi belgidir.

O'qituvchining ijodkorlik faoliyatini shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning uzviy bir bo'lagidir. Adabiyot o'qituvchisining badiiy-ijodkorlik malakasi nozik ruhiy, jismoniy jarayonlar nati-

jasi bo‘lib, u ko‘p jihatdan kishining tabiiy-biologik imkoniyatlariga ham bog‘liqdir. Muallimning ijodkorligi asar tahlilida, uning qismlariga sarlavhalar belgilashda, badiiy kechalarning ssenariysini tuzish va o‘tkazishda yaqqol seziladi. *“Ijodkor bo‘lmagan o‘qituvchida nusxabozlik, siyqalik ko‘rinib turadi”*¹¹³.

Ijodkor o‘qituvchigina asardagi badiiyat jilolarini to‘g‘ri anglab, o‘quvchilar qalbiga muhrlay biladi. Bunday o‘qituvchi darsning rang-barangligiga erisha oladi. Saboqlarning xilma-xilligi o‘quvchilarni zerikish va keraksiz zo‘riqishdan saqlaydi. Yaxshi tashkil etilgan har bir adabiyot darsi nimasi bilandir yangi va takrorlanmas bir asardir. Ijodkor muallim o‘quvchilarni ham ijodiy ishlashga odatlantira, badiiy asarga mustaqil yondashishga rag‘bat uyg‘ota oladi.

Ijodkor o‘qituvchi hamisha o‘ziga xos fikrlashi, teran hissiyoti, original mushohadasi bilan ajralib turadi. O‘qituvchida mazkur sifatning bo‘lishi adabiy ta‘lim samaradorligiga kafolatdir. *“Bugungi darsni kechagidan, ertangisini bugungidan yaxshiroq va samaraliroq tashkil qilish ijodkor o‘qituvchining doimiy belgisi”*¹¹⁴.

Adabiyot o‘qituvchisiga xos bo‘lgan kasb sifatlaridan yana biri **badiiy ijrochilik**dir. Bu xususiyatda o‘qituvchining o‘rganilayotgan badiiy asarlarni ifodali o‘qish mahorati, badiiy so‘zga ustaligi namoyon bo‘ladi. Badiiy ijro turli ta‘lim metodlaridan foydalanish mahorati va tajriba hisobiga sayqal topib boradi. Bo‘lajak o‘qituvchining badiiy ijrochilik mahorati oliy maktabda shakllantirilishi va rivojlantirilishi kerak. Talabalarining ijro mahoratini sinash uchun ko‘riklar, musobaqalar tashkil qilinib, bunday tadbirlarga badiiy so‘z ustalari taklif qilinadi. Ular talabalarining ijrosini kuzatib borishadi va baholashadi. Ayrim san‘atkorlar bilan badiiy ijroning sir-asrorlari haqida davra suhbatlari, amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadi. Badiiy so‘z ustalarining video va audiotasmalarga yozib olingan ijro namunalari tahlil etiladi. Shu tariqa

¹¹³ Yo‘ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodi-kasi. – T.: “Universitet”, 1994. 92-bet.

¹¹⁴ Занков А. Беседы с учителями. – М.: Просвещение. – С. 139.

talabaning ijro mahorati oshirib boriladi. Buning uchun filologiya fakultetlari talabalari uchun maxsus kurs sifatida “Badiiy ijro mahorati”, “Badiiy o‘qish san’ati” kabi mashg‘ulotlar tashkil qilinishi, ifodali o‘qish bo‘yicha to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Shundagina talabalarda badiiy ijro mahoratini shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Badiiy ijro o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan asardagi muallif tuyg‘ulari, ruhiy holatini ilg‘ash va o‘quvchilarga yetkaza bilishdir. Bu asarni shunchaki ifodali o‘qib berish emas, balki muallif va o‘qituvchi birlashgan ruhiyatining namoyon bo‘lishi jaryonidir. O‘qituvchining badiiy ijrosidan asosiy maqsad o‘quvchini o‘rganilayotgan asar mazmuni va g‘oyasi bilan tanishtirishgina emas, balki matnga singdirilgan hissiyotni, tuyg‘uni uning qalbiga joylash hisoblanadi. Uning badiiy ijrosi muallifning asar qahramonlariga singdirilgan tuyg‘ularini bolalarning kechinmalariga aylantiradi. Yaxshi ijro asarga yangi umr baxsh etadi, uning anglanmagan sirlarini ochadi, sezilmagan jozibalarni namoyon etadi. Mahoratli ijro tufayli o‘quvchilarning e‘tibori, diqqati zabt etilsagina, asarning badiiyligi, asar timsollarining hislari bolalarning qalb mulkiga aylanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘qituvchi kulsa, kulib, xo‘rsinsa, ko‘zlariga yosh oladi. Badiiy ijrosi puxta o‘qituvchining darslari ijodiyligi, quvnoqligi, hazil-mutoyibaga boyligi bilan ajralib turadi. Badiiy ijro qanchalik kuchli bo‘lsa, dars shunchalik qiziqarli bo‘ladi, unda o‘quvchilar faol ishtirok etadilar. Hissiyot bilan qabul etilgan dars o‘quvchida “hissiy tafakkur”ni uyg‘otadi va bir umr qalbiga muhrlanib qoladi. O‘qituvchining ijrochilik mahorati o‘quvchilarning ijrochilik iste’dodlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi asar ijrosida zo‘raklikka, soxtalikka yo‘l qo‘ysa, ko‘zda tutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Badiiy ijrochilikning muhim qirralaridan biri badiiy o‘qish mahoratidir. **“Badiiy o‘qish – holatga kirib o‘qish, ...qahramonni his qilish degan ma‘noni bildiradi”**¹¹⁵. Badiiy o‘qish mahorati

¹¹⁵ Inomxo‘jayev S., Zunnunov A. Ifodali o‘qish asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 1973. 223-bet.

o'qituvchining biror asardagi muallif va timsollarning tuyg'ularini mohirona, ta'sirli yetkazib berishida namoyon bo'ladi. Muallif va timsollar nutqi hamda ruhiy holatini butun jozibasi bilan o'quvchilar ma'naviy dunyosiga ko'chira olish murakkab didaktik yumushdir. O'quvchilarning ruhiy, hissiy dunyosini "zabt" etish, har bir o'quvchining qalbiga yo'l topa bilish o'qituvchi badiiy o'qish mahoratining natijasidir.

Lirik asarlarning badiiy ijrosi ancha murakkab. Chunki lirik asar mazmunini aytib berib ham, tushuntirib ham bo'lmaydi. U, asosan, his qilinadi. Lirik asar mahorat bilan ijro etilgandagina unda aks etgan tuyg'ular o'quvchilar qalbiga ko'chadi. Badiiy o'qishda tuyg'ular yuqumlilikiga alohida e'tibor berilishi zarur. Asar qahramonlari ichki kechinmalarining o'quvchilar tomonidan to'liq his qilinishiga erishish badiiy o'qish oldida turgan muhim vazifadir.

His qilish shunchaki bilib qo'yish bilan teng emas. His qilinda fikr ham, vujud ham, ko'ngil ham ta'sirlar og'ushida bo'ladi. Achinish yoki zavqlanish, o'zgaralar g'ami, quvonchi, musibati yoki shodligiga sheriklik o'quvchilarda o'zganing holatini his qilish, ruhiyatini tuyish, boshqalar o'rniga o'zini qo'ya bilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Toza hissiyot yoshlarni ma'naviy komillik sari boshlovchi vositadir.

Adabiyot o'qituvchisi badiiy asar bilan o'quvchilar orasida **badiiy vositachi** vazifasini ham bajarishi kerak. Adabiy ta'limda badiiy matni, uning zamiriga yashirin sirli tasviriy ifodalardan kelib chiqadigan mantiqiy va estetik ma'nolarni anglab yetish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ish o'qituvchi uchun ham, hali hayot tajribasi kam, badiiyat olamining sir-sinoatlarini endigina bir qadar tushunib va tuyib borayotgan o'quvchi uchun ham og'irdir. Shu bois o'qituvchida o'rgatiladigan asarlarni o'quvchilarning yoshi, ruhiy dunyosi, o'zlashtirish imkoniyatiga moslab ularning ko'ngil mulkiga aylantirishdek badiiy vositachilik, ya'ni didaktik tahlilchilik sifatining bo'lishi zarur hisoblanadi. Bu sifat o'qituvchining o'quvchilarni badiiy asar matnidagi jozibani payqashga o'rgatishi va ularda estetik didni o'stirishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining chuqur emotsional xususiyatga ega bo'lishi kerakligi ham zarur talablardan biridir. O'qituvchi asar va o'quvchilar orasida bog'lovchilik vazifasini bajarar ekan, mashg'ulotlarni o'quvchining ruhiy taraqqiyotini ta'minlaydigan tarzda uyushtirishi muhimdir. Adabiyot o'qitishda badiiy asarning mantig'ini bilishning o'zi yetarli emas. Matn zamiridagi ko'rkam ma'noni ilg'ash, turli badiiy ifodalar ostida "yashirilib yotgan" jozibani payqash muhim sanaladi. Bu esa o'qituvchining badiiy vositachiligida amalga oshiriladi. O'quvchilarning asarni to'g'ri anglab to'liq o'zlashtirishlari badiiy matnni chuqur tushunish va tahlil qila olishlariga yaratilgan zamin hisoblanadi. O'qituvchining badiiy vositachilik mahorati matnni o'quvchilarga yetkazish, uning badiiyatiga xos estetik jozibani anglatish jarayonida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning badiiy matnni o'z ma'naviy mulkiga aylantirishi, uni bor sehr-u jozibasi bilan o'zlashtirishi o'qituvchining vositachilik mahoratiga bog'liqdir. O'quvchilar ustozga ergashib asarni kashf etadilar, matn jozibasini anglagan sari unga qiziqib boradilar. Bu o'quvchilarning kitobxonlik darajasini oshirib, kitob o'qish madaniyatini yuksaltiradi. Kitob o'qish davomida badiiy so'z ustida ishlashga odatlantiradi. O'qituvchining badiiy vositachiligi adabiyot darslarida o'rganilayotgan asar yuzasidan sinfdagi o'quvchilarning bir xil fikrga kelmasligida ko'rinadi. Uning bu xususiyati o'rganilayotgan asarning har bir o'quvchi tomonidan o'ziga xos tushunilish va baholanishini ta'minlashga qaratiladi.

Adabiyot darslarida o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi munosabat **pedagogik sheriklik** darajasida bo'lishi lozim. Sheriklar bir maqsad yo'lida harakat qilishlari zarur, lekin bir xil fikrlashlari aslo shart emas. Sinfdagi barcha o'quvchilarning biror asar yuzasidan bir xil xulosaga kelishi o'ylamaslikning oqibatidir. Biror narsa yuzasidan mustaqil fikrlamaslik esa, o'quvchilarni intellektual qaramlikka olib boradi. Ma'lumki, aqliy va estetik qaramlik siyosiy va huquqiy qaramlikdan ko'ra xavfliroq holatdir.

Bo'lajak adabiyot muallimida bolalarga hamkor bo'la bilish xususiyati oliy o'quv yurtida shakllantirilishi zarur. Oliy maktab

talabasi pedagogik amaliyot davrida o'quvchilar bilan hamkorlikda badiiy kechalar, adabiy uchrashuvlar, sayohatlar, davra suhbatlari uyushtirishga odatlanishi lozim. Shundagina sinf o'quvchilari bilan ish olib boradigan o'qituvchi ularni bir jamoa sifatida uyushtirib, turli tadbirlarni tashkil qilishning uddasidan chiqqa oladi.

Adabiyot o'qituvchisi **tashkilotchilik** sifatiga ham ega bo'lishi kerakki, busiz u sinfdagi o'quvchilarni bitta jamoaga aylantira olmaydi. Ma'lumki, har qanday sinfda ham turli tabiatga ega o'quvchilar bo'ladi. O'qituvchi ana shu har xil tabiatli o'quvchilar bilan umumiy til topishi lozim bo'ladi. Bir butun jamoa hisoblangan sinf bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni samarali bo'lishi uchun o'qituvchi ijtimoiy tashkilotchi bo'lishi shart. Sinfdagi turli tabiatli, har xil maqsadli o'quvchilarni bir xildagi tartib-intizomga rioya qiladigan jamoaga aylantirish, ularni darsga qiziqtirib, o'zlashtirish darajasini oshirish va eng muhimi, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirish o'qituvchidan tashkilotchilikni talab etadi.

Dars – umumiy xarakterdagi tashkiliy jarayon. Shunga ko'ra, adabiyot o'qituvchisi faoliyati ham umumga qaratilgan bo'lishi kerak. O'tilayotgan saboq esa har bir alohida o'quvchiga bevosita tegishli bo'lgandagina yaxshi o'zlashtiriladi. Binobarin, adabiyot o'qituvchisi bir vaqtning o'zida ham barcha bilan, ham har bir o'quvchi bilan ishlay olishi lozim bo'ladi. O'qituvchining ijtimoiy tashkilotchiligi tufayligina har bitta o'quvchi kayfiyati, hissiyoti va tuyg'ulari bilan ko'pchilikning kayfiyati uyg'unlashishi mumkin bo'ladi.

O'quvchilar orasida qaror topgan insoniy munosabatlar yoshlardagi ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchining o'z fikr-u mulohazalarini umum bilan baham ko'rishga intilib, boshqalarning fikrini eshitishga odatlanishi, shaxsiy mulohazalarini asosli ifodalashga o'rganishi adabiy ta'limning samaradorligini keskin oshiradi. Sinfdagi biron o'quvchining jamoadan chetlashishga urinishi, yolg'izlikka intilishi, tengdoshlaridan uzOqlashishi, dars va darsdan tashqari tadbirlarda faol qatnashmasligi adabiyot o'qituvchisida ijtimoiy tashkilotchilik qobiliyati yetarli emasligining belgisidir.

Sinfdagi bolalar do'stona jamoaga uyushgan joyda darslar qiziqarli, mazmunli tus oladi. O'quvchilarni jalb qilolmagan, o'zining tashkilotchilik fazilati bilan ularga namuna bo'lolmaydigan o'qituvchi bolalarni birlashtira olmaydi. Chunki unga o'quvchilar ergashmaydi. Ustoz bolalarni sevadigan, ularning qiziqishlarini biladigan va o'quvchilardan vaqtini ayamaydigan, ular bilan tengdoshday muomala qila olgandagina, sinf jamoasini birlashtirishi mumkin. Buning uchun adabiyot o'qituvchisi sinfdagi o'quvchilar orasida kimlar yetakchi ekanliklarini bexato aniqlay bilishi lozim.

Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining yana bir muhim qirrasini **ilmiy tadqiqotchilik**dir. Adabiyot muallimi badiiy matnni adabiyotshunos olim singari tadqiq eta olishi, har bir asarning o'ziga xos badiiy xususiyatlarini ilmiy asoslay bilishi muhim sanaladi.

Adabiyot o'qituvchisining bu kasb xususiyati mashg'ulotlarga tayyorlanish jarayonida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotchilik o'qituvchining aniq ilmiy qarashlarga egaligi va mustaqil fikrlaydigan mutaxassis ekanini ko'rsatish bilan birga unga o'ziga xos tarbiyaviy qudrat ham beradi. Negaki badiiy asarni teran ilmiy tadqiq qila bilish matnning nozik, muhim, ta'sirchan, jozibali, sirli jihatlarini aniqlash, o'ziga xos yangi qirralarini topish orqali o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlar shakllantirishga yo'l ochadi.

Badiiy asar tahlili o'qituvchi ilmiy tadqiqotchiligining asosidir. Tahlil badiiy asarlarga tayanib amalga oshiriladigan o'ziga xos ijodiy jarayondir. Badiiy ijodning asl jozibasi uning inja sirlari, ichki jihatlarini tadqiq etilgandagina namoyon bo'ladi. Badiiy asarda tasvirlangan timsollarning tuyg'ularini o'quvchilar qalbiga joylash, asarning shakl-u mazmuniga shikast yetkazmasdan ularni bolalarning ko'ngliga ko'chirish katta bilim va mahorat talab etadi. Matnning rang-barang badiiy kengliklariga kirib borish faqat tadqiqotchilik sirlarini puxta egallagan o'qituvchining qo'lidan keladi.

Adabiyot darslarida, odatda, asar timsollarini sanash, syujetini aniqlash, voqealar mazmunini bayon qilishga ko'p e'tibor beriladi.

riladi. Natijada, o'quvchilar tomonidan asarning chin badiiy joziyasi anglanmay qoladi, darsning samarasi ham shunga yarasha bo'ladi. Agar o'qituvchi asarni o'quvchilarning ichki sezimlariga singdirmasa, dil hamrohiga aylantirmasa, ilmiy mushohadalar asosida uning eng muhim qirralarini ochib berolmasa, tengsiz bitik ham o'quvchi nazarida hech qanday qimmatga ega bo'lmay qolaverishi mumkin.

Badiiy matndagi timsollarning ruhiyati, hodisalar, tafsilotlar hamda tabiat tasvirlariga singdirilgan estetik, axloqiy, ruhiy xususiyatlarni o'quvchilarning botiniy mulkiga aylantirish o'qituvchi tadqiqotchiligidaning natijasi bo'lishi lozim. Shuning uchun o'qituvchidan badiiy matndagi har bir so'z va ifodaga sinchkovlik bilan yondashuv talab etiladi. Asar matniga yuzaki qarab, u bilan shunchaki tanishib chiqilgan, syujet va g'oyagagina e'tibor qilingan mashg'ulotlardan samara kutib bo'lmaydi. Adabiyot o'qituvchisi asarning badiiyatiga chuqurroq kirib borishi va yoshlarni ham shunga odatlantirishi kerak.

Inson ko'ngli bilan go'zal bo'lgani kabi adabiy asar badiiyati bilan qimmatlidir. Ana shu badiiyatni, timsollarning kechinmalarini, tasvirning sirli lavhalarini ochib berolmaslik asarning qimmatini belgilay olmaslikdir.

Muhim pedagogik tadbir bo'lgan badiiy tahlil muallif va asardagi timsollarning tuyg'ulari, ruhiyatini o'quvchilarga anglatishga qaratilgan faoliyatdir. O'qituvchi asar matnini chuqur badiiy tahlil qila bilmas ekan, asar mazmunini qayta bayon qiluvchi, u haqda axborot beruvchi kimsa bo'lib qolaveradi. O'rganilayotgan adabiy matnning teran tahlil etilishi, nafaqat asar mazmunini puxta o'zlashtirish, balki o'tilayotgan mashg'ulotning mazmunli bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuning uchun ikki o'qituvchining bitta mavzudagi darsi o'quvchilar ruhiyatiga har xil ta'sir qiladi.

Adabiyot darslarining sifati va samaradorligi o'qituvchi tadqiqotchiligidaning doimiy va uzluksizligiga bog'liqdir. Adabiyot o'qituvchisi uchun zaruriy bu jihat oliy o'quv yurtlari talabalarida shakllantirilishiga e'tibor qaratilishi juda zarur. Bu sifatni egallagan ustoz o'quvchilarda matn bilan ishlashga ishtiyoq pay-

do qilish, kitobga muhabbat uyg'otish, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisining asosiy faoliyat manbasi badiiy asar va badiiy so'z bo'lganligi uchun u istalgan badiiy hodisa to'g'risida adabiyotshunos olim singari o'z fikrini ayta olishi, aytganlarini nazariy asoslay bilishi lozim.

Adabiyot o'qituvchisining **pedagogik amaliyotchilik** vazifasi uning ilmiy tadqiqotchiligiga bir muncha yaqin. O'qituvchi oliy maktabda va mustaqil tarzda o'zlashtirgan nazariy va metodik bilimlarini amalda qo'llay olgandagina adabiyot o'qitishda muayyan samaraga erishadi. O'rganilayotgan badiiy asarning o'ziga xosligini saqlagan holda uni o'quv adabiyotiga aylantirish, o'quv tahlilini amalga oshirish, badiiy matnni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari, muayyan vaqtdagi ruhiy holatlariga mos ravishda taqdim etish choralarini ko'rish adabiyot o'qituvchisidan faqat bilimdon mutaxassislikni emas, balki kerakli didaktik tadbirni o'z vaqtida qila oladigan amaliyotchi-metodist bo'lishini ham talab etadi.

Sinfdagi o'quvchilarga mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan badiiy asarni shu sinfdagi bolalar o'zlashtiradigan o'quv materialiga aylantirish adabiyot muallimi faoliyatining muhim qirrasidir. Chunki dunyodagi birorta badiiy asar muayyan sinfdagi o'quvchilarga o'rgatish uchun yozilmaydi. Ya'ni badiiy asar o'z-o'zicha muayyan pedagogik yo'nalishga ega bo'lmaydi. O'qituvchi shu xildagi asardan pedagogik xususiyat topa olishi lozim. Buning uchun u o'quvchilar ruhiyati va adabiyot nazariyasini chuqur biladigan, badiiy asarlar bilan qiynalmay ish ko'radigan, adabiy jarayondan xabardor, adabiyotshunoslik yangiliklarni kuzatib boradigan bilimdon mutaxassis bo'lishi kerak.

Pedagogik amaliyotchilik o'quv materialini tanlash va yaxlit tizimga keltirish, dars davomida o'quvchi va o'zining faoliyati yo'nalishini belgilash, mashg'ulot uchun nimalardan foydalanish, qanday xulosaga kelish, badiiy asarning o'quv tahlilini qay yo'sin amalga oshirish kerakligini belgilashda ham ko'rinadi. O'qituvchi o'rganiladigan asarning tabiati va o'quvchilarning ruhiy va

bilim darajasiga muvofiq didaktik yo'l topishi kerak. Ilm amali bilan go'zal bo'lgani kabi adabiyot o'qituvchisining pedagogik amaliyotchiligi tinimsiz rivojlanib boruvchi dinamik jarayonga aylangandagina katta samara keltiradi.

Yuqorida sanalgan kasbiy sifatlardan tashqari adabiyot o'qituvchisi faoliyatining samaradorligi uning nutq madaniyati darajasiga, notiqlik mahoratiga ham bog'liqdir. O'qituvchi nutqida uning bilimi, saviyasi, ishontirish san'ati, tarbiyachilik mahorati namoyon bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisining nutqi o'quvchi uchun hamisha namuna bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot muallimi nutqi nuqsonsiz bo'lishi shart. Adabiyot darslarining muvaffaqiyati, ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining notiqlik mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi so'z bilan o'quvchining ruhiy holatini o'zgartirishga qodir shaxs bo'lgandagina ularning e'tibor va e'tirofini qozonadi.

Yuksak tuyg'ular faqat shaxsdan shaxsga, qalbdan qalbga o'tadi. Ma'naviy sifatlarni sinf o'quvchilarining barchasiga ommaviy tarzda yetkazish mushkul, shu bois adabiyot o'qituvchisi o'z tarbiyalanuvchisi bilan imkon qadar yuzma-yuz, yolg'iz qola bilishni uddalashi kerak. O'qituvchining yuksak ma'naviy fazilatlariga egaligi, ustoz bilan shogird o'rtasida chin insoniy munosabatlar borligi dars samaradorligining muhim asosidir.

Bolalarga muhabbat adabiyot o'qituvchisining zarur kasbiy-ma'naviy sifatlaridan biridir. Boshqalarga muhabbat har qanday kishini fidoyilikka chorlaydi. Fidoyilikning mahsuli ezgulikdir. Ezgulik – o'zgalar muhabbatiga sazovor bo'lishning ham asosi. Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilari tomonidan sevilishi shart. O'quvchilar muhabbatini qozonishning birdan-bir yo'li esa ularga mehr ko'rsatish, ularni tushunish va kechirimli bo'lishdir. Qalblar hissiyot va tuyg'ular vositasidagina bog'lanadi. Ta'lim jarayonidagi hamma muvaffaqiyatsizlik va soxtaliklar muhabbatsizlikdandir. Adabiy ta'limda o'quvchining asl maktabi, avvalo, o'qituvchi shaxsi, asosiy kitobi esa, o'qituvchining ma'naviyatidir. Murabbiy shogirdlarining muhabbatini qozongachgina, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladi. Adabiyot o'qituvchisining

shaxsi adabiy ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qilishda eng muhim jihat bo'lib, uning samarali natijalarga erishuvi zarur ma'naviy sifatlarga egaligiga bog'liq.

Xushmuomalalik ham adabiyot muallimining dars samaradorligini ta'minlovchi muhim ma'naviy fazilatidir. O'qituvchi mashg'ulotlari samaradorligini ta'minlashda uning muomala madaniyatiga egaligi muhim o'rin tutadi. Chunki adabiyot muallimi – o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirishga tutingan zot. O'quvchi bilimlarni kitobdan ham o'zlashtirib olishi mumkin. Biroq, ma'naviy fazilatlar faqat shaxslararo munosabatlarda natijasida shakllanadi.

Adabiyot darslarining markazida o'quvchi shaxsi turadi. Nega? Ki adabiyot bo'yicha beriladigan bilim, qilinadigan tahlil, amalga oshiriladigan tadbirlardan asosiy maqsad o'quvchilarda shaxslik sifatlarini qaror toptirishdan iboratdir. Ma'lumki, o'quvchilar qalbini rom etmay, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Bola bilan muomalada soxtalik, yasamalik, quruq jimjimadorlik, sun'iy mehribonlik samara bermaydi. Muomala san'ati samimiylik, tabiiylik va insoniylik mezonlari asosida yuzaga keladi. Bolalar, avvalo, samimiy insonni, muomalali odamni, tengdosh do'stga aylanib keta oladigan kishini sevadilar. Ana shunday "**adabiyot o'qituvchisi darsning asosiy ko'rsatmali qurolidir**"¹¹⁶.

O'quvchilar o'qituvchiga muhabbati orqali adabiyot fani va badiiy adabiyotga muhabbat qo'yadilar. Xushmuomalalik fanga qiziqish va muhabbat uyg'otishning poydevoridir. Bu sifat har qanday o'qituvchida har qanday bilimdon mutaxassisda ham topilavermaydi. O'quvchilar bilan chin dildan, ochiqchasiga gaplashish ularga o'z so'ziga ishonch uyg'otish adabiyot o'qituvchisini bolalarning yaqin sherigiga aylantirishi mumkin.

Axloqiy jihatdan o'quvchilarning idealiga aylanish va ularni ma'naviy kamolotning yuksak darajalariga tomon ko'tarish pedagogik muomala san'atining samarasidir. O'qituvchining insoniy qiyofasi, ichki dunyosi o'quvchilarga muomala-munosabatida

¹¹⁶ Zunnunov A., Esanov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi", 1985. 200-bet.

namoyon bo'ladi. Maktab adabiy ta'limi samaradorligiga faqat yangi usulda dars o'tish bilan erishib bo'lmaydi. Darsda samimiy munosabat, qalb harorati bo'lishi kerak. Qalbning yoqimli hissiyot deb atalmish xossasi bor. Muomala san'atiga ega bo'lmagan o'qituvchi o'quvchi hissiyotiga ijobiy ta'sir etolmaydi. Majburlab o'qitish aslida shaxsning hurligini poymol qilish demakdir. O'qituvchining muomala san'atini egallaganligi o'quvchilar ma'naviy fazilatlarini va ijodiy imkoniyatlarini to'la namoyon qilishga yo'l ochadi. Xushmuomalalik asosida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlarning samimiyligi, yaqinligi va o'zaro hurmat yotadi.

Adabiyot saboqlari tuyg'ular va hissiyotlar asosiga qurilgan mashg'ulotlardir. Boshqa hech bir predmetda hissiyot adabiyot darslaridagichalik muhim o'rin tutmaydi. Shuning uchun ham bolalarni tushunish, ularni his qilish, tuyg'ularini qadrlash juda muhimdir. Adabiyot mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish o'quvchilarning ruhiy holatiga ham bog'liq. Ayrim o'qituvchilar mashg'ulot o'tishda eng muhim siymo o'quvchi ekanini unutib qo'yadilar. O'qituvchi mashg'ulotda nimani o'rgatish, qanday usulda o'rgatish borasida ko'p o'ylaydi-yu, o'quvchilar kayfiyati qandayligi ustida yetarlicha bosh qotirmaydi. Natijada, adabiyot darslarida bola shaxsini shakllantirish masalasi chetroqda qolib ketadi.

Bolaning ko'nglidagi o'zgarishlarni, qalbidagi hayajonni, intilishlarini tushunish ustozni ularning yaqin kishisiga aylantiradi. O'quvchining yaqin kishisiga aylanish eng yuksak natijani egalash demakdir. O'qituvchi o'z shogirdlarining shaxsiyatiga, ichki dunyosiga chuqur kirib borgandagina, tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish ishi samarali kechadi. Pedagogning kasb sifatleri uning ma'naviy fazilatlaridan kuch-quvvat oladi. O'qituvchining bolalarga, o'z navbatida o'quvchilarning o'qituvchiga muhabbatidan ta'lim-tarbiyaning metod va usullari harorat oladi, pedagogik mahorat insonparvarlik hissi bilan to'lgan ustoz qalbidan o'tib sayqal topadi. *"Tarbiya va ta'lim metodlaridan foydalanadigan o'qituvchining qanday insonligi hisobga olinmasa, uning ko'ngli, qal-*

*bi ezgu bo'lmasa, bu metodlarning samarasi haqida bir nima deb bo'lmaydi*¹¹⁷.

Ma'lumki, har bir odam o'z umri davomida ko'p marti o'quvchi, tarbiyalanuvchi va o'qituvchi (tarbiyachi, ustoz) maqomida bo'ladi. Pedagoglik – Odamota bilan birga paydo bo'lgan sharafli kasb. Tegishli tayyorgarlikka ega va pedagogik faoliyati bilan professional darajada shug'ullanadigan kishilar esa pedagoglardir. Faqat pedagoglargina bu yumush bilan professional darajada shug'ullanishadi, zarurat yuzasidan esa deyarli har bir odam pedagoglik qiladi. Pedagoglik – mutlaqo o'ziga xos kasb. U hamisha ko'pchilikning diqqat markazida turadi. Chunki u kelajak egalarini tarbiyalaydi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishida o'qituvchining tashqi ko'rinishi qandayligi ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, biror kishi haqidagi ilk tasavvur uning kiyimi va tutumlariga qarab shakllanadi. Har qanday odam a) tashqi ko'rinishi; b) odatlari; v) so'zlash yo'sini; g) tutumlari; d) mentaliteti asosida o'zining muayyan qiyofa-obrazini yaratadi. Ana shu qiyofa keyingi vaqtlarda "imij" degan so'z bilan atala boshlandi. Imij atrofida gilariga hissiy-psixologik ta'sir ko'rsatish niyatida shaxs tomonidan maqsadli yo'sinda shakllantirilgan obrazdir.

Pedagogning imiji uning faoliyati samaradorligini oshirish uchun maqsadli urinishlar natijasida shakllantiriladi. Ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yo'sinda shakllantirilgan imij pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. "Obraz", "qiyofa", "tasvir" ma'nolarini bildiruvchi inglizcha "imij" so'zi anchadan buyon ishlatilib kelinsa-da, uchinchi ming yillikning boshidan e'tiboran nutqimizda ko'proq qo'llanila boshlandi. Ayni vaqtda "qiyofa", "obraz" tushunchalari nafaqat ko'zga ko'rinadigan tashqi jihatlarni, balki fikrlash, xatti-harakat va so'zlash yo'sinini ham anglatadi. O'qituvchining imijiga muloqot malakasi, so'zlash, ayniqsa, tinglay bilish san'ati ham kiradi. Suhbatdoshga ma'qul keladigan ohang topa bilish, harakatlardagi

¹¹⁷ Amonashvili Sh.A. Olti yoshdan bolalar: "Pedagogik izlanish" to'plami. – T.: "Fan", 1990. 603-bet.

nazokat ko'p jihatdan o'qituvchining o'quvchilar va kasbdoshlari tasavvuridagi qiyofasi shakllanishiga xizmat qiladi. Pedagogning tashqi ko'rinishi uning bilimi, odobi, ishchanligining davomi sifatida fazilatlarining yoxud bularning aksi bo'lmish nuqsonlarining davomi hisoblanadi. Imij atrofdagilar bilan munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan o'ziga xos bir quroldir.

Imijni odamning boshqalar nazarida shakllangan obrazi, deyish mumkin. Imij kishining o'zi haqidagi so'zsiz hikoyasi. U odamning qanday ijtimoiy qatlamga mansub, qanday kasbga ega, minazi, didi, moliyaviy imkoniyatlari qandayligini ko'rsatuvchi ko'zgu hamdir. Imij o'sib borish xususiyatiga ega. Zotan, u odamning o'z ustida tinimsiz ishlashi mahsulidir. Imijning shakllanishiga shaxsning tabiiy sifatleri, ko'rgan tarbiyasi, hayotiy va kasbiy tajriba hamda bilim darajasi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yoqimli imijning asosini shaxsning jozibasi tashkil etadi. Odamning jozibasi uning kirishimliliigi, o'z tutumlariga xolis baho berishi, so'zga chechanligi, shuningdek, tashqi ko'rkamligi, notanish sharoitga tez moslasha olishi, o'ziga ishonchi singari unsurlardan tashkil topadi.

Imij kim tomonidan shakllantiriladi?

Birinchidan, har bir odamning o'zi o'z imijini yaratadi. Odamlarga qaysi jihatlari bilan ko'rinishni, asosan, har bir odamning o'zi hal qiladi.

Ikkinchidan, siyosatchilar, davlat arboblari, san'atkorlarning imijini yaratuvchi professional imijmeykerlar.

Uchinchidan, imij qaror topishida gazeta, jurnal, radio, televideniye singari ommaviy axborot vositalari ham katta o'rin tutadi.

To'rtinchidan, shaxsning atrofini o'rab turgan do'stlar, yaqinlar, kasbdoshlardan iborat odamlar biror kishining imiji shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogning imiji bu pedagogning o'quvchilari, kasbdoshlari va atrofidagilar tasavvurida shakllangan hissiy obrazidir. Pedagogning faoliyati turli-tuman odamlar bilan yaqin aloqada bo'lishni taqozo etgani uchun ham uning tashqi ko'rinishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Tashqi ko'rinish kiyim, soch turmagi, yuz pardozi sin-

gari turli unsurlardan tarkib topadi. Pedagogning tashqi qiyofasi boshqalarda yoqimli taassurot qoldirib, ularda ishonch uyg'otishi kerak. O'qituvchining qimmatbaho kiyim kiyishi shart emas, balki uning ota-ona va kasbdoshlarda xayrixohlik, o'quvchilarda esa hurmat va ishchanlik uyg'otadigan tashqi ko'rinishga ega bo'lishi muhimdir. O'qituvchining tashqi ko'rinishi o'quvchilarni chalg'itadigan, ota-onalarning ensasini qotiradigan bo'lmasligi kerak. Zamonaviy pedagog uchun o'zining ijobiy imijini shakllantirish juda muhimdir. Bir paytlar o'qituvchining bilimdonligi va sinfni boshqara olishi uning obro'li sanalishi uchun yetarli hisoblanardi. Bugun esa o'qituvchining bu sifatlar ustiga yoqimli imijga ega bo'lishi ham talab etilmoqda.

Imij odamlar bilan bevosita muloqot va munosabat jarayonida, atrofdagilarning u haqdagi qarashlari asosida shakllantiriladi. Imij quyidagi unsurlardan tarkib topishini qayd etish lozim bo'ladi:

1. Tashqi qiyofa (kiyinish yo'sini).
2. Muloqot-munosabat yo'sini (vaziyatni to'g'ri hisobga olib, bilish, suhbatdoshga ruhiy ta'sir ko'rsata olish va bq.).
3. Ishchanlik.

Imij boshqa har qanday kasb egasidan ko'ra pedagog uchun muhimdir. Negaki aynan u o'quvchilarda axloqiy va badiiy-estetik qadriyatlar shakllanishiga hammadan ko'p ta'sir ko'rsatadi. Imij ikki xil ta'sir ko'rsata oladi. Birinchidan, u odam haqida muayyan tasavvur uyg'otib, atrofdagilarga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, u odamning o'zi haqida qat'iy fikr hosil qilish orqali uning o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning imiji uning tovushi, xatti-harakatlari, qiliqlari, imo-ishoralari orqali o'quvchilarga ham ta'sir ko'rsatish qurolidir. O'qituvchi bu qurollaridan o'rinli foydalana bilishi lozim.

Pedagog imijining asosiy tarkibiy unsurlari quyidagilar:

– tashqi joziba (sog'lomligi, o'ziga ishonchi, ko'rkam ko'rinishi, boshqalarga o'xshamaydigan jihatlar, kiyinish yo'sini, rang tanlay bilishi, soch va holati);

– professionalligi (bilimdonligi, ishchanligi, munosabatga kirishish yo‘sini);

– nutqiy (verbal) o‘ziga xosliklari (so‘zga boyligi, notiqlik, muloqotga kirisha bilishi, o‘zini tutishi);

– noverbal o‘ziga xosliklari: imo-ishorasi, turish-turmishi, qi-liqlari;

– ko‘rinishining ko‘rkamligi: qaddi-qomati, tutumlar nazokati;

– hayot tarzi: yashash yo‘sini, umr yo‘li, oilaviy munosabatlari, faoliyatining natijalari, shakllantirgan muhiti.

O‘zining ijobiy imijini shakllantirish pedagog kompetentligining ko‘rinishlaridan biridir. Pedagog kelgusi urpoqlarning madaniyatini yaratgani uchun ham u shaxs sifatida qiziq va e‘tibor tortadigan shaxs bo‘lishi kerak. Pedagog obrazi o‘quvchilarni ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur. U dars o‘tmayotgan, hatto, gapirmayotgan vaqtda ham o‘z tutumlari, xatti-harakatlari bilan o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatayotgan, ularni tarbiyalayotgan bo‘ladi. O‘qituvchi qanday mutaxassis bo‘lishidan qat’i nazar u o‘zining shaxslik va pedagogik sifatlarini tinimsiz takomillashtirish orqali o‘z imiji, ya’ni “men”ini yaratib borishi kerak. To‘g‘ri shakllantirilgan imij sabab juda ko‘p kasbiy va ijtimoiy-maishiy muammolar yengil hal bo‘ladi.

Kimlargadir ta’lim berish va tarbiyalash uchun kishi muntazam ravishda takomillashib bormog‘i kerak. Ta’lim qachondir texnologiyalashib, qaysidir fan o‘qituvchilarining qanday shaxs ekanligi ahamiyatsiz bo‘lib qolar. Lekin hech qachon, hech qanday yangicha usul adabiyot o‘qituvchisi shaxsining o‘rnini bosa olmaydi. Chunki usulning o‘zi yurak, tuyg‘u va sezimlarga ta’sir ko‘rsata olmagan sababli o‘quvchilarda ezgu shaxslik sifatlarini shakllantira bilmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o‘qituvchisiga qanday kasbiy talablar qo‘yiladi va nima uchun?

2. Adabiyot o'qituvchisining ijodkorlik va ijrochilik funksiyalariga to'xtaling.

3. Adabiyot o'qituvchisi oldiga qo'yiladigan ma'naviy talablarni sharhlang.

4. O'qituvchining imiji masalasini izohlang.

5. O'quvchi shaxsining shakllanishida adabiyot o'qituvchisining tashqi jihatlarning ahamiyatiga to'xtaling.

GLOSSARIY

ADAB (arabcha – odob; yaxshi tarbiya, ma'qul harakat) – shaxsning tarbiyalanganlik darajasi, axloqiy qiyofasi, ma'naviy barkamolligining asosiy sharti va mezonini anglatadigan tushuncha. Inson o'z A.i orqali el-yurt o'rtasida obro'-e'tibor, izzat-hurmat topadi. A. ajdodlarimiz tajribasida azal-azaldan muhim o'rin egallab kelganligi uchun ham shaxslararo munosabatlarning barcha shakl va ko'rinishlariga shu nuqtai nazardan yondashiladi.

ADABIYOT – 1. Odob so'zining ko'pligi. 2. Nazm va nasrda go'zal ifodalash san'ati muayyan ijtimoiy-estetik qimmatga ega bo'lgan og'zaki va yozma asar. A. atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. *Keng* ma'noda turli-tuman yo'nalishda yaratilgan bitiklar (*siyosiy A., ilmiy A., texnik A., falsafiy A., badiiy A., o'quv A.i* va boshqalar)ni anglatadi. *Tor* ma'noda so'z san'ati (badiiy A. deb ham yuritiladi)ni bildiradi. A. atamasi ko'proq tor ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'nodagi A. borliq, xayolot yoki ruhiyat manzaralarini so'z orqali obrazlar yordamida tasvirlashni ko'zda tutadi.

ADABIY TURLAR – Adabiyotning a) epos; b) lirika; v) drama singari turlari bor. *Eposda* muallifning diqqatini tortgan voqelik aks ettiriladi. *Lirikada* voqelik tufayli muallifda paydo bo'lgan his-tuyg'ular ifoda etiladi. *Dramada* esa voqelikdagi muayyan hodisada qatnashgan odamlarning xatti-harakat va his-tuyg'ulari muallif ishtirokisiz tasvirlanadi. Bu 3 turning har biri janriy bo'linishlarga ega. Masalan, epos kichik (latifa, ertak, hikoya), o'rta (qissa) va katta (roman, epopeya) epik janrlarga bo'linadi. Bu janrlar ham o'z navbatida *fantastik ertak, hajviy hikoya, tarixiy qissa, falsafiy roman* tarzida ichki bo'linishlarga ega. Lirika-

ning ham *g'azal*, *to'rtlik*, *terma*, *muxammas*, *ruboiy* singari janrlari bor. Dramatik asarlarning ham *drama*, *komediya*, *tragediya* (fojia) kabi ko'rinishlari mavjud.

ADABIYOT BO'YICHA TA'LIM DAVLAT STANDARTI (TDS) – ta'lim-tarbiya muassasalarining muayyan bosqichida ta'lim oluvchilar adabiyot bo'yicha o'zlashtirishlari kerak bo'ladigan bilimlar mazmunining ruxsat etilgan maksimal va shu bosqich bitiruvchilari egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka hamda ma'naviy sifatlarning majburiy minimal miqdori aks etgan rasmiy-pedagogik hujjat. A.b.d.t.s. a) adabiy ta'limni ijtimoiy muvofiqlashtirish; b) adabiy ta'limni gumanizatsiyalash; v) adabiy ta'limni boshqarish; g) adabiy ta'lim saviyasini oshirish; d) adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlash; e) adabiy ta'lim holatini nazorat qilish kabi bir qator funksiyalarga ega. Ta'lim muassasasining mulkiy mansubligi qandayligidan qat'i nazar unda o'qitiladigan adabiyot o'quv fani A.b.d.t.s. talablariga javob berishi shartdir.

ADABIYOT TO'GARAGI – maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida yoshlarning badiiy-estetik didini shakllantirish, ularning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini qondirish, ularda badiiy ijodga doir qo'shimcha tasavvurlar uyg'otish maqsadida ixtiyoriy asoslarda tashkil etilgan ta'limiy tuzilma. A.t.da ko'pi bilan umumiy qiziqish atrofiga birlashgan 12-15 odam ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirda A.t.ning 1) adabiy-ijodiy; 2) drama; 3) ifodali o'qish; 4) adabiy o'lkashunoslik singari turlari bir qadar keng tarqalgan.

ADABIY-IJODIY TO'GARAK – asosan, biror adabiy janrda ijod qiladigan yoshlardan tashkil topadi. Bu to'garak mashg'ulotlarida qatnashchilar A.t. boshlig'i rahbarligida o'z ijod namunalari muhokama qilishadi.

DRAMA TO'GARAKLARI – ta'lim muassasalarida o'zganing holatiga kirish, sahnada o'ynay olish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlar jalb etiladigan to'garak. Bu to'garakda qisman sahna nazariyasi, teatr tarixi o'rganilishidan tashqari, albatta, bi-rorta asarni sahnalashtirish ko'zda tutilishi kerak.

IFODALI O'QISH VA BADIY HIKOYALASH TO'GARAGI – bu to'garakka adabiy asarni ifodali o'qish yoki biror badiiy matnni ta'sirli aytib berishga qiziqadigan yoshlar jalb etilib, bu borada mahorat shakllantirish bilan shug'ullanadilar.

ADABIY O'LKASHUNOSLIK TO'GARAGI – bu to'garak faoliyati o'quvchi va talaba yoshlarning o'zlari yashab turgan arealdagi badiiy so'z namunalarini yig'ish, tasniflash va tekshirishga qaratiladi.

ADABIYOT O'QITISH METODIKASI – xususiy pedagogikaning bir turi. A.o'.m. ta'lim tizimining turli bosqichlarida "Adabiyot" o'quv predmetini o'qitishning maqsadi, vazifalari, mazmuni va usullarini belgilab beradigan, oz intellektual-ruhiy kuch hamda pedagogik resurs sarflagan holda, kattaroq o'quv natijalarga erishish yo'llarini tadqiq etadigan fandır. A.o'.m. adabiyot predmetini o'qitish tamoyil va metodlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalari va ulardan tashqarida badiiy asar o'qish hamda tahlil etish, turli adabiy tadbirlarni o'tkazish usullarini ishlab chiqish, yoshlarni badiiy asar o'qiydigan, uni tushunadigan va tahlil qila biladigan qilib tarbiyalash bilan shug'ullanadi.

ADABIYOT O'QITISHNING ASOSLARI – adabiyot o'quv fani yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga qaratilgani uchun ham uni o'qitishda samaradorlikka erishish jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta'limning samaradorligi, birinchi navbatda, A.o'.a.ni to'g'ri belgilashga bog'liq. A.o'.a. adabiyot o'qitishning *maqsadi, vazifalari va mazmuni* tushunchalarini o'z ichiga oladi.

ADABIYOT O'QITISHNING MAQSADI – a) *bosh maqsad*; b) *umumiy maqsad*; v) *xususiy maqsad* singari uch xil bo'ladi. **Bosh maqsad** jamiyat tomonidan rasmiy pedagogik hujjatlarda belgilab qo'yiladi hamda adabiyot o'qitishga doir barcha pedagogik vosita va tadbirlar ana shu maqsadga yetishga qaratiladi. A.o'.u.m.dan kelib chiqqan holda, har bir darsda o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilar oldiga **umumiy** maqsad qo'yiladi. A.o'.u.m. ta'lim oluvchilarning barchasiga qaratilgan bo'lib, a) *tarbiyaviy*; b) *ta'limiy*; v) *rivojlantirish* kabi uch yo'nalish-

dan iborat bo'ladi. Ma'lumki, har bir o'quvchi yoki talaba o'quv muassasasiga o'zigagina ma'lum bo'lgan *xususiy* maqsadi bilan keladi. Adabiyot o'qituvchisi individual maqsadlari turli-tuman bo'lgan yoshlarni bitta umumiy maqsadga yo'naltira bilishi kerak bo'ladi.

ADABIYOT O'QITISHNING VAZIFALARI – uzluksiz ta'lim tizimida adabiyot o'qitishning vazifalari yoshlarda: *“...badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni ko'rkam asarlarni o'qiydigan, o'qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, badiiy matn to'g'risidagi fikrlarini og'zaki yoki yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib shakllantirishdan iboratdir”* deb belgilangan.

ADABIYOT O'QITISHNING MAZMUNI – *O'zbek va jahon adabiyotining o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga xizmat qiladigan badiiy yuksak namunalari hamda ularda o'qilgan asarlarni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi nazariy ma'lumotlar adabiyot predmetining mazmunini tashkil etadi.* Adabiyot o'qitishning mazmuni *dastur, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, ko'rsatmali qurollar, yordamchi vositalarni* o'z ichiga oladi.

ADABIY BAHS – sinfdan tashqari ishlarning biror badiiy asar bilan tanishish tufayli yoshlarda paydo bo'lgan turlicha qarashlar yuzasidan fikrlashib olishiga qaratilgan turi. Unda hozirgi adabiy jarayonda ko'pchilikning e'tiboriga tushgan bir asar yuzasidan turlicha qarashlar o'rta tashlanishi ko'zda tutiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda mustahkam estetik did va adabiy bahs yuritish madaniyati shakllanadi.

ADABIY KECHA – biror adibning tug'ilgan kuni yoxud ixtiyoriy bir mavzu bo'yicha uyushtiriladigan adabiy-badiiy tadbir. A.k.da yoshlardan iborat tashkiliy qo'mita maxsus reja tuzadi, ma'ruzachilar tayin etadi. A.k. she'r aytish, qo'shiq kuylash, raqsga tushish singari ko'ngilochar ish turlari bilan birga olib borilishi ko'zda tutiladi.

ADABIY KONFERENSIYA – bir yozuvchining bir yoki bir necha asarlari yuzasidan alohida tayyorgarlik bilan o‘tkaziladigan adabiy-ilmiy tadbir. A.k.da mavzu bo‘yicha bir o‘qituvchi va bir necha o‘quvchi tomonidan ma’ruza qilinadi. Sinfdan tashqari ishning bu turi uchun katta badiiy salmoqqa ega asarlar tanlanishi kerak.

ADABIY KO‘RGAZMA – adabiyot bo‘yicha sinfdan tashqarida o‘tkaziladigan tadbirlarning bu turi ko‘pincha boshqa tadbirlarning ichiga singdirib yuborilgan bo‘ladi. A.k.ni alohida bir adabiy tadbir sifatida ham uyushtirish mumkin. Bunda biror ijodkorning hayoti va ijodiga daxldor materiallardan maxsus joyga ko‘rgazma qilinadi.

ADABIY UCHRASHUV – qiziquvchilarning biror ijodkor bilan bevosita jonli uchrashuvini uyushtirish ko‘zda tutiladigan tadbir. A.u.ga maxsus hozirlik ko‘rilishi, yozuvchi yoki shoir uchrashuvga taklif qilinibgina qolmay, uning asarlari bilan yaqindan tanishilishi lozim.

ADABIY O‘QISH – uzluksiz ta’lim tizimining muayyan bosqichida “Adabiyot” o‘quv fanini o‘rgatish shakli. Ma’lumki, “Adabiyot” predmeti uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida turlicha o‘qitiladi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining boshlang‘ich va tayanch maktablarida adabiyot adabiy o‘qish shaklida tashkil etiladi. Bu bosqichda “Adabiyot” o‘quv faniga tizimli kurs tarzida yondashilmay, unga o‘quvchilarni badiiy asar o‘qish, o‘qiganini tushunish va tahlil qilib, zavqlanishga o‘rgatish vositasi sifatida qaraladi.

ADABIY QUROQ, a d a b i y m o n t a j – turli bayramlar munosabati bilan uyushtiriladigan sinfdan tashqari tadbir. A.q. biror mavzuga bag‘ishlangan turli asarlarni yoddan aytish yoki biror mavzuga tegishli har xil asarlardan quroq tarzida gazeta chiqarish shaklida bajariladi. Bayramlarga bag‘ishlangan adabiy kompozitsiya yoki gazeta va fotomontajlar A.q. namunalaridandir.

AKSIOLOGIYA (lotincha *axios* – qimmatli, qadrlı va yunoncha *logos* – tushuncha, ta’limot, fikr, qarash, munosabat so‘zlari qo‘shilishidan) – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot. 19-asrning

oxiri va 20-asrning boshlarida paydo bo'lgan. Ushbu atama XIX asrning ikkinchi yarmida olmon qadriyatshunosi E. Hartman va fransuz olimi P. Lapi tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. A. ijtimoiy, axloqiy, badiiy va boshqa qadriyatlarining xususiyatlari, insonning ezgulik va yovuzlik borasidagi tushunchalari tayanadigan falsafiy-nazariy hamda maishiy-amaliy tutumlar borasidagi qarashlar tizimi.

AN'ANAVIY DARSLAR – darsni bir maromda o'tish jarayoni; har doim davom etadigan aynan o'xshash o'quv holatlari. An'anaviy o'qitish yo'sini, avtoritar texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni o'quvchilarning ichki dunyosi bilan chuqur bog'lanmagan. A.d.da o'quvchilarning individual layoqatlarini namoyon qilish imkoniyati kam bo'ladi.

AN'ANAVIY TA'LIM – muayyan muddatga mo'ljallangan, ko'proq o'qituvchi shaxsiga e'tibor qaratiladigan, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib, ta'lim-tarbiya maqsadiga erishiladigan ta'lim jarayoni.

ARTEFAKT (lotincha *arte* – sun'iy va *factus* – yasalgan, qilingan so'zlaridan) – ilmiy izlanish yoxud tajriba-sinov o'tkazish kechimida tasodifan yuzaga keladigan yaratilarni anglatuvchi tushuncha. A. natijalar sinovda qatnashayotgan shaxslarga ko'rsatilgan noto'g'ri ta'sir tufayli ham paydo bo'lishi mumkin.

ASAR (arabcha *iz, goldiq* so'zlaridan) – 1) biror narsaning borligi yoki bo'lganligini bildiruvchi belgi, iz; 2) Muhammad (s.a.v.)ning barcha sunnatlari; 3) ilmiy va ijodiy emgak (mehnat)ning ijtimoiy qimmatga ega mahsuli (masalan, badiiy A., pedagogik A., ilmiy A. va boshqalar).

AXBOROT (arabcha *xabarlar* so'zidan) – 1) borliqdagi narsa-hodisalarning miqdor va sifat ko'rsatkichlari, ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi saqlash, qayta ishlash va uzatish maqsadida to'plangan, amaliy faoliyatda foydalanish mumkin bo'ladigan ma'lumotlar; 2) voqelik va unda kechayotgan jarayonlar haqida odam va maxsus qurilmalar orqali olingan dalillar; 3) davlatlar o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim haqida hukumatning rasmiy xabari. Ikki davlat orasidagi muzokaralar

to'g'risidagi A. qo'shma A. deb ataladi; 4) ayrim vaqtli nashrlar nomi (masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi-ning axboroti, Respublika test markazining axboroti va boshqa).

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – axborotni to'plash, saqlash, izlash va unga ishlov berish hamda uni tarqatish uchun foydalaniladigan usullar va jarayonlar majmui. A.t. dasturiy, texnik, huquqiy, axborot, tashkiliy, matematik va lingvistik ta'minotlar singari tarkibiy qismlardan iborat.

AXLOQ (arabcha *xulq* so'zining ko'pligi) – odamlarning jamiyatga va atrofidagi boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlari tabiatini belgilab beradigan ma'naviy norma va tamoyillar yig'indisi. A. odam individual mikrokosmosining asosiy qismi, u shaxs uchun olam manzarasi ko'rinishini belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Qonundan farqli o'laroq A.da insonning ichki olami namoyon bo'ladi.

AXLOQIY MADANIYAT – jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi va axloqiy an'analarga munosabatning muayyan darajasi. A.m. har bir shaxsning axloqqa doir qadriyatlarni bilish, ularni tanlash va muayyan hayotiy vaziyatda amal qilish singari omillarda namoyon bo'ladi. A.m. uyat, nomus, vijdon, ezgulik, muhabbat, do'stlik, sadoqat singari axloqiy sifatlarni o'zida mujasamlashtiradi.

AXLOQIY TARBIYA – inson tarbiyasining kundalik axloqiy munosabatlar mobaynida amalga oshiriladigan turi. A.t. shaxsda axloqiy ongga tayangan holda fikrlash, o'zi tanlagan axloqiy tutum uchun javobgarlik tuyg'usiga egalik singari jihatlarda namoyon bo'ladi. Inson muayyan jamiyatda, boshqa odamlar bilan yashar ekan, ularga zarar keltirmasligi, imkoni bo'lsa yordam berishi lozim. Shu bois A.t. odam tug'ilgani hamon berila boshlanadi. A.t.ning *tashqi* o'lchami jamiyat a'zolarining fikrlari bilan hisoblashishdan, *ichki* mezoni *vijdonga muvofiq yo'l tutishdan* iborat.

AXLOQIY TUSHUNCHALAR – axloqiy munosabatlarda aks etib, kategoriya sifatida qabul qilinadigan birliklar. A.t.ga *ezgulik, burch, vijdon, saxiylik, hurmat, halollik, poklik, rostgo'ylik* kabilar kiradi.

A'LO (arabcha *oliy*, *eng yuqori* soʻzlaridan) – 1) yuksak sifat va fazilatga egalik, asllikni anglatuvchi soʻz; 2) *madrasa* taʼlimining ikki yillik eng yuqori bosqichi; 3) madrasa talabalarining yuqori, bitiruvchi guruhi; 4) zamonaviy pedagogik amaliyotda taʼlim bosqichlari oʻquvchi va talabalarini anʼanaviy baholashning eng yuqori (“5” baho) koʻrsatkichi.

AQL – shaxsning borliqni idrok etish, bilish, tushunish, izohlash va unga munosabat bildirish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan mantiqiy-psixologik hosila. A. voqelikdagi narsa-hodisalar va ular oʻrtasidagi aloqa-munosabatlarga oid qonuniyatlarni anglash orqali borliqqa taʼsir koʻrsatish imkonini beradi. A. *aniqlik*, *tanqidiylik*, *tezlik*, *teranlik*, *uygʻunlik* kabi sifatlarga ega boʻladi. A. ikki xil boʻladi, biri – tugʻma A., ikkinchisi orttirma, yaʼni bilim va tajriba asosida rivojlanib boruvchi A.

AQLIY TARBIYA – shaxsning intellektual taraqqiyotini tezlatish, uning borliqni idrok etish, bilish, bildirish va unga taʼsir koʻrsatish borasidagi imkoniyatlarini oshirish, odamni turmushga tayyorlashga qaratilgan pedagogik jarayon. A.t. shaxsda bilim, koʻnikma, malaka, dunyoqarash, tafakkur taraqqiyoti va aqliy faoliyat madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

BADIIY TARBIYA – yoshlarda sanʼat hodisalarini qabul qilish, tuyish, taʼsirlanish, sevish, lazzatlanish, toʻgʻri baholash hamda sanʼatga nisbatan qiziqish, uni oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan amaliy-pedagogik kechim. B.t. jarayonida oʻquvchilarda sanʼat vositasida olamni idrok etish koʻnikmalari shakllantiriladi.

BADIIY TAʼLIM – shaxsda sanʼatshunoslikka tegishli bilim, koʻnikma va malakalar yigʻindisini shakllantirishga qaratilgan pedagogik kechim.

BADIIY OʻQISH – biror badiiy matni maromiga yetkazib ijro qilish orqali boshqalarga asar matni mohiyatini taʼsirchan qilib yetkazib berishga qaratilgan didaktik kechim. B.oʻ. qadimgi oʻzbek taʼlim tizimidagi asosiy ish turlaridan biri boʻlgan.

BADIIY QADRIYATLAR – badiiy asar yaratishda oʻrnak, moʻljal boʻladigan maʼnaviy-estetik ideallar yigʻindisi. B.q. jami-

yat tayanadigan estetik qarashlar, badiiy did, e'tiqod o'zgarishiga muvofiq tarzda o'zgarib turadi. B.q. muayyan davrda muayyan jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgan ijodkorlar intiladigan, o'z badiiy yaratishlarida aks ettiradigan qadriyatlar tizimidan iboratdir.

BAYON (arabcha *ochish, yoritish* ma'nosidagi so'z) – o'qituvchi tomonidan o'qib yoxud aytib berilgan matnni rejali yo'sinda qayta hikoyalash shaklida matn yaratilishi ko'zda tutiladigan didaktik ish turi. B. – o'quvchilarda xotira, tafakkur, savodxonlik va bog'lanishli mantiqiy nutq shakllantirishning samarali vositalaridan biri. O'qitish amaliyotida B.ning *yoyiq* va *yig'iq* singari ikki turi farqlanadi.

BALOG'AT YOSHI – odamning shaxs sifatida yetilgani va moddiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy jihatlardan jamiyatning o'zidan boshqa a'zolari bilan yashay olish qobiliyatiga ega bo'lganligini anglatuvchi yosh darajasi. B.y. turli mamlakatlar, turli ijtimoiy institutlar hamda turli dinlarda turlicha belgilanadi. B.y. tushunchasiga *jismoniy-biologik, ijtimoiy-huquqiy* va *diniy-shar'iy* kabi 3 xil yondashuv borligi kuzatiladi.

BARKAMOLLIK – balog'atga yetganlik, jismoniy va aqliy jihatdan kamol topganlik, yetuklik ifodasi. B. insonning aqliy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, o'zi tanlagan kasb-hunarning ustasi bo'lishi, shaxs sifatida shakllanib, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g'oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishini ham anglatadi.

BAG'RIKENGLIK, t o l e r a n t l i k – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, kengfe'lli bo'lish fazilati. B. o'zgalarning dunyoqarashi, e'tiqodi, milliy va etnik mansubligi, xususiyatlari, an'ana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko'yda bunga rioya etishni anglatadi. B. ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat bo'lishi mumkin.

BAHO (forscha *baho* – narx, qiymat) – o'quvchi yoki talabaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifa-

ti darajalarini belgilashning shartli ifodasi. B. – ta’lim oluvchilar bilim, ko’nikma va malakalarini miqdoriy baholashda ball yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanadigan hodisa. B. ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, xulqiga bo’lgan munosabat, ularning ahamiyati, muayyan axloq me’yorlari va tamoyillariga mosligini belgilovchi daraja ma’nosini ham anglatadi. Muayyan fan bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni o’lchash uchun tuzilgan savol va testlar, topshiriqlar, loyihalar B.ning vosita va mezonlaridir. B. o’quvchi hamda talabalarning bilish faoliyatlari natijalarini ifodalaydi.

BAHS-MUNOZARA METODI – interfaol tafakkur metodi. Umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quv jarayonida tashkil etiladigan bahs-munozara jarayoni muayyan muammolar, masalalar, dalillarni o’zaro qiyoslash, ularni jamoa bo’lib muhokama qilish usuli hisoblanadi. B.m.m.dan *o’rgatish, treninglarni tashkil etish, tashxislash, teskari aloqani amalga oshirish, ko’rsatmalarni o’zgartirish, ijodiy faoliyatni rag’batlantirish* maqsadlarida foydalaniladi. O’quv jarayonida B.m.m o’quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonlarini tashkil etish uchun qulay hisoblanadi.

BILIM – inson tomonidan borliqning turli holat va hodisalari haqidagi ma’lumot, qarash va to’xtamlar yig’indisi. B. bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi, kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma’lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Pedagogik nuqtai nazardan B. o’quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan axborotlar, tushunchalar, ularga taqdim etiladigan nazariy ma’lumotdan iborat bo’lgan birlik hisoblanadi.

BILISH NAZARIYASI, g n o s e o l o g i y a – borliqni bilish, inson bilimlarining kelib chiqishi va metodlari haqidagi falsafiy ta’limot. Bilishning maqsadi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar mohiyatini anglab yetish va ularni inson manfaatlari yo’lida xizmat qildirishdan iborat. Bilish jarayoni jonli mushohada (hissiy bilish)dan abstrakt tafakkur (ratsional bilish)ga, undan esa amaliyotga o’tish bilan xarakterlanadi.

BOSHLANG'ICH MAKTAB – ta'lim oluvchilarga boshlang'ich ma'lumot beradigan umumiy ta'lim-tarbiya muassasasi. Uning vazifasi ta'lim oluvchilarda yozish, o'qish, hisoblash ko'nikma va malakalarni hosil qilish, tabiat va jamiyat haqida ilk bilimlar berish, xulq-odobga o'rgatishdan iborat bo'lgan. Respublikamizda B.m. 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi. 2000/2001 o'quv yilida O'zbekistonda 207 ta B.m. bo'lib, ularda 30684 o'quvchi ta'lim olgan.

BOSHLANG'ICH TA'LIM – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida B.t. 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. B.t.da o'quvchilarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlang'ich davri hisoblanib, 6-7 yoshdan boshlanadi. B.t. jarayonida ona tili, o'qish, matematika, atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, tarbiya, musiqa va tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, chet tillari o'quv predmetlari bo'yicha o'quvchilarga bilim beriladi.

VAZIFA (arabcha – *maosh, oylik, nafaqa; vazifa, topshiriq*) – madrasa talabalariga har oyda vaqf mulkidan berib turiladigan maosh, oylik, hozirgi atamada “stipendiya”. Maosh, oylik yoki V. pul va natura – oziq-ovqat, kiyim-kechak shaklida bo'lgan. Har bir talabaga adno (quyi), avsat (o'rta) va a'lo (yuqori) guruhlariga mansubligiga qarab V. belgilangan.

UY VAZIFASI – topshiriq, o'qituvchi tomonidan tashkil etiluvchi o'quv jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, o'tilgan darsni mustahkamlash, o'quvchilar darsda olgan bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. U.v. o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, ularning qiziqish doirasini kengaytiradi, iroda va mas'uliyat hissini takomillashtiradi.

Barcha o'quv fanlari bo'yicha beriladigan U.v.larining umumiy miqdori quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir: 1 – 2-sinflarda 40 – 45 daqiqa; 3 – 4-sinflarda 60 – 70 daqiqa; 5-sinfda 90 – 100 daqiqa; 6 – 7-sinflarda 110 – 120 daqiqa; 8 – 9-sinflarda 125 – 130 daqiqa. Har 40 – 45 daqiqadan keyin 10 daqiqali tanaffus qilish yaxshi natija beradi.

GEDONIZM (yunoncha *hedone* – rohat, huzur, lazzat) – huzur-halovat, lazzatga intilishni inson umrining oliy maqsadi deb hisoblovchi axloqiy ta’limot. Unga ko‘ra huzur-halovotga intilish insonga tabiatan xos, uning butun xatti-harakati, maqsadi shunga qaratilgan. G. ta’limotining asoschisi Suqrotning zamon-doshi Aristippdir (miloddan avvalgi 435-355-yillar).

DAVLAT TA’LIM STANDARTI – 1) ta’lim olish shaklidan qat’i nazar, bitiruvchilar erishishlari zarur bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o‘quv fani bo‘yicha ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quv ishlarining maksimal hajmi hamda bitiruvchilar tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablar.

DARS – maktabda o‘quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. D. bir xil guruh yoki sinfdagi o‘quvchilar bilan qat’iy jadval asosida o‘tkaziladigan didaktik mashg‘ulot. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida sinf-dars tizimi maktab yoshidagi bolalarga ommaviy ta’lim berishga, o‘quvchilarni jamoaviy va ijtimoiy faollik, milliy g‘oyaga uyg‘un, vatansevarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

D.lar maqsadiga ko‘ra 1) *yangi bilimlarni o‘zlashtirish*; 2) *o‘tilgan mavzuni mustahkamlash*; 3) *o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini tekshirish*; 4) bir necha dars turlarining qo‘llanilishidan yuzaga kelgan *aralash* singari turlardan iborat.

DARSLIK – biror fan tamoyillari, asoslarini tizimli va uzluksiz bayon etadigan, o‘quvchi va talabalarga mo‘ljallangan ilmiy kitob. Turli o‘quv (maktab, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, kollej, litsey va harbiy bilim yurtlari va h.k.) maskanlari uchun alohida D.lar ishlab chiqariladi. Ular davlat ta’lim standarti asosida tuziladi.

DARS JADVALI – ta’lim muassasalarida o‘quv rejasi asosida har bir predmetdan hafta davomida darslarning o‘tilish tartibini belgilovchi, barcha o‘qituvchi va o‘quvchilar amal qilishi majburiy bo‘lgan pedagogik hujjat. O‘quv-tarbiyaviy jarayon,

sinfdan va maktabdan tashqari ishlar samaradorligi ko'p jihatdan D.j.ning sifatli, puxta tuzilganligiga bog'liq.

DASTUR (forscha *dast* – qo'l so'zidan) – ko'rsatma, bajari-lishi kerak bo'lgan ish yoki faoliyat rejasi. 1) Siyosiy partiyalar, tashkilotlarning faoliyati, maqsad va vazifalarini belgilab beruvchi qo'llanma; 2) o'qitiladigan fanning qisqacha talqiniy bayoni; 3) EHM (elektron hisoblash mashinasi) bajarishi kerak bo'lgan amallarning izchil tartibi.

Biror o'quv fani bo'yicha *darslik* yozishdan oldin uning dastu-ri yaratiladi va shu dastur asosida darslik vujudga keladi. Darslar- ni izchil tartibda olib borish uchun dastur asosida yarim yillik va yillik o'quv rejasi tuziladi. O'quv D.lari davlat ta'lim standarti- ga asosan tuziladigan davlat hujjati bo'lib, unda bir o'quv fani bo'yicha o'qitiladigan bilim hajmi va ta'lim mazmuni aks etadi.

DASTURLASHTIRILGAN TA'LIM – o'quvchi va o'qituv- chilar (yoki o'qituvchi o'rnini egallagan mashina) faoliyatini ko'zda tutgan, oldindan ishlab chiqilgan elektron dastur asosidagi ta'lim. D.t. g'oyasi 20-asrning 50-yillarida amerikalik psixolog B. Skinner tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bunda eksperimental psixologiya va texnika yangiliklaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish nazarda tutilgan. D.t. o'quv jarayonini al- goritmlashtirish bilan bog'liq.

DIDAKTIKA (yunoncha *didaktikos* – o'rgatuvchi, *didasko* – o'rganuvchi) – pedagogikaning ta'lim nazariyasi tarmog'i bilan shug'ullanuvchi ajralmas qismi. U ta'lim jarayoni va mohiyati, qonuniyatlari, o'qitishning metod va vositalari, bu jarayonni tako- millashtirish kabi kompleks masalalar bilan shug'ullanadi. D.ning predmeti ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir. Ilmiy D.ning asoschisi chex pedagoni Yan Amos Komenskiy hisoblanadi. U o'zining "Buyuk didaktika" asarida D.ning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdi va ta'limning sinf-dars tizimiga asos sol- di. D.da ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish- dan kuzatiladigan maqsad, o'qitish qonuniyatlari, tizimi, usullari, ularning tashkiliy shakllari yoritiladi. D.ning asosiy tushuncha- lariga ta'lim, ta'lim jarayoni, tamoyillari, monitoringi, metodlari,

shakllari, tamoyillari, vositalari, bilim, ko'nikma, malaka kabilat kiradi.

DIDAKTIK ADABIYOT (yunoncha *didactisos* – o'rgatuvchi, o'qituvchi) – ma'naviy, axloqiy, diniy, siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy yoki ilmiy qarashlar badiiy shaklda ibratomuz yo'sinda bayon etilgan asarlar yig'indisi. D.a.da kitobxonni to'g'ri yo'lga boshlash, uning hayotda o'z o'rmini topib olishiga yordam berish maqsadi ko'zda tutiladi.

DIDAKTIK TAMOYILLAR – ta'limni tashkil etish hamda muayyan usullarda amalga oshirishda tayaniladigan pedagogik qonun-qoidalar. D.t. ta'limning *ilmiyligi; tarbiyaviyligi; tushunarlilikligi; tizimlilikligi; individualligi; izchilligi; ta'lim oluvchilarining yosh va ruhiy xususiyatlariga mosligi; nazariyaning amaliyotdan ajralmasligi* va bq.lardan iborat.

DIDAKTIK O'YINLAR – maxsus ishlab chiqilgan yoki moslashtirilgan o'yinlar. D.o'. maktabgacha tarbiya tizimida birinchi marta F. Frebel va M. Montessori tomonidan ishlab chiqilgan. Hozir D.o'. nafaqat maktabgacha tarbiya muassasalarida, balki umumta'lim maktablarida ham keng qo'llaniladi.

DIKTANT (lotincha *dicto* – aytib turib yozdiraman) – o'quvchilarni orfografiya va tinish begilarini qo'llash qoidalariga o'rgatishda hamda bu qoidalar bo'yicha egallagan bilimlarini tekshirib ko'rishda qo'llanadigan yozma ish turi. D. maqsadiga ko'ra ikki turga bo'linadi: *ta'limiy* va *nazorat* D.i. Ta'limiy D.ning o'zi maqsadiga ko'ra *ogohlantiriladigan, tushuntiriladigan* va *izohli* D.larga bo'linadi. *Ogohlantiriladigan* D. vaqtida matnni yozdirishdan oldin orfografiya, tinish belgilarining ishlatilish qoidalari tushuntiriladi. *Izohli* D.da murakkab qoidalar yozish jarayonida izohlab boriladi. *Tushuntiriladigan* D.da o'quvchilar uchun notanish so'zlar matnni yozib bo'lgunga qadar, orfogrammalar esa matn yozib bo'lingach tushuntiriladi.

Nazorat D. o'quvchilarning bilimini tekshirish uchun xizmat qilib, katta ta'limiy ahamiyatga ega, chunki o'quvchilar D. yozish jarayonida mavjud bilim va ko'nikmalarini namoyish etadilar.

YOZMA ISH – o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilish maqsadida qo‘llaniladigan va ularning yozma nutqini o‘stirishga xizmat qiladigan mustaqil ish turi. Y.i.larning diktant, bayon, insho, referat va bq. shakllari bor. Ijodiy Y.i.lar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, ijodkorligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

YOZMA IMTIHON – ta‘lim tizimining turli bosqichlarida turli fanlardan o‘quvchilar olgan bilimlarni yozma ravishda tekshirish yo‘li. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Y.i. birinchi marta miloddan avvalgi 220–206-yillarda Xan dinastiyasi hukmronligi davrida saroyga amaldor tanlash usuli sifatida Chinda paydo bo‘lgan. Y.i. ta‘lim tizimining biror bosqichini tugallash vaqtida o‘quvchilarning yozuv savodxonligi hamda berilgan didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda hal eta olish malakasi shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida olinadi.

YOZMA NUTQ – fikrni shartli belgilar vositasida ifodalash shakli. Og‘zaki nutqda fikr turli tovush va ohang yordamida bildirilsa, Y.n.da fonemalar ifodasi bo‘lgan maxsus belgi – harflar va his-tuyg‘u ifodasi bo‘lmish – tinish belgilari orqali moddiy-lashtiriladi. Y.n.da imlo va tinish qoidalari katta ahamiyat kasb etadi. Y.n. zamon va makon jihatidan bir-biridan uzoq kishilarning fikr almashuvlari uchun ham xizmat qiladi. Y.n. og‘zaki nutqqa nisbatan ancha keyin yozuv vujudga kelgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Kitob, gazeta va jurnallarning vujudga kelishi Y.n.ning shiddat bilan rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Y.n.ning murakkablik darajasi shundayki, olimlarning hisoblashlaricha, o‘n yashar o‘smirning Y.n. besh yashar bolaning og‘zaki nutqi darajasidan pastroq bo‘lar ekan.

YOZUV – biror tilda fikrni ifodalash maqsadida qabul qilingan maxsus belgilar yig‘indisi. Y. tushunchasi tilning tovush unsurlari (so‘z, bo‘g‘in, tovush)ni ifodalovchi belgilargina emas, balki piktografiya, ideografiya shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Bular aloqa qilish belgilari yig‘indisi sifatida Y.dan ilgarigi belgilar (xotira yozuvi, hisoblash yozuvi va boshqa)ga qarama-qarshi qo‘yilgan. Y. jamiyat, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida, uni kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo‘lgan.

Hozir yer yuzida besh Y. asosida tuzilgan tizim amalda. Ular: 1) Lotin yozuvi. 2) Arab yozuvi. 3) Kirill yozuvi. 4) Grafik-xitoy yozuvi. 5) Bo‘g‘in-hind yozuvi.

JADID MAKTABLARI – Turkistonda XX asr boshlarida yuzaga kelgan tashkiliy, boshqaruv va o‘qitish ishlarida ilg‘or g‘oyalar asosida faoliyat ko‘rsatgan maktablar. J.m. jadidchilik harakati doirasida vujudga kelgan. J.m.da ta‘lim-tarbiya ishlari yangicha ruh, g‘oya, uslub asosida tashkil etilib, ularda diniy bilimlarni, arab, fors, rus tillarini o‘rganish bilan birga tibbiyot, kimyo, nabotot, nujum, handasa singari jami 17 ilmiy bilim o‘rgatilgan. J.m. Toshkentda “Turk o‘chog‘i”, “Turon”, “Jamiyati xayriya”, Buxoroda “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) kabi ilmiy-madaniy jamiyatlar homiyligida faoliyat ko‘rsatdi.

IJOD – arabcha so‘z bo‘lib, “yaratish”, “vujudga keltirish” ma‘nolarini anglatadi. I. atamaning o‘z ma‘nosida yangilik yaratish, yangilanishni bildiradi. So‘zning bu ma‘nosida I. jonli va jon-siz hayotdagi har qanday jarayonga tatbiq etilishi mumkin. Nega-ki, hayotdagi tirik va tirik bo‘lmagan har bir narsa tinimsiz yuz berib turadigan o‘zgarishlar, yaralish va yo‘qolishlar tizimidan iboratdir. Lekin I. asosan odam faoliyatiga nisbatan qo‘llanilib, ayrim shaxslargagina xos bo‘lgan xususiyatni anglatadi. Shu ma‘noda I. insonning mavhum tafakkur, san‘at yoki amaliyot sohasidagi muayyan muammolarni o‘ziga xos yangicha yo‘sinda hal etishga yo‘naltirilgan aqliy va ruhiy holatini anglatadi (ilmiy I., she‘riy I., musiqiy I., tasviriy I., pedagogik I. va boshqa). Hozirda I. atamasi ko‘proq san‘at va aqliy mehnat tarmoqlariga nisbatan qo‘llaniladi. I. a) tasodifan va g‘ayrushuriy; b) o‘ylangan va ongli kabi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin.

INTERFAOL USULLAR (inglizcha *inter* – o‘zaro, birgalikda, *act* – harakat, faoliyat) – ta‘lim jarayoni qatnashchilari-ning birgalikdagi faoliyati natijasida o‘qish va o‘qitish kechimida bilimlarni tanlash, yo‘naltirish va o‘zlashtirish yuzaga kelishini ta‘minlashga qaratilgan usullar yig‘indisi. I.u.da o‘quvchi o‘quvchi bilan, bir o‘quvchilar guruhi boshqa guruhdagi o‘quvchilar

bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda o'qituvchi bilan o'zaro hamkorlik qilishi ko'zda tutiladi.

Hozirgi pedagogika fani va amaliyoti uchun xotira rivojiga zo'r berib, o'qituvchining aytganlarini eslab qoladigan, muayyan miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishga urinadigan o'quvchilarni tayyorlash yetarli hisoblanmaydi. Endilikda mustaqil izlanadigan, original qarorlarga keloladigan, nostandart vaziyatlarda eng maqbul yechim topoladigan o'quvchi shakllantirish talab etilmoqda. I.u.da o'qitish jarayonining asosiy og'irligi o'quvchi zimmasiga tushadi. Unda nafaqat o'qituvchi bilan o'quvchilar, balki o'quvchilar bilan o'quvchilar ham sherik sifatida birgalikda faoliyat ko'rsatishadi, har bir o'quvchining o'zigina o'qib qolmay, guruhdoshini ham o'qitishi ko'zda tutiladi.

IFODALI O'QISH – 1) biror badiiy asar yoki undan olingan parchani muallif hissiyatini ifodalaydigan darajada o'qiy olish mahorati; 2) talabalarni ifodali o'qishga o'rgatishga qaratilgan pedagogik faoliyat turi. I.o'. qadimgi Turkiston maktab-u madrasalarida juda yuksak rutbada turgan. Madrasa ta'limida o'rganilayotgan masalaning mohiyatini anglash qanchalik muhim bo'lsa, ushbu mohiyatni o'zgalarga yetkazish jarayonining ifodaviyligi, hissiyligi va ta'sirchanligini ta'minlash ham shunchalik ahamiyatli hisoblangan. Turkiston maktab va madrasalarining bitiruvchilari, odatda, mohir qiroatxonlar, qorilar, hofizlar bo'lishgan. Qur'on suralarini favqulodda chiroyli o'qiy oladigan kishilar qorilar, uni boshdan-oyoq yod bilgan va qiroatini joyiga keltirib o'qiy oladiganlarni hofizlar deyishgan. Zamonaviy ta'lim tizimida I.o'.ga bilimning tizimli yo'sinda o'rganish va o'rgatish mumkin bo'lgan mustaqil tarmog'i sifatida qarash yaqinda paydo bo'ldi.

KOGNITIV TA'LIM – psixologik tadqiqot sohalaridan hamda pedagogikaning yo'nalishlaridan biri. K.t.ning asosiy maqsadi individning intellektual qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. U o'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta'limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o'qitish tizimi.

KONSEPSIYA (lotincha *conceptio* – tushunish), yo‘riq – 1) hodisalarni tushunish va talqin qilish usuli, ularni tushuntirishdagi asosiy nuqtai nazar, bosh g‘oya, yetakchi qarash; 2) biror ilmiy, badiiy yoki boshqa turdagi asarning asosiy, yetakchi, mohiyatni anglatuvchi g‘oyasi; 3) ta‘lim tizimida biror o‘quv fanining o‘qitilishidagi asosiy yo‘nalish va tamoyillarni belgilab berishga qaratilgan yo‘riq xarakteridagi ilmiy-pedagogik hujjat.

K.ni to‘g‘ri belgilash pedagogik faoliyatda hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda har bir o‘quv fani bo‘yicha K.lar yaratildi. Bu hol ta‘limning u yoki bu yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan maqsad va vazifalari hamda ta‘limning mazmunini aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

KREATIVLIK (lotincha *creation* – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati. Shaxs xatti-harakati, faoliyatida K. mavjudligi amaldagi an‘anaviy holatlar, tajribalardan farqli o‘laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, no-standart tarzda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi.

KO‘NIKMA – odamning biror harakatni uning maqsadi va shartlariga muvofiq samarali bajara olish uquvi. K. amaliy shaklda ham, nazariy ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin. Masalan, savodli yozish K.si va xayolda so‘zlarni grammatik tahlil qila olish K.si. K. oldin muayyan bilim egallanishi va tajriba shakllantirilishini taqozo etadi. Bilimsiz K. shakllanishi mumkin emas. Bilim va K. maqsadga yo‘naltirilgan har qanday harakatning ajralmas va vazifadorlik jihatidan bir-biriga bog‘liq ikki qismidir. Malakadan farqli tarzda K.da biror harakat maxsus mashqlarsiz ham bajarilishi mumkin.

KO‘RSATMALI O‘QUV QUROLLARI – o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida foydalaniladigan didaktik vositalar. Didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri uning ko‘rsatmaliligidir. K.o‘.q. o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan mavzuni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Ta‘limning ko‘rsatmalili-

gi bilish nazariyasining tabiatidan kelib chiqadi. O'quvchi, ayniqsa, quyiroq sinflarda bilishning hissiy bosqichida bo'lib, sezgi muchalariga bevosita ta'sir etgan narsa-hodisalarni yaxshiroq idrok etgani bois darslarda ko'rsatmali quroldan foydalanish joiz.

Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili ilk bor buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika", "Rasmlarda sezimli narsalar olam" singari asarlarida ilmiy asoslab berildi. Zamonaviy pedagogika ilmi K.o'.q.larining quyidagi turlari borligini ko'rsatadi: 1) Tabiiy ko'rsatmalilik; 2) Tasviriy ko'rsatmalilik; 3) Grafik ko'rsatmalilik; 4) So'z ko'rsatmaliligi.

KO'CHIRMA, k o n s p e k t (lotincha *conspectus* – ko'rish, nazar solish; ko'rinish so'zlaridan) –nutq, ma'ruza, asar va bq. kabi biror matn mazmunining qisqacha yozma bayoni. Bunda kishi o'z ehtiyojidan kelib chiqib, matnning lozim qismini shartli qisqartmalardan foydalanib ko'chirishi ham mumkin. K. – o'quvchilar aqliy taraqqiyotini faollashtirishning samarali usullaridan biri. Maktab o'quvchilari va talabalar K. olish jarayonida o'qilgan yoki eshitilganlarning muhimlarini nomuhimidan ajratishni, eng zarur o'rinlarni anglanarli tarzda, o'zaro bog'liq yo'sinda qayd etishni o'rganishadi.

LUG'AT – 1) muayyan bir til yoki ijtimoiy guruh, yoxud sheva, yoinki ayrim yozuvchi va bq.lar tomonidan qo'llanilgan so'zlar ma'nosiga berilgan izohlar yig'indisi, leksika; 2) so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmalari, idiomalar va shu k.) alifboli, uyali yoki mavzusiga ko'ra joylashtirilib, ularning ma'nosi, kelib chiqishi, yozilishi, talaffuzi, uslubiy tegishliligi nuqtai nazaridan izohlangan kitob. Bunda so'zlar muayyan ilmiy yoxud tashkiliy tamoyil bo'yicha joylashtirilib, ularning ahamiyati, qo'llanilishi, kelib chiqishi, boshqa tilga tarjimasini va hokazo xususida (lingvistik L.) yoki ular anglatgan narsalar, tushunchalar to'g'risida, fan, madaniyat va boshqa sohalarning taniqli arboblari haqida (ensiklopedik L.) ma'lumotlar bo'ladi.

L.lar yo'nalishiga ko'ra xilma-xil bo'ladi. L.larda millatning ilmiy va intellektual salohiyat va imkoniyati namoyon bo'ladi. L.

kishiga borliqdagi narsa-hodisalar to'g'risida ma'lumot beradi, o'z va boshqa tillardagi so'zlar ma'nosi bilan tanishtiradi, tildagi so'zlarni muayyan tartibga ko'ra tasniflaydi, tilning lug'at boyligini to'playdi va boyitadi.

MAKTAB – pedagoglar tomonidan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va kasb-hunarga o'rgatish ko'zda tutiladigan o'quv-tarbiya maskani. M.lar *boshlang'ich, tayanch, o'rta, o'rta maxsus* va *oliy* singari bosqichlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda M.lar asosan davlat mablag'i hisobiga faoliyat ko'rsatadi va bepul ta'lim beriladi. Shu bilan bir qatorda xususiy maktablar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim qisman shartnoma asosida mablag' hisobiga amalga oshiriladi.

MUSTAQIL BILIM OLISH – rasmiy o'quv dargohlaridan tashqari, o'z ixtiyori, tashabbusi va qiziqishlari asosida bilim olishga yo'naltirilgan faoliyat. M.b.o. har qanday shaxs rivojlanishidagi asosiy shart hisoblanadi. U odamda mavjud bo'lgan irsiy, biologik, aqliy va hissiy imkoniyatlarni kengaytirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. M.b.o. barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omili sanalib, ta'lim-tarbiya jarayonida olingan bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi va mustahkamlaydi.

MUSTAQIL FIKRLASH – har bir shaxsning hayotdagi voqea, hodisa va jarayonlarga o'z nuqtai nazariga tayanib munosabat bildirish salohiyati. M.f. – shaxslikning muhim belgisi. Ruhiyati, hissiyotlar olami ozod bo'lgan odamdagina M.f. mavjud bo'ladi va uni o'z vaqti hamda o'rnida bildirish ichki ehtiyojga aylanadi. Mustaqillikka erishgan o'zbek pedagogikasi uchun M.f.lay oladigan shaxsni shakllantirish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Chunki M.f. komillikka intilayotgan insonning bu yo'ldagi birinchi qadamidir. Shuning uchun ham egamanlikdan keyingi ilmiy pedagogik tadqiqotlarda ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni M.f.lay oladigan tarzda shakllantirish yo'llarini tadqiq qilishga jiddiy kirishilgan.

NAZARIYA – ilmning muayyan sohasiga oid asosiy g'oyalarni tizimi; borliqqa doir qonuniyatlar va undagi muhim aloqalar

to'g'risida bir butun ilmiy tasavvur beradigan bilim shakli. N.ning chinlik mezoni va rivojlanish asosi amaliyotdir.

PEDAGOG (yunoncha *paydagogos* – bola yetaklayman) – 1) ta'lim berish yoki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va amalga oshirish bo'yicha maxsus ma'lumot va tayyorgarlikka ega shaxs: maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi; bolalar uyi, yotoq-maktablar, tarbiya koloniyalari, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi maktabdan tashqari muassasalarning xodimlari, o'rta maktab o'qituvchilari; o'rta maxsus va oliy maktab domlari va boshqa; 2) pedagogika fanining nazariy masalalarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy xodim.

PEDAGOGIKA (yunoncha *paydagogos* – bola yetaklayman) – tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham P. deb yuritiladi. P. tarbiya va ta'limning nazariy asoslari bilan shug'ullangan. P. tarbiya jaryonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi. Tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakllari, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. *Tarbiyalash, o'qitish* va *shakllantirish* P.ning asosiy tushunchalari hisoblanadi.

PROFESSOR (lotincha *professor* – dars beruvchi, o'qituvchi) – 1) oliy o'quv yurti o'qituvchilari yoki ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlariga beriladigan eng yuqori *ilmiy unvon*. 2) oliy o'quv yurti o'qituvchilari egallaydigan *lavozim*. P. atamasi dastlab Rim imperiyasi (miloddan avvalgi I asr o'rtalari-milodiy V asr boshlari)da grammatika va voizlik maktabi o'qituvchilariga nisbatan qo'llangan. O'rta asrlarda diniy maktab muallimlari, XII asrdan boshlab, universitetlar paydo bo'lgach, universitet o'qituvchilari P. deb atalgan. O'rta asrlarda P. atamasi olimlik belgisi sifatida "magistr" yoki "fan doktori" ilmiy darajalari ma'nosini bergan. Universitetlarda kafedralar tashkil etilishi va maxsus P. lik lavozimlari joriy etilishi bilan P. oliy ilmiy daraja tushunchasidan

tashqari, universitetlarning yetakchi o'qituvchilariga beriladigan ilmiy unvonni anglatadigan bo'ldi. O'zbekistonda XX asr boshlaridan dastlabki P. unvoni berila boshladi. Fitrat birinchi o'zbek P. hisoblanadi.

REPRODUKTIV METOD (fransuzcha *reproduction* – qayta tiklash, qayta xotirlash) – o'quvchilar faoliyatida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmani qayta tiklash, xotirga olish usuli. Bu usul instruktiv metod ham deb yuritiladi. Chunki R.m.ning asosiy belgisi uning o'quvchida yangi fikrlarning vujudga keltirishidir. Ushbu metod o'quvchilar tafakkurini yangi bilimlar bilan boyitadi, mustaqil ijod qilish qobiliyatini rivojlantiradi, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. R.m. o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni samarali boshqarish, amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

REFLEKSIYA (lotincha *reflexio* – fikr yuritish, bo'lib o'tgan ni fikrlash) – bilimlarni odamning o'ziga, o'zining ichki olamiga, ruhiy sifatлари va ruhiy holatlariga qaratish bo'lib, mulohaza yuritish, o'z-o'zini kuzatish va baholashni anglatadi. Odamning o'z tutumlarini tushunish va baholashga qaratilgan aqliy-ma'naviy faoliyati. Madaniyat rivojlangan sari fikrlash ham shu darajada mantiqan to'g'ri bo'ladi.

RIVOJLANISH – tabiat va jamiyatdagi qonuniyat asosida o'zgarish, bir sifat holatidan boshqa yuqoriroq darajaga o'tish. R. natijasida obyekt tarkibining yangi sifat holati vujudga keladi. R. tabiat, jamiyat bilish tarixini tushuntirishning umumiy tamoyilidir. R.ning 2 shakli mavjud: 1) obyektning sekin-asta sodir bo'luvchi miqdor o'zgarishlari bilan bog'liq evolyutsion (tadrijiy) R. va 2) obyekt tuzilmasidagi sifat o'zgarishlardan iborat inqilobiy R.

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM – ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quvchilarning butun imkoniyatlarini ishga solgan holda ularni jismoniy, axloqiy, aqliy rivojlantirishga qaratilgan yo'nalish.

SAVODLILIK – 1) aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri; 2) odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan

og'zaki va yozma nutq malakalariga egaligi; 3) matnlarni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga egalik; 4) muayyan soha bo'yicha bilim-ga egalik (siyosiy S., texnik S., tibbiy S.). S. tushunchasining mazmun-mohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

SINF-DARS TIZIMI – maktabda o'quv jarayonini tashkil etish tizimi. Unda o'quvchilar yosh xususiyatlari va o'qish mud-datlariga ko'ra muayyan sinflarga ajratilib, ta'lim reja va dastur-ga muvofiq, asosan, dars shaklida olib boriladi. S.d.t. individual ta'lim o'rnida vujudga kelib, uning ayrim belgilari qadimgi mak-tablarda ham mavjud bo'lgan.

Chex pedagogi Y. Komenskiy (1592-1670) S.d.t.ni nazariy ji-hatdan to'la asoslab, o'qitish amaliyotiga tatbiq etgan. Uning “Buyuk didaktika” (1632), “Yaxshi tashkil etilgan maktab qo-nunlari” (1653) asarlarida o'qitishning sinf-dars tizimini har ji-hatdan asoslab berdi. Bunga ko'ra, o'quvchilarni maktabga qa-bul qilish vaqti, bola yoshi, o'qishning boshlanish va tugallan-ish payti, o'quvchilarning o'qish vaqti qat'iy chegaralanadigan, mashg'ulotlar rejaga muvofiq muayyan tartibda tashkil etiladigan bo'lgan. Tanaffus, ta'til singari tushunchalar Y. Komenskiy tav-siyalariga muvofiq joriy etilgan.

SINF RAHBARI – umumiy ta'lim maktablarida har qaysi sinf o'quvchilari jamoasi o'rtasida mas'uliyatli tashkilotchilik vazifasini olib boruvchi o'qituvchi. Boshlang'ich sinflarda S.r. vazifasini shu sinfni boshqaruvchi o'qituvchi bajaradi. O'rta va yuqori sinflarda bu vazifani maktab ma'muriyati tomonidan shu sinfda asosiy predmetdan dars beradigan yetakchi o'qituvchi ta-yinlanadi.

SINF-DAN TASHQARI ISHLAR – o'quv muassasasida-gi ta'lim-tarbiya kechimining tarkibiy qismi, o'quvchi va ta-labalarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish shakllaridan biri. S.t.i.ning yo'nalishi, shakl va usullari *yoshlarga qo'shim-cha ta'lim berishga* qaratilgan bo'ladi. Ta'lim muassasalarida

S.t.i.ning *fan to'garaklari*, yoshlarning *ilmiy jamoalari* ko'rishida tashkil etilishiga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

SINFDAN TASHQARI O'QISH – o'quvchilarning o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra mustaqil kitob o'qishlarini tashkil qilishga qaratilgan pedagogik jarayon. S.t.o'. o'quvchilarning bilimini, fikrlash doirasini kengaytiradi. S.t.o'.ni tashkil qilishdagi asosiy vositalar: darsda ovoz chiqarib o'qish, o'qituvchining suhbat, hikoya qilib berishi, o'quvchilarni qiziqtiradigan asarlar ro'yxatini taqdim etish va bq.lar.

TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM (lotincha *differentia* – farq) – umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyat yo'nalishlarini hisobga olgan holda alohida o'quv reja va dasturlar asosida olib boriladigan ta'lim turi. T.t.ning mehnat ta'limi bilan aloqasi o'quv-tarbiyaviy ishlarning muhim asosi hisoblanadi. T.t. jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy tayyorgarliklarga alohida e'tibor beriladi. Shu sababli ayrim maktablar bilim asoslarini chuqurlashtirib berishga, o'quvchilarni muayyan kasblarga yo'naltirishga mo'ljallangan bo'ladi.

TAJRIBA – borliqni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish va unga ta'sir ko'rsatish jarayoni. T. bilim, ko'nikma va malakaning birligidan iborat. Shuningdek, falsafada bilishning empirik usullaridan biri – eksperiment usuli ham T. deb ataladi. T. qadimdan falsafa tarixida muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Sharq falsafasida biror narsadagi muayyan xossa yoki xususiyatni tekshirib ko'rish maqsadida o'tkazilgan sinov ham T. deb atalgan. Kishilarning hayoti mobaynida orttirgan bilimlari, uquv va malakalari majmuasi bo'lgan T. avloddan avlodga o'tib boradi. T. fanni boyitish, nazariya va amaliyotni rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

TANQID (arabcha *naqada* – saralash, baholash ma'nosida) – 1) biror narsaga baho berish maqsadida uni tahlil qilish, muhokama qilish (masalan, adabiy tanqid); 2) muayyan narsa haqida salbiy fikr bildirish; 3) kamchiliklarni atroflicha asoslash va hal etish maqsadida bildiriladigan fikr-mulohazalar yig'indisi. Shu jihatdan T.ga taraqqiyot omili sifatida qaraladi.

TARBIYA – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

T. insonning insonligini ta'minlaydigan azaliy va abadiy qadriyatdir. Alohida odam ham, butun insoniyat ham T.siz mavjud bo'lolmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar avloddan avlodga T. tufayligina o'tadi.

TAXTAXONLIK – eski maktablarda qo'llangan o'quv ashyosi. Uzunligi taxminan 30 sm., eni 15 sm., pastki tomonida dashtagi bo'lgan yupqa silliq taxta. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyoh bilan harflarni alifbo tartibida 5 qator qilib, yozib bergan. O'quvchi muallim rahbarligida “alif, be, te, jim, he” va bq. tarzida harf nomlarini yod oladi. Alifbo o'qishdagi bu bosqichni “taxtaxonlik”, o'quv ashyosi esa “taxta” deyilgan.

TA'LIM — shaxsning ma'rifatlilik va tarbiyalanganlik darajasini orttirish orqali uning rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'rgatuvchi bilan o'rganuvchilar o'zaro birgalikda amalga oshiradigan o'quv faoliyati. Shaxsning aqliy taraqqiyotini ta'minlash niyatida yo'lga qo'yiladigan didaktik chora-tadbirlar tizimi. O'ta ko'p qirrali T. tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatish vositasi bo'lib qoldi.

TA'LIM MAZMUNI – muayyan jamiyat a'zolarini ta'lim muassasalarida mavjud ijtimoiy sharoitda hayot kechira oladigan qilib tayyorlash uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka hamda ma'naviy sifatlarni to'plami. T.m. *reja, dastur, darslik, o'quv qo'llanmasi, metodik qo'llanma, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar, axborot-kommunikatsiya vositalari* singari unsurlardan tashkil topadi. Shuningdek, T.m. tushunchasi pedagogik vositalardan foydalanish *usullarini* ham o'z ichiga oladi. Jamiyat tomonidan shaxsning ma'naviy rivojlanish darajasiga qo'yilgan

talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi, ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi. T.m. o'zgaruvchan, u doimo yangilanib boradi.

TA'LIM MAQSADI – ijtimoiy ta'limning mohiyati va uning qanday niyatlar bilan qaysi yo'nalishda amalga oshirilishi kerakligini anglatuvchi pedagogik tushuncha. Har bir jamiyat o'z a'zolarida qanday ijtimoiy, intellektual va ma'naviy sifatlarni bo'lishini istashiga qarab, ta'lim kechimining maqsadini belgilaydi. T.m. ijtimoiy sharoit va jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy talablari tabiatiga ko'ra o'zgarib turadi. O'zbekiston Respublikasida T.m. shiddatli globallashuv sharoitida o'zga shaxsiyatlar bilan muomala-munosabatga kirisha biladigan, kuchli raqobat vaziyatida muayyan kasbning egasi sifatida faoliyat ko'rsata oladigan, tinimsiz taraqqiy etib borayotgan fan-texnika yutuqlari va axborotlar oqimini o'zlashtirish uchun yetarli bo'lgan intellektual saviyaga ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor *barkamol* shaxsni shakllantirishdan iborat.

TA'LIMNING VAZIFALARI – ta'lim sohasida jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun amalga oshirilishi zarur pedagogik faoliyat va tadbirlar majmuini anglatuvchi tushuncha. T.v. ta'lim maqsadining yo'nalish va mo'ljallariga muvofiq ravishda o'zgarib turadi. Chunonchi, agar bir zamonlar har qanday bosqichdagi T.v. yoshlarga bilim berish deb hisoblangan bo'lsa, bugunga kelib, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltirish ta'lim kechimining asosiy vazifasi sifatida belgilangan.

TA'LIM TURLARI – ma'lum bir mamlakat yoki mintaqada ta'lim kechimining amalga oshirilish turlarini anglatadigan tushuncha. O'zbekiston Respublikasida

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- oiladagi ta'lim va mustaqil ta'lim kabi T. t.lari mavjud.

TA'LIMDA KO'RSATMALILIK – ta'lim kechimini yo'lga qo'yishda tayaniladigan tamoyillardan birini anglatuvchi tushuncha. Bilishning birinchi pog'onasi – jonli mushohadadan, ya'ni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni bevosita idrok etishdan boshlanadi. Ko'rsatmalilik idrok etishni, bilishni tezlashtiradi, shu bilan birga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan, hayot bilan bog'lash uchun imkoniyat yaratadi, bolalarda o'rganilayotgan muammoga qiziqishni oshiradi, mavzu yuzasidan kengroq va chuqurroq bilimga ega bo'lish uchun zamin yaratadi.

TA'LIMDAGI INNOVATSIYA – ta'lim kechimida qo'llanilayotgan yangiliklarni anglatuvchi tushuncha. Jahon pedagogik jarayoniga innovatsiya tushunchasining kirib kelishi va keng qo'llana boshlanganiga ham ancha ko'p bo'ldi. Innovatsiya atamasi “yangilik”, “isloh” ma'nolarini bildiradi, ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish, isloh pedagogik innovatsiyadir. “Innovatsiya” atamasi dastlab texnika, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga qo'llangan bo'lsa, so'nggi yillarda pedagogikadagi yangiliklarga nisbatan ham qo'llana boshlandi va pedagogik innovatsiya fan sifatida shakllandi.

T.i. pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida talqin etiladi. Bu ta'limot uch yo'nalishni o'z tarkibiga oladi. Birinchisi, *pedagogik neologiya* (yangilik haqidagi ta'limot) bo'lib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi. Ikkinchisi, *pedagogik aksiologiya* deb ataladi va bunda pedagogik yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi. Uchinchisi, *pedagogik praksologiya* deb nomlanadi va tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llab, muayyan samaraga erishish tushuniladi.

TAHLIL (arabcha *halala* – parchalash, eritib yuborish, qismlarga bo'lish) – biror narsa-buyum, voqea-hodisalarni qismlarga bo'lib o'rganish, kishilar dunyoni bilish jarayonida qo'llanadigan usul. T. tadqiqotning bir ko'rinishi sifatida qo'llanadi. Inson atrofini o'rab turgan obyektiv borliq murakkab, shu bilan birga, konkret narsa va hodisalardan iborat. Shu murakkab narsa va ho-

disalarni o'rganish, bilish, ular haqidagi tushunchalarni chuqurlashtirish uchun ularni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan qismlarga ajratib T. qilinadi. Shu ma'noda T. (analiz) *sintez* bilan uzviy bog'lanadi. Sintez, aksincha, mavjud bo'laklarni birlashtirish, yaxlit olib tekshirishdir. T. jarayonida mavjud predmet yoki hodisaning muhim jihatlarini oydinlashadi.

TEST (inglizcha *test* – sinash, tekshirish) – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi. Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. T. shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatleri, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart vositalar. Amaliyotda T. odamlarning layoqat va qobiliyatlarini aniqlashda, ularni muayyan faoliyatga saralashda keng qo'llaniladi. T. yordamida tajribaning ilmiylik darajasi, kafolatlilik, tekshiriluvchilarning mahorati, qiziqishi, to'plangan ilmiy ma'lumotlarning haqqoniyligi, ishonchlilik ko'rsatkichi bir necha mezonlar asosida aniqlanadi. T.ning nazariy asoslarini ingliz psixologi Fransis Galton ishlab chiqqan. "T." atamasini birinchi marta amerika psixologi Jeyms Kettell qo'llagan.

TUSHUNISH – obyektiv olamdagi narsa va hodisalar haqida tasavvur, tushuncha, hukmlar hosil qilish va ularni ongda mavjud bilim hamda tajribalar bilan bog'lashdan iborat aqliy jarayon. T.da insonning hissiy va nazariy tajribasida anglangan tushunchalarning tub mohiyati, asosiy sifatleri namoyon bo'ladi. T. turli shakllarda ifodalanadi. Ayniqsa, boshqa bir kishining og'zaki va yozma nutqini idrok qilish jarayonida T. alohida ahamiyatga ega.

TUSHUNTIRISH – o'rganilayotgan obyektning muhim xususiyatlarini, uning ichki tuzilishini hamda boshqa obyektlar bilan aloqasiga doir qonuniyatlarni anglatishga qaratilgan aqliy kechim. T. o'quvchilarning mavjud hissiy va mantiqiy muhokamasiga hamda tajribasiga suyanadi. T.ning samaradorligi qabul qiluvchining fikrlash qobiliyati, o'rganilayotgan obyektning xos xususiyatlarini aniq ko'rsata bilish, uning amaliy ahamiyatini o'quvchilar ongiga yetkaza bilish bilan belgilanadi.

TO'GARAK ISHLARI – ta'lim oluvchilarni *qo'shimcha o'qitish* shakllarini anglatuvchi atama. T.i. maktab, akademitsey, kollej, institut, universitet kabi ta'lim muassasalari va o'quvchilar saroyi, madaniyat uyi, axborot-resurs markazlari, ijodiy uyushmalar, klublar singari *qo'shimcha ta'lim tashkilotlari qoshida darsdan tashqari mashg'ulotlar* tarzida yo'lga qo'yiladi.

UZLUKSIZ TA'LIM – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining yetakchi tamoyillaridan biri. U.t. tizimi *maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni* o'z ichiga oladi.

UMUMIY TA'LIM – 1. Kasbi va turmush tarzi qandayligidan qat'i nazar tabiat, jamiyat, tafakkur, san'at, ma'naviyat bo'yicha har bir kishi egallashi zarur bo'lgan bilim asoslari, shuningdek, har bir odamda hayotda qiynalmay yashashi uchun shakllantirishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar yig'indisi. 2. Ma'lum yoshdagi barcha bolalarning muayyan bilimlar minimumini beradigan maktablarda ma'lum vaqt mobaynida majburiy ta'lim olishi. U.t.ni egallash kishiga ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, unda olamni bilish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, U.t. kasbiy ta'limning poydevori bo'ladi.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI – mamlakat yoshlarida tabiat, jamiyat, dunyoqarash, san'at va mehnat borasidagi ilmiy tushunchalar shakllantirishga asos bo'ladigan bilim hamda ularning keyinchalik kasbiy yoki politexnik ta'lim olishlari uchun yetarli darajadagi ko'nikma va malakalar shakllantirilishiga yo'naltirilgan majburiy ta'lim muassasasi. O'zbekiston Respublikasida o'n bir yillik (I-XI sinflar) U.o'.t.m. tegishli yoshdagi bolalar va o'smirlar uchun majburiydir. U.o'.t.m. *boshlang'ich* (I-IV sinflar) va *tayanch* (V-IX sinflar) va *o'rta* (X-XI

sinflar) singari uch bosqichdan iboratdir. Akademik litseylar ham U. O' o' t.m. maqomiga tenglashtiriladi.

USULI SAVTIYA – tovush metodi, tovushning grafik belgisi – harflar yordamida savodga o'rgatish usuli. Shuning uchun bu metod tovush – harf metodi deb yuritiladi. Bu metodga ko'ra musulmon o'lkalaridagi maktablarda o'quvchilarning hijo usulida emas, balki har bir tovushning belgisi bo'lmish harf orqali savod chiqarishi yo'lga qo'yilgan. U.s. metodida so'z dastlab tovushlarga – harflarga bo'linib, tahlil qilinadi, so'zdagi tovushlar – harflarni qo'shib sintez qilinadi. So'zni tovushlarga bo'lish va ularni o'qish orqali o'rganilayotgan tovush-harflar o'quvchilarga tushuntiriladi.

FAKULTATIV MASHG'ULOTLAR (fransuzcha *facultas* – imkoniyat, qobiliyat) – Umumta'lim maktablari o'quvchilari-ning istak-xohishlariga muvofiq biror o'quv fani yuzasidan ularning bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida ixtiyoriy asoslarda uyushtiriladigan pedagogik tadbir turi. Umumta'lim maktablariga F.m. 1967–1968-o'quv yilidan e'tiboran o'tila boshlangan. Maktablardagi F.m. o'quvchilarga o'quv rejasi va dasturlarida berilishi ko'zda tutilgan bilimlarga qo'shimcha hisoblanadi.

“FIKRIY HUYUM” METODI – muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod, mashg'ulot ishtirokchilarini muammo ustida atroflicha fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari, g'oyalariidan ijobiy foydalanish sohasida ma'lum ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiruvchi usul. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha tabiiy yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. F.h.m. tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

XALQ PEDAGOGIKASI – tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar yig'indisi. Biror jami-

yatda yashash uchun odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, etiket, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari empirik vositalarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyat. X.p. ilmda *etnopedagogika* deb ham yuritiladi. X.p. talablarining bajarilishi ko'pchilik tomonidan o'z-o'zidan, tabiiy ravishda nazorat qilinadi. Ilmda X.p.ning 1) *qadimiylik*; 2) *amaliy xususiyatga egalik*; 3) *anonimlik*; 4) *sinkretiklik*; 5) *keng yoyilganlik*; 6) *turmush tarzida namoyon bo'lish* singari olti xususiyatga egaligi aytiladi.

XRESTOMATIYA, m a j m u a (yunoncha *xresto* – foydali va *matiy* – o'qish; arabcha *majmua* – yig'indi, to'plam ma'nolarini ifodalovchi so'z) – ta'limning biror sohasi bo'yicha muayyan ichki tamoyillar asosida tartib berilgan o'quv kitobi. X. o'zbek tilida “majmua” deb ham yuritiladi. Ular ilmiy, badiiy, memuar, publitsistik asarlar yoki ulardan olingan parchalar yoxud turli hujjatlardan iborat bo'lishi mumkin. Odatda, X.ga kiritilgan materiallar ayni turdagi maktabda o'qitiladigan muayyan o'quv predmetining maqsadiga muvofiq tarzda tanlanadi. Umumta'lim maktablari amaliyotida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi deyarli barcha fanlar bo'yicha X.lar tuzish tajribasi mavjud. Ular o'quvchilarda mustaqil o'qish va ilmiy adabiyotlardan foydalanish malakasini shakllantirish jihatidan katta ahamiyat kasb etadi.

SHAXS – alohida individ, mohiyatan yaxlit, o'ziga xos ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarga tayanib yashaydigan odam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Sh. ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, qarama-qarshi, ziddiyatli, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

ELEKTRON DARSLIK – qog'oz kitoblar o'rniga elektron axborot vositalarida darslik matni, takrorlash, mustahkamlash

va nazorat uchun savol-topshiriqlar, tegishli illyustratsiyalardan tashqari, mavzular bo'yicha videoroliklar, audioyozuvlar, virtual laboratoriya va boshqa bir qancha qo'shimcha materiallar jamlangan didaktik ashyo.

O'SMIRLIK – bolaning 10-11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davri. Bu davr bolalikdan balog'atga o'tish davri ham deyiladi. O'. davri turli bolalarda turlicha: goh tezkorlik bilan, goh sustroq kechishi mumkin. O'. insonning aqlan va jisman o'sishida muhim bosqich hisoblanadi. O'. yoshida bola mustaqil ko'rinishga intiladi, kattalar uning huquq va imkoniyatlarini e'tirof etishlariga kuchli ehtiyoj sezadi. O'. yoshidagi bola jismida katta biologik o'zgarishlar sodir bo'ladi: jinsiy rivojlanish tezlashadi. Bu hol qiz bolalarda 11-13, o'g'il bolalarda 13-15 yoshlarda ancha faol kechadi. Akseleratsiya (rivojlanish jarayonining tezlashishi) natijasida ayrim bolalarda O'. davri 2-3 yil oldin boshlanishi ham mumkin.

O'SPIRINLIK – shaxs umrining 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davri. Bu davr *katta maktab yoshi* ham deb yuritilgan. Bu davr so'ngida, odatda, yigit-qizlar jismoniy jihatdan balog'atga yetadilar. O'smirlik davridagi shiddatli o'sish o'rniga O'. bosqichida inson vujudining sokin taraqqiyoti kuzatiladi. O'.da jinsiy balog'atga erishiladi, o'smirlik yoshidagi yurak va tomirlar taraqqiyotidagi nomuvofiqlik o'rnini ichki sekretsiya bezlarining ritmik ishlashiga, qon bosimining bir xilligi egallaydi. O'.da vujudning o'sishi sekinlashib, muskullar rivojlanadi, kuch ko'payib, ko'krak qafasi hajmi sezilarli kengayadi, gavda va undagi muchalarning shakllanishi nihoyasiga yetadi. O'.da kishining o'z-o'zini anglashi, o'z hayoti va mehnat faoliyati yo'nalishini tanlab olish jarayoni ro'y beradi.

O'QITISH METODLARI (yunoncha *methodos* so'zidan olingan bo'lib, yo'l; tadqiqot, o'qitish, bayon etish usuli; xatti-harakat usuli; usul, usullar yig'indisi ma'nolarini anglatadi). Ta'lim metodi tushunchasi o'z ichiga o'quvchi, o'qituvchi va ta'lim mazmuni singari unsurlarni qamrab olib, *muayyan ta'lim*

mazmunining o'quvchilar tomonidan o'qituvchi rahbarligida o'zlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni anglatadi. Metod pedagogik kategoriya sifatida ko'zda tutilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsadiga erishish yo'llarini bildiradi. O'qitish jarayonida metod qo'llanishi uchun a) o'quvchilar, b) o'qituvchi, v) o'zlashtiriladigan mazmun kabi uch unsur bo'lishi kerak.

O'QUV ADABIYOTI – fanda isbotini topgan va ilmiy bahsga o'rin qoldirmaydigan haqiqatlar didaktik talablarga muvofiq bayon etilgan hamda ta'limning turli bosqichlarida tahsil ko'rayotgan o'quvchilarga mo'ljallab chiqarilgan adabiyotlar. O'.a. uzluksiz ta'limning turli bosqichlaridagi ilm toliblarining yosh, jismoniy, ruhiy va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda barcha gigiyenik talablarga muvofiq tarzda yaratiladi.

O'QUV DASTURI – ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni, hajmi va o'tilish tartibini, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda O'.d. tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Har bir O'.d. uqtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqacha bayoni, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat bo'ladi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'.d.ning muhim belgisidir. Chunki ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amaliyotida O'.d. yaratishning *konsentrik* (markazlashgan) hamda *tizimli* usullari bor.

O'QUV YILI – o'quv yurtlarida mashg'ulot boshlanishidan yozgi ta'tilgacha bo'lgan davr. O'.y. *ta'limning sinf-dars tizimi* joriy etilishi munosabati bilan dastlab 16-asr oxiri 17-asr boshlarida Kunbotish mamlakatlarida belgilangan. Bungacha bolalar maktablarga har xil vaqtlarda kirib o'qiyverganlar, mashg'ulotlar

yil bo'yi, ta'tilsiz olib borilgan. An'anaviy eski o'zbek maktablari-da o'quv yilining boshlanishi va tugashi qat'iy belgilab qo'yilgan emas. Jadid maktablarida, xususan, Munavvarqori maktabida O'.y. 1-sentabrdan belgilangan.

O'QUV REJASI – har qanday o'quv yurtlarida o'qitiladigan fanlar, ularning o'qitilish vaqti hamda har bir fanning yil davomida o'qitilish tartibi, ularning o'quv haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligi belgilab beriladigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda O'.r. tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdagi o'quv yurtlari uchun O'.r. yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir o'quv yurti O'.r.ni belgilangan miqdorda o'zgartirish huquqiga ega. Shuningdek, mamlakatdagi tayanch oliy o'quv yurtlari uchun o'ziga xos O'.r.ga ega bo'lishga ruxsat etilgan. O'.r.ning umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolari uchun ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi.

O'QUV FANI – turli yo'nalishdagi o'quv yurtlarida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish va boshqa sohalar bo'yicha ta'lim oluvchilar o'zlashtirishlari zarur deb tanlab olingan bilimlar tizimi aks etgan pedagogik ashyo. Har bir O'.f.ning mazmuni tayyorlangan *ta'lim davlat standarti* (TDS), *o'quv dasturi* va *darsliklarda* aks etadi. O'.f.lari maqsadiga ko'ra, o'quvchilarning umumiy intellektual saviyasini ko'tarishga qaratilgan *umumta'lim* (umumilmiy) hamda mutaxassis tayyorlashga yo'naltirilgan *maxsus* kabi turlarga ajraladi.

O'QUV CHORAGI – o'quv yilining to'rtidan birini anglatuvchi tushuncha, o'quv kechimining ma'lum darajada tugallangan bo'lagi. Umumiy o'rta ta'limda o'quv yili 4 chorakka bo'linadi.

HARF – nutq tovushlarining yozuvdagi ifodasini berish uchun xizmat qiladigan alifbo qatoridagi belgi. Har bir H. bir tovushni bildiradi, lekin turli sabablarga ko'ra yozuvda bir harfning bir necha tovushni yoki bir tovushning bir necha harf orqali ifodalanishi uchrab turadi. H.lar yozilish shakliga ko'ra *bosh H.* va *kichik H.* singari ikki xil bo'ladi. *Bosh H.*larning ayrimlari hajm, ba'zilar shakl jihatidan ham kichik H.lardan farq qiladi va imlo qoidalari asosida tegishli tarzda yoziladi.

MUNDARIJA

| | |
|-----------------|---|
| So'zboshi | 3 |
|-----------------|---|

1-bo'lim. "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining metodologik asoslari, shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari

| | |
|--|----|
| "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining xususi- yatlari | 8 |
| Turkistonda adabiyot o'qitish tarixi | 15 |
| O'zbekistonda zamonaviy adabiyot o'qitish metodikasining paydo bo'lishi va o'sish bosqichlari | 23 |

2-bo'lim. O'zbek adabiyotini o'qitishning umumnazariy masalalari

| | |
|---|-----|
| Adabiy ta'lim asoslari | 40 |
| Adabiyot o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish | 51 |
| Adabiyot o'qitish metodlari | 68 |
| Konstruktivizm falsafasi, hamkorlik pedagogikasi va ada- biyot o'qitishning interfaol usullari | 76 |
| Pedagogik innovatsiya va uning adabiy ta'limdagi o'rni | 93 |
| Adabiyot o'qitishda muammoli ta'limni qo'llash | 101 |

3-bo'lim. Saboq – adabiyot o'qitishning asosiy shakli

| | |
|--|-----|
| Adabiyot saboqlari | 121 |
| Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatish yo'llari | 132 |
| Ijodkor umr yo'lini o'rgatish metodikasi | 144 |
| Adabiyot darslarida o'quvchilarning bilimlarini baholash | 157 |
| Uyga topshiriq berish, tekshirish va baholash metodikasi | 177 |
| Kirish va yakuniy mashg'ulotlar | 187 |

| | |
|--|-----|
| Adabiyot saboqlarida sharhli o'qish | 193 |
| Ifodali o'qish metodikasi | 204 |
| Adabiyot o'qitishda ko'rsatmali qurol hamda multimedia vositalarini qo'llash | 209 |

4-bo'lim. Adabiy ta'limda badiiy asar tahlilining o'rni

| | |
|--|-----|
| Badiiy asarning o'quv tahlili | 222 |
| Tahlilda badiiy asarning tur va janriga xos belgilarni hisobga olishning o'rni | 236 |
| Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari | 252 |
| Epik bitiklarni tahlil qilish metodikasi | 266 |
| Dramatik asarlarni tahlil qilish usullari | 278 |

5-bo'lim. Adabiyot o'qitishda yozma ishlarning o'rni

| | |
|---|-----|
| Adabiyot bo'yicha yozma ishlarning turlari va ularni o'tkazish yo'llari | 291 |
| Adabiyot bo'yicha yozma ishlarni tekshirish va baholash | 300 |

6-bo'lim. Adabiyot bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar

| | |
|---|-----|
| Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar | 310 |
| Adabiyot bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar | 320 |
| Adabiyot to'garaklari faoliyatini tashkil etish | 328 |

7-bo'lim. Adabiyot o'qituvchisi va uning saboqlarga tayyorgarligi

| | |
|---|-----|
| Adabiyot saboqlarini rejalashtirish | 336 |
| Adabiyot saboqlarini kuzatish va tahlil qilish..... | 346 |
| Adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi va imijiga qo'yiladigan talablar | 353 |
| Glossariy | 371 |

O'quv nashri

**QOZOQBOY YO'LDOSH,
MUHAYYO YO'LDOSH**

**O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH
METODIKASI**

*Muharrir Habib Abdiyev
Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov
Musahhah Adolat Mustafoyeva
Sahifalovchi Zilola Aliyeva*

Nashriyot litsenziyasi raqami AI № 290. 04.11.2016.

2022-yil 20-dekabrda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. "Times New Roman" garniturası.

Ofset bosma. 20,80 shartli bosma taboq. 21,22 nashr tabog'i.

Adadi 1000 nusxa. 168-raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

Telefonlar: (371) 241-25-24, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz **info@gglit.uz**



ISBN 978-9943-8835-2-9



9 789943 883529